# O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

## OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

## NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**TARIXI KAFEDRASI**

# JAHON TARIXI

FANIDAN

## O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo’yicha) yo’nalishi

Namangan - 2023

Mazkur majmuada “Jahon tarixi” faniga doir me’yoriy ta’minoti (o‘quv dasturi, ishchi fan dasturi, atamalar, testlar) o‘z aksini topgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim muassasalarining professor o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga mazkur o‘quv-uslubiy majmuadan ilmiy tadqiqotchilar hamda “Jahon tarixi ” fani bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tuzuvchi:**
Rejabboyev.N - NamDU, Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi, (PhD).
“Jahon tarixi ” fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua.
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 2023 yil 28 avgust yig’ilishida ko’rib chiqilgan.

O’quv-uslubiy majmua “Jahon tarixi ” fanini o’qitadigan oliy o’quv yurtlari bakalavriat yo’nalishidagi o’quv muassalarining professor-o’qituvchilari va talabalari uchun mo’ljallangan.

**Taqrizchilar**:

A.N.Rasulov – NamDU, Tarix kafedrasi t.f.d., professor.
B.R.Isoqov – NamDU, Arxeologiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Fanning o’quv-uslubiy majmuasi Namangan davlat universiteti Kengashining 2023 yil 27 avgustdagi 1-sonli bayonmasi bilan ko`rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **1** | **O`quv materiallari. Ma’ruzalar matni** | **3-146** |
| **2** | **O`quv materiallari. Seminar mashg‘ulotlari** | **147-169** |
| **3** | **Fan va texnika tarixi fanining namunaviy dasturi** | **171-195** |
| **4** | **Mustaqil ta'lim mashg‘ulotlari** | **196-197** |
| **5** | **Glossariy** | **198-206** |
| **6** | **Zaruriy va tarixiy ma`lumotlar va xronologiyalar** | **207-211** |
| **7** | **Test savollari** | **121-214** |

**Kirish. Varvar qirolliklarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. (4 soat)**
**Reja :**

1. **Varvarlarning ijtimoiy tuzumi. Keltlar, germananlar, slavyanlar.**
2. **Rim imperiyasi xududida vujudga kelgan varvar korolliklari**
3. **G'arbiy rim imperiyasining qulashi.**

## 1. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi va keltlar, germananlar, slavyanlar.

Italiyadan Shimolda juda qadimgi vaqtda Yeramizning birinchi yuz yilligida juda ko'p varvar qabilalari yashagan; bu qabilalar uchta katta gruppaga: keltlar, germananlar va slavyan-larga bo'lingan edi. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi Rim quldorlik tuzumiga butunlay qarama-qarshi edi. Ularda hali ijtimoiy sinflar tarkib topmagan edi, haqiqiy ma'nodagi davlat yo'q edi; varvarlarda urug'chilik munosabatlari hali ijtimoiy munosabatlarning asosiy turi edi; bu qabilalar aholisining asosiy ommasi erkin kishilardan iborat edi, garchi urug' boshliqlari va harbiy zodagonlar bu erkin kishilardan yuqori tursa ham, lekin hali ularking o'rtalaridagi munosa-batlar sinfiy, antagonistik tue olmagan edi.

Bu tuzum ibtidoiy-jamoa tuzumi bo'lib, Yeramizping IV—V asrlarida anchagina chirigan edi, lekin Shunday bo'lishiga qa-ramay, urug'chilik munosabatlari ham, ishlab chiqarish vosita-larining ijtimoiy mulkligi (jamoa Yer egaligi) ham hali bu-tunlay yo'qolmagan edi.

Rim mana Shu varvar qabilalariga qarshi yuzlarcha yil davomida kurash olib bordi. Rimning varvarlar ustidan g'alaba qilishi natijasida varvarlarning kupi qullarga aylanti-rildi. Varvarlarning Shimoliy chekka o'lkasi uzoq vaqtgacha Rimga o'z quldorlik latifundiyalarini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadigan asosiy manba bo'lib keldi.

**Keltlar.** Rim dastavval keltlar bilan to'qnashdi. Kelt qabilalari Yeramizdan oldingi birinchi ming yil o'rtalarida va ikkinchi yarmida ayniqsa G'arbiy Yevropaning ancha katta teretoriyasiga o'rnashib olgan edi. Yeramizdan oldingi VI—III asrlarda ular hozirgi G'arbiy germananiyada va Fransiyada (galliyaliklar), Ispaniyada (kelt-ibYerlar), Irlandiyada (irlar yoki eyrlar va skottlar), Angliyada (brittlar), Shuningdek, SHveysariyada (gelvetlar) va Shimoliy Italiyada (Sizalpiya Galliyasida) o'rnashgan zdilar. Kichik Osiyoda keltlar Yeramizdan oldingi III asr o'rtalarida davlat tuzdilar, bu davlat Gallatiya deb ataldi.

Shunisi qiziqki, hozirgi zamoy Yevropasida eng ko'p tarqal-gan bir qancha teografik nomlar — dare nomlaridan Reyn va Dunay, tog'larning nomlaridan — Alp va boshqalar, xalqlar-ning nomlaridan — britanliklar (brittlar), germananiyaliklar ( germananlar) va hokazolar keltlardan qolgan nomlardir.

Yuz yillar mobaynida keltlar — gallar degan nom rimlik-larni dahshatga oolib keldi. Yeramizdan oldingi IV asr boshlarida (390 y.) gallar Urta Italiyaga bostirib kirib, Rimgacha etib bordilar va unga o't qo'ydilar. Yeramizdan avvalgi II asr oxirida Mariya vaqtidayoq kimvrlar va tevtonlar (qisman gallar, qisman germananlar) hujumi natijasida Rim respublikasi ularga zarba berish uchun butun kuchini safarbar qilishga maj-bur bo'lgan edi. Lekin keyin rimliklarning o'zlari hujumga o'tdilar. Yeramizdan avvalgi 121 yilda rimliklar Janubiy Galliyaning bir qismini bosib oldilar, Galliyaning bu qismi Narbonni Galliyasi yoki Provinsiyasi deb ataldi. Yeramizdan avvalgi 58 yilda YUliy Sezar butun Transalp Galliyasini bosib olishga kirishdi va 51 yilda batamom bosib oldi. Bu vaqtda keltlarni germanan qabilalari G'arbiy germananiyadan ham butunlay siqib chiqardilar. Reyn keltlar bilan germananlar o'rtasidagi chegara bo'lib qoldi.

Boshqa kelt qabilalariga (masalan, Britaniya yoki Irlandiya keltlariga) qarama-qarshi o'laroq Galliya keltlarining urug'chilik tuzumi rimliklar hali ularni bosib olmasdan ilga-

riyoq anchagina chirigan edi. Ularda kuchli va boy urug'-qabila zodagonlari bor edi (bularni Sezar «chavandozlar» deb atagan edi), bu zodagonlar eng yaxshi Yerlarni bosib olgan zdilar va ularning ko'p qullari bor edi. Ularda juda ko'p drujinachilar bor edi. Galliyaliklarning urug' jamoalari (plebs)dagi oddiy a'zolarining ko'pchilik qismi ham zodagonlarga qaram edi. Bu qaramlikni Sezar Rim klientelasi bilan tenglash-tirar edi. Galliyaliklar dini tarkib topayotgan

sinfiy jamiyatning belgilarini aks ettirar edi. Druidlar deb atalgan kohinlarning qudratli uyushmasi katta siyosiy ahamiyatga ega edi, bu uyushma Galliyada qabilalar oʻrtasida uzluksiz ravishda chiqib turadigan janjal va nizolarni hal qilishda umum Galliya sud tribunali rolini oʻynar edi.

Rimliklar tomonidan istilo etilgan Galliya tez orada romanlashib ketdi. Galliyada rimliklarning katta Yer egaligi va quldorligi mustahkam qaror topdi. Aholisi gallardan-rimliklardan iborat juda koʻp. Shaxarlar vujudga keldi. Rim yoʻllari Galliyaning har tomonidan kesib oʻtgan edi. Latin tili mahalliy kelt shevasini siqib chiqardi. Gallar oʻz gʻoliblarining diniga kirdilar, rimcha nomlarni qabul qildilar, rimcha kiyinishni va rim urf-odatlarini oʻzlashtirib oldilar. Xiyla qisqa muddat ichida (I asr va II asr boshlarida) Galliya Italiya bilan qalin aloqada boʻlgan Rimning eng koʻp romanlashgan viloyatiga aylandi.

Yeramizdan avvalgi I asr oxirlarida (Avgust zamonida) rimliklar Ispaniyani tamoman istilo etdilar, bu Yerdagi mahalliy aholi ham Galliyaga qaraganda kamroq darajada boʻlsa-da, lekin anchagina romanlashtirildi. Jumladan, alohida ibYeriya til gruppasiga mansub boʻlgan baskaklardan iborat yarim orolning Shimoliy qismi deyarli romanlashtirilmagan oblastligicha qolavYerdi. Yeramizping I asri oʻrtalarida (Imperator Klavdiya zamonida (Britaniya ham) Britaniyani istilo etish YUliy Sezar yurishlaridanoq boshlangan edi) rimliklar tomonidan bosib olindi. Lekin rimliklar Britaniyaning bir qisminigina bosib olgan edi. SHotlandiya ham, Irlandiya ham, Uels ham Rim Yerlari sostaviga kirmagan edi. Britaniya Rimdan ancha uzoqda boʻlgani tufayli, Galliyadagiga va hatto Ispaniyadagiga qaraganda ancha kam darajada romanlashtirildi, buning ustiga rimliklarning Britaniyada hukmronlik qilishi ham uncha uzoqqa choʻzilmadi. V asrning boshlarida rim legionlari Britaniyadan olib chiqib ketildi. Britaniya keltlari bir qancha vaqtgacha yana mustaqil boʻlib oldilar.

Shunday qilib, keltlar oʻrta asr Yevropasining tashkil topishida anchagina muhim rol oʻynadilar. Keltlarning juda koʻpchiligi oqibat-natijada rimliklarga boʻysungan boʻlsalar-da, lekin ular varvarlar ichida birinchi boʻlib, rimliklarga qattiq qarshilik koʻrsatdilar. Rimliklar ularga uzoq vaqtgacha qattiq taʼsir koʻrsatib keldilar, buning natijasida Rim sivilizatsiyasi Shimoli-Gʻarbiy Yevropaning eng uzoq chegaralarigacha borib etdi. Urugʻchilik tuzumining baʼzi xususiyatlari (xususan urugʻchilikka asoslangan jamoa Yer egaligi) oʻrta asrlarga kelt-lardan oʻtdi, masalan, Irlandiyada, SHotlandiyada, Urta asr Angliyasining baʼzi oblastlarida (Uelsda), fransuz Bretanida Shunday boʻldi. Bir qancha etnik va tal elementlari Gʻarbiy Yevropadagi koʻpgina xalqlarga - fransuzlarga, irlavdlarga, inglizlarga, ispanlarga kelglardan oʻtdi, lekin bu xalqlarning tashkil topishida keyinchalik boshqa qabilalar (koʻproq germananlar) ham katta rol oʻynadilar. Romanlashtirilgan boʻlsalarda, Rim imlYeriyasini tor-mor qilishda kelt qabilalari ham aktiv qatnashdilar.

Rim hukmronligidan birtina Britaniya qutulib qolmadi, balki Shimoliy Galliya (keyinchalik Bretani deb nom olgan Armorika yarim oroli) ham, Shimoliy Ispaniya ham haqiqatda Rim imperiyasiga qarshi kurashdi va Rim hukmronligidan germananlar, slavyanlar va hokazolardan iborat boshqa varvar qabilalari Rimga qarshi birdaniga hujum qilgan vaqtda qutulib qoldilar.

Qadimgi germananlar. Bir qancha Rim yozuvchilarining asarlaridan qadimgi germananlar haqida ancha mufassal maʼlumotlarga egamiz. YUliy Sezar oʻzining Galliya urushi haqidagi esdaliklarida (Yeramizdan avvalgi 50- yil atrofida yozilgan) germananlarning turmushini mufassal bayon qilgan. Rim tarixchisi Tatsit germananlar haqida maxsus bir etnografik ochYerk yozgan, bu ochYerk odatda « germananiya» deb ataladi[1] (Yeramizning 100-yili atrofida yozilgan). Antik dunyo avtorlaridan Pliniy, Plutarx va boshqalar ham germananlar toʻgʻrisida asarlar yozgan. Bularning aoarlaridan bizga dastavval Shu narsa maʼlum boʻldiki, germananlar gʻarbda Reyn bilan, Sharqda Visla oʻrtasidagi, Shimolda Shimoliy dengiz bilan Baltika dengizi oʻrtasidagi, janubda Alp toglari bilan Dunay daryosi oʻrtasidagi teretoriyada, Shuningdek, (dkandinaviyada oʻrnashgan. Ular koʻpdan-koʻp Sharqiy va gʻarbiy germanan qabilalariga boʻlingan (gʻarbiy qabilalar bilan Sharqiy qabilalar oʻrtasidagi chegara Elba daryosi boʻlgan). Sezar va Tatsit zamonlarida eng katta ahamiyatga ega boʻlgan qabilalardan svevlarni, Reyn boʻyida yashagan bir qancha qabilalarni (hamavlar, sukambrlar, xettlar, xYeruskilarni), Elba

orqasida va Baltika dengizi bo‘ylarida yashagan bir qancha gotvandal qabilalarini, Dunay bo‘yida yashagan kvadlar bilan markamonlarni va boshqa qabilalarni avtorlar juda ko‘p tilga oladilar. germananlarning ijtimoiy tuzum (asosan Sezar tomonidan ta’riflangan svevlar qabilasining ijtimoiy tuzumi) 150 yil o‘tgandan keyin Tatsit tomonidan ta’riflangan germananlar tuzumidan ancha farq qiladi;

ko‘p jihatdan esa bu ikkala avtor bir-birining fikrini to‘ldiradi. Sezarning ta’rificha, germananlar hatto juda ham aytarli darajada o‘troqlashmagan kishilar edi. Ularning dehqonchiligi u vaqtda ibtidoiy dehqonchilik bo‘lib, ekin partov Yerlarga ekilar edi. Yer sal-pal yumshatilib, bir-ikki yil surunkasiga ekin ekilgandan keyin, dehqonlar bu Yerlarni tashlab, boshqa joyga ko‘chib ketar edilar. Sezarning aniq ko‘rsa-tishicha, Yerning o‘zi hali xususiy mulk emas edi: «Ularda Yer xususiy mulk qilib bo‘lib olingan emas, ular bir joyda bir yildan ortiq tura olmaydi ham»... ( germananlardan) hech kimning,deb davom etadi u, o‘ziga xususiy mulk qilib aniq o‘lchab berilgan Yer uchastkasi yoki mulki yo‘q, lekin amaldorlar va boshliqlar urug‘larga va birga yashovchi elatlarga har yili kerakli joydan va kerakli miqdorda Yer ajratib berardilar...». Bu narsa Yerning urug‘ mulki bo‘lganligini juda ochiq ko‘rsatib turibdi. Sezar zamonidagi germananlar hayotida chorva-chilik bilan ovchilik katta rol o‘ynar edi: «Ular ( germananlar) dehqonchilik bilan Shug‘ullanishga u qadar qiziqmaydilar... Ular nondan ko‘ra sut, pishloq va go‘shtni ko‘proq iste’mol qiladilar» (Sezar). Korol hokimiyati bu vaqtda faqat ba’zi germanan qabilalaridagina bor edi, o‘shanda ham faqat harbiy ahamiyatga ega bo‘lib, vaqtincha hukm surar edi. Korollar urush vaqti uchungina saylanar edi. Tinchlik vaqtida urug‘ va qabilalarni urug‘ va qabila oqsoqollari va boshqalari (principes) idora qilar edi.

Tatsit germananlarning ancha yuksak taraqqiy qilgan davrini ta’riflaydi. Tatsit ularni butunlay o‘troqlashib qolgan aholi edi, deb ko‘rsatadi. Ularning qishloq va xutorlari bor. Ular endi "Sezar zamonidagiga qaraganda ancha qunt bilan dehqonchilik qila boshladilar, bekor yotgan Yerlarni ishga soldilar, o‘rmon daraxtlari kesilib, ekinzorga aylantirildi. Ularning dehqonchilik quroli og‘ir plug edi. Tatsitning ta’rifidan ma’-lumki, germananlar hunarmandchilikning asosiy turlari: temir-chilik, to‘qimachilik va quldorchilikni, temir va boshqa metallarni olishni bilganlar. Biroq ulardagi ijtimoiy tuzum arxaikligicha qolavYergan.

Tatsit zamonida ham germananlarda Yer xususiy mulk emas edi. Yerning bosh xo‘jayini (va egasi) urug‘ va qabila edi. Biroq Shu bilan bir vaqtda germananlarda Yerdan yakka tartibda foydalanish ham avj oldi. Shunisi xarakterliki, Tatsit zamonida Yer turli oilalar o‘rtasida teng taqsimlanmas edi. «Yer,— deb yoza-di Tatsit,— dehqonlarning soniga qarab navbatmanavbat hamma uchuy beriladi»so‘ngra ular Yerni o‘z o‘rtalarida mavqelariga qarab taqsimlab oladilar...». germananlarda urug‘chilik tuzumi Tatsit zamonida ham katta rol o‘ynadi. Yerga urug‘ uyushmasi xo‘jayinlik qilar edi. Janglarda urug‘-aymoqlar yonma-yon turib, jangovar saf tortardilar. Urug‘doshlariga birov ozor bYerguday bo‘lsa, urug‘ a’zolari o‘ch olishga (urug‘ uchun o‘ch olishga) majbur edi. Nikohlash, yosh germananning balog‘atga etgakligini ma’lum qilish, mulkdan mahrum qilish va mulk berish, sud ishlarini ko‘rish va har turli janjallarni tekshi-rish ishlari urug‘ a’zolari o‘rtasida hal qilinar zdi.

Biroq Tatsit zamonidagi germananlar urug‘ida chirish alomatlari ro‘yberganedi. Urug‘ zodagonlari oddiy germananlardan (Sezar zamonidagiga qaraganda ancha ustun turar edi. Tatsitning o‘zi ham «zodagonlar» (nobilitas)mi oddiy xalqqa (plebs) qarama-qarshi qo‘yadi. Eng yaxshi Yerlar zodagonlar qo‘lida edi. Zodagon germananlar odatda qullarni ishlatar edilar (bu qullarning ko‘pchiligi urushda asir olingan kishilar edi). Birok., germananlardagi qulchilik Rim kazarma qulchiligiga qaraganda ibtidoiy, patriarxal tusda edi. Qul o‘z oilasi bilan unga ajratib berilgan alohida Yer uchastkasida yashab, o‘z xo‘jayiniga mahsulot bilan obrok to‘lab turishga majbur edi. Qulchilik-ning-bu formasi keyingi vaqtlarda, krizis davrida Rim quldorlari ham joriy qila boshlagan quldorlik formasiga («Qulbali qullar» yoki «obrokchi qullar»ga) birmuncha o‘xshar edi. germananlardagi patriarxal qulchilik ham keyingi feodal krepostnoy tuzumga qarab rivojlanish yo‘lidagi bosqichlardan biri edi.

germananlarda qabila zodagonlarining qudrati harbiy ishning avj olishiga ham asoslangan edi. Zodagonlarning drujinachilari bo‘lar edi. Qo‘shni germanan qabilalari va germanan bo‘l-

magan qabilalar bilan uzluksiz urushlar olib borish bu harbiy boshliqlar va ularning drujinachilari uchundoimiy bir kasb tusini olgan edi. Urushda asir olib, qulga aylantirish va boshqa xil o‘ljalar bu harbiy zodagonlarning boyishi.uchun bir maiba bo‘lgan edi, Shu tariqa ular alohida imtiyozli har-biylar sosloviesi bo‘lib tashkil topgan edilar. Harbiy boshliqlar orasidan umrbod korollar saylanardi, bu korollar o‘z hokimiyatlarini mYeros qilib qoldirishga harakat qilardilar. Shu bilan birga, odatda xalq (piyoda) lashkarlarining juda ko‘pchiligini tashkil qilgan oddiy jangchi- germananlar hali ma’lum darajada siyosiy ahamiyatga ega edilar. Urug‘ zodagonlari va harbiy zodagonlar har qancha kuchayib borgan bo‘lsalar-da, bari bir, ular oddiy jangchilarning fikri bilan hisoblashishga majbur edilar; kattaroq urushlarning oqibati Shu oddiy lsangchilarga bog‘liq edi. Biz Tatsitning germananlardagi harbiy yig‘ilishlarni ta’riflab yozgan asariga egamiz. Bu yig‘ilishlarda qatna Shuvchilarning asosiy ommasi oddiy jangchilardan iborat bo‘lib, ular harbiy boshliqlarning va zodagonlarning takliflari to‘g‘risida juda qizg‘in fikr bildirar edilar, bu takliflarni goh ma’qullar edilar, goh qurollarini pesh qilib rad etar edilar. Biroq harbiy demokratiya tuzumi deb atalmish bu tuzum germananlarning o‘ziga xos, yangi bir narsa emas edi. Bu tuzumni taraqqiyotning ma’lum bosqichida: qadimgi greklarda — GomYer zamonida, rimliklarda Rim tarixining ilk «davlatchilikdan oldingi» davrida va boshqa varvar xalqlarda ham uchratish mumkin edi.

Qadimgi germananlarda sinfiy munosabatlarning rivojlanmaganligini ularning dini xonaki, patriarxal xarakterdaligidan ko‘rish mumkin edi. Qadimgi germananlar dinida alohida hukmdor va badavlat kohinlar ham ajralib chiqmagan edi, katta, dabdabali ibodatxonalar, umumning e’tiboriga sazovor bo‘lgan ibodatxonalar, sYerdahmaza marosimlar yo‘q edi. germananlar tabiatning stixiyali kuchlarini — osmon, quyosh, momaqaldiroq, shamol va Yerni ilohiylashtirar edilar, bu stixiyali kuchlar ibtidoiy dehqon, chorvachi va ovchining hayotida eng katta ahamiyatga ega edi. Bu stixiya xudolarini inson qiyofasidagi podsho va qahramonlar sifatida gavdalantirish (longovar xudo Odin yoki Bodan, uning xotini ma’buda Freya va boshqalar e’tiqodi) ancha keyin paydo bo‘ldi. Bu xildagi juda muraskab va boy afsonalar asosan germanan skandinav qabilalarining (Yeramizning XI—XIII asrlaridagi Skandinaviya saglarining) qissalarida saqlanib qoldi.

**germananlar va rimliklar.**

Kimvrlar bilan tevtonlarning yuqorida aytib o‘tilgan 102—101 yillardagi hujumini hisobga olmaganda (bu hujumda germananlar ham qatnashgan edilar), germananlar bilan rimliklar o‘rtasidagi birinchi kuchli to‘qnashish YUliy Sezar zamonida bo‘ldi. Sezar svev koroli Ariovistga zarba berdi va hatto germananlarga dahshat solish maqsadida Reynning o‘ng qirg‘og‘iga ham o‘tdi. Avgust zamonida Rim sarkardalari Agrippa, Druz va TibYeriy (TibYeriy keyin Imperator bo‘ldi) Reynning narigi tomonidagi Yerlarning bir qismini—Reyn bilan VezYer o‘rtasidagi Yerlarni bosib oldilar, hatto Elbagacha etib bordilar. Biroq Yeramizning 9-yilida Varling (Tevtoburg o‘rmonida) engilishi rimliklarning hujumini to‘x'tatib qo‘ydi. Shu paytdan boshlab ular Reyn bilan Dunay o‘rtasida qattiq o‘rnashib olib, asosan mudofaa bilan cheklandilar. Reyn bilan Dunay o‘rtasida (Koblens—Regensburg liniyasi) uzunligi 500 kilometrdan iborat tuproq qo‘rg‘on qurilib, u Rim qo‘rg‘oni (Limes Romanus) deb ataldi. Rimliklarning mudofaa inshootlari germanan qabilalarining siquvini birmuncha vaqtgacha to‘xtatib turdi. Lekin germananlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar, aholi o‘sgan sari, germanan qabilalarining ichida sinfiy tabaqalanish kuchaygan sari (zodagonlar va ularning drujinalari o‘sib va kuchayib, ularga faqat Yergina emas, balki ishchi kuchi va har turli o‘ljalar ham kerak edi) varvarlarning imperiyani siquvi tobora kuchayib bordi. Markomanlar II asr-ning ikkinchi yarmida Dunay chegaralarida 15 yil (165—180) urush olib bordilar. Qvadlar bilan markomanlar Rim chegara-sini yorib o‘tib, Italiyaning Shimoliga bostirib kirdilar va rimliklar ularni bu Yerdan zo‘rg‘a surib chiqardilar. Rim hu-kumati ularga (rasman, fedYerat-ittifoqchilarga) Reynning yuqori oqimi bilan Dunayning yuqori oqimi o‘rtasidagi, Rim qo‘rg‘onining bYerigi tarafidagi Yerlarni ajratib berishga maj-bur bo‘ldi. Bu Yerlar u Shur dala degan nom oldi (aftidan, varvar

to‘laydigan soliqning nomidan olingan bo‘lsa kerak). III asrning o‘rtalarida, ya’ni Rim imperiyasi qattiq sotsial va siyosiy krizisni boshidan kechirib turgan vaqtda, g‘arbiy germanan qabilalarining bir qismi franklar, svevlar va boshqalar Reyndan, ya’ni germananiyaning g‘arbidagi Rim chegarasidan o‘tdilar. Xuddi Shu vaqtda II asrning ikkinchi yarmi va III asr davomida Sharqiy germanan qabilalari o‘rtasida ham katta siljishl'ar bo‘ldi. Eng kuchli Sharqiy germanan qabilalari gruppirovkalaridan biri—gotlar—Shimoldan janubga Dunay havza-siga tushib, Daniya teretoriyaeining bir qismini bosib oldi va keyin Sharq. tomonga Qora dengiz bo‘yiga tarqaldi. Bu Yerda gotlar slavyan, Sharqiy sarmat qabilalari va boshqa qabilalar orasida 150 yilcha yashadilar. Ular Qora dengiz bo‘yida ko‘p qabilali ikkita korollik — Vestgot korolligi (Dunaining quyi oqimi) va Ostgot korolligi (quyi Dnepr havzasida) tuzdilar va Shunday qilib, Sharqiy Rim imperiyasining chegaralariga juda ham yaqinlashib keldilar.

**Qadimgi zamonda slavyanlar.**

«Slavyanlar» degan so‘zni Yera-mizning VI asridagi vizantiyalik yozuvchilar juda ko‘p tilga oladilar. Lekin rim va grek-rim avtorlari slavyanlarni ancha ilgari tilga olgan edilar. Qadimgi dunyo avtorlari qadimgi germananlarni qay vaqtdan boshlab tilga olgan bo‘lsalar, slavyanlar ham qariyb xuddi Shu vaqtdan boshlab tilga oladilar. Masalan, Tatsit, Pliniy va Ptolemey venedlarni (yoki venet-larni) bir necha bor tilga olib, ular germananlardan Sharqda, Baltika dengizining janubiy qirg‘oqlarida yashagan, deb ko‘rsatadilar. IV, V va VI asrlarda venedlar degan nom na slavyanlar degan yangi nom bilan bir qatorda getlar va antlar degan nomlar ham uchraydi. VI asr o‘rtalarida yashagan vizantiyalik katta tarixchi Prokopiy slavyanlarni sklavinlar va antlar deb ataydi. Prokopiyning yozishicha, sklavinlar o‘sha vaqtda Dunay bo‘yida, antlar Dvestrning Sharqida yashaganlar. Har holda Yeramizning birinchi asrlaridayoq slavyanlar juda keng teretoriyam o‘rnashgan bo‘lib, bu teretoriya Shimolda Baltika dengizi qirg‘oqlaridan tortib janubda Dunaygacha, g‘arbda Dunaydan tortib to Dnepr havzasigacha va Dneprning Shimolidan va Sharqidan tortib to Okatacha borar edi.

Vizantiya tarixchilari — Prokopiyning (VI asrning o‘rtalarida) va Mavrikiyning (VI asrning oxirida — VII asrning boshlarida) ta’riflashicha, qadimgi slavyanlardagi ijtimoiy tuzum urug‘chilik asosidagi ibtidoiy-jamoa tuzumidan iborat bo‘lgan, gYer'manlardagi (va uvdan ilgari keltlarщagi) ijtimoiy tuzum qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, qadimgi slavyanlardagi ijtimoiy tuzum ham xuddi Shunday xususiyatlarga ega edi. Slavyanlar ko‘pdan-ko‘p qabilalarta va urug‘larga bo‘linib yashar edilar. Urug‘lar katta-katta oilalardan tashkil toptan edi. Urug‘ oqsoqollarini vizantiyalik avtorlar filarx-lar va arxontlar deb atadilar." Shu avtorlar'ning aytishicha, slavyanlarda xalq yig‘inlari (slavyan vechesi) chaqirilib turardi, drujinachilari (drunglari) bo‘lgan knyazlar bor edi, slavyanlar tez-tez urush qilib turar edilar, bu urushlar qisman Bolqon yarim orolining o‘zida olib borilar edi. Shunday qilib, slavyanlar Sharqiy Rim imperiyasi teretoriyasiga bostirib kirgan vaqtlarida ham ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning harbiy-demokratiya tuzumi booqichida edilar (harbiy demokratiya tuzumi degan iborani birinchi bo‘lib Engels ishlatgan, biz ham Engelsdan ibrat olib, bu bosqichni harbiy-demokratiya tuzumi deb ataymiz), ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning bu bosqichini biz yuqorida qadimgi germananlar to‘g‘risida gapirganimizda aytib o‘tgan edik. Bu tuzum urug‘-qabila tuzumidan davlat tuailishiga o‘tish formasi edi. Garchi slavyanlar V va VI asrlarda vizantiyaliklarga dushman xalq bo‘lgan bo‘lsalarda, vizantiyalik yozuv-chilarning ikkalasi ham — Prokopiy ham, Mavrikiy ham slavyanlarning xarakteridagi bir qancha ijobiy xislatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Bu avtorlarning ta’riflashicha, qadimgi slavyanlar juda ham Yerksevar (ular hatto asir qilib olingan kishilarni doimiy qullikda tutmay, ma’lum vaqt o‘tgandan keyin bo‘shatib yuborar edilar), mard, jangovar va Shu bilan bir vaqtda tinchliksevar bo‘lib, agar qo‘shnilari ularni qul qilish yoki izzatnafsiga tegish payida bo‘lmasalar, ular bilan do‘stona aloqa bog‘lashga hamma vaqt taYor edilar. Slavyanlarning patriarxal ibtidoiy tuzumta xos bo‘lgan mehmondo‘stligi vizantiyaliklarda maqol bo‘lib qolgan edi. Slavyanlar juda katta harbiy mahoratga ega edilar. Slavyanlar jismoniy jihatdan juda kuchli va chidamli odamlar bo‘lib, har xil harbiy hiylalar

o‘ylab chiqarishga juda usta edilar. Ular pistirmalar qo‘yishga usta bo‘lib, dushmanga ko‘pincha to‘satdan hujum qilar edilar. Shu bilan birga ular Vizantiya harbiy texnikasini ham tez o‘zlashtirib olgan edilar. CHunonchi, slavyanlar mustahkamlangan sha-harlarni qamal qilishga va olishga VI asrdayoq usta bo‘lib qolgan edilar. Slavyanlar o‘yma yog‘och qayiqlarni ishlatishga usta edilar, jasorat ko‘rsatib, bu qayiqlarda dengizda uzoq-uzoq joylarga suzib borardilar.

Slavyanlar qadimgi zamonlardanoq dehqonchilikdan xabardor edilar, ularning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik edi. Arxeologik ma’lumotlar ularda juda katta don zapaslari, don saqlash uchun maxsus omborlari va hokazolari bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mavrikiyning aytishicha, slavyanlar ayniqsa arpa va sulini ko‘p ekkanlar, Yeramizning dastlabki asrlaridayoq uy hayvonlari asraganlar, turli xildagi xonaki hunarlarni ham bilganlar.

Visla bo‘yi va Dneprning yuqori oqimi ,rayonida yashagan slavyanlarda dehqonchilik va chosvachilikdan tashkaoi, balikchi lik va o‘rmon xo‘jaligi (hayvonlarni ovlash va o‘rmon asalari-chiligi) katta rol o‘ynar edi.

Slavyanlar dinida dehqonchilik bilan Shug‘ullanuvchi ibtidoiy xalqlarga xos bo‘lgan ikki narsa, ya’ni tabiat kuchlarini ilohiylashtirish: slavyanlar osmon, quyosh, momaqaldiroq, chaqmoq (osmon xudosi Svarog, momaqaldiroq va chaqmoq xudosi PYerun, hosildorlik ma’budasi Jiva va h. k.), tog‘, daraxt, suv (suv parilari va hokazolar)ni ilohiylashtirar edil ar; ota-bobolarning arvohlariga sig‘inish (jin, arvoh va boshqalar) juda yaqqol aks etgan edi. Slavyanlarda hali alohida sinf bo‘lib ajralib chiqqan kohinlar.yo‘q edi ( germananlarda ham xuddi Shunday edi).

Slavyanlar ham, germananlar singari munkillab qolgan antik jamiyatni yangilashda, yangi o‘rta asr, feodal G‘arbiy Yevropasini vujudga keltirishda kattagina rol o‘ynadilar. Avvalo germanan qabilalarining Sharqdan janubga va g‘arbga siljishi ham qisman slavyanlar siquvining natijasi edi, buni got tarixchisi Iordan ochiq ko‘rsatib berdi. So‘ngra slavyan qabilalarining bir qismi germanan qabilalari bilan birgalikda Rim imperiya-sini istilo qilishda qatnashdi. Qeyinroq borib, VI—VII asrlarda slavyanlar Visladan Elbaga qarab, g‘arb tomon tobora ichkari jilib, Rim imperiyasi teretoriyasiga ko‘chib ketgan germanan qabilalarining ilgarigi teretoriyalarini ishg‘ol qildilar. Nihoyat, slavyanlar Bolqon yarim oroliga, Sharqiy Rim imperiyasi teretoriyasiga — Vizantiyaga ko‘p marta bostirib kirdilar va oqibat-natijada juda ko‘plab joylashib olib, Vizantiya sotsial tuzumining o‘zgarishiga, uning quldorlik tu-zumdan feodalizmga o‘tishining tezla Shuviga juda katta ta’sir qildilar.

## 2. Rim imperiyasi hududida vujudga kelgan varvar korolliklari

**IV** asr oxiri — V asr boshlarida varvarlarning imperiyaga bo‘lgan munosabatlarining keskinla Shuvi. Varvarlarning Rim imperiyasiga bo‘lgan munosabati IV asr oxirlariga kelib juda ham keskinlashib ketdi. Imperiyaning zaiflashuvi varvar qabilalariga imperiya chegarasidan deyarli bemalol o‘tib, uning teretoriyasini egallab olish uchun imkon berdi. Imperiya varvarlarning siquvini yana bir oz vaqt to‘xtatib tura olar edi, lekin u, imperiyaga fedYerat-ittifoqchilar tarzida xizmat qilayotgan varvarlarning o‘zining yordamiga tayangan choqdagina Shunday qila olar edi. Ammo fedYeratlarning dushmanga aylaiishi oson edi; buning oldini olish uchun imperiya ularga tobora ko‘nroq yon berishga majbur bo‘lmoqda edi.

germanan qabi'lalari II—IV asr o‘rtalarida o‘zlarining ishlab chiqarish kuchlarini anchagina rivojlantirdilar. Ular Yerlarini Sezar va Tatsit zamonidagidan yaxshiroq ishlay boshladilar. Ularda hayvonlarning naeli (jumladan, otlarning naeli) yaxshilandi. Hunarmandchilikni rivojlantirishda ancha olg‘a ketildi. germananiyaning ko‘p joylarida Yer ustidagi yoki uncha katta bo‘lmagan chuqurlikdagi rudalar ishlana boshlandi. CHegara oblastida yashovchi germananlar rimlik savdogarlar bilan oldi-sotdi qila boshladilar. Varvarlarning aholisi tobora ko‘payib bortanligi uchun Yer masalasi juda keskin masala bo‘lib qoldi. Varvarlar aholining oshib-toshib ketayotganligini sezmoqda edilar. Ular imperiyaning sYerhosil va qisman butunlay ishlov berilmagan Yerlarini ishg‘ol qilishga intildilar. Butun bir varvar qabilalarini Rim

imperiyasiga qarshi keskin kurash olib borishga olib kelgan eng muhim va asosiy sabab Yer tanqisligi edi.

Bu vaqtga kelib germanan qabilalarining ichida katta oʻzgarishlar sodir boʻldi. germanan jamiyatining tobora koʻproq tabaqalanib borishi — zodagonlarning ajralib chiqishi, ularga qaram boʻlgan kishilar sonining koʻpayishi va hokazolar bilan bir qatorda, qabilalarning katta-xatta ittifoqlarga birla Shuv protsessi ham yuz bYermoqda edi. Quyi Reynda hamda YUtlandiya yarim orolida angl-saks qabilalari birlashmasi; Urta Reynda frank qabilalari ittifoqi; YUqori Reynda allemanlar ittifoqi (bunga kvadlar, markomanlar, qisman svevlar kirar-di); Elbada va Elbaning narigi tomonida langobardlar, van-dallar, burgundlarning ittifoqlari tashkil topdi. Bundan oldingi bobda gotlarning ikkita ittifoqi —vestgotlar itti-foqn va ostgotlar ittifoqi vujudga kelib, bularning har bi-ri Dunay va Qora depgiz boʻyi rayonida koʻp qabilali davlat tashkil qilganligi gapirib oʻtilgan edi. IV asrning oxirlaridan boshlab va ayniqsa V asrda varvarlar yoppasiga imperiya teretoriyasiga qarab yoʻl olib, uni asta-sekin istilo qila boshladilar. Toʻgʻri, bu istilo qilish qariyb butun bir asrga choʻzildi. Ancha vaqtgacha bu istilochilar rasman imperiyaning «ittifoqchilari» deb qaraldi. Biroq zamondoshlar bu nomga aldaamadi. Gʻarbiy Rim imperiyasining tobora qulab borayotgan-ligi Shubhasiz haqiqat edi. Chunki varvarlar imperiyani istilo etish bilan bir vaqtda imperiya teretoriyasiga oʻzlarining butun oilalari, uy anjomlari, sigir-buzoqlari va hokazolari bilan koʻchib kelib, oʻrnashayotgan edilar. Shuning uchun IV asrning oxirini va V asrning hammasini oʻz ichiga olgan bu davrni tarixchilar odatda Xalqlarning buyuk koʻchish davri deb ataydilar.

Gotlar va Qora dengiz boʻylari. Gunnlarning kelishi. Bu koʻchish imperiya teretoriyasiga gotlarning bostirib kirishidan boshlandi, deb hisoblanadi. Ostgotlar va vestgotlarning imperiya bilan totuv yashashlari m^mkindek tuyular edi. Usha paqtda Yevropaning janubi-Sharqida bu varvarlarning juda ksng Yer maydonlari bor edi. Vestshtlarda ham, osttotlarda ham hech qanday «Yer qahatchiligi» yoʻq edi. Toʻgʻri, ostgot zodagonlarp goh-goh Bolqon yarim oroliga hujum qilib turar edilar. Lekin ikkinchi tomondan, gotlar Sharqiy Rim imperiyasi bilan tiich savdo aloqalari ham olib borar edilar. Gotlar xristianlikni Sharqiy rimliklardan qabul qilgan edilar. Gotlar oʻrtasida xristianlikni targʻib qilgan kishi episkop Ulfila boʻldi, u injilni va diniy kitoblarni got tiliga tarjima qildi.

Ikki davlatning eng kuchlisi — Ostgotlar davlati boʻlib, u koʻp qabilali ittifoq edi, bu ittifoq oʻzining ostgot qabila-sidan tashqari, slavyan va Sharqiy sarmat qabilalaridan bir qanchasini oʻz ichiga olgan edi, bu davlatga korol germananarix 50 yil boshchilik qildi (u 375 yilda vafot etdi). Ostgotlarning oʻzlari mahalliy madaniyat ta'siriga anchagina berilib, mahalliy aholi bilan qisman aralashib keta boshlagan edi. Qora dengiz boʻyidagi gotlarga Qora dengiz boʻyidagi grek koloniyalarining va ayniqsa Bospor podsholigining antik madaniyati anchatina oʻz ta'sirini oʻtkazdi.

375 yilda Qora dengiz boʻyiga Osiyodan juda koʻp sonli gunnlar qabilasi keldi. Gunnlar (bularning bir qismi turk irqidan, bir qiomi moʻgʻul irqidan boʻlsa kerak) koʻchmanchi xalq boʻlib, bir vaqtlar Xitoy chegaralarida yashar edilar, keyin ular butun Urta Osiyoni bosib oʻtib, nihoyat, Janubiy Ural bilan Kaspiy dengizi oʻrtasidagi «Kaspiy darvyuzasi» orqali Don va Dnepr havzasiga kirib bordilar. Gunnlar ostgotlar it-tifoqiga qaqshatgʻich zarba berdilar. Gunnlar ostgotlarni oʻzlariga boʻysundirib, ular bilan birgalikda vestgotlar ustiga yurish qildilar. Gunnlar tomonidan tor-mop qilinish va boʻysundirilishdai qoʻrqib, vestgotlarning boshliqlari Sharqiy Rim Imperatori bilan muzokara boshladilar va Dunaydan oʻtib, fedYeratlar sifatida Bolqon yarim oroliga joylashish uchun undan ijozat soʻradilar. Konstantinopol hukumati bunga rozi boʻldi, Shundan keyin 376 yilda bir million kishiga yaqin vestgotlar ('bulardan 200 mingi qurollangan Yerkaklar edi) Dunaydan oʻtdilar. Ularga joylashish uchun hozirgi Bolgariyaning Meziya oblasti ajratib berildi.

**Vestgotlar imperiyada.**

Vestgotlarning Dunaydan o'tishi yuzaki qaraganda aytarli bir narsa emasdek edi. Rimliklarning butun-butun qabilalarni fedYerat qilib qabul qilish hollari iltari ham bo'lgan edi. Lekin haqiqatda esa vestgotlarning Bolqon yarim orolida paydo bo'lishi katta oqibatlarga olib keldi. Varvarlarga nisbatan jabr-zulm va o'zboshimchalik qilgan imperiya amaldorlarp bilan chiqisha olmay, vestgotlar tez orada Rim hukumatiga qarshi qo'zgolon ko'tarib, «fedYeratlik-dan» endi imperiya hukumatining xavfli dushmanlariga aylandilar. Bularga mahalliy konlarda ishlaetgan Yerli qullar ham (ularning ham ko'pchiligi aslida varvarlardanedi) qo'shildilar. Vestgotlar Bolqon yarim orolining janubiga qarab yo'l oldilar. 378 yili ular Adrionopolga yaqin joyda Rim qo'shinlarini tor-mor qildilar; bu qo'shinlarga qo'mondonli(Kqilgan Imperator Valent o'ldirildi. Vestgotlar Konstantinopolga yaqinla-shib kelmoqda edilar. YAngi Imperator Feodosii I (379—395) bir do'q-po'pisa qilib, bir bo'lsa diplomatik muzokaralar yurgizib vestgotlarni tinchlantirishga muvaffaq bo'ldi, ularga Bolqon yarim orolining turli joylaridan yangi, sYerhosil Yerlar-ni ajratib berdi. Keyinchalik, 90- yillarda hozirgi YUgoslaviya teretoriyasidagi Illiriya viloyati vestgotlarga berildi.

Feodosii o'lgandan keyin Rim imperiyasi uning o'g'illari o'rtasida taqsimlandi. Sharqda—Arkadiy (395—408), G'arbda— Gonoriy (395—423) idora qila boshladi. Aka-uka Imperatorlarning ikkalasi ham bir-biriga dushman edi. Konstantinopol hukumati vestgotlarni G'arbiy Rim imperiyasiga qarshi qo'zg'atishga qasddan harakat qildi.

Gonoriyning lashkarboshisi Stilixon (aslida varvar edi) dastlabki vaqtda vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumini to'xtatib turdi. U hatto Britaniyadagi rim legionlarini (407 yilda) chaqirib keltirdi, legionlarning bu vaqtida Italiyaning o'zida bo'lishi nihoyat darajada zarur edi. Biroq saroy ahli o'rtasidagi fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va o'ldirildi. Vestgotlar .koroli Alarix endi qattiq qarshilikka uchramay, 409 yilda Italiya teretoriyasiga kirib bordi. Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talonga soldi. Shu narsa xarakterliki, Alarix Rimni qullar yordami bilan oldi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yaqin qul Alarix tomoniga o'tdi. Bulardan tashqari, Alarixni ko'pchiligi varvar- germananlardan iborat g'arbiy Imperator armiyasining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatladi. Vestgotlar Rimni 410 yilning 24 avgustida bosib oldilar. Rimliklarning poytaxti bir necha kungacha talon-taroj qilindi. Rimdagi quldor zoda-gonlarning ko'plari o'ldirildi, asir olindi va qul qilib sotildi, rimliklarning bir qismi qo'rquvga tushib, Shimoliy Afrikaga va Bolqon yarim oroliga qarab qochdilar.

Alarix so'ngra Sitsiliyaga, u Yerdan esa Shimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi edi. Buning sababi Italiyada oziq-ovqat yo'qligi edi, Italiyada qishloq xo'jaligi butunlay tushkunlikka uchragan edi, mahalliy aholining o'z g'allasi o'ziga etmas edi. Lekin vestgotlarning Afrikaga yurish qilish mo'ljali amalga oshmadi. Bu yurish uchun flot taYorlanayotgan o'sha 410 yili Alarix o'ldi.

## Vestgotlarning Tuluza korolligi.

Italiyada bir oz vaqt turgandan keyin, vestgotlar Gonoriy hukumati bilan kelishib, Janubiy Galliyaga o'tdilar va u Yer da 419 yili Rim imperiyasi teretoriyasida dastlabki varvarlar korolligini tuzdilar, uning poytaxti Tuluza shahri bo'ldi. Tuluza korolligi Rim Imperatoriga nomigagina qaram hisoblanar edi. Aslida u butunlay mustahyal edi. Galliyaga ko'chib o'tganlaridan keyin vestgotlar. juda ko'p Yerlarni boshqatdan taqsimladilar. Ular mahalliy galliyalik-rimlik quldorlar ixtiyoridagi Yerlariing uchdan ikki qismini undagi qullar, binolar, -qishloq xo'jalik asbob-uskunalari va boshqa narsalari bilan birgalikda musodara qilib, o'zaro bo'lishib oldilar, katta-katta latifundiyalardagi eng yaxshi Yerlarni, qullarni va asbob-uskunalarni korol bilan zodagonlar oldi. Oddiy vestgot jangchi dehqonlar o'zlarining oilaviy chek Yerlarini—sortes—ya'ni aynan olgan-da qur'aga (chekiga) chiqqan Yerlarni oldilar, bular: haydaladigan Yerlardan, jamoaga qarashli Yer-mulklar — o'rmonlar, yaylovlar va boshqalardan iborat edi. Keyincha V asrning oxi-ri — VI asrning boshlaridan boshlab Vestgotlar korolligi Pireneya tog'larining narigi tomoniga Ispaniyaga ham yoyildi. Uning poytaxti Toledo shahriga ko'chirildi.

Shimoliy Afrikada vandallar korolligi. Taxminan, Galliyada vestgotlar o‘z davlatini vujudga keltirgan vaqtda, boshqa bir gruppa varvar qabilalari Pireneya yarim oroliga bostirib kirdi. Bular svevlar bilan vandallar edi. Svevlar yarim orolning Shimoli-g‘arbiy qismini bosib oldilar, vandallar janubga kirib borib, birmuncha vaqtgacha Gvadiana daryosi janubidagi teretoriyada yashadilar. Hozirgi vaqtda ham Shu oblast Andaluziya deb ataladi (dastlabki vaqtlarda Vandalusiya deb atalar edi). Vandallar bu Yerdan korol Geyzerix boshchiligida Shimoliy Afrikaga hujum qildilar. Vandallar Shimoliy Afrika aholisining quyi tabaqalari orasida Rim hukumatining va katta quldorlarning e’tibori yo‘qligidan foydalanib, bu keng teretoriyani bosib oldilar va 439 yilda Rim imperiyasi teretoriyasida ikkinchi varvar korolligini vujudga keltirdilar, bu davlatning poytaxti qadimgi Karfagen bo‘ldi.

Vandallar Rim zodagonlarining juda ko‘p Yerlarini ham musodara qildilar. Lekin ularning o‘zlarida ham zodagonlar tezlik bilan tarkib topmoqda edi, bu zodagonlar bosib olingan Yerlar, olingan qullar va boshqa xil o‘ljalar hisobiga boyib ketdi. Vandal zodagonlari Italiyaga qilingan bosqinchilik hujumlari natijasida ayniqsa boyigan edi. 455 yilda vandallar Rimni bosib olib, vestgotlarning 410 yildagi talon-toroji-dan battarroq misli ko‘rilmagan darajada taladilar va vayron qildilar. Vandallar Rimning eng nodir qadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. Shu sababli «vandalizm» degan so‘z madaniyat yodgorliklarini vahshiyona vayron qilish timsoli bo‘lib qoldi.

Burgundiya korolligi. V asr o‘rtalarida 443 yil bilan 457 yil oralig‘ida Rona daryosi havzasida yana bir varvar korolligi vujudga keldi, bu korollikning poytaxti Lion shahri bo‘ldi. Bu Burgundiya korolligi bo‘lib, hajmi jihatidan birmuncha kichikroq bo‘lsa-da, hozirgi Fransiyaning janubi-Sharqi, geografik va strategii jihatdan juda muhim va sYerhosil joyni ishg‘ol qildi. Bu korollik vujudga kelishi natijasida imperiyaning Shimoliy Galliya bilan aloqasi uzilib qoldi. Shunday qilib, G‘arbiy Rim imperiyasi o‘sha vaqtdan boshlab haqiqatda birgina Italiyaning o‘z doirasi bilan cheklanib qoldi. Burgundlar ham mahalliy galliyalik-rimlik zodagonlarning Yerlarini tortib oldilar, lekin bu tortib olish vestgotlar o‘tkazgan musodaraga qaraganda birmuncha kichikroq hajmda bo‘ldi. Burgundlar son jihatidan xiyla oz bo‘lib, IV asrda uzoq vaqtgacha yuqori Reynda rimliklar bilan yonma-yon yashadilar (ularning o‘sha vaqtdagi poytaxti Vorms shahri edi), ular tez vaqt ichida" romanlashib, V asrdayoq latin tilini, rimliklarning urf-odatlarini va ularning mulkiy munosabatlarini o‘zlashtirib oldilar. Biroq, Shunga qaramay, Burgundiyaning asosiy aholisini bu Yerda o‘zlariga chek Yerlar olgan varvar dehqonlar tashkil etar edi.

Atilla zamonida gunnlar. Vestgot, Vandal va Burgundiya korolliklarining vujudga kelishi bilan G‘arbiy Rim imperiyasining ahvoli nihoyat darajada mushkullashib qoldi. Bu vaqtda imperiyani idora qilib turgan Imperator Valentinian III (425—455) sonda bor, salmoqda yo‘q bir odam edi. Lekin uning ministri (uni tarixchilar ba’zan «so‘nggi buyuk rimlik» deb atar edilar (Aesiy) xiyla romanlashgan) varvarlarning birini ikkinchisiga qarshi ishsha solib, imperiyani saqlab qolishga zo‘r berib harakat qildi.

V asr o‘rtalarida imperiya uchun eng xavfli dushman yuqorida aytib o‘tganimiz gunnlar bo‘ldi. V asrning dastlabki uchdan bir qismi ichida gunn qabilalari g‘ayratli va shijoatli korol Attila (435—453) qo‘l ostida birlashdilar. Attilaning poytaxti Tissa qirg‘og‘i—hozirgi Vengriya teretoriyasida edi. Shu joydan Attila uzoq-uzoq joylarga Bolqon yarim oroliga, Kichik Osiyoga, Armeniyaga va hatto Mesopotamiyaga yurishlar qildi. Attila olib borgan urushlar ochiqdanochiq bosqinchilik, talon-chilik urushlar edi. Unga Vizantiya ( Sharqiy Rim) Imperatori katta xiroj to‘lar edi. Dunay yonida yashovchi ko‘pgina slavyan qabilalari gunnlarga qaram edilar. 50-yillarning boshida Attila g‘arbga yurish qildi va 451 yili Galliyaga bostirib kirib, bu Yerda ko‘p Shaxarlarni bosib oldi hamda Galliyaning eng muhim strategik punkti bo‘lgan Orlean shahrigacha etib bordi. Uzoq vaqt qamal qilingandan keyin Orlean gunnlar tomonidan olindi, lekin Aesiy Attilaga qarshi varvarlar fedYeratsiyasini tuzishga muvaffaq bo‘ldi va Attilani Orleandan chiqib ketishga majbur qildi. Attila ko‘p sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada Sharqqa orqaga burilib (Sane shahri orqali) Trua shahri tomonga qarab yo‘l oldi. Aesiy uning ketidan bordi. 451 yil 15 iyunda Trua shahri yaqinida (bu Shaxarga keyin SHampan deb nom

berildi), Katalaundalalari deb atalgan joy-da «xalqlar jangi» bo‘ldi. Rimliklarning fedYeratlari: vest-gotlar, burgundlar, frayaklar rimliklar tomonida turib urushdilar; Atilla qo‘l ostida esa, gunnlarning o‘zidan tashqari, ostrotlar va boshqa mayda-mayda Sharqiy repiMan qabilalari hamda qisman slavyanlar va janubi- Sharqiy Yevropadagi turli sarmat qabilalari bor edi. Attila mag‘lubiyatga uchradi. Rimliklar g‘alaba qozondilar, bu g‘alaba ularning oxirti g‘alabasi edi. Lekin ular endi g‘alaba samaralaridan foydalana olmas edilar. Ularning o‘z ittifoqchilarig‘a — varvarlarga bo‘lgan qaramligi endi har qachongidan ham kuchayib ketgan edi. Vestgot va Burgundiya korolliklari to‘la mustaqillik oldilar. Atillaning o‘zi esa kelasi, 452 yilda Italiyaga yurish qildi, lekin Rimni olishdan voz kechdi, qimmatbaho in’omlar va xiroj olish bilan cheklanib qo‘ya qoldi. 453 yilda Attila o‘ldi. Uning nari-danbYeri tuzilgan, ko‘p qabilali harbiy davlati tezda quladi. Gunnlarning o‘zlari esa mahalliy aholi bilan aralashib ketdi. Vizantiya manbalarida VII asrdan boshlab ularni butunlay esga olinmadi.

Demak, endi gunnlar «davlati» yo‘q bo‘lib ketganidan keyin Rim imperiyasining ahvoli yaxshilanishi kerak edi. Lekin uning resurslari butunlay tugab qolgan edi. Tashqi xavf kamaygandan keyin ichki qarama-qarshiliklar keskinlashib ketdi.

**G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi.**

Attila o‘lgandan keyin Imperator saroyidagi (saroy Ravennada edi) fitnalar avj olib ketdi, natijada Aeiiyiing o‘zi halok bo‘ldi. Aesiy Rim-ning so‘nggi davrdagi davlat arboblari ichida eng ko‘zga ko‘ringan kishi edi. Imperatorning buyrug‘i bilap o‘ldirilgan Aesiydan keyin Valentinian III o‘zi ham o‘ldirildi. Shundan keyin vandallar (455 y.) hujum qilib, Rimni o‘n to‘rt kun taladilar, bu hujum imperiyani uzil-kesil halok qildi. Italiyani nomigagina taxtda o‘tirgan Imperatorlar nomidan yollanma varvar drujinalarining boshliqlari idora qildi. Shu drujina boshliqlaridan biri Odoakr (kichkinagina bir germanan qabilasining—skYerlarning boshlig‘i) 476 yilda Rimning oxirgi Imperatora go‘dak Romul Avgustulni taxtdan tushirib, Imperatorlik nishonlarini Qonstantinopolga, Sharqiy Imperatorga yubordi. Shunday qilib, G‘arbiy Rim imperiyasi rasmiy jihatdan ham tamom bo‘ldi. Uning markazi Parij bo‘lgan Shimoliy Galliyadagi qolgan-qutgan teretoriyasini 10 yildan keyin (486 yilda) frank koroli Xlodvig bosib oldi.

Odoakr davlati etnik sostavi jihatidan qurama bir davlat edi. Uning qo‘l ostida skYerlar, gYerullar, gotlarning bir qismi, alanlar (Shimoliy Kavkaz qabilasi) va boshqalar bor edi. *U* Italiya zodagonlari qo‘lidagi Yerlarning uchdan bir qismini mu-sodara qilib, o‘z tarafdorlariga berdi. Lekin italiyalik-rimlik aholining ichki idora ishlariga aralashmadi. Odoakrning *мya щey* umuman mustahkam emas edi. U, birorta yirik varvar qabilasidan yordam olaman, deb umid qila olmas edi. Odoakr rimlik quldor zodagonlarning Yerlarini musodara qilib olgani uchun ular bilan Odoakr o‘rtasidagi munosabat buzuq edi. Shu bilan birga Konstantinopoldagilar ham unga ishonmas edilar va uning o‘rniga o‘z kandidatini ostgotlar koroli Teodorixni taYorlamoqda edilar.

**Ostgotlar Italiyada. Teodorix Buyuk.**

Vizantiyaning yordami bilan Teodorix 493 yilda Italiyani bosib oldi va Shundan keyin 30 yildan ortiqroq (493—526)—«gotlar va italiklar koroli» bo‘lib hukmronlik qildi. Uning poytaxti Ravenna shahri edi (ilgari Gonoriydan boshlab Rimning so‘nggi Imperatorlari Shu Shaxarda yashagan edilar).

Teodorix murakkab ichki va tashqi siyosat yurgizdi. U o‘zini varvar korollarining «kattasi» deb hisoblab, varvar korolliklari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga harakat qildi. Teodorix Vizantiyaga nisbatan ham mustaqil pozitsiya tutdi. Sharqiy Rim Imperatorlari uning «ko‘rnamakligi»dan norozi bo‘lib, Italiyada Imperator* hokimiyatini tiklashning yangi rejalarini tuzmoqda edilar. Ichki siyosatda Teodorix aholining ikkala etnik gruppasini — rimliklar bilan varvar-larni murosaga keltirishga harakat qildi. U o‘z saroyiga Rim olimlari va yozuvchilarini

tortdi, ko‘p eski Rim yodgorliklari-ni tikladi, atrofiga rimliklardan maslahatchilar to‘pladi. Bular ichida rimlik Qassiodor ayniqsa katta rol o‘ynaydi. U, Teodorix huzurida davlat sekretari bo‘lib ishladi va Teodo-rixning topshiruvi bilan «Gotlar tarixi»ni ezdi. Grajdan idorasi ilgarigicha rimlik zodagonlar qo‘lida qoldi. Rimliklar uchun Rimning ilgarigi qonunlari o‘z kuchini saqlab qoldi. Teodorix italiyalik zadogon qul egalarining Yerlarini yangidan musodara qilmadi, ilgari Odoakr tomonidan tortib olingan Yerlarni ostgotlarga olib berish bilangina kifoyalandi. Ostgot zodagonlarining yangi olgan Yerlarini idora qilishlari oson bo‘lsin uchun Teodorix farmon chiqarib, Yer egalariga kolonlarni va qullarni Yerdan ajratishga hamda ularni xohlasa xizmatkori qilib, xohlasa kosibchilik xizmatida foydalanishiga ruxsat berdi. Teodorixning bu farmonini (ediktini) ko‘p burjua olimlar ostgotlar tomonidan rimlik kolonlarni «krepostnoy qaramlik»dan alohida bir tarzda «ozod qilish» deb noto‘g‘ri ta’rif qildilar. Farmon teksta bu xilda ma’no chiqarishga hech qanday asos bYermaydi. Bu Farmonga (155 moddadan iborat edi) bilan Teodorix rimliklar uchun ham, gotlar uchun ham umumiy qonun yaratmoqchi bo‘ldi, ammo bu qonunni amalga oshirish qiyin edi.

Teodorix davlatining siyosiy tuzumi Teodorix hukmronligining oxiriga qadar ikki yoqlama bo‘ldi. Gotlar rimliklarga qo‘shilmay, alohida vaziyatda yashadilar. Ular o‘zlarining germanan sudi qoidalariga muvofiq sud qilinar edilar. Harbiy xizmat butunlay ular zimmasida edi, rimliklar harbiy xizmat o‘tashdan ozod qilingan edilar; din jihatidan ham ular katolik emas, balki arian edilar, mahalliy aholi esa katolik dinida edi. Shunday qilib, Teodorix siyosati zamirida katta ziddiyatlar bor edi. Bu siyosat Sharqiy Rim imperiyam bilan qayta qo‘shlishi orzusida bo‘lgan rimlik quldor zodagonlarni qoniqtirmas edi. Shu bilan birga Teodorixning Italiyaliklarga nisbatan jsщkuyarlik bilan munosabatda bo‘lishi, o‘zini ilgarigi Imperatorlarning vorisi deb hisoblashi, rimliklarning bilimdonligiga tan berishi, Yerlarni yangidan musodara qilyshni xohlamasligi — bularning hammasi got zodagonlari va oddiy jangchi-ostgotlar orasida unga qarshi norozilik tug‘dirdi. Teodorix o‘z mavqeining mustahkam emasligiga korolligining oxirgi davrida o‘zi ham amin bo‘ldi, bu davrda o‘zining yuqori mansablardagi ba’zi rimlik amaldorlarining fitnachilik bilan Shug‘ullanib, Imperator saroyi bilan maxfiy muzokaralar olib borganligi fosh qilindi. Usha vaqtdagi Rim napasi ham davlatga xiyonat qilishda ayblandi, u Konstantinopolga maxsus safar qilgan va u Yerda uni Imperator alohida izzat-ikrom bilan «utib olgan edi.

Gotlar urushi. Teodorix vafotidan keyin Ravenna saroyida ikkita gruppa bir-biri bilan qattiq kurash olib bordi: bulardan biri — Konstantinopol bilan ittifoq tuzish tarafdori («Rim guruhi»), ikkinchisi — mustaqil siyosat yuritish va rimlik quldorlarni yanada cheklash tarafdori («Got guruhi» yoki «Eoki got guruhi») edi. Bu janjallardan vizantiyaliklar foydalandilar. Imperator Yustinian I zamonida vizantiyaliklar ostgotlar Italiyasini istilo etdilar va butun Apennin yarim orolini Vizantiyaga qo‘shib oldilar. Lekin Italiyani Vizantiya osonlik bilan bosib olmadi. Gotlar urushi 20 yildan ortiq davom etdi. Ostgotlar o‘zlarini juda qattik. himoya qildilar. YAngi saylangan ostgot koroli Totila (541—552) Vizantiyaga qarshi kurashga, ostgotlardan tashqari, ezilgan italiyaliklarning bir qismini ham tortdi. Ostgotlar qo‘shiniga, ijtimoiy chiqishi kim bo‘lishiga qaramay, hullar bilan kolonlar qabul qilindi qul va kolonlar Shu bilan erkinlikka chiqdi. Avvaliga Totila muvaffaqiyat hozonib turdi. U vizantiyaliklardan Italiyaning kattagina qismini qaytarib olishga muvaffaq bo‘ldi. U flot qurdi, Sitsiliyani va Urta dengizdagi yana boshqa orollarni bosib oldi. Biroq Vizantiyadan etib kelgan yangi qo‘shinlar ostgotlarny mag‘lubiyatga uchratdi (552). Vizantiyaliklar

Italiyani 555 yilda batamom bosib oldi. Ostgotlarning deyarln hammasi hirib tashlandi. Butun Italiya vayron va xarob bo‘ldi. Teodorix zamonida -hishloq xo‘jaligi, hunarmandlik va savdo bir oz rivojlangan edi, bu ham vayronlik solgan urush patijasida yo‘qqa chiqdi.

Imperator Yustinian farmonlar chiqarib, Italiyada ilgarigi quldorlik tuzumini tikladi. Totilaning qullar va kolonlar to‘g‘risidagi farmon va hukmlari bekor qilindi.

Shimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo qilinishi. Vizantiyaning Italiyada hukmronlik qilishi uzoqqa bor-madi. 568 yilda Shimoliy Italiyaga yangi varvarlarlangobardlar bostirib kirdilar. Langobardlar oldin Elbaning chap qirg‘og‘ida yashagan bo‘lib, svev

qabilalariga qarindosh edi. Langobardlarning boshlig‘i korol Alboin edi. YAngi davlatning poytaxti Paviya shahri bo‘ldi. Italiyada langobardlarning nomi Shu mahalgacha ham saqlanib qolganhozirgi Shimoliy Italiya Lombardiya deb ataladi.

Langobardlar istilosining o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari bor edi. Birinchidan, langobardlar Shimoliy va qisman o‘rta Italiyani batamom ishg‘ol qildilar, mahalliy quldor zodagonlar bilan hech qanday bitimga kelmadilar. Ular Apennin yarim oroliga rimliklarning fedYeratlari sifatida emas, balki ularni istilo qiluvchilar sifatida keldilar. Ikkinchidan, langobardlar Rim quldorlarining juda ko‘p mol-mulkini muso-dara qildilar. Masalan, biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, vestgotlar, ostgotlar yoki burgundlar Yerning uchdan bir yoki uchdan ikki qismini musodara qilgan bo‘lsalar, langobardlar esa bunga qoniqmay, badavlat rimliklarning pomestelarini butunlay tortib oldilar. Ko‘pdan-ko‘p rimlik quldorlar qulga aylantirildi, bir qismi oila a’zolari bilan boshqa mamla-kalarga sotib yuborildi. Langobardlar istilosining uchinchi xususiyati ulardagi ijtimoiy tuzumning o‘ziga xos xislatidan kelib chiqdi. Langobardlar Italiyaga kelgan vaqtlarida ularda urug‘chilik aloqalari birmuncha "mustahkam edi. Ularda Rim madaniyatining ta’siri hali juda kuchsiz edi. Ularning Italiyada joila Shuvining o‘zi ham hali xiyla darajada urug‘chilik tusida edi. Buni «fara» (yoki «fari») degan so‘z ko‘rsatib turadi, bu so‘z langobardchasiga «urug‘» degan ma’noni bildirib, hozirgi Shimoliy va Urta Italiyadagi ko‘pchilik Shaxar va qishloqlar nomida saqlanib kelmoqda. Langobardlar istilosi natijasida xiyla katta va kuchli varvar korolligi vujudga keldi; bu korollikda juda ko‘p dehqonlar va ancha Yerta tashkil topgan ko‘p Yerli, kuchli zodagonlar bor edi. VII asrda langobard zodagonlari o‘zlarining eng nufuzli vakillari bo‘lgan gersog-lar orqali o‘z korollari bilan qattiq kurash olib bordilar, korollar esa Yer magnatlariga qarshi Shimoliy Italiya Shaxarlariga tayanishga harakat qildylar, u vaqtda bu Shaxarlar iqtisodiy jihatdan hali bir qadar ahamiyatga ega edch. Langobard korolligi bilan bir vaqtda Italiyada VI—VII asrlarda yana bir siyosiy tashkilot papalik vujudga keldi. Italiyaga langobardlar kelgandan keyin ham rimlik episkop-lar—papalar—rasman o‘zlarini Sharqiy Rim Imperatorla-rining oliy hokimiyati qo‘l ostida deb hisoblab keldilar. Haqiqatda esa Konstantivopolga bo‘lgan bu qaramlik kundan-kun yo‘qola bordi. Papalar asta-sekin Urta Italiyaning musta-qil hukmdorlariga aylana boshladilar. Rimning va Rim oblastining ham diniy, ham'dunyoviy hokimi bo‘lgan birinchi papa Grigoriy I (590—604) bo‘ldi. Langobard korollari keyincha papa oblastini o‘z hokimiyatlariga bo‘ysundirishga harakat qildilar, lekin bu harakat natija bYermadi. Papalar frank korollaridan iborat ittifoqchilarga ega edilar. VIII asrning yarmida ular Shu frank korollarining yordami bilan o‘zlarining papa cherkovi davlatini uzil-kesil tashkil etdilar, bu davlat ham, Shunday qilib, ilgarigi Rim imperiyasining o‘ziga xos bir qoldig‘i edi.

Varvarlar istilolarining natijalari. Shunday qilib, G‘arbiy Yevropa kartasi Yeramizning V va VI asrlari ichida butun-lay o‘zgarib ketdi. G‘oyat katta G‘arbiy Rim imperiyasi tamomila yo‘qoldi. Sharqiy Rim imperiyasi esa Vizantiya degan nom bilan yashab keldi, biroq uning sharoitlari va aloqalari boshqacha edi (u asosan slavyanlar va Sharq Osiyosi bilan aloqa qildi). Yevropada davlat tuzumi ibtidoiy bo‘lgan o‘nlab mayda-mayda varvar korolliklari vujudga keldi. Lekin bu o‘zgarish faqat siyosiy o‘zgarishlardangina iborat emas edi.

Xalqlarning Buyuk ko‘chishi deb atalgan ko‘chishning tarixiy ahamiyati uning ijtimoiy natijalaridadir. Bu ko‘chish xalqlarning Shunchaki bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi emas edi. Bu ko‘chish dunyodagi eng katta imperiyalardan birini istilo qilish-dangina, emirishdangina iborat emas edi. Bu ko‘chish — antik quldorlik tuzumining halok bo‘lishi edi. YUqorida ko‘rib o‘tga-nimizdek, varvarlar imperiyami istilo qilish protsessida Rim jamiyatidagi ezilgan sinflar bilan—qullar va kolonlar bilan birgalashib ish ko‘rdilar. Shunday qilib, qullar bilan kolonlar quldorlik tuzumini yiqitishda bevosita, aktiv ishtirok etdilar. Ularning kupi varvarlar qo‘shini safiga kirdi. Qolganlari esa xo‘jayinlarining qo‘lidan ko‘plab qochib ketdi, bu vaqtda xo‘jayinlar qochoqlarni qaytarib olib kelishdan ojiz edilar. Oqibat-natijada Rim qullari va kolonlari dehqonlar ommasiga aylandilar, kelgindi varvar-dehqonlarning bu dehqonlardan farqi Shu ediki, kelgindilar bularga qaraganda erkinroq va mustaqilroq edilar.

Darhaqiqat, varvar zodagonlari orasidan chiqqan yangi Yer egalari Yer olish bilan birga bir nechta qul ham olgan edilar. Lekin, birinchidan, ular oladigan qullar juda ham oz bo'lar edi, Chunki o'sha vaqtda quldorlik latifundiyalarida qullarning soni umuman juda kamayib ketgan edi; ikkinchidan, eski xo'jaliklarning, ya'ni Rim quldorlarining o'rnini olgan yangi xo'jayinlar qullarni odatda darhol obrok to'laydigan dehqonlarga aylantirar edilar. Qullikning plantatorlar tomonidan qo'llanilgan formasini (yoki kazarma formasini) germanan zodagonlari ilgari ham haddan tashqari murakkab va beso'naqay forma deb hisoblar edilar. Plantatorlardagi qullik yangi sharoitga (kup qullar yaqinda ozod bo'lib ketgan edi, markazlashgan politsiya apparati yo'q edi, varvar korolliklarining davlat hokimiyati kuchsyz edi va hokazo) ayniqsa to'g'ri kelmas edi. Quldorlik hukmronligini yo'q qilib tashlagan buyuk o'zgarish natijasida eskicha, rimcha qullik ma'nosidagi qulchilik uzil-kesil yo'qoldi. Eski quldor zodagonlarning Yer-mulklari juda ko'p yangi Yer egalari o'rtasida bo'linib ketdi. Bu yangi Yer egalarining bir qismi yangi, varvar aristokratlar bo'lib, bular keyingi o'rta asr feodallarining eng yaqin o'tmishdoshlari edilar. Yerlarning bir qismi esa varvar dehqonlar qo'liga o'tdi, bu dehqonlar shaxsiy erkinliklarini hali saqlab qolgan va o'zlarining jamoa tartiblarini yangi joyga ko'chirib olib kelgan edilar, bu jamoa tartiblari sinflar paydo bo'lmasdan ilgarigi urug'chilik tuzumi bilan bog'langan edi.

**Nazorat savollari:**

1. O'rta asrlar tarixi nechta davrga bo'linadi?
2. O'rta asrlar tarixini o'rganadigan tarix fani qanday ataladi?
3. O'rta asrlar davri Osiyo qit'asida qaysi asrlarda boshlangan?
4. Feodal jamiyatida qanday yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga kelgan?
5. Feodal jamiyati insoniyat tarixida qanday o'rin tutadi?
6. O'rta asrlar tarixiga qanday ta'riflar berilgan?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .

МГУ. 2001.

4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.

5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu : Franklar imperiyasi (4 soat)

**Reja:**

1. **Frank korolligining tashkil topishi hamda Merovinglar boshqaruvining o'rnatilishi.**
2. **"Sali haqiqati". Franklarda feodallashuv jarayoning kuchyishi.**
3. **Karolinglarning hokimiyat tepasiga kelishi. Buyuk Karl davrida Frank qirolligi.**
4. **Buyuk Karl imperiyasining parchalanishi.**

Rim imperiyasi teretoriyasida tuzilgan varvar korolliklari ichida eng kattasi va kuchligi franklar korolligi edi. Franklar bora-bora burgundlarni bo'ysundirdilar. Galliyadai vestgotlarni surib chiqardilar. Italiyada langobardlarni zabt etdilar va Reynning narigi tomonida qolgan germanan qabilala-rining hammasini deyarli o'zlariga itoat ettirdilar.

**Franklarning ilk tarixi. Merovinglarning boshqaruvi**

Xlodvigdan oldingi franklar. Franklarning o‘zlari ham dastlab Reynning narigi tomonida yashar edilar. Ularning ota-bobolari Tatsitning asarida har xil nomlar bilan, chunonchi, xamavlar, sukambrlar, batavlar degan nomlar va boshqa nomlar bilan atalgan. «Frank» degan nom (bu so‘zni «jasur», « erkin» deb tarjima qilishadi) **III** asrning o‘rtalaridagina paydo bo‘lib, qandaydir bitta qabilaga emas, balki Reynning o‘rta va quyi oqimlarida yashagan butun bir gruppa germanan qabilalariga taalluqli umumiy bir nom edi, bu qabilalar dastlab reyn daryosining o‘ng qirg‘og‘ida yashar edilar. Dastlab ular rimliklarga nisbatan dushmanlik munosabatida bo‘ldilar, keyin bu munosabat ancha do‘stona munosabatga aylandi. 451 yildagi Katalaun jangida, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek„ franklar fedYeratlar sifatida rimliklar tarafida turib-gunnlarga qarshi urushdilar. Usha vaqtdayoq ular katta-katta ikki gruppaga bo‘lingan bo‘lib, bir gruppasi (ular Reynning quyi oqimida yashardilar) dengiz bo‘yi franklari yoki salv franklari deb, ikkinchi gruppasi Reynning o‘rta oqimida (har ikki qirg‘oqda) yashagan franklar—qirg‘oq franklari yoki ripuar franklari deb atalar edi. Bulardan kuchlisi sali franklari bo‘lib, ular. Galliyaning g‘arbiga qarab bordilar. Ularning ahamiyati V asr oxiri — VI asr boshlarida korol Xlod-vig zamonida juda ham oshdi.

Xlodvig. Xlodvigning podsholik tarixi (481—511) episkop Grigoriy Turskiyning «Franklar tarixi» degan kitobida mu-fassal bayon qilingan bo‘lib, Turskiy bu kitobni ancha keyinroq, VI asrning ikkinchi yarmida yozgan. Franklar hayotida ro‘ybergankatta-katta voqealar Xlodvig nomi bilan bog‘langandir. Xlodvig 486 yilda butun Shimoliy Galliyani istilo qildi. Rimnilg bu oblasti hali varvarlar tomonidan zabt etilmagan bo‘lib, Rim imperiyasi qulagandan keyin Shimoliy Galliyaning amalda koroli bo‘lib qolgan Siagriy degan rimlik bir ma-halliy magnat, tomonidan idora qilinar edi, bu oblastning markazi Parij edi. Siagriy franklarga sal bo‘lsa-da, jiddiy bir qarshilik ko‘rsata olmadi. Suasson shahriga yaqin bir joy-da qat’iy jang bo‘ldi. Rim q,o‘shini franklar tomonidan tor-mor etildi. Siagriy vestgotlar koroli huzuriga qochdi, lekin vestgotlar koroli uni Xlodvigga tutib berdi. Xlodvig asirni o‘ldirishga buyruq berdi.

Katta va muhim bir teretoriyani — Sena va Luara daryolari havzasini zabt etib olib, Xlodvig franklarga juda mo‘l-ko‘l Yer bo‘lib berish imkoniga ega bo‘ldi. Daryolari juda ko‘p, Yeri sYerhosil, dehqonchilik uchun qulay bukzor va qayinzor o‘rmonlarga boy bo‘lgan keng, lekin rimliklar vaqtida huvullab qolgan bu rayonga boshdan-oyoq franklar ko‘chib keldi.Bu rayon-ga ko‘chib kelib joylashgan franklar soni hali Reynning narigi tomonida yashab kelayotgan franklar ichidan yana ahyon-ahyonda ko‘chib kelib turgan kishilar hisobiga ko‘payib bordi. Xlodvig o‘z podsholigining oxirgi davrida Luaraning janubiga ancha jilib borib, Goronna daryosigacha etdi. Vestgotlar Galliyaning janubidagi Yerlardan bir oz qisminigina saqlab qoldi, xolos. Xlodvig, Burgundiyani ham bosib olishga harakat qildi, lekin bu maqsadini amalga oshirmadi, burgund koroli saroyiga o‘z ta’sirini o‘tkazish bilangina cheklanib qo‘ya qoldi.

90- yillar o‘rtasida Xlodvig xristianliqni qabul qildi. Dastlab xristianlikni Xlodvigning o‘zi va drujinasi qabul qildi. Keyin oddiy franklar va ularning oila a’zolari ham qabul qildilar. Varvarlarning xristian dinini qabul qili-shining o‘zi muhim bir fakt edi, Chunki bu narsa ularning ro-manla Shuvidan dalolat berar edi. Lekin franklarning xristianla Shuvi ikkinchi bir, yanada muhimroq ahamiyatga ega edi. Varvarlarning ko‘pchiligi (vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar) xristianlikni arianlik deb atalgan formada qabul qilgan bir vaqtda (arianlik—katolik cherkoviga nisbatan bir mazhab edi) franklar arianlikni qol-dirib, xristianlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri galliya-rim katolik ruhoniylaridan qabul qildilar. Bu narsa Frank korolligi-ning yanada rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Galliya va Rimdagi e’tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa Frank korollarini zo‘r berib qo‘llab-|quvvatladilar. Bu narsa franklarning Galliya janubidagi qolgan Yerlarni Bestgotiya va Burgundiyani bo‘ysundirishlaryni ancha osonlashtirdi hamda franklarning o‘z orasida ham korol hokimiyati ta’sirvning ortishiga ancha yordam berdi. Xlodvig qolgan barcha sali va ripuar korollarini sekin-asta qira borib, yangi juda katta korollikning yakkayu yagona koroli bo‘lib oldi, bu korollik (reynning narigi tomonidagi Yerlardan tashqari) Galliyaning to‘rtdan uch qismini o‘z ichiga olar edi.

Xlodvigning o‘g‘il va nevaralari korollikni tez-tez bo‘lib va qayta. bo‘lib turishlariga o‘zaro urushlar olib borib turishlariga qaramay, korollikning chegaralarini kengaytirishni davom ettirdilar. 534 yilda ular Burgundiyani zabt etdilar, 542 yilda Vestgotlarning Galliyadagi oxirgi Yerlari ham bosib olindi. Reynning narigi tomonida esa Alemaniya, Tyuringiya, Bavariya hamda saks qabilalarining ba’zilari franklarga bo‘ysundi. VI asrning ikkinchi yarmida Frank korolligi barcha varvar korolliklari ichida eng katta korollik edi. Ilgari Teodorix davrida ostgotlar qo‘lida bo‘lgan tegemonlik endi franklar qo‘liga o‘tdi.

**«Sali haqiqatiga» ko‘ra franklarning ijtimoiy tuzumi.**

Franklarning V asr oxiri — VI asr boshlaridagi ijtimoiy tuzumi «Sali haqiqati» franklarning sud sohasidagi rasm-qoidalarni to‘plami bo‘lib, Xlodvig zamonida, uning podsholigining oxirlarida (500 yilga yaqin) yozilgan bo‘lsa kerak. «Sali haqyqati»ga («Lex Salia») asoslanib turib, franklarning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin. «Sali haqiqati»dagi bir qancha moddalar erkin franklarning ekin Yerlari, turli xildagi dehqonchilik qurollari, ish hayvonlari bo‘lganligidan, boshoqli o‘simliklar etishtir-ganligidan dalolat beradi.

Ularning xo‘jaligida chorv'achilik (ayniqsa cho‘chqa boqish) ham katta rol o‘ynagan. «Sali haqiqati»da yana baliqchilik, asala-richilik, bog‘dorchilik va dehqonchilikka oid bo‘lgan asosiy hunarlar to‘g‘risida ham gapiriladi. Unda dehqonning hovlisi va bu hovlidagi har turli xo‘jalik binolari, asbob-uskunalar to‘la tasvirlab berilgan. Jam-oa a’zosi bo‘lgan frank dehqonlari shaxsiy mulk tarzida tomorqa Yerga ega bo‘lganlar, jamoaga qarashli bo‘lgan dalada ma’lum Yer uchastkalarini ishlaganlar, jamoaga qarashli keng o‘rmon va yaylovlardan birgalikda foydalanganlar. «Sali haqiqati»da Yerni sotish va sotib olish to‘g‘risida, uni birovga in’om qilish yoki vasiyatga muvofiq boshqa kishiga topshirish to‘g‘risida hech narsa deyilmaydi. Haqiqatda franklarda o‘sha vaqtda Yer xususiy mulk emas edi. Yer jamo~a tash1kilotiping mulki bo‘lyb, ayrim frank o‘z Yer uchastkasidan ma’lum shartlar asosida foydalanardi, xolos. Hosil yig‘ib olingapdan keyin dalalarda hamma birgalikda mol boqardi.

«Sali haqiqati»da o‘rmon va yaylovdan, suvdan birgalikda foydalanish haqida gapirilgan moddalar bor. Qishloq jamoa-si (marka) bu manbaga ko‘ra, o‘z hayotining ilk bosqichida hali mutlaqo urug‘chilik tuzumiga xos bo‘lgan belgilarga ega edi. “Sali haqiqati”ga ko‘ra urug‘ jamoaga qarashli Yerlarning asosiy egasi bo‘lish bilan birga, yana siyosiy tashkilot ham edi. Urug‘ a’zolarining havdmasi ,kafillgakda qatnashardi, ya’ni sudda aybdor qarindoshi uchun kafolat berardi. Qotillik uchun to‘la- shdig.'sh xunning (vergeldning) faqat bir qlsminigina qotilippg oilasi to‘lar edi. Buni urug‘ a’zolari ham to‘lashi lozym edi. Shuningdek vergeld ham o‘ldirilgan odamning oilasi bilan urug‘ o‘rtasida taqsimlanardi. Yer urug‘dan tashqariga chiqib ketmasin uchun Yerni ayollarga berish yoki qoldirish taqiq-langan edi. Farzandsiz frank o‘lsa, uning Yeri aka-ukalariga va o‘zining urug‘idagi boshqa Yerkak qarindoshlariga o‘tar edi.

Biroq «Sali haqiqati» urug‘chilik tuzumining emirila boshlaganligidan ham dalolat beradi. Vorislik va kafolat huquqidan voz kechib, urug‘dan chiqish mumkin edi. Franklarda sotsial va mulkiy bo‘linish (tabaqalanish) ochiq ko‘rinib turardi. Bi-rinchi o‘rinda korol drujinachilari turardi, bularning vergeldi (xuni) 600 solid[1] belgilangan zdi. Oddiy erkin frank-ning joni uchun faqat 200 solid vergeld to‘lanar edi. Yarim erkin kishining — litning — vergeldi esa 100 solid edi. Qulni o‘'ldirganlik uchun quldorga 30 solid to‘lanardi, ya’ni urushda miniladigan otni o‘g‘irlaganlik uchun qancha to‘lansa, qul uchun ham o‘shancha to‘lanardi. Shunisi xarakterliki, rimlikni o‘ldirganlik uchun to‘lanadigan vergeld franknikidan ancha kam edi.

Yirik pomestelar bo‘lgan-bo‘lmaganligi «Sali haqiqati»da ochiq aytilmagan. Lekin, ba’zi bir alomatlarga (xonaki hunarmandlar sonining ro‘yxatiga qullar sonining juda ko‘pchiligiga va boshqalarga) qarab fikr yuritganda, V—VI asrlardayoq erkin frank qishlog‘i bilan bir qatorda yirik Yer egalarining pomestelari ham bo‘lgan. Katta Yer egalari korolning o‘zi, uning drujyanachilar, govori tabaqa ruhoniylari va qis-man Yerlarni saqlab qolgan hamda saroy ahliga yaqin bo‘lgan («Sali haqiqati»da aytilishicha, «korolning hamtovoqlari» bo‘lgan) rimlik Yer egalari edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu davrdagi frank jamiyatida asosiy figura erkin frank

edi, *u* qishloq jamoasining to‘la huquqli a’zosi, jamoa Yerining egasi, yirik Yer egasiga qaram bo‘lmagan, mustaqil bo‘lgan erkin dehqon edi.

**Xlodvigdan keyin franklardagi feodallashuv jarayoni.**

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab franklar jamiyatida keskin o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu vaqtda Yer bemalol qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi mumkin bo‘lgan xususiy mulkka (avlodga) aylandi, ya’ni mulkdor uni o‘z xohishi bilan sotar, alishtirar, sotib olar, boshqa birovga taqdim qilar yoki vasiyat qilib qoldirar edi. VI asrning oxiridan boshlab, ayniqsa VII va VIII asrlarda qilingan bu xil oldi-sotdilarning barcha xillarini ko‘rsatadigan ko‘pdann ko‘p ma’lumotlar saklanib kolgan.

Bunday sharoitda dehqonlarning bir qismi tezlik bilan o‘z Yeridan ajrala bordi. Ocharchilik, mollarning qirilishi va boshqa xil stixiyali ofatlar, Xlodvigning o‘g‘illari, nevara va evaralari o‘rtasida uzoq vaqt davom etgan urushlar natijasida mamlakatning xarob bo‘lishi, urug‘chilik aloqalarining yemirilishi tufayli endi ayrim oilalar bo‘yniga tusha boshlagan sud shtraflari — mana Shularning hammasi mustaqil frank dehqonini xonavayron qildi. Dehqonlarning mayda Yer egaligi emirilib tushkunlikka uchragan bir vaqtda, yirik dunyoviy va cherkov Yer egaligi avj oldi. Xlodvigning vorislari korol Yerlarini benefitsiy (aynan tarjimasi: «xayr», «saxovat») tarzida o‘z drujinachilariga bo‘lib;berdilar, bular asta-sekin votchinachi — katta Yer egalariga aylanib bordilar, ular Yerni mYeros tariqasida o‘z 'bolalariga qoldirardilar. Cherkov ham korol xazinasidan (korol Yer fondidan) in’om (donatio) tariqasida ko‘p Yer oldi. Dunyoviy zodagonlar ham cherkov zodagonlari ham,' o‘z Yerlarini, koroldan tashqari, birinchi navbatda dehqonlar hisobiga kengaytirdilar. Dehqonlar qo‘shni dunyovij katta Yer egalari homiyligiga (patronat yoki kommendatsiyasiga) o‘tdilar. Shuningdek, dehqonlar cherkovdan madad olish maqsadida Yerlarini Shu shakldla bo‘lar edilarki, cherkov-dehqonlarga bir uchastka Yerni ma’lum miqdorda obrok to‘lab turish yoki barshchina o‘tash sharti bilan umrbod foydalanishga berardi, bu Yer uchastkasi prekariy deb atalardi. Foydalanish uchun cherkovdan «prekariy» (sof ma’nosi: «iltimosga muvofiq berilgan uchastka») olgan dehqonlarning ahvoli Yerga o‘rnashtirilgan va xo‘jayiniga biror xil majburiyatni ado etib turadigan kolonlar, litlar va qullarning ahvoliga o‘xshab ketar edi. Prekariy olgan dehqonning o‘z Yeri ham prekariyga aylanib, asta-sekin katta cherkov Yer egaligining mulkiga qo‘shilib ketardi. Prekariy olgan dehqonning o‘g‘li yoki nevarasi butunlay krepostnoyga aylanib ketar edi. «Sali Haqiqati»ga ilova qilingan qo‘shimchalarda kambag‘allashgan franklar to‘g‘risida, qisman hatto butunlay xonavayron bo‘lgan kishilar to‘g‘risida juda ochiq gapiriladi, bular solingan shtraflarni to‘-lashga qurblarkg etmay, o‘rmonlarda daydib, qaroqchilik qilib yurardilar. Ba’zi kambag‘allar esa ovqat uchun o‘zyni qul qilib sotib, asoratga tushardi va, Shunday qilib, shaxsiy erkinlikdan mahrum bo‘lardi.

erkin va mustaqil dehqonlarning asta-sekin yo‘qolib, krepostnoy kishilar sinfiga aylanishida ifodalangan feodalla Shuv protseosi sobiq Rim imlYeriyasiga kelib joylashgan varvar-larning hammasida ham bo‘ldi. Franklarda esa bu protsess hali juda mustahkam bo‘lgan baquvvat erkin dehqonlarning («Sali haqiqati»da ko‘rsatilgan dehqonlarning) qaramlik kre-postnoylik holatiga ochiq, keskin tusda o‘tishida namoyon bo‘ldi xolos, bunda dehqonlar yuridik jihatdan boshqa kishiniki bo‘lgan Yerda o‘tirib, Shu Yer egasining foydasiga biron xil «tutqinlik» majburiyatini o‘tar edi. «Lekin Shu narsani aytib o‘tish kerakki, erkin dehqonlarning yo‘qolib borish protsessi VI va VII asrlarda Frank davlatining hamma oblastlarida bir xil bo‘lgan emas. Yangi tartiblar korollikning g‘arbiy qismida Neystriyada, qisman janubi-Sharqiy Burgundiyada juda tez tarqaldi; Shimoli- Sharqiy okruglarda — Avstraziyada esa bu protsess u qadar kuchli bo‘lmadi. Bu okruglarda Rim ta’siri (Yerning xususiy mulkka aylanishi sohasidagi ta’siri) boshqa joylardagidyok kuchli emas edi, bu Yerda urug‘chilik-jamoachilik munosabatlari uzoqroq saqlanib qoldi. Avstraziyada dehqonlar siyosiy jihatdan ham, xususan umum xalq lashkarining qatnashchisi sifatida VII asrdagina emas, balki VIII asrda ham katta rol o‘ynab keldilar.

**Merovinglar hokimiyatining zaiflashuvi.**

«Yalqov korollar». *Katta Yer egaligining o‘sishi va Shu bilan birga korol Yerlarining kamayib borishi hamda ilgari faqat korolning o‘zigagina tobe bo‘lib, unga asosiy harbiy resurslar berib kelgan erkin dehqonlarining xiyla qismining yo‘q bo‘lishi natijasida korol hokimiyati tushkunlikka uchradi.* Merovinglar sulolasisi deb nom chiqargan Xlodvig sulolasisi o‘zaro urushlar natijasida ham zaiflashdi. Bu o‘zaro urushlarning qanday xarakterda bo‘lganligi, Xlodvigning nevara va evaralari o‘rtasida bo‘lgan qirq yillik urushdan juda ochiq ma’lumdir. Bu urush VI asrning 60- yillari oxiridan to 613 yilgacha davom etdi. Sulolasining ikki avlodi o‘rtasida bo‘lgan bu dahshatli va qonli kurashda ikki korolicha ayniqsa katta rol o‘ynadi: biri Avstraziya koroli SugibYertning xotini Brungilda, ikkinchisi Neystriya koroli XilpYerikning xotini Fredegonda edi. Brungilda (u aslida vestgot malikasi edi) korol xonadonidagi unta shahzodani o‘ldirtirdi, raqibi Fredegonda va o‘z Yeri Sugibret o‘lgandan keyin, dastlab o‘g‘li nomidan, keyin nevaralari nomidan yurtni o‘zi idora qildi, axir o‘ziga qarshi qo‘zg‘olon qilgan Avstraziya zodagonlari tomonidan o‘ldirildi.

613 yild'a butun korollikda hokimiyat XilpYerik va Fredengondaning o‘g‘li Xlotar II ga o‘tdi. Xlotar 614 yilda farmon chiqarib Yerdor aristokratiyaning o‘zaro urushlar vaqtida olgan pomestelarini o‘sha aristokratiya ixtiyorida qoldirish majburiyatini o‘z ustiga oldi va graflarni (okrug hokimlarini) faqat mahalliy Yer egalari orasidan tayinlashga va’da berdi. Shunday qilib, Yerdor aristokratiya Merovinglar xonadoniga mansub bo‘lgan korollarning o‘zaro urushlaridan o‘z manfaatla-ri uchun to‘la foydalandi.

Xlotar II hokimiyati kuchli hokimiyat bo‘lmadi. Korol hokimiyatining e’tibori Xlotar II ning o‘g‘li DagobYer zamonida (629—639) birmuncha oshdi. DagobYer franklar davlatining Sharqdagi chegaralarini kengaitirishga urinib, slavyanlarga qarshi yurishlar qildi. Lekin u o‘lgandan keyin Shuiday bir davr boshlandiki, 639 yil bilan 751 yil o‘rtasidagi butun bir davrni o‘sha vaqtdagi kishilarning o‘zlari ham «yalqov korol-lar» davri deb atadilar. VII—VIII asrlardagi Merovinglar faqat nomigagina korol bo‘lib, ular qo‘lida haqiqiy hokimiyat yo‘q edi. Ular -qo‘lida korol Yerlarining ozgina qismigina qolgan edi. Butun ma’muriy, sud va harbiy hokimiyatni mahalliy magnatlar tortib oldi. Neystriya, Burgundiya va AvstraziyaDa eng zodagon xonadonlar etishib chiqib, bular o‘z yurtlarida korol mayordomlari sifatida butun hokimiyatni o‘z qo‘lla-riga oldilar. Bir vaqtlarda, ya’ni dastlabki Merovinglar dav-rida korol saroyida eshik og‘asi lavozimida ishlagan kishi, mayordom (so‘zma-so‘z ma’nosi: «xonadon og‘asi», ya’ni saroy bosh-lig‘i deb atalar edi. Endi esa mayordomlik haqiqatda parchalanib ketgan Frank davlatining ayrim bo‘laklarining har birida joriy etilgan eng yuqori ma’muriy mansab bo‘lib qoldi.

Dastlab uch mayordomdan eng kuchligi Neystriya mayordomi edi. U Burgundiya mayordomini ham o‘ziga bo‘ysundirdi, lekin Neystriya mayordomi tez vaqt ichida kuchliroq bo‘lgan boshqa bir mayordomning Avstraziya mayordomining qarshiligiga uchradi. Sharqiy frank mayordomining ahvoli qulayroq edi. Avstraziya mayordomlari ko‘p srnli harbiy kuchga tayanish imkoniga ega bo‘ldilar, bu harbiy kuchning bir qismi bu Yerda hali saqlanib turgan erkin dehqonlardan iborat edi. Shu bilan birga Avstraziyada zodagonlar birmuncha kuchsiz bo‘lib, ular o‘z gersogining— mayordomining boshchiligiga bo‘ysunishga majbur edilar. Ney-striyada esa, aksincha, ko‘pgina yirik feodal xonadonlari bir-biri bilan raqobat qilmoqda edi. Oxiri, Avstraziyaning Pipin-lar xonadonidan chiqqan mayordom gersog Pipin II Geristalskiy687 yilda TYertri yonida bo‘lgan jangda raqibi Neystriya mayordomini tor-mor qilib, Shu vaqtdan boshlab butun korol-likni bir o‘zi idora qila boshladi. Ammo, Shu bilan birga, u Meroving korollarining nomigina dolgan hokimiyatni saqlab keldi. Haqiqatda esa Pipin Geristalskiy yangi sulolasini boshlabberganedi, bu sulolasi keyincha uning eng mashhur namo-yandasi bo‘lgan Karl Buyuk nomi bilan atalgan Karolinglar sulolasisi deb ataldi.

**VII—IX asrlarda frank davlati. karolinglarning idora qila boshlashi**

VII asrning oxiri — VIII asrning boshlarida Frank davlati butunlay parchalanib ketdi. Pipin GYeristalskiyning g‘alaba qozongan bo‘lishiga qaramay, Neystriya va Burgundiya magnat-lari hali ham o‘zlarini markaziy hokimiyatga u qadar qaram chmas, deb his qilar edilar. Akvitaniya korollikdan tamomak ajralib chiqdi va Avstraziya gersogi Akvitaniyaning

hokimiyapshi tan olmadi. Reynning narigi tomonidagi qabilalar—allsmanlar, frizlar, sakslar va bavarlar ham ajralib chiqdi. Janubi-g‘arbda arablar xavf tug‘dira boshladilar, hatto VIII asrning 20- va 30- yillarida butun Frank davlati arablar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olinish xavfi ostida qoldi. Lekin yangi sulolasi ana  Shunday og‘ir bir sharoitda korol-likning harbiy kuchlarini qaytadan tashkil etib, tashqi dush-manga zarba berishga muvaffaq bo‘ldi. Bu sulolasi yanada feodallashgan zodagonlarning ta’sirini cheklash hamda o‘rta va mayda harbiy xizmatchilarga suyanib turib, korollikni bir-qadar, markazlashtirishga harakat qildi.

Karl Martell va uning arablarga qarshi kurashi. Pipin Geristalskiyning o‘g‘li Karl Martell («To‘qmoq») mayordom-gersog sifatida 715 yildan 741 yilgacha idora qildi. U g‘ayratli va iste’dodli lashkarboshi edi. Avstraziyaning o‘rta va mayda Yer egalaridan iborat bo‘lgan o‘z drujinachilariga suyanib turib, u Neystriya aristokratiyasining oppozitsiyasini uzil-kesil tor-mor qildi, so‘ngra frizlar, sakslar, allemanlar va bavarlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar qilib, Reynning narigi tomonida frank davlatini tikladi. Bu qabilalarning hammasi franklarga yana xiroj to‘laydigan bo‘ldy.

Franklarning Karl Martell tomonidan takomillashtiril-gan yangi qo‘shini ( yaxshi qurollangan, qisman professional otliq askarlar tashkil qilingan edi, piyoda askarlar ham o‘z ahamiyatini qisman saqlab qolgan edi) arablar bilan bo‘lgan to‘qnashishda juda  yaxshi ish ko‘rsatdi.

732 yilda Ispaniya arablari Galliyaga katta yurish qildilar. Arablar sarkardasi Abdurahmon Akvitaniyaga kirdi va uni ishg’ol qilib, Parijga boradigan eski Rim yo‘li bilan Shimolga qarab yurish qildi. Karl Martell o‘z qo‘shini bilan Puatega  yaqin joyda arablarga ro‘para bo‘ldi;  Shu Yerda 732 yil oktyabrida ilk o‘rta asr sida juda katta janglardan biri bo‘ldi. Jang uch kun davom etdi. Ikki tomon ham bo‘sh kelmadi. Jantning uchinchi kuni Abdurahmon o‘ldirildi, arablar esa franklarga juda boy obozlar qoldirib, kechasi chekina boshladilar. Bu jangda Yerishgan g‘alabasi uchun ham mayordom-gersog «to‘qmoq» degan laqab oldi. Arablar xuddi Pireneyagacha siqib olib borildi. Besh yildan keyin arablar janubiy Galliyani bosib olishga yana urinib ko‘rdilar. Lekin Karl Martell ularni ikkinchi marta yana tor-mor qildi.

Puate yonidagi jangning eng birinchi siyosiy oqibati  Shu bo‘ldiki, Karl Martell harbiy reforma qildi. Harbiy ishda otliq qo‘shin uzil-kesil ravishda asosiy o‘rin tutadigan bo‘lib qoldi (ilgari esa, qadimgi  germananlarning hammasida bo‘lgani kabi, franklarda ham asosiy kuch piyoda askarlar edi).  yaxshi qurollangan va ot ustida uzoq-uzoq yurishlar  qilishga qobil bo‘lgan otliq askarlar yangi frank qo‘shin'ining  asosiy kuchiga
aylandi.Tabiiy, endi bo‘nday qo‘shinning xonavayron bo‘lgan va ilga-rigi mustaqilligid'an mahrum qilingan dehqonlardan tuzili-shi mumkin zmas edi.  Shunday qilib, Karl Martellning refor-masi natijasida dehqonlarning ko‘pchiligi harbiy xizmatdan chetlashtirildi. Bu yangi professional otliq qo‘shin yoki keyin-cha atala boshlaganidek, ri s a r l a r[1] qo‘shini katta Yer egalari va hali  erkinlikdan mahrum qilinmagan dehqonlarning eng badavlatlaridan tuziladigan bo‘lib qoldi.

Karl Martellning sotsial siyosati. Cherkov Yerlarining qis-man sekulyarizatsiya qilinishi. Harbiy ishning reforma qnlini-shi munoeabati bilay Karl Martell Yer sohasida alohida siyo-sat yurgizdi.  yaxshi qurollangan va moddiy jihatdan  yaxshi ta’-minlangan otliq askarlar zarur bo‘lganligi  sababli, Karl Martell  davlat fondiga  qarashli  Yerlardan  (bu fond yangi istilolar va isyon ko‘targan zodagonlarning Yerlarini musodara qilish natijasida kengayib ketgan edi) harbiy benefi-siylar deb atalgan Yer uchastkalari  berishni keng suratda qo‘llandi. Bu benefitsiylar harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan umrbod foydalanish uchun  beriladigan o‘rtacha  va mayda pomestelar edi.  Shu bilan keyinroq borib paydo bo‘lgan mayda pomesteli ritsarlarning vujudga kelishi uchun asos solindi, bu ritsarlar tashkil topayotgan feodallar sinfining juda ko‘p-chiligini tashkil etgan quyi tabaqasi edi. Bu pomestelardagi Yerksiz dehqonlar esa mehnat qilib, o‘z xo‘jayinlarini — «urushuvchi odamlar»iig— ritsarlar ni boqishga majbur edilar. Harbiy xizmat o‘tovchilarga davlat fondiga qarashli Yerlardan uchastkalar berish bilangina cheklanmasdan, Karl Martell  Shu maqsad uchun cherkov Yerlaridan ham qisman foydalandi. U o‘ziga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarda dunyoviy

zodagonlar bilan birlikda qatnashgan episkop va abbatlarning pomestela-rini musodara qildi. Neystriyada va Akvitaniyada bunday ruhoniy Yer egalari ko‘p edi. Ruhoniylardan musodara qilib olingan Yerlar ham benefitsiylarga aylantirildi. G‘arbiy Yevropa tarixida bu narsa birinchi marta o‘tkazilgan katta sekulyarizatsiya edi, ya’ni cherkov mulkini tortib olib, dunyoviy kishilar qo‘liga topshirish edi. Lekin Karl Martell tomonidan qiliigap sekulyarizatsiya to‘la sekulyarizatsiya emas edi. Bu sekulyarizatsiya cherkov Yerlarining faqat bio qismiga nisbatan qo‘l-laiilgan edy. Keyinchalik Karl Martellning o‘g‘li Pipin Pakana musodara qilingan Yerlarni ham cherkovga qaytarib berishga majbur bo‘ldi, lekin Shu shart bilan qaytarib berdiki, bu Yerlar haqiqatda foydalanuvchilar, ya’ni ritsarlar qo‘lida bo‘lib, ritsarlar buning avaziga hosilning o‘ndan bir qismini cherkov alohida, qo‘shimcha ravishda to‘lab turishi kerak edi.

Pipin Pakana va uning korollik unvonini olishi. Karl Martellning taxt vorisi Pipin III Pakana ham (741—768) avval faqat mayordom unvoni bilan yurdi. Meroving korollari odatdagi tartib bilan biri o‘rniga ikkinchisi kelib turdi, lekin ular davlatni idora qilishda hech bir qatnashmas edilar. Nihoyat, Pipin davlat o‘zgarishi yasab, har qanday hokimiyatdan mahrum bo‘lgan eski sulolasini taxtdan tushirdi. Bu o‘zgarish Rim papasining faol yordami bilan amalga oshirildi.

Pipin hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq papalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qildi. Xuddi Shuning uchun ham u cherkov Yerlarini sekulyarizatsiya qilishdan bosh tortdi. YAna Shu «maqsadda Pipin Reynning narigi tomonidagi papa missionerlariga turli yo‘llar bilan yordam berdi. Allemanlar, frizlar va sakslar o‘rtasida xristianlikning targ‘ib qilinishi butun G‘arbiy Yevropani o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirish payida bo‘lgan papalarga ham, Reynning narigi tomonidagi teretoriyalarda mahkam o‘rnashib olishga harakat qilgan frank hukmdorlariga ham foydali edi.

Papalar bilan yangi frank hukmdorlarining bir-biriga yaqinla Shuviga Italiyadagi ahvol ham yordam berdi. Langobard korollari papalar bilan frank hukmdorlarining umumiy dushmani edi.

Papaning «tomonini olish» bilan frank hokimlari Italiya ishlariga aralashish uchun o‘zlariga juda qulay bahona topib oldilar.

751 yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig‘ilishida Pipin frank koroli deb e’lon qilindi. Oradan ko‘p vaqt o‘t-may, G‘arbiy germananiyadagi frank missionerlarining ishiga boshchilik qilib turgan Mayns arxiepiskopi Bonifatsiy papaning buyrug‘iga muvofiq Pipinni korol deb tanish marosi-mini o‘tkazdi. Shunday qilib, yangi sulolasi cherkovdan o‘ziga kerakli sanksiya olishga muyassar bo‘ldi.

Oxirgi Meroving-XildYerik III («korol degan nomni noto‘g‘ri olib yurgan»— deb yozgan edi to‘ntarishga xayrixohlik ko‘zi bilan qaragan bir xronist) monastirga solindi, umrining oxi-rigacha Shu Yerda bo‘ldi. Merovinglarni chetlatishda yordam bergani uchun papaga minnatdorlik yuzasidan Pipin Pakana lango-bardlarga qarshi 755—756 yillarda ikki marta yurish qildi., langobardlar papani siqib, Rimning o‘zini ham bosib olish xavfini solayotgan edilar.

Langobardlarni tor-mor qilib, Pipin papa Stefan II ga (752—757) Ravenna eqzarxatini va Rim oblastini «hadya» qildi, ya’ni papaning o‘rta Italiyadagi Yerlarini ham o‘z ichiga olgats juda katta bir teretoriyaga uzil-kesil mustaqil dunyoviy hukmdor bo‘lib olishiga yordam berdi. Shu tariqa VIII asrning o‘rtalarida Yevropada cherkov papa davlati vujudga keldi, bu davlat bo‘lgan otliq askarlar yangi frank qo‘shin'ining asosiy kuchiga aylandi.

Tabiiy, endi bo‘nday qo‘shinning xonavayron bo‘lgan va ilga-rigi mustaqilligid'an mahrum qilingan dehqonlardan tuzilishi mumkin zmas edi. Shunday qilib, Karl Martellning refor-masi natijasida dehqonlarning ko‘pchiligi harbiy xizmatdan chetlashtirildi. Bu yangi professional otliq qo‘shin yoki keyin-cha atala boshlaganidek, ri s a r l a r qo‘shini katta Yer egalari va hali erkinlikdan mahrum qilinmagan dehqonlarning eng badavlatlaridan tuziladigan bo‘lib qoldi.

Karl Martellning sotsial siyosati. Cherkov Yerlarining qisman sekulyarizatsiya qilinishi. Harbiy ishning reforma qnlini-shi munoeabati bilay Karl Martell Yer sohasida alohida siyo-sat yurgizdi. yaxshi qurollangan va moddiy jihatdan yaxshi ta’minlangan otliq askarlar zarur

bo'lganligi sababli, Karl Martell davlat fondiga qarashli Yerlardan (bu fond yangi istilolar va isyon ko'targan zodagonlarning Yerlarini musodara qilish natijasida kengayib ketgan edi) harbiy benefisiylar deb atalgan Yer uchastkalari berishni keng suratda qo'llandi. Bu benefitsiylar harbiy xizmatni o'tash sharti bilan umrbod foydalanish uchun beriladigan o'rtacha va mayda pomestelar edi. Shu bilan keyinroq borib paydo bo'lgan mayda pomesteli ritsarlarning vujudga kelishi uchun asos solindi, bu ritsarlar tashkil topayotgan feodallar sinfining juda ko'p-chiligini tashkil etgan quyi tabaqasi edi. Bu pomestelardagi Yerksiz dehqonlar esa mehnat qilib, o'z xo'jayinlarini — «urushuvchi odamlar» ritsarlar ni boqishga majbur edilar. Harbiy xizmat o'tovchilarga davlat fondiga qarashli Yerlardan uchastkalar berish bilangina cheklanmasdan, Karl Martell Shu maqsad uchun cherkov Yerlaridan ham qisman foydalandi. U o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarda dunyoviy zodagonlar bilan birlikda qatnashgan episkop va abbatlarning pomestelarini musodara qildi. Neystriyada va Akvitaniyada bunday ru-honiy Yer egalari ko'p edi. Ruhoniylardan musodara qilib olingan Yerlar ham benefitsiylarga aylantirildi. G'arbiy Yevropa tarixida bu narsa birinchi marta o'tkazilgan katta sekulyarizatsiya edi, ya'ni cherkov mulkini tortib olib, dunyoviy kishilar qo'liga topshirish edi. Lekin Karl Martell tomonidan qiliigap sekulyarizatsiya to'la sekulyarizatsiya emas edi. Bu sekulyarizatsiya cherkov Yerlarining faqat bio qismiga nisbatan qo'llaiilgan edy. Keyinchalik Karl Martellning o'g'li Pipin Pakana musodara qilingan Yerlarni ham cherkovga qaytarib berishga majbur bo'ldi, lekin Shu shart bilan qaytarib berdiki, bu Yerlar haqiqatda foydalanuvchilar, ya'ni ritsarlar qo'lida bo'lib, ritsarlar buning avaziga hosilning o'ndan bir qismini cherkov-P1 alohida, qo'shimcha ravishda to'lab turishi kerak edi.

Pipin Pakana va uning korollik unvonini olishi. Karl Martellning taxt vorisi Pipin III Pakana ham (741—768) avval faqat mayordom unvoni bilan yurdi. Meroving korollari odatdagi tartib bilan biri o'rniga ikkinchisi kelib turdi, lekin ular davlatni idora qilishda hech bir qatnashmas edilar. Nihoyat, Pipin davlat o'zgarishi yasab, har qanday hokimiyatdan mahrum bo'lgan eski sulolasini taxtdan tushirdi. Bu o'zgarish Rim papasining faol yordami bilan amalga oshirildi.

Pipin hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq papalar bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qildi. Xuddi Shuning uchun ham u cherkov Yerlarini sekulyarizatsiya qilishdan bosh tortdi. YAna Shu «maqsadda Pipin Reynning narigi tomonidagi papa missionerlariga turli yo'llar bilan yordam berdi. Alle-manlar, frizlar va sakslar o'rtasida xristianlikning targ'ib qilinishi butun G'arbiy Yevropani o'z hokimiyatiga bo'ysundirish payida bo'lgan papalarga ham, Reynning narigi tomonidagi teretoriyalarda mahkam o'rnashib olishga harakat qilgan frank hukmdorlariga ham foydali edi.

Papalar bilan yangi frank hukmdorlarining bir-biriga yaqinla Shuviga Italiyadagi ahvol ham yordam berdi. Langobard korollari papalar bilan frank hukmdorlarining umumiy dushmani edi.

Papaning «tomonini olish» bilan frank hokimlari Italiya ishlariga aralashish uchun o'zlariga juda qulay bahona topib oldilar.

751 yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig'ilishida Pipin frank koroli deb e'lon qilindi. Oradan ko'p vaqt o't-may, G'arbiy germananiyadagi frank missionerlarining ishiga boshchilik qilib turgan Mayns arxiepiskopi Bonifatsiy papaning buyrug'iga muvofiq Pipinni korol deb tanish marosi-mini o'tkazdi. Shunday qilib, yangi sulolasi cherkovdan o'ziga kerakli sanksiya olishga muyassar bo'ldi.

Oxirgi Meroving-XildYerik III («korol degan nomni no-to'g'ri olib yurgan»— deb yozgan edi to'ntarishga xayrixohlik ko'zi bilan qaragan bir xronist) monastirga solindi, umrining oxi-rigacha Shu Yerda bo'ldi. Merovinglarni chetlatishda yordam bYer-

•gani uchun papaga minnatdorlik yuzasidan Pipin Pakana lango-bardlarga qarshi 755—756 yillarda ikki marta yurish qildi., langobardlar papani siqib, Rimning o'zini ham bosib olish xavfini solayotgan edilar.

Langobardlarni tor-mor qilib, Pipin papa Stefan II ga (752—757) Ravenna eqzarxatini va Rim oblastini «hadya» qildi, ya'ni papaning o'rta Italiyadagi Yerlarini ham o'z ichiga olgats

• juda katta bir teretoriyaga uzil-kesil mustaqil dunyoviy hukm-dor bo‘lib olishiga yordam berdi. Shu tariqa VIII asrning o‘rta-larida Yevropada cherkov papa davlati vujudga keldi, bu davlat butun o‘rta asrlar tarixi davomida katta rol o‘ynadi va hatto yangi (1870 yilgacha) va eng yangi zamonda ham saqlanib qoldi (Rim shahrining bir qismini egallagan hozirgi papa «davla-ti»— Vatikandir, u 1922 yildan bYeri yashab kelmoqda).

Shu narsa xarakterliki, frank korollari bilan bo‘lgan mu-zokaralarda papalar odatda, Rim oblastini Rim episkoplariga IV asrda Konstantin Buyuk hadya qilgan, binobarin, frank koroli ilgarydan «qonuni suratda» papaga qarashli bo‘lgan narsa-ni uning o‘ziga «qaytarib berayapti» xolos, dYer edilar. Haqiqat-da esa, Konstantin I na Rimni va na Rim oblastini hech qachon hech qanday papaga hadya qilgan emas. «Konstantin hadya qilgan» degan ran Shubhasyz uydirmadir. Pipin «Konstantin hadya qilgan» degan da’voga z’tiroz qilmadi, Chunki u papalardan kup man-faat kurgan edi. Papalar bilan yangi frank sulolasisi o‘rta-sida mustahkam ittifoq vujudga keldi, bu ittifoq har ikki tomonning bir-biridan chinakam manfaatdorligiga aooslangan edi. Otasiga o‘xshash Pipin ham Reynning narigi tomonida va Akvitaniyada urushlarni davom ettirdi. Uning zamonida arab-lar Janubiy Galliyadan butunlay siqib chiqarildi. Pipin o‘? siyosati bilan frank korolligining ravnaq topishi uchun zamin taYorladi. Uning o‘g‘li Karl Buyuk davrida Frank davlati im-pYeriyaga aylandi.

**Karl Buyuk imperiyasi**

Karl Buyuk Qarolinglar sulolasisining eng atoqli namoyan-dasi edi (sulolasi ham uning nomi bilan atalgan). U 46 yil hukmronlik qildi (768—814). Karl katta sarkarda va istilochn edi. Tarkib topayotgan frank feodal davlati Karl davrida juda katta agressiv siyosat yurgizdi. Juda ko‘p joylarni istilo qi-lib, Karl Buyuk juda katta bir davlatga boshliq bo‘ldi. Rim imperiyasi qulagandan keyin G‘arbiy Yevropada Karl Buyuk dav-latidek katta daalat dunyoga kelmagan edi: bu davlat frank-lardan tashqari o‘nlab boshqa qabila va xalqlarni o‘z ichiga olgan edi.

**Karl Buyuk urushlari.**

Karl Buyukning shaxsan o‘zi 50 dan ortiq yurishda qatnashdi. U Yevropaning turli joylarida urush qildi. U avvalo langobardlar masalasiga juda katta e’tibor berdi. Langobardlar Pipin tomonidan tor-mor qilingan bo‘li-shiga qaramay, langobardlar saroyida franklar bilan itti-foqda bo‘lishga qarshi turgan guruh bor edi. 773—774 yillarda Karl langobardlarga qarshi yana urush ochdi. U langobardlar poytaxti Paviyani bosib oldi va langobardlar koroli Dezi-dYeriyni taxtdan tushirdi.'Langobardiya Shundan keyin o‘z mus-taqilligini yo‘qotdi, frank korolligiga |qo‘shib olinib, graf-lar tomonidan idora qilina boshladi. Keyincha Karl Langobar-diyaga o‘zining o‘g‘li Pipinni vitse-korol k.ilib tayinladi.

VIII asrning 70-yillarida Karl arablar bilan ham urush qildi. U 778 yilda Pireneya tog‘lari orqasiga yurish qilib, Saragosa shahrini ) boeib olishga harakat qildi. YUrish muvaffa-qiyatsiz chiqdi, Saragosani ololmaDi. Qaytishda Ronseval dara-sida franklar arYergardiga mahalliy aholi — basklar hujum qildi. Bu jangda franklar otryadi deyarli butunlay qirib tash-landi. Halok bo‘lganlar qatorida Bretan markasining grafi Roland ham bor edi. Keyincha bu epizod «Roland haqida qo‘shiq» nomli mashhur dostonga tema bo‘ldi, bu doston ancha keyin yozil-di (XI asrning ikkinchi yarmida batamom yozilib bo‘ldi). 778 yilda Ispaniyada qilingan yurish muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, franklarning Pirenei tog‘laridanoshib o‘tishlarining o‘zi diqqatga sazovordir. Keyinchalik, VIII asrning oxiri va IX asrning xuddi boshida franklar Pireneya tog‘lari orqasiga yana bir necha marta harbiy yurish qildilar; bu yurishlar natijasida Pireneya tog‘lari bilan Ebro daryosi o‘rtasidagi oblast bosib olindi. Bu Yerda Ispan markasi deb atalgan alohida bir chegara okrug tuzildi, bu okrugga keyincha Barselona grafligi deb nom berildi. Notinch Akvitaniya ustidan nazoratni kuchaytirish uchun Karl u Yerga boshqa bir o‘g‘li Lyudovikni noib qilib tayinlab, unga Akvitaniya koroli unvonini berdi.

Lekin Karl Buyuk urushlarning ko‘pini Sharqda — Markaziy Yevropada olib bordi. U sakslar bilan bo‘lgan urushlarga ayniq-sa ko‘p kuch sarf qildi. Bu urush qattiq bo‘lib, 30 yildan ortiq (772 yildan 804 yilgacha) davom ztdi. Franklarni hisobga ol-maganda, sakslar G‘arbiy G‘Yermaniyada* yashagan qabilalar ichida eng katta qabila edi. Ular Reyndan Elbagacha cho‘zilgan juda katta teretoriyada o‘rnashgan edi. Sakslarning Karl zamoni-dagi ijtimoii

tuzumida urug‘chilik tuzumi alomatlari, uning barcha yaxshi va yomon tomonlari hali anchagina saqlanib qolgan edi. Sakslarning asosiy ommasi urug‘chilik aloqalari va qabila ichidagi aloqalar bilan o‘zaro mahkam bog‘langan erkin deh-qonlar, Shu bilan bir vaqtda jangchilardan iborat edi. Biroq, ular tarqoq holda bo‘lib, juda ko‘p qabilalarga va qabilaviy guruhlarga bo‘lingan edi, *bu* qabilalar va qabilaviy guruhlar uzluksiz ra^vishda bir-biri bilan urushib turardi. Ularning ishlab chiqaruvchi kuchlari darajasi (dehqonchilikda asosai partov sistemasi qo‘llanardi, mollar yaylovda boqilar edi), Shaxarlar va savdo mutlaqo yo‘q edi, Shuningdek, ularning qu-rol-aslahalari va urushish usullari ( yaxshi qurollanmagan deh-qon piyoda lashkarlari asosiy o‘rin tutar edi) franklarning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot darajasidan past edi, franklar bu vaqtda feodalla Shuv va romanla Shuv sohasida juda olg‘a qarab ketgan edilar. Feodallashib borayotgan frank zoda-gonlarining sakslarga qarshi olib borgan urushi feodallarga xos urush edi. Franklar o‘z oldilariga sakslar Yerini bosib olish va ularning o‘zini krepostnoylarga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Saksoniyaga qarshi urushishning yana bir sababi bor edi. Karl Baltika depgiziga chi-qishga harakat qildi, Baltika deigizi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida katta savdo ahamiyatiga zga edi (skandinavlar, slavyanlar va arablar savdosi Shu Baltika dengizi orqali olib borilar edi). Frank koroli Baltika savdo-sidan katta-katta xi-rojlar olishni mo‘l-jallar edi.

Karl sakslarni dastlab VIII asrning 70- yillarida bo‘ysun-dirdi. Avval g‘arbiy sakslar-vestfallar (ular Reyn va VezYer daryolari o‘rtasida yashar edilar) bo‘ysun-: dirildi. Ularning ketidan ostfallar ham bo‘ysundirildi (ular VezYer daryosining Sharqida yashar edilar). 777 yilda PadYerbornda bo‘lgan s’ezdda saks qabilalari ko‘pchiligining boshliqlari Karlga qasamyod qildi. Karlning buyrug‘iga binoan, sakslarning hammasi maju--siylik dinidan xristian diniga o‘tishlari kerak edi. Saksoniya-ga ko‘pdan-ko‘p frank ruhoniylari keldi, hamma yoqda cherkovlar qurila boshladi, sakslar cherkovga u Shur (hosilning o‘ndan bi-rini) to‘лащга majbur etilgan edilar. Lekin, Shundan keyin tez orada 778 yildan boshleb sakslar bir necha marta katta qo‘zg‘o-lon ko‘tardilar. Bu qo‘zg‘olonlardan kuzatilgan maqsad franklar zulmidan xalos bo‘lish edi. Karl bu qo‘zg‘olonlarni juda ham rahmsizlik bilan bostirdi. Minglab sakslar qatl etildi. Qo‘zg‘olonchilarning kupi qulga aylantirildi. Dastlab sakslar-ning qo‘zg‘olonlarida ularning zodagonlari ham «qatnashdi. Lekin Karl zodagonlarni sekin-asta o‘z tomoniga og‘dirib olishga muvaffaq bo‘ldi. Qo‘zg‘olon ko‘targan sakslarning aeosiy bosh-liqlaridan biri — vestfallar gersogi Viiukind qimmatbaho in’omlarga sotilib, 785 yilda sakslarga xiyonat qildi va Karl tomoniga o‘tdi. Lekin, Shunga qaramasdan, fashist tarixchilar uni « germananiyaning milliy qahramoni» deb e’lon qildilar. Sakslarning IX asr boshlaridagi so‘nggi harakati deyarli nuqul «oddiy sakslar» harakati tusida bo‘lib, asosan Saksoniyaning Shimolida (Nordalbingiyada) o‘tdi. Nihoyat, sakslar bo‘ysundirildi va Frank korolining fuqarosi sifatida frank graflari tomonidan idora qilinadigan bo‘ldi. Sakslarning itoatsizroq bir qismi Reyn daryosining chap qirg‘og‘iga — franklar orasiga ko‘chirildi, frank kolonistlari esa qaytadan Reyn daryosining o‘ng qirg‘og‘iga, ya’ni bir vaqtlarda frank qabilalarining ittifoqi vujudga kelgan Yerga o‘tib joylashdi.

Sakslar bilan urishish vaqtida Karl SHarhiy Yevropadagi boshqa xalqlar (bilan ham urush olib borishga majbur bo‘ldi. U polab (Elba bo‘yi) slavyanlari bilan urushdi va bu qabila-lardan ba’zilariga — lyutichlarga va lujichanlarga — xiroj soldi, Dunayning o‘rta oqimidagi kuchli Avariya podsholigi[1] franklarga qaram bo‘ldi. Dunayning yuqrri oqimidagi Bavariya korolligi tamomila bosib olindi, ilgari bu korollik franklarga ondasonda xiroj to‘lab turar edi. Xarutan-slovenlardan iborat janubiy slavyan qabilalari yashaydigan Xorutaniya (ka-rintiya), Shuningdek, Bolqon yarim orolining Shimoli-g‘arbidagi xorvat Yerlari Bovariya bilan birga Frank davlatiga qo‘shib olingan edi. Xorutaniya Frank davlati sostavida uzoq turmadi. Istilolar natijasida Karl Buyuk zamonida Frank davlati juda kengayib ketdi. Uning chegaralari g‘arbda Ebro daryosi, Pireneya tog‘laridan Atlantika okeanigacha, Sharqda Elba va Dunay daryolari va Adriatik dengizi qirg‘oqlarigacha, Shimolda Friz (yoki Nemis) va Baltika dengizlarigacha, janubda deyarli janubiy Italiyagacha bordi. Sal ilgariroq vujudga kelgan Papa davlati ham Karl Buyuk davrida haqiqatda unga bo‘ysunuvchi vassal davlat bo‘lib qoldi.

Imperiyaning e’lon kilinishi. Frank koroli qo‘l ostidagi Yerlarning juda kengayib ketishi, tabiiy, Karl Buyukni va uning maslahatchilarini unvonini (titulni) o‘zgartirish to‘g‘ri-sida o‘ylashga majbur qildi. 800 yilda Karl Rimda bo‘lgan vaq-tida papa uiga «rimliklar Imperatori» tojini kiydirdi, «Rimliklar Imperatori» degan ta’rifning qiziq joyi Shun-daki, bu ta’rif Rim traditsiyasining IX asrda ham odamlarga juda katta ta’sir o‘tkazganligini ko‘rsatadi. Karl franklar Imperatori deb emas, balki rimliklar Imperatori deb e’lon qilindi, vaholanki, bu vaqtda endi rimliklar degan xalq yo‘q edi. Bir oz vaqtdan keyin Sharqiy Rim — Vizantiya Imperatori ham Karlning «bazilevsa» (gYerkcha Imperator demakdir) unvonini tan olishga majbur bo‘ldi, u dastlabki vaqtlarda bunga qattiq qarshilik qilib kelgan edi. Karlning zamondoshi Bog‘dod xalifasi Xorunal-Rashid ham Karlni Imperator deb tanidi va bular bir-birlariga elchilar yuborishdi.

Karl Buyuk zamonida idora q-ilish. Juda katta bir davlat-ni idora qilish ishi Karldan ma’muriy apparatni qayta tuzishni talab qildi. U amaldorlar orqali, Imperatorning max-sus farmonlarini chiqarish, mahalliy hokimiyatni bir qadar sistematik nazorat qilib turish yo‘li bilan idora etuvchi mar-kazlashgan davlat tuzishga harakat'qildi. Karl Buyukning idora qilish markazi korol saroyi— palatsiy edi. YUqori mansab-dagi amaldorlarning butun ishi Shu palatsiyda markazlashti-rilgan bo‘lib, bular: palata grafi (u oliy sudya bo‘lib, Imperatorning yo‘qligida uning o‘rinbosari ham edi), arxikanslYer (Imperator kanselyariyasining boshlig‘i), kamYerariy (korol xa-zinasining boshlig‘i), konnetabl (miroxo‘r, ya’ni korolning ot-liq askarlarini - boshqaruvchi) va boshqalardan iborat edi. Ma-hallarda eng katta amaldorlar graflar— latinchasiga comites, ya’mi ma’muriy okruglarning (boshliqlari[1] va ularning vika-riylari yoki vitse-graflar (graf o‘rinbosarlari) bo‘lib, ularga tunginlar yoki yueboshilar, ya’ni eng kichik ma’muriy okruglarning — yuzliklarning (sotnya) va boshqalarning boshliqlari bo‘ysunardi. Graf skabinlar bilan birgalikda, ya’ni sud kolle-giyasining a’zolari bilan birgalikda sud qilardi, bular ilga-rigi saylab qo‘yilgan Meroving sudyalari — raxinburglar o‘rni-ga mahalliy badavlat Yer egalaridan tayinlangan edi.

Imperiyada Karlning o‘zi tayinlaydigan episkoplar ham sud va ma’muriy ishlarda katta rol o‘ynar edilar. Mahalliy ma’-murlarni tekshirish "uchun markazdan o‘qtin-o‘qtin korol revi-zorlari (missi dominici) deb atalmish tekshiruvchilar yuborilib turardi, ular odatda ikki kishi-ikki kishi bo‘lib yurib, gra'f-liklardagi ahvolni tekshirar hamda aholining graf, episkop va boshqa amaldorlar ustidan beradigan shikoyatlarini qabul qilardi. Imperatorning farmonlari yozma ravishda tuzilib, kapitulyariya deb atalar edi (kapitulyariya latincha caput degan so‘zdan olingan bo‘lib, bob demakdir, farmon alohida paragraflarga bo‘linganligi uchun Shunday deb atalardi). Karl Buyukning 250 ga yaqin farmoni bizgacha etib keldi.

Karl Buyuk imperiyasining xarakteridagi ziddiyatlar. Bu faktlarning hammasi Karl Buyuk zamonida idora qilish appa-ratining anchagina byurokratlashganini ko‘rsatadi. Merovinglar va dastlabki Karolinglarning drujina va xizmatkorlari — ministYeriallari bo‘lib, ular korolning topshiruvi bilan eng oddiy ma’muriy-moliyaviy va sud funksiyalarini bajarar edi. Merovinglar va dastlabki Karolinglardagi ana Shu ibtidoiy idora apparatining aksicha Karl imperiyasida amaldorlarning doimiy chinovniklik apparata tarkib topdi. Karl Buyuk byuro-k'ratiyasining tashkil topishiga Rim traditsiyasi Shubhasiz ta’-sir qildi. Korollik—Imperatorlik kanselyariyalarida davlat tili, latin tili, ya’ni rimliklar tili edi. Karoling .davlat muaosasalarining va lavozimlarining nomlaridan (Imperator, palatsiy, komitlar — graflar, notariylar — sekretarlar va ho-kazolardan) Rim tYerminologiyasi Shundaygina sezilib turadi. Karl Buyukning eng yaqin maslahatchilari va oliy mansabdor-lari Rim tarixini yaxshi bilgan hamda impYerat-orga jamiyatdagi mutlaq oliy hokimiyat deb qaraydigan, rimcha traditsiyani o‘z-lashtirib olgan kishilar edilar. Shunga qaramay, Karl Buyuk imperiyasini markazlashgan davlat deb sira aytib bo‘lmaydi. Karl Buyuk davridagi boshqaruv apparati umuman ibtidoiy edi. Imperiyada rasmiylashtirilgan va ixtiooslashtirilgan sud va moliya idoralari — palatalari yo‘q edi. Unda boshqaruvning doimiy soliq sistemasi kabi .muhim zveno (jumladan, doimiy olib turiladigan Yer solig‘i) yo‘q edi, Karl davlatida markaz bilan joylar o‘rtasida muttasil aloqa o‘rnatilmagan edi,

korol missiyalari, ya’ni revizorlari joylarni nomigagina kontrol qilib turar, amalda esa ayniqsa chekka teretoriya-ning graflari o‘zlarini markazdan mustaqil deb his qilar edilar.

Ikkinchi tomondan, Karl Buyuk davlati o‘zining sostavi ji-hatidan ham xilma-xil urug‘larning beqarar siyosiy birlashma-sidan iborat edi. Frank imperiyasi omadi yurishgan bir isti-lochi tomonidan shoshib-pyshib, ko‘p qabila va xalqlardan iborat tuzilgan alohida bir tarzdagi harbiy monarxiya bo‘lib, unda na umumiy iqtisodiy baza, na umumiy milliy til, na umumiy madaniyat yo‘q edi. Karl Buyuk imperiyasiga kirgan qabilalar-ning har biri o‘zining odatdagi qonun-qoidalariga amal qilib kelganini ko‘rsatib o‘tish kifoya -qiladi. «Varvar haqiqatlari», «Sali, Ripuar Burgundiya, Bavariya, Saksoniya haqiqatlari»— Karl Buyuk zamonida ham, ayrim qabilalar uchun sud qonunlari to‘plami bo‘lib qolavYeradi; ular qunt bilan ko‘chirilib yozildi va ularga o‘zgarishlar kiritildi, Shunday qilib, ular imperiya-ning ayrim oblastlari uchun amaldagi qonun bo‘lib qolavYerdi. Ayrim qabilalar Karl Buyuk podsholigi vaqtidayoq xalq bo‘lib birlasha boshlagan edilar. Sali va Ripuar franklari gal-liya-rim aholisi bilan aralashib ketib, Shimoliy roman xalqi-ni (keyinchalik bulardan fransuz xalqi tashkil topdi) vestgotlar, burgundlar janubiy galliya-rimliklar bilan qo‘shi-lib janubiy roman xalqini (bular keyinchalik provansal xalqi deb atala boshladilar) barpo etdilar. Italiyada lango-bardlar bilan italyan-rimliklardan bo‘lg‘usi italyan xalqi tashkil topdi. germananiyada Reynning narigi tomonidagi qabilalar bir etnik gruppa bo‘lib, keyinchalik ulardan g e r m a n (yoki n e m i s) xalqi vujudga keldi. Xalqlarning tashkil to-pishi mahalliy aloqalarni kuchaytirdi, bu hol ham amalga im-pYeriyaning juda mayda va bir xil davlatlarga parchalanib ke-tishiga olib keldi.

**Karl Buyuk zamonida franklarning feodalla Shuv protsessi.**

Karl Buyuk va uning vorislari zamonida feodalla Shuv protses-sining juda tezlashib ketayotganligi imperiyaning parchalanib ketishida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq Karl Buyuk imperiyasi «qabila va xalqlarning quramasidan iborat» bo‘li-shi bilan bir vaqtda, feodallashayotgan jamiyat ham edi. MYero-vinglar zamonida bo‘lgan hodisa, ya’ni katta Yer egaligining* o‘sishi, uning mayda erkin dehqon xo‘jaligini yutishi Karo-linglar zamonida davom etdi va zo‘r berib avj oldi. Prekar munosabatlarining (ko‘proq cherkov Yerlarida) rivoj olishi, patronat-kommendatsiyalarning (ko‘proq dunyoviy Yerlarda) keng yoyilishi, erkinlarning qaramlikka tushish hollarining ko‘paya-yotganligi—bularning hammasi Karl Buyuk podsholigi zamonida odat tusiga kirganligi Imperator qonunida (kapitulyariya-larda) o‘zining yorqin ifodasini topdi. Karl magnatlar va boshqa «nufuzli odamlar» tomonidan dehqon Yerlarining tortib olinishini cheklashga ancha urindi, biroq Yerdor zodagonlar uning farmoyishlariga qarshilik ko‘rsatganlari uchun bu far-moyishlar amalda bajarilmay qolavYerar edi. Franklar ja-miyatining feodalla Shuv protsessi, tabiiy, siyosiy tuzumga ham ta’sir etdi.

Feodalla Shuv imperiyani siyosiy tarqoqlikka va, pirovar-dida, siyosiy jihatdan mayda qismlarga bo‘linib ketishiga olib keldi. O‘zining harbiy qudratiga va eng katta istilochi-lik Shuhratiga qaramay, Karl Bukjning o‘zi ham Yerdor zodagon-larga qaram edi. Bu narsa hammadan burun magnatlar s’ezdla-ri ahamiyatining ortishida ko‘rindi. Bu s’ezdlar Imperator tomonidan odatda har yili kuzda chaqirilar edi. Uida eng mu-him kapitulyariyalarning hammasi muhokama qilinar edi. Zo-dagonlarning haqiqiy siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ana Shu kuzgi s’ezdlariga qarama-qarshi o‘laroq, may dalalari deb atalmish eski harbiy yig‘ilishlar — askarlarning yig‘ilishlari (bu yig‘ilishlar qadimgi germanan xalq yig‘ilishlarining qoldi-g‘i edi) karolinglar zamonida oddiy bir harbiy ko‘rik bo‘lib qoldi. Bu. ko‘rikda endi Imperator tomonidan tasdiqlangan farmonlar ma’lumot uchungina e’lon qilinar edi.

Korol sudlari («Sali haqiqati»da ko‘rsatilgan qadimgi xalq sudlari o‘rnini olgan skabinlar va har turli sud amal-dorlari) faoliyatining kuchayishi bilan bir qatorda Karl Buyuk i mm unitetlar degan narsani ham keng suratda joriy qi-lishga majbur bo‘ldi, immunitetlar berilgan mahalliy Yer ega-lari (dunyoviy Yer egalari ham, cherkov Yer egalari ham) o‘z tYerri-toriyalariga korol amaldorlari, sudyalari va Shunga o‘xshash kishilarning tekshirish uchun kirishidan xoli edilar. Bundan tashqari, mahalliy Yer egalariga yana Shunday immunitet yorliq-

lari ham berildiki, bu yorliqlarga muvofiq ular o‘zlariga qaram bo‘lgan aholinigina emas, hatto erkin aholini ham sud qilish va undan o‘z foydalariga hukumat soliqlari va majbu-riyatlari undirish huquqini oldilar. Immunitetlar magnat — Yer egalarining erkin aholi orasidan ojizlarini topib olib, o‘z aooratlariga tushirishlariga juda katta yordam berdi. Karl zamonida harbiy benefitsiylar sistemasi ham avj olavYerdi. erkin dehqonlarning zaiflashuvi va tushkunlikka uchrashi or-qasida dehqonlar harbiy xizmatni o‘tashga tobora kamroq chaqi-rildi. Lekin benefitsiylarning ham faqat bir qismi impYera-torga qaram edi. Ularning ko‘pchiligi katta Yer egalariga — mag-natlarga qaram edi, bu magnatlar kurashga odatda «o‘z oodiq kishilari»dan butun-butun otryadlar olib kelardilar. Shunday qilib, Karl Buyuk qo‘shini haqiqatda uning o‘ziniki bo‘lmay, balki, tobora aniqroq tashkil topayotgan katta feodallar qo‘shini edi, bu feodallarning juda ko‘p pomestelari bo‘lib, ular mahallarda juda keng siyosiy huquqlarga ega edilar va ularning qaramog‘ida juda ko‘p mayda ritsarlar bor edi.

Karl Buyuk zamonidayoq idora qilish apparatining aniq feo-dallashganligiga Shu narsani misol qilib ko‘rsatish mumkinki, graflar o‘z mansabini va bu mansab uchun olgan Yerlarini avlod-dan-avlodga mYeros bo‘lib qoladigan mulkka aylantirishga hara-kat qildilar. Karl Buyuk o‘zining graflar tayinlash huquqini juda katta mashaqqat bilan arang saqlab qoldi.

Karolinglar pomestesi. Karl Buyukning asosiy daromad-lari uning pomestelaridan keladigan daromadlar edi. Korol-ning Yer fondi butun davlatning hamma joyiga tarqalgan bo‘lib, yuzlarcha katta va bir qadar kichik Yerlardan iborat edi. Karl Buyuk zamonidagi eng katta Yer egalari monastirlar edi. Parij monastirlaridan biri — avliyo germanan (yoki Sen-JYermen) mo-nastirining IX aor boshlarida 100 mingdan ortiq jrepostnoyi bor edi. Dunyoviy _zodagonlar qo‘lida ham Shubhasiz juda ko‘p katta-katta pomestelar bor edi, biroq ulardagi Yerlarning ro‘y-xati bizgacha etib kelmagan.

Karolinglar pomestesini o‘rganish uchun asosiy manba Karl Buyukning «Pomestelar to‘g‘risidagi kapitulyariy»si va «Abbat irminon poliptigi» deb atalgan hujjatdir. (Parij atrofi-dagi Sen-JYermen monastiriga qarashli Yerlar va bu Yerlarda o‘tirgan krepostnoylar ro‘yxati.) Mana Shu manbalarga qarab, biz G‘arbiy Yevropada ilk o‘rta asrdagi feodal pomestesining manzarasini ko‘z oldimizga keltira olamiz. Dastlab biz bu pomesteda o‘rta asrlarga xos bir xususiyatni — Yerning ikki qismga: x o‘j a y i n—dome ney nal (domen) Yeriga va dehqonlar Yeriga — chek Yer ga bo‘linganini ko‘ramiz. CHek Yer-larga dehqonlar egalik qilar edilar. Bu chek Yerlar m a n s l a r deb atalardi. Dehqonlar o‘z mehnatlari bilan, o‘zlarining ot-ulov va qurol-asboblari bilan xo‘jayinlarining Yerini ishlab berardilar.

Franklarning qishloq xo‘jaligi VIII—IX. aorlarda ancha mu-vaffaqiyatlarga Yerishdi. Karolinglardan qolgan manbalarga qaraganda dehqonchilikning asosiy sistemasi uch dala sistemasi bo‘lgan. Pomestelarda g‘allakorlikdan tashqari, chorvachilikka katta e’tibor berilgan edi (korolga qarashli imenielarda xususiy yilqichilikka katta e’tibor berilgan, Chunki harbiy ishda yilqichilikning ahamiyati katta edi). Manbalarda uzum-chilik, bog‘dorchilik, polizchilik, dorivor o‘simliklar ekilgan-ligi ham tilga olingan.

Karolinglar pomestesi aniq natural xo‘jalik xususiyatla-riga ega edi. Bu haqda «Pomestelar to‘g‘risidagi kapitulyariy» da juda ochiq dalillar keltirilgan, bu «Kapitulyariy»da pomestelarda^ etishtirilgan mahsulotlarning korol oilasi va korol saroy ahllari ehtiyojlarini qoplashga sarflanganligi bir necha marta ta’kidlab o‘tilgan.

Biroq Karolinglarning pomeste to‘g‘risidagi hujjatlari-da uchraydigan eng qiziq narsa o‘sha vaqtdagi krepostnoylarning sostavi haqidagi ma’lumotlardir. Bu matYerial Sen-JYermen monastiri poliptigida juda ochiq ko‘rsatilgan. Bu hujjatda krepostnoy dehqonlar turli nomlar bilan: kolonlar, litlar, qullar degan nomlar bilan ataladi. Litlarga va qullarg‘a nis-batan kolonlar hatto « erkin» kishilar deyiladi. Lekin ular-ning « erkinligi» juda nisbiy bir narsa edi. Haqiqatda ular-ning «tutqunlar»dan hech qanday farqi yo‘q edi. Ular ham o‘zlarining chek Yerlariga birkitib qo‘yilgan bo‘lib, normalashti-rilgan barshchina, natural obrok va bir oz miqdorda renta puli to‘lash shaklida «tutqunlik» majburiyatlarini bajarar edilar. Bu hol Shu narsani ko‘rsatadiki, dehqonlarning bu xil kategoriyalarga bo‘linishi (xuddi dehqonlardagi chek Yerlarning manslarning uch guruhga bo‘lingani singari) bu vaqtda o‘tmish-dan qolgan bir sarqit edi.

Haqiqatda franklarda bu vaqtda krepostnoy dehqonlar sinfi tashkil topgan bo‘lib, bu sinfda endi erkinlar, yarim erkinlar (litlar) yoki tutqunlar (qullar) o‘rtasidagi ilgarigi farqlar chindan ham yo‘qolib ketgan edi.

«Karolinglar uyg‘onishi». Karl Buyuk o‘z zamonasining ancha ma’rifatli kishisi edi. U, garchi yoshi ancha ulg‘aygan vaqtida o‘qish-yozishni o‘rgangan bo‘lsa-da, grek va latin tillarini bilar va ma’rifatni qadrlar edi. Uning saroyiga turli mamlakatlar-dan olimlar chaqirib keltirilgan edi. Bu olimlar ichitd York episkoplik maktabida (Angliyaning Shimolida) o‘qigai Alkuin nomli angl-saks ayniqsa mashhur edi. So‘ngra Karl-ning saroyda o‘sha vaqtning ko‘zga ko‘ringan boshqa yozuvchilari — langobardiyalik Pavel Dyakon, ispaniyalik vestgot T e o-dulf va boshqalar ham yashar edi. Franklarning o‘zlaridan etishgan yosh Eyngard juda ham ma’rifatli kishi edi, u keyincha Karl Buyukning juda yaxshi tuzilgan tarjimai holini ezdi[1]. Karl yuqorida aytilgan olimlar yordami bilan episkoplik rezidensiyalarida bir qancha maktablar tashkil qildi, bu maktablarda asosan xat-savodli ruhoniylar va Imperator kan-selyariyalari uchun amaldor kadrlar (sudyalar, sekretarlar, mirzalar va boshqalar) taYorlanardi. Karlning buyrug‘i bilan qadimgi latin va grek qo‘l yozmalari to‘planDi va ko‘chirib yozil-di. Katta skriptoriyalarda (mirzaxonalarda) o‘nlarcha mirzalar eng qimmatli qo‘l yozmalarni yangi nusxalarga ko‘chirardilar. Shunday qilib, ko‘pgina antik avtorlarning asarlari keyingi avlodlar uchun saqlab qolindi. Karoling mirzalarining yumaloq harflar bilan donador qilib yozgan xatlari ularning o‘zlaridan oldingi zamonlarda yozilgan ancha qadimgi xatlar u yoqda tursin, hatto keyingi o‘rta asrlarda yozilgan latin xatiga qaraganda ham juda chiroyli edi.

Karl saroyida o‘ziga xos bir olimlar jamiyati vujudga keldi, bu jamiyat antik dunyodan ibrat olib, «Akademiya» deb ataldi. Bu jamiyatning ishlarida Karlning o‘zi ham qatnashdi. Akademiya qatnashchilari latin avtorlarining, yozuvchi va shoir-larning asarlarini o‘qidilar, ba’zida esa antik avtorlarga taqlid qilib o‘zlari ham asarlar yozdilar. Biroq, Karolinglar zamonidagi renessans (uyg‘onish) asl ma’nodagi antik madapiyat-ning tiklanishi emas edi, aslo unday emas edi. Antik avtor-lardan qolgan adabiy mYerosning bir oz qismi olindi, xolos. Antik yozuvchilarga sirtdangina (she’riyat va ritorik forma-lar) taqlid qilindi. Qarl saroyiga to‘plangan olimlarning dunyoqarashi (Imperatorning o‘z dunyoqarashi ham) antik klassik madaniyatdagi ratsionalistik dunyoviy dunyoqarashga m'utlaqo o‘x-shamas edi. Karlning atrofiga olim xristian monaxlari to‘plangan bo‘lib, ularning dunyoqarashi cherkov ruhoniylarining dunyoqarashi edi. «Majusiy» antik madaniyati ular uchun xristi-anlik aqidalarini sharhlash va chuqurlashtirish vositasigina edi, xolos. Alkuinning korolvachchalarni tarbiyalash uchun yozgan darsligida ko‘pincha haqiqiy antik madaniyat bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan o‘rta asr diniy dunyoqarashi anqib turardi. «Hayot nima?» deb savol qo‘yadi bu darslikda o‘qituvchi va o‘zi javob berib: «...baxtlilarga shodlik, baxtsizlarga qayg‘udir, ularga ham, bularga ham o‘limni kutishdir», deydi. «Odam nima?» deb yana bir savol qo‘yib, «Ulim bandasidir, o‘z uyida mehmondir, o‘tib ketadigan yo‘lovchidir» ... deb javob beradi. Aslida Karolinglar davrida o‘rta asr sxolastikasi qaror top-di, uning xarakterli xususiyati sof diniy dunyoqarashni ustun qo‘yib, antik dunyo fanining ba’zi bir tashqi formalarinigina o‘zlashtirishdam iborat bo‘ldi.

Shu narsani unutmaslik kerakki, Karolinglar ma’rifati-dan juda kam kishi bahramand bo‘ldi. Hatto Karl Buyuk saro-yidagi mansabdorlarning ham juda ko‘pchiligi o‘qish-yozishni bilmasdan o‘tib ketdi. Amalda Karl Buyukning «ma’rifatpar-varlik» tadbirlari ko‘pdan-ko‘p cherkov episkoplik maktablari-ning rivojlanishigagina olib keldi, keyinchalik bu maktablar zaminida o‘rta asr univYersitetlari vujudga keldi.

**Karl buyuk imperiyasining parchalanishi**

Karl Buyuk 814 yilda 72 yoshida vafot etdi va Axenga ko‘mil-di, u umrining so‘nggi iillarini Shu Axen atrofida o‘tkazgan edi. Karl Buyuk vafot qilgandan keyin Imperatorlik unvoni uning katta o‘g‘li Lyudovikka o‘tdi, Lyudovik ilgari otasining hayotlik chog‘ida uzoq vaqt Akvitaniya koroli bo‘lib kelgan edi.

Karl Buyuk o‘lgandan keyin uning imperiyasi uzoq umr ko‘r-madi. Bu ilk o‘rta asr harbiy-feodal monarxiyasi bo‘lib, unda chinakam markazla Shuv uchun etarli darajada iqtisodiy baza yo‘q edi.

Natural xo‘jalik hukmronligi, ayrim oblast va ra-yonlarning va hatto ayrim pomestelarning ham biqiqligi, Shaxarlar va savdoning kam rivojlanganligi — mana Shularnipg hammasi imperiyaning muqarrar ravishda parchalanib keti-shiga sabab bo‘ldi. Karl Buyuk zamonida krepostnik pomestelar egasi bo‘lib uzil-kesil qaror topgan va Karl Buyuk olib borgan urushlar natijasida juda ko‘p yangi Yerlarga ega bo‘lgan feodal-larning o‘zi mustahkam markazlashgan hokimiyatdan bezor edi. Mahallarda asta-sekin hokimiyatni o‘z qo‘llariga olib ular markazga bo‘lgan tobelikni kamaytirishga harakat qildilar. Ikkinchi tomondan Karl Buyuk olib borgan juda katta urushlar hali erkinligini yo‘qotmagan frank dehqonlarining tinkasini batamom quritgan edi. Buning natijasida korol eng muhim sotsial kuchning yordamidan mahrum bo‘ldi, holbuki, Avstraziya gersog-mayordonlari aslida Shu kuchning yordami soyasida yuzaga chiqqan edi.

**Karl Buyuk vafotidan keyin Frank davlatidagi o‘zaro urushlar.**

Karl Buyukning o‘g‘li Imperator Lyudovik Xudojo‘y zamonida (814—840) bo‘linib ketish yo‘lidagi intilishlar zo‘r berib namoyon bo‘ldi. U lapashang bir korol bo‘lib, ruhoniylarga (uning Xudojo‘y degan laqabi ham Shuni ko‘rsatadi) va dunyoviy zodagonlarga butunlay qaram edi. Haqiqatda uning butun ko-rollik davri uzluksiz g‘alayonlar davri bo‘ldi. Zodagonlar Lyudovikka qarshi bosh ko‘tarib, uning o‘z o‘g‘illari — Lotar va Lyudovikni (yoki Lyudovik Nemisni, uning asosiy Yerlari Bava-riyada edi), o‘z otasiga qarshi gij-gijlatdilar. Lyudovik Xudo-jo‘yning uchinchi o‘g‘li Karl (u keyincha YAltiroqbosh deb nom ol-di) hamisha otasining yonini oldi.

Lyudovik Xudojo‘y o‘lgandan keyin uning o‘g‘illari bir-biri bilan yana urush boshladi. Imperator unvonini olgan katta aka-siga — Lotarga qarshi endi ikkala ukasi — Lyudovik Nemis bilan Karl YAltiroqbosh bosh ko‘tardi. Fontenua shahri yonida bo‘lgan jangda (1841 yil) Lotar ikkala ukasining birlashgan qo‘shinlari tomonidan tor-mor qilindi. Bir yildan keyin, 842 yilda Lyudovik bilan Karl Strasburg shahri yonida bitam tu-zib, Lotar ustidan to‘la g‘alaba qozonguncha unga qarshi kurash-ni davom ettirishga ahd qilishdi.

Shunisi qiziqki, «Strasburg qasami» (bunda har iiki tomon ham qasamyod qilgan edi) ikki tilda «roman» tilida (ya’ni ro-manlashgan frank lahjasida) va nemis tilida (ya’ni Reynning narigi tomonidagi germanan qabilalari gapiradigan germanan tilida) yod qilindi. Bu hol Karolinglar zamonida xalqlarning tashkil topish protsessi yuz berganini ochiq ko‘rsatadi. Endi g‘alaba qozonishga ko‘zi etmaganligidan Lotar davlatni bo‘lishga rozi bo‘lib, yon berishga majbur bo‘ldi.

**VYerdendagi taqsimot.** 843 yilda VYerdenda Karl Buyukning uch nevarasi yig‘ilishida imperiya uch qismga bo‘lindi. VYerden ahdiga muvofiq akasi Lotar Imperatorlik unv.onini saqlab qoldi, lekin ukalariga nisbatan hech qanday maxsus huquqqa ega emas edi, ukalarining har qaysisi o‘z holicha batamom mustaqil korol bo‘lib qoldi. Lotarga Italiya, Sharqda Reyn bilan g‘arbda Mass, SHelda, Sena va Rona daryolari o‘rtasidagi Yerlar (bunga Burgundiya ham kiradi) tegdi, Reynning Sharqidagi Yerlar Lyudovik Nemisga tegdi. Lotarga qarashli Yerlarning g‘arbidagi Yerlar Karl YAltiroqboshga tegdi. Keyinroq (borib, Lotar o‘lgandan so‘ng Yerlar qaytadan bo‘lindi. Lotarning avlodlari Italiyadagi Yerlarnigina o‘z qo‘lida saqlab qoldi, Reyn bo‘yidagi Yerlarning hammasini esa Lyudovik bilan Karl o‘zaro bo‘lishib oldi. Burgundiya mustaqil korollik bo‘lib ajralib chiqdi. Imperatorlik unvoni keyinroq borib Karolinglar xonadonining boshqa avlodlari vakillariga o‘tdi. Masalan, 875—877 yillarda Karl YAl-tiroqbosh Imperator bo‘ldi, 880—887 yillarda Imperatorlik toji Lyudovik Nemisning o‘g‘li Karl Semizga o‘tdi. X asrning >boshlariga kelib esa Imperatorlik unvonining umuman hech qanday real ahamiyati qolmadi.

**IX—X asrlarda Fransiya. So‘nggi Karolinglar.** VYerdenda bo‘lgan taqsimot Bvropada keyincha vujudga kelgan uchta katta davlatning— Fransiya, germananiya va Italiyaning tashkil topi-shini umumiy bir tarzda belgilab berdi. IX asrning yarmida bu davlatlar ichida eng yaxliti «g‘arbiy franklar» davlati edi, u keyincha vujudga kelgan Fransiyaning kurtagi ^o‘lAi^-Bu^Yerdagi aholining asosiy ommasi endi tashkil topib kelayotgaTGftgatщuz xalqidan iborat bo‘lib, bu xalq alohida bir Shimoliy roman tilida, ya’ni ilk fransuz tilida gapirishar edi. Bu davlatning poytaxti Parij bo‘lib, u Luara daryosi yaqinidagi Sena daryosida joylashgan.

«G‘arbiy franklar karolligida» yoki oddiy qi-lib aytganda, Fransiyada (uni X-XI asrlarda Fransiya deb atay boshladilar) Karolinglar X asrning oxirigacha hokimiyatni o‘z qo‘llarida saqlab keldilar, germananiya bilan Italiyada esa Karolinglar ancha ilgari - X asrning boshlaridayoq hoki-miyatdan mahrum bo‘ldilar.

Lekin Fransiyada ham feodal tarqoqlik tYerlik bilan avj olib bordi. «Birinchi fransuz koroli» Karl YAltiroqbosh o‘z zodagonlariga uzluksiz yon byorishga majbur bo‘ldi. 847 yilda u M'Yersen kapitulyariysini chiqarib, bu kapitulyariyda har bir erkin kishiga senor topib olishni taklif qildi; korol o‘z fuqarolari ustidan qanday hokimiyatga ega bo‘lsa, senor ham o‘z vassallari ustidan Shunday hokimiyatga ega edi. 887 yildagi KYersin kapitulyariysi Yer benefitsiylarining nasldan-naslga mYeros bo‘lib qolishini, Shuningdek, graflik lavozimi-ning ham mYeros bo‘lib qolishini qonunlashtirdi. Shu vaqtdan boshlab benefitsiylar nasldan-naslga mYeros bo‘lib qoladigan Yerlarga - feodlarga, lenlarga aylandi. Graflik, vitse-graflik (vikontlik), markgraflik (yoki markizlik) va gersoglik unvonlari nasldan-naslga qoladigan knyazlik unvoniga aylandi. Joylarda teretorial hukmdorlarga xos bo‘lgan barcha huquqlarga, ya’ni korollik huquqlariga o‘xshash huquqlarga ega bo‘lgan knyazlik sulolasilari vujudga kela boshladi.

**Normanlarning hujumlari.** Karl II YAltiroqboщ zamonidayoq Fransiya korolligiga normanlar qattiq hujum qila boshlagan edi. Karl II YAltiroqbosh o‘lgandan keyin esa (877 y.) bu hujum-lar juda ham avj olib ketdi. Hujum qilganlar qisman nor-vejlar, qisman shvedlardan iborat bo‘lgan skandinavlar edi; skandinavlar o‘sha vaqtda urug‘chilik tuzumining tushkunlikka uchrash va feoializmga o‘tish protsessini boshidan kechirayotgan bo‘lib, ular ora-sida ko‘pdan-ko‘p bosqinchi drujinalar vujudga kelmoqda edi, bu drujinalarga feodal-lashayotgan harbiy boshliqlar - yarllar va korollar rahbarlik qilar edi. Dengizda suzishga usta bo‘lgan, o‘sha davr uchun juda zo‘r hisoblangan temir qurollardan foydalana bilgan (bu qurollar rudalarga boy Skandinaviyada ishlanar edi) bu normanlar juda xavfli dushman bo‘lib chiqdi. Normanlar kemalarida fransuz daryolari quyiladigan joygacha va Urta dengiz qirg‘oq bo‘yidagi mamla-katlargacha kirib bordilar va bu mamlakatlarni shafqatsiz talab va xarob qilib, aholisiga dahshat soldilar. IX asrda G‘arbiy Yevropada Shu munosabat bilan maxsus bir duo vujudga kelgan bo‘lib, bu duo «e xudo, normanlarning yovuzligidan o‘zing saq-la» deb boshlanardi. So‘nggi Karolinglar korollikni mudofaa qilishdan ojiz edilar. Ularniyg siyosiy e’tibori va harbiy resurslari juda ham kam edi. Normanlarga qarshi kurashish vazifasini mahalliy yirik feodallar o‘z qo‘liga oldi; buning natijasida ular harbiy himoyaga muhtoj qolgan-qutgan erkin aholini ham bemalol krepostnoyga aylantirib, o‘z mavqelarini yanada mustahkam-lab oldilar. 885-886 yillarda normanlar Parijni 10 oygacha qamal qilib turdi, lekin uni axir ololmadi. RobYert Zo‘rning (866 yilda vafot etgan, Parijning birinchi grafi) o‘g‘li, mahalliy feodal graf Ed Parijskiy muvaffaqiyatli mudofaa uyushtirib, dushmanni qaytardi. So‘nggi Qarolinglarning biri Karl IV Anqov X asrning boshida (911 y.) quyi Sena qirg‘og‘ini normanlar boshlig‘i - gersog Rollonga berishga majbur bo‘ldi, Rollon bu Yerda ko‘chib kelgan normanlardan iborat juda kuchli bir knyazlik- Normandiya gersogligini tuzdi. Normanlar-norveglar (yoki Fransiyada atashlaricha norman-diyaliklar) mahalliy aholi bilan tezda aralashib ketdilar, xristianlikni qabul qildilar va fransuz tili hamda urf-odatlarini o‘zlashtirib oldilar. YAngi fransuz-normandiya gersogligi Shimoliy Fransiyadagi eng kuchli feodal knyazligi bo‘lib qoldi; bu yangi knyazlik rasman Karolinglarga vassal-tobe edi, amalda esa ularga mutlako tobe bo‘lmay, ba’zan Parijning o‘zini ham bosib olish xavfini solib turdi.

Kapetinglarning idora qila boshlashi. Axir oqibatda Karolinglar ham Meroving-larning kuniga tushdi. So‘nggi Karolinglar ham butunlay nochor holga tushib qoldi. X asrning oxirida ularning Yerlari Fransiyaning Shimolidagi Lan shahrining o‘zi bilangina cheklanib qoldi, desak bo‘ladi. So‘nggi Karoling Lyudovik V YAlqov o‘lgandan keyin graf RobYert Zo‘rning nasllari-dan biri bo‘lgan Gugo Kapet nomli kishi 987 yilda zodagonlar va ruhoniylar yig‘ilishi tomonidan Fransiya koroli qilib say-landi. Shunday qilib, Fransiyani yangi sulolasi — Kapetinglar sulolasim idora qila boshladi. Birinchi vaqtlarda Kapetinglar hokimiyati juda kuchsiz bo‘ldi. Ancha keyinroq borib, XII va XIII asrlardagina bu sulolasi qaddini rostlab olgan Shaxar-larga

suyanib turib, Fransiyani birlashtirishga va markazlash-gan davlatga asos solishga muvaffaq bo‘ldi.

**Tayanch iboralar:**

Feodal tarqoqlik, Xlodvig, Vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar, Karolinglar, Merovinglar, cherkov, Yer egaligi, benefitsiy, Karl Martell, VYerdendagi taqsimot, .

**Nazorat savollari:**

1. Franklar hozirgi yevrpaning qaysi hududlrida istiqomad qilganlar?
2. “Sali haqiqatida” kora ishtimoiy munosabatlarning o’ziga hos xususiyati qanday?
3. Merovinglar xokimiyat zaiflashuvinin sabablarini qandai izohlaysiz?
4. Frank hukmdorlarining cherkovga munosabatlari qanday bo’lgan?
5. Buyuk Karl imperiyasining o’ziga hos hususiyatlari qanday?

**Asosiy adabiyotlar:**

2. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: Sosoniylar davlati (Eron) (2 soat)

**Reja:**

**1. Sosoniylar hukmdorligi va uning ijtimoiy tuzilishi. Davlat tashkiloti.**
**2. III–IV asrlarda Sosoniylar davlatining tashqi siyosati. V asr oxiridagi siyosiy vaziyat.**
**3.Qishloq xo’jaligi, shaxarlar, hunarmandchilik va savdo-sotiq.**
**4. Sosoniylar davlatida din va madaniy hayot. Xusrav I ning islohotlari.**

**1.Sosoniylar hukmdorligi va uning ijtimoiy tuzilishi.** Milodiy III asrda (226 y.) parchalangan Parfiya imperiyasi o„rnida Sosoniylar davlati vujudga kelgan. Uning tarkibiga Yeronning bepoyon hududlari, Mesopotamiya, Hindiston, Sharqiy yassi tog„ tumanlari kirgan. Aholi tarkibi ham ancha quroq bo„lgan. Ilgari jamoa bo„lib, bu davrda alohida mulk bo„lgan hududlar soni 240 ta bo„lgan. Faqat Forsda qarindosh qabilalar bir elat bo„lib birlashgan. Sosoniylar imperiyasining aholisining asosiy qismi sun'iy sug„orishga asoslangan dehqonchilik bilan Shug„ullangan. Tog„li tumanlarda ko„chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan. Shaxarlarning asosiy qismi mamlakatning g„arbiy qismida joylashgan. Ularning eng kattasi poytaxt Ktesifon bo„lgan. Sosoniy Shaxarlari o„z hunarmandchilik mahsulotlari bilan dunyoga mashhur bo„lgan. Qul mehnatidan asosan sug„orish tizimi va ziroat ishlarida foydalanilgan. Keyinchalik qishloq xo„jaligida ulardan foydalanish asta-sekin kamayib borgan. Manbalarda mulkning «*dastkard*» degan shakli ko„p bora tilga olingan. Ularda qul Yerga biriktirilgan bo„lib, qul Yersiz sotilmagan. Dastkardlar yirik, o„rtacha mulkdor va jamoalarga tegishli bo„lgan. Eng yirik Yer egalari – shahanshoh, zodagonlar, ruhoniylar bo„lgan. Yuqori tabaqa «qisman ozodlikka chiqarish» tizimini qo„llay boshlagan. Ishlab chiqaruvchilar uchun u eng og„ir, azob-uqubatli ozodlik yo„nalishi bo„lgan.

Mehnat umumdorligining o„sishi bilan davlat boshqarmasiga suyangan yuqori hukmron tabaqa dehqonlar soliqlari va majburiyatlarini oshira boshlaganlar. erkin jamoa a'zolari ham asta-sekin majburiyat o„tovchi tabaqaga aylantirilgan. III–V asrda Yeron zodagonlari asta-sekin o„z jamoalari bilan aloqalarini uza boshlaganlar. Bu vazifani amalga oshirish ancha mushkul bo„lgan. Bu vaqtga qadar uzoq vaqt mobaynida jamoa azolari an'anaviy patriarxal majburiyatlarnigina o„taganlar. V asrning ikkinchi yarmiga kelib yuqori tabaqa har tomonlama soliqlar tizimini ishga solgan: *xarag* (Yeron dehqonlari yetishtiriladigan mahsulotdan olinadigan soliq) va *gezit* (jon boshiga solinadigan soliq, o„lpon). Ular bilan bir vaqtda eski soliq va majburiyatlar saqlanib qolavYergan. Soliqlar, asosan mahsulot tarzida olingan.

Jamoani ezish kuchaya borganiga qaramay, Yeron dehqonlari shaxsan ozod deb hisoblanavYergan. Qishloqlarda oila, urug„ hali muhim rol o„ynagan. Lekin, qishloqning o„ziga xos belgisi endi qo„shni jamoa bo„lib, oilaviy jamoa parchalanuvi davom etavYergan. Mazkur jarayon bilan bog„liq ravishda «*katxudo*» atamasining mazmuni o„zgargan. U dastlab ko„p oilali jamoa boshlig„ini, keyinroq oqsoqolni anglatgan. Oqsoqol ma'muriy va moliyaviy vazifalarni bajarib, sun'iy sug„orish tizimi va yangi Yerlar ochishga javobgar bo„lgan. Oqsoqol asta-sekin jamoa qullariga egalik huquqini ham qo„lga olgan. Yeronning ayrim qoloq tumanlarida katta oilaviy jamoalar VII asrdan keyin ham mavjud bo„lgan. IV–V asrlarda jamoa azolari orasida mulkiy tabaqalanish jarayoni ancha chuqurlashgan, Lekin, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilmagan. *Ozod* so„zi jamoaning erkin a'zosiga nisbatan qo„llangan. Endi ko„proq o„ziga to„q, urushga shaxsiy otini minib kira oladigan kishini anglata boshlagan. V asrga kelib bu atama *katxudo* va *dehqonga* nisbatan ham qo„llangan. Dehqon to„la huquqli Yer egasi, ozod erkin jangchini anglatgan. Dehqonlar Yerda oila a'zolari va qullar bilan ishlaganlar. Yeron jamoachiligiga nisbatan Yeronlik bo„lmaganlar og„irroq holatda yashaganlar.

Aholining uncha ko„p bo„lmagan qismini hunarmandlar tashkil etgan. Ularda mehnat taqsimoti ancha takomillashgan. Manbalarda hunarmandlar tashkiloti haqida ko„p ma'lumotlar mavjud. Shuni qayd etish lozimki, Sosoniylar davlatida hunarmandlar hazar qilinadigan darajada turgan. Bu soha jamiyatning erkin a'zosi uchun nomunosib hisoblangan. Hunarmandchilikning barcha mahsuloti davlat ixtiyoriga o„tgan. Sosoniylar davlati Shaxarlardagi hunarmand va savdogarlarning asosiy qismi Yeronlik bo„lgan. IV–V asrlarda jamoaning xonavayron bo„lishi oqibatida ular tarkibidagi Yeronliklar ko„paygan.

Podshohlikning barcha erkin aholisi dastlab uch, keyinroq to„rt tabaqaga bo„lingan. Dastlabki uch tabaqa hukmronlar – *jangchi, ruhoniy, kotib* (*amaldor*)lardan, keyingi to„rtinchi tabaqa esa *dehqon, hunarmand, savdogar*lardan iborat bo„lgan. Quyi tabaqadan yuqorisiga o„tish amalda mumkin bo„lmagan.

III–V asrlarda mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy hukmronlik eski zodagonlar – ayonlar qo„lida bo„lgan. Mamlakat iqtisodiyoti asosini yirik Yer egaligi va bosib olingan Yerlarni talash tashkil etgan. **Davlat tashkiloti.** III asr boshlarida mashhur sosoniylar urug„i vakili ArdashYer butun Fors, markaziy Yeron, Fors g„arbidagi Xuzistonni o„z hukmronligi ostiga olgan. 226- yilda u davlat boshlig„i deb e'lon qilingan. Sosoniylar sulolasiga asos solgan Ardashyer 241- yilga qadar hukmronlik qilgan. Dastlabki sosoniylar eski Parfiya zodagonlariga qarshi uzoq kurash olib borganlar. ArdashYer yangi ma'muriy bo„linishga asos solgan, oqibatda urug„ va jamoalar chegaralari buzilib ketgan. Zodagonlarning o„z jamoalari bilan aloqalari uzib tashlangan. O„z jamoasi

bilan aloqasi zaifroq bo„lgan zodagonlar ArdashYerni qo„llab, sosoniylar g„alabasiga ko„maklashgan.

Davlat boshlig„i shahanshoh bo„lgan. MYerosiylikning qat'iy tartibi mavjud bo„lmagan. Lekin, hukmdor albatta sosoniylar urug„idan bo„lishi shart bo„lgan. U hayotlik chog„idayoq unga ma'qul shahzodani mYerosxo„r sifatida tayinlashga harakat qilingan. Ko„pincha saylov turli guruhlar o„rtasidagi nizolarni vujudga keltirgan. Ma'muriy boshqarma boshlig„i *vazurg – framador* (buyuk boshqaruvchi) bo„lgan. Uning majburiyatlari doirasi hali aniq belgilanmagan, Chunki keng tarmoqli boshqaruv tizimi vujudga kelmagan edi. Markaziy hukumatning ko„proq diqqat e'tibori moliya, qo„shin va sug„orish tizimiga qaratilgan. Moliya boshqarmasi soliq yig„ish va jamoalar bilan mashg„ul bo„lgan.

Viloyatlarni boshqarish sosoniylarga bo„ysungan mahalliy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular ma'lum darajadagi mustaqillikni saqlab qolganlar. Davlatning asosiy hududi bo„lsa, shahanshoh tomonidan qo„yilgan vakillar tomonidan tasarruf etilgan. O„ta muhim, ayniqsa Markaziy Osiyo bilan chegaradosh viloyatlar gubYernatori shahanshoh urug„idan bo„lgan. IV asrga qadar sosoniylar qo„shini faqat xalq lashkarlari va ittifoqdosh qabilalar yordamchi guruhlaridan iborat bo„lib, ularning asosiy qismini otliq chavandozlar tashkil qilgan. Piyodalardan qo„shimcha qism sifatida foydalanilgan. Harbiy zodagonlar vakillari qo„shinga boshchilik qilganlar va alohida, o„ta muhim harbiylar guruhlarini tashkil etganlar.

**2. III–IV asrlarda Sosoniylar davlatining tashqi siyosati.** Dastlabki asrlarda davlat tashqi siyosati ko„proq quldor zodagonlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlari bilan bog„liq bo„lgan. Quldorlikka asoslangan xo„jaliklarni ushlab turishning asosiy sharti urush va ko„proq qulga ega bo„lish edi. ArdashYer dastlab Parfiya qo„lida bo„lgan barcha viloyatlarni qo„lga kiritgan, qo„shinlari Rim Mesopotamiyasi, Suriya va Kichik Osiyoga kirib borgan. Qudratli Kushon imperiyasi zaiflashib borayotgan Sharqda, sosoniylar Xuroson va Marv vohasida mustahkamlanib olganlar. Forslar Mesopotamiya va Armaniston uchun Rim bilan shiddatli kurashda yaqqol ustunlikka ega bo„lganlar. Shopur I (242–272) davrida bu kurash 260- yilda rimliklar mag„lubiyati bilan yakunlangan. Imperator ValYerian bilan birgalikda asirga olingan Rim zodagonlari qullikka solingan. Ularning kuchi bilan Karun daryosi bo„yida Yeronda «Bandi Qaysar (Sezar dambasi)» nomi bilan mashhur ulkan suv inshootlari qurilgan.

Bundan tashqari, Shopur I Kavkazortida ham o„z pozitsiyasini ancha mustahkamlagan. XX asrning 30- yillarida topilgan yozuvlarda qayd etilishicha, O„rta Osiyoda yurgan Shopur I Chochga qadar yetib borgan. III va V asrda sosoniylarning Sharqdagi sarhadlari Marv vohasi, Hirot va Sakiston Sharqidagi tog„li tumanlargacha bo'lgan.

Shopur II (310–379) rimliklarning mudofaasi asosi bo„lgan qator qal'alarni egallagan. 363- yilda Rim legionYerlari Yeron hududiga kirib kelib, dastlab kichik yutuqlarga Yerishgan, keyinchalik esa mag„lubiyatga uchragan. 371- yilda yana Rim bilan 5- yil davom etgan urush boshlangan. IV asr oxirida ikkala imperiya Armanistonni bo„lib olgan, uning taxminan 4/5 qismi sosoniylarga, qolgan qismi Sharqiy Rim imperiyasi Vizantiyaga o„tgan. Ikki imperiya o„rtasidagi urushning to„xtashi ularda ikki siyosatdagi qiyinchiliklar, ularga varvarlar hujumi, qo„zg„olonlar bilan bog„liq bo„lgan. IV asrda Yeron jamiyatida yuzberganijtimoiy kurash sosoniylar tashqi siyosatida ham

aks etgan.
**V asr oxiridagi siyosiy vaziyat.** Xalq ommasini haddan tashqari ezilishi jamoachilar xo„jaligida og„ir iz qoldirgan. Bahrom V Gur (421–439) davrida Yeronda juda ko„p dehqonlarning ish hayvonlari, qurollari, urug„lari yo„q bo„lgan. Xonavayron bo„lgan jamoa a'zolari Yerlarni tashlab ketib, hazar qilinadigan hunarmandchilik va boshqa kasblar bilan mashg„ul bo„lgan va aksariyat hollarda daydilarga aylangan. Viloyatlar hukmdorlari Bahrom V ga juda ko„p arznomalar yozganlar. Qishloqlar huvillab qolgan, hayvonlar egasiz qolgan, dalalarni esa o„to„lanlar bosib ketgan. Dehqon xo„jaligining bir qismi xonavayron bo„lishi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti zaiflashgan, sug„orish tizimi ancha buzilgan, teztez ocharchiliklar yuz berib turgan.
FYeruz (459–484) hukmdorligi davrida yetti yil mobaynida hosil yaxshi bo„lmagan, daryolar qurib, hayvonlar oriqlagan, mamlakat aholisi turli g„amtashvishlarga botgan. Ziroatda ishlab chiqarish kuchlari rivoji zaiflashgan.
Oqibatda IV asr oxiri – V asrda keng ko„lamda xalq harakatlari yuz bergan. Ular orasida *mazdakiylar* harakati ijobiy xususiyatga ega bo„lgan.
Dehqonlargina emas, ushbu holatdan ozodlar ham norozi bo„lib, ular yuqori fuqaro va harbiy mansablarga Yerisha olmaganlar. Shu sababli V asrda ozodlar dehqonlar bilan birga bosh ko„tara boshlagan. Aynan ozodlar quldorlarga qarshi siyosiy hukmronlik uchun kurash boshlagan. Shahanshohlar ko„proq ozodlar va dehqonlarga tayana boshlagan, ular feodalizm vakillari bo'lgan.

ArdashYer II (379–383) Yeron dehqonlarini (mehnatkash) o„n yilga soliqlardan ozod qilish to„g„risida farmon chiqarganda, zodagonlar uni taxtdan ag„darib tashlaganlar.

Yozdigard I (399–420) ma'lum darajada a'yonlar va ruhoniylar siyosiy ta'sirini cheklashga Yerishib, qatag„onlar orqali ular kuchini ancha sindirgan. Forsdagi isyonni shafqatsizlik bilan bostirgan. Lekin, u ham o„zi olib borgan siyosat qurboni bo„lgan. Uning o„g„li Bahrom V taxtga o„tirish marosimida otasi siyosatini ta'qib qilgan, u butunlay mashhur zodagonlar ta'sirida bo„lgan.
Sosoniylar imperiyasi zaiflashgan sari uning hududiga Kavkazorti va Markaziy Osiyodan hujumlar kuchaygan. Vaqti-vaqti bilan sosoniylar bu hujumlarni qaytarib, hatto qarshi hujumga o„tib turgan, Lekin, V asrning ikkinchi yarmida vaziyat keskin o„zgargan. Ichki vaziyat va turli hujumlar mamlakatni qaqshatgan. Shahanshoh FYeruz mag„lubiyatga uchragan. Birinchi martasida u Eftaliylarga katta tovon to„lashga, to„lov tugagungacha ular qo„lida o„g„li Qubodni garov tariqasida qoldirishga majbur bo„lgan,
Ikkinchi martasida lashkarlari to„la mag„lub bo„lgan, FYeruzning o„zi o„ldirilgan. Eftaliylar – «oq xunnlar» turmush tarzida harbiy qabilachilik demokratiyasi an'analari kuchli bo„lgan. Eftaliylarning boshliqlari o„zlarini «birgalikda o„ladiganlar» deb atalgan kishilar bilan qurshab olganlar. Bu kishilar ularni taomi, turmushi va jangdagi shYerik o„rtoqlari bo„lib, boshliqlari o„lganda ular bilan birga narigi dunyoga ketardilar. Eftaliylar 427- yildan 487- yilgacha O„rta Osiyo davlatlarini qulatgan. Vax Shunvor boshchiligida 457- yilda Badaxshon va Balxni egallagan. Yeronga birinchi zarba 479- yilda berilgan va 484- yilgi jangda FYeruz o„ldirilgan Shu davrdan e'tiboran Yeron eftaliylarga o„lpon to„lashga majbur etilgan.
Harbiy jihatdan mag„lub etilgan, aholisi och mamlakatda xalq qo„zg„olonlari boshlangan. Mamlakatning Shimoli-g„arbida 483–484- yillarda qo„zg„olon zo„rg„a bostirilgan. Hukmronlar uchun eng xavflisi o„sha davr G„arbiy Osiyosi tarixida muhim iz qoldirgan mazdakiylar harakati bo„lgan.

3. **Qishloq xo'jaligining rivojlanishi va agrar munosabatlar.** X–XI asrlarda Yeronda iqtisodiy yuksalish va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o„sishi kuzatilgan.

Mazkur davr Yeron hududi uzoq vaqt xorijiy bosqinlarga duchor bo„lmagan, tinch taraqqiyot davri hisoblanadi. Kavkazorti va O„rta Osiyoda tashkil topgan davlatlar Yeronni ko„chmanchilar xujumidan himoya qilgan. Ichki adovatlar halokatli darajada bo„lmagan. Soliq tu Shumining bir qismi sug„orish tizimini barpo etish va qishloq xo„jaligining o„sishiga yordam beradigan ishlov berilmaydigan Yerlarni o„zlashtirishga sarflangan.
Davlat barcha Yerlarni nazoratga olgan bo„lib, dehqon jamoalari soliq to„lagan. Jamoa sun'iy sug„orish tarmoqlarini yaxshi saqlanishiga javobgar bo„lgan. Ushbu holatlar va shariat jamoatchilik munosabatlarini saqlab qolishga yordamberganva dehqonlarning qulligini sekinlashtirgan. Yuqori hokimiyat xususiy mulkchilikni va hatto Yerlarni sotishni ham istisno qilmagan. Davlat faqatgina Yerlardan ijara-soliqning bir qismini undirish huquqini saqlab qolgan. Mulkka nisbatan xususiy mulkchilik qadimgi dehqon oilalari va arab istilochilari avlodlari orasida keng tarqalgan. Mulklar mYeros bo„lib o„tgan. Ularni o„sha vaqtda vayron qilingan kichik va o„rta feodallardan yangi egalar – yirik feodallar va badavlat savdogarlar sotib olishlari mumkin bo„lgan. Ma'muriy va harbiy choralarni qo„llashda, mulklar xazina foydasiga musodara qilingan. Boshqa musulmon davlatlari singari Buvayxiylar va Somoniylar davlatlari ham arab va Yeronliklar asilzodalar, harbiy amaldorlar, saroyda xizmat qilgan harbiy turk-g„ulomlariga iqto berishdan foydalanganlar.
XI asrga kelib Yeronda vaqf mulklari mavjud bo„lib, ulardan keladigan daromad musulmon diniy muassasalari ixtiyorida bo„lgan. Bu Yerlarga ham soliq belgilangan.

Feodal Yerga egalik qilish shakllaridan qat'i nazar, ishlov beriladigan Yerlarning katta qismi kichik maydonlarga ajratilib, hosilning yarmi, uchdan bir qismi va choragiga ijaraga berilgan. Ushbu parchalanishga sabab dehqonlarning mehnat qurollari ibtidoiy ko„rinishda bo„lganligi uchun katta Yerlarga ishlov berishi qiyinligi edi.

**Shaxarlar, hunarmandchilik va savdo-sotiqning ahvoli.** IX–X asrlarda mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishi Shaxarlarning o„sishiga turtki bo„lgan. Xalqaro savdo yo„llarida joylashgan eski Shaxarlardan tashqari yangilari ham paydo bo„lgan. Ular mahalliy bozor vazifasini bajaruvchi hunarmandchilik markazlari sifatida vujudga kelgan. Nishopurda tohiriylar, ShYeroz va Isfaxonda buvayxiylar, Zaranjda safforiylarning qarorgohlarini vujudga kelishi alohida Shaxarlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Hukmdorlar poytaxtlarda hashamatli binolar barpo etganlar, obodonlashtirish – ko'priklar qurish, yo'llarni tekislash uchun mablag'lar ajratilgan.
Hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari Yerondan Rus Yerlariga, Hindiston, Xitoy va G'arbiy YYevropa mamlakatlariga eksport qilingan.

O'rganilayotgan davrda Yeronda, ayniqsa zamonaviy hunarmandchilik rivojlangan. Qimmatbaho matolar, ipak, zig„ir, paxta va jun matolar, jun va ipak gilamlar ishlab chiqarilgan. Metall buyumlar – qilich, xanjar kabi o„tkir tig„li qurollar, dubulg„alar, Shuningdek bronza va kumush idishlar ishlab chiqarilgan. Yeron kulolchiligining eng katta yutug'i XII asrda qandillarning ixtiro qilinishi bo„lgan. Yirik feodallarning qal'alari atrofida vujudga kelgan Shaxarlar o„ziga xos rejaga ega bo„lgan. Ya'ni, mazkur Shaxarlar ark va unga yaqin joylashgan shahriston, Shaxar atroflari – rabodlardan iborat bo„lgan. Ayniqsa Shaxar atrofi – rabodlar tez o„sgan. Shaxarning alohida qismlari darvozalar bilan ichki devorlarga bo„lingan. Shaxarlar tashqi mudofaa devori bilan o„ralgan. Ma'lumotlarga ko„ra Isfaxon shahrining devori uzunligi 3,5 farsax (taxminan 21 km) bo„lgan. Ayrim

ma'lumotlarga ko„ra, o„sha paytda Isfaxonda 200 minggacha aholi istiqomat qilgan. XI asrda ikkinchi darajali Arragan (Fors) shahrida 40 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan. Nishopurda 44 ta mahalla bo„lib, ularning ba'zilari, o„rta asr geograflarining ma'lumotiga ko„ra, ShYerozning yarmiga teng edi va aholisi bir necha yuz ming kishi bo„lgan. Nishopur va Isfaxondan tashqari eng yirik Shaxarlari. Ray va Sheeroz bo'lgan.
Yeron Shaxarlarida o'rta asr g'arbidan farqli o'laroq, yirik savdogarlar feodallar bilan raqobatlashmasdan, aksincha,
Shaxar va qishloqlardagi xalq harakatlariga qarshi turganlar. Yeron Shaxarlaridagi mahallalar, hunarmandchilik do„konlari va savdogarlar uyushmalarida o„z-o„zini boshqarish mavjud bo„lsada, butun Shaxarda o„zini idora etish mavjud bo„lmagan.

4. **Zardushtiylik – davlat dini.** Sosoniylar imperiyasini mustahkamlashda davlat dini bo„lgan *zardushtiylik* o„ziga xos o„rin tutgan. Faqat sosoniylar davriga kelibgina zardushtiylik din sifatida to„la shakllangan. Sosoniylar davri zardushtiyligi asosida dualistik g'oya, qorong'ulik va yorug'lik kuchlari o'rtasidagi kurash masalasi yotgan. Tabiat kuchlari (quyosh, olov, yulduzlar)ga sig„inish juda ko„p sonli ruhoniylar – *xarbad* va *mobadlar* tomonidan amalga oshirilgan.

Zardushtiy kohinlarning yuqori qatlami siyosiy hayotda muhim rol o„ynagan. Ular qo'lida ta'lim tizimi va sud bo'lib, xalqning butun hayoti qat'iy nazorat ostiga olingan. Shu sababli ham o„sha davrdagi ijtimoiy norizolik dahriylik libosi ostida bo„lgan. Ular orasida eng muhimlari – *moniylik* va *mazdakiylikdir*.

**Moniylik dini va uning ijtimoiy mohiyati.** Ushbu ta'limot asoschisi Moniy 215- yilda Bobilda tug„ilgan va o„z targ„ibotini 242- yilda Ktesifonda boshlagan. Moniylikning asosiy g„oyasi zardushtiylikdagi kabi dualistik g„oya bo'lib, ikki ibtido: yorug„lik va qorong„ulik, yaxshilik va yomonlik mavjudligini tan olgan. Zardushtiy kohinlar sosoniylar imperiyasidagi tartib qoidalarni yorug„lik tashkil etish timsoli sifatida targ„ib qilganlar. Moniy ta'limoti bo'yicha dunyoviy hayot va unda yashovchi kishilar yovuzlik timsolidir, yovuzlikdan xalos bo'ishning asosiy yo'li inson ruhining barcha moddiy, dunyoviylikdan ozod qilishdir. Yorug'likni ozod etishning, qorong'ulikni bartaraf qilishning yagona yo'li – bu dunyo halokatidir. Inson o'z hayoti, yurish-turishi bilan atrofdagi olamda mavjud yorug'lik zarrachalarini ozod qilmog'i lozim. Shunday hayot bilan u yorug'likka qarshi kurashadi. Shu sababli inson go'sht yemasligi kerak, ahloqan pok hayot kechirishi lozim. Dastlab sosoniylar moniylik tarqalishiga uncha e'tibor bYermaganlar.Ular ta'limotining davlatga, dinga qarshi ruhi sezilgach, unga qarshi qattiq targ'ib boshlangan. Moniy zindonga solingan, 276- yilda qatl etilgan. Uning tarafdorlari yashirinishga majbur bo„lib, ko„proq Vizantiyaga ketganlar, u Yerda moniylik tarqalgan, boshqa shakllarga kirib, xristianlikka o„z ta'sirini o„tkazgan.

**Mazdakiylar harakati.** Mazdakiylikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xonavayron bo„lgan jamoatchi dehqonlar hamda Yeroniy hunarmandlar edi. Harakatga unga vaqtincha qo„shilgan ozodlar va dehqonlar ham katta yordam berganlar. O'tkir ijtimoiy kurash Yeron tarkibiga kiritilgan xalq va qabilalarni ham harakatga keltirgan.
488- yilda Mazdak tomonidan ilgari surilgan diniy-falsafiy ta'limot moniylik va zardushtiylik bilan mustahkam aloqada edi. Mazdakiylikning moniylikdan farqi yorug„likning qorong„ulik, yaxshilikning yomonlik ustidan g„olib chiqishiga bo„lgan qat'iy ishonch bo„lgan. Bu g„alaba narigi dunyoda emas, bu dunyoda sodir bo„ladi. Yorug„lik kuchlari ongli ravishda, yomonlik kuchlari ongsiz, tartibsiz ravishda g„alabasiga ko„makla Shuvi kerak. Yerda yomonlik ildizini quritish mumkin. yaxshilik va yomonlik timsoli mulkiy tengsizlikda yaqqol ko„rinib turibdi. Aynan u birinchi navbatda yo„q qilinmog„i darkor, degan tasavvurlar

mavjud bo„lgan.
496- yilda zodagonlar Qubodni qo„lga olib, zindonga solgan, uch yildan so„nggina u eftaliylar yordamida ozodlikka chiqib, taxtga o„tirgan. Shundan so„ng Mazdakiylar shoh yordamida orzularini amalga oshirgan. Harakat rahbarlaridan anchasi muhim davlat mansablarini egallagan. Mazdak davlatdagi eng muhim shaxslardan biriga aylangan. Aynan Shu davrda Yeron Vizantiyaga qarshi muvaffaqiyatli urush olib borgan, ko„chmanchilar hujumi qaytarilgan, qator yangi Shaxarlar qurilib, kanallar qazilgan. Mazdakiylar harakati birinchi navbatda, yirik zodagonlarga qarshi qaratilgan. Harakatdan keladigan asosiy foyda ozodlar va dehqonlar hissasiga to'g„ri kelgan.
Biroq harakat davomida ijtimoiy kurash jamoa ichida ham rivojlanib ketgan. Barcha jamoa a'zolarining teng huquqligi ozodlar g„azabini qo„zg„agan. Shu sababli ham ulardan iborat qo„shin harakat dushmanlari tomonga o„ta boshlagan. Shu bilan birga Qubod ham ruhoniylar va zodagonlar bilan keli Shuv yo„liga o„tgan.
Harakatdan ozodlar va dehqonlarning chiqib ketishi uni ancha zaiflashtirib qo„ygan. Dehqonlar guruhlari biroz g„alabadan keyinoq uy-uylariga tarqalib ketgan. Harakat muvaffaqiyatsizlikka uchray boshlagan.
Qubod vaziyatdan foydalanib mazdakiylar bilan bog„liq amaldor va maslahatchilarni lavozimlaridan chetlatgan, keyinroq ular quvg„in ostiga olingan. Bu ishga zardushtiylar va mazdakiylar boshlig„i o„rtasidagi bahs sabab bo„lgan (u ataylab shahanshohning o„zi tomonidan uyushtirilgan).
529- yilda bu harakat mag„lub etilgan.
**Xusrav I islohotlari.** Xalq harakati hukmronlarga eski boshqaruv usulini saqlab qolish mumkin emasligini ko„rsatgan. Shu sababli ham «*O'lmas*» nomini olgan yangi sosoniy shahanshohi Xusrav I AnushYervon (531–579) feodal munosabatlar rivoji va mustahkamlanishiga turtkiberganislohotlarni o„tkazishga majbur etilgan.
Mazdakiylarni mag„lubiyatga uchratgani uchun unga hukmron tabaqalar «Olmas» laqabini berganlar. Xusravning o„zi ham mazdakiylar harakatidan bir muncha saboq olgan. Soliq tizimidagi o„ta ketgan adolatsizlikni yo„qotish maqsadida uni ko„rib chiqish zarurligini tu Shungan.
Uning buyrug„i bilan hamma Yerlar yangitdan ro„yxatga olingan. Bunda tuproqning sifati, sug„orish, qanday ekinlar ekish, daraxtlar va ish kuchining miqdori aniq hisobga olingan. Moliya amaldorlari: mirzalar, Yerlardan olinadigan hosilni tubdan tekshirib chiqib, har yilda hosilga qarab soliq miqdorini belgilaydigan bo„lgan. Jon solig„i ham yildaga bir marta, muaYan miqdorda olina boshlangan. Ruhoniylar, amaldorlar va askarlar jon solig„idan butunlay ozod qilingan. Lekin, ular ma'lum miqdorda Yer solig„i to„lab turgan.
Xusrav I savdogar va sudxo„rlarni davlat moliya bo„limiga bajonidil xizmatga olib, ularning pul muomalasi sohasidagi amaliy tajribasidan foydalangan. Xusrav I zamonasida kanal, damba to„g„onlar va boshqa xil inshootlari qurilishi avj olgan. Ktesifonda u muhtasham bir saroy qurdirgan. U turli olimlarga, hatto Yustinian tomonidan Vizantiyadan haydalgan neoplatonchi faylasuflarga ham homiylik qilgan.
Uning buyrug„i bilan eng rasmiy voqealar saroyda rasmiy sur"atda yilma-yil yozib borilgan. Yunon, suriya va hind tilidagi adabiy asarlar tarjima qilingan. *«Ming Yertak»* nomli asar ham Xusrav zamonida paydo bo„lgan deb faraz qilinadi. Bu to„plam keyinroq arabcha *«Ming bir kecha»*ga asos bo„lgan.
**Xusrav I ning tashqi siyosati.** Xusrav I podshohlik qilgan butun davr qo„shni xalqlarga qarshi urush olib borish bilan o„tgan. U o„z podshohligining

dastlabki davrida Yustinian I bilan «abadiy tinchlik» to„g„risida ahdnoma tuzgan (532). Lekin, vaziyatning kuchayib ketishidan qo„rqib, 540- yilda ahdnomani buzib, Suriya va Antioxiyani bosib olgan. Antioxiya aholisini asir olib ketib, Ktesifon («Xusrav Antioxiyasi») atrofiga joylashtirgan. So„ngra urush Mesopotamiya va Kavkazortida davom etgan. U to„xtab-to„xtab 562- yilgacha cho„zilgan, nihoyat holdan ketgan ikkala taraf 50- yillik sulh tuzgan, ikkala taraf o„z joy chegaralarini saqlab qolgan. Biroq, 570- yilda Xusrav Yamanni bosib olgan. Ushbu holat Yeron va Vizantiya o„rtasida yana urush chiqishiga sabab bo„lgan. Mazkur urush 20- yil davom etib, Xusrav o„lgandan keyin uning o„g„li zamonida tugagan.
Sharqda Xusrav I O„rta Osiyo hududida Amudaryo va Sirdaryo o„rtasida yashovchi turk qabilalariga qarshi urush olib borgan.

**Sosoniylar davlatining arablar tomonidan istilo etilishi.**

Xusrav o'lgandan so'ng hokimiyat tushkunlikka yuz tuta boshlagan. Feodallashayotgan zodagonlar markazga yaxshi itoat qilmagan. Viloyatlarning katta hokimlari sosoniylarga qarshi uzluksiz qo„zg„olon ko„tarib turgan. 590- yilda Bahrom Cho„bin boshchiligidagi feodallar qo„zg„oloni ularning eng kattasi bo„lgan. Qo„zg„olon natijasida sosoniylarning ag„darilishiga sal qolgan.
Shoh Xusrav II (610–628) Vizantiya Imperatoridan yordam so„rab, uning qo„shini yordamida taxtni tiklab olgan. 591- yilgi Yeron va Vizantiya sulhiga binoan Kavkazortidagi chegara chizig„i Vizantiyaga o„tgan.
Bu davrda xonavayron bo„lgan dehqonlar harbiy xizmatni ham tuzukroq ado etmaydigan bo'lib qolgan.
Sosoniylar va feodallar ichki ziddiyatlarni tashqi urushlar yo„li bilan hal qilishga uringan. 600- yilda Vizantiya bilan yana urush boshlangan, 613–620-yillarda Xusrav II Suriya, Falastin va Misrni zabt etgan. Biroq, 623- yildan boshlab Vizantiya Imperatori Irakliyning o„zi hujumga o„tgan. 628- yilda ular qo„shni sosoniylar poytaxti Ktesifonni bosib olish xavfini tug„dirgan. Mamlakatda shohdan norozilik kuchaya boshlagan. Bundan foydalanib, zodagonlar Xusrav II ga qarshi fitna uyushtirgan. Ular tomonidan shoh qilib ko„tarilgan Xusrav II o„g„li Qubod II otasi bilan urishib uni asir olgan va qatl etishni buyurgan. Vizantiya bilan sulh tuzilgan, unga ko„ra, Vizantiyaliklar qo„ldan ketgan Yerlarini qaytarib olganlar.
VII asr o„rtalarida Yeronga qarashli Yerlar juda ko„p bo„lgan. Shunga qaramay, u Vizantiya urushlari natijasida holdan toygan. Mamlakatda feodallarning boshboshdoqligi mavjud bo'lgan.
Oxirgi Sosoniy Yozdigar III (632–652)ning mamlakatdagi obro„si tushib ketgan. Bir nechta viloyatlar unga nomigagina bo„ysungan. Bu vaqtda kuchli harbiy davlat bo„lib birlashib olgan arablar Yeronga hujum boshlab qarshiliksiz 642-yilda bosib olgan. Yozdigar III Sharqiy chekka o„lkalarga qochib ketgan. 652- yilda Marvga yaqin joyda o„zi yordam so„rab borgan turk qabilalari sardori tomonidan o„ldirilgan. Yeron uzoq vaqtgacha ko„p millatli juda katta Arab xalifaligi tarkibida qolgan.

## Mavzuga doir savollar:

1. Sosoniylar davlatining qulash sabablari?
2. Isfaxon qo„zg„oloni haqida nimalarni bilasiz?
3. Sosoniylar davlatida mavjud bo„lgan Yerga egalik qilish munosabatlari haqida ma'lumot bYering?
4. Sosoniylar davlatining diniy hayotini tasvirlab bYering?
5. Sosoniylar davlati olib borgan tashqi siyosat masalalari haqida ma'lumot bYering?
6. Sosoniylar davlatida yuzberganqo„zg„olonlarning umumiy hususiyatlari nimalarda ko„rinadi?
7. Xusrav I tomonidan o'tkazilgan islohotlar qay darajada samarali bo„lgan?

## Asosiy adabiyotlar:

3. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: Vizantiyada imperiyasi (4 soat)

**Reja:**

**1. Sharqiy Rim imperiyasi. Yustinian zamonida Vizantiyaning kengayishi.**
**2. Isavrlar sulolasining idora qilishi. Foma Slavyan qoʻzgʻoloni.**
**3. Makedoniyaliklar sulolasi dvrida Vizantiya.**
**4. IX—XI asrlarda Vizantiya feodalizmi.**
**5. Vizantiya madaniyati**

### Sharqiy Rim imperiyasi.

Gʻarbiy Rim imperiyasi germanan qa-bilalari tomonidan istilo qnlingandan keyin ham Rim impe-riyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U hatto oʻzini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayvYerdi. Latin tili yana uzoq vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili boʻlib qoldi. Lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yoʻqolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxt-i qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan boʻlib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nomberganedi). Ba'zi olimlar xuddi Shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning koʻpchiligi Vizantiya imperiyasi 395 yilda, ya'ni Feodosii I oʻlgach, imperiya uning oʻgʻillari oʻrtasida taqsimlanib, Sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilap birga Arkadiyga oʻtgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydi. Bolqon yarim orolidan va Egey dengizidagi koʻpdan-koʻp orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga yana Kichik Osiyo, Suriya bilan Falastin, Misr, Mesopotamiya bilan Zakavkazening bir qismi, Qrimning janubiy qirgʻoqlari kirar edi.

Imperiyaning Sharqiy qismi gʻarbiy qismiga qaraganda ancha mustahkam boʻlib chiqqan ekan, buping asosiy sababi Shuki, undagi iqtisodiy munosabatlar gʻarbiy qismidagiga qaraganda apcha taraqqiy topgan va ancha mustahkam edi. Bu Yerda Misrdagi Aleksandriya, Suriyadagi Aptioxiya, Kichik Osiyodagi Smirna va Gkres, Bolqop yarim orolidagi Konstantinopol va Fessalonika[1] kabi rivoj topgan savdo-sotiq markazlari bor edi. Osiyo Sharqi bilan olib borilgai qizgii savdo ishlari uzilmadi, balki hatto kucha idi, bu savdo Osnyoda III asrda kuchli yangi fors pod-sholigi — Sosopiylar podsholigi vujudga kelgandan keyin ay-piqsa kuchaydi. Sharqiy Rim imperiyasida quldorlik tuzumining oʻzi ham Gʻarbiy imperiyadagidek keskin tushkunlikka uchramadi. Buning sababi avvalo Shuki, imperiyaning Sharqiy viloyatlari-da, ayniqsa qishloq xoʻjaligida quldorlik Gʻarbdagidek katta rol oʻynamadi. Sharq ekonomikasida qullar bilan bir qator-da qul boʻlmagan elementlar, ya'ni Shaxarlardagi erkin hunar-mandlar va qishloqlardagi jamoachi dehqonlar katta oʻrin tutar edi. Bu jamoachi dehqoplar davlat dehqonlari boʻla tu-rib, qaramlik holatiga tushib qolgan boʻlsalarda (masalan, Suriya va Misrdagi «podsho dehqoplari») har holda ularning oʻz Yer uchastkalari, shaxsiy xoʻjaligi bor edi, shunday qilib, ular qullardak anchagina farq qilar edilar. Xiyla koʻp sonli mustaqil dehqonlar qisman qadimiy ibtidoiy tuzumni saqlab qolgan boʻlib, Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida istiqomat qilar edilar. Ellinizm madaniyatining oʻzi ham grek xalqining yaqin Sharqdagi turli xalqlar bilan koʻp asrlar davomida qilgan aloqasining natijasi boʻlib, Vizantiyaning mustahkamligi- • ning ma'lum

darajada saqlanyb turishiga imkonbergansharoit-lardan biri bo‘ldi. Antik grek tilidan farq qiladigan grek-larning ellin tili SHarhdagi boshqa xalqlar tillarining ko‘p-gina elementlarini o‘z ichiga olganligi, Shaxar tuzilishi o‘sha qadimiy grek Shaxar-davlat tuzilishining anchagina tomonlari-ni o‘zida saqlab qolganligi, yaqin Sharqdagi turli xalqlarning turlicha diniy e’tiqodlari aralash-quralash bo‘lib ketib, shar-qiy xristian dini'ga ham ta’siri o‘tganligi, bular o‘rtasida qadimdan bYeri savdo aloqalarining mavjudligi — mana Shu-larning hammasi Urta dengizning Sharqiy qismida yashovchi aho-lini bir-biriga yaqinlashtirdi, alohida bir grek-Vizantiya xalqining vujudga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ammo ayrim viloyatlarning etnik, maishiy, diniy tafovutlari tamo-man yo‘q bo‘lib ketmagan edi, Vizantiyaning bundan keyingi bu-tun bir tarixida bu narsa keskin sezilib turdi.

Sharqiy imperiyaning yuqorida qayd qilib o‘tilgan xususiyat-lari natijasida uning varvarlarga bo‘lgan munosabatlari ham boshqacha bir xarakterga ega bo‘ldi. Vizantiya G‘arbiy imperiyaga o‘xshab varvarlar tomonidan bosib olinmadi ham, yashashdan tux-tamadi ham. Jumladan, Vizantiya germanan qabilalari — vestgotlar, ostgotlarning va boshqa qabilalariing hujumlariga bardosh berdi, bu qabilalar esa Vizaitiyadai g‘arb tomon kirib borib, u Yerda o‘zlarining varvarlik korolliklarini tuzdilar. Vizantiya imperiyasida hali V—VI asrlarda ham quldorlik tu-zumi saqlanib qalgan edi. VI asrda Vizantiya hatto bu tuzumni varvarlar tomonidan bosib olingan g‘arbiy viloyatlarda tik-lashga harakat qildi. Biroq undan keyingi VII—VIII asrlarda Vizantiya qadimgi Rimga xos bo‘lgan ijtimoiy va siyosii tra-ditsiyalarni o‘zida saqlab, ilgarigidek «Romeya davlati»ligicha qolib kelayotgan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormoqda edi. Oqibat-natijada Vizantiya ham, «varvarlashtirilishdan» qochib qutulmadi, bu narsa Bolqon yarim oroliga juda ko‘pdan-ko‘p slavyan qabilalarining kelishi-da namoyon bo‘ldi. Slavyanlar qisman Bolqon yarim orolidagi bir qancha teretoriyalarni bosib olib, bu Yerda (G‘arbda bo‘lga-ni singari Bolgariya, serbiya, Xorvatiyani barpo qildilar), qisman Vizantiya qo‘lida saqlanib qolgan teretoriyam dehqon-kolonist bo‘lib ko‘chib keldilar va bu Yerga o‘zlari bilan birga ibtidoiy-jamoa tuzumi tartiblarini olib keldilar. Shundai qilib, Shuni e’tirof etish mumkinki, oqibat-natijada germanan-lar G‘arbiy Rim imperiyasiga nisbatan qanday rol o‘ynagan bo‘lsalar, slavyanlar ham Vizantiyaga nisbatan (ozgina farq-Yustinian davrida Vizantiya imperiyasi (527—565) sarq bilan) xuddi Shunday rol o‘ynadilar. U Yerda ham, bu Yerda ham varvarlarning kelishi quldorlik tuzumining qula-shiga va ancha progressivroq ijtimoiy feodal munosabatlar-ning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishiga yordam berdi. Yustinian zamonida Vizantiyaning kengayishi. Vizantiya hali G‘arbdagi varvar korolliklariga, Shimoldagi slavyan qabilala-riga va Urta Sharqda yangi fors (Yeron) lodsholigiga keskin ravishda qarama-qarshi turuvchi quldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bo‘lgan davrda, VI asrda Imperator Yustinian hukmron-lik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga Yerishdi. Yustinian 527—565 yillarda podsholik qildi. U atoqli ma’mur edi, qo-nun chiqaruvchi edi, u imperiyaning Sharqiy chegaralarinigina emas, balki g‘arbiy chegaralarining ham anchagina qismini tik-lagan kishi edi.

U o‘zidan oldin o‘tgan Feodosii sulolasisi o‘rniga kelgan yangi sulolasining vakili edi. Uning amakisi Imperator YUstin 1 ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, illiriyalik savodsiz bir dehqon bo‘lib, harbiy xizmatda Shuhrat qozonganda, armiya uny Imperator qilib ko‘targan ekan. U Yustinianni o‘ziga yordamchi qilib olgan, Yustinian amakisining aksicha rim-vizantiya ta’limini juda yaxshi bilgan.

Vizantiya varvarlarning ( germananlar, slavyanlar va boshqa-larning) hujumini qaytarib, o‘zi ularga qarshi hujumga o‘tgan bir davrda Yustinian Imperatorlik qila boshladi. Yustinian o‘z oldiga imperiyaning ilgarigi g‘arbiy chegaralarini tilashni vazifa qilib qo‘ydi. Ilgarigi G‘arbiy imperiyahududisida yaqindagina vujudga kelgan varvar korolliklarining tarqoq va kuchsizligidan foydalanib turib, Yustinian o‘z pro-grammasini qisman amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning sarkardalari Velizariy va Narses Shimoliy Afrikadagi Vandal korolligini (534 y.), Italiyadagi Ostgot korolligini (555 y.) va Ispaniyaning janubiy qirg‘og‘ini (Betikani) bosib oldi.

Shunday qilib, Urta dengiz vizantiyaliklar uchun yana «biz-ning dengiz» (Mare nostrum) bo‘lib qoldi. Zamondoshlar nazarida imperiya go‘yo Avgust va Trayan davridagi «baxtli kun-larga» yana qaytgandek tuyular edi. Lekin yuqorida ko‘rsatib 5:tilganidek, gotlarga qarщi olib borilgan urush natijasida butun Italiya tamomila xarob bo‘ldi va bu urush imperiyaning o‘zini ancha mablag‘ sarflashga majbur etdi.

Ikkinchi tomondan, Ispaniyani bosib olib, ularni Vizan-tiyaga qo‘shib olishning o‘zi vaqtipchalik bo‘lib chiqdi. Aslida Urta dengizning Sharqiy qismi bilan G‘arbiy qismi o‘rtasida-gi iqtisodiy aloqa bu vaqtda to‘xtab qolgan edi. G‘arbiy gYer-man korolliklari umuman olgapda Vizantiyani G‘arbda bosib olgan Yerlarining ko‘pchilik qismidan siqib chiqarishga qurbi etar edi. Shu bilan bir vaqtda Sharqnipg o‘zida xam Vizantiya-ning dushmanlari ko‘p zdi.

Yustinian o‘z davlatipipg Shimoliy chegaralarini qisman gunlar hujumidap, qisman slavyanlar siquvidap himoya qilishga juda zo‘r berdi. Bolqon yarim orolida bir-bnriga parallel ravishda uch qator qal’alar qurildp. Ammo bu mudofaa to‘siq-lari slavyanlarping Bolqon yarim oroliga qarab siljishlari-ni to‘xtata olmadi. Slavyanlarping ko‘pipi imperiya yarim orolga ittifoqchi — fedYeratlar sifatida joylashtirishga majbur bo‘ldi. Boshqalari hatto Bolqon yarim orolining janubida — Makedoniyaga va Egey dengizi bo‘ylariga kolonist-Yer egalari sifatida joylashtirildi. Yustinian imperiyaning Qrimning janubiy qirg‘og‘idagi va qisman, Zakavkazedagi Yerlarini qaytarib oldi. Lekin u Mesopotamiyaning bir qismini Yeron shohiga berishga va sulh tuzilganidan keyin uiga katta-katta pul to‘lab turishga majbur bo‘ldi.

Shunday qilib, Yustinianning ulug‘ davlat tuzish siyosati bir qadar muvaffaqiyatli natijalar berdi, xolos. Shunday bo‘lsa-da, uning vaqtida imperiyaning chegaralari ancha qengaydi. Keyingi vaqtlarda Vizantiya imperiyasi bunday yutuqlarga hech bir Yerisha olmadi

**Yustinianning qonun chiqarish faoliyati.**

Yustinian podsho-lik qilgan dlnrda Vizantiyaning ichki tarixida juda katta voqealar yuz berdi. Bu voqealardan eng avval Yustinianning qonun chiqarish sohasndagi faoliyatini ko‘rsatish kerak. U o‘z podsholigining boshlapish paytidayoq Rim Imperatorlarining ilgari nashr qilipgap hamma qonunlarini bir qilib to‘plab bosib chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Eng atoqli yuristlardan iborat ikki komissiya Tribonian rahbarligida Rim qonunlarini to‘plab tartibga solish ustida juda katta ish olib bordi. Bu komissiyalarning 528—534 yillar mobaynida olib borgan ishi natijasida «grajdan huquqlari to‘plami» (Corpus furis civilis) vujudga keltirildi, bu to‘plam Rim imperiyasidagi butun qonunlarni yakunlovchi eng katta yuridik yodgorlik bo‘ldi. To‘plam to‘rt qismdan iborat edi: 1) 12 tom-lik Yustinian kodeksi — Rim Imperatorlarining qonunlari to‘plami; 2) Digestlar — bu 50 kitob bo‘lib, Rim qonunlarini sharhlagan mashhur rim yuristlarining asarlaridan olingan parchalarni o‘z ichiga olgan edi; 3) Institutsiyalar — sudyalar va o‘quvchi-yuristlar uchun qisqacha yuridik qo‘llanma (bir kitob); 4) Novellalar — Yustinianning kodeksiga kir-magan yangi qonunlaridan (535 yildan to o‘z podsholigining oxirigacha) iborat edi.

Yustinianning qonunlar to‘plamida, bir tomondan quldor-lik tuzumi alomatlari («barcha odamlar erkin kishilarga va qullarga bo‘lipadi») va ikkinchi tomondan, vujudga kelayotgan feodal munosabatlarpiig alomatlari (kolonat to‘g‘risidagi qonunlar, qullarni cheklanmagan miqyosda bo‘shatish to‘g‘risidagi yangi qonunlar) aks etdi. To‘plamda Imperator hokimiyati absolyut hoki'miyat degan ideya aniq bayon qilindi («Imperator iroda-si — qonun maibaidir»).

Yustinian to‘plamida xususiy mulkni himoya qilishga va Rim imperiyasi bilan Vizantiya uchuy xos bo‘lgan oddiy tovar xo‘ja-ligi sharoitidan kelib chiqadigan har turli mulkiy muomala-larpi rasmiylashtirishga katta o‘rin berildi. To‘plamning keyingi ikki xususiyati (kuchli markaziy hokimiyat ideyasi va mufassal ishlab chiqilgan xususiy mulk huquqi) bu to‘plamning keyingi vaqtlarda, o‘rta asrlarning ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropada juda ham Shuhrat qozoiishiga sabab bo‘ldy. Yustinianning «Grajdan huquqlari to‘plami»ni Yevropa yuristlari sinchiklab o‘rgandi, XII asrdap boshlab, ayniqsa XIII—XIV asr-larda G‘arbiy Yevropaping turli mamlakatlarida korollar chi-qargan qonunlarda Rim qonunlaridan foydalanilganligini ko‘rish mumkin.

Yustinian qonuilar to‘plamini chiqarishidan maqsad qul-dorlik ishlab chiqarish usulining emirilishi juda tezlashib borayotgan sharoitda quldorlik davlatini saqlab qolish edi; bu qonun jumladan, markazdagi va joylardagi hokimiyat agent-lariga xalq ommasining revolyusion chiqishlari bilan kurashda qurol bo‘lib xizmat qilar edi. Ayni Yustinian davrida Konstantinopolda va turli viloyatlarda bir iecha bor katta-katta xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tgan edi. 532 yilda Konstantinopol-da bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon ayniqsa kuchli bo‘ldi. Qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga eng asosiy sabab Imperator chinovniklarining, ayniqsa Yustinianning Yerkatoyi— Konstantinopol hukmdori bo‘lnb turgan Ioann Kappadokiyskiyning xazinani talashi, poraxo‘rligi va Shu xildagi suiiste’mollari sabab bo‘ldi.

**«Nika» qo‘zg‘oloni.**

Qo‘zg‘olon 532 yil I yanvarda Konstantinopol sirki (ippadromi) da Imperator huzurida boshlandi. «Yashil» deb ataladigan sirk oppozitsiyami partiyalaridan biri aholi nomidan shikoyat yozib, unda yuqori mansabdor chinovnik-larni jazolash talab qilingan edi. Yustinian buni rad etib, jahl bilan ippadromni tashlab chiqib ketdi. Bunga javoban qo‘zg‘olon ko‘tarilib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar «Nika» (grekcha — «g‘alaba qozon!» demakdir) degan shior ko‘tardilar. Qo‘zg‘olon butun poytaxt va uning atrofiga yoyildi. Yustinian nochor ahvolga tushib qoldim, deb o‘ylab, u hatto Konstantinopoldan qo-chib ketmoqchi ham bo‘ldi. Qo‘zg‘olon besh kun davom etib,Yustinianning sarkardasi Velizariy tomonidan dahshatli shafqat-sizlik bilan bostirildi. 30 mingtacha kishi o‘ldirildi. «Nika» qo‘zg‘oloni qatnashchilarining sostavi juda ham xil-ma-xil edi. Bir tomondan, unda Konstantinopolning va uning yon-atrofining xalq ommasi qatnashdi, bu omma imperiya chinov-niklarining jabr-zulmiga qarshi bosh ko‘targan edi. Ikkinchi tomondan, harakatning tashkilotchilari aristokrat senator ele-mentlar bo‘lib, ular yangi sulolasidan va Yustinianning o‘zi-ning mustabid hokimiyatidan norozi edilar. Harakatda qatnash-gan sirk guruhlarining o‘zi — «yashillar» va «ko‘klar» deb atalgan guruhlar sport tashkilotlari bo‘lib, Shu bilan bir vaqtda muhim siyosiy rol o‘ynar edilar. «Ko‘klar»ni Yustinian saroy ahli qo‘llab-quvvatlardi, «yashillar»ning esa aristokratok oppozitsiyachilar orasida juda kuchli homiylari bor edi. Shu bilan bir vaqtda «ko‘klar» ham, «yashillar» ham Konstanti-nopoldagi ancha keng demokratik tashkilotlar bilan — dimlar bilan bog‘langan edi. Dimlar eski vaqtdagi Shaxar o‘z-o‘zini idora qilish boshqarmasining qoldig‘i bo‘lmish o‘ziga xos rayon xalq uyushmalari bo‘lib, Yustinian vaqtida hali ancha e’tibori bor edi va hukumat ham, aristokratlar oppozitsiyasi ham ular bilan hisoblashishga majbur edi.

**Ma’muriy va moliyaviy zulmning kuchayishi.**

532 yil voqealari Yustinianning ichki siyosatiga katta ta’sir qildi. Yustinian keyingi vaqtlarda ham xalq ommasining bosh ko‘tarishidan hadiksirab yurdi. 532 yildan keyin dimlar xiyla darajada qayta tuzildi. Konstantinopolda va boshqa yirik Shaxarlarda politsiya hokimiyati kuchaytirildi. Shu bilan bir vaqtda Yustinian yirik senator zodagonlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. U, magnatlarning juda ko‘p Yerlarini musodara qildi. Imperator farmonlar chiqarib, erkin kishilarning mahalliy katta Yer egalari homiyligiga o‘tishini man qildi. Kuchli so-sial tayanch topish maqsadida Yustinian davlat pravoslav chYer-koviga, episkoplar va monastirlarga har jihatdan homiylik qildi, ularga juda ko‘p Yerlar berdi. Eski zodagonlarga qara-ma-qarshi ravishda Yustinian harbiy xizmatidagi o‘rta darajali zlementlarga ko‘proq tayandi, musodara qilingan Yerlarning ko‘p qismi ularga berildi.

Ma’muriy davlat apparatini mustahkamlash senator aristokratlar oppozitsiyasiga va revolyusion xalq harakatiga qarshi kurashning vositalaridan biri edi. Yustinian boshqarishni qattiq markazlashtirdi, hatto joylardagi ikkinchi darajali amaldorlar ham vazifaga Imperator farmoni bilan tasdiqla-nar edi. Hukumat amaldorlar o‘zlarining oladigan maoshi bilan yashashlari va aholidan pora olmasliklari kerak, deb bir necha bor rasmiy e’lon qilishiga qaramay, poraxo‘rlik yo‘qol-madi. Shuningdek, Imperatorning amaldorlar zodagonlarni va boylarni Yerkalatib yubormasin degan farmoni ham amalga osh-may qolib ketdi.

Yustinian hukumati davlat moliyasiga ham katta e’tibor berdi. Uning zamonida aholidan olinadigan soliqlar bir necha hissa ko‘paydi- Imperator xazinasi aholidan Yer, jon, hunarmandlik (hunarmandlardan) va savdo soliqlari solish yo‘li bilan juda katta mablag‘lar olar edi.

Yustinian ipak, tuz va hokazolarga Imperator monopoliyasidan keng foydalandi. Max-sus davlat ishxonalari ham bo‘lib, bularda Imperatorning Yerkak va ayol qullari ishlar edi. Saroyning zeb-ziynatlariga, ko‘pdan-ko‘p amaldorlarni va armiyani saqlash, dang‘illama imo-ratlar solishga (bularni davlatning o‘zi uyushtirar edi) bu mablag‘larning hammasi sarf qilinar edi. Moliyaviy zulm mamlakatning iqtioodiy hayotiga juda yomon ta’sir qildi va xalq ommasining vayron bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi. Hukumat-ning juda qattiq diktaturasi xalq ommasini g‘oyaviy jihatdan ham zazar edi. Yustinian hukumati Shu mahalgacha ham uncha-muncha saqlanib qolgan ma’jusiylarni ta’qib qilib, ularning falsa-fa maktablarini yopib qo‘ydi. Hukmron pravoslav cherkovining ta’l'imotiga qo‘shilmovchi Yeretiklar juda keskin ta’qib qilin-di. Bularsing ham-masi aholining juda keng doyralarida (ay-niqsa separatchilik kayfiyatidagi chekka viloyatlarda) qattiq norozilik tug‘dirdi va aholining bir qismini Yeronga va boshqa qo‘shni mamlakatlarga chiqib ketishiga sabab bo‘ldi. Shaxarlarda Shaxarliklarning ba’zi joylarda dehqonlarning g‘alayon-lari, qullarning asirlikdan qochishlari, «til biriktirishlari» tarqoq holda bo‘lsa-da, Yustinian podsholik qilgan davrda to‘xtamay davom qilib turdi, po-dsholikning oxirlarida esa bu xonasi bo‘lib, u Yustinian tomonidan 532—538 yillarda («Ol-loning donoligi» sharafiga) qurildi, bu ayo Sofiya ibodatxona-sida ilk Vizantiya arxitekturasi uslubining xususiyatlari ju-da yaxshi aks etdi. Ayo Sofiya ibodatxonasi asosan keyingi imperiya davridagi rim hukumat binolari tipida, ya’ni bazilika ti-pida qurilgan bo‘lib, antik arxitektura elementlarini (ichki stunlar), Shuningdek, Sharq me’morligi elementlarini (juda ko‘p oltin bezaklar, binoga hashamatberganmuhtasham gumbaz va hokazolar) o‘zida aks ettirdi. Ibodatxonaning ichkarisidagi koshinkor tasvirlar rang-barang sun’iy qimmatbaho toshlardan nihoyat darajada badiiy bir tarzda ishlandi. Ayo Sofiya ibo-datxonasining mustahkam ishlanganligi kishini hayratda qol~ diradi. Bir necha martalab zilzila bo‘lishiga qaramay, bu bino hozirgi vaqtgacha saqlanib kelyapti va u jahon arxitekturasi-ning ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biridir.

VI asrda Vizantiya madaniyati. Ayo Sofiya ibodatxonasi singari mashhur yodgorlik qurilishida o‘z ifodasini topgan yuk-sak arxitektura san’ati Vizantiyaning umumiy madaniyati o‘sha davrda qanday yuksak bo‘lganligini ko‘rsatuvchi dalillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bunday monumental badiiy yodgorlik qurilganligining o‘zi mohir usta, matematiklar, injenYer-lar, rassomlar bor bo‘lganligini ko‘rsatadi. Vizantiyaning VI asrdagi gumanitar asarlar yaratganligini bir qancha yirik olim va yozuvchilarning nomlaridan bilish mumkin, ularning asarlari bizning zamonamizgacha etib keldi. Yustinian vaq-tidagi yirik tarixchi P r o k o i i i Kesari i s k i y buping misolidir. Prokopny YUstiiianning podsholik qilishiga oid bir kancha tarixiy asarlar yaratdi, jumladap, «Urushlar tarixi» (forslar, gotlar va boshqalar bilan), «Qurilish-lar», «Sirli tarix» kabi asarlar yaratdi. Prokopiy asarlari-da qimmatli matYeriallar to‘plantan, unda Vizantiyaning bir o‘zining emas, hatto uning yon qo‘shnilarini, jumladan, VI asrdagi slavyanlarni, ostgotlarni, vandallar va boshqalarni ham ta’rif-tavsiflab bergan. O‘zining rasmiyat uchun yozgan asar-larida YUstianianning siyosatini to‘la ma’qullab uni sha-raflagap. Prokopiy o‘zining «Sirli tarix»ida aksincha' podsholik davrining sirli, qorong‘i tomonlarini ochib tashlagan, ayniqsa Yustinian siyosati natijasida soliqlarning og‘ir-lashib, xalq ommasining tobora qashshoqlashib ketganligini qayd qilgan.

Vizantiyaning VI asrda o‘tgan yana bir yirik tarixchisi Agafiy edn. Uning «Yustinianning podsholik qilishi» de-gan asari Prokopiy asarlariga ancha muhim qo‘shimchalar ki-ritib, ularnp to‘ldiradi, tuzatadi, o‘rni bilan uningberganma’lumotlarnip tisdpqlaydi.

Vizantiyaning VI asrdagi epg yirik olimlari orasida aniq failar bilan inyi ullangan mediklarDan Aleksandr T r a l l s k i i pa 11 a i <• l E g i n *s* k i y n i, matematik-mexaniklardan Isidor Miletskiy va Anfimiy Tral le kiy (bular ayo Sofiya ibodatxonasining asosiy quruvchilari bo‘lgan), geograflardan Kozma Indikop-l avt.ni ko‘reatish mumkin, Indikoplavt asarlarida geografik noaniqliklar anchagina ko‘p bo‘lishiga qaramay, u Afrika va Hindistsh, Qizil dengiz va Hind odeani to‘g‘risida bir qancha qimmatli matYeriallarni o‘z ichiga olgan. Uning koinotga nisbatan geotsentrik qarashlari o‘rta asr kishilarining geografiya to‘g‘risidagi tasavvurlariga (XV asr oxirlariga qadar) juda katta ta’sir ko‘rsatgan.

VI asrning ikkinchi yarmida va VII asrda Vizantiyaning kri-zisga uchrashi. Yustinianning podsholik qilishi sirtdan Karaganda gullab-yashnayotgandek ko‘rinsa ham, xalq ommasi uchun juda og‘ir bo‘ldi. Juda ko‘p marta ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olon-lari, ayniqsa 532 yilgi qo‘zg‘olon buning yorqin dalilidir. Keksa Imperator (84 yoshida) o‘lganda, uning vorisi, YUstin II juda og‘ir ahvolda qoldi. Yustin podsholigining so‘nggi yilla-rida soliqlar yanada ko‘proq oshib ketganligiga qaramay, dav-lat xazinasi bo‘m-bo‘sh edi. Og‘ir soliqlardan xonavayron bo‘lgan aholining joylarda soliq to‘lashdan bosh tortish hollari tez-tez yuz berib turadigan bo‘ldi.

VI- asrning birinchi yarmi bilan VII asrning birinchi yarmi o‘rtasida Vizantiyaning ijtimoiy tuzumidagi ziddiyat ayniqsa avj olgan edi. Bu vaqtda Vizantiyadagi quldorlik tuzumi-ning emirylayotganligi ochiq ko‘rinib turgan edi, qishloq xo‘-jalygida, hunarmandchilikda qo‘l mex.natini erkin mehnat tobora siqib chiqarayotgan edi. Shunday bo‘lsa ham qulchilik tamoman tugatilmagan edi. YAngi, ancha progressiv bo‘lgan feodal munosabatlar nisbatan sekinlik bilan tarkib topib kela-yotgap edi va buning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi to‘xtalib qolmoqda edi. Bupi, masalan, Bolqon yarim orolida va Kichik Osiyo viloyatlarida bir vaqtlar juda ssrhosil bo‘lgan Yerlarning ancha ko‘p qismi endilikda bo‘m-bo‘sh, qsm$jirab yotganligidan ko‘rish mumkin.

Shaxar kambag‘allari, qullar, kolonlar va jamoachi-dehqon-larinng har turli xalq harakatlari Yustinian Imperatorligi-shshg cyiirni yillarida tez-tez ko‘tarilib, VI asr oxirlari va VII asrning birinchi yarmida bu harakat yanada kuchayib ketdi. Mpsr mi Surnyada har turli Yereslar (monofizitlar[1], nestorian-lar va xokazolar) bayrog‘i ostida separatistik harakatlar yuz berdi, buidap maqsad — bu viloyatlarni Konstantinopoldan ajratnsh edi. Imperiyaning tashqi ahvoli yanada og‘ir edi. Imperiyaga har tarafdan ko‘pdan-ko‘p dushmanlar xavf solmoqda edi. Yustinian -o‘lgandan keyin tez orada Vizantiya qo‘l ostidagi Yerlar keskin suratda kamayib ketdi. 568 yilda langobardlar Italiyaning shi-moliy qismini va o‘rta qismining bir bo‘lagini bosib oldi. Oradan kup vaqt o‘tmasdan, VI asrning 80- yillari boshida Ispaniyadagi Yerlar ham qo‘ldan ketdi. Bolqon yarim oroliga VI asrning ikkinchi yarmida va VII asrning boshlarida slavyanlar bir necha marta juda ko‘plab[g] kirib, Peloponnesgacha borib etdi. Dunayda Imperator qo‘shinlari avarlardan zarba edi. Yeronliklar VII asrning boshlaridan to o‘rtasigacha Sharqiy viloyatlarni birin-ketin bosib olib, ba’zan Konstantinopolning o‘ziga ham xavf soldi.

Yustinian sulolasimi 602 yilda saroy to‘ntarishi natijasida taxtdan tushdi. Bu sulolasining oxirgi vakili Imperator Mavrikiy Shu saroy o‘zgarishi vaqtida besh o‘g‘li bilan birlikda o‘ldirildi. Imperiya Imperator Irakliy vaqtida (610—641) bir qadar mustahkamlanib olgandek bo‘ldi. Irakliy Yeronliklarga zarba berib, ulardan Suriya, Falastin va Misrni qaytarib oldi. Biroq oradan ko‘p vaqt o‘tmay, VII asrning 30- yillarida — 40- yillarning boshlarida Vizantiya bu muhim viloyatlarni ikkinchi marta bu safar abadiyga qo‘ldan berib qo‘ydi, ularni arablar bosib oldi.

Irakliyning vorislari davrida Vizantiya teretoriyasi yana ham qisqarib ketdi. Arablar bosib olgan butun Shimoliy Afrika ham uzil-kesil qo‘ldan ketdi. Bolqon yarim orolida 679 yilda slavyanlarning kuchli Bolgariya davlati vujudga kel-di. Dolmatsiyani va yarim orolning Shimoli-garbidagi Illiriya-ni turli slavyan qabilalar — serb va xorvatlar bosib oldi. Imperiyaning o‘zida VIII asrning boshlarida Yustinian zamoni-dagi teretoriyaning ko‘p deganda uchdan bir qismi qoddi. «Tiklangan» buyuk Rim imperiyasidan Bolqon yarim orolining janubiy qismi, janubiy Italiyaning bir qismi, Qrimning ja-nubiy qirg‘og‘i, Kichik Osiyo va Arxipelag orollari qoldi, xolos.

VII asrdagi alg‘ov-dalg‘ov vaqtida Vizantiya-o‘zgarishlarni boshidan kechirdi, bu o‘zgarishlarda uning sotsial va siyosiy ji-hatdan yanada rivojlanishining elementlari bor edi. Dast-avval, imperiya endi ilgarigidek grek-rim imperiyasi bo‘lmas-dan, asosan bir jinsli grek imperiyasi bo‘ldi. Faqat grek tili rasmiy davlat tili bo‘lib qoldi. Imperiyaning asosiy diqqa-ti bu vaqtda butunlay Bolqon yarim oroli bilan Kichik Osiyoga qaratildi. Aleksandriya va Antioxiya qo‘ldan ketgandan keyin Konstantinopolning iqtisodiy va siyosiy e’tibori oshdi. Shu bilan birga imperiya teretoriyasiga varvarlarning, birinchi navbatda, slavyanlarning ko‘plab ko‘chib kelib o‘rna Shuvi Vizantiya imperiyasidagi sotsial tuzumning demokratla Shuviga yordam berdi, quldorlik munosabatlarining yo‘qolib borish protsessi-ni tezlashtirdi.

«Dehqonchilik qonuni». Vizantiyadagi kelgindi slavyan deh-qon aholining ahvoli «Dehqonchilik qonuni»da juda yaxshi ta’-riflangan; bu manba VIII asrga oiddir,< lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlar ham aks etgan. Ushbu manbaga qarab fikr yuritilganda, bu dehqonlar erkin aholi bo‘lib, ularning o‘z ekinzorlari, tokzorlari va bog‘lari bo‘lgan. Dehqonlarning xo‘-jaligida dehqonchilikning o‘zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o‘ynagan. Har bir "dehqonning Yer uchastkasi ekinzor, tokzor yoki bog‘dan iborat bo‘lib, uning o‘z xususiy mulki hisob-langan, lekin unda jamoa Yer egaligining alomatlari ochiq ko‘-rinib turar edi. Uchastka «ulush», «qur’a» deb atalgan. Bu nar-sa Yerlarning taqsimlanganligidan dalolat beradi. Qonunda, dastlabki taqsim noto‘g‘ri qilingan bo‘lsa, Yerni qayta taqsim-lash ham nazarda tutilgan. «Dehqonchilik qonuni»da dalalar-dan ekin yig‘ishtirib olingandan keyin Yerlarning hammasi ochiq o‘tloqqa aylantirilib, unda butun qishloq chorvasining boqili-shi ham pisanda qilingan. Egasi tashlab ketgan taqdirda Yer ja-moaga topshirilishi kerak edi. Qishloqning asosiy aholisi, ya’ni qo‘shnichilik jamo'sining to‘la huquqli a’zosi bo‘lgan deh-qonlardan tashqari, «Dehqonchilik qonuni»da yana kambag‘al dehqonlar to‘g‘risida ham gapiriladi, bu kambag‘al dehqonlar qisman katta Yer egalaridan, qisman esa jamoachi dehqonlarning o‘zidan Yer uchastkalarini hosilning yarmisini berish shar-ti bilan (teng shYerikka) ijaraga olardilar. Dehqonlarning ya^a bir kategoriyasi tilga olinadi, bular katta Yer egalariga maxsus ushr (mortita) to‘lar edilar. Aftidan, bular ham ija-rachi-dehqonlar bo‘lganlar-u, lekin ularning ahvoli Yerni teng shYerikka olgan dehqonlar ahvolidan yaxshiroq bo‘lgan. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, ularning ham bir vaqtlar o‘z Yer-lari bo‘lgan, biroq keyinchalik yirik Yer egalariga qaram bo‘lib qolganlar. [1]Nihoyat, «Dehqopchilik qonuni»da aytilishicha, Yer egalarining Yerlarida ishlash uchun yollangan batraklar, qishloq xo‘jalik ishchilari (mistotlar) guruhi bo‘lgan.

Shunday qilib, «Dehqonchilik qonuni» jamoaning tabaqa-larga ajrala boshlaganligidan, jamoa a’zolarining o‘z yoni-dagi katta dunyoviy Yer egalari yoki cherkov-monastir Yer egalariga qaram bo‘la boshlaganligidan ham dalolat beradi.

Slavyanlar imperiyani xuddi muhtoj narsasiga — juda ko‘p erkin dehqonlarga ega qildilar. Vizantiyada tushkunlikka yuz tutgan va umri tugab qolgan quldorlik tuzumi o‘rniga, bu erkin dehqonlar zaminida yangi feodal munosabatlar rivojlana olar edi.

Slavyanlarning o‘rta asr Vizantiyasi tarixidagi asosiy roli ana Shundan iborat. Son jihatidan ko‘paygan, iqtisodiy ji-hatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya deh-qonlari VIII—IX asrlarda ishlab chiqarish kuchlarini muvaf-faqiyatli rivojlantirdi, mamlakatni g‘alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to‘la ta’minlab turdi. Shu bilan bir vaqtda hukumat dehqon-lardan muntazam ravishda Yer solig‘i olib turar edi. Bu narsa davlat moliyasini ancha tartibga soldi. Nihoyat, dehqonlar Vizantiya barpo etilayotgan yangi qo‘shin uchun manba bo‘lib xizmat qildi, imperiya ulardan uning eng xavfli dushmani bo‘lgan Arab xalifaligiga qarshi kurashda foydalandi.

**Isavrlar sulolasisining idora qilishi.**

VIII asrning bosh-larida ham Vizantiyaning xalqaro ahvoli boyagidek judl og‘ir edi. Arablar Kichik Osiega bostirib kirdilar. Ular Kipr va Rodos orollarini bosib oldilar. Arab qo‘shinlari Konstantinopol yaqiniga kelib uni deyarli butun bir yilgacha (717—718) qamal ;qilib turdilar. Lekin arablar Konstantinopolni olol-madilar. Konstantinopolning qulay strategi k mavqei, vizan-tiyaliklarning «greklar o‘ti»[1], deb atalgan o‘tnn ishlatishi, Imperatorga ittifoqchilari bolgarlarning yordam berishi nati-jasida, arablar katta talafot ko‘rib, chekinishga majbur bo‘ldi-lar. YAngi saylangan Imperator Lev III Isavr iste’dodli tash-kilotchi va qobiliyatli oliy qo‘mondon bo‘lib chiqdi. U, Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo‘lib, yangi Isavrlar sulolasisiga asos solgandir. Isavrlar sulolasisi Vizantiyani butun bir yuz yil davomida (717—802) idora qil-di. Lev III (717—740) va unga yordamchi bo‘lib, keyin uning o‘rni-ga Imperator bo‘lgan Konstantin V (740—775) arablarga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan harbiylar edi. Lev III Imperator bo‘lgandan keyin harbiy ishga katta e’tibor berdi. VII asrda, Irakliy va uning vorislari davridayoq Vizantiya huku-mati yollanma qo‘shinlarga qo‘shimcha ravishda mahallip lashkar-lar to‘plashni qisman amalga oshirgap, bu mahallip lashkarlar mahalliy mablag‘lar hisobidan ta’minlanardi. Lev III zamo-

nida bu harbiy reforma yanada rivoj topdi. Vizantiya qo‘shini ma’lum chegarani qo‘riqlab turgan mahalliy lashkarlardan tu-zilib, butunlay teretorial xarakterga ega bo‘lib qoldi. Endi butun imperiya femlarga — harbiy okruglarga bo‘lib yuborildi. Bularga stratiglar — voevodalar boshliq qilib tayinlangan, harbiy hokimiyatgina emas, balki grajdan hokimiyati xam o‘sha voevodalar qo‘lida bo‘lgan. Ularning yordamchilari ofitsYerlar — turmarxlar bo‘ldi. Oddiy soldatlar — stratiotlar — ham dehqop va ham umr bo‘yi xizmat qiladigan askar edi. Ularning Yer uchastkasi bo‘lib bu uchastkadan ular o‘z oilalarining kuchi bilan foydalanardilar, qisman boshqa dehqonlarga ijaraga berardilar. Ular Shu Yer orqasidan kun kechirardilar. Harbiy xizmat o‘taganlari uchun stratiotlar odatdagi soliqlarning bir qismidap ozod qilindi. Dehqon lashkarlardan iborat bu yangi qo‘щinni isavriyali Imperatorlar faqat imperiyaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan «varvarla Shuvi» tufayli, hammadan burun slavyanlar orqali «varvarla Shuvi» tufayligina vujudga kel-tira oldi.

Lekin yangi tipdagi qo‘shin vujudga keltirilishi muHim so-sial oqibatlarga olib keldi. Pullik maosh olish bilan bir qatorda yana Yer ham olgan stratig va turmarxlar haqiqatda tashkil topayotgan harbiy-feodal tabaqaning vakillari edi. Stratiotlarning sotsial qiyofasi ham juda xilma-xil edi. Ularning bir qismi (piyoda askarlar) dehqonlardan iborat bo‘lsa, ikkinchi qismi (otliq askarlar) esa mayda pomesteli ritsar tipidagi askarlardan iborat edi. Shunday qilib, VIII asrda Vizantiyada ham yirik vaham mayda feodallar soni tez ko‘payib bordi. YAngi feodallar qullarni Yerga birkitib qo‘yib, ularni krepostnoy dehqonlarga aylantirardilar, Shu bilan bir vaqtda jamoachi-dehqonlarning bir qismi, ayniqsa, chek Yeri kamligidan harbiy xizmatni o‘tay olmaydigan qismi krepost-noylarga aylana bordi. Yersiz dehqonlar yangi harbiy Yer egala-ri Yerlariga ko‘chib kelib, ularga qaram bo‘lib qolardilar. Harbiy xizmat o‘tovchi kishilar pomestelarning bir qismini eski senator zodagonlarning yangidai musodara hilingan Yerlaridan oldi; ko‘p Yer harbiylarga Vizantiya pravoslav cherkovidan o‘tdi.

**Butga qarshi kurash va uning sotsial mohiyati.**

Cherkov Yerlarining keng ko‘lamda sekulyarizatsiya qilishi (davlat mulkiga aylantirilishi) Isavr Imperatorlarining nomi bilan bog‘lan gapdir. Isavriyalik Imperatorlar o‘z zamondoshlaridan «butga qarshi kura Shuvchilar» degan laqab oldi. Ular butga sig‘inishga qarshi farmonlar chiqardilar, ularning buyrug‘i bilan ikona-lar ibodatxoPalardan olib chiqildi va ularning bir qismi yo‘q qilib tashlandi. Cherkov buni asos qilib Imperatorni butga qarshi bida.atda aybladi. Lekin isavriyalik Imperatorlarning siyosati ular taxtga chiqmasdap ilgari Vizantiyada boshlangan girt dipiy janjallar doirasidan xiyla chetga chiqib ketdi. Impsrato.rlardan Lev III, Konstantin V va ularning vorislari pypn katta cherkov-monastir Yer egaligiga qarshi kurash qizib ketgan bir paytda butga cho‘qinishga qarshi chiqdilar. Butga qarshi kurash o‘ziga xos bir bahona bo‘lib, Shu bahona bilan hukumat eng yirik monastirlarni yopib qo‘ydi va cherkov-monastir mulklarini musodara qildi. Monastirlarning g‘azna ixtiyoriga olipgan Yerlari Vizantiyaning tashkil topayotgan ritsarlariga benefitsiy qilib taqsimlab berildi. Monastirlarning Yerlaridan harbiy xizmat uchun beriladigan bunday uchastkalar Vizantiyada alohida bir tYermin bilan xaristikiy («ehson», «xayr-saxovat») deb atalgan, bu esa ma’no jihatidan latincha — «benefitsiy» so‘ziga to‘g‘ri keladi.

**Foma Slavyan qo‘zg‘oloni.**

Isavriyalik Imperatorlarning harbiy reformasi yaxshi natija berdi. Imperatorlar katta mablag‘ sarflamasdan (Suriya va Misr qo‘ldan ketishi orqasida imperiya birmuncha vaqtgacha moliyaviy qiyinchiliklarga uchraTan) katta harbiy kuchga ega bo‘la oldi. Fem qo‘shinlari o‘z okrugla-rini arablardan juda yaxshi himoya qildi. Vizantiya hukumati sal-pal kattaroq ko‘lamda hujum opYeratsiyasi olib borishga hali jur’at etolmadi. Lekin hukumatning siyosati cherkov guruhi o‘rtasida katta norozilik tug‘dirdi. Yangi sulolasi obro‘sining kuchayishidan norozi bo‘lgan dunyoviy zodagonlarning bir qismi ham cherkov guruhiga qo‘shildi. Butga qarshi kurash tarafdorla-oi bilan butga cho‘qinish ta„rafdorlari o‘rtasidagi kurash bir necha o‘n yilga cho‘zildi va ba’zan bu kurash juda keskin tue oldi. Lekin xalq ommasi o‘rtasida ham norozilik kuchayib bormoqda edi. Feodalizmning taraqqiy eti b borishi ekspluatatsiyaning yangi formalarini vujudga keltira boshladi. Feodal Yer egasi-ning qo‘shniligi erkin dehqon jamoalarini krepostnoylashti-

rish xavfi ostida qoldirgan edi. IX asrning boshlarida arab-lar xavfi kamaygandan keyin, stratiot—dehqonlarning ahvo-li juda ham yomonlasha boshladi. Yangi «qudratli odamlar» — dinatlar yoki (slavyanlar ataganidek) «vlastellar» — jamoaga qarashli ekin ekiladigan Yerlarni va yaylovlarni tai tortmay hayosizlarcha bosib olib, stratiotlarni esa o‘z krepostnoilarigz aylantira boshladilar.

Xalq noroziligining kuchayishi zaminida 821 yilda (Isavrlar sulolasisidan keyin) Kichik Osiyoda yapa katta qo‘zg‘olon ko‘tarilgan, bu qo‘zg‘olon Foma Slavyan qo‘zg‘oloni deb nom oldi. 821 yil qo‘zg‘oloni qatnashchilarining sostavi juda xilma-xil-dir. Unda erkin jamoachi-dehqoplar, krepostnoylarga aylanti-rilayotgan stratiotlar, haqiqatda krepostnoyga aylantirilgan mayda qaram ijarachilar — pariklar qatiashdi. Bu harakatga Kichik Osiyoda juda ko‘p bo‘lgan pavlikiaplar, imperiyaning Sharqiy oblastlarida avj olib kelayotgan va o‘z ta’limidash ba’zi xislatlarni qo‘shni Yeron sektasidan olib o‘zlashtirgan bir demokratik diniy sekta ham qo‘shildi. Qo‘zg‘olonga boshchi-lik qilgan Foma Slavyan[2] o‘zini Imperator deb e’lon qildi. Arablarning yord'ami bilan Foma Antioxiyada Imperatorlik tojini kiyib, keyin tarafdorlari bilan birgalikda Konstan-tinopolga qarab yo‘l oldi. U, Vizantiya flotining rahbarlarini o‘z tomoniga og‘dirib olishga muvaffaq bo‘lib, poytaxtni qamal qilishga ham kirishgan edi. Lekin Fomaning siyosati etarli darajada izchil siyosat emas edi. U hech qanday sotsial reforma-lar o‘tkazmadi, hatto xalq bo‘ynidagi og‘ir soliqlarni ham en-gillashtirmadi. Haqiqatda u xalq harakatidan foydalanib, o‘zining eng yaqin tarafdorlari bilan birlikda hokimiyatni o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘lgan edi, xolos. Uning Vizantiya dushmani arablar bilan bo‘lgan do‘stona aloqalari ham Shubha tug‘dirar-di. Nihoyat, 823 yilda Foma Konstantinopol bo‘sag‘asida mag‘lu-biyatga uchragan va asir tushib, qatl qilindi.

Muvaffaqiyatsizlikka uchraganligiga va sulolasi kurashiga aylanib ketganligiga qaramay, Foma Slavyan qo‘zg‘olonining Shu tomoni muhimdirki, unda feodal ekspluatatsiyasining yangi for-malariga qarshi kurashgan keng xalq ommasi qatnashdi. Shuni-si xarakterliki, Foma halok bo‘lgandan keyin ham, umumiy rahbarlikdan mahrum bo‘lgan dehqonlardan va sh^ahar kambag‘al-laridan iborat ayrim otryadlar uzoq vaqtgacha/hatto 825 yil-gacha qarshilik ko‘rsatishni davOm ettiravYergandilar. IX asrning 20- yillaridagi harakatning siyosiy oqibatlari ham diq-qatga sazovordir. Butga qarshi kura Shuvchi guruh bilan butga sig‘inuvchi guruh xalq harakatining kuchayishidan, xo‘susan pav-likianlar harakatidan qo‘rquvga tushib, bu qo‘zg‘olondan keyin tez vaqt ichida bir-biri bilan yarashib ketdi. 843 yilda butga sig‘inish rasmiy suratda tiklandi. Cherkov sekulyarizatsiya qi-lingan monastir Yerlaripi qaytarib ololmagan bo‘lsada, u bilan davlat o‘rtasidagi munosabat yana do‘stona munosabatga aylanib ketdi. Cherkov-monastir Yer egaligi asta-sekin yana o‘sa boshladi, lekin bu o‘sish butga qarshi kurashdan oldingi davrdagiday keng ko‘lam ololmadi.

**Makedoniyaliklar sulolasisi vaqtida Vizantiya.**

IX asrning yarmidan to XI asrning yarmigacha Vizantiyani Makedoniyaliklar sulolasisi idora qildi. Vasiliy I Makedonlik bu sulolasi-ning birinchi namoyandasidir (867—886). X asrda bu sulolasidan bir necha mashhur Imperator chiqdi, o‘z zamonining atoqli olimi va yozuvchisi Konstantin VII Bagryanorodniy (912—959), mashhur harbiy sarkardalar — Nikifor Foka (963—969), Ioann Simisxiy (969—976) va Vasiliy II Bolgaroboysa (976— **1025)** ana Shular jumlasidandir.

Makedoniyaliklar sulolasisi idora qilgan vaqtga kelib Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi savdoda asosiy vositachilik roli-ni o‘ynadi. Arab, rus-slavyan, italyanlarning savdo-sotiqlari Konstantinopolga kelib to‘planib, uning juda katta Shuhrat qozonishiga va jonlanishiga sabab bo‘ldi. Vizantiya impYerato-ri tashqi savdodan Shunday katta daromad oldiki, IX va X asr-larda G‘arbiy Yevropadagi korol va Imperatorlardan birorta-si ham bunday daromad olmas edi. Shu bilan birga IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar xavfi Vizantiya uchun qo‘r-qinchli bo‘lmay qoldi. Arab xalifaligi bu vaqtda ayrim-ay-rim mustaqil davlatlarga bo‘linib ketgan edi. Vizantiyaning o‘zi endi arablar Sharqiga qarshi hujumga o‘tishga molik bo‘lib qolgan edi.

Makedoniyaliklar sulolasisi vaqtida imperiyaning hududi yana kengaydi. Sharqda arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta bir qismi tor: tib olindi; g'arbda, ya'ni Italiyada imperiya Apuliya bilan Si-siliyani birmuncha vaqtga qaytarib oldi. Shu bilan bir vaqt-da Vizantiya slavyan davlatlariga qarshi qattiq kurash olib bordi. X—XI asrlarda Vizantiya bilan Bolgariya o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari juda ham keskinlashib ketdi. XI asrning boshlarida Vizantiya Bolgariya podsholigini butuplay booib oldi. Imperiyaning Bolqon yarim orolidagi chegaralari yana Shimolda Dunaygacha," Shimoli-g'arbda Adriatika dengizi qirg'og'igacha etgan. Serb qabilalari ham bir oz vaqtgacha Vi-zantiyaga tobe bo'lib qoldi.

**Vizantiya va Kiev Rusi.** Makedoniyaliklar sulolasisi vaqti-da Vizantiya bilan Rus o'rtasidagi munosabatlar totuvlashdi. Qizg'in savdo munosabatlari («varyaglardan greklarga boradi-gan buyuk suv yo'li»), mustahkamlapgan madapiy aloqa (ruslarning 988 yil atrofida greklardap xristianlikni qabul qi-lishi, Shu munoeabat bilan Vizantiya ilm-ma'rifatining Rusga kirib kelishi), umumii dushmanlarga — pecheneglar, xazarlar va polovetslarga qarshi birgalikda kurash bdib borilishi natija-sida Vizantiya bilan Rus o'rtasida X asrning ikkinchi yarmida do'stona munosabatlar o'rnatildi. Bu do'stlik munosabatlari kamdan-kam hollardagina (masalan, 1043 yilda) dushmanlik harakatlari tufayli uzilib gurdi. Konstantinopol patriarxi Rus cherkovi boshlig'ini Kiev ;metropolitini tayinlash huquqi-ni da'vo qildi. Biroq Rusning chYerko,v yo'li bilan Vizantiyaga bo'lgan qaramligini YAroslav I rus popi Illarionni 1051 yilda Kiev metropoliti qilib tayinlash bilan ancha bo'shashtirdi.

Rus cherkovi Konstantinopol cherkovining hukmronligidan 1448 yilda uzil-kesil qutulib oldi. Rus metropolitlari, hat-to greklardan bo'lganida ham rus cherkovini mustaqil idora qilar va odatda olisdagi Konstantinopol patriarxidan ko'ra Rusning buyuk knyazi irodasi bilan ko'proq hisoblashardi.

**Cherkovlarning ajralib ketishi.** XI asr o'rtalarida Vizantiya cherkovining hayotida ikkinchi bir muhim voqea — Rim papa-si bilan ajralish yuz berdi. Bir tomondan, Konstantinopolning Italiya bilan aloqasi susayib ketishi, ikkinchi tomondan, G'arbda Rim papalari eiyosiy qudratining kuchayishi Shunday oqibatlarga olib keldiki, o'sha vaqtgacha yagona bo'lib kelgan xristian cherkovi g'arbiy-katolik va Sharqiy-provaslavga ajralib ketdi. Bu vaqtga kelib ularning diniy marosimlari, toat-ibodat tili na boshqarish sistemasining o'zi ham (g'arbda — papa va kardipallar, Sharqda — poytaxt Shaxar Konstantinopolning patriarxi boshchiligidagi patriarxlar) ancha o'zgarib ketdi. Cherkovlardagi ajralish 1054 yilda, Rim papasining legat-lari, ya'ni elchilari grek cherkovini rim cherkovi bilan aloqa qilishini rad etib, Konstantinopolni tashlab chiqib ketgan paytdan boshlandi. Bupga javoban Konstantinopol patriarxi Rim cherkovi bilan ushshg boshlig'i papaga la'nat o'qidi.

**IX—XI asrlarda Vizantiya feodalizmi.**

Makedoniyaliklar sulolasisi vaqtida Vizantiyaning feodalla Shuv protsessi tez avj olib bordi. erkin dehqonlarning soni Shu qadar tez kama-yib bordiki, mamlakat mudofaa qobiliyatining pasayishidan, Shuningdek, aholidan tushadigan soliq mablag'larining kamayi-shidan qo'rqib, Imperatorlarning o'zlari ham tashvishga tusha boshladilar. Dinatlar tomonidan dehqon Yerlarining bosib olinishiga qarshi X asrning birinchi yarmida Imperatorlar bir necha marta farmonlar — novellalar (922, 934 va 947 yillardagi novellalar) chiqardi. Imperator Vasiliy II bir nechta yangi farmon chiqardi. Uning novellalaridan birida (996) katta Yer egalaridan jamoachi-startiotlardan ilgari tortib olingan hamma Yerlarni dehqonlarga qaytarib berish talab qilindi[1]. Biroq, bu farmon hamda Shu kabi boshqa farmonlar yaxshi ba-jarilmadi. Feodal zodagonlar Shu qadar kuchayib ketgan ediki, 1057 yilda makedoniyaliklar sulolasisinipg o'rnini olgan va Kichik Osiyodagi zodagon yirik Yer egalaridan chiqqan Kom-niilar sulolasisi erkin dehqonlarpipg qolgap-qutganlarini ham feodallarga em qilib berishga har tomonlama ko'maklash-di. Komninlar ayrim-ayrim qishloqlarnigina emas, balki bu-tun-butun okruglarni katta Yer egalarining proniyasiga (aypan tarjima qilganda: g'amxo'rligiga, vasiyligiga) berdi. Bu esa o'zlariga tobe aholini bevosita krepostnoyga aylantirish yo'lidagi tadbir edi. ProniariMunist davlat soliqlari-ning bir qismini o'z foydasiga yig'ib olish huquqiga ega bo'l-di. Qo'l ostidagi

aholini uning o‘zi sud qilar edi. Bu Yerlar asta-sekin feodalning nasldan naslga o‘tadigan xususiy mulki bo‘lib qoldi.

Komninlar vaqtida katta cherkov Yer egaligi makedoniyaliklar sulolasisi vaqtidagiga qaraganda kengroq ko‘lamda qayta vujudga kela boshladi. XI—XII asrlarda vizantiyalik erkin dehqoplarpipg, jamoachi-komiturlarning soni juda ham ozayib ketdi. Feodalning Yerida dehqonchilik qilib, unga obrok — feodal rentasi to‘lovchi krepostnoy dehqonlar pariklar Vizantiya qishloqlarida ko‘pchilikni tashkil etadigan bo‘lib qoldi.

Shu bilan birga Vizantiya pomestelarida hali birmuncha qullar (dullar) ham bor edi. Ular asosan hovli ichidagi har xil ishlarni qilish bilan birga, ulardan qishloq xo‘jalik ish-larida, ayniqsa sug‘orish, yo‘l qurilishi ishlarida, tosh konla-rida va Shu kabilarda ham foydalanardilar.

**IX—XI asrlarda Vizantiya madaniyati.**

Vizantiya o‘zining ko‘p asrli hayoti davrida' boy va rang-barang madaniyat yaratdi, bu madaniyat janubiy slavyanlarga va Rusga katta ta’sir ko‘rsata- di. Hali VI asrlardayoq o‘zining ilk namunalariniberganVizantiya arxitekturasi (Yustinian imoratlari) keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etib, pishiq monumental Vizantiya ibodatxonalari tipini buned qildiki, bu tipdagi ibodatxona namunalari XI asrdagi qadimi# rus yodgorliklari uchun eng yaxshi namuna bo‘lib xizmat qilgandir (bular ichyda eng yaxshi-si — Kievdagi ayo Sofiya ibodatxonasi bilan Novgoroddagi ayo Sofiya ibodatxonasidir). Zotan, Shuni nazarda tutish kerakki, ruslardagi «Vizantiya» uslubi o‘zi namuna olgan grek uslubidan ko‘p jihatdan farq qilardi. Qadimgi slavyan motivlarini ham o‘z ichiga olgani holda bundan keyingi rivojlanishi protsessida o‘zining original formalarini yaratgan o‘sha uslub umuman ol-ganda ro‘slarning o‘ziga xos rus ijodi edi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, Vizantiyada qurilish texnikasi: g‘isht qilish, juda ajoyib ohak qorishmasi taYorlash, g‘isht tYerish san’ati, monumental qubbalar, ulugvor gumbazlar va Shu kabilar yaratish texnikasi o‘z zamonasi uchun juda yuksak darajada edi.

Vizantiyada IX—XI asrlarda rassomlik — devorga raem so-lish ham, koshinkorlik tasvirlari ham zo‘r berib rivojlana bordi; rassomlikning bu shakllari Vizantiyada tobora qat’iy tue olib va uslublashib bordi.Vizantiyada badiiy hunarmandchilik ham yuksak darajada rivoj topdi. Qimmatbaho ipak gazlama, kimxob, gilam to‘qish keng tarqalgan; zargarlik, badiiy kulolchilik, shisha buyumlar yasash, sir (emal) taYorlash ayniqsa taraqqiy etgan edi. Vizantiya har xil qurol-yarog‘ ishlash, kemasozlik, konchilik (ruda, marmar qazib chiqarish) va hokazolar bilan dong chiqargandi.Fan sohasida IX—XI asrlardagi Vizantiya olimlariga Shu narsa xoski, ular qadimgi dunyo klassik avtorlarining asarla-rini muttasil o‘rgandilar, ularni to‘playdilar, ulardan konspekt oldilar, bu matYeriallardan har xil temalarda to‘plamlar tuzdilar.

Klassik avtorlarning asarlarini to‘plagan va ular asosi-da kompilyativ asarlar yozgan olimlardan biri yuqorida aytib o‘tilgan Imperator Konstantin VII Bagryanorodniy bo‘lib, uning bir nechta asari — «Imperiyani idora qilish to‘g‘risida», «Ma-rosimlar to‘g‘risida» va «Femlar to‘g‘risida» degan asarlari hozirgacha saqlanib kelmoqda. Konstantin VII asarlarining qiymatn Shundan iboratki, ular Vizantiya bilan qo‘shni bo‘lgan mamlakatlar.va xalqlar to‘g‘risida, Shu jumladan, slavyanlar va xususan ruslar to‘g‘risida ko‘p matYerial beradi.

Konstantin VII dan ilgari esa o‘z zamonasining eng atoqli to‘plovchisi, bibliofili va ensiklopedist patriarx Fotiy bo‘lib (820—891), u o‘zidan keyin «Miriobiblion» deb ataladi-gan to‘plam qoldirgan, bu to‘plamga 300 ga yaqin ochYerk kirgan, bular qadimgi grek avtorlarining asarlaridan ko‘chirma bo‘lib, ularning har qaysisiga tegishli sharhlar berilgan.

Vizantiyada yilnoma yozish juda ham rivoj topdi. VI—IX asrlardagi eng atoqli voqeanavislar Ioann Malala, Feofan va Georgiy Amartoldir, ularning asarlari ko‘proq slavyan tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu asarlar Kiev davridagi yilno-machilarga ham ma’lum edi. Vizantiyaning ayrim davrlari tari-xiga oid o‘ziga xos mojtrafiyalar yozgan Vizantiya tarixchilari-dan biri Anna K o m i i i a n i ko‘rsatish mumki'n. U yozgan «Aleksiada»»da o‘zining otasi Aleksey I Komnin podsholik qil-gan davr va'salib yurishlarining boshlanishi ta’riflanadi- Un-dan ancha keyingi salb yurishlarni ta’riflagan yana bir tarixchi Nikita A k o m i n a t d i r. Uning «Romeyalar tarixi» (ya’ni vizantiyaliklar tarixi) 1118 yildan 1206 yilgacha bo‘lgan davr-ni o‘z

ichiga oladi. Vizantiyani fojiali oqibatlarga olib kelgan to‘rtinchi salb yurishini Akominat ayniqsa yorqin ta’riflagan.

Vizantiya adabiy yodgorliklardan juda ko‘p agiografik (diniy) asarlar («avliyoiomalar») qoldirgan; asarlarda o‘rta asr Vizantiyasining turmush-maishatiga oid konkret, yorqin materiallar juda ko‘p.

Vizantiyada dupyoviy adabiyot: qissalar, dostonlar, satirik hajviy) asarlar ham bo‘lgan. «Filokratis» sarlavhali satira (X asrning ikkinchi yarmi) grek-rim shoiri Lukianga (eramizdan avvalgi II asr) taqlid qilib yozilgan. Ma’jusiy bilan xristianin o‘rtasidagi dialog formasida ozilgan bu hajviy asarda pravoslav ruhoniylariga, monaxlarga qarshi juda keskin so‘zlar aytilgan. Mamlakatning siyosiy hayotiga aralashgan-liklari qattiq qoralanadi. XI asrning boshlarida maydonga kelib ayniqsa zo‘r Shuhrat qozongan «Digenis Akrit haqidagi qissa» dostoni butun yaqin Sharqqa keng tarqalgandir, uning tarjimalari qadimgi Rusning yozma yodgorliklari ichida ham ko‘p uchraydi. «Digenis Akrit haqidagi qissa» ba’zi xislatlari bilan G‘arbiy Pnropaning feodal eposlariga («Roland haqida qo‘shiq» va boshqalarga), qisman rus xalq dostonlariga o‘xshab ketadi. Unda Vizantiya xalqining o‘z tashqi dushmanlariga qarshi olib borgan qahramonona kurashi ham she’riy formada tasvir-langan. Aleksandr Makedonskiy— Iskandar Zulqarnaynning Sharqqa, jumladan Hyndistonga qilgan yurishlari to‘g‘risidagi «Aleksandriya» degan hikoyaning har xil variantlari xalq ichida keng tarqalgan edi, ulardagi folklor matYeriallarining manbai qisman Vizantiyadan va qisman Sharqdan olingan edi.

**Asosiy adabiyotlar:**

4. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: Arab xalifaligi. (4 soat)

**Reja:**

**1. Arablar tarixidagi uch davr. Islom dini paydo bo‘lmasdan ilgarigi Arabiston.**
**2. Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari.**
**3. Abbosiylar va Umaviylar xalifaligi iqtisodiy va siyosiy yuksalishi.**
**4. Xalifalikning parchalanib ketishi.**
**5. Arab madaniyati va sana’ti.**

Arablar tarixidagi uch davr. Arablar tarixi odatda uch davrga: 1) Makka-Madyna davriga — Islom dini paydo bo‘lmas-dan ilgarigi Arabiston va islom dinining paydo bo‘lish davriga (VI—VII asrlar); 2) Damashq (Suriya) davriga —Uma-viylar dinastiyasining idora qilish davriga (661—750) va 3) Bag‘dod (Eron — Mesopotamiya) davriga — Abbosyylar dinastiyasining idora qilish davriga (750—1055) bo‘linadi; Abbosyylar dinastiyasining idora qilish davri xalifaliklarning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugadi.

Arab xalifaligining turli siyosiy markazlari bilan 6OR« liq bo‘lgan bu uchta xronologik davriga arab feodalizmining rivojlanishi ham asosan muvofiq keladi. Birinchi davrda arab jamiyatida feodallashuv protsessi endi boshlanayotganligi namoyon bo‘ladi. Ikkinchi va xususan, uchinchi davrda evropa feo-dalizmidan jiddiy farq qiluvchi bir qancha tomonlari bo‘lgan arab feodalizmining xarakterli xususiyatlari tarkib topdi.

**Islom dini paydo bo‘lmasdan ilgarigi Arabiston.**

Territoriya jihatidan Evropaning‘ to‘rtdan bir qismiga teng keladi-gan juda katta yarim orol bo‘lmish Arabiston yarim orolining ko‘p qismi suvsiz cho‘l va sahrolardan iboratdir, ammo dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan eri ozginadir. Shuning uchun Arabiston aholisining ozch-ilik qismigyna o‘troq hayot kechirar va dehqonchilik bilan shug‘ullanar edi. Arablarning ko‘pchiligi esa ko‘chmanchi — badaviylardan iborat bo‘lib, qo‘y, echki va tuya boqar edi. Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay bo‘lgan o‘lk'asi janubi-g‘arbiy oblast—YAman yoki «baxtli Arabiston» bo‘lib, bu erda qadim zamonlardayoq muttasil ravishda biri-nyng o‘rnini ikkinchisi olib kelgan bir necha yirik quldorlik davlati bor edi. Hijozning (yarim orolning Qizil dengiz bo‘y-lab cho‘zilib ketgan kambar qismining) esa faqat ayrim voha-laridagina dehqonchilik qilish mumkin edi. Yarim orolning eng katta qismi —Najd— su'g‘oriladigan erlari juda kam bo‘lgan g‘oyat katta yassi tog‘likdan iborat bir joy bo‘lib, faqat chorva-chilik uchungina yarar edi.

VI—VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida hali urug‘chilik belgilari kuchli edi. Arablar — ko‘chmanchi (badaviy) arablar ham, o‘troq arablar ham—juda ko‘p urug‘ va qabilalar-ga bo‘lingan edi. Xun olish bor edi. Urug‘miig boyroq a’zolari qurbsizroq qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim edi. Har bir qabilaning o‘z diniy marosimi bor edi. Qabila va urug‘larning boshida shayx va saidlar turib, hoki-miyat faqat shularning qo‘lida edi. Biroq urug‘chilik tuzumi-ning emirilish alomatlari ro‘y bera boshlagan edi. Urug‘-qabila zodagonlari eng yaxshi yaylovlarni va dehqonchilik uchun yaroqli uchastkalarni — vohalarni (bunday uchastkalarning o‘zi oz edi) o‘z qo‘liga kirgizib olmoqda edilar. Zodagon oilalari-niig ko‘pdan-ko‘p mollari, shuningdek, qullari bo‘lar edi. SHayx va saidlar shu oilalardan chiqar edi. Urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljalarning eng ko‘p qismi bularga ajratilar edi. Arablarda urug‘-qabila zodagonlaridan tashqari, ya’ni qabila-urug‘ bosh-liqlari va oqsoqollaridan tashqari, yana shaharli savdogar-sudxo‘rlardan iborat boshqa bir yuqori tabaqa ham avj olib bordi, bu tabaqa ham muayyan bir qabila va uruqqa kirgan bo‘lib, odatda badaviy qabilalarning boshliqlari bilan qat-tiq bog‘langan edi. Urta dengizdan Hindistonga boradigan mu-him savdo yo‘li qadimdan Arabistondan o‘tar edi. Hijoz orqa-li shimoldan janubga katta savdo yo‘li o‘tar edi. SHu gsavdo yo‘lida ilk vaqtlardayoq katta-katta savdo punktlari, akka, YAtrib va boshqalar vujudga keldi. Makka shahri ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Arablar o‘rtasida juda dong‘i ketgan ibodatxona bo‘lmish Ka’ba va undagi muqaddas qora tosh (haja-ri asvad) shu Makkada edi. Makkada shu Qa’ba atrofida har yili katta yarmarka bo‘lib turar edi. Makkaning savdogar-sud-xo‘rlardan iborat bo‘lgan yuqori tabaqasi savdodan katta-katta foyda ko‘rar edi. Ular qullarni ekspluatatsiya qilish va qul olib srtish bilan ham shug‘ullanar edilar. SHahardagi mayda hunarmandlar ham shu savdogar-sudxo‘rlardan hamma vaqt qarz-dor bo‘lib, iqtisodiy jihatdan ularga qaram edi.

VI asrning oxiri — VII asrning boshlarida arablar qattiq iqtisodiy va sotsial krizisga uchradi. YArim orolning aholisi ko‘payib,s er etishmay qoldi. Oddiy arablar uchun ham katta madad bo‘lib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchradi. VI asrda eronlar bilan habashlar o‘rtasida bo‘lgan va uzoq-uzoq vaqt davom etgan urushlar natijasida YAman deyarli bu-tunla'y xarob va vayron bo‘ldi. SHimoldan janubga va janub-dan shimolga tovar olib borish juda ham kamayib ketdi.

Zroniylar Hindistonga boradigan va o‘zlari uchun foydali bo‘lgan boshqa bir yo‘lga, ya’ni Tigr (Dajla) va Evfrat (Frot) daryolari bo‘ylab Fors qo‘ltig‘iga boradigan yo‘lga homiyliy qilardilar.

Ana shunday sharoitda arablarda sinflarning tashkil to-pish protsessi tezlashib ketdi. Arab shaharlaridagi aholining quyi tabaqalari o‘z ahvolidan norozi edi, ular sudxo‘r boylar-ga nafratlanib qarar edi, bu norozilikni va nafratlanib qarashni dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq qabilalarda-gi va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘chmanchi qabilalardagi oddiy omma ham quvvatladi, bu qabilalar ham erga muhtoj edi va o‘z urug‘-qabilasidagi feodallasha boshlagan zodagon-lardan jabr-zulm ko‘rmoqda edi.

Arab xalq ommasining ijtimoiy noroziligi ideologiya tar-zida, yangi din — islom dinining vujudga kelishida ifoda-landi.

**Islom dinining paydo bo‘lishi. Muhammad va uning jamoasi.** Muhammad (570—632) quraysh qabilasiga mansub bo‘lgan va kambag‘allashgan xonadondan chiqqan edi, bu qabila Makkada hukmron qabila edi. Muhammad dastlab cho‘pon bo‘lib, keyin badavlat bir xotinga uylanish orqasida savdogar bo‘lib olgan. Lekin uning sudxo‘rlikka ilgaridan yomon ko‘z bilan qarab kelishi uning demokratik elementlar bilan yaqinlashuviga sa-bab bo‘ldi. Muhammad din targ‘ibotchisi («payg‘ambar») sifa-tida **610** yillarda maydonga chiqdi. Sudxo‘rlikni qoralashdan tashqari, u har bir kiщidan kambag‘allarga yordam berishni, o‘z daromadining o‘ndan **bir** qismini kambag‘allarni boqish **uchun** ajratishni talab qildi. SHu bilan birga urug‘lar o‘rtasidagi o‘zaro urush-janjallarni to‘xtatishni ham talab qildi, urug‘larning bir-biridan qasos olishiga, urug‘ va qabilalarning tor qon-qardoshlik doirasida biqinib yotishiga **qarshi chiqdi.**

Arab jamiyatining bundan buyoqdagi rivojlanishiga g‘ov bo‘lib qolgan urug‘chilik tuzumining tor doirasiga qarshi olib boril-gan bu kurash Muhammadning ko‘p xudolikdan qaytib, bitta xudoga — ollohga sig‘inish kerak, degan asosiy diniy talabida ifodalandi (islom dinining «Loiloha illalloh, Muhammadar rasululloh» degan asosiy formulasi — «xudo — bir, Muham-mad — uning payg‘ambari», demakdir). Olloh—quraysh sabila-sidagi bosh xudoning nomi bo‘lib, Muhammad unga butun olam xudosi tusini berdi. Mo‘min musulmonlar «ollohning haqiqiy payg‘ambariga» (Muhammad o‘zini shunday deb e’lon qilgan edi) so‘zsiz itoat qilishlari kerak edi. YAhudiy va xristian dini (bu dindagilar o‘щa vaqtda Makkaning o‘zida ham ko‘p edi) yangi dinga ta’sir etgan bo‘lib, bu ta’sir Muhammadning ta’limoti-da juda ravshan aks etdi. Islom dini Muso bilan Isoni Mu-hammaddan oldingi payg‘ambarlar deb tanidi. YAhudiylar va xristianlar singari musulmonlar ham Quddusni muqaddas sha-har deb hisoblar edilar. Doimo juma kunlari bayram qili-nishi yahudiylar va xristianlardagi shanba va yakshanba kun-lariga muvofiq kelar edi. '

Muhammad vujudga keltirgan yangi dinning beshta asosiy qoidasida, ya’ni: 1) bitta xudoga — ollohga ishonish, 2) har kuni albatta besh vaqt namozni tark qilmaslik, 3) yilda bir marta ramazon oyida ro‘za tutish, 4) zakot (kambag‘allarga ushur) berish va 5) haj qilishdan iborat besh farzida hech qan-day sotsial reforma yo‘h edi. Muhammad qullikni qonuniy deb hisobladi, ko‘p xotin olishga fatvo berdi, savdoga va xususiy mulkchilikka homiylik qildi. SHu bilan birga yangi din dast-labki vaqtlarda xalq ommasining kayfiyati bilan hisobla-shishga har holda majbur bo‘ldi. Zakotning farz qilib qo‘yili-shi va sudxo‘rlikning birmuncha cheklanishi buning yorqin dali-lidir.

Dastlabki vatstlarda Makkadagi quraysh aristokratiyasi Muhammadga juda ham dushmanlik ko‘zi bilan qaradi. Muhammad Makkaning azaldan beri davom etib kelayotgan urf-odat-larining ildiziga bolta urayotgandek, Ka’baning ahamiyatini gumon ostida .holdirayotgandek tuyulgan edi. Qurayshlar «pay-g‘ambarning» o‘zini va uning barcha muridlarini o‘ldirmoqchi bo‘lyshdi. Muhammad Makkadan qo‘shni YAtrib shahriga qochib ketishga majbur bo‘ldi; YAtrib o‘sha vaqtda Makka bilan raqo-bat qilar edi. Bu voqea eramizning 622 yilida yuz berdi.

Muhammadning YAtribga qochyshi (arabchasiga «hijrat») islom tarixida bir era bo‘lib, musulmonlar o‘z yil hisobini mana shu eradan boshladi. SHundan keyin YAtrib shahri Madinat-un-Nabi, ya’ni «payg‘ambar shahri» deb atala boshladi. Madinada Muhammad mo‘minlar — «Olloh bandalari»ning katta jamoasi-ni tuzdi («islom» degan so‘z «banda» demakdir). Madinadalik davrida ham Muhammad bilan Makka o‘rtasida iihoyatda dushmanlik munosabati davom etdi. Madinaga hamda ittifoqchi badaviy qabilalarga suyanib turib, payg‘ambar Muhammad qurol kuchi bilan makkaliklarni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirdi. Makka aristokratiyasi axir-oqibatda yon berishga majbur bo‘ldi. Makka aristokratiyasi islom dinini va Muhammadning e’tiborini tan oldi. Lekin Muhammad ham Makkaning liniy ustunligini, Ka’baning va undagi qora toshning muqaddasligini e’tirof etib, har bir musulmon Makkaga haj qilishi shart, deb e’lon qilishga majbur bo‘ldi. Bu bilan Muhammadning yangi diniy tashkiloti quraysh zodagonlarining siyoeiy ta’sirini ham tan oldi. Haqiqatda, arablarda turli arab qabilalarini bitta qilib birlashtirgan davlat dini teokratik form-ada tashkil topa boshladi. Makka

zodagonlari va badaviy qabilalarning boshliqlari bu yangi davlatda oʻzlarining hukmronlik mavqeini kengroq, umum Arabiston doirasida mustahkamlab olish imko-niga ega boʻldi. Muhammad vafot etgandan keyin, oradan koʻp oʻtmay, islom bayrogʻi ostiga birlashgan arab qabilalari Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, Vizantiya, Eron erla-rini istilo qila boshladi.

Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari. Muhammadning eng yaqin vorislari— xalifalar— arab harbiy jamoasining saylab qoʻyiladigan boshliqlari boʻlib, ular diniy, harbiy va grajdan hokimiyatni oʻz qoʻllariga olgan edilar. Ularning qarorgohi Madina shahri edi.

Bu xalifalar chiqib kelishlari jihatidan Muhammadaing yo qarindoshlari yoki yaqin doʻstlari edi. 632—661 yillar davrida birin-ketin Abubakr, Umar, Usmon va Ali idora qildi. Bular ichida ikkinchi xalifaning — Umarning (634—644) idora davri juda katta ahamiyatga ega boʻldi Xuddi shu Umar zamonida arablar Suriyani, Falastinni, Misrni, Eronni bosib oldilar. Arablar bu davrda bir qancha ajoyib gʻalabalarni qoʻlga ki-ritdi. Ular Suriyada (636 y.) YOrmiq daryosi boʻyida Quddus yonida (638 y.) vizantiyaliklarni, Qadisiya (637 y.) va Nexavan (642 y.) shaharlari yonida, qadimiy Ekbatanlar yaqinida eron-liklarni tor-mor keltirdi. Arablarning gʻalaba qozonishiga shu narsa katta yordam berdiki, oʻsha vaqtda har ikkala katta davlat — Vizantiya ham, Eron ham bir-biri bilan uzoq urush 'qilib, holdan ketgan.edi, bu ikkala mamlakatning ham oʻz ichida keskin sotsial ziddiyatlar hukm surar edi. Arablar esa harbiy ishda katta afzalliklarga ega edi. Ularning asosiy om-masi erkin kishilardan iborat boʻlib, bular urugʻchilik aloqa-larini maʼlum darajada saqlab qolgandi, ammo shu bilan birga ular juda katta umumarab siyoeiy .tashkilotiga birlashgan edi. Koʻchmanchi badaviy qabilalar birinchi darajali engil suvoriylar bilai dong chiqardi, ular oʻzlarining shiddatlili-gi bilan dushmanning piyoda askarini dahshatga solar va uning besoʻnaqay otliq qismlari ustiga zoʻr muvaffaqiyat bilan bos-tirib kelar edi. Arablar birlashtiruvchi mafkuralarini bay-roq qilib chiqardilar. Er va boshqa xil oʻljalar uchun olib borilayotgan urushga «Olloh yoʻlidagi» muqaddas urush tuey be-rar, bunga arablar juda qiziqardi.

Arablarning Vizantiya va Eron bilan boʻlgan dastlabki toʻq-nashishlaridayoq katta muvaffaqiyatlarga erishuvi ularni ruh-lantirib, yangi istilolar qilishga niqtadi. Suriya, Misr va boshqa mamlakatlardagi ezilgan ommaning^bir qismi arablar-ga diniy zulmdan, krepostnoylik jabr-jafosi va moliyaviy zulmdan qutqazuvchilar deb qaradi. Arablar oʻz istilolarida odatda asosan mahalliy boylarning mol-mulklarini bosib olardi. Hukmronliklarining dastlabki vaqtlarida xalqni soliq bilan uncha qiynamadi. Ular boʻysundirilgan aholiga diniy erkinlik va bir qadar siyoeiy avtonomiya berdi, idora qi-lish funksiyasini koʻpincha mahalliy diniy jamoalarning boshliqlariga topshirdi. Ammo shu bilan birga ular turli en-gilliklar berib, aholini musulmonlikni qabul qilishga qiziq-tirdi. Islom dinini qabul qilganlar, arablarning oʻzi singa-ri, barcha soliqlardan ozod qilindi.

Arablar istilo qilgan mamlakatlarida mahalliy aholiga aralashmay, alohida harbiy koloniyalarga boʻlinib yashadi. Ularning hayotida harbiy-patriarxal soddalik birmuncha vaqt-gacha saqlanib qoldi.Mestopotamiyadagi Qufa, Basra va boshqalar, shuningdek, Misrdagi Fustat (keyinchalik Qohira) arablar tomonidan bun-yod etilgan harbiy poseleniyalarning eng yiriklaridan edi. Nifoqning boshlanishi. Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va sotsial jihatdan eng taraqqiy topgan qismida yashagan arab zodagonlari oradan koʻp vaqt oʻtmay mahalliy aristokratiya taʼsiriga berilib kegdi. Bu taʼsir savdo yaxshi rivoj topgan boy mamlakat boʻlmish Suriyada ayniqsa kuchli boʻldi. Arablarning harbiy boshliqlari bu erda yashab turib, Suriyadagi yuqori sinfning zeb-ziynatli hayotini tez oʻzlashtirib 'Oldi. Suriyadagi katta er egalaridan va quldorlardan oʻrnak olib, ularning oʻzi ham erlarni bata-mom xususiy mulk qilib tortib ola boshladi, qullar asray boshladi, bogʻ-rogʻlar va pomestelar barpo qila, saroylar qura boshladi. Bunday arablar uchun «Madina qarilari»ning oddiy patriarxal hayoti maroqsiz va eskirib qolganday koʻrin'ardi. Suriyadagi arab aristrokratiyasiga, yaʼni ota-bobolarining rasm-odatlaridan kechib, «kofirlar»ning yangi tartiblarini oʻzlashtirib olgan arab aristokratiyasiga Madina hamda Mesopotamiya va Misr harbiy demokratiyasi yomon koʻz bilan qa-rardi.

Muhammadning vorislaridan uchinchisi — xalifa Usmon (644—656) kuch-quvvatdan ketib, bukchayib qolgan irodasiz bir chol edi. U Makka zodagonlarining odami bo‘lib, shu bilan bir vaqtda uni Suriya arablari ham qo‘llab-quvvatlar edi. Suriya noibi amir Muoviya Usmonning yaqin qarindoshi edi. Madinada e’tibori tushib ketgan Usmon fitnachilar tomonidan o‘ldiril- di. Uning o‘rnini Ali egalladi. Ali Muhammadning kuyovi bo‘lib, uning qizi — Fotimaga uylangan edi. Ali Madinadagi demokratik elementlarga va Mesopotamiyadagi arab harbiy koloniyalariga suyanishga harakat qildi (biroq, u qadar izchil-lik bilan harakat qilmadi). Muoviya va uni qurshab turgan suriya-ar'ab zodagonlari bu yangi xalifaga qarshi bosh ko‘tardi. 661 yilda Ali bir xorijit[1] tomonidan o‘ldirilgandan keyin, Muoviya o‘zini xalifa deb e’lon qildi, lekin u Makkaga ham, Madinaga ham bormay, Damashqda qoldi. Ana shu tarzda xalifa-lik tarixining yangi davri boshlandi. Arablar siyosiy hayoti-ning markazi arab shaharlaridan Suriyaga ko‘chirildi.

Umaviylar xalifaligi. Damashq xalifaligi 90 yilcha (661—750) davom etdi. SHu vaqt ichida xalifalik o‘z erlarini nihoyat darajada kengaytirdi. VIII asrning boshlarida SHimo liy Afrikaning butun qirg‘og‘i bosib olindi. 711—714 yillar-da arablar Pireneya yarimorolini istilo qildilar. Muoviya-ning o‘zy Konstantinopolga ikki marta, 669 va 680 yillarda yurish qildi. 717—718 yillarda arablar uchinchi marta Konstantinopol ostonasiga kelib, uni butun bir yil qamal qilib turdi. SHarqda esa arab lashkarboshilari Urta Osiyoning ich-karisigacha kirib borib, Xivani, Buxoroni ishg‘ol qildi, Af-g‘onistonni va Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismini to Hind daryosiga qadar bo‘lgan erlarni istilo qildi. Armaniston bilan Gruziya ham umaviylar xalifaligi sostaviga kirar edi. Xalifalikning chegaralari g‘arbda Atlantika okeanigacha, sharqda Xitoy bilan Hindiston chegaralarigacha borib etdi va, shunday qilib, qadimgi buyuk monarxiyalarning — Aleksandr Makedonskiy monarxiney yoki Avgust va Trayan zamonlaridagi Rim impe-riyasi mon'arxiyasining territoriyasidan ham oshib ketdi.

Damashq xalifaligining xarakterli xususiyati shu bo‘ldi-ki, Makka-Madina davridagi hali harbiy demokratiyaning ba’-zi xislatlarini saqlab turgan teokratik respublikadan chiqib, naelda-naelga meros bo‘lib o‘tadigan sharqqa xos g‘irt despotik monarxiyaga aylandi. Muoviya Umaviylar dinastiyasiga asos soldi. Bu dinastiyaning xalifalari juda katta zeb-ziynatda yashadi. Ularga juda ko‘p erlari va juda ko‘p qullari bo‘lgan saroy ahli ham ergashdi. Xalifa ilgarigidek, islom dinining boshlig‘i bo‘lib qolaverdi. Biroq xalifa hokimiyatining diniy alomatlari batamom ikkinchi o‘ringa ^surilib, birinchi o‘rinni sharqqa xos bo‘lgan odatdagi hukmron despotik alomatlari oldi.

Umaviylar zamonida idora qilish apparata ancha murakkab-lashdi. Aholidan er va jon solig‘i oladigan juda keng tarmoq-li moliya amaldorlari apparati tashkil qilindi. SHu narsa xarakterliki, endi faqat «kofirlar» emas, balki musulmonlar ham soliq to‘laydigan bo‘ldi. Uch xil soliq asosiy soliq hisob-lanar edi; 1) xaraj—er solig‘i, 2) juz’ya — jon boshi solig‘i (bu soliq avvaliga faqat g‘ayri musulmonlardan olinar edi, keyinchalik borib musulmonlardan ham olinadigan bo‘ldi) va 3) z a k o t — majburiy to‘lanadigan ushur, bu soliq ^am be-vosita xalifaning o‘zyga kelib tushar edi. Xaraj bilan juz’ya xalq uchun ayniqsa og‘ir soliqlar edi.

Sud va boshqa ma’muriy ishlar arab tilida olib boriladi-gan bo‘ldi. Arab qonunlari kodeksi vujudga keltirildi. Bu kodeksga arablarning kalomi sharifi — Qur’on asos qilib olindi; Qur’on Muhammadning hikmatli so‘zlaridan, ya’ni uning shogirdlari va muxlislari tomonidan yozib olingan hikmatli so‘zlardan hamda Qur’onga qilingan qo‘shimchalardan iboratdir, bu qo‘shimchalar Sunnat deb ataladi. Arablarning hammasi ham yangi tartiblarni tan olavermadi. Mo‘min musulmonlar olami Umaviylar zamonida bir-biriga dushman bo‘lgan bir nechta qiemga bo‘linib ketdi. Xalifa homiylik qilgan oqim musulmonlikda rasmiy hukmron oqim deb hisoblandi. Bu sodiq musulmonlar sunniylar deb ataldi, sunniylar degan so‘z «Sunnat» so‘zidan olingandir. Lekin arablarning bir qismi Sunnatni tan olmadi. Bunday musulmonlar shiilar, ya’ni mas« lagidan qaytganlar, nifoqchilar deb ataldi[1]. SHiilar Misr, Eron va Mesopotamiyada ko‘p edi. Bularga o‘ldirilgan Alining urug‘-aymoqlari homiylik qilardi.

Nihoyat, demokratik xarakterdagi yana bir mazhab—xorijiy-lar bo‘lib, bular sunniylarni ham, shiilarni ham, umaviylar-ni ham, Alilarni (Ali avlodlarini) ham tan olmadi. Xori-jiylar

eryai baravar taqsimlashni talab qildilar. Keyinchalik xorijiylik ham mayda-chuyda mazhablarga bo‘linib ketdi.

Hukmron sinflarning manfaatlari nuqtai nazaridan olib qaraganda ham umaviylarning sotsial bazasi ancha mukammal emas edi. Asosan Suriya-Arab zodagonlari bilan bog‘langan umaviylarning manfaatlari sharqiy viloyatlarga yot edi. Mesopotamiya arablari Damashqqa doim qarshi kayfiyatda bo‘lib kel-di. Fors (Eron) feodal elementlari ham umaviylarga uncha bo‘ysunmas edi. 747 yilda sharqiy Eron yoki Xuroson dehqonla-ri harakatiga Abu-Muslim boshchilik qildi, u erli jamoachi dehqonlarning ahvolini yaxshilash maqsadida umaviylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qo‘zg‘olon keng tue oldi va kattagina siyosiy oqibatlarga olib keldi. Eron va Mesopotamiya feodallari birlashib turib, 750 yilda umaviylarni ag‘dardi, bunda ular Abu-Muslim boshliq xalq-dehqon harakatidan foydalandilar. Xalifalik taxtini Abul-Abbos Qonxo‘r egalladi,- u Muhammad- ning o‘ziga Mesopotamiyadagi harbiy arab oilasiga mansub bo‘lgan bu xalifa Muhammadga qarindoshman deb da’vo qildi. Abbosning buyrug‘i bilan Umaviylar xonadoniga mansub bo‘lgan hamma shahzodalar qirib tashlandi. Bu shahzodalardan Abdu-rahmon ismli bittasigina o‘limdan qutulib qoldi. U uzoq Is-paniyaga qochib borib, u erda oradan ko‘p vaqt o‘tmay o‘zini mus-taqil amir deb e’lon qildi (756 yil). Abu-Muslimni ham Abbos qo‘lga tushirib, turmaga tashla-di, bir necha yildan keyin u halok bo‘ldi.

Abbos yangi dinastiyaga — Abbosiylar dinastiyasiga asos soldy, bu dinastiya 750-yildan 1055 yilgacha idora qildi. Xa-lifalikning poytaxti Abossdan keyingi xalifa Mansur davri-da — 762 yilda qurilgan Bag‘dod shahri bo‘ldi. SHunday qilib, arablar siyosiy hayotining markazi Suriyadan Mesopotamiyaga ko‘chirildi.

**Abbosiylar xalifaligi.**

Abbosiylar zamonida arab davlati juda ham taraqqiy topdi. Bag‘dod xalifaligi VIII—IX asrlar-da ayniqsa kuchli edi. Bu vaqtda — Bag‘dodni barpo etgan Mansur (754—775), Karl Buyukka zamondosh bo‘lib, u bilan do‘stona diplomatik aloqa qilgan Xorunal Rashid (786—809), arab ilm-faniga zo‘r berib homiylik qilgan Al'-Ma’mun (813—833) kabi qudratli xalifalar idora qildi. Abbosiylarning «ol-tin davri» Mutadid zamonida (892—902) tugadi. Xalifalik ana shu vaqtdan boshlab tushkunlikka yuz tutdi. [N] Abbosiylar davlatida Eronning ta’siri kuchli edi. Bu ta’-sir vazirlik (buyuk iazir-xalifaning birinchi minnstri) un-vonining joriy qilinishida ham, soliq solishda eron usulla-rining o‘zlashtirilishida (er kadastrlarining eronlardagiga o‘xshab tuzilishida) ham, xalifalik ma’muriy jihatdan vi-loyatlarga bo‘linib, ularga gubernatorlar — amirlar boshliq qilib qo‘yilishida ham namoyon bo‘ldi (bu gubernator-amirlar to‘la hokimiyatga ega bo‘lishlari bilan qadim Eron va ilk o‘rta asrlardagi sosoniylarning satraplarini eslatar edi).

Eronning feodallashgan zodagonlari xalifalikni idora qilishda aktiv qatnashdi. Buyuk vazirlik lavozimiga odatda eroniylardan tayinlanar edi va bu lavozim nasldan-naslga o‘tar edi (masalan, mashhur Barmoqilar familiyasi). Xalifaning juda ko‘p (160 000 kishiga yaqin) doimiy qo‘shini bo‘lib, bu qo‘shishshng ko‘pchiligi turli varvar otryadlaridan iborat edi, IX asriing ikkinchi yarmidan boshlab esa asosan turk otryadlaridan iborat bo‘ldi. Xalifaning gvardiyasi katta siyosiy ahamiyat-ga ega edi, bu gvardiya harbiy ishga yoshligidan boshlab o‘rga-tilgan qullardai tuzilgan edi.

Xalifalik xo‘jalik ishlarining turli sohalariga ham katta e’tibor berdi, bu borada ham qisman, Eron, qisman Mesopo$_{g}$ tamiya traditsiyalardan foydalandi. CHunonchi, maxsus pochta mahkamasi bo‘lib, bu mix,kama pochta ishlari, katta yo‘llarni tartibga solish bilyap uiyi ullaidi, bu yo‘llar tekislandi, suv bilan ta’min qilindi, unda har bir muayyan masofada maxsus musofirxona, karvon saroylar tashkil qilindi. Abbosiylar zamonida dalalarni sun’iy sug‘orish sistemasi g‘oyat avj oldi. Buning uchun turli katta-kichiklikdagi er osti va er usti ka-nallari qurildi. Irrigatsiya qurilishlari to‘xtovsiz davom et-di va bu ish bilan hukumatning maxsus mahkamasi shug‘ullandi. Abbosiylarning poytaxti — Bag‘dod juda katta bir shahar bo‘lib, unda xalifaga va uning yaqin odamlariga qarashli juda ko‘p saroy va bog‘lar bor edi. SHahar doyra shaklida bo‘lib, uning atrofi ikki qator devor bilan o‘ralgan edi. Bu shahar zodagon-lar shahri, xalifaning qarorgohi va uning ma’muriy poytaxti bo‘lish bilan birga juda katta bir hunarmandchilik, ayniqsa savdo markazi ham edi. Bag‘dod bozorlariga uzoq-uzoq mamla-

katlardan savdogarlar kelar edi — bu erda vizantiyaliklar, xi-toylar, hindlar, malayyaliklar, SHimoliy, G‘arbiy va hatto Markaziy Afrikada yashovchi kishilarni ham uchratish mumkin edi.

**Xalifalikning iqtisodiy yuksalishi.**

Abbosiylar davrida Old va Urta Osiyonin"g, shuningdek, SHimoliy Afrikaning juda keng territoriyasida ma’lum vaqtgacha tinchlik va xavfsizlik qaror topishi natijasida xalifalik iqtisodiy jihatdan g‘oyat taraqqiy topdi. Markaziy hukumat irrigatsiya sistemasiga mut-tasil e’tibor berishi natijasida, bu davrda dehqonchilik so-hasida katta yutuqlarga erishildi. SHoli, paxta va shafron keng tarqalgan qishloq xo‘jalik ekinlari edi. Bog‘dorchilik va gul-chilik sanoat ahamiyatiga ega bo‘ldi. Juda keng atirgul planta-siyalari parfyumeriya (atir, upa-eliklar) uchun maxsus essensiya berar edi. Arablar qimmatbaho nasldor ot va qo‘ylar urchitar-dilar. Arablarning hunarmandlik buyumlari ham katta shuhrat qozondi. Bu erda yung, ipak va ip gazlamalar, yaxshi navli po‘-lat va qurol (mashhur damashq po‘lati), shisha va oynadan yasal-gan buyumlar, zargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqa-rilardi. IX—X asrlarda xalifalikning ekonomikasida keng ko‘lam olgan ichki savdo va ayniqsa tashqi xalqaro savdo juda katta o‘rin tutar edi. Arab savdogarlari yiroq shimolgacha — yuqori Volgagacha va hatto Baltika dengizi qirg‘oqlarigacha borib savdo qilardilar. Uzoq SHarqda ular Xitoy, Hindiston va Indoneziyada doimiy suratda savdo qilardilar. Arablar YAqin SHarqda — Levantda (YAqin SHarqni evropaliklar keyingi vaqt-larda Levant deb yurita boshlagan edilar), ayniqsa qizg‘in savdo olib bordilar. Suriya, Misr, Kichik Osiyo arablar savdosi-ning asosiy rayonlari bo‘lib, arablar bu erlarda Vizantiya savdogarlari bilan raqobat qilardilar va tovarlarini shu er-lardan G‘arbiy Evropaga yuborardilar. Arablar savdosida qul savdosi katta o‘rin tutardi, bu qullar asosan, osiyolik, afri-kalik va bir qismi evropaliklardan iborat edi.

**Arab feodalizmi.** Bag‘dod xalifaligi davrida arablarda feodal munosabatlar uzil-kesil qaror topdi. Xalifalikka ka- rashli mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinuvchi asosiy sinf ja-moachi dehqonlar edi. Biroq arablardagi feodalizmning o‘ziga xos xususiyatlari bor edi. Jamoachi dehqonlarning ko‘pchiligi xalifaning erlarida yashab, feodal rentani bevosita davlat-ning o‘ziga to‘lar edi. Arab qonunlariga muvofiq butun er xalifata qarashli bo‘lib, xalifa bu erning biror qismini o‘z xizmatkorlariga vaqtinchagina berar edi. SHu tufayli xalifa-likda katta er egaligining nasldan-naslga o‘tishi o‘rta asr Evro-pasidagi kabi qat’iy emas edi. Biror a’yon o‘lgandan keyin, uninr mol-mulki odatda xalifa xazinasiga o‘tar edi. Bu mol-mulkni o‘lganning vorisiga (yoki vorislariga) berish-bermaslik xalifaning xohish va iltifotigagina bog‘liq edi. Ikkinchi *to*-mondan odatda xalifada ham, uning zodagonlarida ham feodal Evropasida bo‘lgani singari, barshchinali, ya’ni ishlab beradi-gan rentali pomestelari yo‘q edi. Bunda zodagon xo‘jaligidagi ish kuchini odatda qullartashkiletar edi. Qaram dehqonlar esa barshchinada ishlamas edilar, faqat mahsulot bilan yoki pul bilan renta to‘lar edilar, xolos.

Shunga qaramasdan, Bag‘dod xalifaligi zamonida feodal mulkchiligi sezilarli darajada rivojlanib bordi. Iqta — harbiy xizmat o‘taganligi uchun beriladigan chek yer bo‘lib, G‘arbiy Yevropa benefitsiyalariga o‘xshab ketadi, mulk — in’om qi-lingan va asta-sekin nasldan-naslga meros bo‘lib qoladigan er-mulklar, hissa va boshqa imtiyozli erlar g‘aznaga soliq to‘lashdan ozod qilingan bo‘lib, bular o‘sib kelayotgan feodal xususiy er egaligining formalari edi. Erlarning ma’lum qismi — vaqiferlar — machitlarga berilar edi. Xalifaning davlat feodal mulchiligini qisqartirish hisobidan yirik va o‘rta da-rajadagi xususiy er egaligining o‘sishi arab feodalizmi ri-vojlanishining xarakterli hodisalaridan biri bo‘lib, bu hol xalifalikka qarashli juda katta territoriyani tashkil etgan turli xil mamlakat va o‘lkalardagi erli feodallarning ajra-lib chiqish va separatistik kayfiyatlarining tobora avj olishida ancha katta rol o‘ynadi.

Arab feodalizmining yana bir xususiyati — qulchilik elementlarining ancha saqlanib qolganligi edi. Arablarda Bag‘dod xalifaligi davrida ham qullar juda ko‘p edi. Qullar eng og‘ir ishlarda: irrigatsiya inshootlari qurishda, tosh va ruda konla-rida, paxta dalalarida va shunga o‘xshash ishlarda juda ko‘plab ishlatilar edi. Afrikadan keltirilgan qora tanli qullar ay-niqsa ko‘p edi. Qora tanli qullarni arablar zanjilar deb atardilar, zanji degan so‘z Zanzibar orolining nomidan olin-gandi. Oq tanli qullardan esa juda ko‘plab uy xizmatkorlari, haram kanizaklari,

raqqos va raqqosa, ashulachi, akrobat va shunga o‘xshashlar oifatida foydalanilar edi. Xalifalarning saroy gvardiyasi ham shu oq tanli qullardan tashkil etilardi.

Xalq qo‘zg‘olonlari. Arablar hukmronligining ilk davrida ancha engil tortgan xalifalik mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og‘irlasha boshladi. Dehqonlar qisman natura shak-lida (mahsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta so-liqlar to‘lardi, bu esa mayda ishlab chiqaruvchi — dehqon yoki hunarmandning deyarli hamma qo‘shimcha mahsulotini yamlab ketar edi-da, natijada ularning o‘zlari juda ham achinarli holda kun kechirar edi. Amaldorlarning o‘zboshimchaligi va jabr-zul-mi, dehqonlarning huquqsizl'igi va himoyasizligi, ularni haqi-qatda yarim qul holiga solib qo‘ygan edi. Xalifalikda qullarning ahvoli esa nihoyat darajada og‘ir edi. Ularni haddantash-qari, vahshiyona suratda ekspluatatsiya qilardilar. Mehnatkash-lar ommasining—dehqonlar, shahar kambag‘allari va qullarning qattiq ekspluatatsiya qilinishiga javoban feodallarga va ularning manfaatini himoya qiluvchi xalifaga qarshi bir necha marta qo‘zg‘olon ko‘tarildi.

Bag‘dod xalifaligi davridagi xalq qo‘zg‘olonlari kishini hayratda qoldiradigan darajada katta qo‘zg‘olonlar bo‘lib, ba’zan butun-butun okruglarni va hatto viloyatlarni o‘z ichiga olardi. Bu qo‘zg‘olonlar odatdan tashqari uzoq davom etardi va juda ham qattiq bo‘lardi. CHunonchi, Mansur xalifa o‘lgandan keyin, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Urta Osiyoda dehqonlarning katta qo‘zg‘oloni ko‘tarildi. U 776 yilda boshlanib, 783 yilda tamom bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olonga Marv shahri atrofidan chiqqan M u q a n-na («chodir yopingan odam») laqabli Hoshim ibn Hakim degan bir kirchi boshchilik qildi. Bu qo‘zg‘olonda mazdakiylar[1] mazhabining ta’siri aks etdi, mazdakiylar mol-mulkning o‘rta-da bo‘lishini va hayotning noz-ne’matlaridan foydalanishda hamma teng bo‘lishini talab qilar edi. IX asrning boshida Ozarbay-jonda ham dehqonlarning ikkinchi bir katta qo‘zg‘oloni ko‘tarildi, u keyin Eronga va Zakavkazening boshqa joylariga ham tarqaldi. Bu qo‘zg‘olonga Babek degan bir kishi bosh bo‘lib, u ham erkin jamoa tartiblarining tiklanishini talab qildi. Bu qo‘zg‘olon 20 yildan ortiqroq davom etdi (815—837).

IX asrning oxiri —X asrning-boshlarida xalifalikning ja-nubida dehqonlar harakati ko‘tarildi, bu harakatga Karmat degan odam bosh bo‘lib, u o‘zini «payg‘ambar» deb e’lon qildi. Uning atrofiga juda ko‘plab qochoq dehqon va qullar kelib to‘plandi. Qo‘zg‘olonchilar katta qal’a qurdilar, bu qal’ani xalifa qo‘shinlari ololmadi.

Oxir natijada karmatchilar Fors qo‘ltig‘i qirg‘oqlarida o‘ziga xos bir dehqonlar respublikasini tuzishga muvaffaq bo‘ldi, bu respublika X asrning oxirigacha umr ko‘rdi.

Karmatchilar harakati bilan bir vaqtda Basra atrofida qul zanjilarning juda" katta qo‘zg‘oloni bo‘lib* bu qo‘zg‘olon 14 yil (869—883) davom etdi. Zapjilarga shia Ali ibn Mu-hammad bosh bo‘lib, u o‘zini xalifa deb e’lon qildi. Zanji- lar qo‘zg‘olonini bostirish uchun hukumat ularga karshi juda katta qo‘shin yuborishga majbur bo‘ldi.

**Xalifalikning parchalanib ketishi.** Keng ko‘lam olgan xalq harakatlari xalifalikni larzaga keltirib, ko‘p vaqtgacha uning birligini buzib qo‘ydi. Biroq xalifalikning parchalanishiga boshqa sabablar ham bor edi. Xalifalik turli mamlakatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, turli-tuman xalqlarning murakkab bir konglomeratidan iborat zdiki, bulardan ba’zilari o‘tmishda o‘zining yorqin tarixiga'ega zdi; shuning uchun ham bu xalqlar o‘z mustaqilligini tiklashga intilar edilar; ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida mahalliy aloqalar mus-tahkamlanib borgan sari bu intilish kuchayib borardi. SHu bi-lan birga xalifalik hokimiyati tobora zaiflashib bormoqda edi. Feodallashuv protsessi SHarqda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, feodalizm taraqqiyotining ilk davrida G‘arbda qanday natijalarga olib kelgan bo‘lsa, bu erda ham xuddi shunday natijalarga olib keldi. Mahalliy erdor zoda-yunlar markazqy hukumat zarariga kuchayib bordi va ajralish-ga intildi. Amirlar, ya’ni viloyatlarning gubernatorlari mahalliy feodal-er zgalariga suyanib turib, o‘zlarining mahalliy dinastiyalarini vujudga keltira boshladilar. Xalifalik amal-dorlari tomonidan markazlashtirilgan er rentasi solig‘ining to‘planishiga qarshi ko‘tarilgan dehqon qo‘zg‘olonlaridan mahalliy zodagonlar o‘zlarining seperatistik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanar edilar.

Xalifalik haqiqatda VIII asrdayoq parchalana boshlagan edi. 756 yilda Qurdoba amirligi ajralib chiqq.andan keyin (929 yildan boshlab u xalifalikka aylandi) VIII asrnsng oxiri — IX asrning boshlarida Marokash bilan Tunis ajralib chiqdi,
IX asrning o‘rtalarida Misr mustaqid bo‘lib qoldi (bu erda avvaliga tulunlar, keyinchalik X asrda Alining avlodlari —Fotimiylar idora qila boshlab, ular 969 yildan e’tiboran Misrni mustaqil Qohira xalifaligiga aylantirdi), IX va X asrlarda Eron ajralib chiqdi, avval sharqiy Eron (Xuroson), keyin esa g‘arbiy Eron ham ajralib chiqdi. Amudaryoning bu tomonidagi Mavoraunnahr deb atalgan joyda Somoniylar dav-lati tuzildi, uning markazi Buxoro shahri bo‘ldi, bu davlat

X asrning boshidan qariyb oxirigacha yashadi. Frotda mustaqil bir davlat — Movsul sultonligi tuzildi. X asr o‘rtalarida SHarqiy Eron erlari va Afg‘onistonning bir qismi qo‘shilib, eron-turklardan iborat kuchli G‘aznaviylar davlati vujudga keldi, bu davlatning poytaxti G‘azna shahri bo‘ldi. X asrning o‘rtalariga kelib xalifaning qo‘l ostnda Arabiston va Mesopo-tamiyaning Bag‘dod atrofidagi bir qismigina qoldi. 945 yilda Zrondagi shia feodal xonadonlaridan biri bo‘lgan Buiylar xo-nadoni Bag‘dodni bosib olib, xalifalikning qolgan erlarini uzoq vaqtgacha idora qildi.
1055 yilda Bag‘dodni saljuqiy-turklar bosib oldi. Turklarning boshlig‘i To‘g‘rulbek sulton deb e’lon qilindi. SHundan keyin xalifalar qo‘lida faqat diniy hokimiyatgina qoldi. Ma-na shunday o‘ziga xos «SHarq papalari» sifatida xalifalar Bag‘dodda uzoq vaqtgacha, mo‘g‘ullar istilosigacha, ya’ni 1258 yil-gacha yashab keldi.

Arab madaniyati. Xalifalikning arab madaniyati to‘g‘risi, arab tilidagi madaniyat-o‘z zamonasi uchun juda yuksak madaniyat bo‘lib, G‘arbiy Evropa o‘rta asr jamiyatiga katta ta’sir ko‘rsat-gan edi. Arab tilida olib borilgani va vujudga keltirilishida arablar katta rol o‘ynaganligi sababli arab madaniyati deb atalgan bu madaniyatning ancha qismi xalifalik sostavidagi ko‘p xalqlarniki edi. Arab sivilizatsiyasining turli sohalarida Gretsiya-Suriya (Vizantiya), Eron (Fors), Zakavkaze (Ozarbay-jon), O‘rta Osiyo (xorazm, tojik xalqlari va hokazo), Hindis-tonning ta’siri bor edi.

SHu narsa shoyon diqqatdirki, vizantiyaliklar singari, arablar ham antik traditsiyani davom ettirdilar, grek klassiklari-ning asarlarini qunt bilan o‘rgandilar va arab tiliga tarjima qildilar. Aristotel, Gippokrat, Ptolomey Evklid asarlarini arab olimlari yaxshi bilar edilar. Evropaliklar Aris-totelning asarlari bilan dastlab arabchadan latin tiliga tarjima qilingan nusxalar orqali tanishdilar^urli xalifalik-larning poytaxtlarida — Bag‘dod, Qurdoba va Qohirada — o‘rta asr Evropasidagi universitetlarga o‘xshagan oliy maktablar bo‘lib, bularda Qur’ondan va musulmonlarping diniy kitobla-ridan tashqari dunyoviy ilmlar ham qunt bilan o‘rganilardi. YUz minglab kitoblarni o‘z ichiga olgan katta-katta kutubxona-lar (Qurdoba, Qohira va boshqa joylardagi kutubxonalar) g‘o-yat katta bilim xazinasi edi. Bag‘dod, Damashq va Samarqandda katta-katta rasadxonalar bor edi. Arab astronomlari juda ko‘p yangi yulduzlarni topdilar va yulduzlar osmonining juda qim-matli kartasini tuzdilar.

Arab madaniyatining o‘ziga. xos xususiyati shu ediki, unda aniq fanlar juda taraqqiy topgan edi. Arablar meditsina sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan edilar, ular uirik or-ganizmni tilish yo‘li bilan tekshirib, odam tanasining anato-miyasini juda yaxshi bilib oldilar. Arab meditsina darslik-lari G‘arbiy Evropada butun o‘rta asr davomida o‘qildi. Faqat SHarqdagina emas, balki butun Evropaga dong‘i ketgan mashhur vrach va fiziolog AbuAli ibn Sino (930—1037) millati tojik bo‘lib, Somoniylar davlatida yashadi. Ibn Sino meditsina, fizika va falsafaga oid 100 ga yaqin kitob yozgan. Uning eng asosiy asari «Tibbiyot qonuni» latin tiliga tarjima qilindi, bu kitob o‘rta asr Evropasi vrachlari uchun qariyb XVI asrga qa'dar dasturilamal bo‘lib xizmat qildi.
Matematika sohasida arablar geometriya va trigonometriyani rivojlantirdilar. Ular algebrani rivojlantirish borasida ko‘p ishlar qildilar va hind raqam sistemasini mukammallash-tirib, unga «0» (nol) alomatini qo‘shdilarki, buning natija-sida raqamlar bilan har qanday katta sonni ham ifodalashga imkon tug‘ildi.

Arablar juda yaxshi sayyoh edilar. Eng ko‘zga ko‘ringan arab sayyohi, geografi va tarixchisi Mas’udiy bo‘lib (956- yilda vafot etgan), u xalifalikning hamma viloyatlarini aylanib chiq-qan edi. Eronga, Suriyaga, shuningdek, Hindiston bilan Xitoyga ham borgan edi. U o‘z sayohatlarining natijasini «Oltin bo‘ston-lar» degan umumiy bir nom bilan chiqqan kitoblarida bayon qildi. Ko‘pgina arab sayyohlari — I b n Dast, Ibn Fadlan va boshqalar — slavyan mamlakatlariga borganlar va sladyanlar to‘g‘risida, xususan IX va X asrlardagi sharqiy rus slavyanlar to‘g‘risida qiziq ma’lumotlar yozib qoldirganlar.

IX asrning oxiri —X asrning boshlarida yashagan arab ta-rixchilari orasida ayniqsa mashhuri T a b a r i y bo‘lib (923 yilda vafot etgan) u «payg‘ambarlar va podsholar tarixi»ni, ya’ni xalifalar tarixini yozgan edi, bu tarix 915 yilgacha bo‘l-gan davrni o‘z ichiga oladi.

Arablar nafis adabiyot sohasida mashhur asarlar yaratdi-lar. «Ming bir kecha» nomli mashhur kitob XII asrda uzil-kesil vujudga keldi. Bu asar arab-musulmonlar olamidagi turli xalqlar yaratgan g‘oyat ko‘p ertak va qissalar yig‘indisidan ibo-rat bo‘lib, bu ertak va qissalarning manbalari qisman qadim-gi dunyo xalqlarining folkloriga (Urta podsholik davridagi Misr ertaklariga va boshqalarga) borib taqaladi. Lekin «Ming bir kecha»ning vujudga kelishida VI asrdayoq to‘plangan Eron ertaklari ayniqsa katta rol o‘ynadi.

Eron-arab eposining eng yirik yodgorliklaridan biri shoir Abul-Qosim Firdavsiyning (935— 1020) qahramon-lik dostoni «SHohnoma» bo‘lib, u chamasi 1000 yillarda yozilgan. Doston arab tilida emas, balki fors tilida yozilgan. Unda 60 000 she’r bor, buni yozish uchun Firdavsiy juda boy xalq og‘zaki ertaklaridan foydalangan, bu ertaklarga adabiy ji-hatdan juda nozik sayqal bergan.

**Arab san’ati.** Arab san’atida asosiy o‘rinni arxitektura egallaydi. Arablar monumental binolar: machitlar, saroylar, maqbaralar, hammomlar va boshqa jamoat binolari qurgan-lar. Arab arxitekturasining eng qadimgi yodgorliklaridan biri Quddusdagi Umar machiti deb atalgan machit bo‘lib, u Uma-viylar davrida 688 yilda qurilgan. Bu machit qubbalari juda baland, nihoyatda salmoqdor sakkiz burchakli qilib ishlangan. Unda Vizantiyaning monumental uslubi aks etib turadi. Ammo arablar odatda, engil, xushbichim binolar qurardilar. Bu bi-polarning xarakterli tomoni shu ediki, ularning minora va minorachalari kurkam, xushbichim, ustunlari ingichkadan kelgai, toqi ravoqlarining naqshi ancha jo‘n bo‘lar edi. Arab binolari-ni yanada kurkam qilib bezab turgan narsa — uning devorlari-ga juda mohirlik bilan rang-barang qilib o‘simliklar, qis-man hayvonlar olamiga oid motivlardagi g‘alati naqshlar, shuningdek, har xil geometrik chiziq va figuralardir. Haddan tashqari sipo, ammo o‘zining nihoyatda nozik san’atkorona ish-langanligi bilan kishini hayratda qoldiradigan juda zinnat-li naqsh solish — arab rassomchiligining xarakterli xususiya-tidir. Qo‘l -yozmalar, kitob muqovalari, zastavkalar, konsovka-lar va shu kabilar mani' shu xildagi rasmlar bilan bezatilar edi. Turmush-hayotdan olingan xilma-xil temadagi ajoyib mi-niatyuralar ham qo‘l, yozmalarga bezak bo‘lib xizmat. qilar edi. Arablarda katta hajmli surat bos.ish uncha rivojlanmagan edi. Buning sabablaridan biri shu ediki, Qur’on musulmon-larning ko‘p xudolikka («butparastlik»ka) qaytishidan qo‘rqib . kishilar va hayvonlarning suratlarini solishni taqiqlagan edi.

**Asosiy adabiyotlar:**

5. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .

МГУ. 2001.

4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.

5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

# MAVZU: ILK O‘RTALARDA ANGLIYA (2soat)

## REJA:

**1. Angl-saks istilosi va angl-saks korolliklari. Daniyaliklarga qarshi olib borilgan kurash.**
**2. Alfred Buyukning idora qilishi. Kanut Datskiy davlati.**
**3. Angl-sakslarning shtimoiy tuzumi. Feodallashuv jarayoni.**

**Angl-saks istilosi va angl-saks korolliklari.**

Rim legion-lari Britaniyadan V asrning boshlaridayoq chiqib ketgan edi. Biroq mamlakatning bir qancha mayda korolliklarga bo‘linib ketishiga sabab bo‘lgan «britaniya mustaqilligi» uzoqqa bor-madi. V asrning o‘rtalaridan boshlab (449 yil atrofida) bu orolga turli xil shimoli-g‘arbiy german qabilalari — angl-lar, sakslar, yutlar bostirib kira boshladilar. Orol oz-ozdan istilo qilinib borib, bu istilo butun bir asrga — VI asrning ikkinchi yarmigacha cho‘zildi. Angl-sakslar istilosi natijasida ilgarigi Britaniya territoriyasida o‘ndan ortiq mayda varvar german korolliklari vujudga keldi; bu varvar korolliklari eng chekka g‘arbdan — Uels bilan Kornueldan va kelt korolliklari saqlanib qolgan eng chekka shimoldan — SHotlandiya-dan tashqari, orolning butun territoriyasini egalladi. VII asrga kelib angl-saks korolliklari bir qadar yiriklashib, ettita (geptarxiya deb ataladigan) korollikni tashkil etdi. Ja-nubda sakslarning uchta korolligi — Uesseks, Sesseks, Esseks (g‘arbiy, janubiy va sharqiy saks) korolliklari vujudga keldi. Markazda va shimoli-sharqda asosan angllar o‘rnashgan bo‘lib, bu erlarda Mersiya, Nortumbriya va SHarqiy Angliya korolliklari tashkil **topdi.** YUtlar chekka janubi-g‘arbda muhim territoriyami, ya’ni Temza daryosi quyiladigan joyni ishg‘ol **qilgan** kichik bir Kent korolligini tuzdi-lar. **VII** asr ichida va VIII asrning birinchi yarmida asosiy rolni shimoliy ko-rolliklar — Nortumbriya va Mersiya o‘ynadi. VIII asrning o‘rtalaridan boshlab gege-monlik janubiy korollik-' lardan biriga — Uesseksga o‘tdi (uning poytaxti Vinchestr shahri edi). Uesseks korollari dastlab janub-ni — Sesseks, Esseks va Kentni o‘ziga bo‘ysundirdi, so‘ngra 1>S asrning boshlari-da esa Mersiya bilan Nor-tumbriyani bosib oldi. SHarqiy angllar korolligi o‘z mus-taqilligini bundan ilgari yo‘qotgan bo‘lib, avval Nortumb-riyaga, keyin esa Mersiyaga bo‘ysungan edi. Uesseks koroli — butun mamlakatni birlashtirgan kishi — Ekbert (802-839) edi. U mamlakatni birlashtirishni 829 yillarda amalga oshirdi. VI asrdan boshlab angl-sakslar orasiga xristianlik kira boshladi. Bir qancha vaqtgacha Angliyada ikkita xristian cher-kovi o‘zaro kurash olib bordi: biri — V asrda tashkil topgan va sharqiy grek cherkovlari bilan tashkiliy aloqada bo‘lgan Irlandiya cherkovi, ikkinchisi — papa tomonidan Rimdan yubo-rilgan miosionerlar tashkil etgan rim cherkovi. Rim cherkovining ta’siri g‘olib chiqdi, buning sababi qioman istilochllar bilan, ya’ni angl-sakslar bilan orollardagi keltlar o‘rtasi-da bo‘lgan antagonizm bo‘ls,a, asosan rim cherkovining ko‘proq marxazlashganligi va ariskjratlashganligi bo‘ldi, angl-saks korollari uning episkoplaridan e’tiborli siyosiy kuch sifati-da foydalanishlari mumkin edi.

**Daiiyaliklarga qarshi olib borilgan kurash.** Birlashgan angl-saks korolligi tashkil topishi bilanoq daiiyaliklarga qarshi qattiq kurash boshlashga majbur bo‘ldi. Daniyaliklar deganda Angliyada faqat Skandinaviyadan YUtlandiya yarim oro-liga ko‘chib kelib o‘rnashib, bu erda IX asrda kuchli korollik tuzgan daniyaliklarning o‘zinigina emas, balki yana skandinav-norvejlar ham nazarda tutilar edi. Skandinav-normanlarning Evropa qitasiga — Fransiyaga va Janubiy Italiyaga qilgan hujumlari to‘g‘risida yuqorida gapirib o‘tilgan edi. Skan-dinavlarning Britaniya orollariga qilgan hujumlari undan **ham** dahshatliroq bo‘ldi. Ular Irlandiyaga, SHotlandiyaga va Angliyaga bir necha asr davomida juda ko‘p va dahshatli hujum-lar qilib turdilar. Umuman olganda, daniyaliklar-skandinav-larning Angliyaga qilgan hujumlari kamida 300 yil **(VIII** asrning ikkinchi yarmidan to XI asr o‘rtalarigacha) davom etdi. Juda ko‘p skandinavlar shimoli-sharqiy Angliyaga o‘rnashib olib, bu o‘lkaning taraqqiysiga ta’sir etdi.
838 yilda Ekbert daniyaliklarning Angliyaga qilgan hujum-laridan birini qaytara oldi. Ammo 842 yilda ular orol ichka-risiga yana bostirib kirib, Londonga o‘t qo‘ydilar, 866 yilda esa

shimoli-sharqiy qirg‘oqning hammasini bosib oldilar. Daniyaliklar ancha zich joylashgan bu territoriya butun o‘rta asr davomida Daniyaga qarashli mintaqa degan nom bilan yuritilar edi.

**Alfred Buyukning idora qilishi.**

Korol Alfred Buyuk korollik qilgan davr (871—900) angl-sakslarning daiiyaliklarga qarshi eng qattiq kurash olib borgan momentlaridan biri bo‘ldi. Alfred Buyukdan oldingi korol Etelred I daiiyaliklarga qarshi kurashda halok bo‘ldi. Alfredning o‘zi dastlab dapiyaliklardan janubga qarab qochishga majbur bo‘ldi. Alfred birmuncha vaqtgacha daiiyaliklarga qarshi partizan otryad-lari, tarqoq otryadlar vositasi bilan kurash olib bordi. Faqat keyinroq borib u muntazaad urushga o‘tib, daniyaliklarni Temzaning narigi tomoniga uloqtirib tashlashga muvaffaq bo‘ldi. 879 yilda daniyaliklar bilan sulh tuzildi, bu sulhga binoan mamlakat ikki qismga bo‘lindi: Angliyaning janubi-g‘arbiy qismi angl-sakslarga, shimoli-sharqiy qismi Daniyaliklarga bo‘lib berilgan edi. Daniyaliklarga qarshi kurashishda Alfred qisman eski umumiy xalq lashkarlariga tayandi, qis-*mai* harbiy-feodal tipidagi katta, o‘rtacha va mayda er egalaridan pborat yangi feodal qo‘shinning kuchaytirilishini quvvat-ladp. SHunday qilib, Angliyada ritsarlar vujudga kela boshladi. Bundam tashqari, Llfred daniyaliklarga qarshi juda ko‘p burglar — qal’alar qurib, ularga qo‘riqchi otryadlar qo‘ydi va demgiz qirg‘oq bo‘ylarini daniyaliklar hujumidan qo‘riq-lash uchun dengiz floti qura boshladi. U Angliyada birinchi marta aholidan doimiy soliq olishni joriy qildi, bu soliq «daniyaliklar puli», ya’ni daniyaliklarga qarshi kurashish uchun yig‘pladigan soliq deb ataldi. Frank koroli Karl Buyuk sin-gari, Alfred ham, ilm-ma’rifatga homiylik qildi. Uning o‘zi ham latin tilini yaxshi bilardi. Alfred zamonida ba’zi latin avtorlarining asarlari angl-saks tiliga tarjima qilindi, Korolning buyrug‘i bilan davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan eng muhim voqealarning muntazam yilnomasi tuzib borildi. Savodli kliriklar tayyorlash uchun episkollik kafedralari qoshida yangi maktablar tashkil qilindi.

Alfred Kent, Uesseks va Mersiyaning qadimgi qonunlari-ni — haqiqatlarini — to‘plashni, unga ancha keyin «Alfred haqiqati» komi ostida chiqa-rilgan qonunlarni qo‘shib bitta to‘plam qilib chiqa-rishni buyurdi.

**Kanut Datskiy davlati.**

Daniyaliklarning siquvi Alfred zamonida va uning vorislari zamonida to‘xta-tildi. Alfredning vorislari Londonni qaytarib olib, daniyaliklarni shimo-li-sharq tomonga juda uzoq-qa surib tashladi. Lekin daniyaliklarning hujumi X asrning oxirida — XI asrning Ooshlarida yanada zo‘r berib takrorlandi. Bu safar hujum Skandinaviya-dan (hozirgi Norvegiyadan) boshlanmasdan, balki bevo-sita'Daniyaning o‘zidan bosh-landi. Oradan kup vaqt o‘t-may, Angliya o‘z mustaqilli-gidan butunlay mahrum bo‘ldi, Daniya koroli Kanutga bo‘ysundi. Kanut Datskiy (1017—1035) istilo qilin-gan erlardan juda katta SHimoliy davl-at tuzdi, bu davlatga Daniyaning o‘zi, Norvegiya, SHvetsiya, Angliya va SHotlandiya-kirdi. 'Angliya Daniyaga juda katta so-liqlar to‘lab turishga maj-**bur** bo‘ldi. Ilgari daniyaliklarga qarshi kurashga sarflanib kelgan «daniyaliklar puli» ancha ko‘paytirilib, Daniya koro-liga xiroj tarzida to‘lanadigan bo‘ldi. Daniya zodagonlari Angliyaning janubidan juda ko‘p yangierlar oldi.

Kanut o‘lgandan keyin uning mo‘rt, ko‘p qabilali davlati tez vaqt ichida parchalanib ketdi. Daniya korolining qo‘lida yana birgina Daniya qoldi. Angliyada Eduard Ispovednik (1042—1066) . taxtga chiqib, o‘zining angl-saks dinastiyasini tikladi. Lekin Eduardning hokimiyati kuchsiz edi. Angl-saks zodagonlarining bir qismi daniyaliklarga moyil edi, Eduard boshchiligidagi ikkinchi bir qism zodagonlar fransuz-norman gersogi Vilgelm bilan ittifoq tuzishga harakat qildi. Eduard o‘lgandan keyin zodagonlar mahalliy angl-saks feodali — Uesseks gersogi Gyaoollni koool kilib sayladi. Lekin Vilgelm Normandskiy «Eduard vasiyati»ni pesh qilib, taxtni zo‘rlik bilan olishga qaror qildi. U 1066 yilda juda ko‘p sonli fransuz qo‘shinlari bilan Angliyaga bostirib qirib, Gastings shahriga yaqin bir joyda Garoldni tor^mor qildi. SHundan keyin Vilgelm Londonga yo‘l oldi va u erda 1066 yil 25 dekabrda Angliya koroli deb e’lon qilindi. Bu voqea Angliya tarixida angl-saks davrining nihoyasi, deb hisoblanadi.

**Angl-sakslarning shtimoiy tuzumi. Feodallashuv protsessi.**

Ilk angl-saks korolliklarining ijtimoiy tuzumida uzoq vaqt saqlanib kelgan urug‘chilik munosabatlarining yaqqol alomat-lari ko‘rinib turar edi. Juda ko‘pdan-ko‘p «haqiqat»larga, ya’ni VII—VIII asrlardagi turli angl-saks korollarining qonunlar to‘plamlariga asoslanib, angl-sakslarning ijtimoiy tuzumini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin: ularning ijtimoiy tuzumi ko‘p jihatdan franklarning «Sali Haqiqa-ti»da tasvirlangan ijtimoiy tuzumiga o‘xshar edi. Franklar-dagi singari, angl-sakslarda ham aholining asosiy ommasi (angl-saks «haqiqatlari»da ishlatilgan termin bilan aytgan-da) erkin kishilardan — kyorllar^dan iborat edi. Bular mustaqil dehqonlar bo‘lib, g a y d a deb atalgan katta-katta er uchastkalariga ega edilar (ba’zi korolliklarda har bir kyorl oilasiga tegishli katta chek erning miqdori 120 akr yoki biz-ning hisobimizcha 50 gektar kelar edi). Kyorlning vergeldi 200 shilling edi. Zodagon kishining — e r l ning vergeldi esa dast-lab faqat 400 shilling bo‘lgan bo‘lsa, keyincha 600 shillingga, undan keyin yana oshib 1200 shillingga etdi. «Haqiqatlar»da kyorllardan tashqari, yana letlar yoki uil.lar tilga oli-nadi. Bular — o‘z ahvoli jihatidan frank litlariga o‘xshagan yarim erkin kishilar edi. Ularning o‘z eri bo‘lmay, ma’lum majburiyat evaziga erllarning erini ishlab berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling atrofida edi. Letlar Brita-niyaning bo‘ysuidirilgan mahalliy aholisidan kelib chiqqan **deb** taxmin qilinadi[1]. Zodagon angl-sakslarning, erllarning (va hatto ba’zi bir eng boy kyorllarning) qullari ham bo‘lib, bu qullarning bir qismi hovlida xizmat qiladigan qullar edi, bir qismi obrokchi qullar bo‘lib, dehqonchilik bilan shu-g‘ullanar edi.

Angl-saks jamiyatida jamoa va boshqa mahalliy boshqaruv organlari juda ko‘p edi. Bularning asosiysi qishloq — tun edi. Bu qishloq — qishloq jamoasidan iborat bo‘lib, unda er-suv bor edi, muntazam suratda qishloq yig‘ini — galimat chaqi-rilib turardi, saylab qo‘yiladigan qishloq oqsoqoli (tunqe-refa) bo‘lardi. Qishloq jamoalarining vakillari oyda bir marta yuzboshilar majlisiga to‘planardi. YUzboshilar majlis-laridan yuqori o‘rinda har bir graflikning xa^q'majlisi bo‘lib, bu majlislar tarixiy jihatdan qabilaviy korollik lar (folkmot) davridan saq/lanib qolgan edi. Korol vakili — graflikning rasmiy boshlig‘i, sherif— o‘z faoliyatida graf-likning bu kengashi bilan hisoblashib turishi kerak edi, bu keng.ashda mahalliy zodagonlar hal qiluvchi ta’sirga ega edi. Nihoyat, korol huzurida vitenagemot — («donolar kengashi») butun birlashgan korollik zodagonlarining kengashi chaqiri-lib turar edi. Vitenagemot korol hokimiyatini juda ham chek-lab qo‘ygan edi. U, qrnunlarni tasdiqlardi va mamlakatning oliy sud organi edi. Kor^ollarni saylash va biror gunoh qilib qo‘ysa, o‘rnidan tushirish ham vitenagemot qo‘lida edi, u tasdiqlamaea, korolning hech qanaqa in’omi amalga oshmas edi.

VIII va IX asrlarda, ayniqsa X asrda angl-sakslarning patriarxal jamoa tartiblari tobora tushkunlik sari yuz tutdi. Hali kuchli bo‘lgan qishloq jamoasi bilan bir qatorda katta aristokratik er egaligi avj oldi. Korol maxsus yorliqlar berib, erni dunyoviy zodagonlarga va cherkovga xususiy mulk qilib bera boshladi. Odatdagi qonun-qoidalarga asoslangan er mulkiga, ya’ni jamoalarning, dehqonlarning er mulkiga (folklendga) karama-qarshi o‘laroq, matslakatda pomeshchiklar mulkn (bok lend), erga korol yorlig‘i — os yoki ook asosi-da egalik qilish tobora kuchayib bordi, korol erning feodal-larning xususiy mulki bo‘lishini tan olish bilan birga, bo-klend egalariga ko‘pincha yana bir qancha imtiyoz va immunitetlar (mahalliy dehqon aholisini sud qilish va ulardan soliq to‘p-lash huquqi) ham berdi.

Dehqonlarnting chek eri borgan sari maydalanib bordi. Katta dehqon oilasining ilgarigi o‘rtacha chek eri — gayda o‘rniga IX—X asrlarda hamma joyda dehqonlarning miqdor jihatidan ancha oz bo‘lgan yangi chek eri — virgata uchraydi (v i rg a t a — gaydaning to‘rtdan bir qismi).

Daniyaliklarning hujumlari dehqonlarning ahvoliga juda yomon ta’sir qildi. Daniyaliklar o‘z hujumlari vaqtida dehqonlarning xo‘jaligini butunlay vayron -qilardilar. Dehqon-lar burglar, ko‘priklar va yo‘llar qurish, lashkarlar safida turib qo‘riqchilik qilish va harbiy xizmatni o‘t'ash uchun juda ko‘p vaqt sarflashga majbur edilar. Tobora ortib borgan «daniyaliklar puli»ni ham shu dehqonlar to‘lardilar, bu «daniyaliklar puli» — har bir chek erga solinardi. Nihoyat, daniyalik-larga qarshi olib borilgan uzluksiz urushlar vaqtida juda ko‘p ritsarlar vujudga kelib, bularni ta’minlash ham shu dehqonlar ustiga tushardi. Ilgarigi korol drujinalari — gezit-larning o‘rnini olgan korol tanlari harbiy-feodal tipidagi er egalariga aylanib bordilar.

Zaiflashib qolgan dehqon jamoalari zodagonlarning ho-miyligiga o‘tishga majbur bo‘ldilar. Angliyada kommendatsiya Etelstan 930 yilda har bir erkin kishiga uzi uchun bir xo‘jayin (angl-sakscha «lorda termin fransuzcha «senor» degan terminga to‘g‘ri keladi G *rl* pib olishni buyurdi. Dehqonlarning o‘z yonidagi katta er egasiga sultan qaramligini davlat hokimiyati iymunitet tarzida pas-miilashtirdi. Korol katta er egalariga o‘z atrofidagi aholini *sua* qilish va undan tegishli sud bojlari olish huquqini ber di. Bunday xususiy sud qilish huquqi soka deb, xususiy sud qilingan dehqonlar sokmenlar deb atalardi.

Erdor lordlar manorlar (bu so‘z ham angl-sakslar vaqti-da paydo bo‘ldi) deb atalgan o‘z pomestelarida qisman qullar mehnatini, qisman esa krepostnoylar mehnatini ekspluatatsiya qilardilar. 1000 yilga oid bir manbada[1] dehqonlarnyng turli gruppalari tasvirlanadi, lekin ilgarigi kyo'rll'ar degan nom o‘rniga endi bu hujjatda genitlar va geburla,r degan yangi nomlar ishlatiladi; genitlar xususiy er egasi bo‘lib, qisman korolga, qisman yonidagi lordlarga soliqyaar to‘lab turuvchi , erkin dehqonlar edi, geburlar. esa o‘z eri bo‘lmay, pomesh-chiklarning erida dehqonchilik qilib, unga yil bo‘yi har haf-tada uch-to‘rt kun juda og‘ir barshchina o‘tab beruvchi va bundan tashqari, lo'rdga mol, galla, pul shaklida turli xil soliqlar to‘lab turuvchi dehqonlar edi. Qam erli dehqonlarning yana bir gruppasi k a s set l a r (kotterlar) tilga olinadi, bularning kichik bir parcha erlari va kulbalari bo‘lib, bular evaziga uncha kattr bo‘lmagan barshchina majburiyatini o‘tar edilar.

Biroq angl-sakslarda feodallashuv protsessi normanlar istilosi vaqtida tugallanmagan edi. Dehqonlarning loaqal yarmi hali erkin jamoa a’zosi bo‘lib, ularning lordlar' bilan bo‘lgan munosabati hali butunlay krepostnoylik munosabatla-ri tusini olmagan edi, balki homiylik munosabatlarigina edi. Hatto krepostnoylashtirilgan chgeburlarning ahvoli ham juda turlicha edi, har manorda har xil edi. Bir qancha joylarda ular qaram kishilarga o‘xshar edi,. lekin ular chinakam krepostnoylik holatida emas edi.-SHimoli-sharqiy Angliyada, daniya-liklar o‘rnashgan mintaqada erkin .' dehqonlar («erkin kishi-lar») haLi juda ko‘p,edi. • Skandinavlar jamiyatining ancha keyin taraqqiy qilishi, sharqyy Angliyadagi daniyalikchskandi-naviyalik aholida urug‘chilik tuzumi elementlarining saqlanyb qolishi natijasida shunday hol yuz berdiki, hatto janubi-sharqdagi angl-saks dehqonlari ilgarigi erkinlik va musta-qilligidan butunlay mahrum bo‘lgan bir vaqtda ham, «daniyaliklar mintaqasi» dagi dehqonlar o‘z mustaqilligini birmuncha saqlab qoldi.

**Asosiy adabiyotlar:**

6. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .

МГУ. 2001.

4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.

5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: Ilk o’rta asrlarda Germaniya ( 2 soat)

**Reja:**

1. **X-XI asrlarda germaniyada feodal munosabatlarining rivojlanishi**
2. **Saksoniyaliklar sulolasisining idora etila boshlanishi**
3. **Italiyaga qilingan yurishlar va germaniya imperiyasining tashkil topishi**
4. **Papalar va imperatorlarning o’zaro kurashi.**

843 yilda Verdenda bo‘lgan taqsimotga muvofiq «Sharqiy Frank erlari» (bo‘lgusi Germaniya territoriyasi nazarda tutil-gan edi) Lyudovik Nemista (yoki nemischa, Lyudvigga) o‘tdi. As-lida bu erlar bir necha qabilaviy knyazliklarning — gersoglik-
larning erlari edi. Mamlakatning hech qanday milliy birligi to‘g‘risida u vaqtda so‘z ham bo‘lishi mumjin emasdi. Gersogliklar shimoldan-janubga qarab quyidagi tartibda joylashgan edi: Saksoniya, Frankoniya, Shvabiya (ilgarigi Allemaniya), Bavariya. Birmuncha keyinroq borib g‘arbda joylashgan beshinchi bir gersoglik — Lotaringiya qo‘shib olindi.

Feodallashuv protsessi. Reynning narigi tomonidagi erlar-da feodallashuv protsessi Fransiyadagiga qaraganda sustroq bo‘ldi. Hatto X asrning boshlarida ham Germaniya, u qadar feo-dallashmagan edi. Jamoalarga — markalarga uyushgan erkin dehqonlar ueoq vaqtgacha o‘z mustaqilliklarini saqlab keldi-lar. Krepostnoylashtirish yo‘lidagi urinishlarga dehqonlar katta qo‘zg‘olonlar ko‘tarish bilan javob berdilar. SHunday kat-ta qo‘zg‘olonlardan biri, masalan, 841—842 yillarda Saksoniya-da bo‘lib, u «Stelling» degan nom bilan mashhurdir. Bu qo‘zg‘o-lon dehqon jamoalarining ittifoqi bo‘lib, bu ittifoq eski majusiylik bayrog‘i ostida ish kurgan edi, bu ittifoq ham kel-gindi frank zodagonlariga, ham mahalliy saks zodagonlariga qarshi qaratilgan edi.
Rim ta’sirini o‘tkazishning, jumladan, xususiy mulkchilik-ning va erga birkitib qo‘yib shaxsiy qaram qiliщning yangi for-malarini kiritish Reynning narigi tomonida ancha sekin amalga oshirilmoqda edi. Biroq X va XI asrlarda bu erda ham feodallashuv ancha muvaffaqiyat qozondi. Marka, ya’ni jamoa tushkun-likka yuz tutdi. Katta dunyoviy va cherkov er egalari tobora kup erni o‘z qo‘liga ola bordi. Dehqonlarning ilgarigi chek erlari— gufa — maydalanib bordi. Xususiy mulkchilikning rivoj-lanishi orqasida er qo‘ldan-qo‘lga o‘ta boshladi. Dehqonlarning bir qismi o‘z eridan ajrab feodal er egalariga qaram bo‘lib qoldi. Kommendatsiya, ya’ni o‘zini qudratli qo‘shnisining, yirik er egasining homiyligiga topshirishi, imunitet, ya’ni er egasining davlat funksiyalarini olib borishi va birinchi nav-batda tevarak-atrofdagi aholini sud qilishi, Reyn bo‘yidagi cherkov erlarida (asosan Frankoniyada) juda ham avj olib ketgan prekariylik munosabatlari X—XI asrlarda Reynning narigi tomonida tobora tez-tez uchraydigan bo‘ldi. Bu protsess-larning hammasi shuni ko‘rsatadiki, yuz-<ikki yuz yil ilgari g‘arbiy Frank davlatida feodal munosabatlar qanday avj olgan bo‘lsa, Germaniyada ham, garchi kechikib bo‘lsa-da, shunday avj oldi. Germaniyada katta er egaligining avj olishida korol xazinasiga qarashli erlarning talon-toroj qilinishi katta rol o‘ynadi, Karolinglarning keyingi kuchsiz krrollari bu erlarni o‘z qo‘llarida saqlab hololmadi. SHu bilan bir vaqtda, german feodallarining sharqda slavyanlar va vengrlar-ga qarshi, janubda Italiyaga harshi olib borayotgan urushlari kengaygan sari, Germaniyada ritsarlik ham tobora zo‘r berib av k oldi. Faqat zodagonlar xonadonlarining kichik a’zolari, faqat mayщa pomesteli dvoryan tipidagi er egalarigina emas, **balki** ot va boshqa harbiy anjomlar topishga qurbi etadigan eng to‘q erknn dehhonlar ham ritsarlarga aylandi. Nemis ritsarlari sostaviga hatto ministeriallar deb ataladigan kishilarning, ya’ni hovli xizmatkorlarining, erksiz xizmatkorlarning bir qismi (bu ministeriallar xo‘jayinlari bilan birga urushga borib, ularga aslahador bo‘lib xizmat qilardilar), hatto ma-laylar ham kiritildi. **XII** asrdayoq Germaniyada ritsarlar «zoti ulug‘» va «zoti past» ritsarlarga (Edelritter va Knechtritter) ajratilgan edi. FahatDSH asrdagina ritsarlarning ikkala xili bir-biriga batomom ho‘shilib ketib, yagona ritsarlarga ay-lavdi.

Germaniyada feodal munosabatlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida cherkov erlarida tashkil topgats fogt deb ataladigan er egaligining keng tarhalganligini ko‘rsatib o‘tish kerak. Dastlab f o g t l a r cherkovda xizmat qilar, u erda harbiy va sudyalik vazifalarini ado etar edilar (advocati ecclesiae) va buning evaziga cherkov erlarining bir qismini foydalanish uchun olar edilar. Keyinchalik bu erlar nasldan-naslga o‘tadigan feodal erlariga aylandilar, fogtlar-ning o‘zlari esa haqiqiy feodal bo‘lib qoldilar.

Eng katta feodallar — gersoglar (qabilalarning feodal-lashgan knyazlari) va graflar (korolning feodallashgan amal-dorlari) feodal tarqohlik namoyandalari edi. Ular korol hokimiyatining zaiflashuvidan manfaatdor edilar. Natijada ular shunga erishdilarki, tez vaqt ichida, X asrning boshlarida Qarolinglar Germaniyada hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay

^oldilar. Lekin Germaniyada X asr o‘rtalarida korol hokimiya-ti kuchaya boshladi. Buning sababi shu ediki, bir tomondan, eng kuchli gersoglardan biri korol bo‘lib oldi, uning gersoglik territoriyasi korol hokimiyatining ahamiyatini yanada oshirish uchun ma’lum bir moddiy baza bo‘lib xizmat qildi. Ikkinchi tomondan, X—XIII asrlarda german feodallari tomonidan uzok, vaqt olib borilgan uzluksiz va katta bosqinchilik urushlari natijasida Germaniyada korol hokimiyati ma’lum davrgacha kuchayib bordi.

Urushlar feodallar kuchini ma’lum darajada birlashtirish-ni talab qilar edi. Korol esa ularga feodallar lashkarining sarkardasi sifatida zarur edi. Bu narsa ularni korolga bo‘y-sunishga majbur qilardi. Nihoyat ritsarlarning siyosiy rolini ham e’tiborga olish kerak. Ritsarlar tobora ko‘payib, soslovie bo‘lib uyushib borgan sari korol hokimiyati katta feodallar bilan to‘qnashuvda ritsarlarga tayana olardi. Xalq ommasini tutqunlikka solish davom etib borayotgan sharoitda korol hokimiyati xalh harakatiga, dehqonlar harakatiga qarshi tayanch sifatida feodallarnipg hammasiga ham —kattasiga ham, kichi-gig'a ham zarur edi.

**Saksoniyaliklar dinastiyasining idora etila boshlanishi.**

919 yilda feodal zodagonlar Saksoniya gersogi Genrix I Qushbozni korol qilib sayladi. U saksoniyaliklar dinastiyasiga asos soldi, bu dinastiya 1024 yilgacha idora qildi. Genrix I zamonida (919-^936)' Germaniyada korol hokymiyati juda avj oldi. Saksoniya gersogligi eng katta gersoglik bo‘lib, Germa-niyaning butun shimoliy qismini egallar edi. Bu erda erkin dehqonlar (frilinglar yoki freymanlar) anchagina saqlanib qolgan bo‘lib, bulardan qisman otliq, qisman piyoda harbiy lashkarlar tuzildi. SHu tufayli Saksoniya gersogligi boshqa gersogliklarga nisbatan 'ancha mustaqil gersoglik edi. Genrix I keng miqyosda agressiv tashqi siyosat yurita boshladi. Genrix I zamonida Germaniya territoriyasi g‘arbga va sharqqa qarab ken-gaytirildi. Fransuz Karolinglarining zaifligidan foydala-nib, Genrix I ulardan Lotaringiyani tortib oldi. SHarqda esa u, Elba daryosi bo‘yida .yashagan g‘arbiy slavyanlarga qarshi agressiya boshladi. Genrix I Elbadan o‘tib, slavyan qabilalari bo‘l-mish lyutichlar eriga bostirib kirdi. Nemislar slavyanlarning Branibor nomli qal’asini bosib oldi va unga Brandenburg deb nom berildi. Elbaning narigi yog‘idagi bosib olingan er-lar nemislarning yanada sharqqa tomon hujum qilishi (Dranq nach Osten) uchun platsdarm bo‘ldi. SHunday qilib, Genrix I nemislar tomonidan slavyanlar olamiga qarshi olib borilgan qonli urushlar davrini boshlab berdi. Genrix I sharqda sla-vyanlardan tashqari yana vengrlarga qarshi ham urush olib bordi. 933 yilda u, Merzeburgga yaqin bir joyda vengrlarga qattiq zarba berdi. Slavyanlarga va vengrlarga qarshi kurash vaqtida Genrix I erkin dehqonlarning yuqori tabaqalaridan, qisman ministeriallardan olinadigan ritsarlar sonini ko‘paytirishga harakat qildi. Mudofaaning ikkinchi bir vositasi sifatida, u juda ko‘p qal’alar—burglar (ayniqsa, Saksoniya gersogligi territoriyaoida) qurdirdi; bu qal’alarning bir qismi keyincha savdo-sanoat shaharlariga aylandi.

Otton I ning idora qilishi. Genrix I ning o‘g‘li Otgon I (936—973) korol hokimiyatini mustahkamlashni davom ettirdi. U, dastavval boshqa gersoglar ustidan. nazoratni kuchaytirdi, buning uchun nikoh va boshqa qarindoshlik aloQalaridan foy-dalandi. Korol ta’sirini butun mamlakatga yoyishning ikkinchi bir usuli episkoplik sistemasi bo‘ldi. Otton cherkov bilan do‘stona aloqa bog‘ladi. U episkoplarga keng miqyosda immunitet huquqlar berdi va ularga juda ko‘plab er ulashdi. SHu bilan birga episkoplarni ham uning o‘zi tayinlardi. CHerkov erlari-dan keladigan daromadlardan korol xazinasiga ko‘pdan-ko‘p hissalar ajratildi. SHunday qilib, Germaniyada cherkov man-faatlari bilan davlat manfaatlari bir-biriga chatishib ketdi. Germaniyaning turli oblastlaridagi episkoplar mahalliy knyaz-larga — gersoglarga e’tibor bermay, bevosita korolga bo‘ysun-dilar. SHu bilan bir vaqtda episkoplarning korolga tobe-ligi ularning Rim papasiga deyarli bo‘ysunmay qo‘yishiga olib keldi.

Otton I otasining agressiv tashqi siyosatini davom ettirdi. Otton I zamonida Elbaning narigi tomonidagi slavyanlarga qarshi kurash yanada kuchli suratda davom etdi. Elbaning narigi tomoniga nemis qolonistlari ko‘chib kelib o‘rnasha boshladi. Slavyanlarni majburiy suratda xristianlashtira boshladilar. Ularning eng yaxshi erlarini tortib olib, kolonist-nemislarga berar edilar. Ba’zan esa hatto nemis feodallari bilan tidch munosabat o‘rnatishga moyil bo‘lgan slavyanlarni ham qirib tashlardilar. Masalan, 955 yilda markgraf Geron slavyanlarning 30 ga

yaqin knyazini o‘z huzuriga «ziyofat»ga chaqirib, shu erda buyruq berib ularning hammasini o‘ldirtirib yubordi.
Otton I vengrlarga qarshi kurashni davom ettirdi. U 955 yilda Lexa daryosi bo‘yida (Augsburgga yaqin bir joyda) vengrlarga yana zarba berishga muvaffaq bo‘ldi. SHundan keyin vengr-lar Germaniya erlariga hujum qilishni to‘xtatdilar. Ular xristianlikni qabul qila boshladilar va nemislarning ta’si-riga o‘ta boshladilar, keyinchalik vengr feodallari nemislarning slavyanlarga qarshi olib borgan kurashida bir necha marta nemislarga ittifoqchi bo‘ldilar.

Lekin Otton asosiy e’tiborini sharqqa emas, balki Italiya-ning janubiga qaratdi, chunki Italiya german imperatorlari-ning «dunyoga hokim bo‘lish» rejalarida asosiy o‘rin tutar edi.

**ITALIYAGA QILINGAN YURISHLAR VA GERMANIYA IMPERIYASINING TASHKIL TOPISHI.**

Italiyada feodal munosabatlar rivojlanishining xususiyat-Lari. Italiya X asrda ancha feodallashgan edi. Bu erda feodal-lashish protsessi Germaniyadagiga qaraganda ancha ilgarilab gatdi. Italiyada feodal munosabatlar juda boshqacha bir tarz-da o‘ziga xos xususiyatlar bilan boshlandi. Langobardlar o‘z davrida Italiyadagi quldorlik tuzumini uzil-kesil tugatgan-ligi SHimoliy va Urta Italiya dehqonlarining ahvoliga ijo-biy ta’sir ko‘rsatdi. Bu erda dehqonlar borib-borib asoratga solingan bo‘lsalar-da, har holda bu erdagi krepostnoylik u qa-dar qattiq bo‘lmadi; jumladan, bu hol shu narsada o‘z ifodasini topgan ediki, dehqonlarning majburiyatlari ilgarigidek o‘zbo-shimchalik bilan bo‘lmasdan, balki aniq bir normaga solingan edi. Ikkinchi tomondan, Italiyada shaharlar ancha erta rivoj-lana boshlaganligi sababli krepostnoy dehqonlar shaharlarga ketishi, natural majburiyatni pul bilan muddatidan ilgari to‘lashi, erkini sotib olishi mumkin edi va hokazolar. Italiyada krepostnoy dehqonlar bilan bir qatorda krepostnoy bo‘lma-gan, lekin eridan mahrum qilingan dehqonlar ko‘p edi. Bu dehqonlar feodallarning erlarini ma’lum muddatga er egasi bilan maxsus tuzilgan yozma shartnoma — kontrakt (ular libel-larlar deb atalardi ham)da ko‘rsatilgan shartlar bilan ijaUmuman, Italiya qishlog‘i o‘rta asrning bu ilk davrida biqiq bo‘lmay, balki shaharlar bilan aloqa qilib turar, u erlarga turli xildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari etkazib berar edi, aholisi esa vaqt-vaqti bilan shaharlarga ko‘chib kelar edi.
Italiya feodallari ham o‘ziga xos bir ahvolda edi. SHaharlar rivojlanib borayotgan bir sharoitda feodallarning bir qismi shaharlarga ko‘chib,. borib, shaharliklarning ta’siriga berilib ketar edi, shaharda yashab turgan ritsarlar asta-sekin shaharliklar bilan chatishib ketdi. Italiyaning yirik dunyoviy feodallari — gersoglari, graflari, baronlari — juda ko‘pchi-likni tashkil etar edi. Italiyada feodal munosabatlarning juda erta rivojlanishi ularni hozirning o‘zidayoq markazii korol hokimiyatidan mustaqil qilib qo‘ydi. X asrda Karoling-lar hokimiyati o‘z ahamiyatini butunlay yo‘qotdi. Yirik feodal-lar mustaqil bo‘lib olib, muttasil o‘zaro urushlar bilan band bo‘lib qolgan edilar, bu urushlardan maqsad — ancha katta shaharlar va mamlakatning eng muhim savdo yo‘llari ustidan o‘z hukmronliklarini o‘rnatish edi.
Biroq Italiyada cherkov feodallari: papalar, arxiepiskop-lar Va episkoplar hamda monaetirlar juda ham ko‘p edi. Bu narsa dunyoviy zodagonlarni ruhoniy feodallarga ham qarshi kurash olib borishga majbur qilar edi> dunyoviy feodallarga qaraganda korporatsiya sifatida ancha uyushgan cherkov feodallari ham butun mamlakat ustidan o‘z pazoratini saqlabdolish-ga intilar edilar. SHunday qilib, X asr o‘rtalarida Italiyada juda xilma-xil va keskin sotsial ziddiyatlar yuz bermoqda edi, bu hol uning siyosiy tuzumiga ham ta’sir qilmoqda edi,

Italiya X asrda siyosiy jihatdan Evropada eng tarqoq bir mamlakat edi, desa bo‘ladi. U juda ko‘p mustaqil gersoglik, markizlik graflik va episkopliklarga bo‘linib ketgan edi. Urta Italiyadagi papa davlati ham feodallashgan edi. Papalik taxti har turli rimlik aristokratiya xonadonlari o‘rtasidagi nayranglar va qonli urushlarga sabab bo‘lmoqda edi. Italiya janubiy territoriyasining bir qismi hali Vizantiyaga qarar edi, bir qismini esa arablar bosib olgan edi. Biroq Italiya siyosiy jihatdan shunday tarqoq bo‘lishiga qaramasdan, mamla-katda shahar hayoti zo‘r berib taraqqiy etmoqda edi. Italiya shaharlari hali ham Urta dengizda vizantiyaliklar va arablar bilan savdo qilar edi. SHaharlarda turli xildagi hunarlar rivojlanmoqda edi. X asrda savdo va shaharlarning ahamiyati hali juda kam bo‘lgan Germaniyaga nisbatan Italiya german

feodallariga juda katta boyliklarga ega bo‘lgan, zeb-ziynatli va farovon mamlakat bo‘lib ko‘rinar edi.

**Otgon I ning Italiyaga yurishi. Imperyyaning qayta tiklanishi.** SHimoliy Italiya fsodallarining o‘zaro urush-janjalla-riga aralashib, Optom I Italiyaga 951 yilda qo‘shin tortib bor-di. U Paviya shahripm oldi, shimoliy Italiya knyazlaridan bir nechtasini tor-mor qilib, Provans bilan Italiya koroli Lotarning beva qolgan xotini — korolicha Adelgeydaga uylandi. Ger-maniyaning shimoliy Italiyaga ta’siri va german korollari-inR Italiya siyosati deb atalmish siyosati ana shundan boshlandi.

961 yilda Otton Italiyaga yana yurish qildi. Bu safar Otton-ni yigirma ikki yoshli papa Ioann XII yordamga chaqirgan edi, bu papaga uning o‘z vassallari —rim baronlari xavf solayotgan edi. Qarl Buyuk o‘lgandan keyin kuchaygan va IX asrning o‘rtalarida diniy hokimiyatni dunyoviy hokimiyatdan ustun turadi[1] degan nazariyani ko‘tarib chiqqan papalikning o‘zi zndn Italiyada feo-dallashuv protsessining yanada kuchayishi munosabati bilan qat-tiq krizisga uchrab, korol hokimiyatining yordamiga muhtoj bo‘lib qolgan edi. Otton I Rim feodallarini bostirib, papani taxtga o‘tqazdi. Bunga minnatdorlik bildirib, papa 962 yilning boshida Ottonga imperatorlik tojini kiygizdi. SHunday qilib, yangi «imperiya tiklandi». SHu narsa xarakterliki, ilgari Karl Buyuk bo‘lgani singari, bu safar ham Otton Rim imperatori deb e’lon qilindi (ilgari Karl Buyuk ham Rim imperatori deb e’lon qilingan edi). YAngi imperiyaga «Muqaddas Rim im-periyasi» deb nom berildi. Faqat keyinroq borib, XII asrdagina bu iboraga ikki so‘z qo‘shilib, «German millatining muqaddas Rim imperiyasi»[2] deb ataladigan bo‘ldi.

Deyarli butun Italiya ustidan nazorat qilish huquqini bera-digan imperatorlik unvonining qabul qilinishini Otton va uning atrofidagilar eng katta g‘alaba deb hisobladilar. Haqi-qatda esa german korollarining Italiyadagi siyosatida chuqur ziddiyatlar bor edi. Italiyada nemis feodallariga juda ham nafrat bilan qarar edilar. 964 yilda imperator Italiyada yo‘q vaqtida vafot etgan Ioann XII o‘rniga Otton tomonidan tayin-langan yangi papani tanishdan Rim bosh tortdi. Keyingi yili Otton yana Italiyaga kelganda Rimni qattiq hujum bilan zo‘rg‘a oldi. «Abadiy shahar»ning tevarak-atrofi va butun Rim oblasti juda qattiq talanib, xarobazorga aylantirildi. Italiya yil-nomachilaridan biri bu voqeani quyidagicha tasvirladi: «SHo‘-ring qursin, Rim. Qancha-qancha xalqlar seni oyoq osti qilib, ezib keldi. Endi senga sakson koroli ega bo‘lib oldi. Farzand-laring qilich zarbalaridan halok bo‘ldi. Kuch-quvvating ko‘kka sovurildi. Oltin, kumushlaringni ajnabiylar hamyoniga solib olib ketmoqda». SHu bilan bir vaqtda Vizantiya bilan arablar ham yangi imperatorga qarshi edi, ular o‘zlarnning Italiyadagi ta’sirini yangi kelgindilarga berib qo‘yishni istamas edilar. Ugli Otton II ni Vizantiya malikasi Feofaniyaga uylantirib, Otton I Vizantiya bilan bo‘lgan munosabatlarini birmuncha vaqt-gacha yaxshilab olishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin arablar bilan bo‘lgan munosabatlar esa qattiq urush chiqish xavfini solar-diki, bunga tayyorlanish kerak edi. SHunday qilib, imperator Italiya bilan tamomila ovora bo‘lib krlib, Germaniyaning ichki ishlaridan ancha chetlashib qoldi. Otton I o‘z korolligining oxirgi bir necha yilini hech qayoqqa chiqmasdan Italiyaning o‘zida o‘tkazishga majbur bo‘ldi.

X asr oxiri — XI asr boshlarida Germaniya va Italiya. Otton I ning o‘g‘li bilan*nevarasi — Otton II ham, Otton III ham butunlay Italiyadagi siyosat bilan band bo‘ldi. Otton II janub-ni qo‘lga kiritishga harakat qildi. U Neapol bilan Tarentni bosib oldi. Lekin pirovard-oqibatda 983 yilgi arablar bilan bo‘lgan dengiz janglaridan birida mag‘lubiyatga uchradi, ora-dan ko‘p o‘tmay, Ravennada yosh o‘lib ketdi. Otasi o‘lganda Otton III uch yoshli bola edi. Onasi imperatritsa Feofaniya regent bo‘lib idora qila boshladi. Lekin uning obrusi yaxshi emas edi. Imperator-korol hokimiyatining zaiflashganligidan foyda-lanib, german gersoglari o‘z knyazliklarini butunlay mustaqil hokimlar sifatida idora qila boshladilar.

Germanlarning asosiy kuchi janubga ketganligidan foydala-nib, 983 yilda polab slavyanlari — bodrichlar bilan lyutich-lar — german feodallariga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Undan keyingi yillarda ular nemislarni yana Elba daryosining na-rigi tomoniga (bunga lujichanlar territoriyasi kirmaydi) butunlay surib chiqardilar. SHu bilan -nemislarning «sharqqa tazyiq qilishi» deyarli yuz ellik yilgacha to‘xtatib qo‘yildi.

Lekin Italiyada ham german feodallarining ahvoli uncha yaxshi emas edi. Dengiz vositalari etishmasligi sababli arab-larga qarshi hujumdan voz kechishga to‘g‘ri keldi. Italiya aholisi chet ellshklarning hokimiyatiga dushmanlik nazari bilan qarar edi. 997 yilda Rimda Otton III ga qarshi juda katta fitna o‘yushtirildi.

Fitna fosh etildi va asosiy fitnachilar qatl qilindi. 1001 yilda Otton III o‘zining asosiy rezidensiyasi Rimda butunlay qolish uchun Germaniyadan Italiyaga keldi. Biroq rimliklar unga qarshi bosh ko‘tarib chiqdilar va imperator saroyini qamal qildilar. SHundan keyin Otton III Rimda qolishdan qo‘rqib, Ravennaga ko‘chib bordi, oradan ko‘p o‘tmay (1002 y.) vafot etdi. SHunday qilib, Otton III ning buyuk davlatchilik plani tamoman barbod bo‘ldi. Saksoniya dinastiyasiga mansub bo‘lgan oxirgi imperator Genrix II (1002—1024) ancha ehtiyotkorlik bilan siyosat yurgizdi. U Italiyadagi katta feodallar va shaharliklarning o‘ziga vassal qaramligi bilan kifoyalandi. Uzi esa Germaniyada yashab, har turli yon berishlar bilan german gersoglarini o‘ziga itoat ettirishga harakat qildi.

Frankoniya dinastiyasining idora qilinishi. 1024—1125 yil-lar davrida Germaniyada ikkinchi bir mahalliy dinastiya — Frankoniya gersoglari diiastiyasi idora qildi. Frankoniya Sak-soniyadan keyin ikkinchi o‘ripda turgan eng katta gersoglik bo’lib, unda ruhoniylar, episkoplar va monastirlarning juda ko‘p erlari, ko‘pdan-ko‘p reynlik ritsarlar, savdo ahamiyatiga ega bo‘la boshlagan juda ko‘p Reyn bo‘yi shaharlari, bor edi. Dastlabki vakillari Konrad II (1024—1039) va Genrix III (1039—1056) bo‘lgan yangi dinastiya dastavval ritsarlarga suyandi. Konrad II imperator ritsarlari sonini ko‘paytirishga ayniqsa qattiq harakat qildi, bu ritsarlar lenlarni (ritsarlarga beriladigan chek erlarni) bevosita korolning o‘zidan olar edi-lar.

Konrad II yana qonun chiqarib, ritsar feodallarini nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tadigan qilib qo‘ydi. Italiyaning yirik feodallariga qarshi kurashda Italiya ritsarlari-vavassorlarni korol tomoniga og‘dirib olish maqsadida Konrad II bu qo'nunni dastlab 1037 yilda Italiya uchun chiqargan edi. So‘ngra, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, bu yangi qonun Germaniyagaham tatbiq qilindi. 1034 yilda Konrad janubda Son va Rona daryolari havzasidagi butun boщliq Burgundiya korolligini[1], shuningdek Provansni qo‘shib olishga muvaffaq bo‘ldi (Germaniyaning Provansdagi ta’siri Otton I Provans korolichasi Adelgeydaga uylangan vaqt-dan boshlangan edi). Genrix III CHexiya knyazi slavyan Brjetislavni o‘ziga vassal tarzida qaram qilib oldi (1041). U Polsha bilan Vengriyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Germaniyada Frankoniya erlaridan tashqari, imperator Bavariya va SHvabiya gersoglarini hamda janubi-sharqda yangi bir gersoglikni — Karintiyani ham bevosita nazorat qilar edi. Faqat Saksoniya, Lotaringiya va Burgundiyagina ilgarigi avtonomiyalik holatini saqlab qol-gan edi. Biroq Genrix III Saksoniya gersogligi ustidan nazorat o‘rnatishga intilib, bu gersoglikda ham mustahkam korol qasrlari qurdi. Genrix III ko‘payib borayotgan ritsarlarga tayanish bilan birga, o‘z ittifoqchisi bo‘lgan cherkav xizmatlaridan foy-dalanishni ham davom ettirdi. Papalarni ham uning o‘zi tayin-lardi va shu bilan birga, papalar ko‘pincha nemis episkoplari-danbo‘lardi.

Lekin Frankoniya dinastiyasi idora qila boshlagan davrda imp^iiyaning yuksalishi va markazlashtirish sohasida erishil-gan ba’zi muvaffaqiyatlar dunyoviy va ruhoniy zodagonlar o‘r-tasidagi kurash natijasida barbod bo‘ldi. Genrix III ning o‘g‘li— Genrix IV zamonida (1056—1106) imperator bilan papalar o‘rtasida uzoq davom etgan qattiq kurash boshlandi, bu kurash german feodallarining Italiyadagi bosqinchilik avan-tyuralari natijasida og‘irlashib ketdi va bu hol oqibat-nati-jada imperator hokimiyatini zaiflashtirib yubordi.

**PAPALAR VA IMPERATORLARNING INVESTITURA UCHUN KURASHI Klyuniychilik harakati va Grigoriy VII reformalari.**

XI asr-ning o‘rtalarida katolik cherkovi alohida bir holatda edi. Bir tomondan, bu vaqtda cherkov o‘z ta’siriny butun G‘arbiy Evro-paga yoygan edi. XI asrda Skandinaviya xalqlari, Vengriya, Polsha xristianlikni uzil-^kesil qabul qildi; Pirenei yarim orolining anchagina qismi'kusulmon-arablarning hukmronligi-dan xalos bo‘lgan edi. CHerkovning Evropadagi turli mamlakat-larda juda ko‘p erlari bor edi. Uni bir markazdan turib Rim papasi boshqarar edi. Katolik cherkovining ideologlari IX asr-dayoq, cherkov (papa) 'hsjimiyati dunyoviy hokimiyatdan (imperator va korol hokimiyatidan) yuqori turadi, deb ochiqdan-ochiq bayon

qilgan edilar. Birok, haqiqatda esa papalik bunday hokimiyatga ega emas edi. Papalar odatda Rim ruhoniylari va Rim dunyoviy zodagonlari tomonidan saylanar edi. Papa saylashning qat'iy bir tartib-qoidasi yo'qligi natijasida bu saylovlar uzluksiz o'zaro urushlarga aylanib ketar va bu narsa imperatorlarning Rim kuriyasi[1] ishlariga aralashishiga imkon berar edi. Katolik cherkovining erlari ko'p edi, lekin bu erlar dunyoviy hokimiyat-ning leni deb hisoblanar edi. Germaniyada esa imperatorning dunyoviy vassallari qo'lidagi erlardan ko'ra, cherkov erlari ko'p-roq ilgaerator ixtiyorida edi («Otton I ning episkoplik siste-masi»). Imperator cherkov erlarini davlatga qarashli korol erlarining ko'p turlaridan biri, deb qarar edi.

CHerkov doiralarida bir harakat vujudga kelib, bu harakat yuqorida ko'rsatib o'tilgan ziddiyatlarni hal 'qilishni, papaning cherkov ustidan bo'lgan hokimiyatini kuchaytirishni va cherkovning o'zining dunyoviy hokimiyatdan mustaqilligini oshirishni o'z ol-diga maqsad qilib qo'ydi. Bu kayfiyatlarning ifodachisi Klyu-niy monastirining monaxlari bo'ldi, bu monastir Burgundiyada (Fransiya sostaviga kirgan qismida, Makon shahriga yaqin bir joyda) evg katta monastir edi. Klyuniy monastiri X asrning oxirlaridayoq katta va juda boy monastir edi. XI—XII asr-larda Klyuniy monaxlari Fransiya, Germaniya va Italiyada o'n-la'b yangi monastirlar ochib, alohida bir monastirlar federa-siyasini tuzdilar, bu federatsiya papaning maxsus homiyligi ostnda edi. Klyuniychilardan biri, Gildebrand nomli italyan (toskanalik) bir guruh hamfikrlari bilan birgalikda 25 yil davomida papa kuriyasida bir nechta papa davrida rahbarlik mavqeini egallab keldi. Pirovardida Gildebrandning o'zi papa bo'lib, Grigoriy VII (1073—1085) degan nom oldi. Grigoriy VII har qanaqa kelishishni ham yomon ko'radigan, mustahkam irodali, o'jar fanatik, juda keskin kishi bo'lib, teokratik ideyalarni batamom o'zlashtirib olgan edi. U papalar o'z hukmi bilan korollar va imperatorlarni taxtdan tushirishi mumkii, lekin o'zi (papa) ustidan bu dunyoda hech kim hech qanday hukm chiqara'olmaydi, deb hisoblar edi. Imperatorlar bilan korollar — papaning vassali, papa esa ularga nisbatan senor, ya'ni hukmdor, der edi.

Grigoriy VII bir qancha muhim reformalar o'tkazdi, uning bu reformalari katolitsizmni markazlashtirish va jipslashti-rishga yordam berdi. Hammadan burun uning taklifiga muvofiq 1059 yilda papa saylashning yangi tartibi joriy qilindi. Endi papzlarni kardinallargina[1] saylashi kerak edi, kardinallar papaning go'yo oliy kengashi edi (manbalarda bu kengash ba'zan «Rim cherkovi senata» deb ham yuritilardi). Kardinallarning saylrr. yig'ilishi konklav deb atalar edi. Bu yig'ilish va-ziyatga qarab, Rimda yoki Rimdan tashqarida bo'lishi mumkin edi. YAngi saylov tartibiga ko'ra, imperatorning va dunyoviy zoda-gonlarning papa saylovlarida qatnashuvi mutlaqo mumkin emas edi. Birgina shuning o'ziyoq papalikning dunyoviy hokimiyatni nazar-pisand qilmaganligini ko'rsatadi. Undan keyingi, 1060 yilgi reforma ruhoniylarning o'zini intizomga solysh maqsa-dida o'tkazildi. Grigoriy VII dekret chiqarib, selibat joriy qildi, ya'ni barcha ruhoniylarning qora ruhoniylarning (mo-' naxlarning) ham, oq ruhoniylarning ham, ya'ni barcha kishilar-ning, shu jumladan, episkoplarning ham uylanmasligi majbu-riydir, degan tartib joriy qildi. Ruhoniylarning uylanishini takiqlash cherkov erlarini dahlsiz qilib qo'yar edi, chunki uy-langan episkoplar, odatda, mulkini o'z bolalariga qoldirish-ga harakat hilar edilar. Nihoyat, 1075 yilda Grigoriy VII yangi saylangan episkopga yoki abbatga uzuk va hassa shaklida imperator yoki korol tomonidan berilib kelgan dunyoviy invest i tura p i bekor qilish to'g'risida dekret chiqardi. SHu vaqtdan boshlab investiturani — ruhoniylarni vazifaga tayinlash yorlig'ini — faqat papaning o'zigina beradigan bo'ldi.

**Genrix IV ning bosh ko'tarib chiqishi.** Rim cherkovining yuqorida aytib o'tilgan reformalaridan dastlabki ikkitasining amalga oshuviga shu narsa imkon berdiki, bu vaqtda imperator Genrix IV hali yosh edi. Genrix III o'lgan yili u endi 6 yoshga kirgan edi. Imperatorning yoshligidan imperiyadagi knyazlar foydalanib qoldi, natijada Germaniyada XI asrning 50—60-yillarida siyosiy jihatdan to'la tartibsizlik hukm surdi.

SHuning uchun ham papalik uzoq vaqtgacha imperator hokimiya-ti bilan hisoblashmadi. Biroq Rim kuriyasi investituraga oid uchinchi reformaga o'tgan vaqtda, endi balog'atga etgan Genrix IV bunga .qattiq norozilik bildirdi. 1076 yilning boshlarida Vormsda bo'lgan cherkov yig'ilishida (bu yig'ilishga german epis-koplari va zodagonlarining yuqori tabaqalari to'plangan edi) imperatorning talabi bilan Grigoriy VII o'rnidan tushirildi. Grigoriy VII ham bunga javoban

Fransiya va Italiya episkopla-rining Rimda bo‘lgan yig‘ilishida Genrix IV ning o‘zini taxtdan tushirilgan deb e’lon qshshb, uning fuqarolarini sodiqlik to‘g‘-risida avval ichgan qasamlaridan xalos qildi. SHunday qilib, papa bilan imperator o‘r-tasida kurash boshlanib, bu kurash deyarli yarim asr davom etdi.

Saksoniyaliklarning 1073—1075 yillardagi qo‘zg‘oloni. Imperator bilan papa o‘rtasidagi kurashning keskinlashuv sabab-larini tushunish uchun imperatorning o‘zining 70- yillarda Germaniyada olib borgan siyosatini bilib olish kerak. Genrix IV qattiq qo‘l va shuhratparast korol zdi. Otasi Genrix III singa-ri, u ham feodal zodagonlarning o‘zboshimchaligini jilovlashga harakat qildi. Uning davrida korollik — imperatorlik hoki-mnyatining ta’siri Frankoniyadan tashqari, qo‘shni SHvabiyada, shupnngdek, Saksoniyada ham kuchayib bordi. Genrix IV Saksotshni bo‘ysundirishni o‘z oldiga eng birinchi siyosiy vazifa qilib qo‘ydi. U G‘arbiy Saksoniyada yangidan-yangi imperator qasrlari qurishni davvm ettirdi, saroyini shu erga ko‘chirib bordi va bosib olingan mamlakatda qanday xo‘jayinlik qilsa, bu erda ham xuddi shunday xo‘jayinlik qildi. Saksoniyada imperator pomestelarining soni borgan sari ortib bordi (XI asr-ning oxirida imperatorning Frankoniyadagi erlarida qancha po-mestesi bo‘lsa, Saksoniyada ham shuncha pomestesi bor zdi desa bo‘ladi). Imperator Saksoniyaning boy o‘rmonlarini tortib olib, o‘z mulkiga aylantira boshladi. Ancha qismi hali erkin bo‘lgan sakson dehqonlariga juda og‘ir imperator solig‘i (census) solindi. Imperatorga qarashli imenielarni boshqaruvchi ministeriallar dehqonlarning jamoa er-suvlaridan foydala-nishii qiyinlashtirib qo‘ydi. Biror sabab bilan o‘z eridai ajragan erkin dehqonlarning — freymanlarning bir qismi qa-ram kishilarga yoki hatto — «franklar» va «shvablar» uchun barshchina majburiyati o‘tashga majbur bo‘lgan krepostnoylarga aylantirila boshladi. Dehqonlarning imperatorga va uning amaldorlariga — ministeriallar va fogtlar (episkoplar no-midan cherkovga qarashli erlarni-boshqaruvchilar)ga va shu ka-• bilarga nafrat ko‘zi bilan qarashi tabiiy edi. Saksoniyaga suqilib kirib borayotgan Frank va SHvabiya feodallarini ular dehqon jamoalariga zulm qiluvchi va ularni ez'uvchi asosiy zolimlar deb hisoblardilar. To‘g‘ri, bu vaqtda Saksoniya zoda-gonlari ham krepostnik feodallarga aylana boshlagan -edi. Lekin imperatorga, episkoplarga va monastirlarga qaraganda Saksoniya feodallarining erlari birmuncha kam edi. Saksoniya feodallari ham imperatorga va uning atrofidagilarga nafrat ko‘zi bilan qarar edi, ula^ga Saksoniyani ekspluatatsiya qiluvchi ajnabiylar deb qarar edi. SHuning uchun ham Saksoniyada 1073— 1075 yillarda qo‘zg‘olon ko‘tarildi, bu qo‘zg‘olonda mahalliy dehqonlar ham, mahalliy feodallar ham qatnashdi. Qo‘zg‘olon 1073 yilning avgustida ko‘tarildi. U shu qadar shiddatli va katta qo‘zg‘olon bo‘ldiki, Genrix IV ning o‘z'i ham qo‘zg‘olonchilar qo‘liga'asir tushishiga sal-qoldi. U zo‘r qiyinchilik bilan va juda kagga xavf-xatar ostida Saksoniyadan qochib jon saqlab qoldi. Dehqonlar imperator qasrlaridan bir nechtasini vayron qildilar, imperatorga qarashli ko‘pgina pomestelardagi xo‘-jalik binolariga o‘t qo‘ydilar, bu vaqtgacha to‘lab kelgan to‘lov va barshchinalarini to‘lamay qo‘ydilar.

Biroq dehqonlarning aktiv harakati saks feodallarini qo‘r-quvga soldi. Dehqonlarga bildirmasdan turib, feodallar imperator -bilan muzokara boshlab, uni o‘zlariga ko‘proq yon berdi-rishga harakat qildilar. Saks zodagonlari imperatorga qarshi urush harakatlarini sustlik, bo‘shanglik bilan olib bordi. Genrix IV esa bularning hammasidan juda ustalik bilan foyda-landi. 1075 yil yozining boshlarida u, bir qismi imperatorning frankoniyalik ritsarlardan, bir qismi SHvabiya tog‘liklaridan iborat bo‘lgan katta qo‘shin bilan Saksoniyaga bostirib kirdi. 1075 yil 9 iyunda Langenzols degan joy yaqinida qo‘zg‘olonchi-larning asosan dehqonlardan iborat bo‘lgan qo‘shinlarini tor-mor, qildi. Dehqonlarga qo‘shilmay, o‘zlaricha alohida jang qil-gan saks feodallari ham mag‘lubiyatga uchradilar. Lekin ular dehqonlarga qaraganda oz talafot ko‘rdilar. Qo‘zg‘olonchi dehqonlar mag‘lubiyatga uchrash natijasida juda katta talafot ko‘rdilar, ulardan bir necha ming kishi halok bo‘ldi.

1075 yilning ikkinchi yarmida Genrix IV Saksoniyaga butun-lay xo‘jayin bo‘lib oldi. Bu o‘lka juda qattiq talandi va vayron qilindi. Saksoniya yaqin orada Frankoniyaga qo‘shilib ketadiganday ko‘ringan edi. Genrix IV sakslar ustidan g‘alaba qo-zongach, o‘zini Grigoriy VII ga nisbatan ham hujum siyosati yuri-tish uchun etarli darajada kuchga egaman, deb his qildi.

Ammo Hindistondagi quldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shu ediki, rivojlangan quldorchilik va ekspluatatsiyaning quldorlik sistemasi bilan bir qatorda g'oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa dehqonchiligi ham doim mavjud bo'lib, yashab kelmoqda edi. Qishloq jamoasi quldorlik tuzumi davrida ham, keyinchalik borib feodalizm davrida ham hind jamiyatining quyi sotsial-iqtisodiy yacheykasi bo'lib xizmat qildi, bu jamiyat shu yacheyka ustiga qurilgan edi. Har bir qishloqnnng ma'lum miqdorda ekinzor eri va yaylovi bor edi. Har bir qishloqning tepasida oqsoqol va yana bir necha mansabdor kishi turar edi. Qishloq jamoasi bir necha o'n yoki bir necha yuz oiladan iborat bo'lib, hunarmandlikning qishloq xo'jaligi bilan qo'shilishiga asoslangan boshlang'ich ishlab chiqarish yacheykasini tashkil qilar edi. Bu oila jamoalari xonaki sanoatga asoslangan bo'lib, unda qo'lda to'qish, qo'lda yigirish, qo'l kuchi bilan er ishlash usuli alohida bir tarzda bir-biriga qo'shilib ketgan edi,— bunday qo'shilish bu jamoalarning har qaysisini o'ziga mustaqil bir tusga kiritib so'ygan edi. Gupta podsholarining iqtisodiy qudrati birinchi navbatda xuddi ana shu behisob dehqon jamoalarini ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi. Biroq Gupta davri quldorlik sistemasining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. Quldorlik tuzumv zamirida feodal tuzumi elementlari tashkil topayotgan edi. G'arbiy Evropa va Arab xalifaligi

mamlakatlarida ko‘rganimizdek, feodal jamiyatining negizi bo‘lgan juda ko‘p sonli jamoa dehqonchiligining mavjudligi hind jamiyatiga quldorg lik tuzumidan feodal tuzumiga o‘tishni engillashtirdi. Gupta davrida qulchilik tugatilib, feodalizm tug‘ila boshlaganligini bir qancha faktlardan ko‘rish mumkin. Qullar tez-tez erkin qo‘yib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni o‘tash sharti bilan ularga uncha katta bo‘lmagan er uchastkalari ajratib beriladigan bo‘ldi. Podsho xo‘jaligidagi erlarning hammasida ham qullar ishlamas edi, bu erlarning talay qismi hosilning bir qis-mini podsho xo‘jaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilar edi. Mayda ijarachilikka o‘tilishiga sabab, manbalarning ko‘rsatishicha, qullarning etishmasligi edi. Shu bilan bir vaqtda qishloq jamoasining o‘z ichida muhim protsesslar yuz bermoqda edi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashishi natijasida kichikroq oilaning kuchi bilan ham xo‘jalik yuritish mumkin bo‘lib qoldi. Katta oilalar mayda-mayda oilalarga bo‘linib ketdi; katta oilaga qarashli chek erlar ham parchalanib ketdi; bunda to‘ng‘ich o‘g‘ilga ukalariga qaraganda yer ko‘proq ajratib berilar edi. Oddiy jamoachilarning bir qismi xonavayron bo‘lib, jamoaning ancha boyroq a’zolariga qaram holiga tushib qolar edi. Jamoa ichida ekspluatatorlar qatlami bunyodga kelar edi, bularning juda ko‘p molhayvonlari va mehnat qurollari bo‘lib, xonavayron bo‘lgan jamoachilarni ekspluatatsiya qilar edilar. Bularning hammasi oqibat-natijada feodal qaramligi munosabatlarining o‘rnatilishiga olib kelar edi.

**Madaniyatning ravnaq topishi.** Gupta davlati davridagi madaniyat avvalo, klassik monumental arxitekturaning rivojlanyshi bilan tavsiflanadi, bu davrda juda ko‘p ibodatxona va saroylar qurilgan edi. Gupta davrida qurilgan binolarning kupi keyinchalik xorijiy istilochilarning Hindistonga qilgan hujumlari natijasida vayron qilib tashlangan edi. Lekin har holda o‘sha davrdan saqlanib qolgan ba’zi bir binolarga qarab ularning juda mohirlik bilan qurilganligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, bahaybat yaxlit toshlarning ichini g‘or qilib o‘yib ishlangan Ellara va Ajanta ibo-latxonalari o‘shanday qurilishlar jumlasidandir. Ibodatxoialar ichida qadimiy hind va budda afsonalaridan olib ishlangan haykallar benihoya ko‘p bo‘lib, bularda kishilarning figuralari ifoda etilgan. Bu figuralar o‘zining go‘zalligi va ulug‘vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibodatxona devorlari xilma-xil suratlar bilan bezatilgan. Gupta davridagi rassomlar va ustalar metallga pardoz berishda yuksak san’at cho‘qqilarshsh egalladilar. Bizning eramizdan avvalgi IV asrning oxiri va V asrning boshlarida quyma temirdan ishlangan ustun hozirga qadar Dehlida saqlanib kelmoqda, u qariyb bir yarim ming yil davomida ochiqlikda jazirama quyosh va yomg‘irlar ostida qolib kelishiga qaramay, uni hatto zang ham bosgan emas. Gupta davrida hind fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bir qancha hind munajjim (astronom) ining nomi Hindiston-dagina emas, uning tashqarisidayam mashhur edi. Bular orasida V—VI asrlarda yashagan, grek fani va astronomiyasi bilan tanish bo‘lgan Aryabxata, Varaxamixira va Braxmagupta ayniqsa ajralib turadi. Hindistonda bu'davrda tibbiyot, ayniqsa o‘tgiyohlar bilan davolash juda rivoj topgan edi.

Adabiyot, poeziya va drama sohasida Gupta davri o‘zidan keyingi ko‘pgina avlodlar uchun taqlid bo‘lib xizmat qiladigan juda yuksak namunalarini qoldirdi. IV asr oxiri va V asrning birinchi yarmida o‘tgan genial hind shoiri Kalidasaning asarlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Kalidasa qahramonlik temalarida bir nechta doston hamda mifologik va tarixiy temalarda ko‘p dramalar ezdi. «Olqishlangan Shakuntala» dramasi ayniqsa katta dong qozondi, bu asarda nihoyatda nazokatli va shu bilan bir vaqtda o‘z yo‘lida uchragan juda og‘ir mashaqqatli to‘siqlarni enga olgan jo‘shqin jasoratli oddiy hind ayolining ajoyib obrazi berilgan. Bu asar G‘arbiy Evropaga 1789 yilda ma’lum bo‘lishi bilanoq qadimiy hind adabiyotiga juda katta qiziqish uyg‘otdi. Kalidasa o‘z qahramonlarini qisman klassik kitob tilida — sanskritda, qisman turli mahalliy lahjalarda gapirtiradi, bu esa o‘sha davrdagi Hindiston aholisining etnik jihatdan xilma-xil bo‘lganini ko‘rsatadi. Kalidasaning asarlari hozirgi vaqtda dunyodagi asosiy tillarning hammasiga tarjima qilingan.

**Hind dinining evolyusiyasi.** Gupta zamonida hindlarning hukmron dini braxmanizm bo‘lib, bu din uchta asosiy xudo — Braxma, Vishnu va Shiva bor, deb ta’lim berish bilan birga, juda ko‘p boshqa xudolar ham bor, der edi; bu xudolar tabiat kuchlarining barcha turli-tuman forma va ko‘rinishlarining ifodasi edi, odamlar, hayvonlar, o‘simliklar, har xil jonsyz narsalar —

sanamlar va hokazolar ilohiylashtirilar edi. Braxmanizmning dabdabali marosimlari va kuchli kohinlari boʻlib, bu kohinlar nasldan-naslga oʻtadigan alohida bir tabaqa edi. Biroq braxmanizm bilan bir qatorda uning oʻz ichidan boshqa din —buddizm ham paydo boʻlib, koʻp tarafdor orttirdi (bu din eramizdan oldingi V asrdayoq paydo boʻlgan edi). Bir vaqtlar buddizm eng qadimgi din boʻlmish braxmanlar dinini hatto engayotgandek ham boʻlib koʻringan edi. Gupta podsholarinyaig ko’pi buddizmga homiylik qildi. Biroq, pirovardida, braxmanizm engib chiqdi, lekin shu bilan birga u yani tus — hinduizm tusini oldi. VI va VII asrlarda uzil-kesil tashkil topgan hinduizm oʻzining koʻpdan-koʻp eski majusiy xudolarini batamom saqlab qoldi. Lekin shu bilan birga u, buddizmdagi diniy falsafaning ba’zi elementlarini, uning yomonlikka qarshilik qilmaslik, tarki dunyo qilish, kishi oʻlgandan keyin jonning boshqa kishi yoki boshqa narsaga oʻtishiga ishonish va hokazolar toʻgʻrisidagi ta’limotini ham oʻziga singdirib oldi. Buddizm dini Hindiston tashqarisida—Xitoyda, Hindi-Xitoyda, Indoneziya, shuningdek, Moʻgʻulistonda, Tibetda va qisman O’rta Osiyoda keng tarqaldi. Hindistonning oʻzida buddistlar xiyla oz qoldi.

**Gupta davlatining tugashi. Xarsha davlati.** Gupta davlati VI asrning boshlariga kelib tugadi. U V asrdayoq tushkunlikka uchray boshlagan boʻlib, buning asosiy sababi mehnatkash omma ahvolining ogʻirligi edi". Hukmron sinflar haddan tashqari zeb-ziynat ichida yashadi; dehqonlarga ogʻir soliqlar solindi, ular oʻzlari etishtirgan hosilning koʻp qismini soliqqa toʻlashga majbur edi; aholi davlat foydasiga uzluksiz ravishda turli xil ishlarni bajarishga majbur qilindi — mana shularning hammasi hind dehqonlarini holdan ketkazdi va qishloq jamoalari ekonomikasini vayron qildi. Mehnatkashlar oʻrtasida noro-zilik tugʻilganligi alomatlari Gupta zamonidan qolgan adabiy yodgorliklarda koʻp uchraydi. Gupta podsholigiga uzil-kesil zarba bergan narsa koʻchmanchi eftalitlar, ya’ni oq gunnlarning bostirib kirishi boʻldi, ular V asrning oxiri—VI asrning boshlarida Shimoliy chegarani yorib oʻtib, Shimoliy Hindistonning koʻpgina shahar va qishloqlarini nihoyatda vayron va xarob qilib tashladi. 530 yilda oq xunnlar podsho Guptaning vassali roja Yasodxarma tomonidan tor-mor qilindi.

Gunnlarni yenggandan keyin, Yasodxarma Gupta dinastiyasiga itoat qilishdan bosh tortib, oʻzi maxaroja unvonipi oldi. Lekin unga Gupta davlati territoriyasining faqat bir qismigina boʻysundi.

VII asrning boshlarida Xarsha (606—647) davlati birmuncha vaqtgacha yuksalib bordi. Xarsha Kanauja knyazligining rojasi edi, soʻngra u butun *Shimoliy Hindistonni oʻziga boʻysundirdi. Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi boʻylab Sharqiy Panjobdan to Bengaliya qoʻltigʻigacha boʻlgan territoriyani oʻz ichiga oldi.* Markaziy Hindistonning knyazlari ham Xarshaga vassal qaramlikda edi. Hammasi boʻlib 40 tacha knyaz unga qaram edi. Xarsha imperiyasi uzoq umr koʻrmadi. Uning hokimiyati feodallashuv protsessining kuchayishi, oʻz vassallari — rojalar qudratining tobora ortib borishi natijasida zaiflashdi; bu rojalar pirovardida butunlay mustaqil boʻlib olib, markazga itoat qilman qoʻydilar. Xarsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketdi. Uzoq vaqtgacha Hindiston chet el bosqinchilariga qarshilik koʻrsatolmaydigan tarqoq bir mamlakat boʻlib keldi; Kanauj shahri hali VIII—X asrlarda ham Shimoliy Hindiston-ning poytaxtlik ahamiyatini saqlab qolgan edi, ammo uning maxarajlari mana shu yuz yilliklar davomida Hindistonga doimiy ravishda hujum qilib kelayotgan tashqi dushmanlarning shimolda yashovchi turli xildagi qabilalarning bosqinini qaytarish oʻrniga, koʻproq Hindistonning ichidagi oʻz raqobatchilariga qarshi kurash olib borish bilan ovora boʻldilar.

**Feodal munosabatlarning yanada rivojlanishi.** VI—VII asrlarda Hindistonda feodal munosabatlar yanada rivojlandi. Feodallashuv protsessining tezlashuvida Shimoliy Hindistonning (Gupta podsholari davlati qulagandan keyin va ikkinchi marta Xarsha davlati tugagandan keyin) siyosiy jihatdan parchalanib ketishi katta rol oʻynadi. Unlab mayda knyazliklar vujudga keldi, bu knyazliklarning knyazlari yirik er egalari edi, ular qishloq jamoalarini oʻzlariga boʻysundirib olib, qattiq ekspluatatsiya qildilar. Buyuk knyazlar - maxarajalar va vassal knyazlar, ularga qaram knyazlar — rojalar boʻlar edi. Unisida ham, bunisida ham ularga qaram professional jangchilar boʻlib, ularga harbiy xizmat oʻtaganliklari uchun er uchastkalari in’om qilinar edi. Jamna bilan Gang daryolari oʻrtasida bu xildagi hind

ritsarlari ayniqsa ko‘p edi, shimoldan hujum qilib bostirib kirish xavfi bu erda ancha kuchli edi. Bu erlarda vujudga kelgan juda ko‘p sonli ritsarlar tabaqasi rajputlar (aynan tarjimasi «shoh farzandlari») degan nom oldilar. Borib-borib rajputlar qadimiy harbiy tabaqa bo‘lgan kshatriylar bilan aralashib ketdi.

Feodal er egaligining rivojlanishida hind ibodatxonalari ancha katta rol o‘ynadi. dind kohinlari juda katta erlarga ega edilar, ularning qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj bo‘lgan knyazlar juda ko‘plab yer ulashib berganligi uchun bu erlar keyingi yuz yilliklarda yanada ko‘payib bordi. Ba’zi ibodatxonalarning 1000, hatto 1500 qishlog‘i bo‘lar edi. Jamoachi dehqonlar hosilning katta qismini ibodatxonalarga to‘lar edilar va ibodatxona ularni sud qilish huquqiga ega edi.

**Hindistonga arab va turklarning kirib kelishi.** VII asrning oxirida Eron va Afg‘onistonni bosib olganlaridan keyin, arablar Hindistonga bevosita qo‘shni bo‘lib qoldi. Bundan tashqari, Hindistonga arablar dengiz bilan, ya’ni Fors qo‘ltig‘i bilan borib Hind okeanidan ham hujum qila olar edi. 712 yilda Umaviylarning sarkardalaridan biri Muhammad ibn Qosim, Basradan suzib borib, Hindistondagi Sind mamlakatini bosib oldi. Lekin oradan bir necha o‘n yil o‘tgach, arablar Hindistondan butunlay siqib chiqarildi. Islom dininiig targ‘ib qilinishga xindlar dushmanlik nazari bilan qaradi, chunki islom dinini ular chet ellik bosqinchi va talonchilar dichi dsb hisobladi, hinduizm esa islom diniga qarshi «milliy» din edi.

Musulmonlar hujumi faqat XI asrning ikkinchi yarmidagina qaytadan boshlandi, bu safargi hujum ilgarigi hujumdan qattiq bo‘ldi. Bu hujum uchun eng asosiy zamin tug‘dirib bergan narsa shu bo‘ldiki, kuchli va urushqoq turk-eron davlati — G‘aznaviylar davlati vujudga kelgan edi (bu davlatning nomi poytaxt bo‘lmish G‘azna shahrining nomidan olingan edi). Sulton Mahmud G‘aznaviy (998—1030) sharqiy Eron va Afg‘oniston erlarini, 1017 yildan e’tiboran esa Amudaryoning berigi tomonidagi yer-larni, ya’ni Buxoroni ham o‘z qo‘l ostiga kiritib oldi.

Podsholik davri mobaynida u, shimoliy Hindistonga o‘n etti marta yurish qildi. Hindiston shaharlari musulmonlar t'omonidan nihoyat darajada qattiq talandi. Mahmud G‘aznaviy bu yurishlardan shimolga o‘n minglab erkak va ayollarni asir qilib haydab ketdi, mamlakatni, ayniqsa hind ibodatxonalarini talab, karvon-karvon oltin, kumush va qimmatbaho toshlar olib ketdi. G‘azna shahri muhtasham binolar bilan bezaldi, bu bino-larning ko‘pini Hindiston ustalari solgan edi. 1030 yilda M'ahmud G‘aznaviy o‘lgan vaqtda uning imperiyasi Amudaryo qirg‘oqlaridan tortib to Gang daryosigacha borgan, butun Hind daryosi havzasini ham o‘z ichiga olgan edi. Lekin uning poytaxti Hindistondan tashqarida edi. Hindiston Mahmud G‘aznaviy uchun bo‘sundirilgan bir viloyatgina edi. Shunday bo‘lsada, Hindistonning shimoliga juda ko‘p musulmonlar—xurosonliklar, turk va afg‘onlar borib o‘rnashdi. Shimoli-Sharqiy Hindiston (hozirgi Pokiston) aholisining bir qismi islom dinini qabul qilib, bora-bora istilochilar bilan aralashib ketdi.

XII asr oxirlarida Hindistonga G‘azna istilochilari ikkinchi marta hujum qildi. 1175 yilda G‘azna hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom ettirdi. 90 yillarda u Jamna bilan Gang daryolari o‘rtasidagi butun erlarni, so‘ngra esa Bengaliyani bosib oldi, Guriy vafotidan (1206 yildan) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek G‘aznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (hozirgi Hindiston respublikasining poytaxti Dehlini markaz qilib) mustaqil davlat tuzdi. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritiladigan bo‘ldi.

**Asosiy adabiyotlar:**

9. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўкув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

**Mavzu: Ilk o'rta asrlarda Xitoy (2 soat)**

**Reja:**

**1.V-VI asrlarda Xitoyning siyosiy tarqoqligi. Suy imperiyasi.**
**2.Tan imperiyasi davrida Xitoy. Xuan Chao qo'zg'oloni.**
**3.Sun imperiyasi. Vanshi islohotlari.**
**4. Ilk o'rta asrlaarda Xitoy madaniyati.**

**V—VI asrlarda Xitoyning siyosiy tarqoqligi.** Xitoyning V—VI asrlardagi tarixi G'arbiy Evropaniki singari varvar-lar hujumi bilan bog'langan edi. Xitoyda shimolda va g'arbda yashagan ko'chmanchi ilk mo'ng'ul va ilk turk qabilalari mamla-katning juda ichkarisiga kirib bordi. Shimoliy Xitoyga ayniqsa ko'p hujum qilindi. Bu hujumlar Xitoyning xo'jaligi- ta juda katta zarar etkazdi. Ko'pdan-ko'p sug'orish inshootlar1g vayron bo'ldi, butun boshli qishloqlar tayaanib, er bilan yakson qilindi, shaharlar huvillab qoldi. Varvarlarning hujumy natijasida Xitoy juda ko'p mayda-mayda davlatlarga bo'linib, siyosiy jihatdan tarqoq bir mamlakatga aylanib qoldi; *bu* davlatlarning ba'zilarining tepasida drujinalari bilan bnrga varvarlarning boshliqlari va ba'zilarining tepasida esa (janubda) mahalliy[1] xitoy zodagonlari turdi. Bularning ichida eng kattasi SHimoliy Vey davlati bo'lib, uning poytaxti Loyan shahri edi. Bu davlat 386 yildan 584 yilgacha yashadi. 420—589 yillar o'rtasidagi davr Xitoy tarixiga «shimoliy va janubiy dinastiyalar davri» bo'lib kirdi. V—VI asrlarda Xitoy boshidan kechirgan siyosiy tarqoqlikni shu nomdan ham bi-lib olish mumkin. Varvarlar hujumi Xitoyda quldorlikni batamom yo'q qila olmagan bo'lsa-da, lekin unga qattiqqina zarba berdi. Xitoyda o'troqlashgan varvarlar orasida ham, xi-toylar orasida ham erkin dehqonlar soni ko'paydi. Mana shu shaxsan erkin dehqonlar negizida Xitoyda davlat feodal er egaligining o'ziga xos formaei rivojlanib bordi. Jumladan, SHimoliy Veylar davlatida o'rta asrlar Xitoyi uchun xarak- ' terli bo'lgan davlat chek er sistemasi tarkib topa boshladi; bu sistemaga ko'ra davlat boshlig'i eng olyy darajadagi er egasi bo'lar zdi; haqiqatda esa erlar cheklarga bo'linib, dehqonlarga ularning oila a'zolaridagi mehnatga layoqatli kishilar so-niga qarab taqsimlanar, chek er olish uchun esa dehqon ko'proq natura bilan (don, chorva mollari, hunarmapdchilik buyumlari va hokazolar bilan) soliq to'lashi kerak edi. Markazlashti-rilgan davlat rentasi, shunday qilib, hukmron sipfni asrash-ning asosiy manbai bo'lib qoldi. SHu bilan birga xuddi shu davrda Xitoyda ,xususiy pomestelarni (chjuan'yuan) ham ahyon-ahyonda uchratищ mumkin edi, bu pomestelar ayni feodal-krepostniklik xarakteriga ega edi. V—VI asr manbalarida «kuch-li xonadonlgr», ya'ni eng badavlat va zodagon oilalar tilga olinadi, ular jamoaning oddiy a'zolaridan yuqori darajaga ko'tarilib, o'zining kambag'allashgan urug'-aymoqlarini qaram dehqonlardek ekspluatatsiya qiluvchi katta er egalariga aylanib borgaplar. Xitoyda urug'chilik munosabatlarining qoldiq-lari uzoq vaqtgacha saqlanib keldi. Hali H va XI asrlarda ham krepostnoy dshqonlar o'zlarini rasmiy ravishda o'z xo'jayin-lari — pomsshchiklarning «bolalari va ulardan kichik qarin-doshlari» dsb atar edilar. Xitoyda feodal er egaligining ili turi budda mopastir er egaligi bo'lib, erga egalik qilishning bu turi bu srda V—VI asrlardayoq ancha keng tarqalgan edi.

**Xitoyni siyosiy jihatdan birlashtirish yo'lidagi birinchy urinishlar. Suy imisriyasi.** Ilk o'rta asr zamonida Xitoyni birlashtirishga birinchy bo'lib Suy dinastiyasi urindi. Bu dinastiyaning asoschisn YApszyan (yoki Vendi) harbiy drujina boshlig'i bo'lib, shimoliy dinastiyalardan birida xizmat qilar edi. 589 yilda YAnszyan butun SHumoliy va Janubiy Xi-toyni o'ziga bo'ysundirdi. Suy dinastiyasi davrida sug'orish sistemasi tiklandi va kengaytirildi. Jumladan, VII asr bosh-larida shu dinastiyaning ikkinchi imperatori YAn Guan (yoki YAn-di) davrida Xuanxe daryosini YAnszi daryosi bilan bog'lay-digan umumiy uzunligi 1000 *km* keladigan Buyuk kanal qazildi. Kanal qurilishida Xitoyning turli qismidan yig'ib olib ke-lingan bir millionga yaqin kishi ishladi. Ammo Suy dinastiya-«ining idora qilishi uzoqqa bormadi.

SHimolning janub bilan ■birlashuvi juda zaif edi. Markaziy hukumat viloyatlarni •etarli darajada nazorat qilib turmadi. Juda katta hokimiyat mahalliy zodagonlar qo‘lida edi- G‘arbda turkiy qabilalar hujumining kuchayishi imperiyadan juda katta kuch-g‘ayrat ta-lab qildi. SHu bilan bir qatorda bu dinastiya imperatorlari istilochilik siyosati yuritishga urindi, bu esa imperiyani yanada battarroq holdan ketkazdi. Suy hukumatning Koreyani o‘ziga -bo‘ysundirish yo‘lidagi urinishlari tamoman barbod bo‘ldi. Bu hol dinastiyaning uzil-kesil qulashiga sabab bo‘ldi.

618 yilda SHimoli-G‘arbiy Xitoyning knyazlaridan biri Li YUan yoki Gaotszu (u kelib chiqishi jihatidan chala turk edi) mmperiyada hokimiyatni bosib olib, yangi dinastiyaga — Tan di-nastiyasiga asos soldi.

**Tan imperiyasi.** Tan imperiyasi Xitoyda 300 yilga yaqin, ya’ni 618 yildan **907 yilgacha yashadi. Uning** poytaxti CHan’an (ho-zirgi Sian) shahri edi. Bu juda katta shahar edi. **VIII** asrda CHan’an aholisi 1 milliondan ko‘p edi. Imperiyaiing ikkinchi poytaxti Loyan shahri bo‘lib, u ham juda katta savdo markazi edi. Bu dinastiyaning еыг kuchli imperatori Li YUanning vo-risi Li-SHi-min yoki Tayszun (626—649) edi. Bir necha urushlar natijasida Li-SHi-min imperiya chegaralarini ancha kengay-tirib oldi. Imperatorga qaram, vassal erlarni qo‘shib hisob-laganda, Xitoyning territoriyasi SHimolda Amur va Xinganga-cha, janubda Hindiston va Siyomgacha, sharqda Koreyagacha (Tayszun Koreyani ham bosib olishga uringan edi), g‘arbda Urta Osiyoning sharqiy chegaralarigacha borardi. Li-SHi-min za-monidagi bu juda katta imperiya imperatorning markazdagi va joylardagi juda ko‘p aMaldorlari tomonidan idora qilina-digan murakkab bir byurokratik monarxiya tusini oldi.

Li-SHimip davrida amaldorlar uchun maxsus uyvonlar joriy qilipdi. Amaldorlarning hammasi to‘qqiz darajaga bo‘-lindi, har bir darajaga ma’lum hajmda pomestelar belgi-landi, bu pomestelar maosh o‘rniga berilar edi. Markaziy idora oltita mahkama palatasidan yoki ministrlikdan (amal-lar ministrligi, soliq ministirligi, harbiy ministrlik, ji-noiy ishlarni ko‘radigan sud ministrligi, jamoat ishlari ministrligi, marosim ishlari ministrligidan) iborat bo‘lib, uzil-kesil rasmiylashdi. Joylarga ayrim katta-katta oblast-lar tepasida turuvchi gubernatorlar tayinlandi. Oblastlar —
okruglarga, okruglar — uezdlarga, uezdlar — bo‘lislarga, bo‘lis-lar — qishloqlarga bo‘lingan edi, Boshqaruvning eng quyi zve-nosi hamma bir-biriga kafil bo‘lgan besh xonadon birlashmasi-dan iborat edi.^

Tan dinastiyasi davrida davlat feodal chek er sistemasi uzil-kesil qaror topdi.
Hukumat tomonidan erga egalik qilish huquqlari tekshi-rishdan o‘tkazildi, shu bilan birga davlatga qarashli'erlar fondi ancha oshirildi, bu erlarga davlat dehqonlari ekin zkar edi, ularga ko‘pdan-ko‘p soliqlar solinar va majburiyat-lar yuklanar edi. Uziga berilgan chek er uchun dehqonlar don tarzida soliq to‘lashi va buyumlari tarzida soliq to‘lashi va bundan tashqari, yiliga 20—50 kun davlat foydasiga og‘ir barshchina ado etishi kerak edi. Erlarning ancha ko‘p qismi se-kin-asta yirik amaldor zodagonlar qo‘liga o‘tdi: ayrim eng katta amaldorlar qo‘lidagi er bir dehqon oilasi qo‘lidagi er-dan ko‘p baravar ortiq bo‘lar edi. VIII aerning 20- va 30-yil-larida Tan imperiyasi qonunlarining yagona majmuasi tuzildi, u ijtimoiy hayot va davlat hayotining xilma-xil tomonlarini o‘z ichiga.olgan **oltita alohida** kodeksdan iborat edi.)

**VIII va IX aerlarda Tan imperiyasining krizisga uchrashi.** Tan imperiyasi VII aerning ikkinchi yarmida va VIII asrda Tays-zunning vorislari zamonida Osiyodagi eng katta davlat bo‘lib qolaverdi. Bu vorislar ichida eng ko‘zga ko‘ringani buddizm homiysi imperatritsa U Sze-Tyan yoki Uxou (656—705) bo‘ldi. VII—VIII aerlarda Xitoy Arab xalifaligi, Hindiston, Siyom va Vetnam bilan qizg‘in tashqi savdo olib bordi. Bir qancha katta-katta karvon yo‘llari (bular orasida CHanandan Urta Osiyoga olib boradigan yo‘l—«Ipak yo‘li» ayniqsa katta aha-miyatga ega edi). Xitoyni SHimoliy, G‘arbiy va Janubiy Osiyodagi turli mamlakatlar bilan boglar edi. Bundan tashqari Xitoy sohillaridan Janubi-SHarqiy Osiyo va Hindistonga boradigan dengiz yo‘lnnipg ham ahamiyati katta edi. Biroq VIII aerdayoq Tan imperiyasi chuqur krizisga uchradi. Soliqlar, o‘l-ponlardan, har xil davlat majburiyatlari o‘tashdan ezilgan dehqonlar qashshoqlashib, juda og‘ir kun kechirishga majbur edi. Ochlik natijasida tez-tez bo‘lib turgan epidemiyalardan yuz minglab dehqonlar qirilib ketdi. Dehqonlarning chek er-lari kamayib bordi,

chunki chek erlarni «kuchli xonadonlar»— katta-katta er egalari, davlat amaldorlari, sudxo‘rlar doim o‘z qo‘llariga kirgizib olmoqda edilar (yilnomalarda obrazli qilib aytilganidek, «yutib yubormoqda edilar»). Davlat dehqonlari sonining kamayishi natijasida davlat xazinasiga tu-shadigan daromadlar ham kamaydi. Dehqonlarning bir qismi xususiy shaxslarga$qaram bo‘lib qolayotgan edi, bu shaxslar o‘z daromadlarini mana shu dehqonlardan olar edilar. SHu ahvol-«i hisobga olib, hukumat 780 yilda soliq sistemasini islohot qildi. Loyihaning sobiq avtori YAn YAnning yangi qonuniga binoan soliqlar chek eri bo‘lgan dehqonlardangina olinib qol-masdan, shu bilan birga xususiy er egalaridan va davlat er-larini vaqtincha ijaraga olgan shaxslardan ham yig‘ib olina-digan bo‘ldi, ammo mana shu er egalari va ijarachilar ularning erlarida yashab, ularga krepostnoy qaramlikda bo‘lgan dehqon-lar uchun ham soliq to‘lashlari lozim edi. Vujudga kelgan bu yangi vaziyatni, ya’ni davlat dehqonlarining bir qismi feodal-ning. krepostnoyi yoki qaram kishisiga aylanganligini tan olib, hukumat «kuchli shaxslare* tomonidan chek erlarning «yutib yubo-rilishiga» qarshi kurashni ataylab susaytirdi, bu hol butun chek er sistemasining krizisi kuchayganlygidan dalolat berar edi.

Feodallashuv protsessi mahalliy erdor zodagonlarni kuchay-tirdi va imperatorning gubernatorlari bilan harbyy boshliq-larining o‘zida ham markazga tobe bo‘lmaslikka intilish kay-fiyatini tug‘dirdi. Bosh qo‘mondon An-Lu-shan qo‘zg‘oloni Tan dinastiyasi tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. U 785 yilda 120 ming kishilik qo‘shinni o‘zira ergashtirib, imperatorga qarshi bosh ko‘tardi. U 786 yilda ikkala poytaxtni — CHanan va Lo-yanni ham bosib olishga muvaffaq bo‘ldi. Imperator qochdi, bu ~ qo‘zg‘olon kelgusi yildagina yollangan varvarlar, asosan, uyg‘ur-lar yordami bilan bostirildi. An Lu-shan qo‘zg‘olonidan ke-' yin Janubiy Xitoydagi gubernatorlar qo‘zg‘olonlari bo‘ldi, bu qo‘zg‘olonlarni ham imperator juda katta kuch sarf qilib zo‘rg‘a bostirdi.

**Xuan CHao qo‘zg‘oloni.** Dehqonlarning haddan tashqari og‘ir hayoti IX asrping ikkiichi yarmida ularning g‘oyat katta qo‘zg‘oloni ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi, bu qo‘zg‘olon 875 yildan 884 yilgacha davom etdi. Qo‘zg‘olonga ilgari chakana tuzfurush bo‘lgan va keyin imperator gvardiyasida soldat bo‘lib xizmat qil-gan Xuan CHao degan kishi boshchilik qildi. 875—884 yillardagi xitoy dehqonlari qo‘zg‘olonining kishini hayratda qoldiradi-gan tomoni shuki, u xiyla uzoq vaqt davom etdi, qo‘zg‘olonga juda ko‘p kishi qatnashdi, qo‘zg‘olonchilar g‘oyat katta kuch-g‘ayrat va tadbirlik ko‘reatdilar- Bu qo‘zg‘olon umuman olganda sti-xiyali harakat bo‘lsa-da, bir qadar uyushgan harakat edi va shu uyushganligi natijasida ma’lum vaqtgacha katta-katta muvaf-faqiyatlarga erishdi. Qo‘zg‘olon SHandun va Xebey degan shimo-liy viloyatlardan boshlandi. Keyin u Markaziy Xitoydagi Xenan viloyatiga tarqaldi. Qo‘zg‘olonning birinchi yilidayoq Xuan CHao qo‘l ostida 100 mingta lqin qurollangan dehqon bor edi. 879 yilda Xuan CHao Janubiy Xitoyga yurish qildi, u erda eng boy port bo‘lgan Qantonni oldi. Qo‘zg‘olonchilar bu erda . juda ko‘p ajnabiy savdogarlarning hamma tovarlarini bosib oldi. Biroq o‘z soldatlari orasyda epidemiya tarqala boshla-ganligi sababli Xuan CHao shimolga, YAnsi daryosi ortiga cheki-nishga majbur bo‘ldi. Epidemiya oqibatlariga qaramay, Xuan CHaoning qo‘shini tobora ko‘payib, 880 yilda uning soni 250—300
ming kishiga etdi. 880 yilda Xuan CHao Loyan ustiga yurish qildi. Oz vaqt ichida CHan’anni bosib oldi va o‘zini imperator deb e’lon qildi. «Dehqonlar imperatori»ning sotsial programma-sini uning bosh ministri o‘z gapida ifodalab berdi, u «Da Si-ning (Xuan CHao o‘zini Da Si degan nom bilan imperator deb e’lon qildi) -oddiy xalqqa rohat va farog‘atli hayot baxsh etishdan boshqa muddaosi yo‘q» dedi. Xuan CHao CHan’anda ikki yarim yil turdi. 884 yilda Tan dinastiyasining imperatori uy-g‘urlar, tangutlar va shimoli-g‘arbda yashovchi boshqa ko‘chmanchi-lardan iborat varvar to‘dalarining 'yordami bilan poytaxtga qaytib keldi. Sahroiy varvarlar xitoy dehqonlarini shafqat-sizlik bilan qirdi. Bu qonxo‘r yirtqichlarga xalq «qora quz-g‘unlar» deb nom berdi. Xuan CHaoning o‘zi esa CHan’andan qochib ketishga majbur bo‘ldi va keyingi yili Xenan viloyatida ha-lok bo‘ldi (o‘zini-o‘zi o‘ldirdi).

**Tan dinastiyasining tugashi.** Imperator xizmatidagi feodal-amaldor zodagonlarga suyangan Tan dinastiyasi haqiqatda dehqonlarning qudratli harakati na-tijasida ag‘darildi. Bu di-nastiyaning imperatorlari qo‘zg‘olon bostirilgandan keyin yana bir oz vaqtgacha mamlakatni

idora qildi. Biroq ularning ho-kimiyati e'ndi butun Xitoyga yoyilmas edi. X asrning boshlarida shimolda kidan qabilalari ittifoqining katta bir varvar davlati tuzildi, bu qabilalar Manchjuriyani, Mo‘g‘ulistonning va SHimoliy Xitoyning bir qismini bosib olgan edi. Bu Lyao deb atalgan yangi davlatning poytaxti YAnszin shahri bo‘ldi, shu shahar keyinchalik Pekin deb yuritila boshladi.

907 yilda Tan imperiyasi yo‘q bo‘ldi. Bir necha o‘n yilgacha Xi-toyda batamom tarqoqlik hukm surdi. Lekin 875—884 yillardagi dehqonlar qo‘zg‘oloni bekor ketmadi. Bu qo‘zg‘olon natijasida erga feodal davlat mulkchiligi va uning chek erdan foydalaishp sistsmasi, ko‘pdan-ko‘p amaldorlari, dehqonlarning oxirgi tomchi qopini so‘rib oladigan murakkab va aql bovar qilmaydigap soliq solish sistemasi, har bir qishloq va har bir dehqonning ketidan iskovchilik qilib yuruvchi pastkash politsiya nazorati bilan birga qo‘shilib bari tamoman puturdan ketdi. Qo‘zg‘olonchi dehqonlarning bir qismi chek erlarni o‘zla-riga mustahkamlab olib, mayda er egalari bo‘lib qoldilar. Biroq davlat mulkchiligining zaiflashib qolganligidan xususiy mulkchi bo‘lib olgan yangi feodallar ham foydalanib qoldilar, bular o‘zlarining xususiy pomestelari hajmini ken-gaytirdilar va xitoy qishlog‘iga o‘zlarining iqtisodiy ta’sir-larini kuchaytirdilar.

X asr o‘rtalarida mamlakatda anchagina iqtisodiy yuksalish yuz berdi, Xitoy bu yuksalish sharoitida 960 yilda Sun dinastiyasining hokimiyati ostida qaytadan birlashtirildi. Bu di-' ыastiyaga SHimoliy Xitoydagi harbiy boshliqlardan biri bo‘lgan CHjao Kuan-in asos soldi, u kidanlar ustidan bir necha marta g‘alaba qozongan edi. YAngi dinastiyaning poytaxti dast- lab Byan (hozirgi Kayfin) shahri bo‘ldi. Keyinchalik markaz janubga, Xanchjou shahriga ko‘chirildi.

**Sun imperiyasi.** Sun imperiyasi Tan imperiyasiga qaraganda kuchsizroq bo‘ldi. Sun dinastiyasi vaqtida Xitoyning o‘zi ham to‘la birlashtirilmadi. Tan imperiyasiga kirgan bir qancha ter-ritoriyalar Sun imperatorlarining hokimiyatini tan olmadi-lar va o‘zlariga mustaqil davlatlar tuzdilar. Turk, mo‘g‘ul qabilalari va g‘arbdagi boshqa ko‘chmanchi qabilalar ham impe-riyaga itoat qilmadilar;' imperiya chegaralariga borgan sari kuchliroq xavf solib turdilar. Sun imperatorlari uyg‘urlarga, tangutlarga, kidanlarga, Annamga qarshi urushlar qildi. Biroq bu urushlar natijasida Sunlar bu mamlakatlarni Xitoyga itoat qildirishga muvaffaq bo‘la olmadilar. SHunga qaramay, Sun dinastiyasi davrida Xitoyning xalqaro aloqalari yana mustahkamlandi. **Urta Osiyo, Hindiston** va Hindi-Xitoy bil angina emae, balki **Koreya, YAponiya** va Indoneziya bilan ham keng miqyosda tashqy **savdo olib borildi.** Sun boshqaruvi davrida Xitoyda ichki savdo ham kengaydi, mamlakatda pul muomala-larining rivojlanganligi bundan dalolat beradi. Mis pul-lardan tashqari temir pullar earb qilindi. Qog‘oz pullar ham sunlar davrida ishlatila boshladi.

XI asrda Sun imperiyasidagi sinfiy munosabatlarda xud-di Tan imperiyasining so‘nggi imperatorlari davridagiga o‘x-shash chuqur antagonizm vujudga keldi. Xuan CHao qo‘zg‘olonidan keyin birmuncha ko‘payib qolgan «xo‘jayin xonadonlar» deb ataladigan mustaqil dehqonlar soni vaqtlar o‘tishi bilan yana kamayib bordi. Ularning erlariii amaldorlar, qisman tobora mustahkamlanib borayotgan qo‘shni pomeshchik-er egalari bosib olardi. Qarzga botgan dehqonlar sudxo‘rlarga, ulardan olgan qarzlari yuzasidan protsent tarzida juda katta pul to‘lashga majbur edilar. Xitoy qishlog‘ida mustahkam in qo‘yib olgan shahar savdogarlari, erli pomeshchiklar, hukumat amaldorlari-ning o‘zlari sudxo‘rlik bilan shug‘ullanar edilar. Hukumat amaldorlari o‘z hukmdorliklaridan foydalanib, ayniqsa deh-qonlarni juda og‘ir sudxo‘rlik shartlari bilan ulardan qarz olishga majbur qilar edilar. Birovlarning erlarida o‘tirib tirikchilik qilayotgan dehqonlarning ahvoli yanada og‘ir edi. Qishloqlarda och-yalang‘ochlik hukm surar edi. Ocharchilik, epi-demiyalar, butun bir qishloq, bo‘lislarda aholining qirilib ketishi tez-tez takrorlanib turadigan voqea bo‘lib qoldi. Dehqonlar harakati yana umumxitoy miqyosidagi katta dehqonlar urushiga aylanib ketish xavfini sola boshladi. Hukumat yangi-dan dehqonlar urushi chiqishining oldini olishga va izdan chiq-qan davlat moliyasini yana joyiga keltirishga harakat qildi, hukumatning bu harakati Sun dinastiyasining bir ministri Van An-shi tomonidan o‘tkazilgan anchagina radikal reforma-larda aks etdi.

**Van An-shi reformalari.** Van An-shi (1021—1086) dastlabki vaq'tlarda viloyat amaldorlaridan biri edi. U aholininG qashshoqligini, amaldorlarning jabr-zulmini va sudxo‘rlar-ning hukmronligini ko‘rsatadigan eng mudhish faktlarni vi-loyatdalik mahalida

yaxshi bilib olgan edi. Imperatorning birinchi ministri darajasiga ko‘tarilib olgach, Van Anshi 1069—1074 yillarda moliyaviy-iqtisodiy va sotsial xarakger-dagi bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Avvalo, u erlarni qaytadan ro‘yxatga oldirdi va imperator xizmatidagy zodagonlarning eriga soliq soldi, bu xizmatchi zodagonlar bu vaqtda er solig‘i to‘lamay qo‘ygan edilar desa bo‘ladi. So‘ngra Van An-shi dehqonlarni davlat foydasiga barshchina o‘tashdan ozod qildi, barshchina o‘rniga pul bilan to‘lanadigan soliq joriy qildi. Er solig‘ini ham dehqonlar qisman mahsulot va qisman pul bilan to‘laydigan bo‘ldi. Ocharchilikning oldini olish uchun Van An-shi davlatga qarashli g‘alla omborlari tashkil qildi, ocharchipkk yillarida aholiga ana shu omborlardan g‘alla berilardi. Sudxo‘rlikni tugatish maqsadida Van An-shi davlat banki tashkil qildi, bu bankdan dehqonlar kam protsent to‘lash sharti bilan qarz ola oladigan bo‘ldi. U, qisman soliq fondidan foydalanish, qisman esa davlatning savdogarlar qo‘-lidagi mahsulotni sotib olish yo‘li bilan davlat savdosini tashkil qilishga harakat qilgyanligi ham shoyon diqqatdir. Van Anshi harbiy sohada ham katta reforma o‘tkazmoqchi bo‘ldi. Nl-lanma armiya o‘rniga umumiy harbiy m^ajburiyat joriy qilmoq-chi edi. Asosiy qo‘shin dehqon lashkarlaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Har uch xonadon bitta piyoda askar, har o‘n xonadon bitta otliq askar berishi kerak edi. Van An-shi reformalari amaldorlar bilan feodallarning qattiq qarshiligiga uchradi. 1075 yilda Van An-shi vazifasidan bo‘shatildi. Uning tuzgan planlari davlat uchun «xavfli» deb topilsi, vaholanki, uning maqsadi feodal davlatni uchiga chiqqan parazit elementlardan xoli qilib, uni tartibga solish edi, xolos.

**Sun dinastiyasining tugashi. XII** asrda ham Sun imperiyasining ahvoli yaxshilanmadi. SHimoldagi xalqlarning hujum qi-lish xavfi tug‘ilishi munosabati bilan 1126 yilda imperator poytaxtni janubga, Xanchjouga ko‘chirdi. 1127 yildan boshlab Sun dinastiyasi qo‘l ostida faqat Janubiy Xitoy qoldi, xolos. SHimoliy Xitoy manchjur-tungus qabilalaridan biri bo‘lgan chjurchjenlar tuzgan va Szin deb atalgan yangi bir katta davlat sostaviga kirdi, bu davlat ilgarigi kidanlar davlatini o‘ziga singdirib olgan edi. XIII asrning boshlarida SHimoliy Xitoyni mo‘g‘ullar bosib oldi. Imperiyaning imperator qo‘li ostida qolgan janubiy qismida esa uzluksiz g‘alayonlar bo‘lib turdi. 1127—1132 yillar mobaynida 93 ta ommaviy qo‘zg‘olon bo‘lganligi rasmiy yilnomalarda qayd qilingan. Janubiy Xitoyning faqat o‘zidan iborat bo‘lib qisqarib qolgan Sun imperiyasi (o‘shanda ham hamma viloyatlar uning sostaviga kirmas edi) 1279 yilgacha, ya’ni CHingizxonning nevarasi Xubilay bosib olguncha yashab keldi. Xubilay yangi mo‘g‘ul dinastiyasiga asos soldi, bu dinastiya xitoycha YUan deb ataldi.

**Tan va Sun dinastiyalari davridagi Xitoy madaniyati vafani.**

VI—XI asrlardagy Xitoy madaniyati juda yuksak bir ma-daniyat edi. Xitoyning ishlab chiqaruvchi kuchlari yuksak taraq-qiy qilgan edi. Xitoyda sug‘oriladigan dehqonchilik, qisman poliz dehqonchiligi bor edi. Xitoy qishloq xo‘jaligida o‘sha vaqtda ham asosan iyuli, paxta, choy, ipak etishtirilar edi. Ko‘p miqdorda temir, m'Ys, oltyn, kumush qazib chiqarilardi. Xitoyda hunarmandlik Tan dinastiyasi vaqtidayoq juda rivoj topgan. edi. Xitoy chet mamlakatlarga, asosan choy va xom ipak bilan birga xitoy chinnisi, xitoy shoyisi va ip gazlamalar, temir va misdan qilingan har turli buyumlar chiqarar edi. Xitoyda XI asrda 2 mingdan ortiq shahar bor edi. Bu shahar-lardan ba’zilarida, masalan, CHan’an, Loyan, Kanton va Xanchjou singari shaharlarning har birida bir million atro-fida aholi yashar edi.

Xitoylarda ilm-fan yuksak rivoj topdi. Xitoylarda eng qa-dim zamonlardayoq yozuv (ieroglif yozuv) bor edi. YOzuv qog‘o-zini birinchi bo‘lib xitoylar kashf etdi. Kitob bosishni ham birinchi bo‘lib ular chiqardi, ularning dastlabki kitob bosish usuli, albatta, juda sodda edi. Ular kitob bo‘ladigan tekstni yog‘och taxtalarga o‘yib, undan qog‘ozga bosib tushirishar edi. Xitoyda **VIII** asrning boshlarida «Poytaxt axboroti» nomli ras-miy hukumat gazetasi vujudga keldi, bu gazeta XX asrning **boshlarigacha chiqib keldi.**

**Xitoylar matematika, astronomiya, geografiya,** tarixni o‘r-ganardi. Kompasni va poroxni xitoylar ixtiro qildi (IX—X asrlar). **VIII** asrda Xitoyda Xanlin fanlar Akademiyasi tashkil qilindi, bu Akademiya davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan dunyo-dagi eng qadimgi ilmiy muassasa edi. Urta asrlar Xitoyi o‘z yilnomalari bilan dong chiqardi. Sun imperiyasining bir o‘zi-dan 500 tomdan ortiq yilnoma qolgandir. Xitoyda yuz minglab qo‘l yozmalar saqlanadigan

katta-katta kutubxonalar bor edi. Bir nechta shaharlarda oliy maktablar bo‘lib, bu maktablarda davlat amaldorlari etishtirib chiqarilardi. Amaldorlik la-vozimini egallashga yo‘l ochib beradigan ilmiy unvon olmoqchi **bo‘lgan kishi** davlatni idora qilish ilmidan tashqari, yana falsafani (asosan konfutsichilik falsafasini) va adabiyotni **ham bilishi** va shulardan imtihon berishi lozim edi. Rasman har **bir kimsa** imtihon berishi mumkin bo‘lsa-da, lekin haqi-qatda amaldorlik lavozimini, ko‘pincha hech narsani bilmas-ligiga qaramay, hukmron sinf vakillarigina olar edi. Xitoyda har xil xalqlar bo‘lganligi, shuningdek, Osiyodagi boshqa mamlakatlar **bilan** savdo aloqalari qilib turganligi uchun Xitoyda-o‘rta asrlardayoq filologiya: lug‘at tuzish, grammatika va sintaksis **formalarini** taqqoslab o‘rganish va shu kabilar taraqqiy **etgan edi.**

**Adabiyot va san’at.** Xitoy adabiyoti ilk o‘rta asrlar davri-dayoq klassik asarlar yaratdi. Tan dinastiyasi vaqtida shoir-lardan Li Bo (701—762), Du Fu (712—770), Bo Szyuy-i (772—846) juda ham shuhrat qozongan edi. Bulardan Li Bo juda ko‘p lirik she’rlar (30 tomga yaqin) yozgan bo‘lib, bu she’rlarida nuqul dunyoviy shodiyona, epikurcha — materialistik dunyoqarashni aks ettirdi. Li Bonn xitoy tabiatining kuychisi deb atashadi, chunki u tabiatni juda sevar edi. Du Fu esa o‘z dostonlarida xalqning afsonaviy va qahramonlik eposlari-dagi boy materialni qaytadan ishlab chiqdi. Ammo Du Fu o‘z zamonasiga juda yaqin turar edi. U o‘zining ko‘p she’rlarida ezilgan dehqonlarni jo‘shqinlik bilan himoya qilardi. U «mil-lionlarcha qashshoqlar, sho‘r peshana odamlar»ning hammasi boshpana topadigan ajoyib bir katta bino quriladigan yaxshi zamonni, go‘zal istiqbolni orzu qilar. edi. Tan dinastiyasining so‘nggi davrlarida yashagan Bo Szyuy-i jamiyatga chuqur inson-parvarlik bilan qarar edi. Uning she’rlari insonga muhabbat, kishi **qadr-qimmatini hurmat qilish** ruhi bilan sug‘orilgan edi. U kishining axloqiy go‘zalligini kuylar edi.

Urta asrlar davrida Xitoyda arxitektura bilan tasvirii san’atni rivojlantirish sohasida ham ko‘p ishlar qilindi. Xitoy binolari — saroylar, ibodatxonalar, minoralar, shahar darvozalari, ko‘priklar, turar joylar o‘zlarining stili ji-hatidan xilma-xil, arxitektura formalari jihatidan ixcham va nafis qilib qurilar edi/Bu binolar juda ham xilma-xil materiallardan: tosh, yog‘och, marmar, temirdan ishlanar edi. Ular jimjimador **naqsh, chinni,** tillalar bilan bezatilar edi. Imperator saroylarining, ibodatxonalarning, shuningdek, zo-dagonlar **va shahar boylarining** uy tomlari ko‘pincha oltin lav-halar bilan yopilar edi.

Tan dinastiyasi davrida, keyinchalik Sun dinastiyasi vaqtida Xitoyda rassomlik yuqori darajada rivojlangan edi. Xitoy **rassomlari ipak mataga,** qog‘ozga, yog‘ochga, toshga raem so-lar edilar; devorlarga o‘yib naqsh solishda, portretlar chi-zishda juda katta mahoratga ega edilar. Sun dinastiyasi davrida ayniqea ikkita rassom — CHjao Szi («Evvoyi g‘ozlar» rasmi) va G‘uXu'n-chjun («Zodagon amaldornikida tungi bazm» rasmi) juda katta dong chiqargan edi.

Sun davrida noma’lum rassom tomonidan ipak mataga so-lingan «Qishloq maktabi» degan raem ham keng shuhrat qozongan. Rasmda uncha katta bo‘lmagan qishloq maktabining oddiygi-na jihozlari haqqoniy tasvir etilgan, bu rasmda nafis **yumor** bilan samimiyat ko‘zga tashlanib turadi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu : SALIB YURISHLARI ( 2 soat)

**Reja:**

**1. Salib yurishlarining ta'rifi. Salib yurishlarining sabablari va ularning qatnashchilari.**
**2. Birinchi salib yurishi. Quddus korolligi. Diniy-ritsarlik ordenlari.**
**3. Ikkinchi va uchinchi salib yurishlari. To'rtinchi yurish. Vizantiyaning istilo etilishi.**
**4. So'nggi salib yurishlari. Salib yurishlarining ahamiyati.**

Salib yurishlarining ta'rifi. Salib yurishlari deganda Evropa feodallarining XI asr oxiridan to XSH asr oxirigacha uzoq vaqt davomida YAqin SHarqda — Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylar-da olib borgan har'biy-kolonizatsiya ekspeditsiyalari ko'zda tu-tiladi.

Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruhdagi ekspedi-siyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni — «butning — yarim oyga» qarshi, xristianlikning — islomga qarshi kurashi-dir, deb e'lon qilgan edi; yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar» dan xalos qilish va xristianlar e'tiqodicha, Qud-dusdagi «Iso payg'ambar qabri»ni xristianlarga qaytarib olib berishdir deb, rasmiy e'lon etildi. Haqiqatda esa, bu bosqinchilik yurishlaridak iborat bo'lib, ularda evropalik ba])oilar na ritsarlar hech tap tortmay, SHarqning shaharlari-SH1 taladilar, butui-butun knyazlik (beklik) va korolliklarni bosib oldilar, o'zlari uchun feodal rentasining yangi soliq to'lovchilariii qo'lga knritdilar. Ammo salib yurishlarida, fsodallardai tashqarp, jamintnipg boshqa sinflari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar. Bu hol salib yurishlariga eidp yalii, ommaviy tue berdn. Zamondoshlarga butun Evropa harakatga kelganday, xalqlarnnpg qandaydir' yangi buyuk hij-ratp 1och bergaiday bo'lib ko'ripdi. Salib harakatining kolkret sabablarpii bir tekshirib ko'raylik.

**Salib yurishlarining sabablari va ularning qatnashchilari.**

Salib yurishlarining sabablarini qisman XI asrning ikkinchi yarmida YAqin SHarqda yuz bergan o'zgarishlardan, qisman feodal G'arbiy Evropaning o'zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot va keskin ijtimoiy ziddiyatlardan qidirmoq kerak.
XI asrda SHarqda Evropa feodallarining hujum qilishi uchun juda qulay bir vaziyat maydonga kelgan edi. Vir vaqtlar qudratli deb hisoblangan Bag'dod xalifaligi 1055 yilga kelib batamom tarqaldi. Boshqa yirik davlat — Komninlar zamoni-dagi Vizantiya ham og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Bolqon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya imperiyasiga shimol tomondan hujum boshlagan edilar. Sitsiliya normannlari g'arbdan Vizaltiyaga xavf solmoqda edilar. Amma ealjuq turklari Vizantiya uchun ayniqsa xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir qismini bosib olgan va, ayni zamon-da, Konstantinopolga qo'shni bo'lgan Nika shahrini o'zlariga poy-taxt qilib olgan edilar. 1071 yilda turklar Mansinkert shaha-ri yonida vizantiyaliklarni qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. YAngi imperator Aleksey Komnin (1081 yildan idora qila boshlagan edi) garchi turklarning bir necha hamlasini to'xtat-gan bo'lsa-da, lekin har holda, imperiyaning ahvolini mustah-kam deya olmasdi. XI asrning 80 va 90- yillarida u turklarga qarshi yordam berishni so'rab papaga va Germaniya imeratoriga bir necha bor mo'rojaat etdi. Ilgari yakkayu-yagona bo'lgan xristian cherkovi 1054 yildan e'tiboran ikkita raqib qismga— sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (katolik) cherkovlarga qat'iy ajralib ketgan bo'lsa ham, Aleksey Komnin siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib, papa boshchiligida bu cherkovlarii hatto qaytadan birlashtirishga ham tayyor edi. SHunday qilib, SHarqning ikki eng yirik davlati — Arab xalifaligi bilan Vizantiya impe-riyasi — salibchilarga biror-bir jiddiy to'sqinlik ko'rsatish-dan ojiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri (Vizantiya hatto Evropa feodallarini SHarq mojarolariga aralashishga da'vat etdi. Turklarga kelsak, XI asrning 80 va 90- yillariga keliboq ularning nomustahkam harbiy-qabila ittifoqi tarqalib keta boshlagan edi. Feodallashib borayotgan ayrim turk bekliklari g'arb feodallarining hujumini to'xtata olmadilar.

Ammo salib yurishlarining, jumladan, birinchi salib yuri-shining asosiy sababi, axir-pirovardi, G'arbiy Evropaning o'zidagi ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashib ketganligi edi. XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga er etishmas edi. Savdo-sotiq va shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlar-ning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning mahalliy dehqonlarni ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar erdan butkul mahrum qilingan edilar, chunki feodal'larga qa-rashli er-mulk va

daromadlar (feod) odatda katta o‘g‘ilga beri-lar edi va kichik aka-ukalar esa otadan qolgan merosdan biror
narsa olishga haqlari yo‘q edi. SHarqdagi erlarni bosib olish maqsadida u erlarga yurishlar qilish bunday ritsarlarning mushkul ahvoldan chiqishlarining birdan-bir- yo‘li edi. Yirik feodallar (knyazlar va baronlar) o‘z sinflari ichidagi moja-ro va ixtiloflarning oldini olish uchun ritsarlarning diqqat-e’tiborini boshqa narsalarga jalb etish muhimroq edi.

XI asr oxiri — XII asr boshida salib yurishidagi g‘oyat muhim masala—-dehqonlar masalasi edi. G‘arbiy Evropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dehqonlari dastlabki paytlarda SHarqqa bajonu dil yo‘l oldilar. Krepostnoy qaramlikdan x'alos bo‘lish, qarzlarni tugatish, SHarq-dan er olish umidi (shuni aytish kerakki, dehqonlarning geografik tasavvuri tamomila xayoliy, amalga oshmaydigan bir tasavvur edi) o‘n minglab kishilarning tug‘ilib o‘sgan shahar va qishloqlarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi va ularning ko‘plari bu joylarda och-yalang‘och qolib, xor-zor-likda o‘lib ketdi. Dunyoviy va ruhoniy feodallar dehqonlarning SHarqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan og‘ir ahvoldan qutulishning o‘ziga xos bir yo‘li deb bilardilar. Bu narsa tovar-pul muiosabatlari rivojlanishi bilan feodal-krepost-niklik tuzumi keig tarqalayotgan va feodal ekspluatatsiyasi kuchayib borayotgan bir sharoitda Evropada dehqonlar urushi-ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlanib ketish xavfidan hukmron sinf-larii qutqargan bo‘lardi. Ko‘pdan-ko‘p monaxlar va boshqa day-di voizxonlar dehqonlar orasida targ‘ibot yurgizib, ularni SHarqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da’vat etardilar. Biroq dehqonlar masalaning mohiyatiga darhol tushunib etma-gan bo‘lsalar-da, lekin oqibat-natijada, ular gapning nimada ekanligini ochiq-oydin payqab oldilar. SHarqqa qilingan **dastlabki ikki yurishda dehqonlar ko‘pchilikni tashkil** qilgan bo‘l-salar, uchinchi yurishdan boshlab ular qatnashmay qo‘ydilar. Bundan keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodallarning o‘zlari qatnashdilar. Evropa korollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko‘pdan-ko‘p ritsarlar YAqin SHarqda, faqat Arab SHarqidagina emas, balki Vizantiya-da ham yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochiq-dan-ochiq ko‘zlay boshladilar. Quddus va Falastin masalasi, keyinchalik ularning planlarida ikkinchi darajali masala bo‘lib qolgan edi.
Italiya shaharlari, ayniqsa ulardan ikkitasi — Genuya bilan Venetsiya — salib yurishlarida juda aktiv qatnashdilar. Bu shaharlarning flotn salibchilarni SHarqqa tashib olib ,bordi, salib lashkarlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab turdi. Bosib olingai territoriyalarni taqsimlashda bu har ikki shahar qatnashib, birinchi galda SHarqning portlari va bo-zorlaripi o‘zlariga monopoliya qilib olishga harakat qildilar. Lekin, shunga qaramay, shaharlar salib yurishlarida harakat-ga keltiruvchi asosiy kuch emas edi. SHarqqa qilingan salib yurishlarini «muqaddas urushlar» deb e’lon etgan katolik cherkovi, tabiiy, bu yurishlardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intildi.
Bu vaqtga kelib papalik zo‘r qudratga ega bo‘ldi. Dunyoviy hokimiyat bilan olib borilgan to‘qnashuvlarda papa impera-torning o‘zini bir necha marta mag‘lubiyatga uchratdi[1]. Salib yurishlari papalikka ko‘pgina real foydalar keltirishi: par-chalanib ketgan feodal Evropasiga siyosiy jihatdan rahbarlik qilishi, sharqiy «sxiz-matiklar»ni, ya’ni sharqiy pravoslav cherkovining ajralib ketgan xristianlarini Rimga bo‘ysundi-rish uchun, katolik ruhoniylari katolitsizm mazhabiga o‘tkazish-ni orzu qilgan SHarq musulmonlari orasidagi missionerlik fao-liyati uchun juda katta ionalar to‘plashi mumkin edi. Ana shu vajdan, papa Urban II 1095 yilning kuzidd Janubiy Fransiya-ning Qlermon shahrida ko‘p kishilik cherkov yig‘inini to‘plab, unda so‘zgachiqib «kofirlar»ga qarshi kurashmoq uchun SHarqqa jo‘nab ketishga da’vat etdi. Urbanning asosiy da’vati «Iso pay-g‘amba.r qabrini» xristianlarga qaytarib olib berish va «muqaddas» Falastinni xalos qilishdan iborat edi. Papa salib qat-nashchilarining gunohidan kechishni va’da qildi, shuningdek, u SHarqda salibchilarni kutayotgan boy o‘lja haqida ham ochiq-dan-ochiq aytdi. Yig‘inda qisman fransuz, qisman boshqa mam-lakatlardan kelgan minglab ritsarlar hozir bo‘ldilar. Feodal-larning ko‘pdan-ko‘p yig‘inlarini o‘tkazish faktining o‘zi shu narsani yaqqol ko‘rsatadiki, papa bosh ko‘tarib chiqmasdan ancha burun ritsarlar orasida keig propaganda olib borilgan va ularnipg bir qismipi Falastinga salib yurishi o‘tkazish pla-

nidap maifaatdor qilishga ulgurilgai. Papaiing bu chiqishi apcha ilgari tayyorgarlik kurila boshlagai ishni tashkiliy va ideologiya jihatdan rasmiylashtirishdan iborat bo‘ldi, xolos.

**Birinchi salib yurishi.** Salib yurishlarining boshlanishi 1096 yilga to‘g‘ri keldi. 1096 yilning bahorida SHimoliy va SHarqny Fransiyaning qisman G‘arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasp salib yurishi uchun yo‘lga tushdi. Qo‘yni puch yong‘oqqa to‘l-gizilgap dehqonlarga monax Pyotr Amenskiy (Pyotr Pustinnik) va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qildilar. Dehqonlar olomoni yomon uyushtirilgan, naridan-beri qurollan-tirilgap, oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta’min-lapib turplmas edi. Salibchi dehqonlar sostavila o‘g‘irlik va talonchplik qilishdan manfaatdor bo‘lgan betayin, sayoq ele-mentlar ham kam emas edi> Bu hol salibchilar «kofirlar» isti-qomat qiladnpsh erlarga etib bormasdanoq ma’lum bo‘lib qoldi. Jumladai, salibchilar Reyn daryosi bo‘yidagy shahar-lardan o‘tib kota turib, u erlarda (Kyolnda,ị Maynsda va boshqa shaharlarda) iogromlar uyushtirdilar. Keyin ular Vengriya va Bolgariya singari mamlakatlar orqali o‘tib, bu erlarda ham talonchilikni davom ettirdilar. Salibchilar olomoni Konstantinopolga kelib kirgach, imperator ularning tartibsiz-.lik ko‘rsatishi va zo‘ravonlik. qilishidan xavfsirab, ularni Kichik Osiyo sohiliga jo‘natib yuborishga shoshildi. Kichik Osiyo sohilida salibchilar olomoni tez orada turk qo‘shiniga to‘qnash keldi va u salibchilarning ko‘pchilik qismini qirib tashladi. SHunday qilib, salibchilarning SHarqqa qilgan yurishi batamom mag‘lubiyatga uchradi.

1096 yilning kuzida ritsarlar, asos'an fransuz va italyan ritsarlari, qisman G‘arbiy Germaniya ritsarlari jo‘nab ketdi-lar. Bu yurishga Quyi Lotaringiya gersogi Gotfrid Bulons-kiy boshchilik qilib, o‘zi bilan birga SHarqqa ikkita ukasi — Bolduin bilan Evstafiyni olib ketdi. SHimoliy fransuz feo-dallariga Normandiya grafi Robert hamda Flandriya grafi Robert boshchilik qildilar, janubiy fransuz feodallari **Tuluziya grafi** Raymundni o‘zlariga yo‘lboshchi qilib oldilar." Janubiy fransuz episkoplaridan biri, papa tomonidan cherkov vakili (legati) qilib tayinlangan episkop Ademar ham ularga hamroh bo‘ldi. Tarentiya gersogi Boemund janubiy Italiya feo-dallariga boshchilik qildi, jiyani graf Tankred unga hamroh-lik qildi. Ritsarlar ham SHarqqa Konstantinopol orqali ketgan bo‘l-salar-da, lekin turli yo‘llar bilan bordilar. Ba’zilari Pyotr Amenskiy rahbarligidagi dehqonlar otryadlari bosib o‘tgan eski yo‘ldan, ya’ni Reyn-Dunay daryolari bo‘yidan bordilar. Boshqa otryadlar SHimoliy Italiya orqali o‘tib, so‘ngra Bolqon yarim orolidan Adriatika dengizi sohili bo‘ylab ket-dilar. Uchipchi otryadlar, butun Italiyani bosib o‘tib, keyin Kalabriyadap kemalarga tushib Bolqon yarim oroliga qarab ket-dilar na bu erdan Kopstaptipopolga bordilar. Birinchi yurishda jami bo‘lib 30—40 mipgtacha ritsar qatnashdi. Ammo ular hu-zurida ko‘pgina yarog‘bardorlar, xizmatkorlar, har qanaqangi savdogarlar bor edi; birinchi salib yurishidan omon qolgan dehqon lashkarlari ham ritsarlarga kelib qo‘shildilar.

1097 yil bahoridagina Konstantinopolga batamom yig‘ilib bo‘lgan feodal-salibchilar Vizantiya imperatoriga qasamyod qilishdap bosh tortib, uzoq vaqtgacha qaysarlik qilib yurdilar. Salibchilar SHarqda turklardan urushib olinadigan erlarni Vizantiyaga beramiz, dsb imperator oldida va’da berishni sira istamas zdilar. Nihoyat ritsarlar zimdap va’dalarining usti-dan chiqishni o‘ylamasalar-da, har qalay qasamyod qildilar.

SHundan keyingina, 1097 yil yozida, ritsarlar lashkari Kichik Osiyoga o‘tkazib yuborildi. Bu erda salibchilar **Dorileya** yonida bo‘lgan jangda turklarni majaqlab tashladilar, shundan keyin ular janubi-sharqqa, Falastin tomonga qarab ket-dilar. CHidab bo‘lmaydigan jazirama issiqda tog‘lik yo‘llardan o‘tish ular uchun g‘oyat mashaqqatli bo‘ldi. Salib **qatnashchilari-** ning ko‘plari yo‘lda halok bo‘ldi. Agar salibchilar SHimoliy Suriya chegarasida ittifoqchilarga duch kelmaganlarщха, bu yurish tamomila barbod bo‘lgan bo‘lur edi. Bu ittifoqchilar armanlar bo‘lib chiqdi. Qichik Armaniston deb atalgan o‘lka (Kilikiyada) salibchilar yordamidan manfaatdor edi, chunki u Vizantiya bilan ham, turklar bilan ham g‘oyat darajada dush-manlik munosabatida edi. Evropa feodallaridan biri — Bal-duin (Gotfridning ukgyi) tez orada Edessa knyazi, boshqasi — Suriya bilan Mesopotamiya chegarasidagi Armaniston koloniya-sining knyazi bo‘lib oldi. Salibchilarning Edessani bosib olishi strategiya jihatidan muhim- edi, chunki Edessa Suriya bilan Falastinni shimol tomondan turklar hujumidan qo‘riqlab turardi. 1098 yil yozida salibchilar

«SHarq poytaxti»—Antio-xiyani bosib oldilar, Boemund Tarenskiy Antioxiyaga knyaz boʻlib oldi. Uchinchi yirik feodal — Raymund Tuluzskiyga Tripoli oblasti (Antioxiyaning janubida) tegdi. Nihoyat, 1099 yil yozida salibchilar Quddusga etib bordilar. 1099 yilning 15 iyu-lida ular shturm bilan Quddusni qoʻlga kiritdilar. Salibchilar shaharni qattiq taladilar va uning aholisining katta qismini, musulmonlarni ham, xristianlarni ham ayamay vah-shiylarcha qirib tashladilar. Bu istilolar natijasida salibchilar Urta dengizning butun sharqiy sohilini, ya'ni ilgarigi Finikiya, Suriya va Falastinni egalladilar. Quddus, Antioxiya, Tripoli, Edessa, Tir, Sidon, Akra shaharlari ularning qoʻliga oʻtdi. Salibchilarning shimoldan janubga tomon tor mintaqa boʻlib choʻzilib ketgan mulklarining uzunligi 1200 *km* ga etar edi.

**Quddus korolligi.** Salibchilar bosib olingan territoriyada oʻz davlatlarini tuzdilar. Bu davlat Quddus korolligi deb ataldi. Bu davlatga dastlab Gotfrid Bulonskiy korol qilib saylandi, ammo Quddus korolligi Balduinning vorislari zamenila (ISK)—1118) qat'iy rasmiylashdi. Balduin Edessa knyazligini Balduin Bursheskiy degan boshqa feodalga berdi.

Quddus korolligi oʻziga xos «namunali» feodal davlati edi. Evropaning hech bir joyda, SHarqdagidek, feodal ierar-xiyasi prinsipi bu qadar izchillik bilan amalga oshirilmagan edi. Falastinni bevosita idora etgan Quddus korolligidan tashqari, shu korollikning vassal davlatlari sifatida yana uchta yirik kpmzlik: Antioxiya knyazligi, Tripoli va Edessa grafliklari bor edi. Bularning har biri ma'lum miqdorda baronliklarga, baronliklar esa oʻz navbatida ritsarlik len-larga boʻlinpsh eli.

Quddus korolligida maxsus feodal konstitutsiyasi tuzilib, u kichik feodallarning oʻz senor-baronlariga va baron ham knyazlarning korolga pisbatan boʻlgan munosabatlarini yoʻlga solib turadigan boʻldi. Nu konstitutsiya Quddus assizlari deb nom oldi. Assizlarda ritsarning bir yilda necha kun urushda xizmat qilib berishi belgilapgan edi. Feodallarning meros qoldirish tartiblari belgilandi. Assizlarga muvofiq, korol hokimiyati saylab qoʻyyladigan va cheklangan hokimiyat edi. Ko-rolni eng katta feodallar kengashi saylar edi, bu kengash Oliy palata deyilardi. Oliy palata, ayni zamonda, feodallarning da'vo va bahslarini teqshirib hal etuvchi oliy sud hisoblanardi. Knyaz va baronlarning bu palatasidan tashqari, korol oʻziga birorta ham muhim qaror qabul qila olmasdi.

Quddus korolligidagi barcha er-mulklar harbiy xarakterga ega boʻlib, ya'ni feodallardan iborat edi. SHunday qilib evro-paliklar SHarqda feodal munosabatlar koʻzga yaqqol tashlana-digan, klassik formadagi davlat barpo etdilar. Biroq SHarqda barpo etilgan yangi davlat mustahkam emas edi. Korol hokimiyati zaif edi. Ritsarlar oʻzboshimcha va inti-zomsiz edilar. Mahalliy aholi zolim «franklar»ni yomon koʻ-rardi (SHarqda barcha evropaliklarni fransuzlar nomi bilan ana shunday deb atardilar). Ritsarlar hatto qishloqlarda mahalliy aholi orasida yashamas ham edilar. Ular shaharlarda, qisman yangidan qurilgap qasrlarda istiqomat qilib, hech qanaqa roʻzgʻor (xoʻjalik) yuritmasdilar va faqat dehqonlardan olinadigan pul rentasi bilangina tirikchilik oʻtkazardilar. Gʻarbning katolik ruhoniylari kattagina er-mulklarga ega boʻl-dilar. Quddusning latin (katolik) patriarxi korollikda ko-roldan keyin ikkinchi shaxe hisoblanardi. Salibchilarning isti-lolari natijasida Italiya shaharlari katta-katta foydalar koʻrdi. Genuyaliklar bilan venetsiyaliklar Suriya va Falastin-dagi butun savdo-sotiq ishlarini oʻz qoʻllariga kiritib olib, arablar bilan vizantiyaliklarni ikkinchi oʻringa surib qoʻydi-lar. SHahar atrofidagi er-mulklarning bir qismini ham ana shu genuyaliklar bilan venetsiyaliklar oldilar. Feodallarning aksicha, Italiya shaharliklari oʻz qoʻllariga kiritib olgan er-larda xoʻjalik bilan shugʻullanadigan boʻldi. SHaharliklar bu erlarda eng qimmatli ekinlar (paxta, shakar qamishi, zaytun oʻsimligi va h. k.) plantatsiyalari barpo etib, koʻproq ishchi kuchi sifatida qullardan foydalanardilar.

**Diniy-ritsarlik ordenlari.** Salibchilar SHarqda mudofaani tashkil qilmoq uchun oʻziga xos doimiy qoʻshin tuzishga majbur boʻldilar.

1099—1100 yillarda birinchi salib yurishi tamom boʻlgan-dan keyin ritsarlarning bir qismi Evropaga qaytib ketdi. Falastinda hammasi boʻlib bir necha ming ritsar qoldi, xolos. SHundan keyin bu ritsarlarga yordam tariqasida diniy-ritsarlik ordenlari barpo etildi. Bular ayni bir vaqtda ham mo-naxlar, ham ritsarlar boʻlib xizmat qildilar. Ularning maxsus monaxlik ustavi va ayni zamonda, alohida diniy va harbiy boshliqlari — ordenlarning magistrlari bor edi.

Ordenlar bevosita papaga bo‘ysunardi. «Ritsar-birodarlar» ritsarlik yarog‘-aslahalari ustidan alohida monaxlik plashlari — mantiyalari kiyib yurardilar. Ammo qolganlari chinakam ritsarlar bo‘lib, ular odatda harbiy ta’lim kurgan, ajoyib chavandoz hamda qilich va nayzani mohirona ishlata biladigan kishilar edi. Odatda bu odamlar ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan ko‘proq ritsarlar oilasiga mansub shaxslar edi. Falastinda va Evropaning turli mamlakatlarida ordenlarni er-mulklari bo‘lib, ular shu er-mulklardan keladigan daromadlar hisobiga yashardilar. SHarqda uchti orden tashkil etildi. 1119 yilda bi-rinchi bo‘lib. tamplierlar yoki ibodatxona ahllari (fransuzcha temple — ibodatxona degan fransuz ordeni tashkil bo‘ldi, chunki orden binosi, rivoyatlarga ko‘ra, qachonlardir podsho Salomonning qadimiy yahudiylar ibodatxonasi joylashgan territoriyada bo‘lgan. Tamplierlar ordeni tashkil bo‘lgan-dan keyin, tez orada shunga o‘xshash, gospitalerlar yoki ionnitlar (o‘z homiysi avliyo Ioann sharafiga) degan italyan ordeni bunyodga keldi. Dastlabki paytlarda gospitalerlar haqiqatan o‘z oldilariga ziyoratchilar davolanadigan gospitallarda — kasalxonalarda xizmat qilishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Keyinroq 1190 yilda nemislarning uchinchi bir ordeni ta’sls etilib, u Nem i s yoki Tevton ordeni deb ataldi. Bu orden boshqa ordenlardan ancha keyinroq barpo etilib, u Falastinda uncha uzoq turmadi. XIII asr boshida Tevton ordeni Evropaga ko‘chib o‘tib, Quyi Visla daryosi qirg‘og‘i-ni o‘ziga makon qilib tanlab oldi, polyak feodallari mahalliy «majusiylar»ga —"prusslarga qarshi kurashish uchun Tevton ordenini bu erga taklif etgan edilar. Tevton ordeni Prussiyani istilo etib va shuping oqibatida «Tevton» ordeni degan nom o‘rniga «Pruss» ordeni degan nom olib, u Boltiq bo‘yida anchagi-na baquvvat davlatga aylandi va keyinchalik Polsha korolli-gpning o‘zining mustaqilligiga jiddiy xavf tug‘dira boshladi. Ikkinchi va uchinchi salib yurishlari. Biroq Quddus korol-ligi diniy-ritsarlik ordenlari tarzidagi qo‘shimcha kuchga ega bo‘lishiga qaramay, uning ahvoli juda nochor edi. XII asrning 30—40- yillarida Quddus korolligi eng kuchli korollikka ay-langap edi. Ammo 1144 yilga kelib uning erlarining anchagina qismini (Kichik Armaniston va Edessani) turklar bosib oldi. Quddus koroli turklarga qarshi Evropadan yordam berish uchuv yangi ritsarlarni chaqirishni so‘rab papaga murojaat qildi. Bunga javoban, 1147—1149 yillarda ikkinchi salib yurishi uyushtirildn. Ikkinchi salib yurishida fransuz koroli Lyudovik VII va germap imperatori Konrad III ham qatnashdilar. Lekin yurishga tortilgap harbiy kuchlar ancha ko‘p bo‘lishiga qaramay, bu yurish butuplan muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Salibchilar Quddusga xavf solayotgan Damashqni qo‘lga olmoqchi bo‘ldi-lar-u, lekin uddasidap chiqa olmadilar. Quddus korolligining ahvoli yaxshilanmadi. XII asrning ikkinchi yarmida uning ahvoli-yana. battar yomonlashdi. Salibchilar Quddus shaharining o‘zini qo‘ldan boy berib qo‘ydilar. Kurdlardan chiqqan sulton Salo-hiddin boshliq turklar 1187 yilda Quddusni bosib oldi. Sa-lohiddin (1171-—1193) markazi Misr bo‘lgan katta davlat barpo> etdi. U butun Misrni, Suriyaning bir qismini, Mesopotamiya-ning bir qismini egalladi va Quddus korolligini batamom tu-gatishga harakat qildi.

Salohiddinga qarshi Evropada yangi, uchinchi salib yurishi (1189—1192) tashkil qilindi. Uchinchi salib yurishi keng o‘yla-nilgan tadbir edi. Bunda Evropaning uchta davlati: fransuz, ingliz va german davlatlari qatnashdi. German imperatori bu vaqtgacha Italiyada ko‘pgina urushlar olib borgan, SHtaufenlar dinastiyasiga mansub bo‘lgan mashhur Fridrix I Barbarossa edi[1]. Ammo Barbarossa Suriyaning tog‘ tagidan oqib o‘tadigan daryosidan kechib o‘tish paytida 1190 yilda suvga g‘arq bo‘lganligi uchun Falastingacha etib bora olmadi. Koroldap judo bo‘lgan nemis otryadlariniig katta qismi Evropaga qaytib ketdi. Boshqa ikki korol — fransuz koroli Filipp II Avgust bilan ingliz koroli Richard I SHer yurak bir-birlariga azaldan dushman edilar. Ular Falastinga u qadar hamjihatlik bilan harakat qilmadilar. Har ikki korolning biri ikkinchisiga ishon-masdi.

Richard I SHarqdagi urushda eng aktivlik ko‘rsatdi. U avva-lo katta Kipr orolini bosib ola bildi, shundan so‘ng ingliz qo‘shinlari fransuz qo‘shinlari bilan birgalikda Urta dengiz sohilidagi muhim Akra qal’asini qamal qildilar (1191 i.). Akra ittifoqchilar tomonidan olindi. Lekin, shundan so‘ng, Filipp II Avgust Falastinni tashlab o‘z yurti — Fransiyaga qaytib ketdi. Richard Falastinda yana bir yil turib qoldi. YAffa yonidagi jangda (1192 yil avgust) Richard Salohiddinga jiddiy zarba berdi. Lekin Quddusni olishga muyassar bo‘lolma-di. U Salohiddin

bilan shartnoma tuza oldi. Bu shartnomaga ko‘ra evropalik ziyoratchilar xristianlarning muqaddas shahar-lari hisoblangan QudDus, Vifleem, Nazaret va boshqa joylar-ga bemalol boradigan bo‘ldilar.

Uchinchi salib yurishining eng muhim natijasi, yuqorida es-latib o‘tilgapidek, Kipr orolining G‘arbiy evropaliklar tomonidan istilo etilishi bo‘ldi. Keyinchalik Quddus koroli o‘z saroy ahllari bilan birga Akradan bu erga ko‘chib keldi. Salib-chilarning barcha er-mulklari ichida Kipr korolligi eng mus-tahkam korollik bo‘lib chiqdi. Bu korollik XV asrning ikkinchi yarmigacha, ya’ni 250 yil yashadi.

**To‘rtinchi yurish. Vizantiyaning** istilo etilishi. XIII asrning boshlarida papa Innokentiy III Evropani yangi salib yurishiga da’vat etdi. Bu to‘rtinchi salib yurishi edi (1202—1204). To‘r-tinchi salib yurishi o‘ziga xos yurish bo‘lib, u boshqa salib yurishlariga nomi jihatdangina aloqadar bo‘lsa-da, lyokin u butun salibchilik harakatining bosqinchilik mohiyatini ro‘yi-rost ochib bergan yurish bo‘ldi. To‘rtinchi yurish qatnashchilari hatto Falastingacha xam etib bora olmadilar. Salibchilar bu safar turklarga yoki boshqa musulmonlarga qarshi yurish qil-may, balki xristianlar"Vizantiyasiga yurish qildylar. To‘rtinchi yurish tarixida venetsiyaliklar ayniqsa katta rol o‘ynadilar, ular yurish marshrutining o‘zini ham o‘zgartirib yubordilar. Salibchilarning feodal rahbarlari dastlab Turkiya-Misr sul-toniga qarashli Misrga yurish qilishni mo‘ljallagan edilar. Misr bilan foydali savdo-sotiq olib borgan, lekin Vizantiya-ni kuchsizlantirishdan manfaatdor bo‘lgan Venetsiya, salibchi-larni dastlabki niyatlaridan qaytarib, o‘zining savdo raqibi va konkurenti Konstantinopol ustiga yurish qilishga yo‘lladi. Angellarning yangi Vizantiya dinastiyasi ichidagi alg‘ov-dalg‘ov-lardan foydalangan (Komninlardan keyin 1185 yildan -idora qila boshlagan edi) salibchilar 1204 yilda Konstantinopolni bosib olib, Bolqon yarim orolining janubiy qismida Latin imperiyasi degan yangi davlat barpo etdilar. Quddus korrligi singari, bu davlat ham tipik feodal davlat edi. SHimoliy fransuz feodali, Flandriya grafi Balduin imperiyaga boshliq qi-lib qo‘yildi. Imperiya sostavila bir nechta yirik vasallik mulklari: Fessalopika korolligi, Afina gersogligi, Axeyya knyazligi va boshqalar bor edi.

Vizantiyadan ko‘i miqdorda er-mulklarni: Qonstantinopol-ning bir qismini, Gallipol shahrini, Egey dengizidagi ba’zi orollarni, Ioniya orollarini, Krit orolini, Peloponnesning janubi;g‘arbiy qismini Venetsiya oldi. Vizantiyani istilo etishda eng katta rol o‘ynagan Venetsiya doji Enriko Dandolo «Romeya (Vizantiya) imperiyasining sakkizdan uch qismining ho-kimn dstan rasmiy nom oldi».

«Latin», ya’ni G‘arbiy Evropa feodallari Vizantiyaning mahalliy aholisini ayovsiz taladilar va ekspluatatsiya qil-**dilar.** Venetsiya Konstantinopolda, Bolqon yarim orolida va Urta depgiz sharqiy qismining ko‘pgina orollaridagi butun savdo-sotiq ishlarini o‘z qo‘liga kiritib oldi. Ammo Vizantiyaning **ba’zi** mulklari o‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Qichik Osiyoning g‘arbin sohilida savdo-sotiq ishlarida muhim o‘rin tutgan greklarnnig Nikeya imperiyasi bu mulklar orasida eng kuchlisi hisoblanardi. Kichik Osiyo shimolidagi imperiyaning bir qismi Trapezund mustaqil bo‘lib qolaverdi. Bolqon yarim orolida Epir mustabidligi (knyazligi), Latin Amerikasi na-zaridan tashqarida qoldi.

Vizantiyaning istilo etilmagan uchta territoriyasidagi eng yirik Nikeya imperiyasining imperatori Mixail VIII Paleolog latinlar zulmi ostida yashagan greklarning xayrixohligiga tayanib, 1261 yilda Koystantinopolni bosib oldi va u erdan evropalik feodallarni haydab yubordi. Vizantiya imperiyasi ana shu tariqa qaytadan tiklandi. Lekin qaytadan tiklangan Vizantiya endi kuchsizlanib qolgan davlat edi. To‘rtinchi salib yurishi buyuk davlat bo‘lgan Vizantiyani yo‘q qildi. Vizantiya qayta tiklangandan keyin uning Bolqon yarim orolidagi va Kichik Osiyoning kambar qismidagi mulklarining ancha-munchasi cheklanib qolgan edi. To‘rtinchi salib yurishi boshlanishidan burunroq, Vizantiyaga qaram holda yashagan bolgarlar 1186— 1187 yillarda uning zulmidan xalos bo‘lgan edilar. Serbiya mulklari ham taxminan shu vaqtlarda Vizantiyadan ajralib chiqqan edi.

**So‘nggi salib yurishlari.** Hammasi bo‘lib sakkiz marta salib yurishlari bo‘ldi. Lekin dastlabki to‘rtta salib yurishi eng mu-him deb hisoblanadi. Keyingi to‘rtta salib yurishida kishilar uncha ko‘p qatnashmagan, shuningdek, umumevropa xarakteriga ega bo‘lmagap yurishlar edi.

Bu yurishlarda ayrim podsholar va alohida mamlakatlar ishtirok etgan edi. Beshinchi yuriщ (1217—1221)piit shupisi qiznqki, uning tashkilotchilari to‘rtinchi yurish qatpashchilariping dastlabki plapini qandaydir amalga oshirmoqchi bo‘ldilar. Beshinchi salib yurishi qatnashchi-lari dastlab Falastinda urush harakatlari olib bordilar, keyin ular bu urush harakatlarini Misrga ko‘chirdilar. Salib-chilar Misrda Damietta shahrini bosib oldilar, lekin keyin muvaffaqiyatsizlikka uchrash natijasida o‘zlari qo‘lga kirit-gan Nil vodiysining bir qismini bo‘shatib chiqishga majbur bo‘ldilar. Falastinda urush harakatlari olib borilgan dastlabki bosqichda Vengriya koroli Andrey II katta rol o‘ynadi.

Oltipchn yurish (1228—1229) Fridrix I Barbarossaning ne-varasi —■ Fridrix II SHtaufenning SHarqqa qilgan yurishi edi. Ammo bu safar ham biror-bir arzigulik keng urush harakatlari olib borplgapn po‘q. Fridrix II kuch ishlatib emas, balki ko‘p-roq diplomatii yo‘l bilan Quddusni va boshqa ba’zi bir sha-harlarni qaptarib olishga muyassar bo‘ldi. Ammo tez orada (1244 yilda) turklar Quddusni yana qaytarib oldilar va xris-tianlar uni endn bmtamom qo‘ldan chiqardilar.

Ettinchi va sakkpzinchi salib yurishlari fransuz koroli Lyudovik IX tomopidap uyushtirilib, ular fransuzlarning SHi-moliy Afrikadagi tl’siripi mustahkamlamoqchi bo‘lgan edilar. Lyudovik IX ham ettinchi yurishda (1248—1254) Misrga hujum qildi, lekin bu hujum yapa muvaffaqiyatsiz chiqdi. Uning o‘zi asir tushib qoldi va bu asirlikdan qutulish uchun katta haq to‘lashi lozim bo‘ldi. Fransuzlarning bundan keyingi(1250 yyl-dan boshlab) qilgan urush harakatlari ham hech qanaqa natija bermadi.

Sakkizinchi yurishda (1269—1270) Lyudovik Tunis shahrini qamal qilish uchun zo‘r berib kuch to‘pladi, bundan muddao Af-rikada urush harakatlarini yanada davom ettirish uchun tayanch bazasiga ega bo‘lish edi. Ammo Tunisni qamal qilish paytida fransuzlar lagerida o‘lat kasali boshlanib, ko‘plar qatorida korolning o‘zi ham halok bo‘ldi. Bu yurish evropaliklarning so‘nggi yirik harbiy ekspeditsiyasi bo‘lib, u salibchilik hara-kati bayrog‘i ostida YAqin SHarqdagi musulmonlar joylashgan territoriyalarni bosib olishni maqsad qilib qo‘ygan edi. SHun-dan keyin SHarqqa qilinadigan yurishlar to‘xtadi. Salibchilar-ning er-mulklari birin-ketin qisqarib, turklar qo‘liga o‘ta boshladi. 1268 yilda turklar Antioxiyani, 1289 yilda — Tripo-lini, 1291 yilda — Akrani oldi. XV asrning ikkinchi yarmida Kipr oroli venetsiyaliklar qo‘liga o‘tdi.

**Salib yurishlarining ahamiyati.** Harbiy ekspeditsiyalar sifa-tidagi salib yurishlari batamom muvaffaqiyatsizlik bilan tu-gadi. Evropa feodallari SHarqda mustahkam davlat barpo eta olmadilar. Istilo qilipgan deyarli barcha territoriyalarni qoldirib ketishga to‘g‘ri keldi. Ritsarlar SHarqni tashlab chiqib ketdilar. Bir qancha sabablar shunga majbur etdiki, Evropa feodallarida yangi salib yurishlari uyushtirish ishtiyoqi qol-madi. XIII asr oxiriga kelib, Evropada siyosiy vaziyat tamomila o‘zgardi. bujudga kelgan milliy davlatlar bir-birovlari bi-. lan shiddatli va uzoq davom etgan urushlar boshlab yubordi-lar; ritsarlar o‘z harbiy hunarlarini Evropaning o‘zida ham qo‘llanish imkoniga ega bo‘ldilar. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarnsh kuchlariping o‘sishi va tovar-pul muposabatlarining yanada rivojlanishn bilan ritsarlar o‘z dshqoplaripi ishlatib katta-katta daromadlar oladigan bo‘ldilar, ritsarlarning bir qismi (masalan, Angliyada) qishloq xo‘jaligi bilan tunu kun shug‘ullana boshladi. YAqin SHarq, aksincha, bu vaqtda salibchi-lar tomonidan talangan va xarob etilgan edi. XIII asrda mo‘g‘ul-larning Urta Osiyoga bostirib kirishi YAqin SHarqning ahvoli-ni yana battarroq yomonlashtirib, Hindiston va Xitoy bilan savdo-sotiq aloqalarini qiyinlashtirib qo‘ydi. SHunday qilib, G‘arbiy Etsropa feodallari nazarida SHarq ham o‘zining avvalgi jalb qiluvchi kuchipi yo‘qotib qo‘ygan edi. Salib yurishlari bu feodallarning havasipi keltirmaydigap bo‘ldi.

Harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, har qalay, salib yurishlarining G‘arbiy Evropa taraqqiyoti uchun ahamiyati g‘oyat katta bo‘ldi. Avvalo, salib yurishlari Urta dengiz bo‘yi mam-lakatlarida Evropa savdo-sotig‘ining rivojlanishiga yordam berdi. Bu salib yurishlari natijasida arab va vizaitiyalik savdorgarlarning YAqin SHarqdagi savdo monopoliyasi qattiq zarbaga uchradi va bu erlarda Italiya, janubiy Fransiya va sharqiy Ispan (Kataloniya) shaharlari gegemoniyasi o‘rnatildi. Endilikda bu shaharlar SHarq bilan Evropaning qolgan qismi o‘rtasida vositachilik rolini o‘ynaydigan bo‘ldi. Salib yurish-lari vaqtida G‘arbiy Evropaning SHarq bilan

savdo-sotiq alo-qalari muntazam bir yo‘lga tuщgan edi. Levantiya savdosi (Evropada uni shundaydeb atardilar) G‘arbiy Evropa ekonomi-kasining uzviy bir qismi bo‘lib qolgan edi. Salib yurishlari-ning boshlarida SHarqda,n keltiriladigan tovarlar miqdori shu yurishlar oxiriga kelib o‘n marta ko‘paydi. Venetsiya bilan Genuya Urta dengizning sharqiy yarmigacha, to SHimoliy Qora dengiz sohiligacha kirib bordilar va u erlarda ko‘pdan-ko‘p savdo faktoriyalari barpo qildilar.

So‘ngra, salib yurishlar evropaliklarning SHarqning sanoat va qishloq xo‘jalik texnikasi bilan tanishishlariga imkon ber-di. Evropaliklar shu davr ichida SHarq to‘qimachilik va metallurgiya ishlab chiqarishining, bo‘yoqchilik ishyning, atir-upa va dorivorlar tayyorlash ishyning ko‘pgina usullarini o‘rgandilar, shuningdek, grechixa, shafran (za’far), sholi va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini Evropaga olib ketdilar.

SHarq maishiy masalada evropaliklarga katta ta’sir ko‘r-satdi. Ritsarlar SHarqning nozik odatlarini, saroy mulozamat («nazokati») qoidalarini o‘zlashtirib oldilar, o‘zlarining badan, yuz, sochlarini yaxshilab parvarish qiladigan bo‘ldilar. Vannalarda va yaxshi jihozlangan hammomlarda yuvinish o^at tusiga kirdi. Ritsarlik qasrlarida va shahar xonadonlarida SHarqdan keltirilgap ajoyib yangi shaxmat o‘yini paydo bo‘ldi.

SHarq bilap yaqip aloqa qilish natijasida evropaliklarning saviyasi sezilarli darajada kengaydi. SHarqda madaniy xalqlar bor ekanligini ilgari ular xayollariga ham keltir-magan edilar. Dag‘al diniy fanatizm (mutaassiblik) ideolo-giyasini qurol qilib olib salib yurishlar boshlagan ko‘pgina g‘arbiy evropalik feodallar va savdogarlar SHarq hayoti bilan tanishgaplaridan keyin, boshqa dinlarga ancha-muncha yo‘l qo‘yadi-gan bo‘ldilar. Evropaliklar xristian dinini musulmon dini bilan taqqoslab ko‘rib, xristian dinining o‘ziga va xususan salib yurishlarp davrida o‘rta asr papaligi tomonidan bevosita amaldn qo‘llanilgan teokratizm ideyaga nisbatan ba’zi bir taiqidiy «idisha va mulohazalarga kela bildilar.

Ammo salib yurishlarining G‘arbiy Evropaga ko‘rsatgan t-a’-siri hyaqidi pshirilar ekan, Arablar SHarqining madaniyati salib yurishlarndan tashqari, boshqacha yo‘llar bilan, jumla-dan, Ispanii orqpli Evropaga o‘tib kirganligini ham unutmas-lik kerak. Ispaniya arablari yoki mavrlar G‘arbiy Evropani-arab madaniyatiippg bir qancha juda muhim tomonlari bilan tanishtirgan edilpr. Np.chaitiyaning butun o‘rta asr davomida Italiya, ayniqsa Venetsii orqali ko‘rsatgan ta’siri bilinib turardi. Ikkinchi tomopdai, G‘arbiy Evropaning o‘zi XI—XIII aerlar davrida o‘zining ishlab chiqaruvchi kuchlarining o‘sishi jarayonida yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy formalar yaratdiki, salib yurishlari bu formalarning rivojlanishiga faqat bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi, xolos. CHunonchi, dehqonlarning krepostnoy qaramlikdan ozod bo‘lishi, markaz-lashgan davlatlarning rivojlanishi, shaharlarning ravnaq topishi Evropadagi tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos jarayoni-dan boshqa narsa emas edi. Salib yurishlari keyingi o‘rta asr Evropasi hayotidagi bu eng muhim hodisalarning rivojini tezlatdi, xolos.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .

МГУ. 2001.

4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.

5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: Rivojlanga o’rta asrlarda Fransiya. ( 2 soat)

**Reja:**

**1. XVI asrda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti.**

**2. Fransuz absolyutizmi va uning ijtimoiy tabiati.**
**3. Gugenotlar urushi. XVI asr o'rtalarida frantsuz monarxiyasining inqirozi.**
**4. Gugenotlar urushining ikkinchi davri.Gugenotlar urushlarining tugashi. Nant edikti.**
**5. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmida Fransiya madaniyati.**

## XVI asrda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti.

XVI asrda Frantsiya G'arbiy Yevropada markazlashgan eng yirik davlat edi. U iqtisodiy taraqqiyotida ancha katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Frantsiya iqtisodiy jihatdan Ispaniyaga, ichki Germaniya, Janubiy Italiya va Skandinaviya mamlakatlariga qaraganda ko'proq rivoj topgan mamlakat edi. Frantsuz sanoatining ba'zi tarmoqlari endi tsex xunari ramkasidan chiqib, markazlashtirilgan hamda tarqoq manufakturalar shaklida rivojlana boshlagan edi. Ayniqsa Puatu viloyati va Pikardiyadagi movut ishlab chiqarish, Bretan, Men va Normandiyadagi polotno (kanop, surup) ishlab chiqarish, Tur, Lion, Orlean va boshqa joylardagi shoyi to'qish - manufakturaning ana shunday shakllari rivojlanib borayotgan sanoat tarmoqlari edi. O'sha vaqtlardayoq Parijning attorlik (parfyu-meriya) va zargarlik mollarining dongi hamma yoqqa tarqalgan edi. Frantsuz bosmaxonalarida (Eten firmasi va boshqalarda) bosilgan kitoblar Frantsiyaning o'zidagina emas, balki Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham tarqalar edi. Frantsuzlar yasagan zambaraklar XV asrdayoq butun Yevropadagi eng yaxshi to'plar deb hisoblanar zdi.

Frantsiya ilgarigidek O'rta dengiz orqali qizg'in savdo-sotiq ishlari olib borardi. Marsel mamlakatning eng katta porti bo'lib qolgan edi. Bordo, Laroshel, Nant, Gavr, Depp shaharlari ham katta portlarga aylanib bormoqda edi. Lion shahrida olib boriladigan savdo-sotiq ishlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, bu shahar g'oyat katta pul bozori edi. Lion birjasi Antverpen bilan raqobat qilardi.

Ammo shunday bo'lsa ham, Frantsiya iqtisodiy jihatdan Angliya bilan Niderlandiyaga qaraganda sekinroq rivojlanmoqda edi. Frantsiyaning manufakturalari mazkur ikki mamlakat manufakturalari kabi keng (milliy) tus olmagan edi. Aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. XVI asr Frantsiyada servaj shaklidagi shaxsiy-krepostnoylik munosabatlari kamdan-kam uchraydigan bo'lib qolgan edi. Dehqonlarning juda ko'pchiligi chinsheviklardan, ya'ni meros yerlarga egalik qiluvchilardan iborat edi, ular umuman olganda odat huquqiga muvofiq yerga egalik qiluvchi ingliz dehqonlariga (kopigolderlarga) o'xshardi. Dehqonlar to'laydigan tsenz, ya'ni pul rentasi doim bir tarzda, bir me'yorda bo'lar edi. Frantsuz dvoryanlari ingliz dvoryanlaridan shu bilan farq qilardiki, ularning dehqonlar qo'lidagi yerlarni tortib olishlari uchun biron muhim bahona yo'q edi, chunki Frantsiyada yirik-tovar qishloq xo'jaligini tashkil etishni taqozo qiluvchi ham ichki, ham tashqi sabablar yo'q edi.

Avvalo, Frantsiyada qishloq xo'jaligi texnikasinnng umumiy darajasi juda past edi. Ekinlarning hosili avvalgidek juda past edi. Ammo feodallar dehqonlardan juda ko'p soliqlar olardi. Odatda, Frantsiyadagi chinsh (tsenz) Angliyaning «odat»dagi rentasidan ko'p bo'lardi. Frantsuz dehqoni o'z senyorlariga chinshdan tashqari yana qo'shimcha har xil katta va kichik to'lovlar byerishga majbur edi. So'ngra, frantsuz dehqoni davlatga ham katta-katta soliqlar to'lardi. Frantsuz dehqoni yer egalarga feodal rentasini aslda ikki marta to'lardi: bir marta chinsh tariqasida va u bilan bog'liq bo'lgan har xil to'lovlar shaklida o'zining mahalliy yer egasi - senoriga to'lar, ikkinchi marta esa davlat soliqlari tariqasida umuman butun feodallar guruhiga (o'ziga xos markazlashgan feodal rentasi qilib) to'lar edi. Katolik cherkovi foydasiga ushur (desyatina) ham saqlanib qolgan edi. Biroq, frantsuz dehqoni bulardan boshqa yana bir «tsenz» to'lashga majbur edi. Frantsuz dehqonlarining juda ko'pchiligi sudxo'rlardan qarzdor bo'lib qolgan edi. Shunday qilib, dehqon yer uchun aslda yana bir renta to'lashga majbur edi, bu renta esa sudxo'rga to'lanar edi. Bu rentaning tsenzdan tashqari to'lov yoki qonunlashtirilgan renta degan maxsus nomi bor edi.

**Frantsuz absolyutizmi (qirolning mutlaq xokimiyati) va uning ijtimoiy tabiati.** Frantsiyada siyosiy tuzum XVI - XVII asrlarda eng rivojlangan klassik absolyutizm shaklini oldi. Mamlakatda yuqori imtiyozli toifa bo'lgan feodal dvoryanlar guruhi frantsuz

monarxiyasining asosiy ijtimoiy negizi edi. Tashkil topayotgan burjuaziya ham, o’z zamonida qirol hokimiyatining ishonchli ittifoqchisi bo’lib kelgan edi. Burjuaziyaning markazlashgan feodal davlat bilan bog’lanishining yangi muhim shakli davlatning moliyaviy ishlaridan burjuaziyaning manfaatdorligi edi. Davlat xarajatlari (ayniqsa urushlar munosabati bilan) ortib borgan sari davlat burjuaziyadan ko’proq qarz olardi. Burjuaziya bilan davlat xo’jaligi o’rtasidagi aloqaning yana bir shakli - otkup (ijaraxo’rlik) sistemasi zdi. O’rta asrlar oxiridan boshlab, Frantsiyada davlat mansablarini pulga sotish va sotib olish tartibi mahkam o’rnashib qolgan edi. Burjuaziya bunga foyda keltiruvchi savdo muomalasining bir xili deb qarardi. Sudlardagi xar xil mansablar ayniqsa ko’p daromad keltirardi.

Yirik frantsuz burjuaziyasining ko’pchiligi o’z manfaatlari jihatidan absolyutizm bilan cham-barchas bog’langan edi va xonavayron bo’lgan dvoryanlarning mol-mulklarigina emas, balki ularning darajalari va unvonlarini ham egallab olib, sekin-asta dvoryanlashmoqda edi. Mayda burjuaziyaga kelganda, uning o’zi davlatning og’ir moliyaviy zulmi dastidan azoblanmoqda edi. Dehqonlar bilan birga shahar mayda burjuaziyasining ham davlat soliqlari tufayli tinkasi qurimoqda edi.

## Gugenotlar urushi.

Gugenotlarning urushi 36 yil davom etdi (1562-1598). Bu urush 1562 yil 1 martda Vassi shahri-dagi ur-yiqitlar bilan boshlanib ketdi. 1572 yilda saroyda bir reja paydo bo’ldi, bu rejada tashqi siyo-sat vositasi orqali katoliklarni gugenotlar bilan yarashtirish mo’ljallangai edi. Karl IX ning singlisi Margarita Valua, o’lib ketgan Antuan Burbonning o’g’li Genrix Navarrskiyga yerga tegayotgan edi, Genrix Navarrskiy esa, bu vaqtda gugenotlarning bosh pahbapi bo’lib qolgan edi. Ammo bu bitishuv Gizlar hamda Yekaterina Medichi tomonidan buzildi. Parijga nikoh to’yiga kelgan, gugenotlar 1572 yil 24 avgustga o’tar kechasi xoinona qirib tashlandi. Bu Varfolomey kechasi deb atalmish voqea faqat Parijdagina yuz berib qolmadi.

Varfolomey kechasidan keyin gugenotlar urushining ikkinchi davri boshlandi. Bu urush birinchi davrdagi urushlarga qaraganda ancha shafqatsizlik bilan olib borildi. Bu vaqtda Frantsiyaning janubi va g’arbi shimoldan butunlay ajralib ketgan edi. U yerda gugenotlarning mustaqil ittifoq davlati tuzilgan edi. Umumiy ittifokqa kirgan turli viloyatlarni mahalliy zodagonlar orasidan chikqan gubernatorlar idora qilardi, ular ana shunday «avtonomiyadan» ko’proq foyda ko’rgan edi. 70 - yillarda gugenotchilikning siyosiy ideologiyasi ham aniq shaklga kirdi. Ularning qatorlarida bo’lgan bir qancha jo’shqin va iste’dodli publitsistlar o’z pamfletlarida qirollik absolyutizmini qoralar, o’rta asr Bosh shtatlarini ko’klarga ko’tarib maqtar, davlat hokimiyatining ijtimoiy shartnoma» yo’li bilan kelib chiqishi haqidagi nazariyani rivojlantirar edilar.

Biroq, gugenot-monarxomaxlarining (Monarxomaxlar-grekcha so’z bo’lib, monarxlar bilan kura-shuvchi deb tarjima qilinadi) nazariyalarida respublikachilik, zolimlarga qarshi kurash ohanglari aristokratlarga mehr qo’yish bilan chambarchas chatishib ketgan edi. Ular «xalq deb xalqning eng yaxshi qismini, ya’ni aristokratlarni ko’zda tutardilar. «Biz xalq deganda, - deb yozdi monarxomax-lardan Yuber Lange, - biz butun xalqni emas, balki uning namoyandalari bo’lgan gertsoglar, shah-zodalar, zodagonlarni ko’zda tutamiz. Avom xalqning hokimlik qilishidan yoki dvoryanlarni yo’q qilishga intiluvchi o’ta demokratlardan saqlaningiz» degan edi.

O’z umrini yashab bo’lgan eski tartiblarga qaytish ishtiyoqidagi gugenotlar aristokratiyasi siyosiy dasturining reaktsion xarakterini publitsist Fransua Otman (1524-1589) o’zining «Franko-Galliya» (1573-yil) pamfletida ochiq-ravshan namoyon qildi. Bu asarida u quyidagilarni yozgan edi: «Mero-vinglar va Karolinglarning eski tartiblariga qaytish kerak, u paytda butun aholi o’z-o’zini boshqarishda ishtirok etar va qirollarni saylar edi». Otmanning ideali boshqarishning tarqoq shakli bo’lib, unda Frantsiyani tashkil qiluvchi viloyat-davlatlar konfedyeratsiyasini qirollikning eng yaxshi va eng e’tiborli kishilari boshqarishlari kerak edi. Eten Laboesi (1530-1563) monarxomaxlar orasida eng radikal-demokratik pozitsiyada turardi. U 1562-1563 yillarda yozilgan, ammo keyinroq 1574 va 1576 yillarda bosilib chiqqan «Ixtiyoriy qullik xaqida mulohazalar» kitobining avtori edi. Gugenot yozuvchi Agripp d’ Obine (1552-1630) o’z dostonlari va .memuarlarida monarxomaxlik, zulmga qarshi kurash motivlari aks

etgan. Bu yozuvchi Varfolomey kechasidagi dahshatlar, uchun Yekaterina Medichi va Karl IX dan o'ch olishga chaqirgan edi.

**Gugenotlar urushlarining tugashi. Nant edikti.** Yangi qirolning ahvoli dastavval ancha mushkul edi. Parij «yeretik» qirolni tan olgisi kelmadi. O'ldirilgan Genrix Gizning ukasi gertsog Karl Mayenskiy yangi qo'shinlar to'plab, gugenotlarta qarshi urushni yangidan boshlab yubordi. Filipp II Ispanskiy katoliklarga yordam berish uchun Frantsiyaga o'z qo'shinlarini yubordi. U Parijga qirol qilib o'z odamini o'tqazishni mo'ljallagan edi.

Genrix IV liga qo'shinlarini Arka va Ivra yaqinida 1589 va 1590 yillarda ikki marta tor-mor keltirdi. Ammo hali qat'iy g'alabani qo'lga kiritmagan edi. Turli viloyatlarda dexqonlarning hokim guruhlarga qarshi keng harakati ko'proq, azob chekkan g'arbiy viloyatlarda (Puatu, Sentonj, Limuzen, Marsh va Perigor viloyatlarida) ayniqsa kuchayib ketdi. Perigorda qo'zg'olon ko'targan dehqon-larning soni 40 ming kishiga etdi.

Genrix IV ga dehqon qo'zg'olonlarini bostirish uchun ko'p kuch sarf etishga to'g'ri keldi. Lekin gertsog Mayanskiy ham gugenotlarga qarshi kurashishdan ko'ra, ko'proq katoliklar orasidagi demokratik elementlarta qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldi. Parijdagi «16 lar komiteti» gertsogga qarshi qattiq janjal ko'tardi. Shu tufayli 1591 yilda gertsog va uning ittifoqchilari komitetni tugatdilar. Gertsog xokimiyatni o'z qo'lida saqlab qolishdan umidini uzib, Genrix IV bilan yashirin muzokaralar boshladi, u ma'lum mukofot evaziga Genrixga ko'maklashishga va'da berdi.

Genrix IV ning protestantizmi bu yarashishga to'siq bo'lganligi tufayli, u katolik diniga o'tishga qaror berdi (1593 yil 25 iyul). Genrix IV 1594 yil martida poytaxtga kirib keldi; bundan bir oy ilgari u Shartr shahrida Frantsiyaning shubhasiz qiroli sifatida toj kiygan edi. So'nggi o'ninchi urush (1594 -1598) qisman liga a'zolariga, asosan esa Filipp II Ispanskiyga qarshi olib borildi. U Frantsiyaga qarshi Niderlandiyadan harbiy platsdarm sifatida foydalangan edi. Ammo hujum muvaffaqiyat qozona olmadi. 1598 yilda ispan qo'shinlari Verve shahri yaqinida (Ispaniya Niderlandiyasida) Genrix IV qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchratildi.

Gugenotlarning urushlari 1598 yilda Nant edikti elon qilinishi bilan tugallandi. Genrix IV bu ediktda gugenotlarni qirol xokimiyati bilan yarashtirishga urindi. Edikt katolitsizmni Frantsiyaning davlat dini deb e'lon qildi. Butun Frantsiyada katolik ibodatlar tiklandi. Katolik ruxoniylariga yerlari va boshqa mulklari qaytarib byerildi. Ammo shu bilan bir vaqtda gugenotlar ham o'z dinlariga e'tiqod qilish imkonini oldilar. Gugenotlar o'z cherkov yig'inlari (sinodlar) va alohida siyosiy majlislar to'p-lash huquqiga ega bo'ldilar. Ular qirol huzurida o'zlarining alohida vakillari bo'lishi huquqini oldilar. Xukumat ediktdagi moddalarni bajarish garovi sifatida 200 ga yaqin qal'ani gugenotlar ixtiyorida qoldirdi. Nant edikti, moxiyat e'tibori bilan odatdagi qirol farmoni emas edi. Bu edikt urush qilayotgan ikki tomon o'rtasidagi yarash bitimi ediki, bularning hech biri bir-biriga o'z irodasini majburan qabul qildirish uchun yetarli kuchga ega bo'lmay qolgan edi.

Nant edikti G'arbiy Yevropada din erkinligini e'tirof etishning birinchi namunasi edi. Genrix IV bunday chora gugenotlarni markaziy hukumatga bo'ysundirish uchun eng qulay chora bo'lar deb hisoblagan edi. Uning bu mo'ljali bir daraja tug'ri bo'lib chiqdi. Eng yirik gugenot dvoryanlari siyosiy oppozitsiyadan tezda qayta boshladilar va shu bilan birga o'z dinlarini o'zgartirib, katolitsizmga qayt-dilar. O'zgargan vaziyatda aristokratlarga protestantizm endi kerak bo'lmay qolgan edi.

**XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmida Frantsiya madaniyati.**

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmidagi Frantsiya tarixining jo'shqin siyosiy davriga frantsuz madaniyatining ancha jonlanishi va taraqqiy etishi, mos bo'lib tushgan edi. Bu davrdagi Frantsiya madaniyati tarixida ikki jihat: 1) frantsuz tilining badiiy jixatdan shakllanishi ham-da klassik frantsuz adabiyoti deb ataladigan adabiyotning vujudga kelishi va 2) frantsuz ratsionalistik falsafasining rivojlanishi ayniqsa e'tiborni jalb qiladi.

Frantsuz tili XVI asrning birinchi yarmi va o'rtalaridayoq frantsuz shoir-gumanistlari tomonidan adabiy jihatdan puxta ishlangan edi. Rablening o'ziyoq «Gargantyua va Pantagruel» romanini nashr etish orqali frantsuz adabiy tilini xalq tiliga yaqinlashtirish yo'li bilan bu tilni

demokratlashtirish uchun ko'pgina ish qildi. 1549 yilda «Frantsuz tilini himoya qilish va ulug'lash» adabiy pamfletining nashr etilishi frantsuz adabiy tili masalalarini hamda uni rivojlantirish va takomillashtirish metodlarini ishlab chiqishda ayniqsa katta-ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asar mashhur shoirlar Pyer Ronsar (1524-1585) va Joaken dyu Belle (1522-1566) boshchilik qilgan «Pleyada» adabiy gruppasi tomonidan bosib chiqarilgan edi. «Frantsuz tilini himoya qilish va ulug'lash» asarida frantsuz tilining olijanob fazilatlari haqidagi fikr zo'r dabdaba bilan bayon etilgan edi. «Pleyadaning» frantsuz tilini isloh qilish sohasidagi ishini XVI asrning 90 - yillarida va XVII asrning birinchi choragida adabiyotchi Fransua de Malerbo (1555-1628) davom ettirdi. U ham adabiyotchilar, filologlar va shoirlarning aloxida guruhiga boshchilik qilar edi. Malerb va uning do'stlari tilning lug'at asosida, grammatika asosida, shuningdek, she'r tuzilishi, radiflar va shu singarilar asosida frantsuz tilining bir xil va barcha yozuvchilar, uchun majburiy bo'lgan qoidalarini ishlab chiqishga intildilar.

XVI asrning ikkinchi yarmida, Frantsiyada ratsionalistik falsafaning dastlabki vakili, so'nggi frant-suz gumanisti Mishel Monten (1533-1592) edi. Monten o'zining asosiy asari «Tajribalar»da (1588 yil) aql-idrokning ustunligi haqidagi g'oyani asosiy fikr sifatida keltiradi. Aql-idrok, Montenning fikricha, tabiiy voqealarni va ijtimoiy hayot voqealarini baholashga eng yuksak mezondir. Monten o'z zamonasidagi voqelikning «aqlga to'g'ri kelmasligini» zo'r aql va kulgi bilan fosh qilib, grajdanlar (gugenotlar) urushlari davrida har ikkala diniy partiyalar fanatizmini qoraladi, odatda siyosiy arboblar amal qiladigan vahshiylik, zo'ravonlik va boyishga intilishni fosh etdi. Frantsuz ratsionalistik falsafasining XVII asrdagi eng yirik namoyandasi Rene Dekart (1596-1650) edi. U Gollandiyada o'zining asosiy asarlari: «Metod to'g'risida mulohazalar» (1637-yil) va «Falsafa asoslari» (1644 yil) yozdi. Dekart birinchi o'ringa bilishning induktiv metodini emas, balki deduktiv metodini (umumiydan xususiyga, aql ma'lumotlaridan ayrim kuzatishlarga o'tish metodini) qo'ydi. Dekart aql-idrokni yuqori qo'yib, sxolastik falsafaning qoldiqlariga va uning «mustaxkam» obro'siga zarba berdi va zamonaviy tabiiyot fanining ma'lumotlariga asoslandi. Dekart ob'ektiv dunyoning realligini va materialligini tan oldi; dunyo, Dekartning fikricha, materiyaning juda mayda zarrachalaridan iborat. Tabiatdagi barcha o'zgarishlarni, hatto koinotning Quyosh, yulduzlar, planetalar va shu singarilarning vujudga kelishini materiyaning harakati bilan tushuntirar edi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Gobelen, feodal, barshchina, obrok, zig'ir, parfyumeiya, attorlik, zargarlik, tsenz, kanop, surup, desyatina, kopigolderlar, feodal, Gugenotlar urushi, Varfolomey, gugenotlar, yeretik, Nant edikti, Karl IX, Yekaterina Medichi, Marsel, protestant, diniy urishlar, papa, katolik, xalqaro savdo, zambaraklar, Eten firmasi.

**Nazorat savollari:**

1. XVI asrda qaysi davlat G'arbiy Yevropada markazlashgan eng yirik davlat edi?
2. Genrix IV liga qo'shinlarini qayerda ikki marta tor-mor keltirdi?
3. Perigorda qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning soni qancha kishiga etdi?
4. Gugenotlarning urushlari 1598 yilda kimni edikt e'lon qilinishi bilan tugallandi?
5. Frantsuz ratsionalistik falsafasining XVII asrdagi eng yirik namoyandasi kim edi?

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: Rivojlanga o'rta asrlarda Angliya ( 2 soat)

**Reja:**

**1.XI-XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi.**
**2. Qirol Genrix II davrida Angliya.**
**3. XIII asrda Angliyaning iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyoti va parlamentining vujudga kelishi.**
**4. Uot Taylyer qo'zg'oloni.**
**5. Lankasterlar va yorklar. Qizil va oq gullar urushi.**
**6. XV asrda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti.**

### XI-XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi

XI asrdagi o'rta asrlar Angliyasi tarixidagi eng yirik voqea Normandiya gertsogi Vilgelmni Angliyani istilo qilishi bo'ldi. 1066 yil 14 oktyabrda Vilgelm La-Mansh bo'g'ozidan suzib o'tib, 15 minglik ritsarlar qo'shini bilan Angliyaga bostirib kirdi. Vilgelm qo'shinida normandlargina emas, balki Frantsiyaning boshqa viloyatlarning yer-mulk va krepostnoylar izlovchi ritsarlari ham bor edi. Ingliz-saks qo'shinlari Gastings jangida mag'lub bo'ldi, Garold o'ldirildi. Vilgelm London, Duvr, Kenterberi va Sau-tvork shaharlarini bosib oldi. U Londonda 1066 yil 25 dekabrda Vilgelm I - ( Vilyam I) Angliya qiroli deb e'lon qilindi. Normandlar hukmronligiga qarshi Angliyaning shimolidagi qo'zg'olon (1068 va 1071 yy) bostirilgach, Vilgelm I ning hokimiyati uzil-kesil mustahkamlandi. York vodiysi vayron qilindi, «kvadrat» qasrlar qurildi. (Tauyer lotincha «minora»).

Ingliz-saks feodallari va yepiskoplarining o'rnini yangi frantsuz-normand kelgindilari egalladi. Mamlakatning 1/7 qismini Vilgelm o'ziga oldi. U yangi baronlarga yerlarni turli grafliklardan taqsimlab berdi. Yangi feodallar qiroldan minnatdor bo'lishlari, o'z yer-mulklari uchun harbiy xizmat o'tashlari va myeroslaridan boj soliqlari to'lashlari kerak edi. Vilgelm faqat o'z vassallaridangina emas, balki vassallarining vassallaridan ham qirolga qasamyod etishni talab qildi. Angliyada harbiy-feodal tizimi qattiq markazlashgan tus oldi. Feodal-krepostnoylik munosabatlari rivojlandi va kuchay-di. Erkin bo'lgan ko'p dehqonlar shaxsiy erkinlikdan mahrum bo'ldilar, «normandlar qulligi» davri boshlandi.

Vilgelm 1086 yilda aholini ro'yxatga oldirdi va bu hujjat «Dahshatli sud kitobi» deb ataldi. 1086 yilgi ro'yxatda dehqonlar turli nomlar ostida gavdalandilar: ozod kishilar (kelajakda ular frigoldyerlar yoki yerni erkin tasarruf qiluvchilar deb ataldilar), sokmenlar, villanlar, bordarilar, kottarilar shunintdek, ko'pgina miqdorda qullar ham uchraydi. Qirol yer egaligining hajmi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'ldi va «Daniya puli» nomli eski yer solig'ini ko'paytirilgan miqyosda undirdi. Angliyaning shimoli-sharqiyda, 1086 yilgi ro'yxatda dehqonlarning yarmi «erkin kishilar», qisman sokmenlar holatida qolaverdi. Vilgelm mamlakatda osoyishtalikni ta'minladi. Jun ingliz xalq xo'jaligini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Genrix I davrida (1100-1135 yy) qirollik sudi kuchayib, u mutaxassis-sudyalari bo'lgan va muntazam ravishda ish olib boruvchi sud palatasiga (qirol kursisi sudi) aylandi. Qirol sudyalari vaqt-vaqti bilan mamlakat bo'ylab safarga chiqib, ayrim grafliklarda sud ishlarini olib borardilar. Moliya boshqarmasi tashkil topdi. Oliy moliya palatasi shaxmat taxta palatasi deb atalar edi. Erkak zurriyodi yo'q Genrix I vafotidan so'ng, Angliyada uzoq davom etgan o'zaro urushlar boshlandi. Stefan Bluasskiy va Matilda o'rtasidagi kurash 20 yil davom etdi. 1154 yilda taxtga Matildaning o'g'li Genrix II Plantagenet chiqdi.

### Qirol Genrix II davrida Angliya.

Qirol Genrix II mulklariga (1154-1189 yy) Angliya va Normandiyadai tashqari, Frantsiyadagi - Anju, Puate, Turen va Akvitaniya kirar va «Anju imperiyasi» deb atalar edi. U qirol hokimiyatining obro'sini ko'tarib, grafliklarning barcha sheriflarini o'zgartirib, o'ziga ishonchliroq bo'lgan yangi odamlarni tayin etdi. Feodallar o'zboshimchalik bilan qurgan

«qonunsiz» qasrlarning yo'q qildi, qirollik sudining ahamiyatini oshirdi. U sud maslahatchilari lavozimini joriy etib, har bir ritsarga, har bir shaharlik va erkin dehqonga feodal va baronlarning sudlariga emas, balki qirollik sudiga murojaat etish huquqini berdi. Sayyor qirollik sudlari joylarda ish ko'rgan paytlarida, bu ishni tekshirish uchun alohida «maslahatchilar»ni mahalliy ritsarlar va badavlat frigolderlarning vakillarini (12 kishidan) jalb qilar edilar. Qirollik sudi barcha tabaqalarni yirik feodallarning zulmidan ma'lum darajada himoya qildi. Krepostnoy villanlar-xo'jayin lordlarning zulmi ostida qoldirildi. Maslahatchi-guvohlar aybla-nuvchini qoralaydigan yoki oqlaydigan hukm chiqaruvchi maslahatchilarga, maxsus sud jyurisi a'zolariga aylandilar.

Qalqon puli. Genrix II doimiy qo'shin tuzish uchun ritsarlarning bir qismini harbiy xizmatdan bo'shatib, qalqon puli solig'ini joriy etdi. U ingliz cherkovini tamomila o'ziga qaram qilish uchun, episkoplar va abbatlarning saylovi mening ishtirokimda o'tkazilishi kerak, ruhoniylarni jinoyatlari ham qirollik sudida ko'rilishini talab qildi. U ingliz cherkovining boshlig'i, Kenterberi arxiepiskopi Foma Beketning qarshiligiga duch keldi. Beket 1170 yilda o'ldirildi. Baronlar bundan Genrix II ga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga bahona sifatida foydalandilar. Genrix II Klarendondagi 1164 yildagi qarorlarni bekor qildi va Irlandiyani istilo qilish payiga tushdi. 1189 yilda qirolga qarshi fitnada qirolicha Eleonora va shahzodalar, ya'ni Genrix bilan Eleonoraning bolalari qatnashgan edilar.

Genrix II ning o'g'illari Richard I Sher Yurak (1189-1199yy) va Ioann Yersiz (1199-1216yy) davrlarida qirol hokimiyati zaiflashib qoldi. Richard deyarli Angliyada yashamadi ham. Ioann Yersiz Filipp II Avgust bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Normandiyani, Anjuni va Frantsiyadagi boshqa mulklarni qo'ldan boy berdi. U papa Innokentiy III bilan to'qnashib qoldi. Papa Ioanni cherkovdan quvib, butun Angliyada ibodat qilishni man etdi (1208 y). U o'zini papaning vassali deb tan oldi va har yili papaning xazinasiga bir ming funt sterling xiroj to'lash majburiyatini oldi (1213 y.).

1215 yilning yozida Ioann Yersizga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Eng yirik baronlar qo'zg'olonga rahbarlik qildilar, qo'zg'olonga ritsarlar, London shahri aholisi ham qo'shildi. Ioann 1215 yil 15 iyunda Buyuk erkinlik xartiyasiga imzo chekdi: Xartiya 63 moddadan iborat, lotin tilidagi katta siyosiy hujjat edi. Xartiya baronlarga va feodallarga o'z feodal mulklarini meros qilib qoldirishni va «odatga ko'ra» mo'tadil vassallik to'lovlari to'lashni ta'minlar edi. Ular uchun imtiyozli bo'lgan «Tenglar sudi» (pyerlar sudi)ularning ixtiyoriga topshirib qo'yildi. Tenglar sudining qonuniy hukmidan va mamlakat qonunlaridan tashqari, Angliyada birorta yerkin kishi qamoqqa olinmaydi, avaxtaga qamalmaydi, mol-mulkidan mahrum etilmaydi, yoki yurtdan haydab yuborilmaydi 39-modda. 34 modda baronlarning sud manfaatlarini ko'zda tutib, unda baronlarga qarashli sudlar saqlab qolindi va qirollik sudlari bu sudlarning ishiga aralashmasligi kafolatlandi. Baronlar va ritsarlardan iborat Buyuk qirollik kengashi tuzildi (12-14-moddalar). Shu kengashning roziligidan keyingina qirol feodallardan qo'shimcha mablag'lar olishi mumkin edi. Xartiyadagi moddalarga qirol rioya qilmasa, 25 barondan iborat Alohida komitet qirolga qarshi feodallarni qo'zg'olonga chaqirish huquqiga ega edi (61- modda).

Xartiya shaharliklarga ichki va tashqi savdo-sotiq yerkinligini, suv yo'llarida monesiz safar qilishni, uzunlik va og'irlik o'lchovlari birligini va shaharning o'z-o'zini idora qilishini kafolatladi. Dehqon - frigolderlar ritsarlar bilan birga o'zlariga qarashli yerlarga hech kimning tiqilmasligi kafolatini oldilar. Krepostnoy dehqonlarga Buyuk erkinlik xartiyasi hech qanaqa erkinlik bermadi.

### XIII asrda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti va parlamentining vujudga kelishi

XIII asr mobaynida Angliyada qishloq xo'jaligi ham, sanoat ham zo'r berib taraqqiy etdi, agronomiyaga doir traktatlar bosilib chiqdi. Angliyada qo'ychilik ayniqsa ko'p rivojlana boshladi. Qo'y juni Flandriyaga ko'p miqdorda jo'natildi, mahalliy movutsozlik rivojlandi. Qishloq xo'jaligida ichki va tashqi bozor vujudga keldi. Dehqonlar, frigolderlar, ritsarlar tovar munosabatlariga tortilgan edi. XIII asrda shaharlar o'sdi: shaharlar soni XI asrdagiga qaraganda 50%dan ortiqroq ko'paydi, shahar aholisi 5 dan 15% ga ortdi. XIII asr boshidayoq 80 dan ziyod

shahar o'zini-o'zi idora qilish huquqiga ega edi; shaharlar muayyan yillik vznoslar (firmalar) to'lashi evaziga qiroldan shahar kengashini yerkii saylab qo'yish, shaharliklarning o'zlari soliq solish, bozorlarga ega bo'lish va boshqa huquqlarni qo'lga kiritdilar. Tsexlar-gildiyalar rivojlandi.

XIII asr dehqonlar ommasini eng ko'p asoratga tushirish davri bo'ldi. Villanlar turar joyiga biriktirilgan bo'lib, haftalik barshchinani (yozda haftada 5 kungacha) o'tashga majbur bo'lgan, lordga nikoh solig'i va boshqa soliqlar to'lagan, uning sudiga bo'ysundirilgan tamomila krepostnoy kishi edi. Lordlar keng yaylovlar va mol boqiladigan yerlarni bosib oldilar. Ayrim grafliklarda frigolderlar - yerkin dehqonlarni ham lordlar barshchina ishlashga majbur qilardilar, frigolderlarda tabaqalanish yuz byerib, frigolderlarning ko'plari kam yerli kishilarga aylandilar. XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy ziddiyatlarning birinchisi, yirik feodallar: lordlar, yepiskoplar, yirik monastirlarning abbatlari o'rta-sida, ikkinchisi-mayda ritsarlar o'rtasida kelib chiqdi. Mayda ritsarlar o'z xo'jaliklarida batraklar mehnatidan foydalanib, ularni kam yerli dehqonlar-kotterlar hisobidan yollardilar.

Ioann Yersiz Buyuk erkinlik xartiyasini imzolasada, haqiqatda uni bajarmoqchi emas edi. La-pashang va beqaror Genrix III (1216-1272yy) baronlar oligarxiyasi qo'lida uzoq vaqtgacha qurol bo'lib qoldi. Shahzoda Edmundning Sitsiliya taxtini istilo qilishi uchun qirol 1258 yil bahorida baronlar va ritsarlardan ular oladigan daromadlarning to'rtdan uch qismini to'lashlarini talab etdi. Baronlarning Oksforddagi «quturgan parlamentda» alohida konstitutsiya («Oksford oziq-ovqatlari») ishlab chiqdi. Bu alohida konstitutsiya qirolni baronlarning doimiy nazoratiga topshirdi. Ritsarlarning talablari «Vest ministrlik oziq-ovqatlari» hujjatida ifodalangan bo'lib: ritsarlarni o'z senorlari - baronlar bilan munosabatlarini tartibga soldi, qirol sheriflari, eschitorlari va sud'yalarining suis-te'mollarini yo'qotish to'g'risida takliflar kiritdi. Simon de Monfor boshchiligida yirik feodallarning bir qismi qirol bilan kurashni davom yettirdi. 1264 yil bahorida Simon shahzoda Eduardni asir olib, mamlakatda diktator bo'lib oldi. 1265 yil boshida u keng tarkibda parlament chaqirdi: parlamentda baron va yepiskoplardan tashqari, ritsarlarning (har bir graflikdan ikki kishidan) va shaharlarning (har bir shahardan ikki kishidan) vakillari taklif qilindi. 1265 yil avgustda Ivzem yonidagi jangda Monfor mag'lubiyatga uchradi va o'ldirildi.

Eduard I (1272-1307 yy) g'ayratli qirol edi. U Uelsni istilo qildi (1282 y) va Shotlandiya bilan uzoq urush olib bordi. 1295 yili qirolning o'zi umum toifaviy parlament chaqirdi. Bu parlamentni - «namunali parlament» deb atadilar. 1265 yilda Monfor parlamenti qanaqa tarkibda to'plangan bo'lsa, bu parlament ham xuddi shunday tarkibda yig'ildi va parlament muntazam suratda yig'iladigan bo'ldi, 1297 yilda soliqlarni tasdiqlash huquqini oldi. Eduard III (1327-1377 yy) davrida parlament ayniqsa tez-tez (deyarli har yili) chaqiriladigan bo'ldi. Parlament qonunlar (parlament nizomlari yoki aktlari) chiqarish huquqini oldi, siyosiy ishlar bo'yicha oliy sud ham bo'lib qoldi. 1343 yildan e'tiboran parlament ikki palataga bo'lindi. Yuqori palata lordlar palatasi deb atalib, u ruhoniy lordlar, arxiepiskoplar, yepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va dunyoviy lordlar (baronlar)dan iborat bo'ldi. Umum palatasi - quyi palata grafliklarning vakillari bo'lgan ritsarlar va shaharliklardan iborat bo'ldi. XIV-XV asrlarda Angliyadagi shahar idorasi tobora ko'proq yopiq tsex-oligarxiya xarakteriga ega bo'ldi.

## Uot Taylyer qo'zg'oloni

XIII-XIV asrda Angliya iqtisodiyoti yuksaldi, sanoat rivojlandi. Pul xo'jaligining rivojlanishi krepostnoy yer-mulki - manorni emirdi. Lordlar barshchinani pul obrogi bilan ayirboshla (kommutatsiya qilishni)dilar, yerlarni ijaraga berdilar, yerlarida yollanma ishchilar mehnatidan foydalandilar. Chorvachilikda kommutatsiya ayniqsa keng qo'llandi. Ammo Janubi-sharqdagi manorlarda va cherkov-monastirlarning yer-mulklarida barshchina kuchaydi. Krepostnoy dehqon shaxsan ozod dehqonga aylandi. Pul rentasining yuqoriligi, barshchinaga qaytish, yerning kamligi dehqonlar noroziligini kuchaytirdi.

1348 yilda Angliyada dahshatli vabo epidemiyasi - «qora o'lat» avj oldi. Aholining 4/3 qismi halok bo'ldi. Ishchi qo'llari ancha qimmatlashdi. Qirol Eduard III 1349 yilda ordonans chiqardi. Ordonansda o'z yeri yoki yashash uchun boshqa mablag'lari bo'lmagan, yoshi 60 dan

oshmagan barcha katta yoshli yerkak va ayollarning taklif etilgan ishga majburiy tartibda va burungi ish haqi barobariga yollanishlarini talab qildi. 1351-1361 yillarda parlament qirollik farmonini tasdiqlab, buysunmaganlarga qattiq jazo choralari belgiladi. Ko'p lordlar pul obrogiga ko'chirilgan villanlarni yana barshchinaga qaytardilar. 1377 yilda, Richard II davrida parlament jon solig'i joriy qildi. 14 yoshli va undan yuqori har bir yerkak va ayol, mulkiy ahvolidan qat'i nazar, bu soliqni to'lashga majbur edi.

Pop va Oksford universiteti professori Jon Viklef (1320-1384yy) cherkovni reforma qilish talabi bilan chiqdi. Cherkov papasiz yashay olmaydi, papa qiroldan yuqori turishi lozim degan ta'limotni u rad etdi. Papa Angliyadan xiroj olish uchun hech qanaqa haq-huquqqa ega emasligini isbotlab berdi. U cherkov yerlarini sekulyarizatsiya qilish, diniy marosimlarni soddalashtirish va dabdabasiz o'tkazish, cherkovni arzonlashtirish, ibodatda va'zxonlikni kuchaytirishni tavsiya etdi. U tavrotni ingliz tiliga tarjima etdi. Viklefning muxlislarini lollardlar, demokratik kayfiyatdagilarini «faqir poplar» deb atagan

lar. «Odam ato yer haydab, Momo havo charx yigirganda kim dvoryan bo'lgan, axir?». Ular orasida Jon Boll ajralib turardi.

Uot Tayler (tunukasoz) qo'zg'oloni 1381 yil may oyi oxirida janubi-sharqiy Esseks grafligida boshlandi. Qo'zg'olon - Kent, Sefolk, Norfolk va boshqa grafliklarga ko'chdi. Qo'zg'olonchilar Kentyerbyerini egalladilar. Medston va Dartford shaharlari qo'zg'olonchilar tarafini oldi. Tayler Jon Boll, Jek Strou bilan 11 iyunda kentliklarni poytaxtga boshladi, 13, 14 va 15 iyun kunlari poytaxt ular qo'lida bo'ldi, qirollik kantsleri Simon Sedberi va lord-xazinachi Xels qatl qilindi. London sudining arxivini yoqib yubordilar.

Mayl-Endsk (yoki Esseks) petitsiyasi to'rt moddadan iborat: 1) krepostnoy huquq (villanlik)ni bekor qilish, 2) qo'zg'olonchilarga umumiy avf berish, 3) barcha mamlakatda savdo-sotiqqa erkinlik berish va 4) 1 akr hajmidagi yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilash. Bu petitsiya badavlat dehqonlarning manfaatlarini aks ettirdi. Smit-fildsk (yoki Kent) petitsiyasida: 1) dehqonlarga cherkov yerlari fondidan yer berilishi, 2) jamoaga qarashli yer-suvlardan yerkin foydalanish, 3) feodallar tortib olgan jamoa yaylov va o'rmonlarni qaytarib berish, 4) barcha toifaviy tafovutlarning yo'q qilinishini talab qildilar. Ikkinchi petitsiya eng kambag'al dehqonlarning ehtiyojlarini aks ettirdi. 14 iyunda qirol-ning muhri bosilgan yuzlab yorliqlar tayyorlanib, dehqon jamoalariga tarqatildi. 15 iyunda Uot Tayler xoinona o'ldirildi. Lordlar yon berishga majbur bo'ldilar, 1381 yildan keyin kommutatsiya jarayoni yanada kuchaydi.

### Lankasterlar va yorklar. Qizil va oq gullar urushi.
### XV asrda Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti.

XV acp Angliyada feodalizmning yemirilishi yanada kuchaydi, movut sanoati katta yutuqlarga erishdi. Bu movutlarga Flandriyada boshqatdan ishlov berilardi. XV asrning 70-yillarida savdogar-avantyuristlarning birinchi dengiz savdo kompaniyasini tuzildi va La-Mansh va Shimoliy dengizdagi movut savdosini monopoliya qilib oldilar. XV asrda ingliz feodallari sinfi ikki qismga: yirik feodal dvoryanlarga va o'rta, mayda dvoryanlarga bo'linib ketdi. 1399 yilda Plantagenetlar o'rniga Lankas-terlar sulolasi kelib, aristokratik siyosatning quroliga aylandi. Lankasterlar cherkov yerlarini sekulyari-zatsiya qilishni o'rniga, lollardlarni qattiq ta'qib qildilar va yuzlab kishilar yeretiklikda ayblanib, gulxanlarda yoqildi. Yirik feodallarga qaram bo'lib qolgan Lankasterlar, yuz yillik urush feodallarni kuchayishiga yo'l qo'ydilar. Lankasterlar o'rta va mayda dvoryanlarga, shahar burjuaziyasiga zarar yetkazdilar. Qizil gul Lankasterlarni, Yorklarniki oq gul ramzi bo'lgan.

Genrix VI betobligi sababli 1455 yilda Richard Yorkskiy qirollik regenti deb e'lon qilindi. Lankasterlar Richardni regentlikdan chetlatdilar. 1460 yilda Richard jangda o'ldirildi. Eduard Yorklarga boshchilik qilib, lankasterlarni 1461 yilda ikki marta mag'lubiyatga uchratib, Londonni egallab, o'zini qirol Eduard IV deb e'lon qildi. Eduard IV (1461-1483yy) lankasterlarni barcha mulklarni musodara etdi, o'rta va mayda dvoryanlarni o'z xizmatiga oldi. U savdoni rag'batlantirdi, burjuaziyani taladi, parlamentni onda-sonda chaqirdi. Eduard IV vafot etgach, ukasi Richard III hoki-miyatni bosib olib, Eduard IV ning bolalarini o'ldirdi. 1485

yil 22 avgustda Bosvort jangida Richard III mag'lub bo'ldi, Genrix Tyudor g'olib chiqib, (Lankasterlar) Genrix VII nomi bilan qirol bo'ldi. U Eduard IV ning qizi Yelizaveta Yorkka uylanib, ikkala feodal guruhini birlashtirdi, absolyutizm shakllandi.

Kent grafligida Jek Ked boshchiligida 1450 yilda qo'zg'olon bo'ldi. Mayda dehqonlar, shahar-liklar qo'zg'olonda ishtirok etdi. Ritsarlar qo'zg'olonga rahbarlik qildi. Qo'zg'olonchilar 1450 yil 2 iyunda Londonda hukumat oldiga qirolning telba maslahatchilarini saroydan uzoqlashtirish, markaziy va mahalliy idora ishini tartibga solish, lordlarning o'zboshimchaligiga, zulmiga chek qo'yish, gertsog Yorkskiyni qirollik kengashiga kiritish, ishchilar to'g'risidagi nizomlarni bekor qilish talablarini qo'ydilar.

Ingliz millatining tarkib topa boshlashi. XIV-XV asrlarda Angliyada ingliz millatining tarkib topishi uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keldi. Hududning va iqtisodiyotning umumiyligi namoyon bo'ldi. Qirol saroyi, farmonlar, yuristlar, maktablar frantsuz tilida faoliyat ko'rsatar, aholi esa ingliz tilida gaplashar edilar. 1258 yili qirol Genrix III Angliya aholisiga ingliz tilida bayonnoma bilan murojaat qildi. 1362 yilda Eduard III London shahrining petitsiyasiga javoban, sudlar ingliz tilida olib borilsin, deb qaror chiqardi. XIV asrda ingliz tilida dastlabki yirik asarlar paydo bo'ldi. Viklef, shoir Jefri Choserning (1340-1400 yy) «Kenterbyeri hikoyalari» optimizm, yumor, xalqqa xayrixohlik, satira ruhi bilan sug'orilgan. Vilyam Kekston (1422-1491yy) savdogar, tarjimon, matbaachi va noshir bo'lgan. U 100 ta kitob bosib chiqargan.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Vilgelm istilochi, Gastings, kvadrat, vassal, normandlar qulligi, Dahshatli sud kitobi», frigolder, sokmenlar, villanlar, bordarilar, kottarilar, Daniya puli, jun, sud palatasi, shaxmat taxta palatasi, Anju imperiyasi, sayyor qirollik sudlari, Foma Beket, Ioann Yersiz, Buyuk erkinlik xartiyasi, pyerlar sudi, baronlar, firma, gildiya, Oksford oziq-ovqatlari, Vest ministrlik oziq-ovqatlari, namunali parlament, qora o'lat, Jon Viklef, lollardlar, Uot Tayler, Mayl-Endsk, Smitfildsk, Lankastyerlar, Yorklar, Jek Ked.

**Nazorat savollari:**

1. Vilgelm istilochining g'alabasinining omillarini aytib bering.
2. Vilgelm qanday islohotlarni amalga oshirdi?
3. Aholini ro'yxatga olishdan qanday maqsadlar ko'zlangan edi?
4. Angliyaning iqtisodiy taraqqiyoti omillarni bilasizmi?
5. Nima uchun chorvachilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi?
6. Oq va Qizil gullar urushlarini asosiy sabablarini ko'rsatib bering.
7. Yuz yillik urush mamlakatda qanday oqibatlarni keltirib chiqargan?
8. Angliyadagi halq qo'zg'olonlarini mag'lubiyatini asosiy sabablarini ko'rsating?
9. Uot Taylyer qo'zg'olonida qanday dasturlar ilgari surilgan?
10. Qaysi asrda ingliz madaniyati yuksala boshlagan?

.**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўкув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: XII-XIV asrlarda Rus knyazliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. ( 4 soat)

**Reja:**

1. **Rusda feodal tarqoqlik.**
2. **Mug'ul tatar istilosi xamda nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash**
3. **Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi**
4. **Rossiya xalqlari madaniyati**

**Rusda feodal tarqoqlik.**

IX asrning o'rtalarida vujudga kelgan qadimgi Rus davlati poytaxti Kiyev shahri bo'lgan. Slavyan qabilalari feodal jamiyatiga urug'chilik jamoasining yemirilishi natijasida o'tdilar. Kiyev Rusining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Vizantiyaning roli nixoyatda katta bo'lgan. Rus yerlarida XI asr oxiri, XII asr boshlarida feodalizm uzil-kesil o'rnatildi. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy taraqqiyot, uning turli qismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kievdan uzoqdagi va endilikda etarlicha rivojlangan Novgorod, Polotsk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar o'z viloyatlarining mustaqil markazlari bo'lishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning o'g'li Mstislavning qipchoqlarga qarshi xarbiy yurishlari, ularning xavfini vaqtinchalik bo'lsada bartaraf etdi va markaziy xarbiy birlikka birmuncha zaruriyat bo'lmay qoldi. Yirik shaharlarning boyarlari bundan foydalanib, Kiyevga qaram bo'lmagan mustaqil knyazliklar barpo qilib, ayrim knyazlarni o'zlariga xukmdorlikka taklif qila boshladilar. Knyazlarning 1097 yili Lyubechda bo'lgan s'ezdi: «xar kim o'z yurtiga ega bo'lsin» deb qaror chiqardi. Bu feodal tarqoqlikni boshlanishini tantanali ravishda e'lon qilinishi edi. Solnomachi 1132 yili «butun Rus yeri bo'linib ketdi» deb yozgan edi. Rusda feodal tarqokliq davri boshlandi.

Kiyev Rusi buyuk knyazlari xokimiyatining zaiflashuviga janubiy viloyatlardagi tushkunlik xam sabab bo'ldi. Kiyev va uning atrofidagi yerlarga turli knyazliklarning taxdidi, shuningdek ko'chmanchi polovetslar xujumlari to'xtovsiz davom etardi. XII asrdan boshlab ko'plab dehqonlar va shahar axolisi tinchrok joylarni axtarib, janubiy-g'arbiy va shimoli-sharqiy, Volga-Oka daryolari xavzasiga ko'cha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shahar va qishloqlar barpo etilib, ulardagi axoli soni kupaygan. Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar: Chyernigov, Polotsk, Pereyaslav, Galitsk, Volinsk, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiyev knyazligi va bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Xar bir knyazlik butunlay mustaqil bulib, o'zining ichki tartiblarinigina emas, balki tashqi siyosat olib borishi, urush va tinchlik muammolarini xal etish xukuklariga ega edi.

Rusdagi feodal tarqoqlikning to'rtta salbiy xususiyatini ko'rsatish lozim:
1) o'zaro feodal urushlarining to'xtovsiz bo'lishi; 2) mamlakat mudofaa qobiliyatini zaiflashuvi; 3) knyazliklarning vorislar orasida taksimlanib yanada maydalasha borishi; 4) knyazlar va mahalliy boyarlar orasida nizolarning kuchayishi.

Novgorod yeri Kiyev bilan aloqasini o'zgan birinchi mustaqil knyazlik bo'ldi. Novgorod XI asrga kelib nafaqat Rus yerlarining, balki Yevropaning xunarmandchiligi va savdosi yuksak rivojlan-gan shaharlaridan biriga aylandi. Shahar muynalarga boy shimoliy-sharqiy xududlarga ega edi. Nov-gorod bir necha savdo yullarining kesishgan yerlarida joylashgani, uning Boltiq dengizi orqali Yevropa, Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali esa Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo aloqalarini olib borishi imkoniyatini yaratdi. Novgorodda yaratilgan xalq og'zaki ijodi asarlari qahramonlari kemasoz-dengiz sayyoxlari Sadko va Vasiliy Buslaevlar bo'lgan.

XI asrda Novgorodda an'anaga ko'ra knyaz-noib Kiev Buyuk knyazining katta o'g'li bo'lgan. Lekin bora-bora boyarlarning mavqei oshib, ular knyaz xokimiyatini cheklab qo'yganlar va Novgorod boyarlar respublikasiga aylangan. Novgorodliklar vechesi 1136 yili Monomaxning nevarasi Vsevolod Mstislavichni knyazlikdan chetlatib qamoqqa olishga qaror qilgan. Shu vaqtdan boshlab shahar butunlay feodal respublikasiga aylanadi. Novgorodning siyosiy xayotida, xalq vechesida zodagon boyarlar ichidan saylanadigan shahar xokimi va «shahar kengashi» va saylab qo'yiladigan episkop bosh rolni o'ynardi.

Moskva, Rus yerlaridagi Kiyev, Galich-Volin, Vladimir-Suzdal knyazliklarida xam XII-XIII asrlar boyarlarning knyazlarga qarshi kurashi ostida o'tdi. Jumladan, Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy XII asrda Rusning shimoliy-sharqida Volga va Oka

daryolari orasiga ko'chib kelib joylashgan xamda mahalliy tub fin-ugor qabilalari bilan yaqinlashayotgan axoliga knyazlik qilardi. Vladimir-Suzdal yerlarida XI-XII asrlar davomida: Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yurev, Dmit-rov kabi shaharlarga asos solindi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov qishlog'ida 1147 yilning baxorida Yuriy Dolgorukiy Kiyev ustidan erishilgan g'alabalardan birini nishonlagan. Moskva deb atala boshla-gan bu joyda 1156 yili yog'ochdan birinchi qal'a qurildi. Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir yerlarida va Moskvada Ivan IV Grozniyga (1584 y) qadar xukmronlik qildilar. Vladimir-Suzdal knyazligi kelajakda rus yerlarining birlashishiga asos bo'ldi. Moskva XIV asrda ana shu birlashish jarayonining markaziga aylandi.

**Mug'ul-tatar istilosi xamda nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash.**

O'rta Osiyo va Kavkaz orti yerlarini bosib olgan Chingizxon Rus yerlariga 1223 yili bostirib keldi. Qipchoq xonlarining yordam so'rab qilgan murojaatlariga javoban janubiy rus knyazlarining drujinalari Kalka daryosi bo'yida dushmanka ro'para bo'ldi. Mug'ul-tatarlar guyo chekingan bo'lib, rus drujinachilarini chalg'itib, o'z otliq askarlari uchun qulay maydonga chiqib olib, ularni to'la mag'lubiyatga uchratdilar. Asir olingan knyaz va drujinachilar ustiga taxta bostirgan g'oliblar, uning ustida o'tirib bazm qurdilar. Shunday keyin mug'ullar Volga orti dashtlariga yo'l olib u yerda bir necha yil davomida Sharqiy Yevropaga yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rdilar. Mug'ul-tatarlarning Rusga qarshi keng ko'lamdagi xujumlari 1237 yilning oxirida boshlandi. Ularning 140 ming qo'shiniga Chingizxonning nevarasi Botu boshchilik qildi. Rus yerlarida davom etayotgan feodal tarqoqlik mug'ul-tatarlarga qo'l keldi. Dastlab qamal qilingan Ryazan shahri axolisining mardonavor qarshiligi kuchlar teng emasligidan natija bermadi. Vladimir knyazi o'ziga raqib xisoblangan Rya-zanga yordamga kelmadi. Mudofaachilarning qat'iyatidan g'azablangan Botu shaharni butunlay vay-ron qilishni buyurdi.

Shimoliy-sharqiy Rusning ichkarisiga siljiy boshlagan dushman lashkarlari Kolomna ostona-laridagi jangda rus drujinachilarini engib, Moskvani egalladilar. Botu qo'shini 1238 yilning fevral oyi davomida Volga va Oka daryolari xavzasidagi 14 ta rus shahrini, jumladan Vladimirni vayronaga aylantirdi. Vladimir knyazi Yuriy Vsevolodovich qo'shini mart oyida Siti daryosi yaqinidagi jangda tor-mor qilindi, knyazning o'zi xalok bo'ldi. Butunlay vayron qilingan Vladimir-Suzdal knyazligi shahar va qishloqlarida ming-minglab axoli xalok bo'ldi, ko'plab qo'lyozmalar, moddiy madaniyat durdonalari yondirib yuborildi. Yangi yurishlar 1239 yilda boshlanib, Botuxonning asosiy qo'shinlari Rus yerlarining janubiy qismiga zarba berdi. 1240 yili Kiyev qamal va shiddatli janglardan keyin taslim bo'ldi. Janubiy Rus knyazliklari yerlari xam xarobazorga aylantirildi.

Bosib olingan yerlarda Chingizxon tuzgan saltanatning bo'linib ketgan qismlaridan biri, yangi davlat - Oltin O'rda qaror topdi. Xozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy shahri uning poytaxti edi. XIII asrning o'rtalaridan Rus knyazliklari Oltin O'rda xonligiga qaram yerlar sifatida, ularga katta o'lpon to'lay boshladi. Endi knyazlar mug'ul xonlaridan olingan yorliqqa binoan o'z yerlarini bosh-qarar, xalqqa zulm o'tkazib, ulardan og'ir soliqlar yig'ib olardilar. Knyazlarning o'zaro urushlarida Oltin O'rda xonlari o'z manfaatlarini ko'zlab gox birlariga, gox boshkalariga xomiylik qilar, natijada yana oddiy xalqning qoni to'kilar, shahar va qishloqlar yonardi. Mug'ullar istilosi rus yerlaridagi iqtisodiy taraqqiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sekinlashdi.

XIII asrning boshlarida Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashaydigan est, liv qabilalariga qarshi nemis feodallarining urushlarini Rim papalari Salib yurishlari deb e'lon qildi. Bu urushlar maxalliy aholini xristian katolik diniga o'tkazish bayrog'i ostida olib borildi. Urushlar natijasida nemislarning Livoniya ordeni ritsarlari estlar yerlarini bosib olib Novgorod-Pskov knyazligi chegaralariga yaqinlashib qoldilar. Boltiqbuyi nemis ritsarlari bilan xamkorlikda xarakat qilgan shved feodallarining katta qo'shini 1240 yilning yozida Neva daryosi bo'ylab Novgorod yerlariga bostirib kirdi. Novgorod knyazi 18 yoshli Aleksandr Yaroslavich 1240 yil 15 iyulda o'zining unchalik katta bo'lmagan drujinasi bilan shvedlar qarorgoxiga qo'qqisdan xujum qildi.

Yosh knyaz va uning dovyurak drujinachilari ko'rsatgan jasorat tufayli Aleksandrga Nevskiy degan faxrli nom byerildi.

Mug'ul-tatar bosqinidan chetda bo'lgan Novgorod-Pskovning boy yerlari nemis ritsarlarini o'ziga tortardi. Bu borada ularni xatto shvedlarning muvaffaqiyatsizliklari xam to'xtata olmadi. Pskov yaqinidagi Izborsk qal'asini 1240 yili olgan ritsarlar, Pskov noibi Tverdila xoinligidan foydalanib shaharni egallashdi. Nemis feodallari o'sha yili qishdayoq Novgorodning chegara rayonlariga xam bostirib kirishdi. Novgorodning dushmanga qarshi kurashini Knyaz Aleksandr Nevskiy boshqardi. Knyaz Suzdal qo'shini yordamida Pskov va unga qarashli yerlarni ozod kildi.

Aleksandr Nevskiyning nemis ritsarlariga qarshi xal qiluvchi jangi 1242 yili 5 aprelda Chud ko'li ustida bo'lib o'tdi. Uning og'ir qurollangan otliq nemis ritsarlari bilan muz ustida jang qilishi oson bo'lishi xaqidagi mo'ljali to'g'ri chiqdi. Jangda ritsarlarning pona shaklidagi asosiy kuchlari rus qo'shinining markaziga xujum qilib, uni yorib o'tmokchi bo'ldi. Buni oldindan sezgan Nevskiy asosiy kuchlarni qanotda to'pladi. Markazni osonlikcha yorib o'tgan nemislar uchun kutilmagan voqea – yon tomondan kuchli xujum boshlanib, jang taqdirini xal qildi. Bu jangda nemis ritsarlaridan 500 kishi xalok bo'ldi. Kup o'tmay Livoniya ordenining Novgorodga kelgan elchisi rus yerlariga da'vo qilish-dan voz kechganliklarini ma'lum qildi.

**Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi.**

Oltin O'rda xavfi sharoitida Oka va Volga daryolari xavzasidagi o'rmonzor viloyatlarga aholi-ning ko'chib kelishi kuchaydi. Bu viloyatlardagi mavjud bo'sh unumli maydonlardan tashqari, ko'plab o'rmonlar xam daraxtlari kesilib, ekinzorlarga aylantirildi. Mazkur rayonlarda dehqonchilik va chorva-chilik bilan bir qatorda xunarmandchilik xam rivojlangan. Bo'sh yerlarning yetishmasligi yangi qochoqlarni Volga orti rayonlariga o'tishga undadi. Aholi kelib joylashgan yerlar feodallarning e'tibo-rini tortib, ular knyazlardan olingan yorliqlarga binoan ushbu yerlarning xam xo'jayiniga aylandilar. Yangi yerlarda ayniqsa cherkov yer egaligi tez rivojlangan. Xuddi shu joylarda XIV- XV asrlar davomida xozirgi kunga qadar mashxur Troitse-Sergiev, Kirilo-Belozerskiy, Solovetskiy monastirlari tashkil topgan edi.

Rusda xam yirik yer egalari o'zining xarbiy xizmatkorlariga yerlarning bir qismini vaqtinchalik foydalanishga bo'lib bera boshladilar. Natijada feodal yer egaligining yangi shakli - yerni shartli ravishda saqlash tartibi va feodallarning yangi toifasi - dvoryanlar paydo bo'ldi. Yer egalari dexqon-larni krepostnoy qaramlikka tushirishga intildilar. Knyazlar farmoniga binoan XV asrning o'rtalaridan, dexqonlarni feodallardan ketish vaqtini yiliga bir muddat Yuriy kuni (26 noyabr) bilan belgilab qo'yildi.

Mug'ul-tatarlar istilosi natijasida rus shaharlari og'ir talafotlar ko'rgan bo'lsada, ularning taraq-qiyoti butunlay to'xtab qolmadi. Jumladan XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab xunarmandchi-likning turli soxalarida yuksalish boshlandi. Xarbiy extiyojlarning o'sishi, ayniqsa qurilish va metal-sozlik soxalarining taraqqiyotini tezlashtirdi. Asr oxiriga kelib o'q otadigan qurollar yasash markaz-lari paydo bo'ldi. Shu paytdan Moskva shahri xunarmandchilik markaziga aylandi. Novgorod, Pskov, Kolomna, Kostroma, Nijniy Novgorod kabi shaharlar iqtisodiy taraqqiyotida sezilarli siljishlar bo'ldi. Rus shaharlarining Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi.

Mamlakatda iqtisodiy yuksalishning boshlanishi, qishloq xo'jaligining taraqqiyoti, shaharlarda xunarmandchilik va savdo-sotiqning jonlanishi turli viloyatlar orasidagi aloqalarning kuchayishi – rus yerlarining birlashishiga yordam berdi. Mamlakatning birlashishiga tashqi dushmanlarga qarshi, avvalo Oltin O'rda xonlari zulmiga qarshi kurash zaruriyati ko'p jixatdan katta ta'sir qildi. Rus yerlarini birlashtirgan "Rossiya" tushunchasi XV asrning oxirida, shu jarayonlarning natijasi sifatida vujudga keldi. Rusning turli knyazlari XIII asrning oxiridan rus yerlariga xukmronlik imkoniyatini beradigan Oltin O'rda yorlig'ini olish uchun kurash olib bordilar. Dastlab bu yorliqni Tver knyazlari qo'lga kiritdilar. XIV asrning boshidan yuksala boshlagan Moskva knyazlari xam yorliqqa ega bo'lish uchun kurashga kirishdilar. Bu boradagi o'zaro kurash 1327 yili, Tverdagi xalq qo'zg'olonini bosti-rishda O'rdaga yordam byergan Moskva knyazi Ivan Kalitaning (1325-1340) g'alabasi bilan tugadi. Oltin O'rda Moskva

knyaziga boshka rus yerlaridan soliq yig'ish xuquqini berdi. XIV asr 2 yarmida rus knyazlari orasidagi kurash yana keskin tus olib, Oltin O'rdaning rus yerlariga yangi xujumlari boshlandi. Kalitaning nevarasi Dmitriy Ivanovichning 1359 yili knyaz bo'lishi rus knyazlarining o'zaro urushlarida Moskvaning g'alabasi bilan tugashiga imkon berdi.

Ruslarning mug'ul-tatarlarga qarshi urushlaridagi birinchi va muxim g'alabaga xam knyaz Dmitriy erishdi. Dastlab 1378 yili Ryazan yerlaridagi Voja daryosi bo'yida Moskva qo'shini mug'ul-lar ustidan g'alaba qildi. Lekin xal qiluvchi jang 1380 yili 8 sentyabrda Dmitriy boshchiligidagi rus qo'shinlari bilan Oltin O'rda xoni Mamay qo'shini o'rtasida Don daryosi soxilidagi Kulikovo maydo-nida bo'ldi. Jangni Mamayning otliq akskarlari boshlab berdi. Ular ruslarning oldingi saflariga xujum qildilar va uni qattiq jangda yanchib tashladi. Bir necha soat davom etgan jangda o'rdaliklar knyazning markazdagi katta polkini va qo'shinning chap qanotini siqib qo'yishdi. Jangning xal qiluvchi paytida Serpuxov knyazi Vladimir Andreevich va voevoda Dmitriy Bobroklarning pistirmadagi polki jangga kiradi. Rus otliqlari dushmanning qora tomonidan zarba beradi. Natijada mug'ullar qo'shini vaximaga tushib chekinadi. Knyaz Dmitriy Ivanovichga bu jangdagi galabadan so'ng Donskoy nomi berildi.

Mug'ul-tatarlarning rus yerlaridagi xukmronligi Kulikovo jangidan keyin xam davom etdi. Oradan ko'p o'tmay Oltin O'rda xoni To'xtamish 1382 yili qo'qqisdan Moskvaga xujum qildi. Nijego-rodlik rus knyazlari vositachiligida shaharga, avf va'da kilib kirgan mug'ullar o'z so'zlaridan qaytib katta qirg'in uyushtirdilar. Dushman ketganidan keyin Moskvadan 24 ming kishining o'ligi topildi. Shahar deyarli yonib kul bo'ldi. Qo'shni yerlardan lashkar to'plab kelgan knyaz Dmitriy Donskoyning yaqinlashuvi mug'ullarni Moskva yerlaridan ketishga majbur qildi. Rus yerlariga katta talafot kel-tirgan To'xtamishxon Amir Temur yordamida Oltin O'rda taxtini egallagan. 1389 yili Jizzaxning Achchiq mavzeida, 1391 yilda Qunduzcha jangida, 1395 yilda Terek daryosi bo'yidagi jangda Temur qo'shinlari To'xtamish qo'shinlarini tor-mor qilgan. Temur Oltin O'rdani vayronaga aylantirdi. Rus yerlarining mug'ul-tatar istibdodidan xalos bo'lishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan.

Ivan III (1462-1505 yy) va Vasiliy III (1505-1533 yy) ning knyazligi davrida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi tez sur'atlar bilan bordi. Ivan III davrida Yaroslavl, Rostov knyazliklari yerlari qo'shib olindi. Moskva knyazligiga 1471-1478 yillardagi urushlar natijasida Novgorod respub-likasi xam qo'shib olindi. Ivan III davrida 1480 yili Moskva Oltin O'rdaga soliq to'lashdan bosh tortdi va shu tariqa mug'ul-tatarlarning rus yerlarida ikki yarim asrlik xukmronlikka chek qo'yildi. 1485 yili Tver knyazligi, Pskov respublikasi 1501 yili, Smolensk yerlari 1514 yilda, 1521 Ryazan knyazligi Moskvaga buysundirildi. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi mamlakatning kelajakdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga zamin tayyorladi.

## Rossiya xalqlari madaniyati.

O'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlar boshqa mamlakatlardagi kabi Rusda xam madaniyat o'choqlariga aylandi. Xunarmanldchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilimli kishilarga bo'lgan talabni oshirdi. Yirik shaharlarda maktablar ochildi. Jumladan Kiyevda X asrdayoq usmirlar uchun, XI asr oxirida kizlar maktabi ochildi. Arxeologiyaga oid qazilmalar XI-XIII asrlarda novgorodliklarda qayin po'stlog'iga yozilgan yorliqlari yozuvning keng qo'llanilganidan darak beradi. Shikoyat-nomalar, taklifnomalar, xo'jalik ishlaridagi farmoyishlar, savdo-sotiq va narx-navolar to'g'risidagi yozuvlar bitilgan qayin po'stloqlari topilgan. Rusdagi me'morchilik san'atining yutuqlari xam moddiy madaniyatning yuksalib borganidan darak byeradi. Kiyevdagi Sofiya sobori (1037y), Novgoroddagi Sofiya ibodatxonasi (1052y), Vladimirdagi Dmitrov sobori (1194-1197) kabi go'zal va muxtasham diniy inshootlar jahon madaniyati durdonalari qatoriga kiradi.

XV asrda Moskva sobori qurilishiga chaqirilgan mashxur italyan me'mori Fioravantiga knyaz Ivan III Vladimir shaxridagi XII asr oxirida qurilgan Uspenskiy soborini ko'rsatib kelishlarini buyurgan. Italyan me'mori rus ustalarining ijodiga yuksak baxo berib, ibodatxonaning chiroyini yuksak baxolagan. She'riyat sohasida qadimgi Rusning salmoqli asarlariga aloxida to'xtalish lozim. Birinch she'riy asar "Igor polki jangnomasi" 1185 yili

Kiyevda qipchoq xoni Konchakning xujumi munosabati bilan yozilgan. Noma'lum muallif tomonidan bitilgan "Jangnoma" shaklan teran, vatan-parvarlik ruxidagi va xavf-xatarlar paytida rus knyazlariga qarata qilingan donolarcha murojaatdir. Rus tarixida "Igor polki jangnomasi" boqiylik imtixonidan o'tdi. XIV asrda Kulikovo maydonidagi Rus g'alabasini tarannum etgan "Zadonshchina" dostonining muallifi unga ochiqdan-ochiq taqlid qilib yozgan.

**Tayanch iboralar:**

Feodal tarqoqlik, Kiyev Rusi, knyazliklar, Buyuk Novgorod, Vladimir-Suzdal knyazligi, mug'ul-tatarlar, nemis va shved ritsarlari, dvoryan va cherkov yer egaligi, Moskva yuksalishi, Kulikovo jangi, markazlashgan davlat, Rus madaniyati.

**Nazorat savollari:**

1. Rus yerlaridagi feodal tarqoqlikning sabablari va oqibatlarini ochib bering.
2. Novgorod feodal Respublikasini boshqaruv tizimini tushuntirib bering.
3. Rus yerlarining mug'ul-tatarlarga qarshi kurashiga qaysi knyaz boshchilik qilgan?
4. Muz ustidagi jangdagi g'alaba Rus yerlari uchun qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
5. Rus yerlarini Moskva knyazligi atrofida birlashuvi qachon boshlangan?
6. Qaysi voqea Rus davlati mavqeini Yevropa davlatlari bilan tenglashtirgan?
7. Rossiyaning mug'ullar zulmidan ozod bo'lishida muhim rol o'ynagan hukmdor kim?
8. Rossiyada madaniyatning qaysi yo'nalishlari tez yuksalgan?
9. Qaysi Rossiya podshosi Sharqni egalla siyosatini boshlab bergan?

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: XI-XV asrlarda Pireney yarim oroli davlatlari (Ispaniya va Portugaliya). ( 4 soat)

**Reja:**

1. **Ispaniya rekonkistasining mohiyati.**
2. **Portugaliyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.**
3. **XIII-XV asrlarda Pireneya yarim orolidagi davlatlar.**
4. **Aragon federatsiyasi.**
5. **Yagona Ispaniya qirolligining vujudga kelishi.**

### Ispaniya rekonkistasining mohiyati.

Ispan xalqining arablar bilan uzoq davom etgan, ko'p asrlik kurashi Ispaniya davlatining tashkil topishida juda katta rol o'ynadi. Ispan xalqlarining arab - mavrlarga qarshi olib borgan ozodlik kurashi bo'lgan keng ma'nodagi rekonkista VIII asrdan boshlab, arablar yarim orolni istilo qilganlaridan keyinoq, ya'ni VIII asrdan, to XV asr oxirigacha davom qildi. XV asr oxirida arablarning Ispaniya-dagn so'nggi yirik mulki hisoblangan Granada qo'ldan boy berildi. Eng tor ma'noda rekonkista so'zidan odatda, XI-XIII asrlar davri tushuniladi. XI-XIII asrlar davrida ispan xalqlari zo'r berib yarim orolning janubiga tomon siljib borgan edilar.

Arablar Ispaniyada. X asr boshlarida Ispaniyada arablar hukmronligi eng kuchli edi, bu vaqtda Qurdoba amirligi Qurdoba xalifaligiga aylangan edi. Ispan arablariga - mavrlariga Pireneya yarim orolidan tashqari, Shimoliy Afrikadagi ko'p sonli barbar qabilalari ham bo'ysunar edilar. Arablar davrida Pireneya yarim orolida ishlab chiqaruvchi kuchlar zo'r berib

rivojlandi. Arablar Ispaniyada sun'iy sug'orish tizimini keng qo'lladilar. Yangi qishloq xo'jalik ekinlari sholi, shakar qamish, tut da-raxti, apelsin, limon va boshqalar ekila boshlandi. Arablar davrida turli hunarmandchilik turlari juda ham yuksalgan edi. Metall, charm, jun, ipak, oyna va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish yuksak darajada takomillashgan edi. Qurdoba xalifaligi Shimoliy Afrika orqali Sharqdagi butun musulmonlar mamlakati bilan savdo-sotiq aloqalari bog'lagan edi. Ispan arablari Yevropa mamlakatlari bilan, ayniqsa qo'shni Frantsiya va Italiya, Vizantiya bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordilar.

Ispaniya shaharlari arablar zamoniga kelib yirik sanoat markazlariga aylandilar. Andaluziya shaharlari va Ispaniyaning janubidagi: Qurdoba, Sevilya, Granada, Valensiya shaharlari ayniqsa ajralib turardi. Xalifalikning poytaxti bo'lgan Qurdoba shahri XI asrda Yevropaning eng yirik shahri hisoblanardi. Qurdobaning 500 ming aholisi bor edi. Ispaniyada hozirgacha saqlanib qolgan arab arxitekturasining eng yirik yodgorliklari Qurdoba masjidi (VIII asr), Granadadagi Al Hamro saroyi (XIII asr), Sevilyadagi Al Qasar qasri (XIII asr), Ispaniyada arab madaniyati yuksak bo'lganligidan yaqqol dalolat byeradi. Pireney yarim orolining ichki qismida mahalliy knyazlarning xo'jalik musta-qilligini saqlab qolishgan. XI asr o'rtalarida xalifalik qisman yirik, qisman mayda feodal davlatlardan iborat bo'lgan 23 bo'lakka bo'linib ketdi ( ba'zilari shahar respublikalar edi).

Ispaniyadagi arab feodalizmi mahalliy aholi uchun g'oyatda og'ir bo'ldi, vaqt o'tishi bilan feodal ekspluatatsiyasini tobora ko'proq qo'lladi, milliy zulm va huquq jihatdan tengsizlik qo'shildi, xristian aholisini zo'rlab musulmon diniga o'tkazishdek diniy musulmon fanatizmi avj oldi. Xalifalikdagi aholining ko'pchiligi arab bo'lmagan xalqlar edi. Mavrlar nisbatan juda ozchilikni tashkil etardilar. Pireneya yarim orolining istilo qilingan xalqlari garchi qisman arab tilini o'rganib olgan (mosarablar), ba'zilari hatto musulmon dinini qabul qilgan (renegatos) bo'lsalarda, mavrlarga kelgindi istilochilar va zolimlar deb qarardilar. Vestgot davlatining poytaxti bo'lgan Toledo shahri arablarga sira bo'yin egmadi. IX-XI asrlar davomida Toledo aholisi Qurdoba xalifaligiga qarshi bir necha bor qo'zg'olon qildi.

Shimolda Asturiya (bosh shahri Oviedo), Navarra va Ispan markasi territoriyalari arablar tomoni-dan istilo qilinmagan edi. Rekonkista keng milliy-ozodlik harakatiga aylanib, unda tarkib topayotgan ispan xalqining turli xil sinflari: feodallar, shaharliklar, dehqonlar ham qatnashdilar. Rekonkista ispan xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot shart sharoitlari taqozosi bilan kelib chiqqan zaruriy qonuniy jarayon edi. Tog'-toshlarga surib chiqarilgan, dehqonchilik uchun zarur bo'lgan yer maydonlardan mahrum etilgan, O'rta Yer dengizidan kesib qo'yilgan ispanlar, arablar tomonidan istilo etilgan va siqib chiqarilgan janubga tomon siljib borishlari kerak edi yoki bo'lmasa, o'z ishlab chiqaruvchi kuchlarining bundan buyongi o'sishidan va o'z millatlarining ravnaq topishidan voz kechishlari lozim edi.

Rekonkistaning asosiy bosqichlari. Rekonkistaning asosiy bosqichlari quyidagichadir. Asturiya qirolligi VIII - IX asrlarda yarim orolning butun shimoliga va shimoli-g'arbiga o'z ta'sirini yoydi. X asr boshlarida asturiyaliklar janubga ham siljib bordilar, butun Asturiya qirolligi Leon qirolligi deb atala boshladi. X asrning ikkinchi yarmida XI asr boshlarida Leon janubgacha kengayib, Duero daryosi havzasigacha cho'zilib ketadi. Bu yerda juda ko'p qasrlar, qal'alar - burglari bo'lgan chegara viloyati tashkil topadi. Ana shu qasrlar nomidan olinib, yangi mamlakat Kastiliya deb ataldi. Burgos shahari Kastiliyaning asosiy shahari hisoblanardi.

1037-yilda Leon qiroli Kastiliyaning ham qiroli deb atala boshladi. XI asrning ikkinchi yarmida Kastiliyaliklar Taho daryosi havzasini bosib oldilar. 1085-yili qirol Alfons VI Toledo shaharini istilo qildi. Bu yangidan istilo qilingan territoriya, ya'ni Taho havzasi Yangi Kastiliya deb atala boshladi. Shimoli-sharqda joylashgan Navarra qirolligi IX asrda juda katta ahamiyatga ega edi. IX asr oxirida Ispaniya markasidan yangi muctaqil mulk, Aragon grafligi ajralib chiqib, so'ng XI asrda qirollikka aylandi. 1118 - yili aragonliklar arablardan Saragosa shaharini tortib olib, Aragonning poytaxt qildilar. 1137 - yili Aragon Ispaniya markasi bilan birlashdi.

**Portugaliyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.**

Portugaliya janubga tomon cho'zilib ketgan edi. Dastlab bu ham graflik edi (taxminan 1095-yilda tashkil topgan ), 1116-yilga kelib u ham qirollikka aylandi. Portugaliyaning poytaxti

boshda Duero daryosining mansabidagi Oporto shahri edi, keyin 1147-yildan - Taxo daryosining mansabidagi Lissabon shahri poytaxt bo'lib qoldi. Leon qiroli hoqimiyatidan xalos bo'lgan Portugaliya qiroli Rim papasiga qaram bo'lib qoldi. Ammo bu qaramlik nomigagina bo'lib, aslida boshqacha edi.

XII asr boshlariga kelganda Pireneya yarim orolida uning taxminan yarmisini egallagan to'rtta xristian davlati: Kastiliya, Navarra, Aragon va Portugaliya bor edi. XI asrning oxiri va XII asr rekon-kistaning eng avjga chiqqan davri edi. Kastiliya xalq eposida xuddi ana shu davr o'z aksini topgan, xalq eposining qahramoni mashhur Sid Kampeador edi. Xristianlar bilan musulmonlar ilgarigi paytlarda diniy masalada ba'zan bir-birlari bilan ishlari bo'lmasdi, rekonkista jarayonida ular bir-birovlariga fanatiklarcha nafrat ko'zi bilan qaraydigan bo'ldilar. Mavrlar Shimoliy afrikaliklarni, barbarlarni va boshqa musulmon qabilalarni o'zlariga yordamga chaqirdilar. 1086-yili Ispaniyaga G'arbiy Sahroyi Kabirdan almuraviylar, 1125-yili Atlas tog'laridan (Sharqiy Marokashdan) almug'alar keldilar. Ispaniyaliklarga yordam berish uchun Fran-tsiya, Angliya, Germaniya va Italiyadan ritsarlar kelishdi. Sharqdagi singari, Ispaniyada ham mavrlar bilan kurashish uchun bir qancha maxsus diniy-ritsarlik ordenlari Sant-Yago, Alkantara va Kalatrava ordenlari barpo etildi.

XII asr mobaynida kastiliyaliklar arablar Andaluziyasiga bir necha marta bostirib kirib, uni payhon qildilar. 1212 - yili Las Navas de Tolos yonida har ikkala tomon o'rtasida eng katta hal qiluvchi jang bo'ldi. Bu jangda arablar qattiq maglubiyatga uchrab, o'zlarining barcha boy lagyerlarini g'oliblarga o'lja qilib qoldirib chiqib ketdilar. Shundan keyin Kastiliya tez orada Andaluziya bilan Mursiyani, 1236-yili Qurdobani, 1248-yili Sevilyani qo'lga kiritdi. 30 va 40 yillarda Aragon Valen-siyani va Balear orollarini bosib oldi. Portugaliya janubga tomon to Gvadiana daryosi mansabigacha siljib bordi. Mavrlar ixtiyorida birgina janubiy Granada qirolligi (Granada amirligi) saqlanib qolgan edts. Granada qirolligi mustaqil davlat sifatida uzoq vaqt, ya'ni 1492-yilgacha yashab keldi.

Yarim oroldagi to'rtta xristian davlatlaridan Navarra va Portugaliya alohida-alohida rivojlandilar. Navarrada frantsuzlar ta'siri juda kuchli edi. Atrofii tog'lar o'rab olgan bu kichik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi sekinlik bilan bordi. Portugaliya jadalroq rivojlandi. XV asrga kelganda Portugaliya katta dengiz flotiga ega bo'lgan savdo-sotiq qiladigan mamlakatga aylandi. Portuga-liyaliklarning Shimoliy Afrikadagi mulki bo'lmish Seuta, keyin portugaliyaliklarning XV asrdagi geografik kashfiyotlarida katta rol o'ynadi. Ammo O'rta dengiz sohilidagi mamlakatlar bilan, Angliya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlar bilan zo'r olib borilgan tashqi savdo-sotiq aloqalari Portuga-liyani Pireneya yarim orolidagi boshqa davlatlardan ajratib qo'ydi.

## XIII-XV asrlarda Pireneya yarim orolidagi davlatlar.

Kastiliya qirolligi. Kastiliya va Aragon Pireneya yarim orolining ikkita asosiy davlati bo'lib, pirovardida ular yagona qirollikka birlashdilar. Bu birlashgan davlatlarning o'rta asrlar davridati tarixi o'zining bir qancha xususiyatlariga egadir. Kastiliya qirolligi yarim orolda eng katta territoriyani, deyarli beshdan uch qismi uning hissasiga tushar edi. Rekonkistada ham Kastiliya eng faol qatnashgan edi. Kastiliya tili keyinchalik ispan milliy adabiy tiliga asos bo'ldi.

O'rta asr davridagi Kastiliyaning ijtimoiy tuzumi o'ziga xos ko'pgina xususiyatlarga ega edi. Kastiliyaning urushqoq dvoryanlari mamlakatda katta ta'sirga ega edilar. Arablar bilan kurashda qatnashish dvoryanlarning ertaroq toifa bo'lib tarkib topishiga va dvoryanlar ko'pchiligining bevosita qirol bilan aloqa o'rnatishiga yordam berdi. Kastiliyada katolik cherkovi ham juda katta ta'sirga ega edi, rekonkista natijasida katolik cherkovi ko'p yer oldi. Kastiliyada rekonkistaning butun og'irligini o'z znmmasiga olgan o'nlab yerkin shahar-kommunalar bor edi. Shaharliklar butun o'rta asrlar da-vomida muntazam harbiy xizmat o'tadilar. Kastiliya shaharlari shaharlarning alohida harbiy ittifoq-lariga - ermandilarga birlashdilar. Kastiliya dehqonlari ham rekonkistada juda faol qatnashganliklari sababli krepostnoy qaramlikdan ertaroq xalos bo'ldilar. Kastiliya feodallari dehqonlar bilan hisob-lashishga va ularga jiddiy yon berishga majbur bo'ldilar. Eski va yangi Kastiliyaning ko'pchilik dehqonlari erkin jamoachilardan iborat

(begetriyalar) bo'lib, feodallar homiyligida kun ko'rardilar va ularga odat bo'yicha bitim bilan belgilangan kichik miqdorda obrok to'lardilar.

Kastiliya vakilligi, ya'ni korteslar o'z faoliyatini 1188-yildayoq (ingliz parlamenta va frantsuz General shtatlaridan ancha oldin) boshlagan edi, shu bilan birga uchinchi toifa vakillari tarkibiga shaharliklar bilan birgalikda dehqonlarning ham ba'zi bir vakillari kirgan edi. Kastiliyadagi qirol hokimiyati shaharlarga tayanib turib, XIII asrdayoq o'z obro'-e'tiborini kuchaytirishga harakat qildi va yirik feodallar bilan qattiq kurash olib bordi. XIII asrning ikkinchi yarmida qirol Alfons X (1252-1284-yy) «Yetti qism» deb ataladigan qonunlar to'plami chiqardi. Bu qonunlar to'plami Rim huquqi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, o'rta asr Yevropasidagi qonunlarning birinchi umumlashtiruvchi to'plami edi. Alfons X o'zidan sal oldin Salamanka shahrida ta'sis etilgan universitetga homiylik qilib, davlat mablag'lari hisobiga shu shaharda observatoriya (rasadxona) qurdirdi.

Yuz yillik urushda inglizlarning ittifoqchisi bo'lgan qirol Pedro I Zolim (1350-1369) XIV asrda feodallar bilan qattiq kurash olib borib, ko'pdan-ko'p feodallarni qatl ettirdi va ularning molu mulklarini musodara qildirdi. Kastiliya grandalari frantsuz feodallarining ko'magiga tayanib, Pedroni engdilar va taxtga univg raqibi Genrix II Trastamarani o'tkazdilar. Genrix II Trastamara 1369-yildan boshlab yangi sulolaga asos soldi. XIV va XV asrlarda korteslarning o'zi onda-sonda yig'iladigan bo'lib qoldi. Qirol hokimiyatining o'zi turli feodal to'dalarining kurash quroliga aylanib qolar edi. XV asrning ikkinchi yarmida Kastiliyadagi qirol hokimiyatining nochor ahvoliga yaqqol misol qilib qirol Genrix IV (1454-1474) ni ko'rsatish mumkin. Genrix IV ning butun hukmronligi davri feodal o'zaro urush-janjallari bilan to'lib-toshgan edi. Zodagonlar qirolning qizi Xuananing taxt vorisligi huquqini tan olmay, qirolning singlisi - malika Izabellaning nomzodini qo'ydilar. Zodagonlar kelajakda Izabel-lani o'zlariga rom qilib olib, undan itoatli qurol sifatida foydalanmoqchi edilar.

### Aragon fedyeratsiyasi.

Aragon, Pireneya yarim orolida kichik bir tyerritoriyani egallar edi. Ammo O'rta Yer dengizda uning ko'pdan-ko'p mulklari: Sitsiliya, Sardiniya, Neapol qirolligi, Balear orollari va boshqalar bor edi. Kastiliyaning aksicha, Aragon katta dengiz davlati edi. Lekin bu yerda qirol hokimiyati zaif edi. Shaharlarning zaif o'sganligidan, dvoryanlar butun hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab qolgan edilar. Aragon dehqonlari eng og'ir krepostnoy qaramlikda yashardilar. Aragon feodallari o'z krepostnoy-lariga hatto o'lim jazosi berish huquqiga ham ega edilar. Ko'proq feodallardan iborat bo'lgan Aragon korteslari qirolni to'la nazorat qilardi, korteslar dam olgan paytlarida qirolning ishlarini kuzatib borish uchun «deputatsiya» nomi ostida alohida komissiya belgilab qo'yilardi. Aragon dvoryanlarini maxsus saylab qo'yiladigan sudya, ya'ni Buyuk xustisiya sud qilardi. Uni xukmini bekor qilishga qirolning haqqi yo'q edi. Dvoryanlar qirolga qarshi urush e'lon qilib, u bilan urush olib borar va chet el fuqaroligiga o'tib keta olardilar. Aragon zodagonlarining yerkinligi «Uniya imtiyozlari» (1287-y) degan alohida muboraknomada yozib qo'yilgan edi.

Kataloniyada dehqonlarning qo'zg'olonlari. Kataloniyadagi dehqonlar ham ayniqsa og'ir ahvolda kun kechirardilar. Kataloniyada ham, «yaramas odatlar» deb atalgan tsarsa mavjud bo'lib, krepostnoy-larni mutlaqo chidab bo'lmaydigan ahvolga solib qo'yar edi. Farzandsiz dehqon vafot qilguday bo'lsa, pomeshchiklar uning barcha molu mulkini tortib olar va bordiyu, vafot etgan dehqonning bolasi bo'lsa, unga qarashli molu mulkning anchagina qismini bosib olardilar. Birinchi kecha huquqi hukm surardi. Dehqonlarni yersiz qul qilib sotib yuborardilar. Biroq Aragonning aksi o'laroq Kataloniya shahar mamlakati edi. Dehqonlar bu yerda ko'proq bozor bilan aloqador edilar. Bu dehqonlarning ko'pi krepostnoy cho'rilikdan Barselonaga va boshqa shaharlarga qochib ketgan edi. Kataloniya dehqonlari birlashib, feodallarga qarshi uzoq davom etgan dehqonlar urushi olib borganlar.

Kataloniya dehqonlarining qo'zg'olonlari o'n yilga cho'zilgan, 1462 yildan 1472 yilgacha davom etgan. Qo'zg'olonlar Shimoliy Kataloniyani o'z ichiga olgan edi. Dehqonlar qo'zg'oloniga mayda dvoryan (idalgo) Verntalyat boshchilik qildi. Feodallar qo'zg'olonni bostira olmadilar. Dehqonlarning feodallar bilan olib borgan kurashiga Aragon qiroli Xuan II

aralashdi. Qirol Xuan II bu mahalda Aragon va Kataloniya feodallari bilan hamda mustaqil bo'lib ajralib chiqqan Barselona bilan jang qilayotgan edi. Xuan II Verntalyat bilan muzokaraga kirishdi va qo'zg'olonchilarga yordam beraman, deb katta va'dalar qildi. Isyonchi feodallarga qarshi dehqonlarning kuchlaridan foydalangan va Barselonani o'ziga tobe qilib olgan Xuan II 1472 yilda krepostnoy huquqni qisman yengillashtirish yo'li bilan dehqonlarni feodallar bilan «yarashtirmoqchi» bo'ldi. Shunda Verntalyat Xuandan vikont unvoni va ko'pdan-ko'p yer-mulklar oldi. Ammo Kataloniya dehqonlari Verntalyatning qirol bilan qilgan bitimidan qanoatlanmay, 1484 yilda ikkinchi marta qo'zg'olon qildilar.

Bu safar qo'zg'olonchilarga dehqon Pedro Xuan Sala boshchilik qildi. Feodallar Salani asir qilib olib, uni qatl etdilar, lekin dehqonlar Salaning vafotidan keyin ham partizan urushini davom qildirdilar. 1486 yili Aragonning yangi qiroli Ferdinand farmon chiqarib, haq to'lab qutulish sharti bilan barcha «yaramas odatlar»ni bekor qildi. Dehqonlar o'zlariga qarashli yerlarning merosxo'r ijarachilariga aylandilar. Krepostnoy huquqni bekor qilish haqidagi farmonni qirol tez orada Aragonga ham yoydi.

Kataloniya dehqonlari harakati bilan bir vaqtda, XV asr davomida shaharlardagi, shuningdek, Aragonga tobe bo'lgan Bolear orollaridagi qo'zg'olonlar bilan qo'shilib ketgan keng dehqonlar harakati yuz berdi. 1450 yilgi Malorka orolidagi harakat, ayniqsa kuchli harakat bo'lib, u ham feodal-larning xalq ommasiga qisman yon byerishi bilan tamom bo'ldi. Kastiliyaning Aragon bilan birlashuvi. Kelib chiqishi va til jihatdan qon-qarindosh bo'lgan, yuz yillar davomida arablarga qarshi birgalikda kurashib kelgan, iqtisodiy masalada azaldan bir-birovi bilan aloqa qilgan Kastiliya na Aragon birla-shish uchun yetarlicha tarixiy shart-sharoitlarga ega edilar.

Keyingi o'rta asrlar davrida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi iqtisodiy jihatdan qandaydir o'zaro birov-birovini to'ldiruvchi har ikkala mamlakatning - quruqlikdagi Kastiliya va O'rta Yer dengizi bilan bog'langan Aragonning birlashishini ayniqsa zaruriy vazifa qilib qo'ydi. XV asrning ikkinchi yarmida Pireneya yarim orolining ijtimoiy va siyosiy sharoitlari ham ana shu birlashuvni zo'r berib taqozo etgan edi.

**Yagona Ispaniya qirolligining vujudga kelishi.**

Kastiliyada va Aragonda keskinlashgan sinfiy kurash, rekonkistaning tamom bo'lmaganligi (yarim orol janubidagi Granada qirolligi) har ikkala mamlakat feodallarini ikki qirollikni yagona Ispaniya davlatiga birlashtirish to'g'risida bir bitimga kelishga majbur etdi. Ikkala qo'shni davlat o'rtasidagi uniya (ittifoq) sulola nikohi yo'li bilai amalga oshirildi. Malika Izabella Kastilskaya 1469 yili shahzoda Ferdinand Aragonskiyga turmushga chiqdi. 1474 yili Izabella Kastiliya qirolichasi bo'lib oldi, 1479 yilig Ferdinand Aragon taxtiga o'tirdi. Birlashgan ikkala mamlakatning har biri o'zining burungi qonunlari, urf-odatlari va alohida alohida korteslarini saqlab qoldi. Shunday qilib, mamlakatni boshqarish hali ikki tusdaligicha qolaverdi. Shunday bo'lsa ham, yagona Ispaniyani vujudga keltirish uchun asos solingan edi. Birlashish Ferdinand bilan Izabellaning ichki va tashqi siyosatlarida ijobiy aks etdi.

Shahar kommunalarining ko'magiga tayanib ish ko'rgan Izabella Kastiliya feodallari muxolifatini tinchitdi. Izabella yordamida «Muqaddas ermandada» nomi ostida tashkil etilgan shahar ittifoqchi militsiyasi talonchilik qilib yuruvchi ritsarlarga qaqshatg'ich zarbalar berdi. Katolik cherkovi Ferdinand bilan Izabellaga katta yordam ko'rsatdi. Katolik qirollar (papa Ferdinand va Izabellaga shunday unvon bergan) o'zlariga qarashli dahshatli inkvizitsiyani katolik cherkovi manfaatlariga xiz-mat qildirar edi. Cho'qintirilgan mavrlar (motiskalar)ning ishlarini nazorat qilish maqsadida 1477 yil Ispaniyada vujudga keltirilgan inkvizitsiya amalda, oliy siyosiy sudga aylangan edi. Kastiliya yoki Aragondagi birorta feodalning davlatga xiyonat qilganligi gumon qilingan taqdirda, u inkvizitsiyaning qahr-g'azabidan hech qayoqqa qochib qutula olmasdi.

Izabella Kastiliyadagi savdo-sotiq va sanoatni jonlantirib yuborgan bir qancha iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi. Mamlakatdagi mamlakat ichkarisida aktiv savdo balansini ta'minlashga intilib, qirolicha merkantilizm g'oyalarini amalga oshira boshladi. Izabella chet ellarga oziq-ovqat mahsu-lotlari va xom ashyo (g'alla, jun va boshqalar) chiqarishni ma'n qildi,

jun Ispaniyaning o'zida qayta ishlanmog'i kerak, deb buyruq qildi. Izabella mashhur Xristofor Kolumbga homiylik ko'rsatdi.

Ferdinand va Izabella Ispaniyasi tez orada buyuk davlatga aylandi. 1492 yili ular Granadani istilo qildilar. 1512 yili Ispaniya Navarrani o'ziga qo'shib oldi. Shunday qilib, Portugaliyadan tashqari, barcha Pireneya yarim oroli Ispaniyaga birlashtirildi. Kolumbning sayohatlari Ispaniya uchun Yangi Dunyodagi juda ko'p mustamlaka mulklarni bosib olish imkonini yaratib berdi. Ferdinand va Izabella Ispaniyani Yevropaning eng yirik davlatlari bilan siyosiy ittifoqlar bog'lashiga sababchi bo'lgan muhim sulola nikohlarini amalga oshirdilar. Ularning to'ng'ich qizi Yekaterina Tyudorlar xonadoniga mansub ingliz shahzodasiga turmushga chiqdi. Kichik malika Xuana Gabsburglarning avstrogerman xonadoniga mansub shahzodalarning biriga xotin bo'ldi. Ispaniya Yevropa xalqaro siyosatining muhim omili bo'la bordi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Rekonkista, mavr, mosarab, Qurdoba amirligi, Toledo, Gabsburglar, Al Hamro, motiska, inkivizitsiya, barbarlar, teokratizm, muqaddas yermandada, Granada, Andaluziya, uniya, idalgo, begetriya, Al Qasar, Kastiliya, Aragon, muqaddas urush, Kipr qirolligi, almuraviylar, almug'alar, ritsar, Sant-Yago, Alkantara, Kalatrava ordenlari, kortes, renegatos, Buyuk xustisiya, yaramas odatlar, Yetti qism, Salamanka universiteti.

**Nazorat savollari:**

1. Rekonkista harakati qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
2. Arablar Pireneya yarim oroli halqlari taraqqiyotiga qnday ta'sir ko'rsatganlar?
3. Qaysi tarixiy shaxslar Ispaniya birlashuviga katta hissaqo'shganlar?
4. Arablarga qarshi urushlarda qaysi davlatlar ispanlarga yordamga kelganlar?
5. Pireneya yarim orolida qanday davlatlar mavjud edi?
6. Qaysi asrga kelib Portugaliya qudratli davlatga aylangan?
7. Qaysi ispan qiroli yaramas odatlarni bekor qilgan?
8. Qaysi yillarda yirik dehqonlar qo'zg'olonlari yuz bergan?
9. Aragon federatsiyasi O'rta Yer qaysi mulklarga eaglik qilar edi?
10. Xristofor Kolumbga qaysi ispan hukmdorlari homiylik qilganlar?

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: Rivojlanga o'rta asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi ( 4 soat)

**Reja:**

**1. Fridrix I Barbarossa va uning Italiyaga qilgan yurishlari.**
**2. Elba daryosining o'ng tomonidagi yerlarning istilo qilinishi.**
**3. Nemis feodallarining Boltiq bo'yini istilo qilishlari.**
**4. German shaharlarining o'sishi.**
**5. XIII-XV asrlarda Germaniyaning siyosiy taraqqiyoti.**
**6. XV asrda Gabsburglar hokimiyati.**

### Fridrix I Barbarossa va uning Italiyaga qilgan yurishlari.

XII-XIII asrlarda Germaniyada ishlab chiqarish kuchlari o'sdi. Ekin maydonlari kengaydi, qishloq xo'jaligi qurollari takomillashdi. G'alla, javdar, suli, arpa, zig'ir, nasha, vayda ekish

rivojlandi. Polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, xmelchilik kengaydi. Movut to'qish, surp ishlash, metallsozlik, mo'ynachilik, qurol-yarog'lar yasash yuksaldi. Reyndagi Kyoln, Vorms, Mayndagi Frankfurt, Dunay-dagi Ulm, Nyurnberg, Augsburg shaharlari sanoati rivojlandi. Germaniya tarqoq feodal mamlakat edi. Gertsogliklar, dunyoviy va ruhoniy knyazliklar soni ko'paydi. Imperator ynrik feodallar orasida syuzeren (oliy senor) bo'lib qoldi. Markaziy imperator hokimiyati shaharlar bilan zaif bog'langan edi. Asosiy sababi, german imperatorlarini agressiv tashqi siyosat olib borishlari edi.

Shtaufenlar idora kilishi. Frankoniya va Saksoniyaliklardan so'ng taxtga Konrad III Shtaufen (1138-1152) chiqdi. Fridrix I Barbarossa davrida Shtaufenlar sulolasi eng zo'r qudratga ega bo'ldi. U 38 yil imperatorlik qildi (1152-1190). U shafqatsiz, tajovuzkor, g'oyat shuhratparast va makkor siyo-satchi edi. U Rimda toj kiydi (1154-1155 yy). U 1158 yilda Italiyaga 100 minglik qo'shin bilan kirib keldi. 1158 yilning 11 noyabrida Rankal vodiysidagi (Pyachentsa sh.) seym qarorlariga ko'ra, jinoiy ishlar sudi, tanga-chaqa zarb etish huquqi, yer-mulklarini taqsimlash, shahar podestalarini (noib) tayinlash va hokazolar Fridrix qo'liga o'tdi. U Milanni bosib olib (1162 y.), qattiq jazoladi. Lombar-diya shaharlari ittifoqi (15 ta shahar) tashkil topdi. 1167 yilda Barbarossa Italiyaga katta qo'shin tortib kelib, Rimni egalladi. 1176 yil bahorida Lenyano jangida (Milan) u liga qo'shinlari tomonidan batamom mag'lubiyatga uchratildi. 1178-1180 yillardagi janglarda Fridrix Velflarni (Genrix Sher) engdi. U Germaniya shaharlariga nafrat bilan qaradi. 1186 yili u o'z o'g'li Genrix VI ni Sitsiliya malikasi Konstantsiyaga uylantirdi. Shtaufenlar Sitsiliya va Italiyaning butun janubini o'z ichiga olgan kuchli qirollikni qo'lga kiritdilar. U 1190 yilda uchinchi salib yurishida vafot etdi. Fashist tarixchilari Barbarossani ideallashtirdilar.

Papa Innokentiy III davrida (1198-1216) papa hokimiyati zo'r qudratga ega edi. Papa sudi katta tribunalga aylanib, u butun Yevropadagi diniy va qisman fuqoro ishlarini ko'radigan bo'ldi. Papa xazinasi eng boy xazina edi. Uning davrida va'zxonlikka ixtisoslashgan frantsiskanlar va inkvizitsiya ishlarini olib borgan dominikanlar ordenlariga asos solindi. Inkvizitsiya keng yoyildi. Innokentiy III imperatorlik toj-taxtining ham o'z tasarrufiga oldi.

Fridrix II Shtaufen (1212-1250) Arab-Vizantiya madaniyati ta'siriga berilgan, saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlari to'plangan edi. U arab va yunon tillarini bilardi, lotincha traktatlar va italyancha she'rlar yozardi. Sharqdagi arab-turk hokimlari Fridrixning (Palyermo) shaxsiy do'stlari edi. Uning siyosati Sitsiliya qirolligini markazlashgan byurokratiq monarxiyaga aylantirish edi. U Sitsiliya feodallari ko'targan bir qancha qo'zg'olonlarni (musulmonlar) bostirdi. 1231 yilda u Sitsiliya qirolligining konstitutsiyasini e'lon qildi va feodallarning huquqlarini qirqdi. Qirollik bir nechta ma'muriy okruglarga bo'linib, ularni qirol gubernatorlari idora qilardi. Butun aholidan yer va ko'pgina egri soliqlar undirilardi. Qirolligining eng oliy amaldori yustitsiariy bo'lib, katta vakolat egasi edi va xuddi arab xalifalarini vazirlarini eslatardi. U Germaniyada istiqomat qilmagan, german knyazlari va feodallari imperatorlikka boshqa nomzodni ko'rsatmasliklari uchun, ularga har qanday yon berishlarga ko'navergan. Germaniyadagi dunyoviy va ruhoniy knyazlarning ma'muriy-sud bobidagi huquqlarini kengaytirgan, knyazlarni shaharlar bilan bo'lgan kurashlarda (1232 y Reyn shaharlari) qo'llagan. Fridrix II ga qarshi Lombardiya shaharlari papalik bilan birlashdilar. Fridrix II Innokentiy III bilan do'stona munosabatda edi. Ammo papa Grigoriy IX davrida (1227-1241) imperator bilan papaning munosabatlari g'oyat darajada keskinlashdi. Fridrix II 1228-1229 yillarda oltinchi salib yurishini tashkil qildi. U Lombardiya qo'shinlarini engib, Rimga kirib, papa Grigoriy IX ni u yerdan qochishga majbur etdi. Papa Innokentiy IV (1243-1254) davrida Fridrix II ning papa bilan kurashi shiddatli tus oldi. Innokentiy IV Genuyada yashab, frantsuz va ingliz qirollarini imperatorga qarshi urushga da'vat etdi. U 1245 yilda Lion soborida, Fridrix II ni «kofirlik»da ayblab, uning fuqarolarini qasamdan xalos qildi. Imperatorga qarshi salib yurishi e'lon qilindi. Biroq frantsuz va ingliz qirollari Shtaufenlar bilan bo'ladigan urushga aralashishni istamadilar. Germaniyada Yuqori Dunay shaharlari va Italiya shaharlarining bir qismi imperator tomoniga o'tdi. Papa tarafdorlari gvelflar bilan imperator tarafdorlari gibellinlar o'rtasidagi kurash shiddatli o'zaro urushga aylanib ketdi.

Fridrix II urushlarda o'zining barcha moliyasini sovurdi. U 1248 yili Parma yonidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Konrad IV 1254 yilda qazo qildi, Konradinni german knyazlari imperator qilib saylashdan bosh tortdilar. Sitsiliya qirolligi Manfred qo'lida edi. Papalar Karl Anjuyskiyni (frantsuz feodallari) Italiyaga taklif etdilar. Frantsuzlar 1266 yili Benevent shahridagi jangda Manfredni yengdilar va o'ldirdilar. Konradin Neapolda qatl qilindi (1268 y.). Shtaufenlarning halokati natijasida Germaniyada imperatorlik zaiflashdi, mamlakat qoloqlikka yuz tutdi.

**Elba daryosining o'ng tomonidagi yerlarning istilo qilinishi.**

Elba daryosining o'ng tomonida va Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashagan g'arbiy slavyanlar: vagralar, obodritlar, lyutichlar, pomoryanlar va boshqalar XII asrda ancha feodallashgan edilar. Ularda urug'chilik munosabatlari ko'proq yemirilib, aholining asosiy ommasini ozod dehqonlar - smerdlar deb ataluvchi jamoa a'zolari tashkil qilardi. Jupanlar va vityazlar (urug' zodagonlari) asta-sekin feodal-larga aylandilar. Odobritlar harbiy-feodal davlat - Vend qirolligiga asos soldilar. German feodallari qo'shni slavyanlardagi ichki ziddiyatlaridan foydalanib, hosildor yerlarni egallab, feodal kolonizat-siyasi maydoniga aylantirish uchun uni bosib olishga harakat qildilar. Ular katolik cherkovidan keng foydalandilar.

XII asrda nemis feodallarining g'arbiy slavyan yerlariga hujumi yangidan keng miqyosda boshlandi. Saksoniyalik feodallar Sharqqa ko'proq intildilar. Slavyan qabilalarining tarqoqligi va knyazlar o'rtasidagi nizolardan foydalangan german feodallari XII-XIII asrlarda obodritlar, lyutichlar va pomoryanlarning yerlarini bosib oldilar. Majusiy slavyanlarga qarshi kurash Germaniyada «salib yurishi» deb qaraldi. German feodallari (Genrix Sher Velf) boshchiligida ritsarlar «salib» qo'shini 1147 yilda obodritlarga qarshi 60 ming ritsar bilan yurish qildi. Obodritlar knyazi Niklot o'rmonzor, botqoqliklardan foydalanib, dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Salibchilarning orasidagi kelish-movchilik va nizo slavyanlarning mudofaasini yengillashtirdi. Ritsarlar yengidilar. Niklot germanlarni ittifoqchilari - daniyaliklarga engdi va nemis kolonistlarini Germaniyaga haydab yubordi. Uning o'g'illari o'z mulklarini mustaqilligini saqlab qola olmadilar, ular o'zlarini imperatorning vassallari deb tan oldilar.

1170 yili obodritlar yerida Meklenburg gertsogligi nomli yangi yarim slavyan, yarim nemis gertsogligi tashkil topib, imperiya tarkibiga kirdi. Meklenburgga ko'p sonli nemis kolonistlari, ritsarlar, dehqonlar va shaharliklar ham ko'chib kelib, imtiyozga ega bo'ldilar. Obodritlar yerini bir qismi Saksoniya gertsogligiga kiritildi. Genrix Sher bosib olgan Lyubek shahri nemislarning Boltiq dentizi bo'yidagi muhim portiga va nemislarning Boltiq bo'yiga yurishlari uchun forpostga aylandi. 1180 yilda pomoryanlar o'z mustaqilliklarini yo'qotdilar va Pomeraniya nomi ostida (Pomore) yarim slavyan yarim nemis knyazligi tashkil topdi. U uzoq vaqtgacha Slaviya deb ataldi.

Brandenburg markgrafligi O'rta Elbadagi eng yirik german mulki edi. Lyutichlar qabilasi yerlarida Brandenburg markgrafligi tuzildi. Yirik german feodali Albrext Medved Askaniya (1170 y v.e.) lyutichlarga qarshi yurishga boshchilik qildi. Albrextning vorislari davrida Brandenburg mark-grafligi to Oder daryosiga cho'zilib, u lujich slavyanlari yerini bir qismini (Lujitsk, Meyssen) ham o'z ichiga oldi. 1244 yilda slavyanlarning Shpreva qabilasi yerida Berlin shahri barpo etildi, u Bran-denburg poytaxti bo'ldi. XIII va XIV asrlarda Brandenburg markgrafligini nemislar zo'r byerib kolonizatsiya qildilar. Mahalliy slavyan aholisining eng yaxshi yerlar nemis kolonistlariga berildi, slavyan shaharlariga nemislar ko'chirildi. Mahalliy slavyan aholisi shafqatsizlik bilan yo'q qilindi, yomon yerlarga siqib chiqarildi, zo'rlab nemislashtirildi, quvg'in qilindi va o'limga mahkum etildi. Slavyanlarning slezan qabilasi Polsha qirolligi tarkibiga kirgan. XII - XIII asrlardagi o'zaro urushlar natijasida Sileziya knyazlari Polsha qiroli bilan aloqalarini uzib, german imperatorini (1163 yili Barbarossani) o'z syuzeranlari deb tan oldilar. Sileziyani nemislar kolonizatsiya qilishdi. Sileziya zodagonlari nemis tili va urf-odatlarini o'zlashtirdilar va Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirdi va XIV asr o'rtalarida Chexiya hukmronligiga o'tdi.

**Nemis feodallarining Boltiq bo'yini istilo qilishlari.**

Nemislarni Boltiq bo'yiga yurishlari XII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Nemis savdo-garlari Boltiq dengizi sohilida faktoriyalar barpo etdilar. Savdogarlar - nemis missionerlari

kelib, ular livlar, qurlar, estlar va boshqalarning mahalliy qabilalari orasida xristianlikni yoydilar. 1201 yili nemislar Riga shahrini barpo etdilar. Papa Innokentiy III majusiy livlarga, kurlarga va ularning qo'shinlariga qarshi maxsus salib yurishi e'lon qildi. Livoniyani istilo qilish uchun, Livoniya yoki qilichbardorlar Ordeni tuzildi. Yangi orden nizomi falastinliklarni ordenlari ustavidan ko'chirilgan. XIII asrning 20-30- yillarida livlar va qurlar istilo qilindi va zo'rlab cho'qintirildilar. Cherkov uchun ularga og'ir desyatina solig'i solindi. Istilo etilgan o'lkadagi siyosiy hokimiyat Riga episkopi bilan qilichbardorlar Ordeni magistri o'rtasida taqsimlandi. Tevton ordeni polyaklarning taklifiga ko'ra, 1226 yilda o'z faoliyatini Quyi Visla daryosi bo'yiga ko'chirdi. Orden ritsarlari Kulm shahridan turib prusslarga qarshi hujum qildilar va (1230-1284) ular mamlakatni istilo qildilar. Marienburg shahri Tevton (Pruss) ordenining poytaxti edi. Kenigsberg, Memel shaharlari Prussiyani yirik markazlariga aylandi. 1237 yili Tevton ordeni Qilichbardorlar ordeni bilan birlashib, o'z ta'sirini Boltiq dengizining barcha sharqiy sohiliga yoydi. Orden ritsarlari Boltiq bo'yini istilo qilishni shafqatsizlik bilan olib bor-dilar.

Muz ustidagi jang. Nemis ritsarlari Novgorod va Pskov yerlariga xavf soldilar. 1242 yil martida Novgorod knyazi Aleksandr Nevskiy Pskov shahrini ozod qildi. 1242 yilning 5 aprelida Chud ko'lida nemislarning novgorodliklar bilan jangi bo'lib, novgorodliklarga Aleksandr Nevskiy boshchilik qilgan. Rus qo'shinlari nemis ritsarlarini engib, ularni rus chegaralaridan uloqtirib tashladilar. 1260 yilda prusslar va livlarning qo'zgolonlari bo'lib o'tdi, bu qo'zg'olonlar 80-yillariing yarmidagina bostirildi. Litvaliklarning ozodlik kurashiga knyaz Mindovg (60-yillar) boshchilik qildi.

Orden davlatining tushkunlikka tushishi. Orden Prussiyani istilo qilgach, u Polshani va Litvani Boltiq dengizidan kesib qo'yib, yirik davlatga aylandi. 1346 yilda orden daniyaliklardan Estoniyani sotib oldi. Ordenni agressiya qilish xavfi tufayli 1386 yilda Polsha-Litva uniyasi tuzildi. 1410 yilni 15 iyulida polyaklar, litvaliklar, Gryunvaldda ordenga engdilar. Gryunvald o'rta asrlar tarixidagi eng yirik janglardan biri edi. Orden qo'shinlarida G'arbiy Yevropadagi 22 mamlakat vakillari jang qildi. Yan Jijka (chexlar) ordenga qarshi jang qildilar. Ikkala tomon qo'shinlari soni 200 ming kishiga etdi. XV asrni 50-60-yillarida Polsha bilan urushlar natijasida orden yakson qilindi va u 1466 yilda Polshaga vassal bo'ldi. Ordenning mag'lubiyatida tashqi sharoitlardan tashqari, bu yarim cherkov, yarim dunyoviy feodal davlatining ichki ziddiyatlari ham katta rol o'ynadi. Shaharliklar va orden a'zolari, dunyoviy ritsarlar va boy ruhoniy ritsarlar, bir birlariga nafrat nazari bilan qarardilar.

### German shaharlarining o'sishi.

Shimoliy va Boltiq dengizlarida savdo-sotiq ishlari olib borgan va G'arbiy Yevropa mamlakat-larining Shimoliy-Sharqiy Yevropa bilan olib borgan savdo ishlarida vositachi bo'lgan Shimoliy Germaniya shaharlarini rivojlanishi nemislarning Boltiq bo'yini istilo qilish oqibatlaridan biri bo'ldi. XIV asr o'rtalariga kelib Shimoliy Germaniya shaharlari qudratli Ganza ittifoqiga birlashdilar. Ganza iqtisodiy va siyosiy ittifoq edi. Lyubekda ittifoqqa kirgan shaharlar vakillarining s'ezdlari bo'lar edi. Ganza shaharlarining Daniya bilan uch yillik urushi va 1370 yilgi Shtralzund sulh shartnomasiga ko'ra, Daniya qiroli Ganza ittifoqining ishlariga aralashishdan voz kechdi va Daniya bo'g'ozlarida Ganzaga qarashli mollardan undiriladigan savdo bojlarini kamaytirdi. Amalda Daniya bo'g'ozlari Ganza tomonidan monopoliya qilindi. Ganza shaharlari bilan savdo qiladigan mamlakatlar - Angliya, Shvetsiya, Rossiya va boshqalar xususiy savdo-sotiq ishlarini rivojlantirib, nemislarning savdo vositachisi bo'lishlarini istamaganlaridan keyin, XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Ganza faoliyati orqaga ketdi. Ammo Ganza XVI va XVII asrlarda ham qisman o'z ahamiyatini saqlab qolgan edi.

XIII-XV asrlarda Germaniyada janubiy va g'arbiy shaharlarning yirik ittifoqlari bor edi. Shvabiya ittifoqi Yuqori Dunay daryosi hududida joylashgan 90 ta shaharni o'z ichiga oldi. Ularning tepasida sanoati (movut, surp, ip gazlama to'qish, metallurgiya, qurol-yarog' ishlab chiqarish) rivojlangan mar-kazlar - Augsburg, Ulm va Nyurnbyerg shahar lari turardi. Bu shaharlar Italiya savdosi bilan cham-barchasi bog'langan edi. Venetsiyada nemis mollari bilan savdo-sotiq qilishning hammasi nemis sa-royga to'plangan edi. G'arbda Reyn ittifoqi sanoat va

savdo shaharlarining ittifoqi edi. Reyn daryosi bo'yida joylashgan va movut to'qish, metall ishlab chiqarish rivojlangan Kyoln, Vorms, Strasburg va boshqa shaharlar Reyn ittifoqiga kirgan edilar. Bu shaharlar Niderlandiya, Frantsiya va Italiya bilan qizg'in savdo olib bordilar.

Germaniyada siyosiy markazlashishni zaiflashishi tufayli mahalliy feodallarga qarshi nemis shahar ittifoqlari qattiq kurash olib bordilar. German knyaz-feodallariga qarshi Shvabiya va Reyn shahar ittifoqlarii o'rtasida 1381 yilda urush boshlandi. Biroq har ikkala ittifoq feodallardan 1388 yilda engildilar. Nemis shaharlarining engilishiga asosiy sabab - bu shaharlarda mahalliy, o'lka manfaat-larini ustun bo'lganligi edi. Nemis shaharlari tashqi bozorlardan ko'proq manfaatdor edilar. German imperatorlarining tutgan mavqei ham shaharlarning yengilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. German imperatorlari o'z hokimiyatlarining zaifligi tufayli shaharlar tarafini olishga va ularga biror bir jiddiy yordam ko'rsatishga jur'at etmadilar, frantsuz, ingliz va ispan qirollarining siyosatiga tamomila qarama-qarshi siyosat tutdilar.

Dehqonlar ahvoli. Germaniyada salib yurishlari boshlanishi bilan, Yevropaning boshqa mamlakat-laridagi singari, feodal-krepostniklik qaramligi zaiflashdi. Dehqonlarning bir qismi muayyan yillik chinshalar to'lash evaziga shaxsiy majburiyatlar o'tashdan ozod bo'ldi. Boshqa dehqonlar qaram dehqonlar bo'lib qolaverdi, lekin ular o'taydigan barshchinalari kamaytirildi, eng og'ir obroklardan (o'lim solig'i) haq to'lab qutulishga imkon berildi. German feodallari, xo'jalik bilan o'zlari shug'ul-lanmay, domenlarini ijaraga berardilar. Bunday yirik ijara meyer ijarasi deb atalardi, chunki avval so-biq krepostnoy oqsoqollar-meyerlar ijarachi bo'lardilar. Shimoli - G'arbiy Germaniyada (Vestfali-yada) eng ko'p tarqalgan meyer ijarasi badavlat, qisman quloq dehqonlar kattagina tabaqasining tashkil topishiga imkon berdi. Ammo kam yerli dehqonlar tabaqasi maydonga kelib, ular boylar uchun ishlaydigan batraklarga aylandilar.

Germaniyada krepostnoy huquqning zaiflashishi muvaqqat hodisa edi. XIV asrning ikkinchi yarmidan feodallar tayziqi kuchayib, barshchinani qaytadan tiklash, natural va pul yig'imlarini kuchaytirishga urinishlar boshlandi. Feodallar jamoa yerlarini (almenda) bosib olaverdilar. Elba daryosining sharq tomonidagi kolonizatsiya qilingan slavyan yerlarida istiqomat qiluvchi nemis dehqonlarining ahvoli ancha qulay edi. Dehqon-kolonistlar katta chek yerlarga ega bo'lib, mahalliy knyazlarga belgilab qo'yilgan to'lovlarnigina to'lar edilar. Pomeshchiklar dehqonlardan soliqlar undirish huquqini knyazlardan sotib olardilar, kam quvvat dehqonlarning xo'jalik qiyinchiliklaridan foydalanar va turli yo'llar bilan o'z yer-mulklarini ko'paytirar edilar. Dastlabki paytda 4-6 dehqon gufiga teng keladigan ritsarlik chek yeri XV asrga kelganda o'rta hisobda 20 gufgacha yetdi. Elba daryosining bu tomonida, ham krepostnoy huquqning avj olishi uchun shart-sharoit yaratildi.

### XIII-XV asrlarda Germaniyaning siyosiy taraqqiyoti.

Frantsiya, Angliya va Ispaniyaning siyosiy taraqqiyotiga qarama-qarshi, XIII-XV asrlarda Germaniya siyosiy markazlashishga erishishmadi, balki yana ko'proq mustaqil feodal knyazliklarga bo'linib ketdi. Shtaufenlardan keyin imperatorlik hokimiyati qaddini tiklay olmadi. 1273 yilda feodal-lar graf Rudolf Gabsburgni (Shvabiyadan) imperator qilib sayladilar. U 55 yoshlik keksa odam bo'lib, u katta yer-mulklar egasi bo'lmagan hiylakor va chiniqqan siyosatchi edi. Rudolf Italiyaga taalluqli siyosatdan voz kechdi. Gabsburglar xonadonidan chiqqan imperatorlar tutgan siyosat o'z urug'-aymoqlariga qarash-li mulklarni ko'paytirish edi. Germaniyaning qolgan boshqa yerlari o'z holicha tashlab qo'yildi. Rudolf Germaniyadagi ruhoniy knyazlarning-arxiepiskoplar bilan yepiskoplarning ko'magiga tayanib ish ko'rishga harakat qilgan.

Rudolf chex qiroli Pshemisl II ni gyerman knyazlari yordamida mag'lub etdi va Avstriyani, unga qo'shni bir qancha viloyatlarni bosib oldi. G'arbiy Germaniyadagi kichkina Lyuksemburg knyazligi Karl IV davrida kuchaydi. Karl IV Chexiya qiroli va Germaniya imperatori sifatida 30 yildan ortiqroq hukmronlik qildi (1347-1378). Karl IV hukmronligining boshlarida (1356 y) nashr qilingan Oltin bulla muhim ma'lumotlar byeradi. Jami yetti shaxsdan iborat knyazlarning tor doiradagi, yopiq kollegiyasi tarafidan o'tkaziladigan imperator saylash tartibini Oltin bulla uzil-kesil qonunlashtirib berdi. Say-lovchi knyazlar kurfyuristlar degan unvonga ega bo'ldilar.

Uning tarkibiga uchta ruhoniy knyaz - Maynts, Kyoln va Trir arxiepiskoplari va to'rtta dunyoviy knyaz - Bogemiya qiroli (Chexiya), Reyn pfaltsgrafi, Saksoniya gertsogi va Brandenburg markgrafi kirardilar. Kurfyurstlar imperatorni saylash, uni taxtdan ag'darib tashlash huquqiga ham ega edilar. Oltin bulla kurfyurstlarni o'z knyazlik mulklarida tamomila suveren hokimlik huquqlariga egadirlar, deb tan oldi.

Karl IV ning o'g'li imperator Vatslav feodallarga qarshi kurashayotgan shaharlarga ko'mak byerishga harakat qilganligi uchun knyazlar 1450 yilda uni taxtdan ag'dardilar. Bu sulolaning ikkinchi imperatori, Karl IV ning boshqa o'g'li Sigizmund (1410-1437) kurfyurstlar qo'lida itoatgo'y qurol bo'lib qoldi. Vaqt-vaqti bilan yig'ilib turadigan imperiya reyxstaglarida kurfyurstlar katta rol o'yadilar. Gyerman shaharlari ham imperiya toifa vakillarini bu s'ezdlarida qatnashdilar. Shaharlar vakillariga umumdavlat masalalari topshirilmay, balki shaharlarni o'zlariga taalluqli masalalargina topshirilardi. Yirik feodal-knyazlarga nisbatan mayda ritsarlarning reyxstaglardagi ta'siri ham juda oz edi. XIV asrda ritsarlar endi siyosiy jihatdan kuchli sinf bo'lmay qoldilar. 1437 yilda Lyuksemburglar sulolasi barham topdi, Gabsburglar imperatorlik toj-taxtini uzil-kesil egallab, uni 1806 yilgacha o'z qo'llarida saqlab qoldilar.

**XV asrda Gabsburglar hokimiyati.**

XV asrda Gabsburglar hokimiyati Lyuksemburglar davridagi hokimiyatga qaraganda hali ancha kuchsiz edi. Gabsburglarning butun kuch-qudrati ularning nasldan-naslga meros bo'lib o'tadigan xususiy knyazlik yerlaridan iborat bo'lib, ular shu yerlarni kengaytirishga harakat qilardilar. «Nikoh diplomatiyasi» Gabsburglarning nasldan-naslga myeros bo'lib o'tadigan yerlarini kengaytirishda katta rol o'ynadi. XV asrning 70- yillarida nikoh diplomatiyasi yo'li bilan Gabsburglar Burgundiya merosini bir qismini qo'lga kiritdilar (Maksimilian Gabsburgning Mariya Burgundskayaga uylanishi). XVI asrda Gabsburglar Ispaniya sulolasi bilan qarindosh-urug' bo'ldilar (Maksimilianning o'g'li Filipp Chiroyli Ferdinand bilan Izabellaning qizi Xuanaga uylandi). Keyinchalik bu Gabsburglarga Ispaniya toj-taxtini myeros qilib olish huquqini berdi. Germaniyaning o'zida Gabsburglar Avstriya, Shtiriya, Karintiya, Krayne, Tirol va Shvabiyaning bir qismini egallagan edilar. Ammo Germaniyaning qolgan qismida imperatorning ta'siri juda oz edi. Bir voqeanavisning so'zlariga qaraganda Fridrix III Germaniyada uzoq vaqt hukm surganligidan (1439-1493) fuqaro mamlakatda imperator borligini hatto unuta boshlagan. Imperatorda hech qanday real hokimiyat na umumimperiya qo'shini, na umumimperiya soliqlari, na markaziy sud va ma'muriy apparat bo'lmagan. Imperator knyazlar konfederatsiyasining boshlig'i bo'lib qolaverdi. Siyosiy tarqoqlik xalqaro munosabatlarda Germaniyaga jiddiy xavf tug'dirar edi. XV asr mobaynida Germaniya imperiyaga qarashli ko'pgina yerlarni yo'qotdi. XV asrning 60-yillarida Prussiya orden davlati imperiyaga vassallik munosabatlariga barham berib, Polsha qiroli hukmronligi ostiga o'tdi. Shlezvig-Golshteyn Daniyaga o'tdi. XV asrning 20-yillarnda Chexiya imperiyadan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Shveytsariya federatsiyasi 1481 yilda uzil-kesil rasmiylashdi.

«Imperator Sigizmund reformatsiyasi». Mamlakatda kuchayib borgan feodal-krepost-niklik zulmi, feodal tarqoqlik, iqtisodiy va siyosiy hayotda feodal knyazlarni zo'ravonligi, iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashishi barcha qatlamlarda norozilikni kuchaytirdi. Shaharliklar va ritsarlar feodal-anarxiyasini tanqid qilib, davlatni isloh qilishni taklif qildilar. XV asrning ikkinchi yarmida Germaniyada «Impe-rator Sigizmund reformatsiyasi» publitsistik asari katta shuhrat qozondi. Bu asar Sigizmund vafotidan keyin, 1438-1439 yilda yozilgan va matbuotda e'lon qilingan. Uning avtori noma'lum. Guschilarni targ'ib qilgani uchun, 1458 yilda Strasburgda qatl etilgan nemis Fridrix Rayzer shu pamfletning avtori bo'lishi mumkin.

Bu asar imperatorlik tuzumini tubdan isloh qilishni talab etgan. Imperator va imperiyaning turli qismlarida uning noiblari to'la hokimiyatga ega bo'lishlari lozim; markaziy hokimiyatga bo'yin egmaydigan feodallar hayot va molu mulk borasida himoyadan mahrum etiladilar. Mamlakatda ichki o'zaro urushlar man qilindi. Imperator imperiya soliqlarini yig'ish va ularni xarajat qilish ustidan nazorat qilish huquqini shaharlarga topshirib qo'ymog'i lozim. «Reformatsiya»ga ko'ra, umumdavlat va markazlashgan sud bo'lmog'i lozim; knyazlik va boshqa feodal sudlari tugatilishi kerak, pul to'lash sharti bilan barcha istagan kishilar shaharlarga

ko'chib kelib, to'la huquqli byurgerlar sifatida qabul qilinishlari kerak. Har bir odam istagan hunari bilan shug'ullanmog'i kerak. «Reformatsiya» dehqon-lardan yangi yig'imlar va yangi barshchinalar olishga, feodallar tomonidan dehqonlariing jamoa yerlarini bosib olishga qarshi chiqdi. Biroq, «Reformatsiya» feodal krepostnoy tuzumni tugatish masalasini qo'ymadi. «Imperator Sigizmund reformatsiyasi» qog'ozda qolib ketdi. Feodal-knyazlar markaziy imperatorlik hokimiyatining kuchayishini istamasdilar.

Germaniyada gumanistik harakatning boshlanishi. XV asrda Germaniyada gumanistik adabiyot maydonga keldi. Bu adabiyot qisman nemislarning qo'shni Italiyaga qilgan sayohatlari ta'siri ostida yuzaga kelib, u asosan, Germaniyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti sababli ro'y byergan kayfiyat va g'oyalarni aks yettirar edi. Ko'p sonli german universitetlari antik adabiyotni o'rgandilar, ba'zi universitetlarda tabiiy fanlarga qiziqish zo'r bo'ldi. Universitetlar nemis gumanizmi tug'ilib voyaga etgan asosiy markazlar edi. Nemis gumanist adabiyotining to'ng'ich vakili yozuvchi-satirik Sebastian Brantning (1457-1521) nemis tilida yozilgan «Ahmoqlar kemasi» asari, 1494 yilda Bazelda nashr etilgan. Brant o'z satirasida feodal-knyazlar, katolik ruhoniylari va monaxlari, talonchi ritsarlarni masxaralab kuldi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Oltin bulla, kolonizatsiya, gumanizm, feodal tarqoqlik, smerd, salib yurishi, kurfyurist, kollegiya, Sigizmund reformatsiyasi, nikoh diplomatiyasi, satira, byurger, konfederatsiya, reyxstag, Livoniya, Tevton, orden davlati, salib yurishlari, muz ustidagi jang, Ganza, Reyn, Shvabiya ittifoqlari, almenda, guf, ritsar, sulola, obrok, barshchina, slavyanlar, kolonist, majusiy, Gryunvald.

**Nazorat savollari:**

1. Nemis feodallarini "Sharqqa hujum" siyosatini mazmunini tushuntirib byering.
2. Qilichbardorlar ordeni qanday maqsadlarda tashkil etilgan edi?
3. Orden davlati qaysi hududlarni o'z ichiga olgan edi?
4. Germaniya siyosiy tarqoqligining sabablarini tushuntirib bering.
5. Germaniya shaharlari ittifoqi qanday vazifalarni bajargan?
6. Imperator Sigizmund reformatsiyasi qanday masalalarni ilgari surgan?
7. Oltin bulla knyazlarni qaysi huquqlarini qonuniylashtirgan?
8. Krepostnoylik munosabatlarini qaytadan kuchayishini sabablarini bilasizmi?
9. Germaniya gumanizmini rahnamosini bilasizmi?
10. Nima uchun Germaniyada imperator xokimiyati juda zaif bo'lgan?

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.

4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўкув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.

5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973

6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: XII –XV asrlarda Mo'gullar imperiyasi ( 2 soat)

**Reja :**

***1.*** **Davlat vujudga kelguniga qadar mo'gullar.**

**2. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi.**

**3.Mo'g'ullar istilosining asosiy yo'nalishlari, muvaffaqiyati sabablari va natijalari.**

**4. Mo'g'ullar istilosining muvaffaqiyat sabablari.**

**5. Mo'g'ullar istilosining oqibatlari.**

Mo'g'uliston davlat tashkil topgunga qadar XII asrning oxiriga kelib mo'g'ul qabilalarining bir necha yirik ittifoqlari Buyuk Xitoy devoridan janubiy Sibirgacha, Irtishning yuqori oqimidan Amurgacha bo'lgan keng hududni aylanib chiqishdi.

"Mengu", "Mengu-mo", "Mengu-va" shaklidagi "mo'g'ul" etnonimi - birinchi bo'lib Tan sulolasi xitoy yilnomalarida uchraydi. Xitoylar shimoliy chegaralarida sayr qilgan "barbarlar" guruhini (barcha dasht xalqlari) shunday nomladilar, bu ularning o'z ismlarini aks ettirganligi aniq. *"Xitoyliklar Shimoliy mo'g'ul qabilalarini "qora "tatarlar" va ko'chmanchilar deb atashdi.* "oq" tatarlar tomonidan Buyuk Xitoy devoriga tutashgan. Shuningdek, ov va baliq ovlari bilan shug'ullanadigan va Mo'g'ulistonning eng chekka shimoliy hududlarida yashovchi xalqlarga tegishli bo'lgan "yovvoyi" tatarlar kabi tushuncha mavjud. Bundan shuni taxmin qilish mumkinki, bu davrda tatarlar dashtda hukmronlik qilgan.

Dasht xalqlari uchta qabilaning (manchjur, mo'g'ul, turk) ko'chmanchilarini o'z ichiga olgan, ammo bu barcha ko'chmanchilar o'zlarini "tatallar"ning umumiy tushunchasi deb atashgan. Xitoydan uzoqlashib, ko'chmanchi xalqlarga o'troq xalqlarning ta'siri zaifroq yoki umuman yo'q edi. Qadimgi davrlardan boshlab Mo'g'ulistonning tabiiy sharoitlari (dashtlar, tog 'yaylovlari) mo'g'ullarning asosiy mashg'uloti - ko'chmanchi chorvachilik bo’lgan. O'rta Osiyo dashtlarida ko'chmanchi chorvachilik ibtidoiy yaxlit dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik iqtisodiyotidan ajralib chiqqan.

Xitoylik Chan-Chun tatar-mo'g'ul yashash joylarini ***«ulkan vodiy deb ta'riflagan, uning o'lchamlari uzunligi va kengligi bo'yicha 7-8 oylik sayohatdir. suv va o't bilan to'lib ketish",*** bu erda odamlar va mo'g'ullar orasida davlatchilik shakllanishidan oldingi davrda bu erda yashagan qabilalar o'z nomlariga ega bo'lib, mo'g'ullar deb nomlanmagan. Podalar ***"bugun borishadi, ertaga suv va o't bo'lgan joyda turishadi."*** XI asrda uzoq qurg'oqchilik davri tugadi. Bu dasht zonasi chegaralarining janubdan Gobi cho'liga o'tishiga hissa qo'shdi chorva mollari va ayniqsa aholi sonining ko'payishi Mo'g'uliston jamiyatining asosiy elementi dasht zodagonlari ***(bohodir, noyonlar)*** boshchiligidagi klanlarni vujudha keltirdi. Klan birgalikda ko'chmanchi yerlarga egalik qilgan, diniy marosimlarni o'tkazgan. *"Mo'g'ullarning ko'pchiligini fikriga ko'ra, klanning har bir a'zosi uchun jamoaviy javobgarlik g'oyasi barqaror edi.* Oilalar Klan tarkibidan kelib chiqqan holda, jamoa ichida o'zini tutish va hayot qoidalarini qabul qilishni istamaganlar "uzoq vaqt irodali odamlar" bo'lishdi. Bu odamlar harbiy rahbarlar boshchiligidagi uyushgan otryadlarga birlashdilar. o'sha davrdagi etnik siyosiy siyosiy jamoalar kabi emas edi. Bu uyushmalarning har birining o'z rahbari, xon bo'lgan. Qoida tariqasida, o'sha paytdagi xonlar allaqachon merosxo'r hukmdorlar edilar, garchi ba'zi joylarda harbiy demokratiya sifatida xon qabila zodagonlari vakillari tomonidan tayinlanganida, harbiy demokratiya davrining saylov tizimi mavjud bo'lib qoldi. Manbalarda XI-XIII asrlarda ko'rsatilgan Mo'g'ul jamiyatida dasht zodagonlari "no'yonlar", "oq suyak" odamlari ajralib turardi. Ular "Boxodirlar", "O'tkir o'qotar", "Dono" degan maxsus unvonlarga ega edilar .

XII asrning ikkinchi yarmidan alohida aristokrat oilalarning hokimiyat uchun, yaylovlarni taqsimlash, boshqalarning podalarini olib tashlash va boshqa birovning suyagidan kelinlarni o'g'irlash uchun raqobati kuchaygan. Eronlik olim, mo'g'ul Ilxonining vaziri Rashid ad-Din (1247-1318) xabar beradi: **«Har bir qabilaning suveren va amiri bor edi. Ko'pincha ular bir-birlari bilan urishib, jang qilishgan, janjal qilishgan va bir-birlarini talashgan".**

Bohodirlar - jangchilar; noyon-lord; dasht zodagonlari. Bu davrda butparast mo'g'ullar qabilalararo adovat, shuningdek, Xitoyning an'anaviy ko'chib yurish siyosati tufayli birlashishni oldini olish uchun ko'chmanchilarni bir-biriga qarshi o'ynash, talonchilik, o'g'irlik, o'zboshimchalik, qonunsizlik va zino odatiy holga aylandi. Shunday qilib, siyosiy birlashish zarurati ayon bo'ldi.

XII-asrning oxirida mo'g'ullar orasida otasi vafotidan keyin ko'plab falokatlarni boshdan kechirgan Xon Yesugeining o'g'li Temujin (1154/1162 - 25 avgust 1227) ajralib turdi: kichik ko'chmanchilar kurashi sharoitida bolalik; yoshligida u Xitoyda mahbus bo'lib, u erda juda ko'p narsalarni o'rgandi, shu jumladan Samoviy imperiyaning zaif tomonlarini bilib oldi. U o'z safiga qo'shin (otryad) tuzgan va urush o'ljasida yashagan yosh jangchilarni to'pladi. Ular qo'shnilari

bilan jang qilishdi va o'zlarining turmush tarziga bo'ysunishga tayyor har kimni o'z saflariga qabul qilishdi. Tez orada mo'g'ullarning barcha xalqlari qo'shinlarga bo'ysunishdi va Temujin "1206 yilda (yo'lbars yilida) qurultoyda Xoon deb e'lon qilindi", ya'ni Chingizxon ("Okean Xoni" - "Dunyo Rabbisi"). ", Turkcha .- Dengiz Xon).

**Birlashtirish masalasida 2 ta tendentsiyani kuzatish mumkin:**

Aksariyat zodagonlar mahalliy sharoitda o'zlarining haqiqatlarini saqlab, qabila konfederatsiyasi darajasida birlashishni afzal ko'rishdi. Ammo bu ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlay olmadi, chunki Mo'g'ulistondagi qabila ittifoqlari hokimiyat paydo bo'lgan zahoti qulab tushdi. Ushbu tendentsiyaning tashuvchisi tatarlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan ***Jamoa*** edi.

Chingizxon tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, mo'g'ullar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qat'iy markazlashgan davlatga yo'nalish.

Qiyin urushda Chingizxon tatarlarni mag'lubiyatga uchratdi, ularni deyarli butunlay yo'q qildi. Jamuxa qatl etildi. U dasht zodagonlarini davlat yaratishga moyil qildi. Keyin Chingizxon dasht odamlarini birlashtira boshladi. *Mo'g'ullar uchun ichki kurash juda qattiq va keyingi tashqi istilolardan ko'ra qiyinroq kechdi. Bu odatiy dasht urushlari edi, undan keyin mahbuslar qozonlarda qaynatilgan, "arava o'qiga tenglashtirilgan", homilador ayollarning oshqozonlari yorilgan.*

***Chingizxonning o'zi "inson uchun eng katta zavq*** *bu dushmanlarini mag'lub etish, ularni oldida haydab chiqarish, ulardan hamma narsani tortib olish, yaqinlarining yuzlarini ko'z yoshlari bilan ko'rish, qizlari va xotinlarini bag'riga bosishdir."*

**2. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi.** 1206 yildan boshlab dastlab imperatorlik tendentsiyasiga ega bo'lgan Mo'g'ul davlatining tarixi boshlanadi. Davlatning harbiy xarakteri Buyuk Xonga qasamyod qilishda namoyon bo'ldi.

**Davlatning tinch rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar:** markazlashuv jarayonida ko'chmanchi chorvachilik, ya'ni iqtisodiyotning asosi tanazzulga yuz tutdi. Bu yangi podalar va yaylovlarni qo'shnilaridan tortib olishga undadi.

- butun erkaklar aholisi armiyaga safarbar qilinib, harbiy san'atda o'qitilib, moddiy farovonlikni qo'lga kiritishning eng samarali vositasi sifatida urushga yo'naltirilgan. Fath kampaniyalarining rejalari, Chingizxon, avvalambor, davlatning harbiy-ma'muriy tuzilishini o'z zimmasiga oldi. Mo'g'uliston hududi ikki qismga bo'lingan: chap qanot va o'ng qanot, ular orasida Chingizxonning o'z ko'chmanchilar lagerlari hududi bo'lgan. Hududning bunday bo'linishi mo'g'ullarning ajdodlari bo'lgan xunnlar va boshqa qabilaviy uyushmalar davriga to'g'ri keladi. Ularning tajribasi Mo'g'ullar imperiyasini tashkil etish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bunday qilib Chingizxon ilgari o'zini muvaffaqiyatsiz qo'mondon sifatida ko'rsatib, endi o'zini iste'dodli tashkilotchi va siyosatchi sifatida ko'rsatdi. Uning ichki va tashqi siyosati noyonlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. tizim ham shu maqsadlarga xizmat qilgan. Chingizxon davrida imperiya poytaxti hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan Qoraqorum shahri edi. Qadimgi qabilaviy jamoalar a'zolari qo'mondonlarga qaram bo'lgan vassallarga aylandilar. Noyonlar mavqei, yuzboshilar Nuker - aristokratiya fuqarosi, imperatorning vassali, asosan harbiy xizmatga majbur bo'lgan meros bo'lib o'tgan, ammo ko'chmanchi va ushbu er yuzida yurgan aholiga mulk huquqi, ular yo'q edi. Chingizxonning qarindoshlari va eng yaqin sheriklari shaxsiy foydalanish uchun meros va narsalarga ega edilar.

Ikkinchisi minglab kishilar tarkibiga kiritilmagan va majburiyatlarni faqat o'z hukmdorlari manfaati uchun olgan. Davlatning bunday ko'chma tizimi zodagonlarning o'ziga xos shart-sharoitlari bilan vujudga keldi, ular harbiy sarguzashtlar orqali boyitishni istadilar va Chingizxonga istalgan vaqtda kerakli miqdordagi aristokratik jangchilarni safarbar qilish imkoniyatini yaratdilar. Xonning kuchidan tashqari, mo'g'ullar Buyuk **Yasoq-**ning hali ham qattiq qadimiy qonuniga bo'ysunishdi, bu O'rdaning har biriga qo'shnilarga nisbatan xatti-harakatlar va munosabatlarning asosiy qoidalariga rioya qilishni belgilab qo'ygan: ***aldash, yordam bermaslik urushdagi o'rtoq, o'zaro nizo va har qanday janjal ayniqsa qattiq jazolandi****.*

Shunday qilib, Chingizxon o'rnatgan Mo'g'ul davlatining tamoyillari Mo'g'ullar imperiyasining asosiga aylandi. **"Dasht imperiyalari" ning ikki tomonlama tabiati haqida**

**gapirish mumkin.** *Tashqarida ular despotik fath etuvchi davlatlarga o'xshar edilar, chunki ular dashtdan tashqarida ortiqcha mahsulot olish uchun yaratilgan. Ichkarida bu imperiyalar soliqlarsiz va chorvadorlarni ekspluatatsiya qilmasdan, qabila aloqalariga asoslangan bo'lib qoldi.* Hukmdorning kuchi uning harbiy yurishlarni tashkillashtirish va qo'shni xalqlarga savdo-sotiq, o'lpon va bosqinlardan tushadigan daromadlarni qayta taqsimlash qobiliyatiga asoslangan edi.

***3.* Mo'g'ullar istilosining asosiy yo'nalishlari, muvaffaqiyati sabablari va natijalari.**

***Mo'g'ullar davlatining tarixi - bu istilolar tarixi. Mo'g'ullar istilosining sabablari:***

-ko'chmanchi dvoryanlar o'z xalqlarini talash bilan yashagan va qo'shni xalqlar. Shunday qilib, talonchilik, birinchi navbatda mo'g'ul bo'lmagan xalqlar, dvoryanlar uchun boyitishning asosiy manbai va mo'g'ullar istilosining asosiy sababi hisoblanadi. Buyuk Xitoy devoridan Vengriya chegarasigacha

- o'tloq-dasht makoni; Chingizxon oldida zodagonlarni ayirmachilik tendentsiyalaridan chalg'itish va yaratilgan imperiyani tez parchalanishdan saqlash vazifasi turibdi. Bunga Yevrosiyoni talash orqali erishish mumkin edi;

-Mo'g'ul davlati sharoitida yomonlashayotgan vaziyatdan omma e'tiborini chalg'itish zarur edi.

XIII-XIV asrlarda oti bo'lmagan ko'chmanchi na jangchi, na cho'pon bo'lgan. Mo'g'ullarning aksariyat qismining qashshoqlashishi keng tarqalgan hodisa edi. Ba'zida beparvolik ular orasida nafaqat keng tarqalgan, balki juda katta miqyosga ham ega bo'lgan. Kengayish ko'lami va tatar-mo'g'ul bosqinining natijalari bo'yicha uni faqat xunlar bosqini bilan taqqoslash mumkin. Nisbatan kichik armiya, mo'g'ullar ekspansiyasi fanatda 3 yo'nalishda amalga oshirildi:

**janubi-sharqiy** Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston, Yava oroli; ...

**janubi-g'arbiy qismida** - Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Arab xalifaligi - **shimoli-g'arbda** - Rossiya, Evropa.

Chingizxon birinchi zarbani janubiy yo'nalishda, Tangutlar, Si-Sya va Djin shtatlarida boshladi. Tangutlar davlatiga qarshi birinchi zarbalar 1205 yilda berilgan; 1207 yilda va 1209 yil Tangutlarga qarshi ikkinchi va uchinchi yurishlar. Mo'g'ullarning g'alabalari natijasida tangutlar ular bilan sulh tuzishga va katta chalkashliklar qilishga majbur bo'ldilar. 1211 yildan chjurchenlarga qarshi yurishlar (1215 yilda - Pekin olingan). 1218 yilda g'arbiy yurish e'lon qilindi, undan oldin qora-kidan va janubiy Sibir qabilalari ustidan g'alaba qozonildi. G'arbiy yurishning asosiy maqsadi O'rta Osiyoning boy hududlari va shaharlari edi (Xorazmshoh davlati, Buxoro, Samarqand). Bu yo'nalish rivojlanishi mo'g'ullarni Kavkazga, janubiy rus dashtlariga olib keldi.

Shunday qilib, Shimoliy Xitoy (1211-1234) va O'rta Osiyo mo'g'ullar ekspansiyasi kuchayib borayotgan paytda eng ko'p zarar ko'rdi. Shimoliy Xitoy tom ma'noda xarobaga aylandi (bir zamondosh yozgan: ***"Hamma joyda dahshatli vayronagarchilik izlari ko'rinib turar edi, o'ldirilganlarning suyaklari butun tog'larni tashkil qilar edi: tuproq odam yog'idan bo'shashgan edi, chirigan jasadlar kasallik keltirib chiqardi"***. O'rta Osiyoda qarshilik ko'rsatgan hamma narsa "umumiy qirg'in" ("katli-om") ga duchor bo'lgan. Eronlik olim, mo'g'ul xonlarining vaziri Rashid ad-Din shunday yozgan edi: ***«Chingizxon o'ldirishga buyruq berdi biron bir odamning biron bir tirik jonzoti va har qanday qoramol, yovvoyi hayvonlar va qushlar biron bir asirni olmagan va o'lja olmagan."*** Bu erda shaharlarning aksariyati "umumiy qirg'in" ga uchragan.

1233 yilga kelib Eron bosib olindi va shu vaqtning o'zida Osiyoning boshqa uchida,

1236 yil - Kavkazni bosib olish yakunlandi;

- 1256 - mo'g'ullar Eronga qayta bostirib kirdilar va O'rta Osiyo vodiylari cho'lga aylandi;
- 1258 yil - Abbosiylar xalifaligi qulab, Bag'dod olindi, er yuzidagi eng katta shahar bo'lib, u ham "umumiy qirg'in" ga uchradi; Abbosiylar sulolasining so'nggi xalifasi vafot etdi. Faqat Mamuklar Falastindagi mo'g'ullar otryadini mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'lishdi (1260) va shu bilan Misrni mo'g'ullar bosqinidan himoya qilishdi. Bu Karl Martellning Puatyedagi

arablar ustidan qozongan g'alabasi bilan taqqoslanadigan g'alaba edi, chunki bu bosqin to'lqinini qaytarishda burilish nuqtasi bo'ldi.

Rusni bosib olishdan boshlab (1237), mo'g'ullar ekspansiyasining asta-sekin pasayishi haqida gapirishimiz mumkin. Kengayish navbatida, 1237 va 1241 yillar orasida. Mo'g'ullar Evropani bosib oldilar. Ularning hujumi, Osiyoda bo'lgani kabi, qattiq va dahshatli edi. Rossiyani, Polshaning janubini va Vengriyaning muhim qismini vayron qilib, Sileziyada ular Legnica shahri yaqinida nemis ritsarlar armiyasini (1241) yo'q qildilar.

G'arbiy Evropadan mo'g'ullar 1241/1242 yildagi barcha janglarga qaramay, orqaga chekinishni boshladilar. ular tomonidan qo'lga kiritildi. Xon Batu (Oltin O'rda xoni 1243 yildan 1255 yilgacha; Chingizxonning nabirasi) Yevropada kuchli uyushgan qarshilikka duch kelmadi. Ko'rinishidan, faqat Chingisxonning o'rnini egallash bilan bog'liq muammolar mo'g'ullar rahbarlarini ushbu g'alabadan keyin sharqqa burilishga majbur qildi. Xon Botu Polsha, Vengriya va janubiy slavyanlar yerlarini o'z qo'li ostida tuta olmasligini tushundi. 1243 yilga kelib barcha mo'g'ul qo'shinlari Karpat uchun tortib olindi. Biz faqat bir marta Vengriyadan o'lpon yig'ishga muvaffaq bo'lingan.

XIII asr 40-yillarda Xon Batu Oltin O'rdaning Tatar-Mo'g'ul davlatini yaratdi (G'arbiy Sibir; shimoliy Xorazm; Volga Bolgariyasi; Qrim; Volgadan Dunaygacha bo'lgan dashtlar). Poytaxtlar: Saray-Batu (Eski Saray: Astraxan viloyati); Saray-Berke (XIV asrning 1-yarmidan - Yangi Saroy). Rossiya knyazliklari Oltin O'rda davlatiga qaramlikda edi. XV asrdan beri imperiya Sibir, Astraxan, Qozon, Qrim va boshqa xonliklarga tarqalib ketdi. Bosqinning o'ta g'arbiy chegaralari Germaniyaning Meyson shahri va Avstriyadagi qishloqlar bo'lib, u erda mo'g'ullar otryadida yuztagacha dehqon o'ldirilgan.

Xubilay (1278-1294; beshinchi Buyuk Xon) davrida mo'g'ul ekspansiyasi haddan tashqari janubiy va sharqiy nuqtalarga yetdi: Yaponiyadagi muvaffaqiyatsizliklar, Vetnamni uzoq muddat bosib olish, Yavaga muvaffaqiyatsiz bostirib kirish (xalqning qat'iyatli qarshiligi). Shunday qilib, Mo'g'ullar imperiyasi faqat urush paytida bo'lgan davrda mavjud bo'lishi mumkin edi: faqat fathlar uni birlashtirgan.

**Mo'g'ullar istilosining muvaffaqiyat sabablari.** Ichki tartibning sabablari:
- Chingizxonning harbiy va diplomatik iste'dodi. Chingizxonning o'zi ajablanarli sharoitlarga moslashish qobiliyati va o'z armiyasida xitoylik va musulmon-turkiy "mutaxassislar" dan foydalanishi bilan ajralib turardi. U ajoyib "informator xizmati" ni tashkil etdi va unga har xil yo'l bilan da'vat etgan barcha millat va dinlarning savdogarlari tomonidan ko'plab ma'lumotlarni etkazishdi. Chingizxon, shuningdek, diplomatik choralar va harbiy kuchni tegishli ravishda sovuqqonlik bilan, o'ychanlik bilan ishlatishda muvaffaqiyat qozondi. Bu fazilatlarning barchasi Chingisxonga, uning iqtidorli o'g'illari, nabiralari va harbiy rahbarlariga keyingi dushman ustidan doimiy ravishda g'alaba qozonishga imkon berdi. *O'g'illari:* ***Jo'ji:*** 1224 yildan Mo'g'ullar imperiyasining g'arbiy qismida (Shimoliy Qozog'iston hududi) Jochi ulusining xoni bo'lgan; 1240 yildan beri Oltin O'rda; **Chag'atoy:** O'rta Osiyoni meros qilib oldi;
***O'qtoy:*** Chingizxonning to'ng'ich o'g'li; 1186-1241; 1229 yildan buyon Buyuk Xonning vorisi;
**Tulu:** kenja o'g'il; Markaziy va g'arbiy Mo'g'uliston hukmdori;
***Chingizxonni bosib olishning g'oyaviy asoslari***, uni abadiy osmon tomonidan barcha xalqlarning xoni sifatida tanlanganligi g'oyasi edi;
mo'g'ul jamiyatining ijtimoiy bir xilligi va uning ichidagi ***antagonizmning*** nisbatan zaifligi;
otliqlarning mavjudligi. Dashtda odamni ot va qilichdan ajratib bo'lmaydi ("man-kentavr"). *Otlar inson terisidan qilingan ko'rpa bilan bezatilgan, o'ldirilgan dushmanlarning bosh suyaklari egarlarga osilgan.* **Qadamda siz avval o'ldirishingiz kerak, aks holda ular sizni o'ldirishadi (har kuni o'ldirish qobiliyatiga o'rgatish kerak);**
- Chingizxon qo'mondonligi ostida juda yaxshi tashkil etilgan va tartibli qo'shin bor edi;
u ot kamonchilaridan iborat bo'lib, uzoq masofali qurollarda ustunlik bilan birgalikda ajoyib harakatchanlikka (kuniga 150 km gacha) ega edi. (Chingizxon armiyasi 129 mingga yaqin, Botu 142 mingga yaqin);

agar bitta askar jang maydonidan qochib ketgan bo'lsa, o'nlab kishi jazolangan; 10 kishi chekindi - yuz kishi jazolandi. Chingizxon tomonidan yaratilgan qo'shin mo'g'ullarning nisbatan kichik etnik guruhi muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili bo'lgan;

- O'rta asrlar sivilizatsiyasini barbod qilgan mo'g'ullar istilolari fundamental kashfiyot - mo'g'ullar kamoni **("saadak")** tufayli amalga oshdi. Bu har xil suyak va yog'och turlaridan yopishtirilgan murakkab o'ldirish mashinasi edi. Ushbu kamondan o'q 400 metrga har qanday zirhga kirib borishi mumkin edi.

Mo'g'ullar uch yoshdan boshlab bolalarni kamongacha o'rgatib, uning hajmini asta-sekin oshirib borishdi: aniq sharoitga qarab ishlatiladigan turli xil taktikalar: taslim bo'lgandan keyin rahm-shafqat taktikasi;

katta maydonni bir nechta otryadlar tomonidan o'rab olish va ularni markazga ko'chirish, dushmanni o'rab olish va siqish taktikasi;

Chingizxon imperiyasi O'rta Osiyoning ko'chmanchilarining katta qismini (nafaqat mo'g'ullar, balki ko'plab turk, manchu, tungus va boshqalarni) harbiy kuchlarini birlashtirdi.

- ko'plik, hamjihatlik va hayot ustidan hukmronlik qilgan bitta xonning kuchiga bo'ysunish va ularning barcha bo'ysunuvchilarining o'limi, shaxsiyati va mulki. ***Tashqi sabablar:*** - hukmdorlari mo'g'ullarga qarshi xalqni qurollantirishdan qo'rqqan fath qilingan hududlarning parchalanishi; kosmopolit kuch bo'lgan savdogarlar sinfiga xiyonat qilish (axborot beruvchilar, ayg'oqchilar, harbiy qismlar uchun qo'llanma); olomon taktikasi (oldinga tinch aholi, keyin jangchilar - mo'g'ullar).

***Mo'g'ullar istilosining oqibatlari.*** Mo'g'ullar istilosining oqibatlarini tasvirlab, Xitoyni tom ma'noda yo'q qilishdan qutqargan Yelyu Chutsay shunday deb yozgan edi***: "Samoviy tarmoq uzildi, erning o'qi buzildi, odamlarning adolatlari yo'qoldi".*** Chingizxon, uning o'g'illari va nabiralari tomonidan bosib olinishi natijasida, misli ko'rilmagan imperiya (Sharqda Koreyadan G'arbda Suriyaga, shu jumladan Markaziy Osiyo, Xitoy, Kavkaz, Afg'oniston, Eron hududlari) yaratildi. ). Ular yoqib yuborilgan va Rus shahriga o'lpon to'langan;

Vengriya, Seleznya, Moraviya va Polshaga halokatli reydlar o'tkazildi. Bosqinlarning oqibatlari turli mintaqalar uchun har xil edi: ular Markaziy Osiyo uchun eng og'ir bo'lgan (odamlarning katta talafotlari, sug'orish tizimining buzilishi). Ular Xitoy uchun, ayniqsa shimolda qiyin bo'lgan. Ammo bu erda biz assimilyatsiya haqida ham gaplashishimiz mumkin:.

Xubilayning merosxo'rlari Xitoy madaniyati, shu jumladan til va yozuv asoslarini qabul qildilar. Xususan, Chingizxonning tarjimai holi xitoy tiliga tarjima qilingan (faqat shu tarjima shu kungacha saqlanib qolgan). Ammo mahalliy aholi uchun ular begona bo'lib qolishdi;

XIV asrda. Mo'g'ul imperiyasining turli qismlarining hukmdorlari buddizm yoki islomni qabul qildilar. Bu shuni anglatadiki, aslida ular o'zlari yashagan madaniyatlar - xitoy, fors yoki arablar tomonidan bosib olingan.

Rossiyaga nisbatan, avvalambor, ma'naviyat nuqtai nazaridan og'ir oqibatlar haqida gapirish kerak. "Bo'yinturuq bormi" degan savolga javob boshqacha: ba'zi tarixchilar mo'g'ul bosqini rus xalqi tarixida mutlaqo salbiy rol o'ynagan degan an'anaviy nuqtai nazarga rioya qilishadi. Boshqalar ham salbiy, ham ijobiy oqibatlarni ta'kidlaydilar. Uchinchidan - oqibat imperiya va imperatorlik makonining shakllanishi edi. Mo'g'uliston hududi katta darajada aziyat chekdi (imperiya yaratilgandan so'ng, Mo'g'uliston aholisi keskin kamaydi; mo'g'ul aholisining rangi butun qit'ada joylashdi). Bosib olish siyosati nafaqat bosib olingan mamlakatlarning progressiv rivojlanishini, balki Mo'g'ulistonning o'zi ishlab chiqaruvchi kuchlari va madaniyatini rivojlanishini ham sekinlashtirdi. Ichki qarama-qarshiliklar bilan parchalanib ketgan, qullik ostidagi xalqlarning qoni ustiga olov va qilich bilan yaratilgan mo'g'ullar imperiyasi yagona iqtisodiy asosga ega bo'lmagan va oxir-oqibat bosib olingan xalqlarning zarbalari ostida qolgan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.

2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.

3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

**Mavzu: XI- XV asrlarda Turkiya (Usmonlilar imperiyasi) (4 soat)**

**Reja:**

**1. Usmon davlatining tashkil topishi va Kichik Osiyoda hamda Bolqon yarim orolida turk. istilolari.**
**2. Kosovo maydonidagi jang'. Serbiya korolligining tamom bo'lishi**
**3. XV asr oxiri va XVI asrda Usmoniylar imperiyasining o'sishi.**
**4. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning biriichi yarmida Bolqon xalklarining turklar zulmiga qarshi olib borgan ozod-lik harakati**.

**Usmon davlatining tashkil topishi va Kichik Osiyoda hamda Bolqon yarim orolida turk. istilolari.**

Salib yurishlari davri-da Qichik Osiyoda Rum sultonligi nomi ostida yashagan saljuq turklari davlati XIII asr boshlarig?. kelib 10 ta amirlikka ^ . bo'linib ketdi. Ug'uz turklari galalarining Urta Osiyodan Ki:. chik Osiyoga ko'chib kelishiva ularning bundan keyin saljuq turklari (XIII asr o'rtalaridayoq) bilan aralashib ketishi nati-jasida Kichik Osiyoda XIII asr oxiri XVI asr boshlarida yangi davlat tashkil bo'ldi. Soni jihatidan ham, o'zining harbiy tank kiloti jihatidan ham ancha-muncha uyushqoq bo'lgan ko'chmanchi-o'g'uz turklari yangi hukumatda etakchi rol o'ynadilar. Dastlab-ki vaqtlarda Erto'g'rul o'g'uz turklarining rahbari bo'lib, u Vizantiya imperiyasi bilan qo'shni Sakare daryosi bo'yida kichik bir feodal mulkiga egalik qilardi. Erto'g'rulning o'g'li va taxt . vorisi Usmon (1282—1326) Vizantiyaga qarshi urush boshlab, o'ning. Kichik Osiyodagi mulklarining ko'pchiligini', shu jumla-dan, Brusu (yoki Bursu) щaharini ham bosib oldi. Brusu shaha-rini Usmon o'zining poytaxti qilib oldi. Vafotidan bir oz burunroq Usmon Kichik Osiyodagi boshqa amirliklarni o'ziga ' ytoat qildirdi. YAngi turk xadqi tarkib topgan Kichik Osiyodagi barcha turklar umuman uning nomi bilan ataladigan bo'ldi (Usmon turklari, aslida turls qabilalar federatsiyasidangina-ibo-rat bo'lgan saljuq turklaridan farq qilardi). Vizantayaning zaiflashib qolganligidan va Bolqon yarim
orolidagi boshqa davlatlarning parchalanib ketganligidan foy-dalangan usmon turklari XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, keyin esa Bolqon yarim orolida ham keng istilochilik harakatla-rini boshladilar.

*XIV* asrdagi deyarli beto'xtov olib borilgan urushl,ari sha-roitida turklarda professional qo'shin[1] tarkib topa boshladi. Usmonning taxt vorisi Urxon davrida (1326—1359 y.) turk qo'-shini orasida xalq lashkari tipidagi muntazam qo'щinlardan tashqari, ya~yicharlardan iborat professional piyoda as-karlarning doimiy otryadlari ham bor edi. YAnicharlar safiga asir qilib blingan va zo'rlab islom diniga kiritilgan yoshlar-dan terib olinardi, shuningdek, sipohiylardan iborat o'ziga xos otliq askarlar ham bo'lardi. Sipohiylarga ko'rsatgan harbiy xizmatlari bldaliga er in'om qilinardi, ya'ni o'ziga xos harbiy benefitsiya ulashilardi. Turklar vizantiyaliklar-ning tajribasidan o'rganib, jang ^paytlarida qamal qilish ishiga katta e'tibor berardilar (devor teshadigan qurol$_g$ qamal minoralari va boshqalarni ishlatardilar). XIV asr oxiri-da va XV asrda turklar o'q otadigan qurol ishlata boshladilar, jumladan, ko'p miqdorda zambarak otishni qo'lladilar. YOSH Tur-kiya davlatida feodallasha boruvchi urug'-qabila zodagonlari asosiy rahbarlik rolini o'ynab, ular oddiy ko'chmanchi-jangchi-lar otryadlariga boshchilik qilardilar. Saqlanib kelgan patri-arxal-qabilachilik munosabatlari usmon qo'shinini ma'lum da-rajada birlashtirdi va barqaror bir qo'shinga aylantirdi, Вoщqa ko'chmanchilarning qo'shinlari singari,

usmonlar qo‘shini ham shiddatliligi va chaqqonligi bilan ajralib turar'di, bu qo‘shin o‘troq aholini, ayniqsa shaharlarni talashdan manfaat-dor  edi.

Vizantayaning istilo qilingan territoriyalarini o‘zlariga mulk qilib olgan ko‘chmanchi zodagonlar bora-bora feodal tipidagi o‘troq er egalariga aylanib, tobe etilgan grek-vizantiya-liklarni va slavyan aholisini ekspluatatsiya qildilar. Oddiy turklarga ham er ulashib berildi, boshda ko‘proq o‘tloqlar, ular o‘tdoq holga ko‘chib dehqonchilik qila boshlaganlaridan so‘ng esa haydab ekin ekiladigan erlar ham beriladigan bo‘ldi. Harbiy sohada erishilgan yutuqlar va ancha territoriyaning qo‘shib oli-nishi turk feodallarini yangidan yangi istIlolarga undadi, xu-susan qo‘shni davlatlar, ya’ni Vizantiya va Bolqon yarim orolidagi boshqa davlatlar parchalanganholatda qolib kelaverdilar, ularning o‘zaro munosabatlari esa avvalgycha dushmanlik muno-sabatida qolaverdi, shuning natijasida ularning bosqinchilar-ga zarba berishga qurbilari etmas edi. Urxon 1331 yili Nikey shaharini, keyin esa Vizantayaning Kichik Osiyodagi boshqa barcha mulklarini istilo qilgandan so‘ng, Evropada istilolar qi-lishga kirishdi.  1354  yili u  Dardanell  bo‘g‘ozining  Evropa qirg‘og‘idagi Gallipol shaharini bosib oldi. So‘ngra turklar-Frakiyaga bostirib kirdilar. Endi Urxon u tomonga ikkita yurish qildi. Bu viloyatlar bundan keyingi sulton, ya’ni Murod I davrida (1359—1389) istilo etildi. Murod I 1361 yili Fra-kiyaning asosiy shahari — Adrianopolni bosib oldi, u Brusu o‘rniga Turkiyaning yangi poytaxti bo‘lib qo,ldi.

Tur k jangchilari Bolqon yarim orolida g‘oyat shafqatsizlik bilan ish ko‘rdilar. Ular tinch aholini taladilar va o‘ldirdi-lar. Aholining ko‘pchiligi qullarga aylantirilib, SHarqdagi, qul bozorlarida sotildi. Qadimgi unumdor Frakiyaning bosib olinishi sultonga harbiy-feodal er egaligini yana kengaytirish imkonini berdi. Turklarning o‘zlari ham, shuningdek, tur l i xil turklashgan xalqlar yoki islom dinini qabul qilgan g‘ayri tur k vakillari ham feodallarga—katta er egalariga aylana bordi-lar. Bu odamlarning kupi Bolqon yarim orolining o‘zidagi tur-li mamlakatlarga mansub bo‘lib, ular fotihlar tomoniga o‘tgan xoin  feodallar edi.

Turk dehqonlarining katta bir qismi ham Kichik'Osiyodan bu erga ko‘chirib keltirildi; Bolqon yarim orolidagi tobe etil-gan mahalliy aholidan tortib olingan er maydonlari ana shu ko‘chirib kelingan dehqonlarga ulashib berildi.

Asosiy og‘irlik  Bolqon yarim  oroliga  ko‘chirilishi  bilan turklarning  siyosiy hayotida o‘troq dehqon  zodagonlar  etakchi rol o‘ynay boshladi"lar. Bu yangi o‘troq feodal zodagonlar Kichik Osiyodagi ko‘chmanchi yarim feodal, yarim urug‘chilik hayot kechiruvchi zodagonlarni ikkinchi o‘ringa siqib chiqardilar. Bu vaqtga kelib oliy tabaqa turklar hayotining o‘zida ham o‘zgarish ro‘y berdi. Adrianopol-dagi sulton va uning saroy a’yonlari zebi-ziynatli hayot kechi-radigan bo‘ldilar. Kichik Osiyo davri uchun xarakterli bo‘lgan eski, ma’lum darajada hali saqlanib kelgan patriarxal muno-sabatlar tezda yo‘q bo‘lib, ularning o‘rыini batamom tarkib topgan feodal tuzumning yangi, ochiq-oydin ifodalangan alomat-.pari egalladi. Adrianopolning va butun Adrianopol oblasti-ping (yoki turklar ataganlaridek Rumeliyaning[1]) bosib olinishi yarim orolda bundan keyingi istilolarga yo‘l ochib berdi..Stra-v tegik jihatdan Rumeliya g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Turklar bu rayonni bosib olib, Bolqon yarim oroli massiviga pona qoqqandek bo‘ldilar. Konstantinopolning o‘zi Bolqon yarim orolining qolgan boshqa qismidan endi tamomila kesilib qolgan edi. 1371 yili serblar, bolgarlar, valaxlar va vengrlar koali-siyasi Murodga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Ammo ittifoqchi-lar Maritsa daryosi bo‘yidagi jangda engildilar. SHundan keyin Janubiy Serbiya sulton qo‘l ostiga o‘tdi. Vizantiya imperatori uping vassali -bo‘lib  qoldi.^

**Kosovo maydonidagi jang‘. Serbiya korolligining tamom bo‘**lishi . 1389 yil 15 iyunda Kosovo maydonida (Janubiy Serbiyada yangi katta jang bo‘ldi. Bundan oldin turklar ustidan qisman gala.ba qozongan Serbiya koroli Lazar 80 000 ming kishilik katta qo‘shin to‘pladi, bu qo‘shinda serblardan tashqari, bosniya-liklar va veNgrlar ham bor edi. Sulton Murod boshchiligidagi turklar Lazarning kuchlaridan uch martadan ortiqroq kuch bilan Serbiya ustiga yurish qildilar. Bir yosh vatapparvar serb joni-dap kechib sulton yotgap chodirpipg ichiga kirib, uni o‘ldirdi. Ammo bu vaziyatii o‘zgartirmadi. Murodning o‘g‘li shahzoda Boya-aid yangi sulton deb e’lop qilindi va u ulkap turk armiyasiga qo‘mondoilik qilishni o‘z zimmasiga oldi. Turklar

tomonida askariy kuchlar ustun bo‘lganligi natijasida serblar va ularning ittifoqchilari zo‘r matonat ko‘rsatishlariga qaramasdan, tor-mor etildilar. Korol Lazar asir qilib olindi va sulton Murodning o‘limi uchun u qatl etildi. SHundan keyin Serbiya territoriyasining katta bir qismi Turkiyaga qo‘shib olindi. SHimoliy Dunay bo‘yi Serbiyasi (u Podunaviya deb atala-di) ning qolgan kichik qismini serb knyazlari sultonning vas-sallari huquqida bir oz vaqt idora qildilar. Ammo 1459 yilga kelib bu so‘nggi serb territoriyasi ham turklar tomonidan istilo qilindi va turk mulklariga kiritildi. Kosovo maydonidagi jang serb xalq dostonida yaqqol aks ettirilgan. Bu mavzuga bag‘ishlangan ko‘pdan-ko‘p qo‘shiqlarda janglarda qatnashgan qahramonlarning fidokorona ko‘rsatgan jasurligi ko‘klarga ko‘tarib maqtaladi va uzoq vaqtgacha turk-lar asoratiga tushib qolgan Serbiyaning taqdiri haqida aza tutiladi. Kosovo maydonidagi engilishning sabablari dostonda g‘alati qilib tushuntiriladi, ya’ni serb voevodalari orasida etarli darajada birlik bo‘lmadi va hatto xiyonat ham yuz berdi (Vuk Brankovich) "deyiladi.

**XV asr oxiri va XVI asrda Usmoniylar imperiyasining o‘sishi.**

Turkiya imperiyasi 1453 yilda Konstantinopol shahrini *bosib olgandan keyin* yana kengaya boshladi. Muhammad II 50 va •60- yillarda Bolqon yarim orolida Dunayb^yvdagi Serbiyani, Bosniyani, Gersegovinani va Albaniyani*giog qildi. Bolqon yarim oroli bilan qo‘shni bo‘lgan Valaxiya -v*aesal qaram qilib qo‘yildi. 70- yillarning o‘rtalaryda turklar Qrimni va Tanu (Azov) shahrini bosib oldilar. Taxminan shu vaqtlarda turklar Kichik Osiyoda Trapezund shahrini, deyarli butun Anatoliya-ni to Frot daryosigacha istilo qildi. Ammo Muhammad II ikki .marta katta muvaffaqiyatsizlikka ham uchradi: u Belgradni ishg‘ol qila olmadi, turklar uni 1456 yilda qamal qilgan bo‘l-salar-da, maqsadlariga erisha olmadilar; *shuningdek,* Rodos orolini ham ololmadilar (1480 yilgi qamal muvaffaqiyatsiz bo‘ldi).

Muhammad II ning nabirasi Salim I zamonida (1512—1520) turklarning istilolari yana boshlandi. Salim Eronga qarshi ^ilgan g‘olibona, urushida Zakavkaze mamlakatlaridan Ozar-bayjonni, Armanistonning va Gruziyaning bir *щismpnp, Dog‘is-*•ton va Kurdistonni istilo qildi. So‘ngra Salim Suriya bilan Misrni (1517 yil) bosib olib, butun islom dunyosining boshli-g‘i sifatida o‘ziga kalifa unvonini oldi. Krit, Kipr va Urta dengizdagi boshqa erlarini o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun Venetsiya Turkiya sultoniga har yili katta xiroj to‘lab turishga majbur edi.?

Sulaymon I davrida Turkiyaning qilgan urushlari.^Sulton

Sulaymon I Qonuniy davrida (1520—1566) Usmoniylar impe-riyasi g‘oyat katta qudratga zrishdi. Sulaymon podsholik qila boshlashi bilanoq Belgrad va Rodosni bosib oldi. SHundan keyin u 1526 yilda Moxach yonida katta g‘alaba qozondi, bu erda turklar chex va vengrlarning birlashgan armiyasini tor-mor qil-dilar. Vengriyaning kattagina qismi Turkiya viloyati bo‘lib qol-di. Valaxiya bilan Moldaviya Portaga[1] xiroj to‘laydigan dav-latlarga, unga har yili ko‘plab pul to‘lab turadigan va musta-qil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum etilgan vassal knyazliklarga uzil-kesil aylantirilgan edi.

1529 yilda Sulaymon Venani qamal qildi, lekin uni olol-madi. Eronga qarshi yana boshlanib ketgan urushda Sulaymon Bag‘dod bilan birga Mesopotamiyani istilo qildi. SHu bilan bir vaqtda turklar SHimoliy Afrika bo‘ylab . g‘arbga tomov siljib bordilar. Ular Tripoli bilan Jazoirni ishg‘ol qil-dilar. Sulaymon zamonida turklar butun Arabistonni istilo qildilar. Uch qit’ada joylashgan XVI asr Usmoniylar impe-riyasi ilgari Vizantiya imperiyasi bilan Arab xalifaligiga qarashli bo‘lgan erlarning hammasini o‘z qo‘l ostida birlash-tirdi. Urta dengizning kattagina qismi, Qizil dengiz, Fors qo‘ltig‘i ham sulton qo‘lida edi. Sulton har xil hindi rojala-riiing portugal mustamlakachilarga qarshi olib borgan kurash-lariga • homiylik qildi.

Sulaymon davrida Turkiya Evropa siyosatida katta rol o‘y-nadi. Fransuz koroli Fransisk I Gabsburglarga qarshi Sulaymon bilan rasmiy suratda ittifoq tuzdi. 1529 yilda Sulay-monning Avstriyaga qilgan yurishi Gabsburglarning Valuaga qarshi olib borgan «katta urush»ning bir halqasi edi. Sulaymon chet ellik savdogarlarga imtiyozli savdo yorliqlari (kapi-tulyasiyalar) bera boshlagan birinchi sulton edi. 1535 yilda u fransuz savdogarlariga turk suvlarida bemalol qatnash, Turkiyaning hamma portlarida, ozgina (5%)*boj to‘lash sharti bilan bemalol savdo qilish, huquqini berdi^

Sulaymon I ning ichki siyosati^Sulaymon o‘zining qonunlar to‘plamini («Qonunnomai Sulaymoni y»s i n i) qoldi-rib ketdi. Bu qonunnomaga 1566 yil sanasi qo‘yilgan. XVI asr-
da Turkiyaning ichki tuzilishi qanday bo‘lgani haqida shu~to‘ya------
lamga qar.ab ham fikr yuritish mumkin. Turk sulton^ari istilo qilga-n ko‘pdan-ko‘p territoriyalarning ma’muriy tuzilishi Sulaymon vaqtida bir xil formaga solindi. Butun imperiya *21* viloyatga bo‘linib, ular o‘z navbatida 250 sanjaq (rayon) ga taqsim qilindi. Har bir viloyatning tepasida vali, ya’ni gubernator turar, sanjaq boshlig‘i esa sanjaqbe, deb atalardi. YAngi tashkil topgan harbiy feodal-imperiya harbiy ishlar-ga katta e’tibor berdi. Sulaymon turk qo‘shinlarining ya n i-ch a r l a r deb atalgan imtiyozli qismini tartibga solgan max-sus reglament tuzdi. YAnicharlarning soni 12 mingdan 20 mingga egkazilgan edi. Ular muntazam suratda katta maosh olib turar edi. YAnicharlarga urushdan bo‘sh vaqtlarida hunar va savdo bilan mashg‘ul bo‘lish uchun har xil imtiyozlar berilgan bo‘lsa-, da, lekin bu narsa amalda ularni harbiy ishdan chalg‘itgan, jangovarl'ik qobiliyatlarining pasayishiga sabab bo‘lgan edi. Ammo yanicharlar turk qo‘shinining ozgina qismini tashkil qilgan. Turkiyaning asosiy harbiy kuchini feodallar lashkari tashkil etgan. Har xil er egalari, chunonchi, sultonning lennik-lari, yirikroq er egalaridan — zoimlar va beylar, ulardan maydaroq er egalari bo‘lgan timariotlarva sipohiylar sulton chaqirgan hamono erlariga yarasha miq-dordagi qurolli dehqonlari bilan birgalikda yurishlarda qat-nashish uchun etib kelishlari lozim bo‘lgan. 111utyariqa tuplyanya-digan lashkarning soni 250 ming kishigl 'etgan. Katta-katta lenlarni Sulaymonning shaxsan o‘zi ulashgan va o‘lib qolgan lenniklarning merosxo‘rlarini ham o‘zi tasdiqlagan.

Sulaymon dehqonlarning feodal majburiyatlarini o‘zi chi-qargan qonunlarda belgilab berishga urindi. Turk dehqonlari davlatga soliq to‘lash bilan birga o‘z pomeshchiklariga ham er v a su v haqi, imorat, chorva, teg‘irmon haqi va boshqa shu singari soliqlar to‘lashlari lozim edi. Feodal o‘z eridan qochib ketgan dehqonni ma’lum muddat ichida qidirishga haqli edi. Mehnat-kash aholidan juda ko‘p har xil soliqlarni talab qilgan feo-dallashish jarayoni va Turkiyanis markazlashtirishning kucha-yishi munosabati bilan XVI asrda turk dehqonlarining ahvoli lncha yomonlashdi.

Bo‘ysundirilgan aholining ahvoli.^ Turk dehqonlarining ahvoli qanchalik og‘ir bo‘lgan bo‘lsa, diniy e’tiqodi jihatidan xristianlarga mansub bo‘lib, istilo qilingan mahalliy aholining ahvoli undan ham og‘ir edi. Serblar, greklar, bolgarlar, valaxlar (ruminlar) va boshqa riyolar (musulmon bo‘lmagan-larning hammasi turk davlat tilida shunday deb atalardi) mu-sulmonlarga qaraganda davlatga ikki baravar ko‘proq soliq to‘lashga majbur edilar. Ular mol-kgu lkining. dahlsizligi butunlay ta’min etilmagan edig-o‘zlari ham doim turk ma’mur-lari va harbiylarining o‘zboshimchaligidan va tahqirlashidan azob chekar edilar. Diniy rasm-odatlarning ijro qilipishiga ijozat berilar ekan, buning uchun xristian aholisidan yana qo‘shimcha ravishda og‘ir soliqlar olinardi. Riyolar ozgina no-rozilik bildirganlari taqdirda, ular ustiga jazo ekspedi-siyalari yuborilar va bu eskpeditsiyalar tinch aholini talar, o‘l-dirar edi.

Bolqrn yarim orolidagi xalqlar turklar istilosi natija-sida qandaydir sun’iy bir to‘siq bilan butun Evropadan aj-ratilganidan turklar zulmi sharoitida juda sekin rivojla-nib bordilar. Savdo-sotiq ishlari tor doirada olib borildi va faqat mahalliy xaraqterdagina edi. Sanoat juda sekin ri-vojlandi. Bolqon yarim oroli xalqlari (juda ko‘pchiligi slav-* yan xalqlari) boshiga g‘oyat zo‘r ofat bo‘lib tushgan turklar istilosi natijasida bu xalqlarning yuz yillar davom etgan qismati shu bo‘ldiki, qishloq xo‘jaligi texnikasi pastligicha qolaverdi, bir qator oblastlarda natural xo‘jalik hukmron bo‘lib, keldi, krepostnoylik munosabatlari saqlanib qoldi, ma-daniyat turg‘unlikka uchradi.

**XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning biriichi yarmida Bolqon xalklarining turklar zulmiga qarshi olib borgan ozod-lik harakati**.

Turklar tomonidan bo‘ysundirilgan Bolqon xalqlari turklar zulmiga indamasdan bo‘ysunavermadilar. XV asr — XVI asrning boshlarida Bo'lqon yarim orolidagi mam-lakatlarning turklar tomonidan zabt etilgan davrdan boshlab keyingi asrlar mobayiida Bolqon yarim orolidagi mazlum mil-latlar]shng kurashi ularning butun tarixi davomida to‘xtamas-dan davom etib keldi. Juda katta armiya, ko‘pdan-ko‘pchinovnik-lar, turk feodal-okkupantlarining

butun bir siifidan iborat g‘oyat katta majbur qilish vositasiga tayanuvchi turklarning zulmini ag‘darib tashlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan tobe aholi partizanlar urushini olib bordiki, bu urush aslida XVI— XVII asrlar davrida ham, shundan keyingi davrda ham mustaqil davom etdi. Partizanladdik joylar sharoitidan foydala-nib va dehqTUn^yaSHtoalari madadiga tayanib yarim orolda turk hukmronligining asoslariga putur etkazdilar, zabtchi turklar obro‘sini tushirdilar, hamda turk ma’muriyaty va turk mahalliy feodallarining eng yov"uTP?akillariga qarshi xalq qasoschi-lari bo‘lib chiqdilar. Partizanlar_^urli nomlarga ega edilar: - bolgarlar va serblarda'-^t^SHGo‘klar, Gretsiyada — kdeftlar, Dalmatsiyada — uskoklar va hokazo deb atalardilar. Partizan-larning qahramononа kurashi Bolqondagi barcha xalqlarning turklar hukmronligi davridagi xalq qo‘shiqlarida yaqqol aks ettirildi. Ammo partizanlik har holda Turkiya hukmronligiga qarshi kurashning etarli metodi emas edi, u tarqoq va paro-kanda edi. Turkiya ma’murlari' partizanlarning chiqishlariga qarshi kurashning o‘zlariga xos terroristik metodlarini qidi-rib topdilar. Har holda partizanlar Bodqon yarim orolidagi turklar hokimiyatini o‘z kuchlari bilan tugata olmadilar. Turklar zulmiga qarshi mazlum xalqlar tomonidan olib bo-
rylgan kurashning yana bir formasi •— ayrim joylarda, ko‘pin-cha eng yirik shaqar punktlarida tez-tez fitnalar va qo‘zg‘olon kutarishga bo‘lgan urinishlardan iborat bo‘ldi. Odatda bu fitnalar va qo‘zg‘olonlar chetdan bo‘ladygan mada'dga, ya’ni Evropa-dagi biror davlatning madadiga umid bog‘lar edi. Avstriya q,o‘-shinlarining madadidan umidvor bo‘lgan 1594 yilgi Banata serblarining qo‘zg‘oloni ana[1] shunday eng dastlabki qo‘zg‘olon-fitnalardan biri bo‘ldi. 1598 yilda Ikkinchi Bolqon sal-tanatining poytaxti Tirnovoda turklarga qarshi katta qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘oloiga Tirnovo mitropoliti Dionisiy va boshqa ayrim мащhur bolgar boyarlari boshchilik qildilar. Qo‘zg‘olon qo‘shni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni mo‘ljalab ko‘tarilgan edi. Ammo 1594 yilgi Banata qo‘zg‘oloni ham, 1598 yilgi Tirnovo qo‘zg‘oloni ham etarli tayyorlanmagan bo‘lib, muvaffaqiyatsiz tugadi.

XVII asrning boshlarida ayrim turk qo‘shinlariga talafot etkazgan serblar va chernogoriyaliklar (1603 yildagi Kris shah-ri rayonidagi serblar qo‘zg‘oloni, 1604 yilgi chernogoriyaliklar harakati) ba’zi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi, Turklarga qarshi kurash jarayonida slavyan mamlakatlari-ning vatanparvarlari bir dindagi va qarindosh bo‘lgan xalq — ruslar madadiga tobora ko‘proq umid bog‘lay boshladilar. XVI va XVII asrlarda rus davlati qudratining o‘sishi bu umidni ayniqsa rag‘batlantirardi. Bolgarlarda va Bolqondagi boshqa Xalqlarda ruslar ertami-kechmi jafo chekayotgan Bolqon xalq-lariga madad ko‘rsatadilar va .ueta-rSH turk zulmidan ozod qi-ladilar, degan qat’iy ishonch oshib bordi. Bolqondagi mazlum xalqlar orasida «dyado Ivan» (ya’ni Ivan bobo) haqida afsona vujudga keldi. Bu obrazda ular o‘zlarini turklarning og‘ir zulmidan ozod qiladigan ulug‘ rus xalqi va kuchli Rus davla-tini mujassamlashtirgan edilar.^

Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.^Milliy zulm, mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanini va beqaror-ligini ko‘rsatardi. Turkiya imperiyasining siyosiy tuzumi, idora qilish sistemasining o‘zi ham uning ziddiyatlar va ychidan zaif-ligini XVI asrdayoq namoyon etgan edi. Fuqarolarining butun hayot-mamotini o‘z qo‘lida tutib turgan sulton mustabidhoki-myyaty Sulaymon I ning taxt vorislari vaqtida saroydagi har xil feodal partiya va guruhlarnyng fitnachilik quroliga ay-landi. YAngi sulton taxtga o‘tirar ekan, toji-taxtga da’vo qi-luvchi raqiblari qolmasin uchun o‘zining barcha aka-ukalarini qirib tashlardi. Saroy hayotida chritna ustiga fitna avjiga chiqib ketar va odatda bu fitnalarda yaiicharlar ham ishtirok qilardi.

Tinmay davom etgan urushlar juda katta xarajatlarni ta-lab etardi. Juda ko‘p haramxonalari, mahramlari, behysob xizmatkorlari, juda katta soqchi otryadlari va boshqalari bo‘l- gan sulton saroyiga ham ozmuncha mablag‘ sarf bo‘lmas edi. Tur-kiya imperiyasidagi mamlakatlarda soliqlar hamisha oshib borar, ammo aholining ishlab chiqaruvchi quchlari esa juda se-kin taraqqiy etar edi. SHu narsa xarakterlidirki, Turkiyadagi sa'vdo va sanoat ishlari bilan turklarning o‘zlari emas, balki sultondan imtiyozli yorliqlar olgan g‘arbiy ajnabiylar (aso-san fransuz savdogarlari, XVI asr oxirlaridan boshlab ingliz savdogarlari ham) mashg‘ul bo‘lar, yoki turklar istilosigacha •sanoati taraqqiy etgan va xalqaro savdo-sotiq ishlarida qat-nashgan, savdo

ishlariga mohir bo‘lgan YAqin Osiyo xalqlari — greklar, armanlar va suriyalikdar mashg‘ul bo‘lardi.

Ko‘proq urushlar bilan, aholini siqib, undan soliq to‘latish bilan band bo‘lgan turk hukumati savdo va sanoatning rivoj-lanishiga hamda qishloq xo‘jaligining yuksalishiga mutlaqo •yordam bermas edi^Marks va Engels turklar rejimini ishlab chiqarishni tashkil etishni emas, balki bo‘ysundirilgan aholini talashnigina maqsad qilib qo‘ygan «harbiy brsqinchilar»[1] rejimi deb to‘la asosli ravishda atagan edilar.^Turklarning hukmron sinfi urushni yuz bergan mushku l ahvoldan qutulish-ning birdan-bir yo‘li deb bilardi. Bu sinf fikricha, YANGY urushlar yangi xiroj va yangi soliqlar olinadigan yangi terri-toriyalarni ko‘paytirib berishi lozim edi. Ammo Turkiyaning yaqtisodiy qoloqligi, uning sotsial va siyosiy tuzumidagi zid-diyatlar za'mon o‘tishi bilan urushlarni uning o‘zi uchun xavfli va natijasiz bir narsa qilib qo‘ydi. Turklar XV asrda va XVI asrning birinchi yarmida bir qancha g‘alabalarga erishgan-dan keyin, XVI asrning oxiridan boshlab, ayiiqsa XVII asrda o‘zlari katta-katta mag‘lubiyatlarga uchray boshladilar va bu mag‘lubiyatlar XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida Turkiya imperiyasi territoriyasining anchagina torayib qolishiga sabab bo‘LDIu»

Lepanto yonida **turk** flotining mag‘lubiyati.sEvropaliklar •bilan bo‘lgan urushlarda turklar birinchi marta 1571 yilda Lepanto yonida katta mag‘lubiyatga uchradilar. Bu erda turklarning juda katta flotini Ispaniya, Venetsiya va Rim papasining birlashgan flota tor-mor qilgan edi (birlashgan flotning boshlig‘i Filipp II ning ukasi shahzoda Don-Xuan Avstriyskiy edi). Durust, bundan keyin Turkiya venetsiyaliklardan Kipr orolini tortib olgan edi. Ammo shunday bo‘lsa ham, bu mag‘lu->biyat mamlakatning ichki ahvoliga qattiq ta’sir qildi, XVI asrning 70, 80 va 90- yillarida Turkiya keskin ijtimoiy-siyo-siy krizisni boshidan kechirdiL'Mamlakatda davlat soliqla-rining ortishi va feodal to‘lovlarining ko‘paytirilishi muno-sabati bilan dehqonlarning bir necha qo‘zg‘.oloni bo‘lib o‘tdi. 1591 yil ayniqsa «olag‘ovurli» yil bo‘ldi, bu yili ko‘pchilik viloyatlar sulton Murod III ga (1574—1595) qarshi bosh ko‘tardilar. Muhammad III podsholik qilgan davrda (1595—1603) doim xalq qo‘zg‘olonlari, sipohiylar va yaiicharlarpipg gilyyonlari bo‘lib turdi. Pirovard natijada saroyda bo‘lib o‘tgan to‘ntarish oqibatida sultonning o‘zi ham o‘ldirildi.

Turklarning Sharqdagi talafotlapi.XVII asr boshlarid» Turkiya Eronga qarshi kurashda bir qator talafotlar Ko‘rdi EchIL Eron shohi Abbos I Ozarbayjonni, Armanistonni, SHar'qiy Gru* ziyani, 'Kurdistonni, shuningdek, Mosul va Bag‘dod shaharlari bilan Mesopotamiyani bosib oldi. 1619. yilda Istambul sulhi-ga binoan, Turk sultoni Zakavkaze va Mesopotamiyadagi deyarli hamma erlarining qo‘ldan ketganligini tan olishga majbur bo‘ldi. -Bu erlarning bir qismi 1639 yilda qaytarib olindi. Ammo bunga Turkiyaning o‘zi kuchayganlygi bilan emas, balki ko‘proq Eronning zaiflashtanligi sabab bo‘ldi.*U* Rus-turk munosabatlari.(Rossiya bilan Turkiya o‘rtasida birinchi marta to‘qnashuv XVI asrning ikkinchi yarmidayoq bo‘lgan edi. Sulton hukumati Tanu (Azov) ni bosib olganidan keyin Astraxanni ham bosib olmoqchi edi. Sulton hukumati bu erdan Kaspiy dengizi bo‘ylab Eronga qarshi qo‘shin tortib borishni mo‘ljallagan edi. Ammo hujum qilib kelgan turklarning qa-maliga Astraxan bardosh berdi (1568 yil). Turklar katta talafotlar berib chekinishga majbur bo‘ldilar.

Turklar bilan ruslar o‘rtasida ikkinchi marta jiddiy to‘qnashuv XVII asrning 30- yillari oxiri va 40- yillari boshi-da bo‘lgan edi. Bu vaqtda Zaporoje kazaklari Azovni (1637 yil) olib, uni bir necha yilgacha o‘z qo‘llarida tutib turdilar («Azovskoe sidenie» — «Azovda o‘tirish»). Kazaklar yordam so‘-rab Moskva podshosiga murojaat qildilar.Tzir^q~Moskva dav-lati moliya krizisini boshidan kechirayotgani va Polsha koroli bilan ham kurash davom qilib turganligidan, turklarga qarshi katta urush boshlash planidan voz kechib turishga majbur bo‘lgan edi. Podsho Mixail Fyodorovich kazaklarga Azovni bo‘sha-tishni buyurdi (1643 yil). Lekin shunday bo‘lsa-da, kazaklar-ning Qrim va Turkiyaga qarshi kurashi XVII asr oxirigacha davom etib turdy.

XVII asrning ikkinchi yarmida-Turkiyaning Avstriyaga, Vene-siyaga va Rossiyaga qarshi olib borgan urushlarida mag‘lubyyatga uchrashi Usmon imperiyasining ichidan zaiflign va harbiy ji-hatdan qoloqligini butun Evropaga namoyon qildi. Evropa dav-latlari orasidagi raqobat, ularning sulton bilan separat bitam tuzishga intilishlari tufayligina Turkiya o‘zining haqi-qiy siyosiy

qudratiga, mutlaqo moskelmaydigan keng territoriya-da uzoq vaqtlargacha yashab turish imkoniyatiga'ega bo‘ldi. Evro-paning «buyuk davlatlari» (birinchi navbatda Angliya bilan Fransiya) Turkiya imperiyasining chirib ketgan-rejimini tuga-tish va turklar zulmi stida- zzilib yotgan slavyan xalqlari va Bolqon yarim oroli bilan Old Osiyodagi boshqa xalqlarpp ozod. qilish o‘rniga, Turkiyani asoratga solishni, o‘zlarishshg yarim mustamlakalariga va siyosatlarining quroliga aylantirishn» nazarda tutib, iqtisodiy jihatdan qoloq, siyosiy jihatdav zaif Turkiya imperiyasini saqlab qolishsi afzal ko‘rdilar.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.

## Mavzu: XI – XV asarlarda Eron ( 2 soat)

**Reja:**

1. **XI- XIII asrlarda Erondagi Buvayxiylar, Ismoiliylar va Salg‘uriylar davlati.**
2. **Eron Xulakuylar (Elxoniylar ) sulolasi davrida.**
3. **Muzaffariylar, Jaloyiriylar va Sarbadorlar davlati.**

**Buvayxiylar davlati (932-1062)-** bu davlat shialar uyushmasidan iborat bo‘lgan bo‘lib 1055 yili Saljuqiylar tomonidan taxtdan ag‘darilgan. 1062 yili buvayxiylarning so‘nggi mulki ham qo‘ldan ketgan.**Erondagi ismoiliylar davlati (1090- 1256)-** markazi Qazvin yaqinidagi Alamut (Burgut uyasi) bo‘lgan Erondagi Elbrus tog‘larida yashovovchi shiaparast gurux. Ko‘pincha ularni Xashshoshiylar ( hashoshiy arabcha so‘z bo‘lib o‘txo‘r, narkotik iste’mol qiluvchi degani)nomi bilan mashxur bo‘lgan. Bu davlatga Hasan ibn Sabbox (1051-1124) asos solgan. U tez orada o‘z davlatida ramazon oyida barcha shariatni kuchdan qoldiradi. Xatto o‘z o‘g‘lini o‘zi tuzgan qonunga shubxa bilan qaragani uchun o‘limga mahkum qilgan. U saljuqiylar davridagi soliqlarni bekor qilib, mudofaani mustaxkamlashni buyurdi. Xashoshiylar saljufiylar davlatiga qarashli joyda o‘z makonlarini xukumat vakillariga bildirmaslik uchun bir muazzinni o‘ldirishadi shuning ular tutilib tezda vazir Nizomulmulk tomonidan qatl etiladi. Bunga javoban xashoshiylarda norozilik kelib chivadi va vazirni yollangan qotil toihmonidan o‘ldiriladi. Bundan ruxlangan Saboh ulkan qo‘shinni keragi yo‘qligini tushunib etadi va yollanma qotillrni tayyorlay boshlaydi. Sarallangan qotillar 220 nafandan 5 yoki 10 tasi olinar edi. Va ularni ongini zaxarlab ortga qaytish yo‘qligini singdiriladi. Ular ko‘proq masxaraboz, tabib, roxib, savdogan qiyofalarida yurganlar. Alamut pirlari minglarcha kishilarni giyoxvandlikka aylantirganlar. Giyoxvandlikni qiyidagicha oqlashgan. ***“ Hashshoshiylar duyodagi eng kamtar insonlar bo‘lib, ularni ng taomi o‘t o‘landir”.***Hashoshiylarni 1256 yili Xulaku boshchiligidagi mo‘g‘ullar Alamutni tor mor qilishdi. So‘nggi qal’a 1273 yili tugatildi. Ularning 8 nafar shaxs davlatni idora qilgan. **Salg‘uriylar (1148- 1282 )** Forsda xkumronlik qilgan sulola bo‘lib uni tuzishda turkmanlarning solg‘ur qabilasiga mansub Sungur ibn Mavdud asos solgan. Mo‘g‘ullar Eronni asta sekin istelo qilishadi. Munkening ukasi Xulaku Eronga xarakat qila boshlaydi. Uning qo‘shini 70 iming nafardan ortiq eldi. Birinchi bo‘lib Ko‘xistondagi nizoriylarni va Alamutni egallaydi. Udan Hashoshoylar pirining o‘g‘li Rukniddin Xurshox yordamida amalga oshiriladi. Ammo o‘zini ham o‘ldiriladi.

1257 yili Xulakuxon Bog'dodga yurish boshlaydi. Abbosiy xalifa Muta'simdan bo'ysunishi talab etilada rad javobini olinganidan keyin dajla daryosi bo'yidagi Bayju no'yon qo'shinlaridan engiladi. Xulakuxon Bog'dodga kelib xalifadan xazina kalitini topshirishni so'raydi. O'zini esa otlar tuyog'i ostiga tashlashni buyuradi barcha abbosiy zurriyolar va Bog'dod axolsi qirg'in qilinadi.

**Xulakuylar (Elxoniylar ) sulolasi- (1256-1353)-** davlati. Poytaxti Mog'ora, Tabriz, Sultoniya, Tabriz shaxarlari. Xududi Eron, Ozarbayjon, Kavkazoldi, Iroqi Ajam, Kichik Osiyo xudulari kirgan.Xuloku (1256- 1265) qarindoshi bukka bilan munosabatlari yomon bo'lgan bir nesa bor qo'shin toritib urushlar bo'lib turadi. U saroyda o'z manfaatlaridan kelib chiqib turli fanlarni rivojlantirgan.**Abag'a (1265- 1282)-** yillari xukmronlik qilgan. Uning xukmronligini besh yildan keyingina Xubilay tan olgan. barcha mo'g'ul xonlari kabi mayxo'r bo'lgan. Vizantiya imperatorining qizi Mariya Despinaga uylangan. Misr mamaluklariga qairshi evropaliklar bilan sulx tuzgan. Uning elchilari 1274 yili Lionga, 1277 yili Rimga xam borgan. Xatto Abag'a Angliya qiroli Eduard I, Rim papasi Kliment IV, Grigoriy VII va Nikoalay III lardan maktub olgan.Mamluklar davlati kuchligi bois ularga qashi kurashilmadi ammo sharqda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.1265 yili Forsda Sayyid SHarofiddin boshligidagi qo'zg'olon bo'lib o'tdiyu ammo u ham bostirildi.Tukder musulmoncha ismi **Sulton Ahmad (1282-1284)** – Xulokuning ettinchi o'g'li va Abag'aning inisi. YOshligida Nikolay ismi bilan cho'qintirilgan. Taxtga o'tirganda birinchi bo'lib elxoniylar ichida islomni qabul qilan. CHerkovlarni masjidga aylantirgan. Misr mamluklari bilan aloqalar olib borilgan.bundan norozi bo'lgan qarindoshi Xuroson xukmdori Arg'un elxonni taxtdan qulatdi. Odatga ko'ra qon to'kishsiz umurtqa suyagi sindirib qatl etiladi.

**Arg'un ( 1284-1291)-** Abag'aning nevarasi. Tezda bosh vazir SHamsuddin Juvayniyni qatl qiladi. U musulmon mansabdrolariga ishonmay ular o'rniga xristian va yaxudiylarni xizmatiga oladi. Va yaxudiy savdogan Sa'duddavla bosh vazir bo'ladi. Soliqlar tartibga solinadi.Ammo uni turli ishlarda aylab xon kasallik paytida dushmanlar qatl ettirishadi.

Arg'un Abag'aning siyosatini davom ettiradi va mumluklarga qvrshi kurashish uchun evropa bilan aloqalarga e'tibor beradi. XIII asrning 80-90 yillarida Eronda kuchli iqtisodiy inqiroz sodir bo'ladi. Va bu dehqonlar qo'zg'oloniga sabab bo'ladi.

**Gaytaxu – (1291-1295)-** yillar. Ismi Irinjin Dorji – "qimmatbaxo olmos" uning zarb etgan tangalariga shunday so'zlar bitilgan. Gaytaxu nomini taxtga chiqqanidan so'ng buddiy monarxlardan olgan. mamluklar bilan kurashgan va Oltin O'rda bilan sulx tuzgan. U xukmronligini mustaxkamlash maqsadida amirzodalar va xonzodalarga ko'p sovg'alar bergan.

Natijada davlat xazinasi bo'shab qoldi. 1294 yida birinchi marotaba xitoy namunasidagi qog'oz pul CHau chiqardi. Baydu tarafdorlari tomonidan qatl qilingan. Baydu 7 oy xolik qilgan. Uni G'ozon va uning tarafdolari Naxichevan artofida tutib olindi. Qisqa davri u xristinlarga xomiylik qilgani uchun musulmonlarning nafratiga uchradi.

G'ozon, musulmoncha ismi **Maxmud (1295-1304)-** Arg'unning katta o'g'li bzo'lgan mo'g'ul, fors, va turk tillarini mukammal shuningdek arab, xind, xitoy, kashmir va fransuz tillarini qisman bilgan. Buddizm odatlari bo'yicha tarbiyalangan. U 1295 yili elbrus tog'laridagi Lorjon qap'asida islomni qabul qilgan islomni davlat diniga aylantirgan. YAgona pul solig'ni o'rnatadi.

**Abu Said Bahodir** (1337-1335) – islomni ximoya qilgan xukmdor bo'lib tangalarida xalifalar nomini qo'ydiradi. Uning o'limidan so'ng zurriyodi bo'lmaganligi bois o'zaro nizolar boshlanadi. Ushbu kurashlarda mo'g'ullarning jaloyir qabilasi rahbari Katta Xasan faol bo'ladi. Kurashlarda jaloyiriylar Iroqi Arabda xokimiyatni qo'lga oladilar. SHarqiy Xurosonda Kurdlar, G'arbiy Xurosonda Sarbadorlar,janubiy Eronda esa Luristonda otabeklar va boshqalarga bo'lini ketadi.

**Muzfffariylar sulolasi** (1314-1393) Fors,Kirmon va Isfaxon viloyatlarini boshqargan bo'lib poytaxti SHeroz bo'lgan. 1393 yila A.Temur tomonidan tugatilgan. Ular arab fotixlari avlodlari bo'lib to'liq eroniylashgan edi. Muboziddin Muhammad zoli bo'lib xukmronligi

davrida 800 kishini o‘z qo‘li bilan o‘ldirgan. 1340 yili Kirmonni egallagan. 1354 yili SHerozni egallab butun Fors viloyatini egaladi.

**Jaloyiriylar davlati** Iroqda mustaxam o‘rnashgan jdavlat bo‘lib amir Hasan Buzrug 1340 yilin o‘zigi sulton deb ataydi va jaliyiriylar sulolasiga asos soladi (1340-1410). Poytaxti Bog‘dod va Tabriz.mo‘g‘ullarning jaloyir qabilalaridan bo‘lgan. Qoraquyunlilar butkul tugatgan.birinchi jaloyiriy sulton Hasan Buzrug vorisi Uvayslar cho‘poniylarga qarshi kurashadilar. Olti O‘rda tomonidan Tabriz vayron qilinadi va o‘zaro urushlardan keyin Uvays tomonidan tabriz ishg‘ol qilinadi. 1385 yili Tabriz To‘xtamish tomonidan, 1386 yili Amir Temur tomonidan egallanadi. 1410 yili qo‘yunlilar jaloyiriylarga qaqshatqich zarba berdi va Ahmad jaloyir qatl qilinadi.

XIV asrning 30-80 yillarida Eronda mahalliy feodallar davlat tuzishga urinishlar bo‘lib turgan.

**Sarbadorlar xarakati 1337-381 yillar**. Asoschisi mozandaronlik shayx Xalifa bo‘lgan. G‘arbiy Xurosondagi Bayxaq mintaqasida sabzavorga kelib jome masjidda o‘z ta’limotini tarqata boshlaydi.

**Asosiy adabiyotlar:**


1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. “Ўқитувчи ”.1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O’.Salimov. Toshkent.,“Universitet”, 2014.


## Mavzu: XIII-XV ASRLARDA HINDISTON. ( 2 soat)

## REJA:

1. **Feodal munosabatlarning yanada rivojlanishi.**
2. **Dehli sultonligining tashkil topishi.**
3. **Dehli sultonligi davrida feodal tuzumining o‘ziga xos xususiyatlari.**
4. **Janubiy Hindiston davlati – Baxmani va Vijayanagar**

**Feodal munosabatlarning yanada rivojlanishi.**

VI–VII asrlarda Hindistonda katta yer egaligi munosabatlari yanada rivojlangan. Katta yer egaligi jarayonining tezlashuvi natijasida Shimoliy Hindiston (Guptalar podsholari davlati qulagandan keyin va ikkinchi marta Xarsha davlati tugagandan keyin) siyosiy jihatdan parchalanib ketib, o„nlab mayda viloyatlar vujudga kelgan. Ularning rojalari yirik yer egalari bo„lib, ular qishloq jamoalarini o„zlariga bo„ysundirganlar. Rojalar maharajalarga vassal bo„lgan. Rojalarning maxsus jangchilari bo„lib, ularga harbiy xizmat o„taganliklari uchun yerlar in'om qilingan. Jamna bilan Gang daryolari o„rtasida bu xildagi hind harbiy zodagonlari ko„p bo„lgan. Shimoldan hujum qilib bostirib kirish xavfi bu yerda ancha kuchli bo„lgan. Bu yerlarda vujudga kelgan juda ko„p sonli harbiylar tabaqasi *rajputlar* (*shoh farzandlari*) degan nom olganlar. Keyinchalik rajputlar qadimiy harbiy tabaqa bo„lgan kshatriylardan ajralib ketgan.

Katta yer egaligining rivojlanishida hind ibodatxonalari katta ahamiyatga ega bo„lgan. Hind kohinlari juda katta yerlarga ega bo„lganlar, Ularning qo„llab-quvvatlashiga muhtoj bo„lgan rojalar juda ko„plab yer ulashib berganligi uchun bu yerlar keyingi yuz yilliklarda yanada ko„payib borgan. Ba'zi ibodatxonalarning 1000, hatto 1500 tagacha qishlog„i bo„lgan. Jamoachi dehqonlar hosilning katta qismini ibodatxonalarga to„lganlar va ibodatxona ularni sud qilish huquqiga ega bo„lgan.

**Dehli sultonligining tashkil topishi.** Arablar VII asr oxirida Eron va Afg„onistonni bosib olganlaridan so„ng bevosita Hindistonga qo„shni bo„lib qolgan. Bundan tashqari, Hindistonga arablar dengiz bilan, ya'ni Fors qo„ltig„i orqali borib Hind okeanidan ham hujum qila olar edi. 712- yilda Ummaviylarning sarkardalaridan biri Muhammad ibn Qosim Basradan suzib borib, Hindistondagi Sind mamlakatini bosib olgan. Lekin, oradan bir necha o„n yil o„tgach, arablar Hindistondan butunlay siqib chiqarilgan. Islom dinining targ„ib qilinishiga hindlar dushmanlik nazari bilan qaragan, chunki islom dinini ular chet ellik bosqinchi va talonchilar dini deb hisoblaganlar, hinduiylik esa islom diniga qarshi «milliy» din bo„lgan.

Musulmonlar hujumi faqat XI asrning ikkinchi yarmidagina qaytadan boshlangan. Bu safargi hujum ilgarigi hujumlardan qattiq bo„lgan. Kuchli G„aznaviylar davlatining vujudga kelishi yangi hujumlar uchun zamin tug„dirib bergan. Sulton Mahmud G„aznaviy (998–1030) sharqiy Eron va Afg„oniston yerlarini, 1017- yildan e'tiboran esa Amudaryoning shimolidagi yerlarni, ya'ni Buxoroni ham o„z qo„l ostiga kiritib olgan.

Podsholik davri mobaynida u shimoliy Hindistonga 17 marta yurish qilgan. Hindiston shaharlari musulmonlar tomonidan qattiq talangan. Mahmud G„aznaviy bu yurishlardan shimolga o'n minglab erkak va ayollarni asir qilib haydab ketgan, mamlakatni, ayniqsa hind ibodatxonalarini talab, oltin, kumush, qimmatbaho toshlarni olib ketgan. G'azna shahri muhtasham binolar bilan bezalgan, bu binolarning ko„pini Hindiston me'morlari barpo etishgan. 1030- yilda Mahmud G„aznaviy o„lgan vaqtda uning davlati Amudaryo qirg„oqlaridan tortib, to Ganga daryosigacha borgan, butun Hind daryosi havzasini ham o„z ichiga olgan edi. Lekin, uning poytaxti Hindistondan tashqarida bo„lgan. Hindiston Mahmud G„aznaviy uchun bo„ysundirilgan bir viloyat hisoblangan. Shunday bo„lsa-da, Hindistonning shimoliga juda ko„p musulmonlar – xurosonliklar, turk va afg„onlar borib o„rnashgan. Shimoliy-sharqiy Hindiston (hoz. Pokiston) aholisining bir qismi islom dinini qabul qilib, keyinchalik istilochilar bilan aralashib ketgan.

XII asr oxirlarida Hindistonga G„azna istilochilari ikkinchi marta hujum qilgan. 1175- yilda Gazna hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom ettirgan. 1190- yillarda u Jamna bilan Gang daryolari o„rtasidagi butun yerlarni, so„ngra esa Bengaliyani bosib olgan. Guriy vafotidan (1206- yildan) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek G„aznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (Dehlini markaz qilib) mustaqil davlat tuzgan. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritilgan.

**Dehli sultonligi.** 1206- yilda G„azna sultonligidan mustaqil bo„lib olgan Dehli sultonligi XIII – XIV asrlar davomida ancha katta davlat sifatida yashagan.

Dehli sultonligi XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida kengaygan bo„lib, bu vaqtda uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari, Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yassi tog„ligidagi ko„pchilik davlatlar kirgan. Dekan 1306–1310- yillarda sulton Alovuddin Xiljiy tomonidan bosib olingan. Navbatdagi sultonlardan biri Muhammad Tug„laq (1325–1351) deyarli butun Hindistonni bo„ysundirib, hatto Eron bilan Xitoyni ham zabt etishni orzu qilgan. Ammo, sultonlikning kengayishi mustahkam xarakterga ega bo„lmagan. XIV asr o„rtalariga kelib Dekan ajralib chiqqan va ko„p o„tmay Dehlidan shimoldagi ko„pgina viloyatlar, shu jumladan, Bengaliya ham ajralib ketgan. Dehli sultonligi tarkibiga kirgan viloyatlarning ayrimlari XIV asrning ikkinchi yarmida mustaqil davlatlarga aylana boshlagan. Sulton Dehlining o„zida mustahkam hokimiyatga ega bo„lmagan, chunki u yerda feodallarning turli guruhlari o„rtasida hokimiyat uchun uzluksiz kurashlar bo„lib turgan.

**Dehli sultonligi davrida feodal tuzumining o'ziga xos xususiyatlari.**

XIII–XVI asrlarda Hindistonda feodal tuzumi o„ziga xos tarzda rivojlangan. Bir tomondan, Hindistonda musulmon yer egaligi tizimi qaror topib, butun yerlar davlat boshlig„i sultonning mulki deb qaralgan. Kelgindi musulmon feodallari sultonning harbiy xizmatchisi bo„lib, undan *iqto* – vaqtincha va umrbod foydalanish uchun yer olganlar. Ular aholidan (dehqonlardan) renta undirib olish huquqiga ega bo„lgan. Ikkinchi tomondan, mamlakatda mahalliy feodallar knyazlar – *rojalar* o„z viloyatlarini amalda mustaqil ravishda boshqarib,

sultonga muayyan miqdordagi bojni to„laganlar. O„rta va mayda hind feodallari *rojaputlar* va boshqalar qisman meros bo„lib qolgan feodal mulkchiligi huquqi asosida, qisman harbiy xizmatni o„tab turgan paytda vaqtincha beriladigan in'om tariqasida yerga egalik qilardilar. Vaqt o„tishi bilan kelgindi iqtadorlar ham yerning merosxo„r egalariga aylanib bordilar, ammo bu jarayon XIV asrning oxirigacha ham tugallanmagan. Yerlarning katta qismi har ikkala din mahalliy, hind dini (eski ibodatxona yer egaligi) hamda yangi, musulmon (vaqf yerlari) dinidagi ruhoniylarning qo„lida bo„lgan. Bu davrda Hindistondagi feodal tuzumining yana bir xususiyati jamoatchi dehqon xo„jaliklarining ilgarigidek ustun bo„lib qolganligidir. Mahalliy hind va kelgindi turk-musulmon feodallarining o„zlari odatda xo„jalik bilan shug„ullanmas, balki qaram dehqonlardan oziq-ovqat rentasi, qisman pul rentasini undirib olganlar. Barshchina ishlari mavjud bo„lgan joylarda asosan qullar va past tabaqa dehqonlar mehnatidan foydalanilgan.

XIII–XIV asrlarda Hindiston feodal tuzumining xarakterli xususiyati – shahar hayotining ancha intensiv rivojlanishidir. Qadimgi davrlardayoq mavjud bo„lgan shaharlar qatoriga sultonlar va ularning nabiralari feodallarning qarorgohi sifatida vujudga kelgan ko„pgina yangi shaharlar qo„shilgan. Dehli shahrining o„zi ana shunday feodal-poytaxt shahri uchun misol bo„la oladi. Bu yerda juda ko„plab saroy ahli va xizmatchilari, askarlar, amaldorlar va shu singarilardan tashqari, ko„pgina hunarmandlar va savdogarlar yashab, ular sulton saroyi hamda poytaxtdagi boshqa feodallarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirganlar.

Ana shunday «shahar-qarorgohlar»dan tashqari, Hindistonda XIII–XIV asrlarda Bengaliya qo„ltig„i bilan Arab dengizi sohilida joylashgan hamda xalqaro savdo-sotiq bilan bog„langan ko„pgina dengizbo„yi shaharlari muvaffaqiyatli rivojlangan. Bular orasida, xususan, Malabar sohilida Goa va Kalikut, Kambay qo„ltig„i sohilida Kambay ajralib turgan. Shimoliy Hindistonda karvon savdosi bilan bog„liq bir qancha shaharlar orasida Agra, Laxor, Mo„lton eng muhimlaridir. Hind hunarmandlarining mahsuloti bo„lgan juda ko„plab buyumlar (avvalo yuqori sifatli hind gazlamalari), shuningdek, turli ziravorlar Yevropaga va Shimoliy Afrikaga muntazam yuborib turilgan. Hindistonga esa asosan yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pul va shu singarilar tashib keltirilgan.

**Hindistonga Amir Temurning hujumi.** XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feodal mamlakat bo„lib, ko„plab musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzluksiz kurash olib borgan. 50–60- yillarda sultonning vassal rojalar bilan olib borgan urushlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa va Gujarat g„oyat xonavayron bo„lgan. 1366- yilda Gujaratdagi qo„zg„olon bostirilgan, sulton Feruz qo„zg„olonining asosiy o„choqlarida hindlarni batamom qirib tashlash haqida buyruq bergan. Shafqatsiz feodal zulmi va to„xtovsiz ichki feodal urushlari Dehli sultonligi tanazzulining asosiy sabablari bo„lgan. XIV asrning 70–80- yillarida Dehli sultoni o„z qo„lida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga ham qodir emasdi. Markaziy hokimiyatning bu zaifligi yomon oqibatlarga olib kelgan, Hindistonni yangi chet el hujumlariga qarshi qarshilik ko„rsata olmaydigan qilib qo„ygan. XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridayoq mo„g„ullarning ayrim harbiy qismlari Shimoliy Hindiston yerlariga bostirib kirib, hatto Lohur va Dehli kabi katta shaharlarning darvozalarigacha kela boshlagan. Ko„chmanchilarning hujumlari, qiyinchilik bilan bo„lsada, qaytarilgan. Biroq, shimoliy o„lkalarning vayron qilinishi, aholining talanishi va buning natijasida qishloq xo„jaligi, sanoat va savdoning tushkunlikka yuz tutib ketishi Hindistonning iqtisodiy ahvoliga tobora yomon ta'sir qilgan. XIV asr oxirlarida Hindiston Amir Temurning qo„shinlari tomonidan yana ham dahshatliroq xarob va xonavayron qilingan. 1398- yilning kuzida Amir Temur 120 ming askari bilan Hindistonga bostirib kirgan. Dehli sultoni shu qadar katta armiyaning hujumini to„xtata olmagan. Amir Temur Hind daryosidan o„tib, Panjobdagi shaharlarni birin-ketin ishg„ol qilib, hamma yoqni talagan va kuydirgan.

Keyinchalik Kichik Osiyodagi Usmon turklariga qarshi yurish bilan band bo„lgan Amir Temur Hindistonni o„z holiga tashlab qo„ygan. Temurning vafotidan keyin Hindiston o„zining baquvvat, mustaqil davlatini tuzish imkoni vujudga kelgan. Ammo XV asrda Hindistonni birlashtirish yana ham qiyinlashgan. Doimo birlashtirish markazi bo„lgan Shimoliy Hindiston Temur hujumi tufayli necha o„n yillar davomida qattiq iqtisodiy inqirozni boshidan kechirgan. Ammo Temur hujumining boshqa bir oqibati ham bo„lgan. Temur hujumidan keyin musulmon

feodallari bilan hind feodallari o„rtasidagi o„zaro kurash yana ham kuchaygan. Ilgari vaqtlarda katta ta'sirga ega bo„lgan shimoliy musulmon knyazlari endi zaiflashib, avvalgi gegemonliklarini qo„lda saqlay olmay qolgan. Janubdagi hind rojalari, garchi bir qadar kuchaygan bo„lsalarda, o„z kuchlari bilan birlashtirish darajasida yetarli qudratga ega emasdi. Ikki guruh hind feodallarining kurashi Hindistonning shimoli bilan janubidagi milliy va ijtimoiy-iqtisodiy farqni aks ettirib, bir-biriga qattiq dushman bo„lgan ikki xil diniy (islom va hindu) mafkuraviy kurashga aylangan hamda samarasiz tarzda cho„zilib ketib, mamlakatni yana chet el istilosi xavfi ostida qoldirgan.

**Janubiy Hindiston davlati – Baxmani va Vijayanagar.** XIV–XV asrlarda Hindistonning janubida ancha yirik davlatlar mavjud bo„lgan. Ulardan biri Baxmani davlati G„arbiy Dekan hududida joylashgan bo„lib, uning poytaxti yirik shahar Bidar bo„lgan. Bu davlat 1347- yilda Dehlidan ajralib, tashkil topgan. U 1482- yilgacha mavjud bo„lib, keyinchalik bir necha knyazlikka bo„linib ketgan. Rus savdogari, sayyoh Afanasiy Nikitin xuddi shu davlatda 1469–1472- yillarda (u eng gullagan paytda) bo„lib, Hindistonning bu qismidagi feodallar va oddiy xalq turmushini yorqin tarzda bayon qilgan.

Baxmanidan janubda joylashgan yana bir davlat – Vijayanagar davlati edi. Bu davlatga taxminan 1336- yilda asos solinib, 1486- yilgacha yashagan. Uning tarixi qo„shni Baxmani bilan deyarli to„xtovsiz urush olib borish bilan o„tgan. Bu urushlar har ikkala davlatni zaiflashtirib, ularning yanada maydaroq knyazliklarga bo„linib ketishini tezlashtirgan. Vijayanagarga qaraydigan Malabar sohili G„arbiy Yevropa mustamlakachilari kirib kelgan dastlabki hudud bo„lgan. Baxmani bilan Vijayanagar o„rtasidagi o„zaro urushlar, shuningdek, XV asr oxirlarida kuchaygan feodallar o„rtasidagi o„zaro nizolar G„arbiy Yevropa mustamlakachilariga Malabar sohilidagi bir qancha tayanch nuqtalarini deyarli to„siqsiz ishg„ol qilish imkonini bergan. Strategik ahamiyatga ega bo„lgan mazkur nuqtalar Yevropaliklarning keyinchalik Janubiy va Sharqiy Osiyoda mustamlakalarni qo„lga kiritishlarida muhim ahamiyatga ega bo„lgan.

**Hindistonda yevropaliklarning paydo bo'lishi.** 1498- yilda Vasko da Gama eskadrasi Malabar qirg„og„ida paydo bo„lib, Kalikut shahriga tushgan. Portugallar XVI asr boshlaridayoq Hindistonning g„arbiy va janubiy qirg„oqlarida bir qancha joylarni egallagan. Portugallar Hind okeani, Fors qo„ltig„i va Qizil dengizda hukmron bo„lib olgan. Ular keng suratda dengiz qaroqchiligi bilan shug„ullanib, hind kemalariga hujum qilganlar va ularni talagan. Ular bosib olgan hudud, ya'ni Goa shahri, Seylon oroli va yana boshqa bir necha joydangina iborat bo„lsada, talonchilik ekspeditsiyalari mamlakatning ancha ichkarisigacha kirib borgan. Yevropaliklar ichida birinchi bo„lib portugallar Hindistonda mustamlakachilik siyosatini amalga oshirgan. Keyinchalik, XVI asr oxiri –XVII asr boshlarida ularga golland va inglizlar kelib qo„shilgan.

**Dehli sultonligining tushkunlikka uchrashi.** XV asr mobaynida Dehli sultonligi buyuk davlat bo„lmay qolgan. Dehli shahri va uning atrofidagi yerlar hukmroni «Dehlining buyuk sultoni» degan dabdabali unvonga ega bo„lsa ham, u Shimoliy Hindistondagi oddiy davlatlardan biri bo„lgan. Eng yirik qo„shni davlat Bengaliya knyazligi ham loaqal Shimoliy Hindiston uchun gegemonlik rolini o„z zimmasiga olmagan. Feodal tarqoqlik, qo„shni knyazliklarning raqobati va o„zaro urushlari, ayrim xususiy feodallar ham, ko„pdan-ko„p mayda hukumatlar ham undirib oladigan soliqlarning o„sishi sharoitida mamlakat mehnatkash aholisini ekspluatatsiya qilish yanada kuchaygan. Dehqonlar soliq va renta to„lashdan bosh tortar, o'rmonlarga qochib, davlat soliqlarini yig„uvchilardan va o„z feodallarining zo„ravonligidan yashinar edi. Ba'zan qahatchilik va ocharchilik natijasida dehqonlarning tartibsiz g„alayonlari bo„lib turgan.

Tarqoq, tabaqalar o„rtasidagi kurash keskinlashgan, musulmon va hind feodallaridan iborat bir-biriga dushman ikki guruhga bo„lingan Hindiston mo'g'ul-turklarning yangi hamlasi oldida tamomila himoyasiz bo'lib qolgan edi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## Mavzu: XIII-XV ASRLARDA XITOY

**Reja:**

1. **Xitoy mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida.**
2. **Min sulolasining idora qilishi.**
3. **Shaharlarning rivojlanishi, ilk shahar kurtaklari.**
4. **XV–XVI asrlarda Xitoyda ziddiyatlarning keskinlashuvi**.

### Xitoy mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida.

Tan imperiyasi o'rnini olgan Sun imperiyasi XI asrda vujudga kelgan. XII asr boshlarida shimoldan hujum kuchayganligi tufayli 1126- yilda poytaxt janubdagi Xanchaoga ko„chirilgan. 1127- yildan Sun sulolasi qo„lida faqat janubiy Xitoy qolgan, xolos. Shimoliy Xitoy manchjur-tungus qabilalaridan biri jurjanlar tuzgan va Szin deb atalgan yangi davlat tarkibiga kirgan. Bu davlat ilgarigi Kidanlar davlatini o„ziga singdirib olgan. XIII asrda shimoliy Xitoyni mo„g„ullar bosib olgan. Janubiy Xitoydagi Sun imperiyasi 1279- yilgacha Chingizxonning nevarasi Xubilay bosib olguniga qadar yashagan. Xubilay Xitoyda Yuan deb atalgan yangi mo'g'ul sulolasiga asos solgan.

### Xitoy mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida.

Dastlab Xubilay zamonida (1259–1294) Xitoyning shimolida o„rnatilgan mo'g'ullar hukmronligi asta-sekin janubiy Xitoyga ham yoyilgan. 1278- yilgi Sun sulolasining poytaxti Xanchjaou shahri ham egallangan. 1279- yilda janubiy Xitoy tamomila istilo etilgan. Mo„g„ullar istilosi Osiyo va Yevropa kabi Xitoy uchun ham dahshatli bo„lgan. Chingizxondan boshlangan yurishlar davomida Xitoy behisob qurbonlar bergan. Xitoyliklar ekin yerlarining bir qismini yaylovlarga aylantirilgan. Yangi soliqlar paydo bo„lgan. Mo„g„ullar olib boriladigan urushlar munosabati bilan ularning talabiga muvofiq, har xil yuklarni tashib berish tarzidagi yillik soliq Xitoy dehqonlari zimmasiga tushgan og„ir yuklardan biri bo„lgan. Oqibatda qishloq xo„jaligiga katta zarar yetkazilgan. Yuan sulolasi davrida asosiy kuch mo„g„ullarning o„zidan iborat bo„lsa ham, qo„shinga yuk tashish, yer qazish kabi ishlarni bajarish uchun xitoylar keng ko„lamda jalb qilingan. Qonun bo„yicha, bunday ishlarga har o'n kishidan birini olish kerak bo„lgan. Xitoy shahar aholisi ham og'ir ahvolga solingan.Katta devorlarni teshishga mo'ljallangan tosh otuvchi qurollar ishlab chiqarish uchun Xitoy hunarmandlari janglarga olib ketilgan. Sun sulolasi davrida yerga xususiy mulkchilik dehqonlar qaramligini yanada kuchaytirgan. Bu jarayon mo„g„ullar davrida ham davom etgan. Dehqonlar sotiladigan va sotib olinadigan mahsulotga aylangan. Soliqlar va boshqa to„lovlar endi tamomila feodallarga bog„liq bo„lgan. Shahar sexlari mo„g„ullar xazinasiga katta pul to„lagan. Hunarmandchilik mahsulotlarining katta qismi mo„g„ul davlatiga bepul topshirilgan. Marko Polo ma'lumotlariga ko„ra, Yuan sulolasi dastlabki paytlarda Xitoy sharq kurashini tomosha qilib, ulardan «Nega mo'g'ullarga qarshi kurashmaysizlar, sizlar ulardan kuchlisiz-ku!» deganda, ulardan biri «mo'g'ullarni biz o'zimizga singdirib yuboramiz», degan edi. XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridayoq mo„g„ullar

xitoyliklarning kuchli ta'siri ostiga tushib qolgan. Ular xitoy tilida gapiradigan bo„lganlar, xitoy yozuvini o'zlashtirganlar va xitoyliklarning ilgarigi idora usulini qabul qilgan. Ikkinchi tomondan, Xitoyning mo„g„ul davlatlari tizimiga kiritilishi tufayli endilikda Xitoy ilgarigi Tan va Sun «milliy» sulolalari zamonidagidan ham ko„proq darajada savdo-sotiq ishlarida ishtirok qiladigan bo„lgan. Xitoyda Eron, Arab, O„rta Osiyo va Hind savdogarlarining savdo rastalari paydo bo„lgan. Xitoyda XIII asrda bambukdan yasalgan trubkaga o„xshash miltiqlar, XIV asrda esa tosh va temir o„q solib otiladigan metall zambaraklar ixtiro qilingan. Xubilay zamonida Xitoyga borgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo «Xitoy ipagi, chinnisi, temiri, misi dunyoning hamma burchagiga chiqarilardi», deb yozgan. Savdoning asosiy samarasini mo„g„ullar, turk va fors savdogarlari ko„rgan.XIV asrda mo„g„ul imperatoriga qarshi bir necha bor saroyda fitna uyushtirilgan.Aholining kengroq doiralari o„rtasida o„z oldiga mamlakatni ozod qilishni maqsad qilgan milliy tashkilotlar tuzilgan. 1351- yilda Xenan va Shandun viloyatlarida«Oq nilufar» nomli ittifoq tomonidan tayyorlangan «Qizil peshonabog'lilar»qo„zg„oloni bo„lgan. Dehqonlarga shaharliklar ham qo„shilgan. Ushbu qo„zg„olon ozodlik urushiga aylanib ketgan. U qariyb 20- yil davom etgan. 1356- yilda «Qizil peshonabog'lilar» ulug„ xon poytaxti Yanszin shahrini xavf ostida qoldirgan. XIV asr 60- yillarida Xitoy viloyatlarining ko„pchiligida mo„g„ullarga qarshi qo„zg„olonlar bo„lgan. Qo„zg„olonchi dehqon qo„shinining rahbarlaridan Chju Yuan Chjan 1369- yilda imperator deb e'lon qilingan va u ta'sis etgan sulola Min deb ataladigan bo„ldi.

### Min sulolasining idora qilishi.

Bu sulola Xitoyning 1368- yildan to 1644-yilga qadar idora qilgan. Uning poytaxti dastlab Nankin shahri bo„lgan. Lekin, ko„p o„tmay, poytaxt yana Yanszin shahriga ko„chirilgan. U endi Pekin degan yangi rasmiy nom olgan. Xalq orasidan chiqqan yangi sulola dastlab mehnatkashlar manfaatini birinchi o„ringa qo„ygan holda siyosat yuritgan. Masalan, soliqlarni tengroq taqsim qilish maqsadida, soliq ro„yxatlari qaytadan
ko„rib chiqilgan. Mo„g„ul zodagonlarining yerlari biroz ko„paygan. XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida irrigatsiya sohasida katta ishlar qilingan. Shaharlardagi hunarmandlar to„laydigan soliqlar ham dastlabki paytlarda bir qadar kamaytirilgan. Lekin, shu bilan birga, «dehqonlar imperatori» biror-bir ijtimoiy inqilob qilishni o„ylamagan. Katta yer egalari dastlab sal cheklab qo„yilgan bo„lsa-da, umuman saqlanib qolgan. Bu holat o„sishda va mustahkamlanishda davom etgan. Chjou Yuan Chjangga hokimiyatni qo„lga olishga yordamlashgan lashkarboshilar va yangi sulolaning faol tarafdorlari ko„pgina yer-mulklarini olganlar. Sulola merosiy yerlar sifatida ekinzorlar va yaylovlarning juda katta qismini o„z qo„llariga kiritgan. Bu yerlardan olingan daromad imperator saroyi va shahzodalarning xarajatini ham qoplagan. Chjou Yuan Chjanning 20 dan ortiq o„g„li bo„lib, ularning hammasi yuqori ma'muriy lavozimlarni egallagan va ayni vaqtda yirik yer egalari bo„lgan. Ammo, imperator xonadoniga taalluqli bo„lmagan oliy ma'muriy shaxslar ham katta yer-mulklar egasiga aylangan.

### Shaharlarning rivojlanishi, ilk shahar kurtaklari.

XIV–XVI asrlarda Xitoyda sanoat ancha tez sur'atlar bilan rivojlangan. Sholi va ipak tayyorlash, gazlamalarga pardoz berish, qog„ozga shisha, chinni tayyorlash, turli xildagi kon sanoati tez rivojlangan. Pekin, Nankin va boshqa shaharlarda saroylar, ibodatxonalar, bezakli minoralar, ko„priklar, arklar, turli qal'a inshootlari qurilgan. Min sulolasi davrida ham sanoat, asosan hunarmandchilikdan iborat bo„lib qolgan.Biroq, sanoatning ayrim tarmoqlari, asosan katta ishlash sanoatida manufaktura shaklidagi yirik ustaxonalar bo„lgan. Qullar va qaram dehqonlar mehnatidan foydalanadigan ko„pgina davlat manufakturalari (chinni ishlab chiqarish) mavjud bo„lgan. Kon ruda qazib chiqarish sanoatida majburiy mehnat tamomila hukmronlik qilgan. O„z ichki ahvolini mustahkamlab olgan sulola yangi yerlarni bosib olish hamda Xitoyning tashqi bozorlarini kengaytirish maqsadida keng istilochilik yurishlarini uyushtirgan.

Chjou Yuan Chji zamonidayoq Koreya bilan Tibet Xitoy imperatori hukmronligi ostida bo„lgan. Uning vorislari Indoneziya, Hindixitoy mamlakatlariga harbiy ekspeditsiyalar yuborgan. Bu mamlakatlardagi kichikroq hokimlarning bir qismi Xitoy imperatorining oliy hokimiyatini tan olgan. Xitoyliklar Indoneziya bilan Hindixitoyga ko„plab ko„chib bora boshlagan. Min hukumati Hindixitoy, Indoneziya, Hindiston va hatto Sharqiy Afrika qirg„oqlariga tinimsiz tarzda harbiy dengiz ekspeditsiyalarini yuborib turgan. Admiral Chjen Xe boshchiligida 1403–1433- yillar mobaynida turli mamlakatlarga yetti marta dengiz yurishlari uyushtirilgan. XVI asrda Min imperiyasi boshqalarga hujum qilish emas, balki bundan keyin o„z mamlakati chegaralarini mudofaa qilishlariga to„g„ri kelgan. G„arb tomondan unga mo„g„ullar xavf solib turgan. 1550-yilda mo„g„ullar qo„shini Pekinga bostirib kirib, uning chegaralariga o„t qo„ygan.

**Xitoyda yevropaliklarning paydo bo'lishi.**

XVI asrning ikkinchi yarmida Xitoy yaponlar tajovuziga qarshi og„ir kurash olib borishga majbur bo„lgan. Shunday kurashlar oqibatida Min sulolasi samuraylar hujumlarini qaytarib, shu asrning oxirida ularni qit'adan haydab chiqargan. XVI asr boshlarida Xitoyga Yevropaliklar kirib kela boshlagan. 1516- yilda birinchi bo„lib portugal kemalari kelgan. XVI asrning 40- yillarida portugallar Xitoy qirg„oqlarida bir necha koloniya barpo qilgan. Lekin, portugallarning ta'magirliklari va o'zboshimchaligidan bezor bo„lgan xitoylar 50- yillarning boshida ularning hammasini yakson qilgan. 1557- yilda bosib olingan Makao (Kanton) janubida portugallar ancha mustahkamlanib olishga muvaffaq bo„lgan. XVI asrning ikkinchi yarmi XVII asrning boshlarida Xitoyda ispan, golland, ingliz va fratsuzlar paydo bo„lgan. Ammo, Min hukumati chet elliklarni bir oz bo„lsa, ham Xitoyning ichkarisiga suqilib kirishga yo„l qo„ymagan. XVI asr Yevropa savdogarlarining Hindiston va Indoneziya bilan savdolariga nisbatan Xitoy bilan bo„lgan savdo aylanmalari juda oz bo„lgan. Xitoy ruslar bilan birinchi marta XVI asrning birinchi yarmidan aloqa qila boshlagan.

**XV–XVI asrlarda Xitoyda ziddiyatlarning keskinlashuvi**.

XV–XVI asrlarda Xitoyda tabaqaviy ziddiyatlar keskinlashgan. Sudxo„rlikning yoyilishi, soliqlarning ortib borishi, xalqning noroziligini keltirib chiqargan. 1448–1449-yillarda Futszyan viloyatida Den Maotsi boshchiligida dehqonlar qo„zg„oloni bo„lgan. Uning atrofiga o„zi singari o„n minglab mayda ijarachi dehqonlar to„plangan. Bu ijarachilar aslida qaram holatiga tushgan dehqonlardan iborat bo„lgan. Qo„zg„olonchilar eski odatdagi rentani talab qilib oshirilgan ijara haqini to„lashdan bosh tortgan. XVI asrning boshlarida bunday qo„zg„olonlar deyarli barcha viloyatlarda bo„lib o„tgan. Ayni vaqtda XV–XVI asrlarda Xitoyda hukmron tabaqaning o„z ichida turli guruhlar kurashi davom etayotgan edi. Min imperatorlariga yaqin bo„lgan amaldorlar yuqori va daromadli lavozimlarni egallagan. Ularga feodallarning kengroq doirasi, xususan, shenshiy deb nomlangan olimlar tabaqasi qarshi chiqqan. 1506- yilda amaldorlar markaziy boshqaruvni butunlay qo„lga olib uni 1521-yilgacha saqlagan. Keyin ikkinchi guruh g„olib chiqib, qolgan amaldorlarning mollari talangan, o„ldirilgan. Lekin, XVI asrdan so„ng XVII asrning 20- yillarida yana amaldorlar g„olib chiqqan.

**Mavzuga doir savollar:**

1. Mo'g'ullar tomonidan Xitoyning bosib olinishi necha bosqichda kechdi?
2. Marko Polo sayohatlarining Xitoy tarixini yoritishdagi manbaviy ahamiyatini qanday baholaysiz?
3. «Qizil peshanabog'lilar» qo'zg'olonini asosiy harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering?
4. Chjan Xe sayohatlaridan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat edi?
5. XVI asr Xitoydagi tabaqaviy ziddiyatlarning ildizi sifatida nimalarni e'tirof etish mumkin?

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа . МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Ijtimoiy fanlar fakul'teti
dekani:____________R.Jo'rayev
"___"___________2022 yil

**TARIX KAFEDRASI**

**katta o'qituvchisi**

**REJABBOYEV NURILLO ABDULBOQIYEVICHNING**
***Jahon tarixi fanidan seminar mashg'ulotlari uchcun***

***ISHLANMASI***

**Namangan – 2022**

## III-Semestr uchun

## 1-Mavzu: Tarix fanida feodal jamiyatining tavsifi.Yevropada feodalizmning tarixiy o'rni

**Reja:**

1.Katta yer egaligining vujudga kelishi.
2.Katta yer egalari va oliy hokimiyatning birlashuvi.
3. Katta yer egalarining ijtimoiy tabaqalanishi.
4. O'rta asrlar tarixiga oid manbalar tasnifi.
5. Ilk O'rta asrlarga oid ( V-XI asrlar) oid manbalar
6. XI-XV asrlarga oid tfrixiga oid manbaalar

**E'tibor bering:**

Biz tarixiy manbalar deb, inson faoliyato va uning tz'sirida yaratilgan barcha narsalar - ashyolar, buyumlar, inshootlarni tushunamiz. SHuning uchun tarixiy manbalar rang-barang va cheksizdir. Muammo tarixchi olimlar tomonidan ularni o'rganib, taxlil etish, xolisona baxolab,'ilmiy adabiyotlar, darsliklarga kiritishidadir. Manbalar tasnifiO'rta asrlar tarixiga oid manbalar, ma'lumotlarni kayd etish usullariga karab, beshti turga bo'linadi. Ular kuyidagilar. 1. Tabiiy-geografik manbalar. 2. Etnografik manbalar. 3. Moddiy manbalar. 4. Badiiy-tasviriy ashyolar sirasiga o'sha davrining badiiy asarlari, me'morchilik inshootlari bezaklari, rasmlar, xaykallar va amaliy san'at buyumlari kiradi.5. YOzma manbalardir.

O'rta asrlar yozma manbalari uchta turga bulinadi:
1) Qissalar - mavjud yoki xayoliy xayot eng mayda jixatlari bilan Erkin usulda tasvirlangan yozma ashyolar;
2) Xujjatlar - ma'lum ijtimoiy-xukukiy va ijtimoiy-siyosiy vokealar yoki ularning muxim jixatlari maxsus koidalar asosida itilgan rasmiy kogozlar;
3) Konunlarga oid manbalar.

Feodal jamiyatining karor topishi uzok davom etgan murakkab jarayondir. Er egaligi munosabatlari shakllanishi uchun sharoit so'nggi antik va ilk varvarlar jamiyatlari davrida etiladi.

Urta asrlar jamiyatining keyingi tarakkiyoti Evropada aynan, avvalgi jamiyatlarning uzaro ta'siri tarzida davom etadi. Bunda suz xar ikki jamiyat oldfeodal elementlarining kushilishi xakida emas, balki uzaro ta'siri, ularning sintezi xakida ketmokda. Bu jarayon sifat jixatdan yangi munosabatlar va yangi jamiyatni tugdiradi.Sintez jarayoniga ijtimoiy tarakkiyotning past darajasida bulganlari bone fakat xunnlar va SHimoliy Afrikada yashagan barbarlar tortilmaganlar. Uzaro munosabatlarda muvozanat bulgan xududlarda sintez ayniksa tez ruy bergan. Bunga misol tarikasida Galliyaning shimoli-sharkida oldfeodal davri urug-kabilachilik yoki kulchilik munosabatlari asoratlari kam bulgani tufayli, feodal tartiblari vujudga kelishining juda tez, VIII-IX asrlarlayok, yuz berganini kursatish mumkin. Uzaro alokaga kiruvchi tomonlardan birining ustunligi mavjud bulgan xududlarda esa, aksincha feodallashuv jarayoni sekin borgan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Philip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.История средных веков. Под ред. С.П. Карпова, 2 часть М. МГУ 2001.
3.История средных веков. Под ред.Г.В.Удалсовой, С.П. Карпова, 1-2 часть М. Высшая школа .
МГУ. 2001.
4.Қурбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма .Т: Ўқтувчи .1991.
5.Ўрта асрлар тарихи В.И.Семёнов. Т.: Тошкент. "Ўқитувчи ".1973
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.: O'.Salimov. Toshkent.,"Universitet", 2014.

## 2-Mavzu : IV – V asrlarda Rim imperiyasi. Varvarlar tomonidan Rim imperiyasini bosib olinishi.

**Reja:**

1. IV asr oxiri va – V asr boshlarida Rim imperiyasi va varvarlarning o’zaro munosabatlarining keskinlashuvi. Vestgotlar imeriyada.
2.Vandallar qirolligi va Burgundiya.
3. Atilla davrida Xunnlar.
4.Garbiy Rim imperiyasining qulashi.
5. Ostgotlar Italiyada.. Shimoliy Italiyani langobardlar tomonida istilo etilishi.
6. Varvarlar istilolarining oqibatlari.

**E’tibor bering:**

III asrga kelib, Rimda qulchilik munosabatlari to’liq inqirozga yuz tutgan. III–V asrlarda latifundiyalarda ijarachi qullar – kolonlar tabaqasi vujudga kelgan. G’arbiy Rim imperiyasi shaharlari inqirozga yuz tut-gan. Villalar ho’jalik va ijtimoiy hayotning markaziga aylangan. Diokletian va Konstantin islohotlar o’tkazganlar. Diktatura va dominat vu-judga kelgan. IV asrdan xristian cherkovining ijtimoiy tarkibi o’zgargan. 476–yilda german qabilalari Garbiy Rim imperiyasini qulatganlar. Xunnlar SHarkiy Rimdan sung, V asrning urtalaridan Garbiy Rimga taxdid eta boshlaydi. Ayni paytda, Pannoniyada (.xozirgk Vengriya) joylashgan xunnlar Atilla (434- 453-yy.) boshchiligida atrofdagi xududlarga xujumga utadilar. Urushlarda asirga olinganlar Atilla va uning ayonlari kullariga aylantiriladi.

Burgundlar Savoyyada (Fransiyaning janubi) 443-yIlday Rimning ittifokchilari sifatida joylashib, 457 yili Galliyaning janubi-sharki va Lion shaxrini egallaydilar.

IV-VI asrlarda xalqlarning buyuk ko’chishlari yuz bergan. 375-yilda ostgotlar ittifoqi xunnlar tomonidan mag’lub etilgach, Meziya, Frakiya va Illiriya hududlari vestgotlarga federat sifatida berilgan. Vest-gotlar 418-yilda Tuluza qirolli-giga asos solganlar. 429-yilda vandallar Shimoliy Afrikaga bostirb kirdilar. 442-yilda Rim hukumati Vandallar qirolligi mustaqilligini tan oldilar. 457-yilda Lionda Burgundiya qirol-ligi vujudga kelgan. 476-yilda G’arbiy Rim imperiyasi qulagan

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M„ Vысshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O‘rta asrlar tarixi. o‘quv metodik qo‘llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O‘rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O‘qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O‘.Salimov. Toshkent., “Universitet”, 2014.

## 3-Mavzu: Merovinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi.

**Reja:**

1. Qirollikning yuksalishi.
2. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzum.
3. Xojalik. Allod. Marka. Erkin franklar.
4. Yurik yer egaligining yuksalishi. Jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o’zgarishlar.

5. Hokimiyatning zaiflashivi hamda harbiy islohotlar.

**E'tibor bering:**

Frank kabilalari itifokiga V asr oxiridan merovey urugidan bo'lgan Xlodvig (481-511-yy.) boshchilik kilgan.486-yilda Shimoliy Galliyada Xlodvig (486-511-yy) Franklar qi-rolligiga asos soldi. V asr ohiridan, VII asr o'rtalariga qadar qirollikni Merovinglar sulolasi boshqargan.

Merovinglar sulolasi tarixida (486-75(1-yy.) Merovinglar davri bo'yicha eng qim-matli manba-"Sali xaqiqati" (Lex Salika) hisoblanadi. "Sali xakikati" yozilgan payt (500-yillar).

VI asrda frank-larda mulkiy tabaqalanish kuchayib, jamoachi franklar orasida xam qaram kishilar paydo bo'lgan. Prekariy ("iltimosga binoan berilgan er"). Mayordom (lotincha major domus-uyning kattasi).

VI-VII asrlarda franklarda feodal munosabatlar jadallik bilan shakllangan. VII asrda qirollik ucnta mustaqil siyosiy birlashmasiga parchalangan: Neystriya, Avstraziya, Burgundiya. Davlat boshkaruvi tartiblarini Franklar Rim imperiyasidan kabul xshgganlar. Frank kirolligida VI-VII asrlarda uziga xos ijtimoiy-iktisodiy munosabatlar shakllangan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M,, Vыsshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O'rta asrlar tarixi. o'quv metodik qo'llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O'rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O'qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O'.Salimov. Toshkent., "Universitet", 2014.

## 4-Mavzu: Karolinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi.

**Reja:**

1.Sulola almashinuvi. Tashqi istilolar asoslari. Saksoniyaga yurishlar.
2. Karlning slavyanlar, avarlar va bavarlarga hamda italiya va ispaniyaga yurishlari.
3. Davlat boshqaruvi, sud va harbiy sohadagi islohotlar
4.Yer egaligi jarayonlarining taraqqiyoti hamda Karolinglar imperiyasining taraqqiyoti.

**E'tibor bering:**

Ijtimoiy toifalar: edelinglar - zodagonlar, frilinglar - erkin jamoa a'zolari va yarim ozod litglar,

Karl Martell (715-741-yy) arablarni 732 - yilda Puat'ye jangida mag'lub etgan. Pipin III Pakana (741-768-yy) dastlab mayordom, keyin 751 - yilda qirol bo'lgan. Pipin Rim papasi Stefan II ga Rim viloyatini sovg'a qilgan.Buyuk Karl (768-814-yy) hukmronlik qilgan. 772 - 804 - yillarda sakslarga qarshi urush olib borgan. Buyuk Karl markazlashgan davlat barpo etishga harakat qilgan.Palasiy (qirol saroyi) boshqaruv markazi bo'lgan. Buyuk Karl farmonlari kapitulyariylar deb atalgan. Buyuk Karl davrida fan va ta'lim tizimiga asos solingan. 843-yilda Verden shahrida imperiya uchta qirollikka bo'linib ketgan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M,, Vыsshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O'rta asrlar tarixi. o'quv metodik qo'llanma. T., Uchpedgiz. 1991.

5.O‘rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O‘qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O‘.Salimov. Toshkent., "Universitet", 2014.

## 5-Mavzu: IX- XI asrlarda Fransiya va Angliya

**Reja:**

1. Buyuk Karl imperiyasining parchalanishi va ozaro urushlarning avj olishi.
2. Yer egaligi munosabatlarining o'ziga xosligi hamda davlat tuzumi.
3. So'nggi Karolinglar. Normandlar istilosi. Kapetinglar sululasining idora qila boshlanishi.
4. Mamalakatni birlashtirishtirilishi. Vikinglar hujumlari.
5. Alfred Buyukning idora qilishi. Mamalakatning siyosiy birlashuvi.
6. .Yer egaligi munosabatlarining o'rnatilishi va feodallashuv jarayoni.
7. Knut darskiy va Eduard Ispovedniklar davrida angliya.

**E'tibor bering:**

X asrdan boshlab mamlakat poytahti Parij shahriga ko'chirilgan. IX asrning ohirlarida Fransiyaga normannlarni hujumlari avj olgan. X asr boshlarida Normandiya gersogligi vujudga kelgan. 987 - yilda Gyugo Kapet Kapetinglar sulolasi hukmronligini boshlab bergan. Bu sulola XII - XIII asrlarda Fransiyani markazlashgan davlatga aylantirishga muvaffaq bo'lgan. IX - XI asrlarda Fransiyada feodal yer egaligi muno-sabatlari to'liq qaror topgan. X - XI asrlarda mamlakatda xalq qo'zg'o-lonlari avj olgan.

IX asrdan boshlab, Britaniya orollariga daniyaliklar va norveglarni hujumlari boshlangan. Bu hujumlar 300 yildan ortiq davom etgan. Ja-moachi erkin dehqonlar - kerllar gaydalarga (katta yerlar) egalik qilgan-lar. Shunigdek, erllar - urug'ning obro'li kishilari, gezitlar - qirolning drujinachilari, uili va le'ti nomli qul va yarim ozod kishilari tabaqalari ham mavjud bo'lgan. IX asrda skir yoki shayri - grafliklar - yirik hudu-diy muassasalar vujudga kelgan. X - XI asrlarda mamlakatda yirik yer mulklar - manorlar vujudga kelgan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M„ Vысshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O‘rta asrlar tarixi. o‘quv metodik qo‘llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O‘rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O‘qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O‘.Salimov. Toshkent., "Universitet", 2014.

## 6-Mavzu: IX – XI asrlarda Itaiya va Ispaniya

**Reja:**

1. Malakatdagi siyosiy vaziyat va italiaya xalqining shakllanana boshlanishi.
2. Italiya yer egaligi jamiyatining o'ziga hosliklari, libelliyarlar shartnomasi va emfitevzis.
3. Otton I ning Italiya yurishi va imperiyaning qayta tiklanishi.
4. Arablar istilosi. Musulmonlar Ispaniyasi.
5. Ispan-xristian davlatlarining paydo bo'lishi. Rekonkista.
6. Asturiya-Leon qirolligi.
7. Kataloniya, Navarra va Aragon qirolliklari.

**E'tibor bering:**

O'rta asrlar davrida Italiya yagona davlat emas edi. IX – XI asr-lardayoq Italiyada Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ertaroq feodal shaharlar vujudga kela boshlagan. Venetsiya, Piza, Amalfi, Bari va Ge-nuya VIII–IX asrlardayoq xalqaro savdo bilan shug'ullana boshlagan. IX asrdan boshlab, shaharlar sen'orlarga qarshi keskin kurash bosh-laganlar. 962-

yilda Otton I Rimni egallab, Muqaddas Rim imperiyasiga asos solgan. XI asrdan boshlab, o'zini - o'zi boshqaradigan – shahar Kommunalari vujudga kelgan.

929-yilda amir Abdurahmon III arablar Ispaniyasini to'liq mustaqil davlatga aylantira olgan. XI asr o'rtalariga kelib, bir qator tayflar (mus-taqil knyazliklar) vujudga kelgan. Musulmonlat hukmronligi davrida Ispaniya har tomonlama gullab yashnagan. Qurdoba, Sevilya, Toledo-ning diniy va dunyoviy o'quv yurtlarida huquqshunoslik, falsafa, tarix va boshqa fanlar o'qitilgan. Rekonkista - qayta kurashib olish. Rekon-kista birinchi marotaba Asturiyada boshlangan va qariyb 8 asr davom etgan. X – XI asrlarda Ispaniya siyosiy haritasida muhim o'zgarishlar yuz bergan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M,, Vыsshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O'rta asrlar tarixi. o'quv metodik qo'llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O'rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O'qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O'.Salimov. Toshkent., "Universitet", 2014.

## 7-Mavzu: IX –XI asrlarda Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi va tashqi siyosati.

**Reja:**

1. Germaniyada XI asr boshlaridagi ishtimoiy tuzum va Vorms konkordati.
2. Fridrix I Barbarossa davrida Germaniya va Gogenshtaufenlar va Velflar kurashi.
3. XIII –XIV asrlardagi iqtisodiy taraqqiyot va shaxarlar ittifoqlari.
4. Gabsburglarning hokimiyatga kelishi va ichki siyosiy kurashning kuchayishi.
4. "Oltin bulla". Imperiya va knyazlar XIV asrda. XV asr va Siyosiy tanazzul.

**E'tibor bering:**

Reyn daryosi bo'yidagi Kyoln, Vorms, Mayn daryosi bo'yidagi Frankfurt, Dunay bo'ylaridagi Ulm, Nyurenberg, Augsburg shaharlari yirik hunarmandchilik va savdo - sotiq markazlariga aylanganlar. Ger-maniya shaharlari Fransiya, Nidrlandiya, Italiya, Vengriya, Bolqon yarim orolidagi mamlakatlar bilan savdo qilar edi. Movut, surp, metal buyumlar, qurol-aslahalar chet ellarda mashhur edi. 1138-1254-yillarda Shtaufenlar sulolasi boshqarganlar. Fridrix I Barbarossa (1152-1190-yy) Italiya shaharlariga yurishlar uyushtirgan. Rim papasi Innokentiy III Germaniya siyosatiga juda katta e'tibor qaratgan. Fridrix II g'alati imperator, jahon hayrati nomlari bilan mashhur bo'lgan. Sitsiliyada yashagan, sharq hukmdorlariga taqlid qilgan. Qushlar bilan ov qilish asarining muallifi, Neapol universitetining asoschisi. Rim papasi bilan kurash olib borgan. 1228-yilda Suriyaga yo'l olgan. Tinchlik yo'li bilan Quddus, Viffleym, Nazaret shaharlarini qo'lga kiritgan. 1254-1273-yilarad Germaniyada imperatorlar bo'lmagan. 1273-yilda Gabsburglar taxtga chiqib, 1437-yildan to'liq egallab, 369 yil imperatorlik qilishgan. XIV asr o'rtalarida Ganza shaharlar ittifoqi (70 ta shahar), Shvabiya shaharlar ittifoqi (90 ta shahar) vujudga kelgan. Augsburg, Ulm, Nyurnberg shaharlarida movut, ip gazlama, surp, metal buyumlar, qurol – asla-halar ishlab chiqarish markazi bo'lgan. Kyoln, Vorms, Strasburg shaharlari metal va movut ishlab chiqa-rish markazlariga aylangan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2. Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001

3. Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M„ Vыsshaya shkola. 2001.
4. Kurbangalieva R.R. O‘rta asrlar tarixi. o‘quv metodik qo‘llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O‘rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O‘qituvchi. 1973.
6. Jahon tarixi (Evropa mamlakatlariV-XV asrlarda) T.O‘.Salimov. Toshkent., “Universitet”, 2014.

## 8- Mavzu: Shimoliy Yevropa mamlakatlari.

**Reja:**

1. Shimoliy Yevropada “ vikinglar davri”. Vikinglar bosqini IX-X asrning birinchi yarmida.
2. Islandiyani egallanishi. Amerikaning kashf etilishi.
3. Vikinglar X asrning oxiri – XI asrning birinchi yarmida. Vikinglar yurishlari xususiyatlari.
4. Skandinavlarning ilk orta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tuzumlari.

IX – X asrlarda Shimoliy Yevropa mamlakatlari tarixi Vikinglar davri. Dastlab ichki kolonizatsiya, keyinchalik tashqi kolonizatsiya boshlangan. IX asrda vikinglar Shimoliy Germaniya, Fransiya, Angliya hududlarini talon taroj qilganlar. Dastlabki feodal munosabatlar Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada XII – XIII asrlarda vujudga kelgan. Skan-dinaviya mamlakatlari aholisini asosiy qismini – bondlar (erkin kishi-lar) tashkil etgan.

**Asosiy adabiyotlar:**

1.Rojer B. Beck. Linda Black. Larri S. Krieger. Fhilip S. Naylor. Dahio ibo Shabaka. World history patterns of interaction. Mc Dougle Little. USA. 2009.
2.Istoriya srednix vekov. Pod red. S.P.Karpova, chast II M. MGU. 2001
3.Istoriya srednix vekov Pod. red. G.V.Udalsovoy i C.P.Karpova. 1-2 ch. M„ Vыsshaya shkola. 2001.
4.Kurbangalieva R.R. O‘rta asrlar tarixi. o‘quv metodik qo‘llanma. T., Uchpedgiz. 1991.
5.O‘rta asrlar tarixi. V.I.Semyonov. T., O‘qituvchi. 1973.
"Mengu", "Mengu-mo", "Mengu-va" shaklidagi "mo'g'ul" etnonimi - birinchi bo'lib Tan sulolasi xitoy yilnomalarida uchraydi. 1206 yildan boshlab dastlab imperatorlik tendentsiyasiga ega bo'lgan Mo'g'ul davlatining tarixi boshlanadi. *K*o'chmanchi dvoryanlar o'z xalqlarini talash bilan yashagan va qo'shni xalqlar. Shunday qilib, talonchilik, birinchi navbatda mo'g'ul bo'lmagan xalqlar, dvoryanlar uchun boyitishning asosiy manbai va mo'g'ullar istilosining asosiy sababi hisoblanadi. Buyuk Xitoy devoridan Vengriya chegarasigacha.O'tloq-dasht makoni; Chingizxon oldida zodagonlarni ayirmachilik tendentsiyalaridan chalg'itish va yaratilgan imperiyani tez parchalanishdan saqlash vazifasi turibdi. Bunga Yevrosiyoni talash orqali erishish mumkin edi. Mo'g'ul davlati sharoitida yomonlashayotgan vaziyatdan omma e'tiborini chalg'itish zarur edi. Shimoliy Xitoy (1211-1234) va O'rta Osiyo mo'g'ullar ekspansiyasi kuchayib borayotgan paytda eng ko'p zarar ko'rdi.1233 yilga kelib Eron bosib olindi va shu vaqtning o'zida Osiyoning boshqa uchida, 1236 yil - Kavkazni bosib olish yakunlandi; 1256 - mo'g'ullar Eronga qayta bostirib kirdilar va O'rta Osiyo vodiylari cho'lga aylandi; 1258 yil - Abbosiylar xalifaligi qulab, Bag'dod olindi, er yuzidagi eng katta shahar bo'lib, u ham "umumiy qirg'in" ga uchradi

**10- seminar mashg`uloti. XI-Xv asrlarda Eron .**

Buvayxiylar davlati (932-1062)- bu davlat shialar uyushmasidan iborat bo'lgan bo'lib 1055 yili Saljuqiylar tomonidan taxtdan ag'darilgan. 1062 yili buvayxiylarning so'nggi mulki ham qo'ldan ketgan. Erondagi ismoiliylar davlati (1090- 1256)- markazi Qazvin yaqinidagi Alamut (Burgut uyasi) bo'lgan Erondagi Elbrus tog'larida yashovovchi shiaparast gurux.Salg'uriylar (1148- 1282 ) Forsda xkumronlik qilgan sulola bo'lib uni tuzishda turkmanlarning solg'ur qabilasiga mansub Sungur ibn Mavdud asos solgan.

Xulakuylar (Elxoniylar ) sulolasi- (1256-1353)- davlati. Poytaxti Mog'ora, Tabriz,

Sultoniya, Tabriz shaxarlari. Xududi Eron, Ozarbayjon, Kavkazoldi, Iroqi Ajam, Kichik Osiyo xudulari kirgan.Muzfffariylar sulolasi (1314-1393) Fors,Kirmon va Isfaxon viloyatlarini boshqargan bo'lib poytaxti SHeroz bo'lgan.

Jaloyiriylar davlati Iroqda mustaxam o'rnashgan jdavlat bo'lib amir Hasan Buzrug 1340 yilin o'zigi sulton deb ataydi va jaliyiriylar sulolasiga asos soladi (1340-1410).

Sarbadorlar xarakati 1337-381 yillar. Asoschisi mozandaronlik shayx Xalifa bo'lgan. G'arbiy Xurosondagi Bayxaq mintaqasida sabzavorga kelib jome masjidda o'z ta'limotini tarqata boshlaydi.

**11- seminar mashg`uloti. XI – XV asrlarda Turkiyaning siyosiy rivojlanishi va tashqi siyosati.**

Saljuqiylar davlati 1038-1308-yillarda mavjud bo'lgan. Parchalanib ketgan Saljuqiylar davlatida ko'plab beyliklar tashkil topadi. Usmon (1258-1326-yillar) bir necha harbiy yurishlar qilib, yangi davlat barpo etgan. O'rxon (1326-1361-yillar) Vizantiyaning Nikeya, Nikomedeya shaharlarini istilo qilib, Qora dengiz qirg'oqlariga chiqdi. Usmoniy turklarning dastlabki bosqinlari 1353-1357-yillarda boshlandi. Us-moniylar davlatini imperiyaga aylantirish borasida Boyazidning harakati Konstantinopolning qamal qilinishi bilan yakunlandi. 1453-yilning erta bahorida sulton Mehmet II (1451-1481-yillar) Konstan-tinopol qamaliga 100 minglik qo'shin to'pladi va Konstantinopolni zabt etgan. Usmoniy turklar hukm-ronligining asosiy tayanchi uch narsadan iborat bo'lgan: an'anaviy kuchli otliq qo'shin, yanicharlardan iborat jangovar piyoda askarlar va, nihoyat, yuksak shaxsiy xususiyat va fazilatlarga ega sultonlarning bo'lishi. Tumori yeri merosiy bo'lmasdan, faqat turklarga berilishi mumkin edi. XV asrdan urush asosiy yumushiga aylangan turklarda 130 ming otliq qo'shin mavjud edi. Usmoniylar sultoni Yevropadagi eng sara piyodalar qo'shiniga ham ega edi. Turk harbiy boshliqlari XIV asr o'rtalaridan urushda asir olingan sog'lom yosh o'g'il bolalarni tanlab sultonga sovg'a qilishardi. Bu xristian bolalar 20 yoshigacha maxsus tarbiya olib, mohir jangchiga aylanishgan. Keyinchalik o'z dinini, tilini unutgan yigitlar sultonning alohida maxsus lashkariga kiritilgan. Turk sultoni shu yanicharlar bilangina urushga kirardi.

**12- seminar mashg`uloti. XI – XV asrlarda Hindiston va Xitoy davlatlari.**

Dehli sultonligi tasgkil topishi va yer egaligi.Tug'luqiylar va Guriylar davrida Dexli sultonligi. Dehli sultonligi XIV-XV asrlarda. Markaziy va janubiy Hindistinni egallanishi. Xitoy Sun sulolasi davrida. Yer egaligi va soliq tizimi. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot. Xitoy Min sulolasi davrida.

**13- seminar mashg`uloti. Koreya XI – XVI asrlarda.**

O'rta asrlarning taraqqiy etgan davrida koreys xalqi Xitoy va Yaponiya davlatlarining bosqinchilik yurishlariga qarshi milliy ozodlik kurash olib borishga majbur bo'lganlar. Lashkarboshi Van Gon tomoni-dan Koryo sulolasi (918-1392-yy) ga asos solingan. Ushbu davlat poytaxti hozirgi Sonak shahri (hozirgi Shimoliy Koreyadagi Keson shahri) bo'lgan. Koreya nomi Koryo nomidan kelib chiqqan. Van Gon o'z oldiga Koguryo qirolligining shimoliy-sharqiy Xitoyda yo'qotgan hududlarini qaytarib olish vazifasini qo'yadi. Biroq ushbu vazifa amalga oshirilmay qolgan. Keyingi yillarda Koreya qirolligi o'zaro ichki ku-rashlar va taxt uchun kurashlar natijasida har tomonlama zaiflashib qolgan. Bundan foydalangan mu-g'ullar 1231-yilda Koryo qirolligini bosib olganlar. Mug'ullar hukmronligi 1368-yilgacha davom etgan. Mug'ullar hukmronligi davrida Koreya yarim orolining ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti juda ham orqaga ketgan. Koryo qirolligi Xitoy istilochilarini mamlakat hududidan haydab chiqarilgach, Koryo harbiy sarkardalaridan biri Li Son Ge 1392-yilda so'nggi Koryo sulolasi hukmdorini taxtdan ag'darib, yangi Li sulolasiga asos solindi. Uning davrida mamlakat yana avvalgi nomi bilan Choson deb atala boshlangan.

Davlat poytaxti Kegyon shahridan Xanson (hozirgi Seul shahriga) shahriga ko'chirilgan. Choson qirolligi XV asr o'rtalarida iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. 1592-1598-yillarda yaponiya Koreya hududi-ga bostirib kirgan. Li Sun Sin yapon flotini tor-mor qilgan. 1593-yilda Xitoyning 50 000 qo'shini yorda-mida Pxenyan va Seul yaponlardan ozod qilingan. 1627-yilda manchjurlar Koreyaga bostirib kirganlar. Koreya hukumati Kanxva oroliga qochib ketgan. 1637-yilda Koreya to'liq manchjurlar tomonidan bosib olingan.

**14- seminar mashg`uloti. Rivojlangan feodalizm davrida Afrika mamlakatlari.**

Afrika qit'asi hududlarida tarqqiyot darajasi turli xil bo'lgan. Shimoliy, Sharqiy va G'arbiy Afrika hududlarida feodal monarxiya davlatlari vujudga kelgan. Markaziy, tropik va janubiy Afrika hududlarida urug'chilik tuzimida yashaydigan ko'plab qabilar yashar edilar. Ular qabila ittifoqlarini tashki letib, o'zaro urushlar olib borar edilar. Marokash sultoni Abu Bakr 1076-yilda Ganani bosib olgan. Mali aholisi XI srda islom dinini qabul qilgan. XIII asrda Mali o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan. Sundiata Keyt muntazam qo'shin tuzgan va markazlashgan davlat barpo etgan. Muso I 1324-yilda Makkaga hak safarini uyushtirgan. Uning afsonaviy boyliklari to'g'risida butun Yevropada shov shuv bo'lgan. XIV asrda Mali zaiflashgan va XV asrda to'la inqirozga yuz tutgan. XIV asr ohirida songailar hukmdori Almiga poytahti Gao bo'lgan Songayi davlatiga asos solgan. Songayi davlati XIV-XVasrlarda nihoyatda kuchaygan. XVI asrga kelib ichki kurashlar va boshqa qabilalarning hu-jumlari natijasida inqirozga yuz tutgan.

XVI asrning oxirlariga qadar Portugaliya G'arbiy Afrikada mavjud bo'lgan yagona mustamlakachi davlat edi. Portugallar Senegal va Gambiya daryolari orqali qit'aning ichiga kirib borishdi, ular 1534 yilda Mali, 1565 yilda esa Tombukgu hududlariga yetib kelishdi. Portugallarning asosiy e'tibori quyi Gvineyaga qaratilgan edi. Ular bu xududni 4 qismga bo'lishdi va ularni: Ziravorlar qirg'og'i, Fil suyagi qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Tutqunlar qirg'og'i. Portugaliyalik savdogarlar asosan Oltin qirg'oq va Fil suyagi qirg'og'ida faolroq xarakat qilishar edi. Ular Elminadan tashqari Aksim, Shame kabi fortlarni barpo qilishdi. Janubiy Nigeriya qirg'oqlari portugaliyaliklarni nixoyatda qiziqtirib qo'ydi. Kuchli Yoruba davlatlari portugaliyaliklarini ichkariga kirib borishga to'sqinlik qilishgan. Benin davlati portugal maxsulotlari evaziga oz miqdorda ziravor berishgan. Bu portugallarni 1486-yilda Gvato portida savdo punkti qurishga undadi, lekin bu port 1506-ylda tashlab ketildi, chunki u ko'p foyda bermas edi. Bundan tashqari portugal maxsulotlari beninliklarin qiziqtirmas edi. Fernando Po va San Tome orollariga o'rnash-gan portugallar orollarda plantatsiya xo'jaligini yo'lga qo'yishdi. Benin Niger va Janubiy Nigeriya bilan bo'lgan urushlarda asir tushganlarin portugallarga sotgan. Ular esa qullarni shakarqamish plantat-siyalarida ishlatishgan va Oltin qirg'oqda sotishgan. Portugallarning asosiy foyda olish Braziliyani kolonizatsiya qilinishidan boshlandi.

**15- seminar mashg`uloti. Buyuk geografik kashfiyotlar.**

Buyuk geografik kashfiyotlar XV - XVII asrlarda amalga oshirilgan. Xristofor Kolumb 1492-yil 12 - oktyabrda Bagama orollarini kasf etib, San Salvador nomi bilan atagan. Kolumb Amerika qit'asiga 4 marotaba ekspeditsiya uyushtirgan. 1519-1521-yillarda Ameriko Vespuchchi va Kabral birgalikda xozirgi Braziliya qirg'oqlarini kashf etdilar. 1497-1498-yillarda Vasko da Gama Hindistonning Kalikut shahriga yetib borgan va Hindistonga boradigan dengiz yo'lini kashf etgan. 1519-1522-yillarda Fernando Magellan 5 ta kema va 150 kishilik komandasi bilan dunyo bo'ylab birinchi sayohatni amalga oshirgan. Abel Tasmann va Georg Yanszonlar tomonidan Avstraliya, Yangi Zelandiya va Tinch okeanidagi bir qator orollarni kashf etganlar. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida jahon savdo tizimi vujudga klegan, Antverpen shahri jahon savdosi markaziga aylangan. Yangi kashf etilgan hududlar Yevropa mamlakatlari tomonidan mustamlakalarga aylantirilgan.

Yangi yerlar, o'simliklar, hayvonlarning yangi turlari kashf etilgan.

| III.2. SEMINAR MAVZULARINI TAQSIMLANISHI | | |
|---|---|---|
| **№** | **Mavzular** | **So ati** |
| **III- Semestr** | | |
| 1 | Tarix fanida feodal jamiyatining tavsifi. Yevropada feodalizmning tarixiy o'rni. | 2 |
| 2 | IV – V asrlarda Rim imperiyasi. Varvarlar tomonidan Rim imperiyasini bosib olinishi. | 2 |
| 3 | Merovinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi. | 2 |
| 4 | Karolinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi. | 2 |
| 5 | IX – XI asrlarda Angliya va Fransiya. | 2 |
| 6 | IX – XI asrlarda Itaiya va Ispaniya. | 2 |
| 7 | IX-XI asrlarda Germaniya (Muqaddas Rim imperiyasi | 2 |
| 8 | Shimoliy Yevropa davlatlari. | 2 |
| 9 | V-XI asrlarda Rim papaligi. | 2 |
| 10 | Vizantiya imperiyasi IV-XI asrlarda. | 2 |
| 11 | Ilk o'rta srlarda g'arbiy-janubiy slavyanlar. | 2 |
| 12 | Kiyev Rusi davlatining tashkil topishi. | 2 |
| 13 | Islomgacha bo'lgan davrda arabiston yarim oroli va arab xalifaligida madaniyat | 2 |
| 14 | Eron III-VIII asrlarda (Sososniylar davlati).( | 2 |
| 15 | V-XI asrlarda Hindiston va Xiyoy madaniyati | |
| | **Jami:** | **30** |
| **IV- Semestr** | | |
| 1 | Salib yurishlari va uning ijtimoiy- siyosiy oqibatlari. | 2 |
| 2 | Rivojlanga o'rta asrlarning husisiyatlari. | 2 |
| 3 | XI-XV asrlarda Fransiyaning ijtimoiy- istisodiy va siyosiy rivojlanishi. | 2 |
| 4 | Fransiyaning markazlashishi va General shatatning vujudga kelishi. | 2 |
| 5 | XI-XIII asrlarda Angliyaning feodallashish jarayoni. | 2 |
| 6 | XIV-XV asrlarda Angliya. | 2 |
| 7 | XI –XV asrlarda Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi va tashqi siyosati | 2 |
| 8 | XI – XV asrlarda Pireney yarim oroli davlatlari. Rekonkista | 2 |
| 9 | XII – XV asrlarda Mo'g'ullar imperiyasi. | 2 |
| 10 | XI-Xv asrlarda Eron | 2 |
| 11 | XI – XV asrlarda Turkiyaning siyosiy rivojlanishi va tashqi siyosati. | 2 |
| 12 | XI – XV asrlarda Hindiston va Xitoy davlatlari. | 2 |
| 13 | Koreya XI – XVI asrlarda. | 2 |
| 14 | Rivojlangan feodalizm davrida Afrika mamlakatlari | 2 |
| 15 | Buyuk geografik kashfiyotlar. | 2 |
| | Jami: | 30 |
| | **Umumiy soat:** | **60** |

## IV. Kurs ishi

60220300 –Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) – o'quv rejasida jahon tarixi fanida 2- kurslar uchun Kurs ishi ko'rsatilmagan.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar-bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayèrgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**III- Semestr uchun**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.Varvar qirolliklarining vujudga kelishi.
2.Sali haqiqatida franklarning ijtimoiy – iqtisodiy tuzumi.
3.Ziroatchilik qonunlari – ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar haqida muhim manba.
4.Rus haqiqatida ijtimoiy – iqtisodiy munosa-batlarning yoritilishi.
5.V-XI asrlarda katolik cherkovi.
6.Pravoslaviye mazhabining vujudga kelishi va tarqalishi.
7.Merovinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi.
8.Karolinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi.
9.Ummaviylar sulolasi hukmronligi davrida Arab halifaligi.
10.Abbosiylar sulolasi hukmronligi davrida Arab xalifaligi.
11.Yustininan I davrida Vizantiya imperiyasi.
12.Yaponiyada feodal munosabatlarning vujudga kleishi.
13.V-XI asrlarda Koreya.
14.VIII – XI asr boshlarida Afrika davlatlari.
15.Ilk o'rta asrlarda Indoneziya .
16.Ilk o'rta asrlarda Singal davlati.
17.Hindistonda Rajput podsholigining vujudga kelishi.
18.Sosoniylar imperiyasi va uning ijtimoiy tuzumi.
19.III – VIII asrlarda Namibiya.
20.Aksumning tashqi savdo va siyosiy aloqalari .
21.Xitoyda Konfusiy ta'limotining tarqalishi.
22.Shimoliy Yevropada vikinglar davri.
23.VI – VIII asrlarda Kambodja.
24.VIII – XII asrlarda Dekan davlati.
25.Ispaniyada arablar istilosi.
26.Angliya 30 yillik urushlar davrida.
27.Ispaniyada Rekonkista siyosati va uning yakunlanishi.
28.G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar shaharlarining tashkil torishi.
29.Salib yurishlari va uning oqibatlari.
30.Diniy ritsarlik ordenlarini tashkil etilishi.

**IV- Semestr uchun**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.XI-XV asrlarda shaharlar va hunarmandchilik sexlari.
2.G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ma'rifatli absolyutizm" tuzumi va amaliy ahamiyati.
3.XI-XV asrlarda Fransiya dehqonlarining ahvoli.
4.Jakeriya qo'zg'oloni.
5.Yuz yillik urush.
6.Kaboshenlar qo'zg'oloni.
7.Janna d'Ark Fransiya milliy qaxramoni.
8.Fransiya absolyuytizmining hususiyati.
9.Angliyada siyosiy kurash.
10.Erkinliklarning buyuk hartiyasi.
11.Dahshatli sud kitobi.
12.Uot Tayler qo'zg'oloni.
13.Yan Gusning diniy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari.
14.Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi.
15.Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.
16.XVI – XVII asrda Katolik cherkovi.
17.Martin Lyuter ta'limoti.
18.Erazm Rotterdamskiy.
19.Utreht va Arras uniyasi.
20.G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi .
21.Tomas Myuntser ta`limoti.
22. Xalokuylar sulolasi davrida Eron.
23.Sulaymon I hukmronligi davrida Turkiya.
24.Min sulolasi davrida Xitoy.
25.Mug'ullarning ijtimoiy –iqtisodiy tuzumi.
26.Koreya –XI-XV asrlarda.
27.Koryo qorolligi.
28.Daniya XI-XV asrlarda.
29.Shvesiya XI-XV asrlarda.
30.Norvegiya XI-XV asrlarda.

***Izoh:*** Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg'ulot uchun ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro'yxati shakllantiriladi.Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- jahon tarixi davrining xususiyatlar, xunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, feodal shaharlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, tovarpul munosabatlari, feodal jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diniy haètidagi o'zgarishlar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;

- feodal jamiyatning rivojlanib, o‘zining eng xususiyatlarini yo‘qotishi va o‘z o‘rnini yangi iqtisodiy munosabatlarga bo‘shatib berishi, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishini to‘g‘ri tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

- jahon tarixining (ilk va so‘nggi o‘rta asrlar, Osiyo va Afrika, Evropa va Amerika davlatlari) turli davrlarida ro‘y bergan ishlab chiqarishning yangi ilg‘or munosabatlariga o‘tish uchun bevosita shart-sharoit vujudga kelganini tahlil qilish, yangi ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan xalq ommasining eski feodal tuzumdan noroziligi, milliy-ozodlik harakati, Evropa miqèsida birinchi marta g‘alaba qilgan burjua inqilobi, yangi davlatlarning tashkil topishi, rivojlanishi, Evropa xalqlarining yangi davrga o‘ta boshlashi. Jahon mamalakatlri eng yangi davrda. industrial va postindustrial davlatlar va jamiyatning tashkil topishi. Informatsion-texnologik yutuklar. Ilm- fan rivojlanishi. Globalashuv jaraènlar va ommaviy madaniyat. Ekologik muammolar.Ilm-fanning rivojlanishi. Jamiyat taraqqièti bosqichlari jaraèni malakalariga ega bo‘lishi kerak.

## VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo’yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo’yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo’llaniladi. Nazorat turlari bo’yicha baholash: 5 – “a’lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o’quv semestrida bir marta yozma ish shaklida o’tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg’ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo’yicha baholanib boriladi va o’rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg’ulot hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarini o’z vaqtida, to’laqonli bajarganligi, mashg’ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

SHuningdek, amaliy (seminar) mashg’ulot va mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo’yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o’rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o’rtachalanadi**.

O’tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo’yicha yozma ish shaklida o’tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil

mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a’lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

**Joriy, oraliq va yakuniy nazorat ballari quyidagicha taqsimlanadi:**

<table>
<tr><td>Topshiriq</td><td>Maksimal ball</td><td></td></tr>
<tr><td colspan="3">I QISM</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 1 (referat)</td><td>10</td><td rowspan="5">Joriy nazorat bo’yicha maksimal 30 ball</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 2 (esse)</td><td>10</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 4 (lug`at-ma’lumotnoma)</td><td>10</td></tr>
<tr><td>Davomat bo’yicha maksimal ball</td><td>5</td></tr>
<tr><td>Oraliq nazorat bo’yicha maksimal ball</td><td>15</td></tr>
<tr><td>Yakuniy nazorat bo’yicha maksimal ball</td><td colspan="2">50</td></tr>
<tr><td>Jami:</td><td colspan="2">100</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td>100 ball</td></tr>
</table>

<table>
<tr><td>Topshiriq</td><td>Maksimal ball</td><td></td></tr>
<tr><td colspan="3">II QISM</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 1 (referat)</td><td>10</td><td rowspan="5">Joriy nazorat bo’yicha maksimal 30 ball</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 2 (esse)</td><td>10</td></tr>
<tr><td>Topshiriq 4 (lug`at-ma’lumotnoma)</td><td>10</td></tr>
<tr><td>Davomat bo’yicha maksimal ball</td><td>5</td></tr>
<tr><td>Oraliq nazorat bo’yicha maksimal ball</td><td>15</td></tr>
<tr><td>Yakuniy nazorat bo’yicha maksimal ball</td><td colspan="2">50</td></tr>
<tr><td>Jami:</td><td colspan="2">100</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td>100 ball</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | |
| **Asosiy adabiyotlar:** | |
| 1 | Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka " World history: patterns of interaction". McDougle Little, USA, 2009 |
| 2 | История средних веков. Под ред. С.П.Карпова. часть II М. МГУ. 2001 |
| 3 | История средних веков Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова. 1-2 ч. М., Высшая школа. 1991. |
| 4 | Курбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. ўқув методик қўлланма. Т., Учпедгиз. 1991 |
| 5 | Salimov. T. Jahon tarixi . O‘TM talabalari uchun darslik. T.2014 |
| 6 | Семёнов.В.Ф. Ўрта сардар тарихи. Педагогик институтлари учун. Т., “Ўқитувчи”, 1969. |
| **Qo‘shimcha adabiyotlar:** | |
| 1 | Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. Т.: “Ўзбекистон”. 2017. |
| 2 | Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”. 2017. |
| 3 | Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қўрамиз. Т.: “Ўзбекистон”. 2017. |
| 4 | Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Т.: “Ўзбекистон”. 2016. |
| 5 | История средних веков. Под ред. З.В.Удальцовой. часть 1-2. М. Высшая школа. 1991. |
| 6 | История стран Азии и Африки в средние века. М., 1988. |
| 7 | Донини Л. У истоках хрстианство. М., 1979 |
| 8 | Средневековое городское право XII-XIII вв. Саратов. 1989. |
| 9 | Городская жизнь в Средневековой Европе. М., 1987. |
| 10 | Левицкий Я.А. Город и феодализм в Англии. М., 1987 |
| 11 | Левицкий Я.А. Город и феодализм в Англии. М., 1987. |
| 12 | Заборов М.А. Крестоносцқ на Востоке. М., 1980. |
| 13 | Бессмертный Ю.Л. Феодальная деревня и рынок в Западной Европе XII-XIII вв. М., 1969. |
| 14 | Германия в эпохи Реформации и Великой крестьянской воинқ. М., 1962 |
| 15 | Ггригулевич И.Р. Инквизиция. 3-е изд. М., 1985 |

| | |
|---|---|
| 16 | Чистозванова А.Н. Нидерландская буржуазная революция XVI века. М., 1984 |
| 17 | Дмитриева О.В. Елизавета I. М., 1998. |
| 18 | Тридцатилетняя война. Л., 1961. |
| 19 | История средних веков. Часть II. М., МГУ. 2002. |
| 20 | История средних веков. Часть I. М., МГУ. 2000. |
| **Internet saytlari:** | |
| 1 | www.ziyonet.uz |
| 2 | http: // history.hanover,edu/texts.htm |
| 3 | http: // english www. hss. cmu. edu/history |
| 4 | 4http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml |


| | |
|---|---|
| 1 | Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020-yil 29-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 29-avgustdagi 452-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.<br><br>Fanning ishchi o'quv dasturi Tarix kafedrasining 2021-yil 26- avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.<br>Fanning ishchi o'quv dastiri Ijtimoiy fanlar fakul'tetining 2021-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.<br>Fanning ishchi o'quv dasturi NamDU O'quv-uslubiy Kengashining 2021-yil 27-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 2 | **Fan modul'i uchun ma'sullar:**<br>Rejabboyev N. A. – Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yich falsafa doktori, PhD. |
| 3 | **Taqrizchilar:**<br>Erqo'ziyev A. A. – NamDU, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.<br>Mansurov U. U. – NamDU, Arxivshunoslik kafedrasi dotsenti, PhD. |

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar-bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayèrgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**III- Semestr uchun**
**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.Varvar qirolliklarining vujudga kelishi. (2 soat)
2.Sali haqiqatida franklarning ijtimoiy – iqtisodiy tuzumi. (2 soat)
3.Ziroatchilik qonunlari – ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar haqida muhim manba. (2 soat)
4.Rus haqiqatida ijtimoiy – iqtisodiy munosa-batlarning yoritilishi. (2 soat)
5.V-XI asrlarda katolik cherkovi(2 soat)
6.Pravoslaviye mazhabining vujudga kelishi va tarqalishi(2 soat)
7.Merovinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi(2 soat)
8.Karolinglar sulolasi hukmronligi davrida Franklar qirolligi(2 soat)
9.Ummaviylar sulolasi hukmronligi davrida Arab halifaligi(2 soat)
10.Abbosiylar sulolasi hukmronligi davrida Arab xalifaligi(2 soat)
11.Yustininan I davrida Vizantiya imperiyasi(2 soat)
12.Yaponiyada feodal munosabatlarning vujudga kleishi(2 soat)
13.V-XI asrlarda Koreya(2 soat)
14.VIII – XI asr boshlarida Afrika davlatlari(2 soat)
15.Ilk o'rta asrlarda Indoneziya (2 soat)
16.Ilk o'rta asrlarda Singal davlati(2 soat)
17.Hindistonda Rajput podsholigining vujudga kelishi(2 soat)
18.Sosoniylar imperiyasi va uning ijtimoiy tuzumi(2 soat)
19.III – VIII asrlarda Namibiya(2 soat)
20.Aksumning tashqi savdo va siyosiy aloqalari (2 soat)
21.Xitoyda Konfusiy ta'limotining tarqalishi(2 soat)
22.Shimoliy Yevropada vikinglar davri(2 soat)
23.VI – VIII asrlarda Kambodja(2 soat)
24.VIII – XII asrlarda Dekan davlati(2 soat)
25.Ispaniyada arablar istilosi(2 soat)
26.Angliya 30 yillik urushlar davrida(2 soat)
27.Ispaniyada Rekonkista siyosati va uning yakunlanishi(2 soat)
28.G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar shaharlarining tashkil torishi(2 soat)
29.Salib yurishlari va uning oqibatlari(2 soat)
30.Diniy ritsarlik ordenlarini tashkil etilishi(2 soat)

**IV- Semestr uchun**
**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.XI-XV asrlarda shaharlar va hunarmandchilik sexlari(2 soat)
2.G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ma'rifatli absolyutizm" tuzumi va amaliy ahamiyati(2 soat)
3.XI-XV asrlarda Fransiya dehqonlarining ahvoli(2 soat)
4.Jakeriya qo'zg'oloni(2 soat)
5.Yuz yillik urush(2 soat)
6.Kaboshenlar qo'zg'oloni(2 soat)
7.Janna d'Ark Fransiya milliy qaxramoni(2 soat)

8.Fransiya absolyuytizmining hususiyati(2 soat)
9.Angliyada siyosiy kurash(2 soat)
10.Erkinliklarning buyuk hartiyasi(2 soat)
11.Dahshatli sud kitobi(2 soat)
12.Uot Tayler qo'zg'oloni(2 soat)
13.Yan Gusning diniy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari(2 soat)
14.Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi(2 soat)
15.Saljuqiylar davlatining tashkil topishi(2 soat)
16.XVI – XVII asrda Katolik cherkovi(2 soat)
17.Martin Lyuter ta'limoti(2 soat)
18.Erazm Rotterdamskiy(2 soat)
19.Utreht va Arras uniyasi(2 soat)
20.G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi (2 soat)
21.Tomas Myuntser ta`limoti. (2 soat)
22. Xalokuylar sulolasi davrida Eron(2 soat)
23.Sulaymon I hukmronligi davrida Turkiya (2 soat)
24.Min sulolasi davrida Xitoy(2 soat)
25.Mug'ullarning ijtimoiy –iqtisodiy tuzumi(2 soat)
26.Koreya –XI-XV asrlarda(2 soat)
27.Koryo qorolligi(2 soat)
28.Daniya XI-XV asrlarda(2 soat)
29.Shvesiya XI-XV asrlarda(2 soat)
30.Norvegiya XI-XV asrlarda(2 soat)

## XRONOLOGIYA

1. **“DANGASA QIROLLAR”** – 639-751-yillarda merovinglardan bo’lgan so’nggi frank qirollari laqabi,faqat nomigagina davlatni boshqarishgan,real hokimyat mayordomlar qo’lida bo’lgan.Bu davr 639-yildan,qirol Dagobert I o’limidan so’ng boshlangan. **DEDICHI** (chex) – XI-XV asrlarda ota – bobosidan meros qilib yer olgan chex dehqoni.Dastlab erkin hisoblangan Dedichilar asta – sekin feodallarga qaram bo’la borganlar, shunga qaramay,yerga egalikni saqlab qolganlar.
2. **“ORIQ XALQ”** (ital..popolo minuto) – XIII-XVasrlarda italyan shahar-kommunalarida shahar kambag’allari qatlami. Florensiyada XIII asr o’rtalaridan kichik sex a’zolari, XIV asrning 1-yarmida sexga mansub bo’lmagan ishchilarga nisbatan qo’llanilgan. XIV asrning 2-yarmidan,asosan, chompi “oriq xalq” deb atalgan.
3. **“SEMIZ XALQ”, “SEMIZ POLAPONLAR”** (ital.. popolo grasso) – o’rta asrlar Italiya shaharlarida shaharliklarning badavlat tabaqasi. Atama XIII-XV asrlardagi popolanlar harakati kontekstida qo’llaniladi.
4. **“YANGI DVORYANLIK”** (ingl. new nobility) – XVI-XVII asrlarda ingliz dvoryanlari toifasi. Qishloq xo’jaligi bilan birgalikda savdo-sotiq va tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishgan.
5. **ABBAT** ( lot.abbas, oromiy tilida abo – ota) – katolik cherkovida faxriy unvon, V asrdan boshlab faqat erkaklar monastirlari raxbarlariga berilgan va cherkov mansabdori unvoni hisoblangan. Ayollar monastirlari rahbari abbatsissa deyilgan.
6. **ABBATLIK** (lot)-monastirlar tasarrufidagi mol-mulkni boshqaruvchi abbat nomidan olingan.Asosan Fransiya va G’arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida erkak monaxlar monastiri.
7. **ADMIRAL** (arab. Amir ul – baxr - dengiz hukmdori, hokimi) – harbiy dengiz floti qo’mondonlariga beriladigan harbiy unvon.
8. **AGIOGRAFIYA-** Cherkov adabiyoti ko`rinishlaridan biri , avliyolarning tarjimai holiga bag`ishlangan asarlar. Xristian A.si avliyolarning tarjimai hollarini yaratishda antik mifologiyadan, Bibliya rivoyatlaridan , xalq afsonalaridan keng foydalangan . Shuning uchun xristian avliyolarining biografiyasi xudolarga o`xshaydi . Rus tarixchisi O. Klyuchevskiy rivoyatlarda hayoti bayon etilgan barcha shaxslar kitobxon nazarida yagona obrazga o``xshab ketishini qayd etib , qad, va keyingi rivoyatlarda o`sha bitta muayyan agiografik tip muttasil takrorlanaveradi, degan xulosaga keladi .
9. **AJAM** (arab. – arab emas) – arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon va Eron ham “Mulki Ajam” deb yuritilgan.
10. **AL`BILIKLAR-** XII-XIII-asrlarda Fransiya, Italiya va Germaniyadagi o`rta asr shaharlarining rivojlanishiga to`sqinlik qilgan katolik cherkoviga qarshi bid`atchilik harakatining izdoshlari. Harakatning markazlaridan biri Al`bi shahri bo`lgan. A.xudoning uch shaxsda namoyon bo`lishi haqidagi aqidani, cherkov tainstvalarini krestga, ikonaga sig`inishni inkor qilganlar, papa hokimyatini e`tirof qilmaganlar, katolik cherkovini ,,iblis hokimyati ’’ deb ataganlar.
11. **ALBION** (nem.)-Britaniya oroli (Irlandiyasiz) ning qadimgi nomi. Albion ba’zan Buyuk Britaniya iborasi o’rnida ishlatiladi.
12. **ALLOD** (yun)-yerga to’la egalik qilish. G’arbiy Yevropada feodalizm davrida avloddan-avlodga meros qoluvchi yer-mulk. Bunday yerga egalik benefetsiy va feudal yer egaligidan feodal majburiyatlar va xarbiy xizmatni o’tamaslik bilan farq qiladi.
13. **ANABAPTISTLAR** (yun.)-qayta cho’qintirilganlar yoki xristianlik birodarligi- XVI asrda Germaniya, Shvetsariya va Niderlandiyada feodalizm va uning tayanchi bo’lgan

cherkovga qarshi qaratilgan diniy reformatsiya oqimlari tarfdorlaridan biri bo'lib shahar kambag'allari va hunarmandlarining manfaatlarini ifodalaganlar.

14. **ANAFEMA** (yunon.anaphema – rad qilish, haydash) – xristianlikda cherkov lanatlashi, cherkovdan haydash, dindan qaytgan deb e'lon qilish.Yan Gus, Janna d'Ark, Martin Lyuter, Genrix VIII, Jordano Bruno va boshqa ko'plab taniqli kishilar turli oqimlar, mahfiy jamiyatlar shunday jazoga loyiq ko'rilgan. La'natlash. diniy xristian cherkov aqidalari va qoidalariga qarshi chiqqanligi uchun dindorlar jamoasidan chiqarish, la'natlash yoki diniy jamoadan xaydash
15. **ANGLIKAN CHERKOVI -** Angliyadagi davlat cherkovi. XVI-asrda Reformatsiya davrida vujudga kelgan. Cherkovning najotkorlik kuchi haqidagi katolik aqidalarini shaxsiy e`tiqod orqali najotga erishish haqidagi protestan ta`limoti bilan birlashtiradi.
16. **ANNATLAR** (lot. annata, annus – yil so'zidan) – XIII asr o'rtalaridan G'arbiy Yevropada bo'sh cherkov benefetsiylarini olgan kishilardan papa xazinasi foydasiga olingan yig'im.
17. **ANSORLAR** (arab. – yordamchilar, safdoshlar) – Muhammad payg'ambar saxobalari bir tabaqasining nomi. 622 – yili Makkadan Madinaga ko'chib brogan musulmonlarga va Muhammadga yordam bergan hamda islom dinini qabul qilgan madinalik avs va xazraj qabilalarining a'zolari.
18. **ANTAGONISTIK SINFLAR** ( lot-arab.)-baxs, kurash; beshta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan uchtasi-quldorlik, feodalizm va kapitalizm jamiyatlari antogonistik jamiyatlar hisoblanadi. Antogonistik sinflar o'rtasidagi kurash sinfiy kurash, revolyutsiya yo'li bilan hal etilgan.
19. **ANTIPAPA** (yunon.anti…. – qarshi va papa) – katolik cherkovi tomonidan tan olinmagan Rim papasi. O'rta asrlarning aloxida davrlarida papa taxtida bir vaqtning o'zida bir necha papa o'tirgan;oqibatda papa sifatida ulardan faqatgina bittasi cherkov tomonidan tan olingan, qolganlari Antipapa deb e'lon qilingan.
20. **APOSTOLLAR** (yunon.apostolos – elchi; islomda havoriy – shogird, izdosh ma'nosida) – ilk xristianlikning shakllanish davrida darbadar diniy targ'ibotchilar. Apostollar hali ruxoniylar paydo bo'lmagan davrlarda jamoadan – jamoaga ko'chib targ'ibot yuritib, xristian dinining yoyilishida asosiy rol o'ynaganlar.
21. **ARIYCHILIK** – IV-VI -asrlarda xritianlikda vujudga kelgan oqim. Ruhoniy Ariy asos solgan . A. Bibliya monoteizmi bilan Isoning xudo ekani haqidagi ta`limot o`rtasida paydo bo`lgan ziddiyatni bartaraf etishga urinishdan iborat bo`lgan. U rasmiy xristian cherkovining asosiy aqidalaridan biri bo`lgan ota –xudo va o`g`il- xudo ning bir mohiyatga ega ekanligi haqidagi aqidasini qabul qilmay, buni ikki xudolikni tan olish deb hisoblangan.
22. **ARSENAL** (frans. arsenale, arab. dor as-sinoa – ustaxona so'zidan) – quruqlikdagi qo'shinlar va harbiy dengiz qo'shinlari qurol – yarog'larini yasaydigan, tuzatadigan, saqlaydigan joy.
23. **AUTODAFE** (isp va portug. Autodefe – ayni manosida etiqod akti) – Ispaniya va Portugaliyada inkvizitsiya hukmining tantanali e'lon qilinishi, shuningdek, shu hukm ijrosi (asosan omma oldida gulxanda yoqish). Dastlabki Autodafe XIII asrga tegishli. XV asr oxiridan keng tarqalgan.
24. **AVGUSTINCHILAR-** eng qad. Katolik monaxlik ordenlaridan biri. XIII-asr o`rtlarida Italiyada vujudga kelgan, keyinchalik o`z faoliyatini Ispaniya , Portugaliya va b. Yevropa mamlakatlariga yoygan. XVI-asr o`rtalarida Rim papasi tomonidan gadolik ordenlari qatoriga kiritilgan. Dastlab „Avliyo Avgustin qoidalari'' deb nomlangan asar ordenning ustavi sifatida tan olingan. Bu qoidalarning muallifi uzoq vaqtgacha soxta ravishda Avgustin deb hisoblangan.
25. **BAGAUDLAR** (lot-kelt.)-Shimoliy Ispaniya va Galliyada III-V asrlardagi kolonlar va qullarning Rim istibdodiga qarshi harakati (dehqonlar, mayda hunarmandlar, kolonlar,

qochoq qullar) qatnashchilari. Bu harakat Rim quldorlik imperiyasiga qaqshatqich zarba berdi va feudal munosabatlarning shakllanishiga yo'l ochdi.

26. **BALLADA** (frans.ballade ,so'nggi lot.ballo – raqsga tushaman) – 1) XIV – XV asrlar fransuz adabiyotidan qat'iy o'rin olgan lirik janr; 2) ingliz xalq poeziyasida liro – epik janr va romantizm poeziyasida ayni shunday janr; 3) (musiqada) Ballada XII-XIII asrlarda trubadur v truverlar ijodining asosiy janri sifatida keng rivoj topti.
27. **BARON** ( lot.bago. qaratqich kelishigi baronis) – G'arbiy Yevropada grafdan keying darajali aslzoda.G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, asosan Germaniya va Fransiyada VI-VII asrlarda, umuman,aslzodalar Baron deb atalgan.
28. **BARONESSA** (fr.)-baronning xotini yoki qizi-xonim.
29. **BARRIKADA** (fr.)-ko'chaband, to'siq ko'cha; ko'prik va tor yo'llarda yog'och, tosh, qum, tuproq to'ldirilgan qoplar, qulatilgan daraxt va boshqa narsalardan yasalgan sun'iy to'siq.
30. **BARSHCHINA** (rus)-ishlab berish rentasi, kaitalizmgacha yer rentasining ruscha nomi, krepostnoy huquq davrida dehqonlarni pomeshchik, monastir va cherkov yerlarida o'z ish qurollari bilan haftada bir necha kun majburan va haq to'lamay ishlatish.
31. **BARSHCHINA, BOYARSHCHINA** (rus.barin (boyar)ga tekinga ishlab berish) – o'rta asrlarda Rossiyada yer rentasi shakli, yirik yer egasi qaram krepostnoy dehqonning o'z quroli bilan haq olmay bajaradigan majburiy mehnati.
32. **BEKON-RODJER** (tax..1214-1292)-ingliz filosafi va tabiatshunosi. Fransiskiy-monarx bo`lgan. Sxolastik hom hayollarga va cherkov obruyini ko`r- ko`rona hurmat qilishga qarshi chiqqan. Cherkov hokimyati tomonidan Oksford un-tida dars berishdan chetlatilgan, 14 yil monastr qamoqxonasida saqlangan.
33. **BENEFETSIY** (lot.beneficium – exson, yaxshilik) – 1) ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirol yoki yirik feudal tomonidan vassalga muayyan ishni bajarish, ko'pincha harbiy xizmatni o'tash sharti bilan umrbod inom qilinadigan yer. 2) katolik cherkovida IX asrdan daromadli lavozim yoki ruxoniy tomonidan mukofot sifatida olingan yer mulki.
34. **BOGOMILCHILIK** -diniy bid`atlar shaklidagi antifeodal harakat. B. X-asrda Bolgariyada vujudga kelib, XI -asrda Serbiya Xorvatiya va ba`zibir mamlakatlarda tarqalgan. Buning asosiy kitobi ``Ioann injili`` (``Sirli kitob``) dir. B. ta`limot asosida moniylik va pavelchilikka borib taqaladigan dualizm yotadi. B. Bir necha yo`nalishga bo`linib ketgan; ularning ko`pchiligi dehqonlar qo`zg`olonida va Vizantiya zulmiga qarshi milliy ozodlik xarakatida qatnashgan, bir qismi esa kuch ishlatishni rad etib, itoatkorlikka da`vat qilingan. B. XIV-asrda ruhoniy va shaharliklarning muayyan qismini birlashtirgan sektaga aylangan va G`arbiy Yevropa bidatlariga ta`sir ko`rsatgan.
35. **BOGOMILLIK-** X-XIV asrlarda Bolgariya va Serbiyada hamda Bolqonning ba'zi boshqa mamlakatlarida diniy niqob ostida o'tgan antifeodal dehqonlar harakati.
36. **BOKKACHCHO-** Jovanni (1313-1375) italiya realist yozuvchisi, gumanist. B. ijodining cho`qissi ``Dekameron`` (1350-1353) asari xisoblanadi. Kitobning asosiy mavzularidan biri-katolik cherkovini tanqid qilish, ruhoniylar-monarxlar, papa saroyining ayonlari ustidan zaharhandalik bilan kulishdir. B.ning ``Mashhur kishilarning taqdiri haqida``(1355-60), ``Mashhur ayollar haqida``(1360-62), ``Majusiy hudolarning kelin chiqishi``(1350-63) kabi bir necha asarlarida inson tog`risidagi gumanistik fan asoslari berilgan.
37. **BOYARLAR** (turk.bajar – amaldor , boy er,janob) – 1) IX-XVII asrlarda Rus davlatida mulkdorlarning oliy tabaqasi.Kiyev davlatida – urug' – qabila zodagonlari avlodi, katta drujinachilar – vassallar va knyaz dumasi a'zolari, yirik yer egalari. 2) Ruminiyada XIII-XIV asrlarda vujudga kelgan mulkdor tabaqa.
38. **BULLA** (lot.bulla – sharcha, kechki lot. muxr, muxrli hujjat) 1) o'rta asrlarda dumaloq metal muxr, odatda, imperator, qirol aktlarini tasdiqlagan, shuningdek ana shunday hujjatlarningo'zi; 2) o'rta asrlarda papalarning asosiy hujjati, qo'rg'oshin (alohida

vaziyatlarda oltin) muhr bilan tasdiqlangan. XV asrdan kamdan kam chiqarilgan; 3) keying davrlarda papalarning muhim qarorlari va tantanalari nomalari shunday atalgan.

39. **BURG** (kechki lot.burgus, nem.Burg – qal'a) 1) G'arbiy Yevropadagi o'rta asrlar qal'asi. Burg qal'alar G'arbiy Yevropada VIII asrdan XVI asrga qadar qurilgan. 2) Shotlandiyada shahar mamuriy – hududiy birligi.
40. **BURSA** (kechki lot.bursa – to'rva) – o'rta asrlarda universitetlar qoshidagi qashshoq studentlar uchun ochilgan yotoqxona.Dastlab Fransiyada yuzaga kelgan.Badavlat kishilarning homiylik yordamlari hisobidan taminlangan.
41. **BUSIDO** (yapon. ayni ma'nosi jangchining yo'li) – yapon samuraylarining ahloq kodeksi. Busido ulardan o'z xo'jayiniga sodiq bo'lishni,harbiy ishni samurayga munosib birdan-bir kasb deb hisoblashni talab qiladi. Samuraylik shaniga dog' tushirgan jangchi o'zini o'zi o'ldirishi (xarakiri) shart.
42. **BUYUK BO'LINISH** – papalik tarixida papa taxtini ikki yoki uch bir-biri bilan kurashayotgan papa egallagan davr (1378-1417). Buyuk bo'linishga 1414-1418-yillardagi Konstantin sobori barham bergan, uch papain tugatib, yangi papain saylagan.
43. **BUYUK KNYAZ** (rus.великий князь) Qadimgi Rusda mustaqil davlat rahbari unvoni. Mo'g'ullar hukmronligi davrida ayrim Buyuk knyazlar faqat mog'ul xoniga, keyinroq Oltin O'rda xoniga bo'ysungan. XVIII asrdan shoxning bevosita avlodlariga berilgan unvon. Litva knyazligida oliy hukmdor unvoni, dastlab merosiy bo'lgan.
44. **BUYUK** vazir-vaziri a'lam,keyinroq sadri a'zam.Turkiya sultonligida hukumat boshlig'i hisoblangan va sulton nomidan farmonlarni e'lon qilgan, sulh shartnomalariga imzo chekgan. 1876-yildan boshlab vazirlar kengashi raisi.1992-yilda tugatilgan.
45. **CHERKOV** (yun.-xudoning uyi)- muayyan tarixiy sharoitlarda diniy uyushmalar ichidagi munosabatlarni hamda uyushmalarning dunyoviy guruhlar va tashkilotlar bn aloqalarini tartibga solish vositasi tarzida vujudga kelgan diniy tashkilotning bir turi. Cherkovlarning a`zolari ruhoniylar va qavmlarga bo`linadi. Mexrob va ibodat qilinadigan xonasi bo`lgan xristianlar sig`inadigan bino ham cherkov deyiladi.
46. **CHETNIKLAR** (serb.cetnici) – Bolqon yarimorolida: 1) XV-XIX asrlarda Usmonli turk imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik kurashi olib brogan partisan otryadlari a'zolari; 2) Yugoslaviyada 2-jahon urushi davrida milliy-ozodlik kurashi ishtirokchilariga qarshi qurolli harakat olib brogan guruhlar a'zolari.
47. **CHOMPI** (ital..ciompi) – XIV asrda Florensiya va Italiyaning boshqa shaharlarida manafakturalarida jun tituvchi va boshqa yollanma ishchilar. Og'ir mehnat sharoitlari arzimas ish haqi, yuqori jarimalar Chompilarning bir necha isyonlariga sabab bo'lgan. Chompilarning 1-qo'zg'oloni 1345-yili Chuto Brandini boshchiligida yuz bergan. Lekin u kuch bilan bostirilgan.
48. **DANTE Aligeri** ( 1265-1321 ) italyan shoiri. Engels tabiricha " o'rta asrning so'nggi va shu bilan birga yangi davrning birinchi shoiri ". Dante feodal mustabid respublika tarafdorlari – gibellinlarga qarshi kurashdagi ishtiroki uchun o'z shahridan umrbod badarg'a qilingan. Dante falsafiy ruhdagi "Bazm " (1308) , "Monarxiya haqida " (1313) , " Yer va suv haqida " (1320) risolalarida gumanistik qarashlarni ilgari suradi , davrning muhim ijtimoiy- axloqiy muammolarga javob izlaydi. Shoir darbadarlikda ko'rgan – kechirganlarini , dunyo, hayot haqidagi fikr g'oyalarini, ilmiy falsafiy va estetik qarashlarini shoh asari – "Ilohiy komediya " (1307-1321) da zo'r istedod bilan aks ettirgan. Asar "Do'zax" , "Arosat " , " Jannat " deb ataluvchi uch qismdan iborat bo'lib , "Do'zax" qismidagi IV qo'shiqda jahonning buyuk donishmand olim va fozillari Demokrit, Fales, Geraklid, Yevklid, Ptolomey, Gippokratlar qatorida sharqning ulug' mutaffakkirlari Ibn Sino va Ibn Rushdlarni ko'ramiz.
49. **DAYMYO** (yapon.ayni manosi to'ralar) – o'rta asrlarda Yaponiyadagi yirik mulkdor knyazlar. Daymyo atamasi XI asrda paydo bo'lib, yirik mulkdorlarni anglatgan. XIV-XV asrlardan XVI asr oxirigacha daymyolar markaziy hokimyatdan mustaqil bo'lishgan.

50. **DEDICHI** (chex)-XI-XV asrlarda ota bobosidan me'ros qilib yer olgan chex dehqoni. XVI-XVII asrlarda qaram dehqonlarning boshqa guruhlari bilan qo'shilib ketib, „sedlaki'' degan umumiy nom bilan atalgan.
51. **DESPOTIZM** (yun)- hokimi mutlaq, istibdod, hech qanday qonun bilan huquqi cheklanmagan, o'zicha hukmronlik qiladigan hokim, podsho.
52. **DEY** (turk.dayi – ayni manosi tog'a) – 1) Usmonli turk saltanatining yanichar qo'shinlarida zobitlik darajasi; 2) yanichar zobitlar kengashi tomonidan umrbod saylanadigan Jazoir hokimi.
53. **DINIY – RITSARLIK ORDENLARI** – XII – XIII asrlarda salib yurishlari davrida katolik cherkovi rahnamoligida tashkil etilgan harbiy – monaxlik tashkilotlari. Sharqda salibchilarning mulklarini himoya qilish va kengaytirish, shuningdek, Yevropada hududlarni ishg'ol etishni maqsad qilgan. Eng yirik ordenlar: ioannitlar, tampliyerlar, tevton, alkantara, kalatravi va hokazo.
54. **DINIY ASKETIZM** (yun. mashq, jasorat) zoxillik (arab)-hayotiy ne`matlardan, rohat-farog`atlardan yuz o`girish, shaxsning o`zidagi tabiiy intilish va ishtiyoqlarni so`ndirishi. Xristianlikda asketizm ``dindorlarning asosiy hayot qonuni``hisoblanadi. Asketizm targ`ib etishning ijtimoiy mohiyati- mehnatkashlarni ekspulutatorlik jamiyatlaridagi og`ir hayot sharoitlariga ko`niktirishdir. Hozirgi paytda ruhoniylar dindorlar kayfiyati hisobga olib,``dunyodan yuz o`girishga ``aysh-ishratlardan voz kechishga da`vat etadilar, ular ko`proq ruhiy zohidlikka e`tibor beradilar. O`zini jismoniy azoblarga duchor qilgan, holdan to`yguncha ro`za tutib qiynagan, yolg`izlikda umr kechirgan kishilar dindorlarga o`rnak, namuna sifatida targ`ib etildi. D.A. xristianlikda monaxlikda ko`rinsa, islomda darvshlik, qalandarlik chilla o`tirish, ro`za tuishlarda namoyon bo`lad. O`rta Osiyoda Boxovuddin Naqshband, Xo`ja Ahror, Najmiddin Kubrolar D.a.ni targ`ib etgan. Marksizm-leninizm, kommunistik axloq har qanday D.a.ni qoralaydi, unga gumanistik optimizmni qarama-qarshi qo`yadi.
55. **DOFIN** (frans.dophin) – Fransiyada XIV asr o'rtalaridan 1830-yilgacha taxt vorisi unvoni. Ilk o'rta asrlardan ma'lum. Graf Giga Vyenskiy gerbida delfin(dauphin) tasviri tushirilgandi va u "Le Dauphin" degan laqab olgan.Unvon shu laqabdan kelib chiqqan.
56. **DOJ** ( ital. )-o'rta asrlarda Venetsiya (VII asr oxiridan XVIII asr oxirigacha) va Genuya ( XIV asrdan XVIII asr oxirigacha) respublikalarida umrbod saylab qo'yilgan davlat boshlig'i;
57. **DOMEN** (frans.domaine, lot. dominium – mulk so'zidan) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirol yoki qandaydir feodal mulkining bir qismi, ularning o'zi tomonidan xo'jaligi yuritilgan. Domen tarkibiga, odatda, turli aholi manzilgohlari, qal'alar, yaylovlar ,ekinzorlar va o'rmonlar kirgan.
58. **DOMINIKOCHILAR**-1215-yilda Tuluzada ispan monaxi Doimiko de Gusman (1170-1221) asos solgan gadolik ordenining a`zolari. Orden bir yil keyin papa Gonoriy III tomonidan tasdiqlangan. Orden 12-yil muddat bn saylanadigan va bevosita papaga itoat etadigan general tomonidan boshqarilgan.Yonib turgan mash`alani tishlab turgan it tasviri ularing belgisi hisoblangan. Ular o`zlrini ``xudoning iti ``deb ataganlar. 1232-yilda papalik D.ga inkvizitsiyani boshqarishni topshirgan. Amerkani bosib olishda aktiv bo`lishgan. Ularning orasidan taniqli katolik ilohiyotchilar yetishib chiqqan, jumladan Foma Akviniskiy va bir necha papalar yetishib chiqishgan. Hozirgi vaqtda D. 10 mingdanortiq bo`lib, 50 mamlakatda ish olib bormoqda ish olib bormoqdalar , ular 600ga yaqin monastirga ega.
59. **DONJON** (frans.donjon) – Yevropadagi feodal qasrlarining bosh minorasi, boshqa binolardan alohida qurilgan. O'ziga xos qal'a ichidagi qal'a vazifasini o'tagan. Himoya vazifasidan tashqari Donjonlar feodallar istiqomat qiladigan inshoot ham edi.
60. **DRUIDLAR** (lot-kelt) - qadimgi keltlarda kohinlar, qadimgi Galliya, Britaniya va Irlandiyada kohin yoki ruhoniylar. Sud vazifasini ham bajarganlar. Qabila zodagonlari bilan birga ular kelt jamiyatining hukmron tabaqasini tashkil etganlar. Ular tabiblik,

o'qituvchilik va karomat qiluvchilar bo'lib, siyosiy hayotda katta rol o'ynar edilar. Rim imperatorlari Tiberiy va Klavdiy ularning qurbonliklarini rad etganlar.

61. **DUKAT** (ital. ducato) – qadimgi kumush va oltin tanga. XIII asrdan boshlab Venetsiya tilla puli (stexin); G'arbiy Yevropaning bir qancha mamlakatlarida muomalada bo'lgan. Dukat dastlab Venetsiyada, keyinchalik ko'pgina G'arbiy Yevropa mamlakatlarida zarb etilgan. Og'irligi 3,44 gramm atrofida.
62. **EKZARXAT** (yunon.exarchos – boshliq, rahbar) – Vizantiyada VI asr oxiri – VII asrlarda noib tomonidan boshqarilgan ma'muriy-hududiy birlik. Ekzarxat chekka viloyatlarda tashkil etilgan. Ekzarxat femlarga namuna bo'lib xizmat qilgan.
63. **ELXON (**turk.) – XIII-XIV asrlarda Erondagi mo'g'ul hukmdorlari unvoni; elxoniylar – mo'g'ul xonlari sulolasi.
64. **EPARXIYA** (yunoncha – hukmronlik qilish, boshqarish ) xristian cherkovida cherkovga xos ma'muriy-territorial birlik. Eparixaga rahbarlikni E. Arxiereyi (mtropolit, arxiyepisko , yepiskop ) amalga oshiradi. U o'z faoliyati va E. Dagi axvol uchun oliy cherkov hokimiyati organlari oldida javobgardi
65. **ERAZM ROTTERDAMSKIY**, Dezideriy (1469-1536)-gumanist, shimldagi uyg`onish davri deb ataluvchu davr vakilli. Antik davrga qaytish g`oyasini ilk xristianlik bilan birlashtirishni maqsad qilib qo`ygan. Eng mashhur asari-``Nodonlikni maqtash``(1509).
66. **ERKIN SHAHARLAR** – XIII asr – XIV asr boshlarida feodal, senyor hokimyatidan qutulgan va o'zini o'zi boshqarish huquqini qo'lga kiritgan shaharlar.
67. **ERMANDADA** (isp. hermandades – og'a –inilik) – o'rta asrlarda ispan shaharlari va dehqon jamoalari ittifoqi, urush paytida o'z – o'zini mudofaa qilish va o'z erkinliklarini himoyalash maqsadida tuzilgan. 1-ermandadaga 1115-yili asos solingan. XIII-XIV asrlarda keng tarqalgan. 1476-yili Kastiliya, Leon va Asturiyaning shahar va qishloq jamoalari "Muqaddas Ermandada"ga birlashdi. U 1498-yilgacha faoliyat yuritgan.
68. **FEMLAR** (yunon. birlikda thema, ko'plikda themata) – Vizantiyada VII-XII asrlarda harbiy-mamuriy okruglar. Femni sud, moliya, harbiy hokimyatga ega strateglar boshqargan. Fem davlatga ko'ngilli lashkarlar – stratiotlarni yetkazib bergan.VIII-XI asrlarda Fem mayda qismlarga bo'lib tashlagan, XII asrda Femdagi hokimyat fuqarolardan chiqqan amaldorlar –sudyalarga o'tgan; Fem o'rniga yirik chegara harbiy – hududiy birliklar – dukatlar va katepanatlar paydo bo'lgan. XIII asrda Femlar Nikeya imperiyasida saqlanib qolgan.
69. **FEOD** (so'nggi lot.feodum) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada senyor tomonidan o'zining vassaliga merosiy mulk sifatida inom etilgan yerlar. Buning evaziga vassallar harbiy, saroy xizmatlarini o'tashlari, udumga binoan, tegishli badal pulini to'plashlari lozim bo'lgan. Feod egasi feodal deb atalgan.
70. **FEODAL RENTASI** – G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda keng tarqalgan yer rentasi shakllaridan biri, tekinga ishlab berish, mahsulot va pulli turlari bo'lgan. Feodalning yerga egalik qilishi Feodal rentasini asosini tashkil etgan. Feodal rentasi rivojlanishida uch bosqichni o'tagan: 1) ishlab berish rentasi, bunda dehqon haftaning muayyan kunlarida o'zi uchun xo'jaligida ishlasa,bir necha kun davomida haq olmay feodal yerida ishlashga majbur bo'lgan; 2) mahsulot rentasi bunda dehqon haftaning hamma kunlarida o'z xo'jaligida ishlagan ammo yetishtirgan mahsulotning bir qismini feodalga berishga majbur bo'lgan; 3) pul rentasi unda dehqon o'z xo'jaligida yetishtirgan mahsulotni bozorda sotib, topgan pulining ko'p qismini feodalga berishga majbur bo'lgan. Ishlab berish va mahsulot rentalari feodalga berishga majbur bo'lgan. Ishlab berish va mahsulot rentalari feodal jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga xos bo'lib, pul rentasi osha borgan.
71. **FLORIN** (ital. florino) – XIII-XVI asrlarda Florensiyaning oltin tangasi. 3,53 grammlik toza oltindan so'qilgan. Aversida liliya guli (Florensiya gerbi), reversida avliyo Ioann (shahar xomiysi) tasviri tushirilgan. Keyinroq ko'plab Yevropa mamlakatlari pul birligiga aylangan. Oltin florin bilan bir qatorda kumush Florin ham zarb etilgan.

72. **FOMA AKVINSKIY** (1225 yoki 1226-1274)- katolik ilohiyotchi Buyuk Albertning shogirdi. 1223-yili katolik cherkovi tomonidan avliyolalar ro`yhatiga kiritilgan. F.A. aristotelzm bn xristianlikni sintez qilib, Aristotel filosofiyasining materialistik elementlarini chiqarib tashlab, idealistis qarashlarni yanada bo`rttirib ko`rsatdi. Papa Lev III chiqargan ensiklikada (1879) F.A.ning falsafiy sistemasi` `katolisizmning yagona haqiqiy filosofiyasidir``deb baholagan. Asosiy asrlari: ``Ilohiyot to`plami``, ``Majusiylarga qarshi katolik e`tiqodining haqiqatligi to`g`risidagi falsafiy to`plam``.
73. **FRANSISKCHILAR**- katolik gadolik monarxlik ordeni. 1207-1209-yillari Italiyada Fransisk Assizskiy tuzgan. Tshkilotchilarning o`zi uni Kichik birodarlar ordeni deb atashgan. 1223-yil shu nom bn tasdiqladi. Ular bid`atga qarshi kurash olib bordilar, inkvizitsiyada qatnashdilar katolik raksiyasini aktiv qo`llab-quvvatlab, xalq orasida mo`minlik va tobelik g`oyalarini targ`ib qildilar. 1256-yili papa ularga untlarga o`qitish huquqini berdi.Missionerlik faoliyati bn shug`ullanishga ham ruxsat berildi. XVI-XVIII-asrlarda F. ayrim mamlakatlarda kuchayib bordi.
74. **FRANTSISKANLAR ORDENI**-Italiyada 1207-1208-yillarda Frantsk Assizskiy (haqiqiy nomi Jovanni Bernandone) tomonidan tashkil etilgan katolik qashshoqlik ordeni jamoasi. Papalik odenni o'z nazoratiga oladi. Papa Gonoriy III 1223-yil orden ustavini tasdiqlaydi.
75. **FRIGOLD** (ingl.freehold, free – erkin, hold – mulk) – o'rta asrlarda Angliyada merosiy yoki umrbod foydalanilgan feodal mulk; ritsarlik, dehqonlar, shahar yoki cherkovniki bo'lishi mumkin edi. Frigolder – dehqonlar shaxsiy erkinlikka, mulkni meros qoldirish, tortib olish, qirollik sudida himoyalanish huquqiga ega edilar.
76. **GABEL** (fr.)-tuz solig'i; o'rta asrlarda Fransiyada (1246) joriy etilgan tuz solig'i. Tuz savdosi davlat monopoliyasiga olingach har bir xonadonning yuqori narxda majburan tuz sotib olish minium miqdori belgilangan.
77. **GABSBURGLAR** (nem.)-Avstriyaning 1282 yildan gersogi, 1453-yildan erstgersogi, 1804-yildan Avstriya imperatori, 1526-yildan Chexiya va Vengriyaning qo'shib olib u yerning koroli bo'ldilar. 1867-1918-yillarda Avstriya-Vengriyadan hukmronlik qilgan sulola.
78. **GADOYLIK ORDENLARI** – katolik monaxlari ordenlari. Papalikning faol yordamida kambaga'lchilikni targ'ib qilish va a'zolarning taqvodorlik bilan hayot kechirishini namuna sifatida ko'rsatish orqali tez tarqalib borayotgan yeretiklikni bartaraf etish mumkin degan maqsad bilan XIII asrning birinchi yarmida tashkil etilgandi.
79. **GANZA** (qad. nem. Hanse – ittifoq) – Lyubek shahri boshchiiligida shimoliy nemis shaharlarining savdo va siyosiy ittifoqi (XIV-XVI asrlar; rasman 1669-yilgacha). Ganzaning gullab – yashnagan davri (XIV asrning 2-yarmi – XV asrning boshlari) da bu ittifoqqa 100 tacha shahar kirgan.
80. **GARAYLAR-**Garay sulolasi; 1427-yilda Hoji Garay o'zini Qrim xoni deb e'lon qilgandan so'ng boshlangan xonlar sulolasi.
81. **GAVEL** (frans.gavelle) – Fransiyada 1246-yili joriy etilgan tuz solig'i. Dastlab vaqti-vaqti bilan undirib turilgan. Gavel bora – bora doimiy soliqqa aylangan.
82. **GEROLD** (nem. Herold, kechki lot. heraldus) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi xabarchi, qirol va yirik mulkdorlar xonadonida marosimlarni boshqaruvchi, tantana, ritsarlar kurashi va boshqa mutasaddisi.
83. **GERSOG** (nem. Herzog) – qadimgi germanlarda qabilaning harbiy yo'lboshchisi; o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada yirik feodal, mulk egasi, o'rta asrlar oxirlaridan dvoryanlik unvonlaridan biri. Yirik Franklar davlati shakllanishi bilan gertsoglar qirolning mansabdor shaxslariga aylantirilgan, ularga alohida viloyatlar rahbarlari – graflar bo'ysungan.
84. **GILDIYA** (nem)-qadimgi Germaniyada o'z a'zolarining hayoti, mulki va shon-sharafini himoya qilish uchun tuzilgan ittifoq (mudofaa gildiyasi). O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada boy savdogarlar yoki hunarmandlarning o'z a'zolari manfaatlari yoki sex

imtiyozlarini himoya qiluvchi shirkati yoki ittifoqi. Chor Rossiyasida savdogarlarning boyligi va mablag'iga qarab belgilangan daraja. Masalan 1,2,3-gildiya savdogarlari.

85. **GILDIYA MAKTABLARI** – G'arbiy Yevropa shaharlarida XIII-XIV asrlarda savdo gildiyalari tomonidan tashkil etilgan boshlang'ich va yuqori maktablar. Gildiya maktablari pulli bo'lib faqat o'ziga to'q oilalar farzandlarigina ularda taxsil olish imkoniga ega edi.
86. **GOGENSHTAUFENLAR** (nem) yoki shtaufenlar- Germaniya imperatorlari sulolasi.(1138-1254) shvab knyazlari urug'idan bo'lishgan.
87. **GOSPITALYER,** ioniylar –katolik ritsarlari monaxlik ordenining a`zolari. Orden 12-asr boshlarida Falastinda salib yurishlari davrida tasjkil etilgan.``G`` atamasi ordening dastlabki qarorgohi bo`lgan Qudduzdagi avliyo Ioan gospitali nomidan olingan. 1530-1798-yillarda orden qarorgohi Malta oroliga ko`chgan, keyinchalik G. Malta ordeni ritsaarlari nomi bn mashhur bo`lgan. 1834-yilda G qarorgohi Rimda hozirgi vaqtda orden asosan aristokratiya vakillarini birlashtirgan.
88. **GOTIKA, GOTIKA USLUBI** (ital. gotico – german qabilasi gotlar nomidan) – G'arbiy, Markaziy va qisman Sharqiy Yevropa mamlakatlarida o'rta asrlar san'atida hukm surgan badiiy ulub. Gotikada yetakchi o'rinni me'morchilik egalladi, unda me'morchilik, haykaltaroshlik va rang tasvir uyg'unligining buyuk namunasi bo'lgan ibodatxona alohida o'rin tutadi.
89. **GOTLAR**-asl vatani Skandinaviya bo'lib keyinchlik ular Baltiq dengizi bo'ylarida yashagan.Yangi eraning boshlarida quyi Visla atrofidagi yerlarda yashagan qadimgi german qabilasi; III asr o'rtalarida Shimoliy Qora dengiz bo'ylariga kelib o'rnashganlar, bu joydagi mahalliy aholi bilan aralashib ularning madaniyatini o'zlashtirganlar. O'sha yerda Kichik Osiyo va Bolqon yarim oroliga talonchilik bosqinlari qilib turganlar.
90. **GRAF** (nem)-ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada korol amaldori, graflikda korol vakili, feudal tarqoqlik davrida katta yer-mulkka ega bo'lgan feudal, keyinchalik dvoryanlik unvoni; franklar davlatida graf o'z viloyatiga, sud, ma'muriy va xarbiy hokimyatga ega bo'lgan. Dastlab korol mulozimlariga berilgan. Franklar davlatida VI asrning 2-yarmidan o'z okrugi (graflik)da sudlov, ma'muriy va harbiy hokimyatga ega bo'lgan.
91. **GRAFLIK** ( nem. Grafschaft) – dastlab Franklar davlati va Antiyada ma'muriy viloyat. Feodal tuzum taraqqiy etishi bilan graflik davlatning ma'muriy birligi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi va graf boshqargan merosiy feodal mulkka aylandi.
92. **GRANDLAR** (isp.Grandes) – o'rta asrlarda Ispaniyada oliy dvoryanlik; XVI-XX asrlarda dvoryanlik unvoni. Grandlar davlatda yuqori lavozimlarni egallaganlar va keng imtiyozlardan foydalanganlar. Ular qirol xizmati uchun qo'shin yig'ish huquqiga ega edi.
93. **GUS Yan** (1371-1415)- chex reformatsiyasi ideologi. 1398-yildan Praga (Karlova) universiteti professori 1402-1403, 1409-1410 yillarda rektori, ayni vaqtda Pragadagi Viflem kichik butxonasida voizlik qilgan. Gus o'z vazlarida katolik ruhoniylarni fosh qilgan, cherkov lavozimlarini pulga sotishlarni qoralagan, cherkovni dastlabki xristianlik jamoasi tartibida isloh qilishni talab qilib chiqqan. Gus 1414- yilda Konstantsa cherkov sobori tomonidan murtad sifatida qoralangan va 1415- yilda tiriklayin yondirilgan.
94. **GYOZLAR** (goll. geuzen, frans. geux – qashshoq so'zidan) – XVI asrda Niderlandiya burjua inqilobi davrida dastlab ispan hukumatiga raqobatda bo'lgan niderland zodagonlari laqabi. Keyinchalik xalq isyonchilari – quruqlik va dengizda ispanlar bilan kurash olib brogan partizanlar.
95. **IBN RUSHD** Abul Valid Muhammad ( lat. Averroes ) ( 1126-1198 ) – arab faylasufi , Aristotel ta'limotining materialistik tomonlarini rivojlantirib averroizmga asos solgan , asarlarining ko'pchiligi Aristotel asarlariga yozilgan sharhlardan iborat. Uning o'rta asr ilohiyotining yirik vakili G'azoliy ta'limotiga qarshi yozgan "Taxofut ut-taxofut" ( Raddiyani rad etish ) asari falsafa tarixida muhum ahamiyatga ega. "Dunyoni hudo yaratgan" degan diniy ta'limotga qarama qarshi U moddiy dunyo abadiy, uning boshi ham yoq, oxiri ham bo'lmaydi, degan.

96. **IDALGO** (isp.hidalgo) – o'rta asrlarda Ispaniyadagi ritsarlarning mayda va o'rta tabaqasi. Idalgo atamasi XII asr oxirida paydo bo'lgan. Rekonkista davrida Idalgolar muhim harbiy kuch sanalgan. XV asrdan ular qashshoqlasha boshlagan. XVI asrda Idalgolar Amerika qit'asini bosib olishda – konkistada faol ishtirok etganlar. Bunday maqom egalari ko'pgina soliqlardan ozod etilgan, sharmandali qatl bilan jazolanishi mumkin emasdi.
97. **IEZUITLAR** ( lat . Iso jamiyati ) – katolik monaxlik ordeni a'zolari . Bu jamiyatni 1534-yilda Loyola tuzgan va 1540-yilda papa Pavel III tasdiqlagan. Bu orden kontreformatsiyaning asosiy quroliga aylangan. XVI-XVIII asrlarda Ular Maktablarining keng tarmog'ini vujudga keltirdi. XVII asrda I. Paragvayda quldorlik davlatini barpo ettilar, bu davlat salkam 160 yil yashadi. 1173-yilda papa Kliment XIV I. Ordenini tarqatib yubordi, orden 1814-yil Restavratsiya davrida papa Pi VII tomonidan qayta tiklandi. XX asrda elar Kleriklalizmning ashaddiy otriyadga imperializmning eng reaksion doiralari ittfoqchilariga aylandi. 1965-yilda papa Pavel VI I. oldiga ateizmga qarshi kurashishni asosiy vazifa qilib qoydi.
98. **IKONA** (yunon.eikon – tasvir, obraz) – xristian diniga mansub dindorlar sajda qiladigan, cho'qinadigan Iso, Bibi Maryam va avliyolarning rangtasvir yoki bo'rtma tasviri. Diniy ikonaning eng qadimgisi II asrga mansub,IV asrda taraqqiy etgan.
99. **IMMUNITET** (lot. immunitas – nimadandir qutulish, xalos bo'lish) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada feodalga taqdim etilgan muayyan hududda ayrim vazifalarni bajarish huquqi; Immunitet qaram dehqonlarni g'ayriiqtisodiy usul bilan majburlash va ularni krepostnoyga aylantirish usullaridan biri edi.
100. **INDULGENSIYA** (lot)- xudoning marhamati, shafqati, muruvvati, Cherkov ta'limotiga ko'ra, Rim papasi va katolik cherkovi nomidan olingan Iso va avliyolarning dindorlarga xizmatlari evaziga "gunohlarini" to'la va qisman kechirish haqida pul barobariga yoki cherkov oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun bergan yorlig'i; katolik cherkovi XII-XIII asrlardan boshlab indulgensiya sotishni keng miqyosda amalga oshirgan, u katolik cherkovi va ruhoniylar uchun asosiy daromad manbayi bo'ldi. Indulgensiya sotish XVI asrda reformatsiya kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri edi. Indulgensiyani pullash katolik cherkovi hozirgi faoliyatining ham xarakterli xususiyatidir.
101. **INKVIZITOR** - Katolik cherkovining maxsus tribunali . - imkvizitsiya asosiy yoki boshligi'.Oliy Inkivizitor hudo uning o'ribosari esa Rim papasi hisoblangan. Inkivizitorlar maalliy yepiskop bilan kelishib ish olib borganlar, uning ruhsati va ishtirokida tergov olib borilib hukm chiqarilgan. Yepiskopning o'zi autobafeda raislik qilgan.
102. **INKVIZITSIYA** – ( lot. Qidiruv, tergov ) – katolik cherkovining bidiatga papa hokimiyati dushmanlariga qarshi kurashish uchun XIII asrda ta'sis etilgan tribunal. Inkivizisiya Tarixini uch davrga bo'lish mumkin: boshlang'ich davr Inkivizisiya. Si (XIII-XV asrlar ) bu davrda feodal tartibga qarshi qaratilgan xalq sektantlik harakatlari taqib etilgan. Uygonish davri ( XVI-XVII asrlar ) madaniyat va fan arboblariga qarshi qaratilgan. 1480-yili dominikochi Tomas Tork Vemada boshchiligida yangi Inkivizisiya tuzilgan.1789-yil fransuz inqilobiasi fransiyadagi Inkivizisiya faoliyatiga xotima yasadi.
103. **INTENDANT** (frans. intendant – boshqaruvchi , mudir) – 1) XV-XVIII asrlarda Fransiyada davlat boshqaruvining alohida sohasini boshqargan mansabdor shaxs; XVII-XVIII asrlarda, shuningdek, sud-politsiya, moliya va bazi joylarda qisman harbiy hokimyatni boshqargan viloyat Intendantlari ham mavjud bo'lgan.2) qurolli kuchlarda qo'shin ta'minoti masalalarini hal qiluvchi shaxs.

**Jahon tarixidan Xronologiya (sulola va davlatlatlar).**

**306 yil avgust - 377 yil 22 may** – Konstantin I Rim imperiyasini boshqargan.
**324 yil 18 sentyabrdan - 1453 yilgacha** – Vizantiya imperiyasi mavjud bo`lgan.
Vizantiya imperiyasini 8 ta sulola navbat bilan boshqargan.
**330 yil 11 may** – Buyuk Konstantin Vizantiy shahri o`rnida yangi shahar – Yangi Rimga asos soldi.
**337 yil** – Rim imperiyasi Buyuk Konstantinning uchta o`g`li: Konstansiy II- sharqiy qism, Konstant I – g`arbiy qism va Konstantin II o`rtasida taqsimlandi.
**353 yil** – imperator Konstansiy II Rim imperiyasi yaxlitligini qayta tikladi.
**360-470 yillar** – Xunlar saltanati ( Atilla imperiyasi ) mavjud bo`lgan. Balamber ( 360-378 ), Dengizik ( 454-470 ) yillar .
**375 yil** – Xunlar tomonidan Vestgod va Ostgodlar mag`lubiyatga uchratildi. Vestgodlarning katta qismi Dunay daryosini kechib o`tishga majbur boldi.
**378 yil** – Gotlar konstantinopol tomon yo`l oldilar.
**379-395 yillar** – Feodosiy imperatorlik qilgan. U Gotlar bilan sulx tuzib, Italiyani ularga bergan.
**384 yil** – Rim yepiskopi birinchi marta o`zini "Papa" deb atadi. ( Sirisiy 384-399 yillarda Rim Papasi bo`ldi.
**391-406 yillar** – Bibliya lotin tiliga tarjima qilindi. Bu tarjimani Iyeronim bajardi.
**392 yil** – Feodosiy I Xristianlik dinini Rim imperiyasida yagona diniy etiqod sifatida e`lon qildi.
**395 yil** – Qadimgi Rim imperiyasi ikki qismga: Sharqiy va G`arbiy qismlarga bo`linib ketdi.
**395-453 yillar** – Xunnlar yo`lboshchisi Atilla (laqabi: Hudoning g`azabi) yashagan va faoliyat yuritgan.
**395-476 yillar** – G`arbiy Rim imperiyasi mavjud bo`lgan.
**395-1453 – yillar** - Vizantiya imperiyasi mavjud bo`lgan davr.
**IV asr o`rtalarida** – Rimni taxt uchun kurash , poraxo`rlik , faxsh va dabdaba , razolat va o`g`rilik hamda tabaqaviy kurashlar zaiflashtirib yubordi.
IV asr oxiri - Rimmda Zevsga bag`ishlangan Olimpiya o`yinlari o`tkazish toxtatildi.
**400-534 yillar** – Vandallar davlati mavjud bo`lgan.
**402 yil** - imperator Gonoriy tomonidan Ravenna shahri G`arbiy Rim imperiyasining poytaxti deb e`lon qildi.
**406 yil** – Vandal, Svev, Alan kabi german qabilalari Reyn daryosini kechib o`tib, Galliyaga bostirib kirdilar. Ular o`z yo`llaridagi barcha narsani talab, Ispaniyagacha bordilar.
**407 yil** – Rim legionlari Britaniyani tark etib, Varvarlarga qarshi kurashga yo`l oldi.
**418 yil** – Rim Vestgodlarning Akvitaniyadagi hokimiytini tan olishga majbur bo`ldi. G`arbiy imperiya hududida brinchi Varvar davlati vujudga keldi. Uning hukmdori Teodorix I edi.
**419 yil** – Vestgodlarning Tuluza qirolligiga asos solindi.
**420 yil** – vandallar Betikaga chekindi. Bu joy o`sha paytdan boshlab Andalusiya (Vandalusiya – vandallar mamlakati ) deb ataldi.
**425 yil** – Feodosiy II tomonidan Konstantilopolda xristian universiteti tashkil qilindi.
**434 yil** – lashkarboshi Aesiy Flaviy G`arbiy Rim imperiyasining amaldagi humkdoriga aylandi.
**439 yil** – Alanlar va Vandallar Shimoliy afrikada poytaxti Karfagen bo`lgan Alan-Vandal podsholigini tuzdilar.
**441 – 443 yillar** – Angl, Yut, va Saks qabilalari Britaniya orollarini bosib oldi. Britaniya aholisining bir qismi Armorika ( Britaniyani keltcha nomi ) dan boshpana topdi.
**441-447 yillar** – Atilla Sharqiy Rim imperiyasiga qarshi urush olib borgan.
**449 yil** – Britaniya anglosakslar tomonidan butunlay zabt etildi.
**450-457 yillar** – Vizantiya imperatori Marsianning hukmlronlik davri .
**451-454 yillar** – Yevroosiyo dashtlarida tashkil topgan Xunnlar imperiyasi kuchaydi.
Atilla G`arbiy Rim imperiyasiga qarshi urush olib bordi.
**453 yil** – Atilla qo`shini Galliyaga yurish qildi. Atilla nikoh kechasi yangi xotini tomonidan zaharlab o`ldirildi. V asr oxirida Yevropadagi Xunnlar davlati barham topdi.

**732 yil** – Karl Martell Arablar hujumlariga chek qo`ydi. Puate jangida arablar yengildi. Puate arablarning oyog`i tekkan eng chekka hudud.
**740-1075 yillar** - Kavkazda Darband amirligi mavjud bo`lgan.
**741-768 yillar** – Franklar Qiroli Pipin Pakana xukmronligi davri.
**742-743 yillar -** ilk o`rta asrlar davrida so`nggi ommaviy vabo epidemiyasi.
**745 yil** – Eronda Shialar qo`zg`aloni .
**750-1258 yillar** – Abbosiylar halifaligi (bag`dod halifaligi) mavjud bo`lgan. Birinchi abbosiy halifa Abul –Abbos as-Saffoh (750-754) va oxirgisi Al Mustasim (1242-1258) .
**751 yil** – Talas janggi bo`lib o`tgan.
**751 yil** – Karl Martelning o`g`li Pipin Pakana Merovinglar urug`idan bo`lgan qirol Xildevik III ni taxtdan ag`dardi.
**751-987 yillar** - Karolinglar sulolasining Frank davlatida qirollar (751 yildan) va imperatorlar (800 yildan) sifatida hukmronlik davri.
*Frank qirollari va imperatorlari:* (751-840)
*Karolinglarning Fransuz bo`g`ini:* (875-987)
*Karolinglarning German bo`g`ini:* (843-911)
*Karolinglarning Italyan bo`g`ini:* (840-905)
**756 yil** – Franklar qiroli Pipin Pakana tomonidan Rim Langobardlar tomonidan ozod qilindi. Qirol ozod qilingn yerlarni Papa ixtiyoriga berdi va Papa viloyati tashkil qilindi.
**756 yil** – Ispaniyada Abdurraxmon I ibn Muoviya ibn Xishom ibn Abdulmalik tomonidan arablarning Qurdoba amirligi tashkil topdi.
**756-1031 yillar** - Ummaviylar halifaligining Andalusiya (Ispaniya) da hukmronlik davri ( 756-929 yillarda Quydoba amirligi, 929-7031 yillarda Qurdoba halifaligi mavjud bo`lgan).
**762 yil** – Halifa Mansur tomonidan Bog`dodga asos solindi.
**768 yil 24 sentyabr –** Pipin Pakana vafot etdi. Uning o`rniga o`g`illari Karl va Karloman Franklar qiroli bo`lishdi.
**772 yil –** Franklar qiroli Karl Langobardlar qirolligiga qarshi urush harakatlarini olib bordi.
**772-802 yillar** - Franklar qiroli Karl Saksoniyada urushlar olib bordi.
**774 yil –** Karl tommonidan Langobardlar qiroli Dezideriy butunlay tor – mor qilindi.
**776 yil –** Karl Italiya yerlarini o`z qirolligiga qo`shib oldi.
**781 yil** – Arablardan mag`lubiyatga uchragan Vizantiya ularga katta miqdorda soliq to`lay boshladi.
**785-812 yillar** – Karl bosib olgan Ispaniya hududi (xozirgi Kataloniya) musulmonlar hujumidan Karolinglar imperiyasini saqlab turdi.
**778 yil -** Karl Bavariyani o`z hokimiyatiga bo`ysundirdi.
**800 yil 25 dekabr** – Rim Papasi Lev III tomonidan Frank davlati qiroli Buyuk Karl imperator deb e`lon qilindi.
**800-887 yillar** – Karolinglar imperiyasi mavjud bo`lgan.
**814 yil** - Karl o`zi qurdirgan Axen (Eks-lya-Shapel) shahrida vafot etdi.
**814-840 yillar** - Lyudovik hudojo`y hukmronlik yillari.
**815-837 yillar** – Ozarbayjonda arablarga qarshi Bobek qo`g`aloni bo`ldi.
**829 yil –** Angilya yagona davlatga birlashtirildi.
**832 yil –** Bag`dodda xalifa al-Ma`mun tomonidan " Donishmandlik uyi" tashkil qilindi.
**843 yil 10 avgust –** Verden shartnomasiga ko`ra Karolinglar saltanati bo`linib ketdi.
**843 yil –** Shotlandiya qirolligi tashkil topdi.
**843-1707 yillar** – Shotlandiy qirolligi mavjud bo`lgan.
**845 yil –** Parijni Normandlar vayron qilishdi va katta miqdorda o`lpol olishdi.
**852 yil –** Papa Lev IV tomonidan Vatikanga asos solindi.
**862/882 – 1132/1240 yillar** – Kiyev Rusi davlati mavjud bo`lgan. *Ryurikovichlar sulolasining Rusda hukmronlik davri (862/882 – 1598 yillar)*
**863 yil –** Aka-uka Krill va Mefodiy tomonidan yunon alifbosi asosida krill alifbosi yaratildi.
**867-1056 yillar –** Vizantiyada Makedoniya sulolasining hukmronlik davri.

**1066 yil –** Fransiya shimolida joylashgan Normandiya gersogi Vilgelim ko`shinlari tomonidan Angliya bosib olindi.
**1071 yil 26 avgust** – mansikert jangi (Malazgrit jangi)
**1076 yil –** Saljuqiylar Quddusni Fotimiylar qo`lidan tortib oldi.
**1076-1122 yillar** – Papa va German " Muqaddas Rim imperiyasi " o`rtasida o`zaro kurash bordi.
**1077-1307 yillar** – Anatoliyada Rum Saljuqiylari davlati mavjud bo`lgan.
**1081 yil** – Vizantiya lashkarboshisi Aleksey Komnin Vizantiyada komninlar sulolasi ( 1081-1185 yy) ga asos soldi.
**1086 yil** – Vilgelm tomonidan Angliya aholsi ro`yhatga olindi.
**1086 yil** – Angliyada " Dxshatli sud kitobi" yaratildi.
**1087 yil** – Ganada xalq qo`zg`alon ko`tarib , chet ellik bisqinchilarni o`z yerlaridan quvi chiqaradi.
**1090-1256 yillar** - Ismoiliylar davlati mavjud bo`lgan.
**1095 yil –** Papa Urban II Xristianlarni sharqdagi musulmonlarga qarshi kurashga chaqirdi.
**1096 yil –** Papaning chaqirig`iga ko`ra Amenelik Pyotr salb yurishi uchun aholini to`plaid.
**1096-1099 yillar** – Birinchi Salb yurishi.
*Olomonning salb yurishi: 1096-1099.*
*Edessa grafligi – salbchilat tomonidan tuzilgan birinchi davlat , 1098-1146 yillarda mavjud bo`lgan.*
*Quddus qirolligi – birinchi salib yurishidan so`ng salibchilar tashkil qilgan qirollik.*
*Ikkinchi salib yurishi: 1147-1149 .*
*Uchinchi salib yurishi ( qirollar salb yurishi ): 1189-1192.*
*To`rtinchi salib yurishi; 1202-1004.*
*Beshinchi salib yurishi: 1017-1221.*
*Oltinchi salib yurishi: 1228-1229 .*
*Yettinchi salib yurishi: 1248-1254 .*
*Sakkizinchi salib yurishi: 1270 .*
*Yevropadagi salib yurishi ( 1147-1444)*
*Slavyanlarga qarshi salib yurishlari (1147)*
*Shimoliy salib yurishlari (1193-1240)*
*Estoniyaga qarshi Daniyaning salib yurishlari (1219)*
*Finlandiya va Rusga qarshi salib yurishlari (1232-1240)*
*Smirnaga qarshi salib yurishlari (1343-1444)*
*Usmonli turklarga qarshi salib yurishlari (1396)*
*Varnaga qarshi salib yurishlari (1443-1444)*
**1099 yil** – Salibchilar Bul`onlik Gotfrid boshchiligidagi Quddusni egalladi.
**XII asr –** Inklar davlati tashkil topdi. Yaponiyada imperator hokimiyati vujudga keldi.
**1100 yil** – g`arbiy Yevropada spirt ishlab shiqarish ixtiro qilindi.
**1106 yil** – Fransiya shimolidagi Lans senori yepiskom Godri shahar aholisiga katta to`lov evaziga qirol tasdiqlagan erkinlik yorlig`ini berdi.
**1119 yil -** Quddusda tampliyerlar ordeni tashkil qilindi.
**1132- 1471 yillar -** Kiyev knyazligi mavjud bo`lgan.
**1136-1478 yillar** – Novgord Respublikasi Rusning shimoli g`arbi va shimolida mavjud bo`lgan.
**1138-1250 yillar** – Konrad III Gogenshtaufen Germaniyada asos solgan gogenshtaufenlar sulolasi Muqaddas Rim imperiyasini boshqardi.
**1143 yil 5 oktyabr** – mustaqil Portugaliya qirolligi tashkil topdi.
**1147 yil –** Moskva to`g`risidagi dastlabki ma`lumot solnomada berilgan.
**1148 yil –** G`uriylar sulolasi vakillari G`uriylar davlatiga sos solishdi.
**1148-1215 yillar** – G`uriylad davlati mavjud bo`lgan.
**1150 yil** – Kiyev Rusi bir qancha mustaqil knyazliklarga bo`linib ketdi.
**1154 yil** – Muqaddas Rim imperiyasida diniy hokimiyat bilan qirollar o`rtasida ziddiyatlar boshlandi.

*Toskaniya buyuk gersogligi (1765-1860)*
*Gabsburglar – lotaringlar xonadoni (1765-1918)*
**1291 yil 1 yanvar** – Shveysariya davlati e`lon qilindi.
**1292-1320 yillar** – Dehli sultonligida Turkiy Xaljiylar sulolasi faoliyat yuritgan.
**1302 yil –** Fransiyada General shtatlar ish boshladi.
**1309 yil** - Rim papasi Kliment V papalik qarorgoxini Avinonga ko`chirdi.
**1314 yil –** Robert Byust boshchiligidagi Shotlandlar Eduard II rahbarligidagi inglizlar ustidan Bannokberi yaqinida bo`lgan jangda g`alaba qozondi.
**1320-1413 yillar** – Dehli sultonligida Turkiy Tug`luqiylar sulolasi faoliyat yuritgan.
**1325-1521 yillar** – Asteklar imperiyasini Akamapichtili sulolasi boshqardi.
**1328-1589 yillar** – Valua Fransuz qirollari sulolasining hukmronlik davri.
*Value sulolasi (1328-1498)*
*Orlean shajarasi (1498-1515)*
*Angulem shajarasi (1515-1589)*
**1337-1453 yillar** – Angliya bilan Fransiya o`rtasida Yuz yillik urush bo`lib o`tgan.
**1340 yil** – inglizlar bilan Fransuzlar o`rtasida Sleys dengiz jangi bo`lib o`tadi.
**1343 yil** – angliyada parlament ikki palataga bo`lindi.
**1346 yiil** – eng daxshatli qora o`lat epidemiyasi Yevropada boshlandi.
**1348 yil** – Praga universiteti ochildi.
**1350 yil** – Siyom (Ayutiya ) qirolligiga asos solindi.
**1351 yil** – xitoyda Dehqonlar qo`zg`aloni.
**1358 yil 22 fevral** – Parij qo`zg`aloni.
**1358 yil may** – Fransiyaning shimoli sharqida Bove muzofotida dehqonlar qo`zg`aloni.
**1364 yil –** Ava (Markaziy Birma) davlati tashkil topdi.
**1365 yil 12 mart** – Vena universiteti tashkil topdi.
**1368-1644/1662 yillar –** Buyuk Min imperyasi mavjud bo`lgan.
**1370 yil 24 may** – Daniya qiroli Valdemar IV bilan Ganza ittifoqi o`rtasida Shtralzund sulhi tuzildi.
**1371-1714 yillar (*Shotlandiya*) va 1603-1649, 1660-1714 yillar (*Angliya*) –** Styuartlar qirollar sulolasining hukmronlik davri.
**1386 yil 1 oktyabr** – Germaniya hududida eng qadimgi Heydelberg universiteti tashkil topdi.
**1389 yil 28 iyun** – Kosova jangi bo`ldi.
**1391 yil** – Tibetda Dalay lama unvoni joriy etildi.
**1392-1910 yillar** – Koreyada Li sulolasining hukmronlik davri.
**1397 yil** – Londondagi Blekuelxoll birinchi yopiq bozori ochildi.
**1399 yil** – Angliyada Plantagenrtlar sulolasi tugatildi va qirol Genrix IV tomonidan Lankasterlarning hukmronlik davri .
**1399-1461 yillar** – Lankasterlar qirollar sulolasining Angliyadagi hukmronlik davri.
**1405 yil 8 fevral – 1453 yil 29 may** – Vizantiya imperatori Konstantin XI Paleolog yashagan va faoliyat yuritgan yillari.
**1409 yil** – Bryuggerda savdo birjasi ochildi.
**1414-451 yillar** – Dehli sultonligida Turkiy Sayyidlar sulolasi hukmronlik davri.
**1415-1918 yillar** – Gogensollerlar sulolasining hukmronlik davri.
**1417 yil** – Konstansadagi saborda Martin V papa qilib saylandi. "Buyuk ajralish" davri hamtugadi.
**1418 yil** – Angliya qiroli Genrix V Normandiyani bosib oldi.
**1420 yil** – Fransiya qiroli Karl VI Fransiya uchun tahqirli Trua shartnomasini imzoladi.
**1422 yil** – Angliya qiroli Genrix V 36 yoshida vafot etdi. Hokimiyat tepasiga olti oylik o`g`li Genrix VI keldi.
**1422 yil –** fransiya qiroli Karl VI vafot etdi .
**1428 yil** – Astek imperiyasi tashkil qilindi.

**1431 yil** – Parijdagi Bibi Mariyam ibodatxonasidagi saborda Genrix VI Fransiya va Angliya qiroli deb e`lon qilinadi.
**1438 yil** – Gabsburglar sulolasi vakili Albert Gabsburg Germaniya imperatori qilib saylandi.
**1438-1533 yillar** – hozirgi Peru hududida Inklar davlati Tauantinsuyu mavjud bo`lgan.
**1451-1526 yillar** – Dehli sultonligida Afg`on Ludiylar sulolasi faoliyat yuritgan.
**1453 yil 29 may** – Konstantinopol shahri Usmonli Turk qo`shinlari tomonidan egallandi.
**1453 yil –** Istanbul Buyuk usmonli turk sutonligining yangi poytaxtiga aylantirildi.
**1458 yil -** Asteklar davlati Markaziy Meksikada (Meksika qo`ltig`idan Tinch okeanigacha) o`z hukmronligini o`rnatdi.
**1459 yil –** Hojitarxon xonligiga asos solindi.
**1459-1556 yillar** – Hojitarxon xonligi mavjud bolgan.
*Hojitarxon xonligi hukmdorlarining , birinchisi Said Mahmud , oxiri Yamg`urchi hisoblanadi.*
**1461-1485 yillar** – Yorklar qirollar sulolasining Angliyadagi hukmronlik davri.
**1462 yil** – Lionda savdo birjasi ochildi.
**1465-1729 yillar** – Qozoq xonligi mavjud bo`lgan.
**1480 yil –** Ispaniyada inkvizitsiya ta`sis etildi.
**1485-1603 yillar** – Tyudorlar Angliya qirollari sulolasining hukmronlikdavri.
**1490-1588 yillar** – Me`mor Xo`ja Sinon Usmonli turk sultonligida yashagan va faoliyat yuritgan.
**1490-633 yillar** – Ahmadnagar davlati (Hindiston; Dekanning shimoli g`arbida) ni Nizomshohlar boshqargan davr.
**1491 yil –** qirol Karl VIII Bretan gersogi qizi Annaga uylandi.
**1492 yil 3 avgust** – Xristofor Kolumb (genuyalik dengizchi ) o`zining 92 kishilik jamoasi bilan 3 ta kema : Niniya, Pinta va Santa – Mariya da ispan porti Palasdan Hindiston tomon dengiz sayohatiga chiqdi.
**1492 yil –** Xrisrianlar tomonidan Yevropadagi so`ngi hududi – Genada bosib olindi. Musulmonlar qatl qilindi. yahudiylar Ispaniyadan badarg`a qilindi.
**1492 yil –** Arab xalifaligi mustamlakasi Ispaniya mustaqillikka erishdi.
**1497-1949 yillar** – Britaniya imperiyasi mavjud bo`lgan.

**Jahon tarix fanidan 2- kurslar uchun "Yakuniy nazorat" test savollari**

**1.**G'arbiy Yevropada "Votchina" yer egalik shakli qachon shakllangan ?
A) XII asr boshi **.** **B) XIII asr oxiri.** C) XI asr boshi. D) X asr.
**2.** O'rta asrlar tarixiga oid manbalar, ma'lumotlarni qayd etish usullariga, qarab necha turga bo'linadi ?
**A) 5** B) 3 C) 6 D) 4
3. **" Bulla"….. bu ?**
A) Oltin muxr. B) Hujjat. **C) Qo'rg'oshinli muxr**. D) Yorliq.
**4.** Yevropada**" Xudoning balosi"** nomini olgan shaxs ?
A) Odoakr. B) Iordan. C) Teodorix. **D) Attila**
**5."Franklar tarixi"** asari muallifini aniqlang ?
**A) Turskiy**. B) Sigibert. C) Xlotar. D) Fredegonda.
**6." Mamlakatni faqat yepiskoplar boshqarmoqda"** degan so'zni cherkovga nisbatan qaysi qirol qo'llgan ?
A) Xlodvig. **B) Xilperik.** C) *Dagobert.* D)Xlotar.
**7.** Buyuk Karlni oddiy hayot kechirishga moyil inson deb tavsiflagan tarixchini aniqlang ?
A)Turskiy. B) Maas. **C) Eyngard.** D) Alkuin.
**8.** Buyuk Karl hukmronligining so'nggi yillarda qaysi shaharda ko'proq to'xtagan?
A) Pyotr. B) Lukka C) Pavi **D)Axen.**
**9.** Konstantinopolga qaysi shahardan zig'irpoyadan tayyorlangan movut gazlamalar olib kelingan ?
**A) Suriya.** B) Misr. C)Bayrut. D) Efes.
**10. " Kuriallar bu …?**
A) Maxsus sport jamoalari. B) Erkin dehqonlar.
**C) Quldor zodogonlar**. D) Qul
**11.** Afina oliy maktabi qachon yopib qo'yilgan ?
A) 543-yil**.** **B) 529-yil.** C)523-yil. D)534-yil.
**12.**Vizantiyada bolib o'rgan qaysi qo'zg'olonda 30 ming kishi halok bo'lgan?
A) Sitsiliya. B) Suriya. **C) Nika.** D) Antioxiyada.
**13.** Vizantiya imperatori Yustinian qaysi davlat bilan uch marta sulh tuzgan?
A) Armaniston. B)Ispaniya. C) Suriya. **D) Eron.**
**14. X** asrda tuzilgan qonunlar to'plami **"Eparx kitobi"** da nechta sex tilga olinadi?
**A) 22 .** B) 43. C) 32 . D)20 .
**16.** Bolgariya davlati qaysi podsho davriga kelib gullab – yashnagan?
A)Pyotr. B) Asparux. **C) Simeon.** D) Vasiliy.
**17.** "**Donjon" bu …. ?**
A) Yo'lak. B) Ibodatxona. C) Ko'cha. **D) Qal'a.**
**18.** Italiyani qaysi shahriga nisbatan **"Eng boy, gullab - yashnagan, mashhur va chiroyli shahri"**deb tarif berilgan ?
A) Lukka**.** **B) Amalifi.** C) Milan. D)Paviya
**19.** 419 yilda bo'ib otgan voqeani toping ?
A) Rim legionlari Britaniyani tark etib, Varvarlarga qarshi kurashga yo`l oldi.
B) Rim Vestgodlarning Akvitaniyadagi hokimiytini tan olishga majbur bo`ldi.
**C)Vestgodlarning Tuluza qirolligiga asos solindi.**
D) Vandallar Betikaga chekindi.
**20.** 951 – yilda qaysi German imperatori Shimoliy Italiya hududiga yurish olib boradi?
A) Genrix I **B) OttonI** C) Otton III D) Genrix II
**21.** Bag'dod shaxriga kim asos solgan ?
A)Xalifa Ma'mun B)Xalifa Amin **C)Xalifa Mansur** D) Xalifa Horun
**22.** Ilk o' rta asrlarda Angliyada yirik yer egalari qanday nomlangan ?

A) Gayda B) Folklend C)Kerl **D)Erl**

**23.** Qaysi Uesseks qiroli Vikinglar bilan tinchlik sulhi tuzgan?

**A) Buyuk Alfred**. B) Gutrum. C) Offa. D) Ekbert.

**25.**G'arbiy Slavyanlarni VI– asrdagi eng xavfli dushmanni aniqlang ?

A) Xazar xoqonligi. B) Serb. **C) Avar.** D)Lyutich.

**27.** XI asrda Kiyev Rus davlatida shaharlar soni nechtaga yetgan?

A)23 **B) 62** C) 56 D) 34

**29.** Kiyev Rusi davlatida feodaldan qarzga don, pul olgan dehqon qanday nomlangan?

A)Ryad. B) Smerd. C) Xolop. **D) Zakup.**

**30.** XII asrda Kiyev Rus davlatida shaharlar soni nechtaga yetgan?

**A) 119** B) 122 C) 110 D) 112

**31.** Kiyev Rus Kyazlaridan qaysi biri qipchoqlar xoni qizga uylanadi ?

A) Yaroslav B)Vladimir **C) Svyatopolk** D) Svetoslav

**32.** IX – X asrlarda Kiyev Rus davlatida shaharlar soni nechtaga yetgan ?

A) 21 **B) 24** C) 34 D)28

**34.** Angliyada yirik oilalar yerlari qanday nomlangan?

A) Erl. B)Kerl. C) Smerd. **D) Gayda**.

**36.** Italiyada Libellyar yerlar qancha muddatga ijaraga berilgan?

A) 50 yil. B) 38 yil. **C) 29 yil.** D) 27 yil.

**37.** Makedoniya sulolasi asoschisini aniqlang?

A) Andronik. B) Teodorix. C) Aleksey. **D) Vasiliy I**

**38.** Konstantinopolda qachon Nika qo'zg'oloni bo'lib o'tdi ?

A) 543- yil **B) 532 -yil** C) 521- yil D) 525 yil

**39.** Afina oliy maktabi qaysi Vizantiya imperatori buyrig'i bilan yopib qo'yilgan?

**A) Yustinian**. B) Dagobert. C) Aleksey. D) Valisariy.

**40.** Nika qo'zg'olonini kim bostirgan?

A)Valisariy. **B) Feodora.** C) Yustinian. D) Aleksey.

**41.**Vizantiyada qaysi yilda bir marta mol – mulk ro'yxatda olinadi ?

A) 20 yil. B)12 yil. **C) 15 yil.** D) 10 yil.

**45.** Franklarda iltimosga binoan beriladigan yer egaligi qanday nomlangan?

A) Gayda. B) Zakup. **C) Prekariy.** D) Ryad.

**46.** To'gri javobni toping?

A) 551-704 yillar – G`arbiy turk xoqonligi mavjud bo`lgan.

B) 611-617 yillar - Eron shohi Xusrav II Antioxiya, Kappadokiya, Sisiliya va Falastinni egalladi.

C) 618-967 yillar – Xitoyda Li Yuanyu tomonidan Tan imperiyasiga tashkil qilindi.

**D) 647-649 yillar - Musulmonlarning birinchi dengzi ekspeditsiyasi Kiprni egalladi.**

**47.** *Muqaddas Rim imperiyasini boshqargan sulolalar no'to'ri berilgan qatorni toping?*

*A) Frankonlar sulolasi (1024-1137) B) Shtaufenlar sulolasi (1138-1330)*

***C) Lyuksemburglar (1331-1437)*** *D) Gabsburglar (1438-1745)*

**48.** Pavlikianlik harahati Vizantiyaning qaysi hududida bo'lib o'tgan ?

A) Kavkazda. B) Shimoliy Afrika. **C) Kichik Osiyoda**. D) Surida.

**49.** Vizantiya saroyida davlat boshqarmalar soni nechta bo'lgan ?

A) 40 B) 50 C) 45 **D) 60**

50. 973 yilda sodir bo'gan voqeani aniqlang?

**A) Qoxirada mashxur al-Azhar universiteti tashkil qilindi.**

B) Parijni Normandlar vayron qilishdi va katta miqdorda o`lpol olishdi.

C) Xitoyda Xuan Chao boshchiligida dehqonlar qo`zg`aloni bo`lib o`tdi.

D) Fotimiylar xalifaligi tashkil topdi.

51. **GEROLD** bu- ….

**A) O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi xabarchi, qirol va yirik mulkdorlar xonadonida** marosimlarni boshqaruvchi, tantana, ritsarlar kurashi va boshqa mutasaddisi.
B) o'rta asrlarda Ispaniyada oliy dvoryanlik; XVI-XX asrlarda dvoryanlik unvoni.
C) Fransiyada 1246-yili joriy etilgan tuz solig'i. Dastlab vaqti-vaqti bilan undirib turilgan.
D) o'rta asrlarda Angliyada merosiy yoki umrbod foydalanilgan feodal mulk; ritsarlik, dehqonlar, shahar yoki cherkovniki bo'lishi mumkin edi
52. **MARKIZ** – terminiga no'to'ri ta'rif berilgan javobni toping ?
A) Franklar davlatida markgrafga to'g'ri keluvchi unvon.
B) O'rta asrlarda Fransiya va Italiyada yirik mulkdor, o'z mavqeiga ko'ra tabaqaviy pog'onada gertsog va graf o'rtasida turgan.
C) Fransiya va Italiyada, XIV-XV asrlardan esa Anliya, Ispaniya va Portugaliyada merosiy dvroyanlik unvoni.
**D) Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirolga bo'ysungan amaldor shaxs, markalarda keng ma'muriy, harbiy va sudlov vakolatlariga ega bo'lgan.**
53. **1261-1453 yillarda** Vizantiya imperiyasini qaysi sulola boshqargan?
A) Makediniya **B) Paleologlar** C) Kominlar D) Yulianlar
54. 1350 yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang ?
A) Eng daxshatli qora o`lat epidemiyasi Yevropada boshlandi.
B) Praga universiteti ochildi.
**C) Siyom (Ayutiya ) qirolligiga asos solindi.**
D) Xxitoyda Dehqonlar qo`zg`aloni.
55. 1346 yilda sodir bo'lgab voqeani aniqlang?
**A) eng daxshatli qora o`lat epidemiyasi Yevropada boshlandi.**
B) Praga universiteti ochildi.
C) Siyom (Ayutiya ) qirolligiga asos solindi.
D) Xitoyda Dehqonlar qo`zg`aloni.
56. 1348 yilda sodir bo'lgab voqeani aniqlang?
A) eng daxshatli qora o`lat epidemiyasi Yevropada boshlandi.
**B) Praga universiteti ochildi.**
C) Siyom (Ayutiya ) qirolligiga asos solindi.
D) xitoyda Dehqonlar qo`zg`aloni.